

V.R. TOPILDIEV

# FUQAROLIK HUQUQI



«YURIDIK ADABIYOTLAR PUBLISH»

V.R. TOPILDIEV

# FUQAROLIK HUQUQI

UMUMIY QISM

DARSLIK

*(60420100 – yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi  
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan)*

Toshkent  
«Yuridik adabiyotlar publish»  
2022

**UO'K: 347(075)**  
**KBK: 67.404ya7**  
**T 67**




**O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK  
NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON  
MILLIY  
UNIVERSITETI**

**V.R. TOPILDIEV**

Fuqarolik huquqi. Darslik.  
Umumiy qism. – Toshkent:  
Yuridik adabiyotlar Publish,  
2022-y. – 592 bet.



**Muallif:**

**V.R. TOPILDIEV,**

yuridik fanlar doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**R. RO'ZIEV,**


yuridik fanlar doktori, professor

**S. BOBOQULOV,**

yuridik fanlar doktori, professor

Ushbu darslikda fuqarolik huquqi tushunchasi, predmeti, tizimi va manbalari, fuqarolik huquqining subyektlari va obyektlari, fuqarolik huquqida bitimlar, vakillik va ishonchnoma, muddatlar va da'vo muddatlari, mulk huquqi, mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo'lish asoslari, mulk huquqining asosiy tamoyillari, mulk shakllari, ashyoviy huquq va uning turlari, xususiy va ommaviy mulk huquqi, mulk huquqini himoya qilish, majburiyat huquqi, majburiyatlarning vujudga kelishi, majburiyat subyektlari va obyektlari, majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullari, majburiyatlarning bekor bo'lishi, shartnoma huquqi, shartnomalarning turlari, shartnomalarni tuzish va bekor qilish bilan bog'liq masalalar amaldagi qonunchilik asosida yoritib berilgan.

ISBN 978-9943-8523-2-7



9 789943 852327

© V.R. Topildiyev, 2022-y.

© Yuridik adabiyotlar publish, 2022-y.

# MUNDARIJA

	<b>Kirish</b> .....	11
<b>I bob.</b>	<b>FUQAROLIK HUQUQINING UMUMIY QOIDALARI</b> .....	14
1-§.	Fuqarolik huquqi tushunchasi va predmeti .....	14
2-§.	Fuqarolik huquqining predmeti sifatida mulkiy munosabatlar .....	18
3-§.	Fuqarolik huquqining predmeti sifatida shaxsiy nomulkiy munosabatlar .....	23
4-§.	Fuqarolik huquqining predmeti sifatida tashkiliy munosabatlar .....	25
5-§.	Fuqarolik huquqining metodi va vazifalari .....	30
6-§.	Fuqarolik huquqining tamoyillari .....	33
7-§.	Fuqarolik huquqi tizimi.....	41
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar ...	42
<b>II bob.</b>	<b>FUQAROLIK-HUQUQIY TIZIMLAR</b> .....	44
1-§.	Fuqarolik-huquqiy tizimlar tushunchasi.....	44
2-§.	Qit'a huquq tizimi .....	45
3-§.	Ingliz-amerika huquq tizimi.....	54
4-§.	Musulmon huquq tizimi .....	61
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	68
<b>III bob.</b>	<b>FUQAROLIK HUQUQINING MANBALARI</b> ....	70
1-§.	Fuqarolik huquqi manbalari tushunchasi va turlari .....	70
2-§.	Fuqarolik qonunlarining vaqt, hudud va shaxslar bo'yicha amalda bo'lishi .....	78
3-§.	Fuqarolik huquqida qonun analogiyasi va huquq analogiyasi.....	80
4-§.	Fuqarolik-huquqiy normalarni sharhlash va ularning turlari.....	81
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	84

<b>IV bob.</b>	<b>FUQAROLIK HUQUQ VA BURCHLARINING VUJUDGA KELISHI .....</b>	<b>86</b>
1-§.	Fuqarolik huquqiy munosabat tushunchasi.....	86
2-§.	Fuqarolik huquqiy munosabatlarning turlari.....	89
3-§.	Fuqarolik huquqlari va burchlarining vujudga kelish asoslari .....	92
4-§.	Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish tartibi.....	96
5-§.	Fuqarolik huquqlarining himoya qilinishi .....	97
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	100
<b>V bob.</b>	<b>FUQAROLIK HUQUQINING SUBYEKTI SIFATIDA FUQAROLAR.....</b>	<b>101</b>
1-§.	Fuqarolarning huquq layoqati .....	101
2-§.	Fuqarolarning muomala layoqati.....	103
3-§.	Vasiylik va homiylik .....	109
4-§.	Xususiy tadbirkor fuqarolarning huquqiy maqomi.....	114
5-§.	Fuqarolarning turar joyi .....	116
6-§.	Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki vafot etgan deb e'lon qilish.....	118
7-§.	Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish.....	121
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	124
<b>VI bob.</b>	<b>FUQAROLIK HUQUQINING SUBYEKTI SIFATIDA YURIDIK SHAXSLAR .....</b>	<b>126</b>
1-§.	Yuridik shaxs tushunchasi .....	126
2-§.	Yuridik shaxslar to'g'risidagi nazariyalar .....	130
3-§.	Yuridik shaxsning huquq layoqati va muomala layoqati .....	133
4-§.	Yuridik shaxslarning vujudga kelish va bekor bo'lish tartibi .....	135
5-§.	Yuridik shaxslarning turlari.....	142
6-§.	Yuridik shaxslarning filiallari va vakolatxonalari ....	143
7-§.	Yuridik shaxslarning tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlariga bo'lgan huquq .....	144
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	148

<b>VII bob. TIJORATCHI YURIDIK SHAXSLAR .....</b>	<b>150</b>
1-§. Tijoratchi tashkilotlar tushunchasi .....	150
2-§. Xo'jalik shirkatlari – yuridik shaxs sifatida .....	151
3-§. Xo'jalik jamiyatlari – yuridik shaxs sifatida.....	159
4-§. Aksiyadorlik jamiyatlari yuridik shaxs sifatida ....	165
5-§. Davlat korxonalari – yuridik shaxs sifatida .....	173
6-§. Ishlab chiqarish kooperativlari – yuridik shaxs sifatida .....	178
7-§. Xususiy korxonalar – yuridik shaxs sifatida .....	180
Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar ....	184
<b>VIII bob. NOTIJORAT YURIDIK SHAXSLAR.....</b>	<b>186</b>
1-§. Notijorat tashkilotlar tushunchasi.....	186
2-§. Matlubot kooperativi – yuridik shaxs sifatida.....	190
3-§. Jamoat birlashmalari – yuridik shaxs sifatida.....	191
4-§. Jamoat fondi – yuridik shaxs sifatida .....	195
5-§. Muassasalar – yuridik shaxs sifatida .....	200
6-§. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs sifatida.....	202
7-§. Yuridik shaxslarning birlashmalari .....	206
Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar ....	212
<b>IX bob. DAVLAT FUQAROLIK HUQUQIY MUNOSABATLAR SUBYEKTI SIFATIDA .....</b>	<b>214</b>
1-§. Davlat to'g'risida umumiy qoidalar .....	214
2-§. Davlat mamlakatning ichki muomalasida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning subyekti.....	223
3-§. Davlat mamlakatning tashqi muomalasida fuqarolik huquqiy munosabatlarning subyekti .....	225
Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar ..	228
<b>X bob. FUQAROLIK HUQUQINING OBYEKTALARI ...</b>	<b>229</b>
1-§. Fuqarolik huquqi obyektlari tushunchasi va turlari.....	229
2-§. Ashyolar fuqarolik huquqining obyekti sifatida .....	230
3-§. Mol-mulklar fuqarolik huquqining obyekti sifatida .....	235

4-§.	Pullar va qimmatli qog'ozlar – fuqarolik huquqining obyektini sifatida .....	236
5-§.	Nomoddiy ne'matlar tushunchasi va tarkibi .....	239
6-§.	Intellectual faoliyat natijalari, xizmat va tijorat siri – fuqarolik huquqining obyektini sifatida .....	243
7-§.	Ishlar va xizmatlar – fuqarolik huquqining obyektini sifatida .....	246
8-§.	Nomulkiy huquqlar tushunchasi va belgilari .....	248
9-§.	Sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini fuqarolik-huquqiy himoya qilish.....	252
10-§.	Fuqaroning ismga bo'lgan huquqi va uni fuqarolik huquqiy himoya qilish .....	255
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	257
<b>XI bob.</b>	<b>FUQAROLIK HUQUQIY BITIMLAR</b> .....	<b>258</b>
1-§.	Bitimlar tushunchasi va turlari.....	258
2-§.	Bitimlarning muddatlari va shartli bitimlar.....	261
3-§.	Bitim shakllari.....	262
4-§.	Birja bitimlari.....	266
5-§.	Bitimning haqiqiy sanalish shartlari .....	270
6-§.	O'z-o'zidan haqiqiy sanalmaydigan bitim turlari va ularning huquqiy oqibatlari .....	273
7-§.	Nizoli bitimlarning turlari va ularning haqiqiy sanalmasligi oqibatlari.....	275
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	279
<b>XII bob.</b>	<b>VAKILLIK VA ISHONCHNOMA</b> .....	<b>280</b>
1-§.	Vakillik tushunchasi .....	280
2-§.	Vakolat va uning turlari .....	282
3-§.	Ishonchnoma .....	284
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar ..	288
<b>XIII bob.</b>	<b>MUDDATLAR. DA'VO MUDDATI</b> .....	<b>290</b>
1-§.	Muddat va da'vo muddatlari tushunchasi.....	293
2-§.	Da'vo muddatining turlari.....	294
3-§.	Da'vo muddatining o'ta boshlashi .....	304

4-§.	Da'vo muddati o'tishining to'xtatilishi, uzilishi va da'vo muddatining tiklanishi.....	306
5-§.	Da'vo muddati o'tishining oqibatlar.....	307
6-§.	Da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar.....	309
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	311
<b>XIV bob.</b>	<b>MULK HUQUQI</b> .....	312
1-§.	Mulk huquqi tushunchasi va tamoyillari.....	312
2-§.	Mulk huquqining mazmuni.....	314
3-§.	Mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo'lish asoslari .....	319
4-§.	Mulk shakllari.....	324
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	326
<b>XV bob.</b>	<b>XUSUSIY MULK HUQUQI</b> .....	327
1-§.	Xususiy mulk huquqi tushunchasi va uning ahamiyati.....	327
2-§.	Xususiy mulk huquqi subyektlari.....	330
3-§.	Xususiy mulk huquqi obyektlari .....	332
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	335
<b>XVI bob.</b>	<b>OMMAVIY MULK HUQUQI</b> .....	336
1-§.	Ommaviy (davlat) mulk huquqi tushunchasi va turlari.....	336
2-§.	Ommaviy mulkning zarurati va manbalari .....	345
3-§.	Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish.....	346
4-§.	Davlat korxonasi, muassasalari va davlat ijara korxonasining mol-mulki .....	350
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	353
<b>XVII bob.</b>	<b>UMUMIY MULK HUQUQI</b> .....	354
1-§.	Umumiy mulk huquqi tushunchasi va turlari.....	354
2-§.	Umumiy ulushli mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish.....	356
3-§.	Umumiy mulkdan ulush ajratish va uni taqsimlash .....	359



4-§.	Er-xotinlar o'rtasidagi mulk huquqi.....	360
5-§.	Dehqon va fermer xo'jaligining mulk huquqi .....	362
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	363
<b>XVIII bob. ASHYOVIY HUQUQLAR .....</b>		<b>364</b>
1-§.	Ashyoviy huquq tushunchasi va turlari.....	364
2-§.	Xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi.....	372
3-§.	Meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi .....	382
4-§.	Yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi.....	383
5-§.	Servitut huquqi .....	384
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	387
<b>XIX bob. MULK HUQUQINI HIMOYA QILISHNING FUQAROLIK HUQUQIY USULLARI .....</b>		<b>389</b>
1-§.	Mulk huquqini himoya qilish usullari.....	389
2-§.	Vindikatsion da'volar .....	395
3-§.	Negator da'volar .....	399
4-§.	Mulkiy huquqni fuqarolik huquq normalari bilan himoya qilishning boshqa usullari .....	400
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	403
<b>XX bob. MAJBURIYAT HUQUQI TUSHUNCHASI VA MAZMUNI.....</b>		<b>404</b>
1-§.	Majburiyat huquqi tushunchasi.....	404
2-§.	Majburiyatlarning turlari.....	407
3-§.	Majburiyatlarning vujudga kelish asoslari.....	411
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	414
<b>XXI bob. MAJBURIYAT HUQUQI SUBYEKTLARI.....</b>		<b>415</b>
1-§.	Majburiyatda qatnashuvchi taraflar .....	415
2-§.	Majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishi.....	421
3-§.	Regress majburiyat.....	424
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	425

**XXII bob. MAJBURIYATLARNI BAJARISH**..... 426

1-§.	Majburiyatlarni bajarish tushunchasi.....	426
2-§.	Majburiyatlarni bajaruvchi subyektlar.....	430
3-§.	Bajarish predmeti .....	432
4-§.	Majburiyatni bajarish muddati, joyi va usuli .....	434
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	438

**XXIII bob. MAJBURIYATLARNING BAJARILISHINI TA'MINLASH USULLARI**..... 440

1-§.	Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash tushunchasi .....	440
2-§.	Neustoyka .....	441
3-§.	Garov .....	450
4-§.	Qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish .....	464
5-§.	Kafillik .....	466
6-§.	Kafolat.....	469
7-§.	Zakalat.....	472
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	474

**XXIV bob. MAJBURIYATLARNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK**..... 475

1-§.	Majburiyatlarning buzilishi va fuqarolik huquqiy javobgarlik tushunchasi .....	475
2-§.	Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik tushunchasi .....	480
3-§.	Qarzdorning zararni to'lash majburiyati .....	492
4-§.	Qarzdorning javobgarlikdan ozod qilinishi asoslari .....	495
5-§.	Majburiyatning qarzdor va kreditor tomonidan kechiktirilishi oqibatlari .....	498
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	502

**XXV bob. MAJBURIYATLARNING BEKOR BO'LISHI**..... 503

1-§.	Majburiyatlarning bekor bo'lish tushunchasi.....	503
2-§.	Majburiyatlarning bajarilishi bilan bekor bo'lishi .....	503

3-§.	Voz kechish haqini berish va majburiyatlarning hisobga o'tkazish yo'li bilan bekor bo'lishi .....	506
4-§.	Majburiyatlar bekor bo'lishining ayrim turlari ....	508
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar .....	514

## **XXVI bob. SHARTNOMA TO'G'RISIDA UMUMIY**

### **TUSHUNCHALAR .....**

		515
1-§.	Shartnoma tushunchasi va uning ahamiyati .....	515
2-§.	Shartnomalarning turlari.....	518
3-§.	Shartnomaning mazmuni .....	522
4-§.	Shartnoma tuzish.....	524
5-§.	Shartnomani majburiy ravishda tuzish .....	527
6-§.	Kimoshdi savdosida shartnomalar tuzish .....	531
7-§.	Ommaviy shartnoma.....	534
8-§.	Qo'shilish shartnomasi .....	537
9-§.	Dastlabki shartnoma.....	538
10-§.	Uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar .....	545
11-§.	Tashkiliy shartnomalar .....	548
12-§.	Shartnomalarni o'zgartirish va bekor qilish .....	553
13-§.	Shartnomani o'zgartirish va bekor qilishning oqibatlari.....	555
	Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar.....	557
	Vaziyatli masalalar .....	558
	Glossariy .....	576
	Foydalanilgan adabiyotlar .....	586

## KIRISH

Milliy huquq tizimida O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi alohida o'ringa ega. Fuqarolik huquqi jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish, shuningdek, O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan kelib chiqib o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik huquqi rivojlangan har qaysi huquq tizimining mustaqil va muhim sohalaridan biri hisoblanib, u qadimgi Rim davlatida shakllangan huquq tizimining dastlabki poydevori sifatida vujudga kelgan. O'sha davrda sodir etilgan barcha xatti-harakatlar, dastlab fuqarolik huquqiy normalari bilan tartibga solingan.

So'nggi yillarda fuqarolik-huquqiy munosabati ishtirokchilarining tengligi, mustaqilligi, tashabbuskorligiga keng yo'l ochildi, fuqarolik huquqi tomonidan huquqiy tartibga solinadigan munosabatlar doirasi g'oyat kengaydi, mulkiy munosabatlarda xususiy mulk, tadbirkorlik bilan bog'liq va ularni mustahkamlovchi bir qator yangi huquq institutlari joriy etildi hamda fuqarolik-huquqiy munosabatlarida ishbilarmonlik obro'si, ma'naviy zararni moddiy qoplash g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan me'yorlar fuqarolik muomalasiga ilk bor kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «O'tgan davrda qabul qilingan 400 ga yaqin yaxlit qonunlar hayotimizning barcha sohalarini huquqiy tartibga solish bilan birga, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ayni vaqtda qonunlarning to'liqligi, hayotiyligi va to'g'ridan to'g'ri amalga oshirish mexanizmlariga ega ekani haqida so'z yuritganda, bu borada hali ko'p ishlashimiz kerakligini ta'kidlash zarur. Afsuski, hozirgi kunda qonunlarning islohotlar samarasiga ta'siri yetarlicha sezilmayapti. Ularning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi roli pastligicha qolmoqda. Bu holat mamlakatimiz qonunchilik tizimiga fuqarolarimiz,

tadbirkorlar, qolaversa, chet el investorlarining ishonchsizligini keltirib chiqarishi mumkinligini unitmasligimiz kerak»<sup>1</sup>.

XXI asrda O'zbekiston ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish ustuvor vazifalardan biridir. Bu esa, o'z navbatida, huquqshunos olimlarimiz zimmasiga tegishli o'quv fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlarni hozirgi davr talabi va ilm-fanning so'nggi yutuqlarini hisobga olgan holda yangilab borish, o'zbek tilida o'quv adabiyotlarini yaratish vazifasini yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarini yangi avlod o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash, talaba-o'quvchilarning komil inson qilib yetishishiga qaratilgan darsliklar va o'quv adabiyotlarini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishi, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarining tatbiq etilishi talabalarning darslik va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanishiga bog'liq.

Ushbu darslik muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tub muammolari, ularni hal etish yo'llari va usullari bayon etilgan asarlaridan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan, Fuqarolik kodeksidan, bozor iqtisodiyotini yanada takomillashtirishga qaratilgan amaldagi qonunlar, farmonlar, qarorlar va farmoyishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tayyorlangan.

Mazkur darslik o'z mazmuniga ko'ra yuridik oliy o'quv yurtlari talabalari, tadqiqotchilari, o'qituvchilari, hamda amaliyot xodimlariga mo'ljallangan bo'lib, uning asosiy maqsadi huquq tizimida asosiy o'rinlardan birini egallagan fuqarolik huquqining tushunchasi, predmeti, metodi, vazifalari, tamoyillari tizimi, fuqarolik huquqining manbalari, fuqarolik-huquqiy munosabat, fuqarolik huquqining subyektlari, obyektlari, bitimlar, vakillik va ishonchnoma, muddatlar va da'vo muddatlari, mulk huquqi va uning turlari, majburiyat huquqi, majburiyatlarning vujudga

---

<sup>1</sup> Sh.M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., «O'zbekiston» NMIU. 2017. 8-bet.

kelishi va bekor bo'lish asoslari, shartnomalarning umumiy qoidalari haqida umumiy tasavvur hamda bilimga ega bo'lishga yo'naltirilgan.

Ushbu darslik oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrantlari, doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari va sud amaliyoti xodimlari, shuningdek, shu soha bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan

Darslik yuzasidan bildirilgan barcha tanqidiy fikrlar hamda takliflar uchun oldindan o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

# **I bob. FUQAROLIK HUQUQINING UMUMIY QOIDALARI**

## **1-§. Fuqarolik huquqi tushunchasi va predmeti**

Fuqarolik huquqi O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining asosiy sohalaridan biri bo'lib, mamlakatimizda iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish davrida fuqarolar va boshqa subyektlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini tobora to'laroq qondirish maqsadida mulkiy munosabatlarni tartibga solish va mustahkamlashga qaratilgan huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir.

Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlar O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 2-moddasida belgilab qo'yilgan. Bunga asosan fuqarolik huquqi fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va o'zga majburiyatlarni, shuningdek, boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Bozor munosabatlari mamlakatimizda turli mulk shakllarining bir xilda amal qilishini ta'minlash bilan birga, mulkiy munosabatlarning kengayishiga, tadbirkorlik faoliyati rivojlanishiga, mulkdorlarning o'z mol-mulklarini turli vositalar orqali muomalaga kiritishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Uning huquqiy zaminlari ham yaratildi. Mustaqil davlatimiz fuqarolik qonun hujjatlari qabul qilinishi bilan jamiyatimizda ko'plab yangi mazmundagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning shakllanishiga asos yaratdi. Bunday huquqiy munosabatlar ma'muriy-buyruqbozlik tizimi uchun yot bo'lib, erkin bozor iqtisodiyotining keng amal qilishini ta'minlashga xizmat qilishi bilan tavsiflanadi. Zero, talab va taklif, raqobat munosabatlarining kengayishi, mulk shakllarining tengligi, mulkning daxlsizligi, mulkdorlar huquqlarining davlat tomonidan kafolatlanishi, mulkdor o'z

mulkidan o'z xohish va manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi kabi qator huquqlarning kafolatlanishi xususiy mulkchilik va tadbirkorlik munosabatlarini rivojlantirish imkoniyatini yaratdi. Shu bilan birga, fuqarolik huquqi tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar doirasi ham kengaydi.

Fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar o'zining mohiyati va tabiati bilan boshqa huquq sohalari normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlardan farq qiladi. Ushbu munosabatlar iqtisodiy va yuridik jihatidan mustaqil, bir-biriga bo'ysunmagan taraflar o'rtasida vujudga keladi, ular qiymati belgilanadigan, tovar pul shakliga ega bo'lgan va shu tufayli ekvivalent, haq evazi asosida vujudga keladigan munosabatlardan iborat<sup>1</sup>.

Fuqarolik huquqi, asosan, muayyan ekvivalent barobariga belgilanadigan qiymat baho bilan ifodalanadigan va ishtirokchilari teng darajada ko'riladigan mulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Fuqarolik huquqi iqtisodiy munosabatlarni maxsus yuridik shaklda mulkiy-huquqiy munosabatlar shaklida rasmiylashtiradi va mustahkamlaydi.

Fuqarolik huquqida mulkiy munosabatlar ishlab chiqarish munosabatlarining huquqiy shakli, yuridik ifodasi sifatida ko'riladi. Shu nuqtai nazardan mulkiy munosabatlar shaxslar o'rtasidagi, ularning erklari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni bildiradi.

Fuqarolik huquqi tomonidan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlar doirasi nihoyatda keng. Bular jumlasiga oldi-sotdi, har xil buyurtmalar qabul qilish, turar joylarni ijaraga olish va berish, korxonalar, tashkilotlarning bir-biriga mahsulotlar yetkazib berish, qurilish ishlarini amalga oshirish, transport korxonalari orqali yuk va yo'lovchi tashish, yetkazilgan zararni to'latish, qonun va vasiyat bo'yicha meros olish, umuman har qanday shakldagi mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlardan iboratdir.

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov H.R. Fuqarolik huquqi muammolari. – T., TDYuI, 2010. – B. 43.



Fuqarolik huquqi tomonidan tartibga solinadigan mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy huquqiy munosabatlar ikki turga: mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy munosabatlar; mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy munosabatlarga bo'linadi<sup>1</sup>.

Fuqarolik huquqi huquqning boshqa sohalari kabi o'zi tartibga solinadigan, huquqiy munosabatlarga, ularning ishtirokchilari xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatishda maxsus vositalar va usullar yig'indisidan foydalanadi.

Qo'riqlash vazifasini bajaruvchi huquq sohalari (jinoyat huquqi, ma'muriy huquq va hokazo)dan farqli ravishda, fuqarolik huquqi, eng avvalo, normal huquqiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi.

Uning tartibga solish uslubidagi o'ziga xos xususiyatlar:

- fuqarolik huquqi munosabatlarda ishtirok etuvchilarning teng huquqqa ega bo'lishlari, ularga imkon boricha erkinlik, mustaqillik va tashabbuskorlik berilishida;

- fuqarolik huquqida imperativ me'yorlardan ko'ra dispozitiv me'yorlarning qo'llanilishida;

- fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan javobgarlikning mulkiy xarakterida bo'lishligida;

- buzilgan huquqlarning sud orqali da'vo bildirilishi tartibida himoya qilinishida;

- buzilgan fuqarolik huquqini himoya qilishda uni tan olish, tiklash, huquqni buzadigan harakatlarga chek qo'yish, yetkazilgan zararlarni undirib olish va shu kabi choralar qo'llanilishida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar fuqarolik huquqi fanining predmetini tashkil etadi.

**Birinchidan**, bu munosabatlar mulkiy munosabatlar bo'lib, ular mol-mulk, moddiy boyliklar bilan bog'liq holda vujudga keladi.

**Ikkinchidan**, bu munosabatlar mulk bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlar hisoblanib, ayrim hollarda ular mulkiy

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI, 2006. – B. 7.

munosabatlar bilan bog'liq bo'lmaydi. Ana shu ikkita guruh munosabatlari fuqarolik huquqining predmeti hisoblanadi.

Mulkiy, shuningdek, nomulkiy munosabatlar, agarda ular yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni o'zlarida ifoda etmasa, unda fuqarolik huquqining predmetiga kirmaydi va tabiiyki, uning normalari bilan tartibga solinmaydi. Bir tarafning ikkinchi tarafga ma'muriy yoki boshqacha usulda bo'ysunishiga asoslangan, shu jumladan, soliq, moliyaviy munosabatlarga nisbatan fuqarolik huquqi normalari qo'llanilmaydi. Aynan shu sababdan, davlat organlari o'rtasida davlat va boshqa ommaviy mulkni boshqarish vujudga keladigan munosabatlar ham fuqarolik normalari ta'siri doirasidan tashqarida bo'ladi.

Fuqarolik huquqi predmeti tarkibiga kiruvchi mulkiy munosabatlar, o'z navbatida, mol-mulkning ma'lum shaxslarga tegishliligi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar hamda mol-mulkni boshqarish yoxud uni bir shaxsdan boshqa shaxsga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga bo'linadi. Yuridik jihatdan ushbu tasnif (bo'linish) ashyoviy, tashkiliy va majburiyat huquqlari (munosabatlari) degan darajalar yordamida tavsiflanadi.

Fuqarolik huquqining predmeti hisoblangan shaxsiy nomulkiy munosabatlar, o'z navbatida, mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lmagan munosabatlarga bo'linadi<sup>1</sup>.

Fuqarolik huquqining predmetini tashkil etuvchi ushbu munosabatlar doirasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2-moddasining birinchi qismida belgilangan. Bunga muvofiq, Fuqarolik qonunchiligi fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelishi asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va o'zga majburiyatlarni, shuningdek, boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarning tartibga solinishi nazarda tutilgan. Bir so'z bilan aytganda, fuqarolik huquqi tartibga soladigan

---

<sup>1</sup>Иванова Е.В. Гражданское право. Учебник. М., Книжный мир. 2011. – С. 10.

ijtimoiy munosabatlar doirasi o'zining keng qamrovliligi bilan ajralib turadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, fuqarolik huquqi predmeti tarkibini tashkil qiluvchi munosabatlar doirasi ancha kengaytirildi. Fuqarolik kodeksining 2-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi va ularni amalga oshirish tartibi bevosita tashkiliy masalalarni hal qilish bilan bog'liq. Qonunlar, qonunosti hujjatlarida belgilangan va o'zlarining Nizom hamda ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan, huquqiy maqomlariga muvofiq, fuqarolik muomalasida ishtirok etuvchilar, o'zlariga tegishli mulk huquqi va ashyoviy huquqlardan foydalanib, mulkiy munosabatlarni o'rnatish maqsadida turli tashkiliy masalalarni hal qilishga harakat qiladilar, ya'ni tashkiliy-huquqiy munosabatlarda ishtirok etadilar.

## **2-§. Fuqarolik huquqining predmeti sifatida mulkiy munosabatlar**

Mulkiy munosabatlar fuqarolik huquqi predmetining asosiy va katta qismini tashkil etadi. Ular tovar xususiyatlariga ega bo'lgan moddiy ne'mat, ya'ni mol-mulk bilan bog'liq holda vujudga keladi.

Bunday ne'matlarga nafaqat qo'l bilan ushlab yoki ko'rish orqali mavjudligiga ishonch hosil qilish mumkin bo'lgan ashyolar, shuningdek, shartnoma bilan bir qatorda ba'zi huquqlar (masalan, bank omonati o'zida omonati qo'yilgan pul summasini emas, balki omonatchining bankdan talab qilish huquqini ifoda etadi) ham taalluqli bo'ladi. Mulkiy munosabatlar, shuningdek, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish natijalari bo'yicha ham vujudga kelishi mumkin. Lekin bu natijalar har doim ham ashyoviy natijalar ko'rinishida bo'lavermaydi. Masalan, yo'lovchi, bagaj va yuk tashish, omonat saqlash, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish shular jumlasidandir. Demak, bunday natijalar ham tovar shakliga ega bo'ladi.

Mulkiy munosabatlar yuridik kategoriya hisoblanmaydi. Ular o'z holicha yuridik tusga ega emas. O'zining ijtimoiy

tabiatiga ko'ra ular huquqiy tartibga solinadigan, ya'ni huquqiy jihatdan rasmiylashtiriladigan iqtisodiy munosabatlardir. Ushbu munosabatlarda tovar xo'jaligi, bozor iqtisodiyoti gavdalanadi. Bunda ular mazkur xo'jalik munosabatlarining turg'unligi, barqarorligini, ya'ni moddiy ne'matlarning o'zlashtirilganligi hamda taalluqliligini ta'minlovchi tovarlar almashuvi jarayonini aks ettiradi.

Zero, har ikkala jihat bir-biri bilan chambarchas bog'liq va ular o'zaro bir-birini taqazo etadi. Tovar almashinuvi ishtirokchilar tomonidan uning obyektlari (ashyolari, ishlari, xizmatlari)ni o'zlashtirmasidan turib mumkin bo'lmaganidek, o'zlashtirish ham ko'p hollarda tovar almashinuvi natijasidagina amalga oshiriladi.

### **Mulkiy munosabatlar quyidagi umumiy belgilar bilan tavsiflanadi:**

**Birinchidan**, ushbu munosabat ishtirokchilari mulkiy jihatdan mustaqildirlar. Bu ularga mol-mulknini mustaqil tarzda tasarruf qilish va shu bilan birgalikda o'zlarining harakatlari hamda harakat natijalari uchun mustaqil mulkiy javobgar bo'lish imkoniyatlarini beradi.

**Ikkinchidan**, umumiy qoidaga ko'ra, ular tovar-pul xususiyatlariga ega bo'lib, ekvivalent haq evaziga amalga oshiriladi. Albatta, ayrim hollarda mulkiy munosabatlar haqsiz, tekin, masalan, hadya, ssuda asosida vujudga kelishi ham mumkin.

**Uchinchidan**, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari teng huquqli va mustaqildirlar.

Yuqorida sanab o'tilgan belgilardan ko'rinib turibdiki, fuqarolik huquqi predmeti tarkibiga kiruvchi mulkiy munosabatlar tovar-pul xarakteriga egaligi bilan farqlanadi. Demak, o'zida ana shu belgilarni mujassamlashtirmagan boshqa tUSDagi (notovar tabiatga ega bo'lgan) mulkiy munosabatlar (masalan, soliq, byudjet va boshqa moliyaviy munosabatlar, ma'muriy munosabatlar; umummilliy (davlat) mulki bo'lgan yer va h.k.) fuqarolik huquqining predmeti bo'lib hisoblanmaydi va ularga nisbatan fuqarolik qonunchilik hujjatlari qo'llanilmaydi.

Tovar xo'jaligining barqarorligi munosabatlari, ya'ni moddiy boyliklarning o'zlashtirilganligi, taalluqliligi mulkiy

munosabatlarning u yoki boshqa ishtirokchilari tomonidan ashyoning egallanganligini, aniqroq aytganda, ularning muayyan ashyoning mulkdori ekanligini anglatadi. Statik munosabatlar ikki tarafli tabiatga egaligi bilan izohlanadi, ya'ni birinchidan, mulkdorning o'ziga tegishli bo'lgan ashyoga munosabati va ikkinchidan, ushbu ashyo bo'yicha mulkdor va barcha boshqa shaxslar o'rtasida vujudga keladigan munosabatni ifodalaydi.

Ashyoga (muayyan mol-mulkka) shaxsning munosabati me'yordagi xo'jalik faoliyatini belgilovchi shart hisoblanadi. Shu ma'noda, agar har bir shaxsning boshqa mulkka nisbatan o'z mulkiga bo'lgan alohida, oqilona munosabatini e'tiborga oladigan bo'lsak, xo'jalik faoliyatining yuqori samarasini ham aynan ana shu omil belgilashiga ishonch hosil qilish mumkin. Zero, ashyoga xo'jasizlarcha begonalashtirish asosidagi yondashuv, shak-shubhasiz, iqtisodiy natijalarning kutilgan darajada bo'lishini ta'minlab bera olmaydi.

Bundan tashqari, shaxsning o'z mulkidan erkin, o'z xohishiga ko'ra foydalanishi va bunda boshqa birovlarining asossiz aralashuviga yo'l qo'ymasligi xo'jalik faoliyatini to'g'ri tashkil etish hamda amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda mulkiy (ashyoviy) munosabatlarning ikkinchi tarafi – mulkdor bilan barcha boshqa shaxslarning ashyo (mol-mulk) bo'yicha yuzaga keladigan munosabati namoyon bo'ladi. Aytish joizki, mulkdorning o'z mulkidan (o'ziga tegishli ashyodan) foydalanishi boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart. O'z navbatida, boshqa shaxslardan (shuningdek, davlatdan) ham mulkdorning o'z mulkidan mustaqil tarzda qonunlarda nazarda tutilgan hollar, shartlar va doirada foydalanishiga imkoniyat yaratib berishlari, to'sqinlik qilmasliklari talab qilinadi. Ushbu munosabatda mulkdor o'z mulkiga egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishiga nomuayyan doiradagi majbur shaxsga qarshi turganligi sababli, bunday munosabatning mutloq xarakteri (tabiati) xususida so'z borishi tabiiy.

Yuridik jihatdan mulkiy munosabatlar moddiy boyliklarning tegishlilik bo'yicha mulkiy (ashyoviy) huquqiy munosabatlar

sifatida e'tirof etiladi va rasmiylashtiriladi. Ular mulkiy munosabatlar va o'zga (cheklangan) ashyoviy huquqlarga bo'linadi. Mulkiy munosabatlar ashyodan foydalanish bo'yicha qonuniy barcha imkoniyatlarga ega bo'lgan mulkdorga ushbu ashyo (mulk) ning tegishli ekanligini ifoda etadi. O'zga ashyoviy huquqlar esa mulkdor bilan bir qatorda boshqa shaxslarning ham foydalanishi mumkin bo'lgan mulkdor mulkining huquqiy holatini belgilaydi.

Tovar xo'jaligi harakati (dinamikasi) munosabatlari, ya'ni, moddiy boyliklarning bir egadan boshqasiga o'tishi, odatda, ishtirokchilar tomonidan muayyan mol-mulknii begonalashtirish (tasarruf qilish) va qo'lga kiritish bilan bog'liq bo'ladi. Yuridik jihatdan ular majburiyatlar (majburiyat munosabatlari) yordamida rasmiylashtiriladi. Bunday munosabatlar har doim tovar-pul aloqalarining aniq ishtirokchilari alohida, mustaqil bo'lgan tovar egalari o'rtasida vujudga keladi va shuning uchun ham nisbiy tusga ega bo'ladi.

Ko'pincha, majburiyat munosabatlari tovar egalarining tovarlar (ashyolar, ishlar va xizmatlar natijalari va huquqlari)ni tasarruf qilish va (yoki) qo'lga kiritish to'g'risidagi kelishuvi asosida vujudga keladi. Ba'zida majburiyatlar ishtirokchilar o'rtasida kelishuv bo'lmagan hollarda ham, masalan, bir shaxs tomonidan boshqasiga mulkiy zarar yetkazish oqibatida yoki asossiz boylik orttirish natijasida kelib chiqadi. Shunday qilib, tovar almashuvi mazmunini tashkil qiluvchi iqtisodiy munosabatlarning yuridik shakli sifatida majburiyatlar shartnomaviy va shartnomadan tashqari majburiyatlarga bo'linadi.

Moddiy boyliklarning bir shaxsdan boshqasi ixtiyoriga o'tishi, nafaqat majburiyatlar shaklida, shu bilan birga vafot etgan fuqarolarning mulkini meros olish asosida egallash, yuridik shaxslarni qayta tashkil etish va tugatish orqali ham amalga oshirishi mumkin. Bunga moddiy boyliklarning yangi egalariga o'tishi, o'lim yoki avvalgi egalarining o'z faoliyatlarini bekor qilishi, ya'ni, ularning mulkiy munosabatlar doirasidan chiqib ketishi, yo'qolishi bilan bog'liq bo'ladi.

Taraqqiy etib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tovar almashuvining tabiiy rivoji, o'z navbatida, mulkiy

munosabatlarning ham murakkablashib borishiga va oqibatda ularning yangi ko'rinishlarining amaliyotga kirib kelishiga sabab bo'ladi. Bunday munosabatlar qatoriga korporatsiyalarning xususiy mulkini boshqarish bo'yicha vujudga keladigan munosabatlarni ko'rsatish mumkin. Ular, odatda, mulkiy muomalada doimiy va professional faoliyat ko'rsatish uchun tashkil qilingan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari, shuningdek, ishlab chiqarish kooperativlarini boshqarish jarayonida yuzaga keladi. Ishtirokchilari tomonidan maxsus tuzilgan ushbu tashkilotlar o'zi-o'zini boshqarish hamda qat'iy belgilangan a'zolik prinsiplari asosida faoliyat yuritib, ular o'rtasidagi munosabatlar, asosan mulkiy tusda bo'lishi bilan izohlanadi. Mulkiy munosabatlarning bunday ko'rinishining yuridik shakli korporativ huquqiy munosabatlar bo'lib hisoblanadi. Korporativ munosabatlar o'z mazmun mohiyati bilan majburiyatlarga yaqin turadi. Chunki ular ham korporatsiyaning har bir a'zosining o'zaro hamda korporatsiya bilan munosabatini rasmiylashtirganligi bois nisbiy xarakterga ega bo'ladi. Biroq korporativ majburiyat, faqat muayyan tashkilotlar ishtirokchilari o'rtasidagina vujudga kelib, boshqa subyektlar uchun taalluqli bo'lmasligi bilan farqlanadi. Ko'pincha, birinchi qarashda korporatsiya a'zolari ishtirokchilarning o'zaro aloqalarinigina tashkillashtirishga qaratilgandek bo'lib ko'rinadigan korporativ munosabatlar, aslida, bevosita korporativ mulkdan foydalanish, uni boshqarish maqsadidan kelib chiqadi.

Ta'kidlash lozimki, yuridik shaxs sifatida tashkil etilgan korporatsiyaning faoliyati va ushbu asosda vujudga kelgan munosabatlar o'z mazmun-mohiyati bilan, avvalambor, aniq mulkiy yo'nalishga ega bo'ladi. Aynan ana shu holat korporativ munosabatlarni tashkiliy munosabatlarning bir ko'rinishi deb tavsiflashga imkon beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, yuridik shaxslar o'rtasida vujudga kelgan korporatsiyaga a'zolik asosida uning qatnashchilari bilan qurilgan korporativ munosabatlar fuqarolik muomalasida mustaqil subyektlar o'rtasidagi mulkiy alohida va yuridik teng bo'lgan mulkiy munosabatlardir. Bu munosabatlar

korporatsiyaning ta'sis hujjatlari va fuqarolik huquqi normalari tomonidan tartibga solinib, qatnashchilarning korporatsiyadagi a'zolik davri mobaynida mavjud bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, korporativ munosabatlar mustaqil tarkibiy qism sifatida fuqarolik huquqining predmeti tarkibiga kiradi.

### **3-§. Fuqarolik huquqining predmeti sifatida shaxsiy nomulkiy munosabatlar**

Mulkiy munosabatlar bilan bir qatorda ular bilan bog'liq bo'lgan hamda bog'liq bo'lmagan ikki turkumdan iborat shaxsiy nomulkiy munosabatlar ham fuqarolik huquqining predmeti hisoblanadi.

Mulk bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy nomulkiy munosabatlar jumlasiga intellektual ijod natijalari (fan, adabiyot va san'at asarlari, ixtiro, sanoat namunalari, EHM uchun dasturlar va h.k.)larni, shuningdek, tovarlar, ishlar, xizmatlar hamda ularning egalarini xususiylashtirish (individuallashtirish)ga asos bo'ladigan vositalar (firma nomi, tovarlar, xizmatlar va ishlar belgilari)ni yaratish va asosan, ulardan foydalanish bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar kiradi.

Ijtimoiy munosabatlarning ushbu guruhiga xos bo'lgan asosiy xususiyati ular obyektlarining nomoddiy tabiatida namoyon bo'ladi. Mazkur obyektlar o'zlarida g'oyalarni, fikrlarni, qiyofalarni, ramzlarni ifoda etib, moddiy shakllarda gavdalanadi. Shunday bo'lishiga qaramay, ular o'z yaratuvchilaridan ajralmaydilar. Aynan ana shunda nomulkiy munosabatlarning mulkiy munosabatlar bilan o'zaro aloqasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Lekin nomulkiy munosabatlar hech bir holatda o'zlarining asosiy jihatini, ya'ni, nomulkiy tabiati (mohiyati) ni yo'qotmaydi. Zero, mazkur munosabatlar tovar almashinuvi jarayonini boshidan kechirmasdan ham, moddiy shakldagi mulk ko'rinishiga ega bo'lmagan holda mavjuddir. Chunki fan, adabiyot va san'at asariga yoki ixtiroga mualliflik uning tovar sifatida muomalaga kiritilishidan qat'i nazar vujudga keladi. Nomulkiy munosabatlar jamiyat ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynaydi va bunda ular nomoddiy obyektlarning yaratuvchilarini yoki namoyandalarini



ommaviy tarzda davlat tomonidan «mualliflar» yoxud «ushbu obyekt egalari» deb e'tirof etilishiga va ular manfaatlarining har qanday tajovuzdan himoya qilinishiga asoslanadi. Shuning uchun nomulkiy munosabatlar mutlaq harakatga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, ushbu munosabatlarning mulkiy tabiati doimo nomoddiy obyektlardan kelib chiqishi sababli, ularning mavjudligiga bevosita bog'liq bo'ladi. Ayni vaqtda, ularning mulkiy tabiatga ega bo'lishi, nomoddiy munosabatlarni fuqarolik huquqiy jihatdan tartibga solish imkoniyatini yaratadi.

Mazkur munosabatlar alohida huquqiy rasmiylashtirishni talab qiladi. Bu nomoddiy boyliklar yaratuvchilari (egalar)ning ashyoviy huquqqa yaqin bo'lgan huquq egasi deb tan olish bilan amalga oshiriladi. Ushbu huquqlar mualliflik va patent huquqi, shuningdek, sanoat mulki instituti huquqi bilan tartibga solinadi.

Fuqarolik huquqi predmeti jumlasiga insonning o'zidan ajratib bo'lmaydigan huquq va erkinliklari hamda boshqa nomoddiy boyliklarni himoya qilish ham kiradi. Bularga insonning hayoti va sog'lig'i, uning obro'-e'tibori, qadr-qimmati, sha'ni, shaxsiy va oilaviy siri, nomga bo'lgan huquq, shaxsiy hayoti daxlsizligi va hokazolarni misol qilib keltirish mumkin. Ta'kidlash lozimki, tilga olingan bu nomoddiy boyliklar faqat shaxsiy, nomulkiy mazmun-mohiyatdagina mavjud bo'lib, hech qachon tovar muomalasi (almashinuvi) obykti sifatida harakat qila olmaydilar. Zero, ular har bir inson, shaxs bilan chambarchas bog'liq, undan ajralmaydi, boshqa shaxslarga berilmaydi.

Fuqarolik huquqi nomoddiy boyliklarning egalari tegishli bo'lgan huquqlari va manfaatlarini sud orqali himoya qilish, buzilgan huquqlarini tiklash, yetkazilgan ma'naviy zararni mulkiy qoplash kabi vositalar bilan muhofaza qiladi. Biroq himoyaning fuqarolik-huquqiy vositalari yordamida bunday munosabatlar (yoxud nomoddiy boyliklar)ning muhofazalanishi ham ularning tamomila fuqarolik huquqi bilan tartibga solinishidan dalolat bermaydi.

Shu ma'noda, ba'zi huquqshunos olimlarning fikrlariga murojaat qiladigan bo'lsak, bunga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Masalan, taniqli sivilist olim O.S. Ioffening

ta'kidlashicha, mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lmagan nomulkiy munosabatlar fuqarolik huquqi bilan faqat muhofaza qilinadi va himoyalana, lekin tartibga solinmaydi. O'z navbatida, ushbu fikr tanqid ostiga olingan bo'lib, unga xususan himoya (muhofaza) huquqini tartibga solishning shakllaridan biri hisoblanishi, shuningdek, bunday ajralmas huquq egasi uni tasarruf qilish imkoniyatlaridan ham foydalana olishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Bunga ko'ra, nomoddiy obyektlarni himoyalash huquqi fuqarolik huquqlari jumlasiga kiruvchi, fuqarolik-huquqi tartibga solish mexanizmining bir elementi hisoblanadi.

Ushbu talqinga asoslangan holda amaldagi fuqarolik qonunchiligi nomoddiy munosabatlar va mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy munosabatlar fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinishini belgilab beradi. Binobarin, nomoddiy munosabatlar to'g'ridan-to'g'ri fuqarolik huquqining predmeti sifatida e'tirof etiladi.

#### **4-§. Fuqarolik huquqining predmeti sifatida tashkiliy munosabatlar**

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi fuqarolik-huquqiy munosabatlardan biri tashkiliy-huquqiy munosabat hisoblanadi. Binobarin, totalitar tuzum davrida asosan ma'muriy tusda bo'lgan hamda faqat davlatning ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruviga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish bugungi kundagi bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga asoslanishi tashkiliy-huquqiy munosabatlarni fuqarolik huquqi predmeti tarkibiga kirishi uchun zamin yaratdi. Zero, huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan va mamlakat iqtisodiy rivojlanishida alohida o'ringa ega bo'lgan yirik korxonalar, korporatsiyalar va konsernlar faoliyatini boshqaruv, bunda davlat boshqaruvining tatbiq etilmasligi, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatidagi boshqaruv huquqiy jihatdan qaysi huquq sohasi normalari bilan tartibga solinishi masalasini aniqlash hamda bunday boshqaruv sohasida vujudga keladigan munosabatlar huquq sohaslaridan qaysi birining predmeti tarkibiga kirishini belgilab olish davlatning istiqbolidagi strategik ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy huquqshunoslikda keng qo'llanilayotgan «korporativ boshqaruv», «korporativ munosabatlar» va ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan «tashkiliy-huquqiy munosabatlar»ning alohida umumiy qoidalarga birlashtirilishi, ularning huquqshunoslikdagi o'rnini belgilash va huquqiy tartibga solish qonuniyatlarini ishlab chiqish milliy huquqshunoslik oldidagi konseptual vazifalardan biri sanaladi.

Malakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar sharoitida fuqarolik huquqiy munosabatlarini tartibga solishning nazariy va amaliy muammolarini nazariy-metodologik va amaliy jihatdan o'rganish ishlari izchil amalga oshirilmogda. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı chora-tadbirlarga qaramasdan tashkiliy-huquqiy munosabatlarnı fuqarolik qonunchiligida aniq belgilanmaganligi, huquqni qo'llash va sud amaliyotida yuzaga kelayotgan nizolarnı hal qilishda taraflar o'rtasidagi munosabatlar tashkiliy-huquqiy munosabat ekanligiga alohida e'tibor qaratilmaganligi oqibatida ularning bajarilmasligiga yoxud buzilishiga sabab bo'lmoqda, ba'zi hollarda tashkiliy-huquqiy munosabatlarga oid huquqiy normalarnı qo'llash jarayonida ayrim muammolar vujudga kelmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasida «fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga to'sqinlik qiluvchi fuqarolik qonunchiligidagi huquqiy bo'shliqlar va kolliziyalarnı bartaraf etish»<sup>1</sup> vazifalari belgilab qo'yilgan. Ushbu vazifalarnı amalga oshirish muayyan darajada tashkiliy-huquqiy munosabatlarnı huquqiy tartibga solish mexanizmini fuqarolik qonunchiligida belgilab qo'yish orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan o'ziga xos kompleks tusga ega bo'lgan «tashkiliy-huquqiy munosabatlar» ning alohida va eng yirik qismi bo'lgan, fuqarolik tashkiliy-huquqiy munosabatlarning xususiyatlarini, ularni huquqiy tartibga

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoyishi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.04.2019-y., 08/19/5464/2891-son.

solishdagi usul va vositalarni, mexanizmlarni ishlab chiqish, fuqarolik huquqi predmeti doirasidagi tashkiliy munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda fuqarolik – huquqining predmeti sifatida o'zini namoyon etadigan tashkiliy munosabatlarning huquqiy tabiatini tushuntirishga harakat qiladigan turli xil fikr va mulohazalar ko'plab uchraydi.

Tashkiliy munosabatlarni fuqarolik huquqi fanining mustaqil predmeti sifatida ko'rib chiqish asoschisi bo'lib haqli ravishda O.A. Krasavchikov hisoblanadi.

O.A. Krasavchikov fuqarolik-huquqiy munosabatlarni quyidagi to'rt guruhga ajratadi:

1) nazarda tutilganlik mulkiy munosabat o'rnatish yoki rivojlantiruvchi (masalan, avtotransport korxonalarining maxsus bitimlari, navigatsiya bo'yicha bitimlar va hokazolar) munosabatlar;

2) vakolat beruvchi, bir shaxsning boshqa shaxs nomidan muayyan xatti-harakatlarni amalga oshirishi uchun vakolatlovchi (masalan, ishonchnomani berish va qaytarib olish) munosabatlar;

3) nazorat etuvchi, fuqarolik-huquqiy munosabatning bir subyektiga boshqasini nazorat qilishiga imkon beruvchi (masalan, buyurtmachi nazoratchi, loyihalash tashkilotlarining mualliflik nazorati va hokazolar) munosabatlar;

4) axborot-ma'lumot olish bo'yicha munosabatlar, unga ko'ra tomonlar muayyan axborotni almashishga majburdirlar (masalan, sotuvchi xaridorni sotilgan mulkka uchinchi shaxsning huquqi borligi haqida ogohlantirishi va hokazo).

Ma'lumki, har qanday ishlab chiqarish, shuningdek, bevosita xo'jalik faoliyati yuritish jarayonini amalga oshirish uchun ushbu jarayonga hozirlik ko'rish, tashkiliy-huquqiy jihatdan tayyorgarlik ko'rish lozim bo'ladi. Bunday tashkiliy ishlarni bajarmasdan, hal etmasdan turib, keyingi jarayonga kirishish mumkin emas. Odatda, xo'jalik yurituvchi subyektlarning dastlabki va keyingi qator tashkiliy tusdagi munosabatlari davlat boshqaruv idoralari bilan bo'ladigan aloqalarga (bir tarafning ikkinchi

tarafga ma'muriy bo'ysunish) asoslangani bois, ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solinadi. Biroq ma'muriy bo'ysunishga asoslangan bunday tashkiliy tuzdagi munosabatlar jamiyatimizda mavjud bo'lgan va vujudga keladigan tashkiliy munosabatlarning barchasini qamrab olmaydi. Fuqarolik kodeksining 2-moddasi oltinchi qismida bir tarafning ikkinchi tarafga ma'muriy bo'ysunishiga asoslangan mulkiy munosabatlarga, shu jumladan soliq, moliyaviy, ma'muriy va boshqa munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonunchiligi qo'llanilmaydi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, deb belgilab qo'yilgan.

Tashkiliy-huquqiy munosabatlar ikki xil toifadagi, ya'ni, ichki va tashqi vazifalarni bajarishga qaratiladi. Tashqi tashkiliy-huquqiy vazifalar esa korxonalar, tashkilotlar, xo'jalik jamiyatlari, shirkatlarining iqtisodiyot va xo'jalik faoliyatining turli sohalarida mulkiy aloqalarini o'rnatishni tashkil qilishni amalga oshirish bilan bog'liq. Ichki vazifalar tashkilotlar, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarning huquqiy holati (ularning ustavlari, ta'sis shartnomalari) bilan belgilanadi, tashqi tashkiliy-huquqiy vazifalar fuqarolik huquqiy normalari bilan tartibga solinadi.

Rejalashtirishga asoslangan tuzumdan voz kechish qiymat qonuniyatlaridagi bozor munosabatlari sharoitida foydalanish, mulkiy munosabatlarning ekvivalent va haq evaziga amalga oshirilishi, shartnomaning erkinligi va uning taraflarining tengligi, ular tomonidan o'z huquqiy holatlariga amal qilgan holatda mulkiy munosabatlarni mustaqil ravishda tashkil qilish uchun shart-sharoit yaratadi. Bunday tashkiliy faoliyat jarayonida, asl ma'noda, mulkiy munosabatlar o'rnatilmaydi, balki ularni shakllantirish amalga oshiriladi va u orqali munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida o'zaro aloqalar o'rnatiladi.

Tashkiliy huquqiy munosabatlar nisbatan mustaqil hisoblanadi. Chunki ular ko'pchilik hollarda mulkiy munosabatlarni o'rnatish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Tashkiliy huquqiy munosabatlarda iqtisodiy mustaqil va yuridik jihatdan bir-biriga bo'ysunmagan taraflar qatnashadi. Shuning uchun ham ularning o'zaro

munosabatlari fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan tenglik tamoyili asosida o'rnatiladi<sup>1</sup>.

Tashkiliy-huquqiy munosabatlar bevosita mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli uni bir elementi sifatida nisbatan mustaqil hisoblanadi. Shuning uchun ham tashkiliy-huquqiy munosabatlar fuqarolik huquqining predmeti tarkibidan haqli ravishda joy olishi lozim.

Fikrimizcha, fuqarolik huquqining predmeti tarkibiga, tashkiliy mulkiy munosabatlar, tashkiliy nomulkiy munosabatlar va tashkiliy korporativ munosabatlar kiradi. Bu munosabatlarning barchasini fuqarolik tashkiliy-huquqiy munosabatlar deb nomlash lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, fuqarolik tashkiliy-huquqiy munosabatlarga quyidagi ilmiy ta'rifni taklif qilish mumkin: **fuqarolik tashkiliy-huquqiy munosabatlar deganda**, yuridik jihatdan teng va mulkiy mustaqil, erk muxtoriyatiga ega bo'lgan, davlat tomonidan ta'minlangan subyektiv tashkiliy huquqlarga ega bo'lgan va subyektiv tashkiliy majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan ishtirokchilar o'rtasidagi fuqarolik huquqi normalari asosida vujudga keladigan shaxsiy yoxud mulkiy mazmunga ega bo'lmagan amaliy (mexanik) va yuridik harakatlar orqali subyektiv harakatlarni amalga oshirish, subyektlar harakatlarini yo'naltirish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarni vujudga keltirish va muvofiqlashtirishga, erk irodasini va sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirishda namoyon bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.

Bir so'z bilan aytganda, fuqarolik tashkiliy-huquqiy munosabatlar iqtisodiy muomalaga kirishish, mulkiy va shaxsiy-nomulkiy huquqlarga erishishdan oldin taraflar rioya qilishi va amalga oshirishlari zarur bo'lgan o'zaro kelishuvlar, bitimlar, tartiblar, taomillar bo'lib, ular mulkiy va shaxsiy-nomulkiy mazmunga ega bo'lmaydi, degan xulosaga kelish mumkin.

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov X.R. Fuqarolik huquqining predmeti, metodi va tamoyillari. – T.: 2003. 25–28-b.

## 5-§. Fuqarolik huquqining metodi va vazifalari

Huquqni tartibga solish metodi, ma'lumki, muayyan huquq sohasining predmetini tashkil qiluvchi ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan huquqiy vosita va usullarning majmuasini anglatadi. Bunday ta'sir ko'rsatishning samarali bo'lishi va bunda ijobiy natijaga erishish uchun qo'llaniladigan vositalar tartibga solinadigan munosabatlarning asl mohiyatiga, ularning tabiatiga muvofiq kelishi muhim ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, huquqni tartibga solish metodining mazmuni uning predmeti, tabiatini belgilab berishi lozim.

Fuqarolik huquqida bir-biriga bo'ysunmaydigan mustaqil subyektlarning tengligi, erkin xohish irodasi asosida shakllanadigan xususiy (mulkiy va nomulkiy) munosabatlar haqida so'z borganligi bois, uning metodi ommaviy huquq tizimi doirasida foydalaniladigan vosita va usullardan farq qiladi. Agar ommaviy huquqning tabiatiga ko'ra, unda aksariyat ma'muriy tuzdagi ko'rsatma, farmoyish va taqiq metodlari amal qilsa, xususiy huquq (fuqarolik huquqi) uchun esa, subyektlarga o'z ehtiyojlarini va manfaatlarini qondirishga xizmat qiladigan huquqiy vositalardan mustaqil foydalanish hamda tashabbus ko'rsatish imkoniyatlarini yaratuvchi dispozitiv (belgilab beruvchi) vositalar va usullar xosdir.

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish metodining sohasi xususiy huquqqa taalluqliligini, uning muayyan turdagi munosabatlarga samarali ta'sir ko'rsatish uchun muvofiqligini belgilovchi to'rtta asosiy belgilari mavjud:

- tartibga solinadigan munosabatlar subyektlari (ishtirokchilari) ning huquqiy holati;
- subyektlar o'rtasidagi huquqiy aloqalar (munosabatlar)ning vujudga kelish xususiyatlari;
- nizolarni hal etishning o'ziga xosligi;
- huquqbuzarlarga nisbatan qo'llaniladigan majburlov ta'sir choralarining xususiyatlari.

Xususiy huquq tartibga solishning xususiyatlarini hisobga olgan holda, ushbu belgilarni fuqarolik huquqi metodida quyidagicha talqin qilish mumkin:

1. Fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining yuridik jihatdan tengligini tan olish yo'li bilan ularning iqtisodiy mustaqilligi va bir-biriga qaram emasligi e'tirof etiladi. Fuqarolik huquqi metodining asosiy tavsifini belgilovchi subyektlarning yuridik tengligi ularning qonunga zid bo'lmagan erkin xatti-harakatlari uchun huquqiy asos yaratish bilan birga, har qanday ma'muriy tusdagi majburlov, aler burish kabi vosita va usullarga chek qo'yadi.

2. Umumiy qoidaga ko'ra, ishtirokchilarning iqtisodiy mustaqilligi va bir-biriga qaram bo'lmasligi ularning o'zaro kelishuv, o'z erklariga muvofiq harakat qilishlariga imkon beradi. Shuning uchun fuqarolik muomalasi oqibatida subyektlar muomalasi subyektlarning o'zaro munosabatlarini tartibga solishda huquq va majburiyatlar vujudga kelishiga asos bo'ladigan vositalardan biri sifatidagi shartnoma(kelishuv)dan foydalanadi.

3. Fuqarolar muomalasida taraflar o'zaro aloqalari va ularning mazmunini bevosita o'zlari belgilashlarini ta'minlovchi dispozitiv fuqarolik-huquqiy tusdagi normalarga asoslanadi. Bu qoida ularga qonun bilan taqiqlanmagan, maqsadga muvofiq bo'lgan keng ko'lamdagi harakatlarni o'z xohishlari bo'yicha amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratadi. Demak, dispozitiv normalarda belgilangan hollarga muvofiq taraflar o'zaro kelishib harakat qilishlari yoki ularni qo'llashdan voz kechishlari va boshqa shartlarni (qonunga zid bo'lmagan) o'z xatti-harakatlari uchun asos qilib olishlari mumkin.

4. Fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilari manfaatlarini himoya qilish vositalaridan foydalanish yoxud foydalanmaslikni o'z xohishlariga ko'ra hal qilishda erkindirlar. Bu o'z navbatida, ularning o'zaro aloqalarini tashabbus ko'rsatish orqali amalga oshishidan dalolat beradi. Binobarin, subyektlarga tashabbus ko'rsatishga va o'z munosabatlarini tashkillashtirishga intilish bo'lmas ekan, yaxshi natijaga erishish qiyin bo'ladi.



5. Ishtirokchilarning bir-biriga qaram bo'lmashligi va mustaqilligi, tengligi ular o'rtasidagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni tashkiliy-ma'muriy, mulkiy, shaxsiy va boshqa jihatdan mustaqil hamda betaraf organ tomonidan hal etilishini taqozo etadi. Bunday organ vazifasini umumiy sudlar, xo'jalik sudlari, xolis sudlar bajaradilar. Demak, fuqarolik huquqlarini himoya qilish va hal etishning sud tartibi fuqarolik huquqida qo'llaniladigan usullardan biri deb hisoblanadi.

6. Huquqbuzarlarga nisbatan qo'llaniladigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik asosan mulkiy xarakterda bo'ladi. Fuqarolik huquqi predmetining asosiy qismini tashkil etgan mulkiy, shuningdek, mulk bilan bog'liq bo'lgan nomulkiy munosabatlar, tabiiyki, fuqarolik-huquqiy choralarni, xususan fuqarolik-huquqiy javobgarlikning ham mulkiy (moddiy) ko'rinishda bo'lishini shart qilib qo'yadi. Boshqacha qilib aytganda, mulkiy zarar ko'rgan taraf ushbu zararining o'rnini mulk bilan yoki unga teng bo'lgan qiymatda pul bilan qoplashni talab qilishga haqli. Ta'kidlash joizki, fuqarolik huquqi bo'yicha hatto ma'naviy zarar ham pul (mulkiy) shaklida undirilishi nazarda tutilgan.

Yagona huquq tizimining tarkibiy qismi sohasi sifatida fuqarolik huquqi o'ziga taalluqli vazifalarni amalga oshiradi. Ushbu o'ziga xos vazifalar fuqarolik huquqining tizimdagi o'rnini belgilashda ahamiyat kasb etadi. Chunki har qaysi huquq sohasi bajaradigan vazifalar o'zining tabiati va mazmuniga ko'ra farq qiladi.

Shu nuqtai-nazardan qaraganda, fuqarolik huquqida tartibga soluvchi va muhofazalovchi vazifalar asosiy o'rin tutadi. Zero, fuqarolik huquqi, avvalambor, jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladi. U huquq buzilishlaridan ko'ra, ko'proq oddiy mulkiy munosabatlarni shakllashtirish bilan bog'liq. Aynan shuning uchun ham ushbu soha juda oz miqdordagi taqiqlovchi va keng doiradagi imkoniyatlar yaratuvchi normalarni o'z ichiga oladi. Bunga asoslanib, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari turli fuqarolik-huquqiy vositalar yordamida o'z faoliyatlarini mustaqil, hech bir tazyiqsiz amalga oshiradilar. Demak, fuqarolik huquqining tartibga soluvchi vazifasi subyektlarning erkin tarzda

o'z faoliyatlarini tashabbus asosida o'zlari tashkil qilishlariga, o'zlari tartibga solishlariga imkoniyat yaratishdan iborat. Ushbu vazifaning ana shunday maqsadiy yo'nalishi va mazmuni, aytish mumkinki, fuqarolik huquqining predmeti tarkibiga kiruvchi munosabatlarning xususiy tabiatidan kelib chiqadi. Bu uni ommaviy huquqning qat'iy belgilangan tisdagi tartibga soluvchi vazifalaridan farqini ko'rsatadi.

Fuqarolik huquqining muhofaza qiluvchi vazifasi, birinchi navbatda, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining mulkiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, buzilgan huquqlarni tiklash yoki yetkazilgan zarar o'rnini qoplash yo'llari bilan amalga oshiriladi. Ushbu vazifaning maqsadi ham mulkiy, ya'ni tovar-pul munosabatlarining bevosita ekvivalent – haq evaziga amalga oshirilishi bilan belgilanadi

Muhofaza qiluvchi vazifalarning yana bir muhim jihatlaridan biri, uning ayni paytda ishtirokchilarni nojo'ya xatti-harakatlardan o'zlarini tiyishga, kelgusida yuz berishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlikning oldini olishga xizmat qiluvchi ogohlantiruv-tarbiyaviy yo'nalishga egaligidir. Uning bu jihati, ayniqsa, shartnomadan tashqari kelib chiqadigan majburiyatlarni, shuningdek, shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishda yaqqol namoyon bo'ladi.

## **6-§. Fuqarolik huquqining tamoyillari**

Har qanday qonunchilik tizimi va huquq sohasi o'ziga xos asosiy qoidalar va muayyan umumiylik zahirida birlashtirilgan mezonlar asosida amal qiladi. Huquq sohasidagi normalar qanchalik ko'p va xilma-xil bo'lmasin, ularning barchasi uchun xos bo'lgan hamda bitta huquq sohasiga xosligini ta'minlaydigan, ijtimoiy taraqqiyot mezon va ehtiyojlarini yorqin o'zida mujassamlashtiradigan asoslar muayyan vazifani bajaradi va huquq sohasi qonunchiligini, qolaversa, shu huquq tarmog'ining o'zini ham boshqa sohalardan ajralib turishini ta'minlaydi. Shunday qoidalar, mezonlar va asoslarni hamda qonun normalarini shakllantirish uchun eng muhim jihat bo'lgan

asosiy negizlarning nazariy va amaliy muammolarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tamoyillar nafaqat bitta fan yoki soha, balki butun mamlakatda amalda bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini belgilashda, mamlakat istiqboli yo'lida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda rahbariy ko'rsatmalar vazifasini o'taydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi va bozor iqtisodiyotiga o'tishining besh asosiy tamoyilining ishlab chiqilganligi va mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy yuksalishi aynan ana shu tamoyillar asosida olib borilganligi<sup>1</sup> fikrimizning dalilidir. Ushbu istiqbolli jarayonning mantiqiy davomi tariqasida 2010-yil 12-noyabrda «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da «...mavjud qonunlarimizning ko'pchiligini ularni qo'llash amaliyoti va mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi davrdagi yangi real holatidan kelib chiqib, jiddiy qayta ko'rib chiqish zarur»<sup>2</sup>, deb alohida ta'kidladilar, ushbu Konsepsiyada keltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini belgilovchi rahbariy ko'rsatmalarda ifodalangan g'oyalar-tamoyillar mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun uzoq muddatli aniq harakat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Aynan shu jihatdan, fuqarolik huquqi tamoyillari ham tovar-pul muomalasining rivojlanishi uchun xos bo'lgan, bozor munosabatlarini huquqiy tartibga solishga qaratilgan normalarda o'z ifodasini topishi lozim bo'lgan asosiy qoidalar va asosiy negizlar sifatida belgilandi. Asosiy negizlar-tamoyillarning qiymati shu bilan izohlanadiki, fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan mulkiy va nomulkiy munosabatlarni eng samarali

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. T.1. – Toshkent, «O'zbekiston», 1996. – B. 36 –85.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. 19. – Toshkent, «O'zbekiston», 2011. – B. 102.

tarzda rivojlantirishga qodir bo'lgan demokratik tipdagi yaxlit tizim sifatida shakllantiradi. Ular, o'z navbatida, fuqarolik huquqiy normani baholash mezonini ham bo'lib hisoblanadi. Fuqarolik qonunchiligining ma'no-mazmuni mantiqning induksiya metodi yordamida huquqning asosiy negizi – tamoyilidan oziqlanadi, desak to'g'ri bo'ladi. Asosiy negizlar-tamoyillar fuqarolik qonunchiligiga yangi sifat xususiyatlarini baxsh etadi. Eng avvalo shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1-moddasiga ko'ra, fuqarolik qonunchiligi ular tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarining tengligini e'tirof etishga, mulkning daxlsizligiga, shartnomalar erkinligiga, xususiy ishlarga o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'yilmasligiga, fuqarolik huquqlari to'sqinliksiz amalga oshirilishini, buzilgan huquqlar tiklanishini, ularning sud orqali himoya qilinishini ta'minlash zarurligiga asoslanadi.

Darhaqiqat «asosiy negizlar-tamoyillar» kategoriyasini fuqarolik huquqiy munosabatlarning mohiyatidan o'zgacha hol anglashilmasa, qonunchilikning umumiy negizlari va mazmuni kategoriyasidan farqlash lozim. Eng muhimi, fuqarolik huquqi asosiy negizlari-tamoyillari to'g'ridan-to'g'ri qo'llash kuchiga ega.

Huquqiy tamoyillar deganda, qonuniy mustahkamlanganligi tufayli umummajburiy tusga ega bo'lgan, huquqning mazmun-mohiyatini ifoda etuvchi bosh va asosiy qoidalar (negizlar) tushuniladi. Bunday qoidalar, nafaqat, bir butun yagona huquqiy tizimga yoki huquq sohasiga, shuningdek, soha osti, institutlar va hatto subinstitutlar (yordamchi institutlar)ga ham xosdir.

Huquqiy tamoyillar, shuningdek, sohaviy tamoyillar ahamiyatini ikki jihatdan baholash mumkin. Birinchidan, ular huquqiy tartibga solish mazmunining mohiyatini, ijtimoiy yo'nalishini hamda sohaga taalluqli xususiyatlarini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, qonunchilikdagi nuqsonlar aniqlanganda va huquqiy normalarni o'xshashlik bo'yicha qo'llaganda, albatta, hisobga olinishini nazarda tutadi.

Fuqarolik-huquqiy tartibga solishning tamoyillariga quyidagilar kiradi:

**1. Xususiy ishlarga boshqalarning o'zboshimchalik bilan aralashuviga yo'l qo'yilmasligi.** Bu prinsip fuqarolik huquqining xususiy huquq sifatida mavqeyini tavsiflab, birinchi navbatda, ommaviy hokimiyat va uning organlarini nazarda tutadi. Bundan ko'zlangan maqsad hokimiyat organlari va umuman biron-bir kishining, fuqarolarning xususiy ishlariga, shuningdek, ularning mulkiy munosabatlar ishtirokchilari sifatida amalga oshiradigan xo'jalik faoliyatiga, faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina aralashishiga yo'l qo'yilishini ta'minlashdan iborat.

Shaxsiy-nomulkiy munosabatlar doirasida ushbu prinsip fuqarolar shaxsiy ishi va hayotining daxlsizligi to'g'risidagi qoidalarda o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25–27-moddalari).

Mazkur prinsip talablari Fuqarolik kodeksining 12-moddasi (Davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hujjatini haqiqiy emas deb topish), 15-moddasi (Davlat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan yetkazilgan zararni to'lash), 1021-moddasi (Umumiy qoidalar) va boshqa moddalari orqali amalga oshiriladi.

**2. Yuridik tenglik prinsipi** fuqarolik huquqi munosabati ishtirokchilarining huquqiy maqomini e'tirof etadi. Ular bir-biriga nisbatan ma'muriy-buyruqbozlik, qaramlik munosabatida bo'lmasdan, balki o'zaro teng huquqlilik aloqalarini o'rnatadilar, barchalari uchun bir xil imkoniyatlar yaratuvchi umumiy fuqarolik huquqi normalari asosida harakat qiladilar. Ayni paytda mazkur prinsip tovar almashinuvini mulkiy munosabatlar jarayonida subyektlarning tengligini yuridik jihatdan ta'minlaydi. Ta'kidlash joizki, qonunda nazarda tutilgan ayrim hollarda yuridik tenglik prinsipida qisman chekinishga ham yo'l qo'yiladi. Xususan, fuqarolik qonunchiligi doimiy tadbirkorlik faoliyati sifatida (professional) xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun bir muncha qat'iy talablar o'rnatilishi va aksincha, iste'molchi fuqarolarga imtiyozlar berilishi mumkin (FKning 358-moddasi).

**3. Mulkning daxlsizligi prinsipi** fuqarolik huquqining asosiy prinsiplaridan biri hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasining 36 va 53-moddalarida o'z aksini topgan. Xususiyl huquqda ham, ommaviyl huquqda ham ushbu prinsip shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, mulk huquqini kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish imkoniyatlarining ta'minlanganligini anglatadi. «Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqliligi» O'zbekiston Respublikasi (Konstitutsiyasining 36-moddasi), «Xususiyl mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin» (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi) degan qoidalar buni yaqqol isbotlab turibdi. Bundan tashqari mulkning daxlsizligi haqidagi konstitutsion qoida begona shaxsning mulkini asossiz o'zlashtirishga, mulk huquqini qonunga zid ravishda bekor qilishga va mol-mulkni o'zboshimchalik bilan egallab olishga chek qo'yadi. Ta'kidlash lozimki, ushbu prinsip, shuningdek, fuqarolik qonunchiligida, xususan, fuqarolik kodeksining 1, 164, 166, 199, 202, 203 va boshqa qator moddalarida to'liq o'z ifodasini topgan. Masalan, FKning 166-moddasida mulkning daxlsizligi, uning qonun bilan qo'riqlanishi, mulkdorga qarshi turgan barcha subyektlarning mulk huquqini buzishdan o'zlarini saqlashlari to'g'risidagi normalar belgilangan.

**4. Shartnoma erkinligi prinsipi.** Ushbu prinsip ham mulkni muomala rivoji uchun asosiy va muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik kodeksining 1 va 354-moddalarida «shartnomaning erkinligi», «shartnoma tuzishga majbur qilishga yo'l qo'yilmasligi», «qonunchilikda nazarda tutilmagan shartnomani tuzish mumkinligi», «shartnoma shartlari taraflarning xohishi bilan belgilanishi» kabi bir qator qoidalar e'tirof etilgan. Fuqarolik huquqi subyektlari shartnoma tuzishda erkindirlar (FK 354-moddasining birinchi qismi). Ayni paytda mazkur prinsipning amal qilinishida ba'zi istisnolar bo'lishi mumkin. Fuqarolik kodeksida, xususan, kredit tashkilotining mijoz taklifi bilan bank omonati yoki bank hisob varag'i shartnomasini tuzish haqidagi taklifini rad etishga haqli emasligi nazarda tutilgan

(FK 759-moddasining uchinchi qismi). Bundan tashqari, ayrim hollarda, shartnomaning ba'zi shartlarining mazmuni qonun bilan belgilangan bo'lishi mumkin. Lekin umumiy qoidaga ko'ra, shartnoma shartlari faqat taraflarning kelishuviga asosan belgilanadi.

**5. Dispozitivlik prinsipi deb,** fuqarolik huquqi subyektlarning mustaqil, o'z xohishlari va manfaatlariga muvofiq bo'lgan xatti-harakat turlarini tanlashlari va amalga oshirishlariga aytiladi. Fuqarolik muomalasi ishtirokchilari aksariyat hollarda fuqarolik huquqiy munosabatlarga ko'rinishni yoki ko'rinmaslikni, qarshi taraf (kontragent)dan muayyan majburiyatlarni bajarishni talab qilish yoki qilmaslikni, o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etish yoki murojaat etmaslikni va u kabi huquqlarini amalga oshirish yoki oshirmaslikni mustaqil hal qiladilar. Biroq bunda ularning o'zlariga tegishli bo'lgan fuqarolik huquqlarni amalga oshirishdan voz kechishi bu huquqlarning bekor qilinishiga olib kelmaydi (FKning 9-moddasi ikkinchi qismi). Tanlashning bunday erkinligi subyektlarning o'z maqsadlariga erishishlarida tashabbuskorlikni nazarda tutadi va qo'llab-quvvatlaydi.

**6. Fuqarolik huquqlarining to'sqinliksiz amalga oshirilishi prinsipi** fuqarolik muomalasida halal beradigan har qanday to'siqlarni yo'qotish(olib tashlash)ni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu prinsipning konstitutsion ifodasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida, ya'ni, «iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini davlat tomonidan kafolatlanganligi», shuningdek, Fuqarolik kodeksining birinchi moddasi uchinchi qismida e'tirof etilgan «tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag'larning O'zbekiston Respublikasining butun hududida erkin harakatda bo'lishi» haqidagi normalarida ifodalangan. Qonun yo'li bilan mazkur prinsip bir qator cheklanishi mumkin. Fuqarolik huquqlarini to'siqsiz amalga oshirish prinsipi FKning deyarli barcha moddalarida, xususan, uning asosiy belgilari 9-moddasida batafsil bayon etilgan bo'lib, fuqarolik huquqi subyektlarining halol, oqilona va adolat bilan

harakat qilishlarida, jamiyatning ma'naviy tamoyillari va axloqiy normalarini hurmat qilishlarida, ish odobi qoidalariga rioya etishlarida muhim rol o'ynaydi.

**7. Huquqni suiiste'mol qilishni taqiqlash prinsipiga** binoan, fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'zlari ega bo'lgan huquqlaridan ma'lum ma'noda cheklanmagan tarzda foydalanishlari istisno qilinadi. Har qanday huquq borliq, jamiyat va davlat hosilasi sifatida mavjud ekan, uning mazmuni ham, amalga oshirish usullari va vositalari ham shunga bog'liq holda chegaralangan bo'ladi. Aksincha, hech qanday chegaraga ega bo'lmagan yoki qaysidir jihatdan cheklanmagan huquq oxir-oqibatda o'zboshimchalikka, zulm-istibdodga olib kelishi muqarrar. Shu ma'noda, fuqarolik qonunchiligida asoslardan biri sifatida qabul qilingan ushbu prinsipning amal qilinishini Fuqarolik kodeksining 172-moddasida yaqqol ko'rish mumkin: «Mulkdorning o'z huquqlarini amalga oshirishi boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart». Yoki «mulkdor o'z huquqini amalga oshirganda fuqarolarning sog'lig'iga va atrof-muhitga zarar yetkazishning oldini olish choralarini ko'rishga majbur» ekanligi haqidagi norma ham mazkur prinsipga asoslanadi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasi va FKning 172-moddasi to'rtinchi qismi). Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, muqarrar bo'lgan zaruriyat tufayli qonunchilikda belgilanadigan bunday taqiqlarni mulkdorning huquqlarini cheklash, deb qaramaslik lozim. O'xshash cheklashlar va taqiqlarni majburiyat huquqida ham uchratish mumkin. Xususan, tadbirkorga ommaviy shartnomaning tarafi sifatida uni tuzishdan bosh tortishiga yo'l qo'ymasligini, uning shartnoma tuzish erkinligini cheklash deb qarash mumkin. (FKning 358-moddasi). Lekin, har qanday cheklashlar asosida muayyan subyektlarning huquqlarini amalga oshirish natijasidan yuqoriroq darajada bir butun bo'lgan jamiyat manfaati yotadi. Ushbu masala qizg'in bahslarga sabab bo'lishidan qat'iy nazar amaldagi qonunchilik uni har jihatdan adolat tarozusiga solib hal etgan, desak xato bo'lmaydi.



**8. Fuqarolik huquqlarini muhofaza etish va ularni sud orqali himoya qilish prinsipi** fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining o'z huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashlari uchun asos bo'ladi. Fuqarolar o'zlarining huquq va manfaatlarini muhofaza qilish va buzilgan huquqlarini tiklash maqsadida sudga murojaat qilishlari (FKning 10-moddasi) yoxud o'zlari himoya qilishlari (FKning 13-moddasi), shuningdek, yetkazilgan zarar uchun qarshi taraf (kontragent) ga nisbatan mulkiy tusdagi choralar ko'rishni talab qilishlari (FKning 14-moddasi) va boshqa shu kabi harakatlarni amalga oshirishlari mumkin.

Umuman ushbu prinsipga asoslangan bir qator usullar (FKning 11-moddasi) fuqarolik huquqi predmetining tabiatiga muvofiq aksariyat hollarda mulkiy tusga ega bo'ladi. Ularni qo'llashdan nazarda tutilgan provard maqsad ham, odatda, buzilgan huquqlarni tiklash yoki jabrlanuvchilarga yetkazilgan zarar o'rnini mulkiy qoplashga yo'naltiriladi.

**9. Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining buzilgan huquqlarining tiklanishi** (FKning 1-moddasi). Fuqarolik huquqi birinchi navbatda huquqiy munosabat ishtirokchisining buzilgan huquqlarining avvalgi holatiga qaytarilishiga qaratiladi (mulkni natura holida qaytarish, buzilgan shaxsiy huquqni tan olish va h.k.).

**10. O'zbekiston Respublikasining butun hududida tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag'larning erkin harakatda bo'lishi** (FKning 1-moddasi). Bu tamoyil bozor iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan moddiy ne'matlarning erkin harakatlanishi hisobiga tovar-pul munosabatlarining tezlashishini amalga oshirishga xizmat qiladi.

**11. Mulkiy munosabatlarning mafkuraviy munosabatlardan ajratilganligi.** O'tmishda iqtisodiy, shu jumladan, mulkiy munosabatlarni tartibga solishda har xil mafkuraviy qoliplar va aqidalardan kelib chiqilgan edi. Xuddi shu sababli ham, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida hech qanday mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas, deb ko'rsatildi.

## 7-§. Fuqarolik huquqi tizimi

Fuqarolik huquqi ma'lum tartibda, muayyan guruhlarga, huquqiy institutlarga va subinstitutlarga bo'lingan fuqarolik huquqiy normalar yig'indisidan iborat. Fuqarolik huquqi institutlarining barchasining yig'indisi bir bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqi tizimini tashkil etadi. Respublikamizda fuqarolik huquqi tizimiga O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi asos qilib olingan.

Fuqarolik huquqi fani quyidagi tizimlarga bo'linadi:

1. **Umumiy qoidalar.** Bu bo'limda fuqarolik huquqi tushunchasi, predmeti, tamoyillari, tizimi, manbalari, fuqarolik huquqiy munosabat, fuqarolik huquqining subyektlari, fuqarolik huquqining obyektlari, bitimlar, vakillik va ishonchnoma, muddatlar, da'vo muddatlari to'g'risidagi ta'limotlar o'rganiladi.

2. **Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar.** Bu bo'limda mulk huquqi to'g'risidagi umumiy qoidalar, mulk huquqi, xususiy mulk huquqi, ommaviy mulk huquqi, umumiy mulk huquqi, xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi, meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi, yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi, servitut huquqi va mulk huquqini himoya qilish usullari, mol-mulknini boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish, mulkdan foydalanishda mulk egasiga qilingan to'sqinliklarni bartaraf etish, mulkiy huquqni fuqarolik huquq normalari bilan himoya qilishning boshqa usullari to'g'risidagi ta'limotlar o'rganiladi.

3. **Majburiyat huquqi.** Bu bo'limda majburiyatlar to'g'risidagi umumiy qoidalar, majburiyatlarning vujudga kelishi va bekor bo'lishi, majburiyatlarni bajarish, majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash, majburiyatda qatnashuvchi shaxslarning o'zgarishi, majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik, shartnoma to'g'risidagi umumiy qoidalar, shartnoma tushunchasi, shartnomalarni tasniflash, shartnomalarning alohida turlari o'rganiladi.

4. **Intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquq.** Bu bo'limda fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, ixtirolar,

foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlariga bo'lgan huquqlar va ularni yaratish tufayli vujudga keladigan munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi kabi masalalar, shuningdek, mualliflik huquqi, turdosh huquqlar va sanoat mulkiga bo'lgan huquqlar bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar o'rganiladi.

**5. Vorislik huquqi.** Bu bo'limda vorislik to'g'risidagi umumiy qoidalar, vorislik asoslari, vasiyat bo'yicha vorislik, qonun bo'yicha vorislik, meros oluvchilarning navbati, meros tarkibi, merosning ochilishi, merosxo'rlar, merosni egallash, vasiyatnoma, vasiyatnomaning tuzilishi, vasiyatnomaning bekor bo'lishi va o'zgartirilishi, fuqarolarning vafotidan so'ng mulkni boshqa shaxslarga meros bo'lib o'tishi bilan bog'liq huquqiy munosabatlarning tartibga solinishi o'rganiladi.

**6. Xalqaro xususiy huquq.** Bu bo'limda xalqaro xususiy huquq normalarini fuqarolik huquqiy munosabatlarga nisbatan tatbiq etish qoidalari o'rganiladi.

Ma'lumki, har qaysi huquq tizimining asosiy vazifasi, faqat alohida huquq sohalari va ular doirasini ajratishdangina emas, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ularning yagona majmua sifatidagi umumiy ta'sirini ta'minlashdan ham iborat. Shuning uchun huquq tizimi uni tashkil qiluvchi elementlarning ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy huquqiy omillariga tayangan ichki muvofiqligi bilan tavsiflanishi kerak.

### **Tayanch iboralar:**

Fuqarolik huquqi, mulkiy munosabatlar, nomulkiy munosabatlar, korporativ munosabatlar, tashkiliy munosabatlar, fuqarolik huquqining tamoyillari, huquqiy tamoyil, fuqarolik huquqi tizimi, huquqiy institut, subinstitut.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Fuqarolik huquqi tushunchasiga ta'rif bering.
2. Fuqarolik huquqining metodi qanday ta'riflanadi?
3. Fuqarolik huquqining vazifalari nimalardan iborat?

4. Fuqarolik huquqining qanday tamoyillari bor?
5. Fuqarolik huquqida dispozitivlik deganda nimani tushunasiz?
6. Buzilgan huquqning tiklanishi ularning sud tartibida himoya qilinishi deganda nimalarni tushunasiz?
7. Fuqarolik huquqlarining to'sqinliksiz amalga oshirilishi tamoyilini tushuntirib bering.
8. Huquqni suiiste'mol qilish deganda nimani tushunasiz?
9. Mulkning daxlsizligi prinsipi nima?
10. Shartnoma erkinligi tamoyilining mohiyatini ochib bering.
11. Qanday munosabatlar fuqarolik huquqining predmetini tashkil qiladi?
12. Fuqarolik huquqi fanining predmetiga ta'rif bering.
13. Fuqarolik huquqi fanining predmeti to'grisida qanday mulohazalar mavjud?
14. Fuqarolik huquqi fanining predmetini qanday shaxsiy munosabatlar tashkil qiladi?
15. Mulk bilan bog'liq nomulkiy munosabatlarning xususiyatlari nimalardan iborat?
16. Tashkiliy-huquqiy munosabatlarning mohiyatini tushuntirib bering.
17. Korporativ munosabatlar deb qanday munosabatlarga aytiladi?
18. Korporativ munosabatlarning qanday turlarini bilasiz?
19. Qaysi huquqshunos olim birinchi bo'lib fuqarolik tashkiliy huquqiy-munosabatlar mavjudligini asoslab bergan?
20. Mulkiy munosabatlarning mohiyatini tushuntirib bering.

## II bob. FUQAROLIK-HUQUQIY TIZIMLAR

### 1-§. Fuqarolik-huquqiy tizimlar tushunchasi

Fuqarolik-huquqiy tizimlar o'z mohiyatiga ko'ra bir necha davlatlarning birlashmasi tomonidan asosiy qonuniyatlarni amalga oshirish va ijtimoiy munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishni nazarda tutadi<sup>1</sup>. Hozirgi kunda biror bir mamlakat yoki davlat fuqarolik huquqsiz ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga sola olmaydi.

Bugungi kunda dunyoda amal qiluvchi uchta asosiy huquq tizimi mavjud bo'lib ular quyidagilardan iborat:

- qit'a huquq tizimi;
- umumiy huquq tizimi;
- musulmon huquqi tizimi.

Har qanday tizim kabi fuqarolik-huquqiy tizimlar ham muayyan tarkibiy qismlardan iborat. Fuqarolik-huquqiy tizimning tarkibiy qismlariga huquq manbalari, fuqarolik huquqining ichki tuzilishi, normalarning qismlari, bo'limlar, boblar, sohalar, institutlar, huquqni qo'llash amaliyoti, huquq va uning amaliyotiga nisbatan doktrinalar kiradi.

Yuqoridagi tarkibiy qismlar qit'a (roman-german), umumiy (anglo-amerika) va musulmon huquq tizimlarida yaqqol namoyon bo'lsa, patriarxal huquq tizimida zaif tarzda aks etadi. Qit'a huquq tizimi asosan Yevropa mamlakatlarini (Buyuk Britaniyadan tashqari) qamrab olgan, shuning uchun ham u qit'a huquq tizimi nomini olgan. Bundan tashqari bu tizimga Lotin Amerikasining ko'pgina davlatlari, Koreya, Xitoy va boshqa mamlakatlar kiradi.

Umumiy huquq tizimi AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Hindiston, Yangi Zelandiya va boshqa mamlakatlarda qo'llaniladi.

Musulmon huquq tizimi Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari Eron, Saudiya Arabistoni, Liviya, Malayziya, Iordaniya, Afg'oniston va boshqa davlatlarda qo'llaniladi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Сергеев А.П., Толстой Ю. К. Гражданское право. – М., Проспект. 2002. – С. 75.

<sup>2</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2006. – B. 35.

Tropik Afrika mamlakatlarida, Arabiston yarim orolining sharqiy qismidagi ko'chmanchi qabilalarda, Janubi-Sharqiy Osiyoning milliy ozchiligini tashkil etuvchi xalqlarida patriarxal hayot tarzi sababli patriarxal huquq tizimi qo'llaniladi.

MDH mamlakatlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi huquq tizimi qit'a huquq tizimiga mansubdir<sup>1</sup>.

Hozirgi kunda barcha fuqarolik huquqi tizimlari o'rtasida o'zaro yaqinlashuv, bir-biridan andoza olish, implantatsiya jarayoni kechmoqda. Bu jarayon asosan, iqtisodiy, ilmiy-ijodiy, madaniy sohalaridagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ayrim sohaları bo'yicha xalqaro Konvensiya, davlatlararo bitimlar, Butunjahon Savdo Tashkiloti, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati, Butunjahon Intellektual mulk Tashkiloti, Xalqaro tadbirkorlik Palatasi va boshqa qator umumjahon, mintaqaviy va davlatlararo tuzilmalarning faoliyati bu sohada o'ziga xos turtki bermoqda, uni maqsadga muvofiq tarzda yo'naltirmoqda<sup>2</sup>.

Biz quyida qit'a, umumiy va musulmon fuqarolik-huquqiy tizimlari xususida to'xtalamiz.

## 2-§. Qit'a huquq tizimi

Qit'a huquq tizimining tarixiy ildizlari Rim huquqiga borib taqaladi. Huquqshunos olimlar tomonidan Rim xususiy huquqi normalarini takomillashtirish asosida qit'a davlatlarida milliy fuqarolik huquqi tizimlari vujudga keldi.

Qit'a huquq tizimida huquqni ommaviy va xususiy huquq sohalariga ajratish xarakterlidir<sup>3</sup>. Ommaviy huquq – bu siyosiy hokimiyatni tashkil etish va amalga oshirishni tartibga soladi, u jamiyat manfaatlarini ifodalaydi. Xususiy huquq – sivil huquqi (fuqarolik huquqi) alohida kishilar, xususiy shaxslar manfaatlariga

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2006. – B. 36.

<sup>2</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2009. – B. 65–66.

<sup>3</sup> Гражданское право. Том 1. Учебник. Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. – М., 2002. – С. 80.

xizmat qiladi. Bu shaxslar fuqarolik-huquqiy munosabatlarida teng huquqqa egadir va ularning hech biri alohida imtiyozlarga ega emas.

Qit'a huquq tizimida ikki asosiy yo'nalish – Germaniya va Fransiya fuqarolik qonunchiligi farqlanadi.

Roman-german huquqiy tizimi bu Rim huquqiy merosidan foydalangan holda tashkil etilgan va tuzilmaning umumiyligi, huquq manbalari hamda yuridik tushunchalarning o'xshashligi bilan birlashgan huquqiy tizimlar majmuidir.

Roman-german huquq tizimi boy va sermazzmun yuridik tarixga egadir. U XII–XVI asrlarda Yustinianning kodeksi negizida ko'pchilik Yevropa mamlakatlari uchun umumiy bo'lgan huquqshunoslik fanini yaratgan Italiya, Fransiya va Germaniya universitetlarida Rim huquqini o'rganish asosida shakllangan.

Yevropa davlatlari o'z fuqarolik qonunchiligini shakllantirganda ushbu Fransiya va Germaniya davlatlaridan andoza olganlar. Fuqarolik huquqining Roman guruhi asosida 1804-yilda qabul qilingan Fransiya fuqarolik kodeksi (Napoleon fuqarolik kodeksi), German guruhi asosida esa 1896-yilda qabul qilingan Germaniya fuqarolik tuzuklari yotadi.

Fransiya fuqarolik kodeksi institutsiyaviy deb nomlanadi (u Yustinian kodifikatsiyasining bir qismi bo'lgan Rim huquqi bo'yicha oddiy darslikning institutsiyalaridan o'zlashtirilgan)<sup>1</sup>.

Institutsiyaviy tizim fuqarolik-huquqiy normalarini quyidagi guruhlarga bo'ladi:

- shaxslar;
- ashyolar va ashyoviy huquqlar;
- da'volar va ushbu da'volar bo'yicha majburiyatlar.

Keyinchalik bu tizimning takomillashuvi natijasida undan protsessual normalar ajratib chiqarilib, sof moddiy huquq normalari qoldi, umumiy qoidalar va boshqa bo'limlar bilan boyitildi.

Fuqarolik huquqi tizimining German yo'nalishi «German guruhi» deb ataladi, chunki u Yustinian kodifikatsiyasining Digest(kodeks)lariga asoslanadi. Uning mohiyati shundaki,

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2009. – B. 66.

xususiy huquq normalari avval boshidanoq moddiy va protsessual huquq normalariga bo'linadi hamda protsessual huquq normalari alohida holda mavjud bo'ladi. Ayni vaqtda barcha moddiy huquq normalari fuqarolik huquqining barcha institutlariga taalluqli bo'lgan normalar (Umumiy qism) bilan alohida institutlarga – ashyoviy huquqlar, majburiyatlar, oila va meros huquqlariga bag'ishlangan normalar (Maxsus qism)ga bo'lingan.

Qit'a huquqi tizimi manbalari haqida so'z ketganda, uning eng avvalo, Rim huquqi ta'siri ostida rivojlanganini qayd etish lozim. Demak, qit'a huquq tizimida asosiy manba qonunlar hisoblanadi va ular ichida Fuqarolik kodeksi markaziy o'rinni egallaydi. Fuqarolik kodeksi va qonunlarning normalari umumiylikdan xususiylikka, mavhumlikdan aniqlikka yo'naltiriladi. Alohida qonunlar Fuqarolik kodeksiga bo'ysundirilgan holda yaratiladi va qo'llanadi.

Roman-german huquqining asosiy manbai sifatida qonunning muhim ahamiyatini belgilab bergan holat huquqni kodekslashtirish imkoniyatini va zarurligini keltirib chiqargan. Huquq kodeks tuzish yo'li bilan tizimga aylantiriladi, unga bamisoli muayyan prinsiplar singdirilganidek taassurot qoldiradi.

Kodeks tuzish huquqqa aniqlik baxsh etgan, uning amalda qo'llanilishini ancha yengillashtirgan, Yevropada shakllangan huquqiy norma va umuman huquqni tushunishning mantiqiy tugallanilishi bo'lgan. Kodeks tuzish yaxlit hodisa sifatida roman-german huquq tizimi shakllanishini yakunlagan.

Qit'a huquqi tizimida odat huquqi manba sifatida juda kam ahamiyatga ega. Huquqiy tartibga solishda asosiy tayanch markaz qonun hisoblanadi. Mohiyatan olib qaraganda, odatlar amaldagi pozitiv huquqni to'ldiruvchi ish muomalasi odatlari ko'rnishida namoyon bo'ladi<sup>1</sup>.

Ma'lumki, qit'a huquqi tizimida pretsedent huquqi mavjud emas. To'g'ri, ba'zi mamlakatlarda sud amaliyoti huquq manbai sifatida e'tirof etilsa ham, bu faqat tor doirada, qonun bilan tartibga

---

<sup>1</sup> Гражданское право. Том 1. Учебник. Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. – М., 2002. – С. 82.



solinmagan yoxud to'liq tartibga solinmagan munosabatlarga nisbatangina qo'llaniladi.

Qit'a huquqi tizimida shaxslar to'g'risidagi normalar ikki qismga bo'linadi:

- jismoniy shaxslar;
- yuridik shaxslar.

Jismoniy shaxslarning huquq layoqati ularning huquq va burchlarga ega bo'lish layoqati, muomala layoqati esa o'zlarining xatti-harakatlari bilan o'zlari uchun huquq va majburiyatlarni vujudga keltirish qobiliyati sifatida ta'riflanadi. Huquq layoqati barcha uchun teng bo'lib, uning mazmuni pozitiv huquq bilan belgilab qo'yilgan. Insonning sog'lig'i va yoshiga qarab muomala layoqatining hajmi pozitiv huquq bilan belgilanadi<sup>1</sup>.

Qit'a huquqida yuridik shaxslar haqidagi ta'limot batafsil ishlab chiqilgan. Yuridik shaxs o'ziga xos mavhumlashtirilgan kategoriya bo'lib, yuridik shaxslarning barcha turlarini qamrab oladi. Yuridik shaxslarning mohiyati va belgilariga, shuningdek, ularni tasniflashga alohida ahamiyat beriladi. Yuridik shaxslarning turlari ro'yxati qat'iy tizimga solingan. Yuridik shaxslarning vujudga kelishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi uchun umumiy bo'lgan qoidalar belgilab qo'yilgan. Tijorat yuridik shaxslari umumiy (universal) huquq layoqatiga ega. Notijorat yuridik shaxslar uchun maxsus huquq layoqati belgilangan. Barcha yuridik shaxslar uyushmalar va muassasalarga bo'linadi. Uyushmalar turli jamiyat va shirkatlarga – to'liq shirkat (ba'zi mamlakatlarda to'liq shirkat yuridik shaxs hisoblanmaydi), kommandit shirkat, mas'uliyati cheklangan jamiyat, aksiyadorlik jamiyatlariga bo'linadi.

Shirkatlarning (jamiyatlarning) turlarga bo'linishi asosida ular ishtirokchilarining korporatsiya majburiyatlari uchun javobgarlik xarakteri asosiy mezon bo'lib hisoblanadi. To'liq shirkatda barcha ishtirokchilar o'zlarining barcha mol-mulklari bilan solidar javob beradilar. Kommandit shirkatda esa bir

---

<sup>1</sup> Гражданское право. Том 1. Учебник. Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. – М., 2002. – С.82.

xil ishtirokchilar (kommanditchilar) ustav fondiga qo'shgan ulushlari hajmida, boshqalar, ya'ni to'liq a'zolar o'zlarining barcha mol-mulklari bilan solidar javob beradilar. Shirkat a'zolaridan farqli ravishda jamiyat a'zolarining javobgarligi ularning ustav fondlariga kiritilgan ulushlar bilan cheklanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyat bilan aksiyadorlik jamiyatlari o'rtasidagi farq ularning ishtirokchilariga ulushlar (hissalar, paylar) yoki qimmatbaho qog'oz sifatidagi aksiyalar tegishli bo'lishida namoyon bo'ladi. Korporatsiyalar tashkil etishda qit'a qonunchiligi boshlang'ich ustav kapitali hajmi va shakllantirish tartibiga nisbatan juda qattiq talablar qo'yadi.

Muassasalarda esa muassis o'z mol-mulkidan muassasa uchun alohida ajratib, biriktirib qo'yadi, muassasa ma'muriyati muassasa maqsadlarini amalga oshirishda ushbu mol-mulknini boshqaradi. Odatda, muassasa uning mol-mulkinging mulkdori, a'zolari va boshqaruvchilari bo'lmagan shaxslarning manfaatlari uchun faoliyat yuritadi. Bu shaxslar destinatlar deb ataladi. Davlat g'aznasi (fisk), davlat korxonalari va boshqa muassasalar, diniy tashkilotlar va xayriya jamg'armalari (fondlari) muassasa ko'rinishida namoyon bo'ladi<sup>1</sup>.

**Ashyoviy huquqlar.** Qit'a huquq tizimida ashvoviy huquqlar turkumi mavjud. Ashvoviy huquqlar shaxsning o'z ashvolariga bo'lgan huquqlarga (mulk huquqi ham kiradi) va shaxsning o'zgalar ashvolariga bo'lgan huquqlariga (servitutlar, emfitevzis, garov, qurilish qilish huquqi va shu kabilar kiradi) bo'linadi. O'zgalar ashvolariga bo'lgan huquqlar begonaning mol-mulkiga bo'lgan ta'sirining usullari, hajmlari, quvvati va boshqa jihatlari bo'yicha farqlanadi. O'zgalar ashvolariga bo'lgan huquqlar mulkdorga burchlar yuklagani sababli ashvoviy huquqlar doirasi qat'iy belgilab qo'yilgan (numenis clausus). Har qanday holda ham ashvoviy huquq mazmuni pozitiv huquq bilan belgilanadi.

Ashvoviy huquqlarning alohida turlari bilan birga egallash shaxsni ashv bilan bog'langanligi faktik holati (shaxsni ashv ustidan hukmronligi) ekanligiga katta e'tibor qaratiladi. Qit'a

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2009. – B. 69.

huquqi doirasida egallash maxsus egalik qilishni ta'minlash da'volari bilan himoya qilinadi, muayyan mezonlarga javob beradigan egalik qilish buzilganda, huquqbuzarning aybidan qat'i nazar bunday da'volarni qo'llash mumkin.

Tabiiyki, mulk huquqi asosiy ashyoviy huquq bo'lib hisoblanadi. Ashyoviy huquq normalarining asosiy qismi unga bag'ishlangan. Har bir mamlakatda mulk huquqining mazmuni o'ziga xos bo'lishiga qaramasdan, ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan jihatlar ham mavjud.

Qit'a huquq tizimida mulk huquqini talqin etishda Rim an'alariga va, eng avvalo, «bir ashyoga nisbatan ikkita to'liq mulk huquqi bo'lishi mumkin emas» degan asosiy tamoyildan kelib chiqiladi. Mulk huquqi yagona va bo'linmasdir. Bo'lingan yoki ikkilangan mulk bo'lishi mumkin emas. Mulk huquqining ushbu doirasiga sig'maydigan hayotiy vaziyatlarning xususiyatlari yo o'zgarlar mulkiga bo'lgan huquqlarda yoki u yoki bu obyektga nisbatan u yoki bu subyektning mulk huquqining o'ziga xosliklarini belgilab qo'yishda ifodalanishi mumkin. Garchi keyingi vaqtlarda qit'a huquqi tomonidan anglo-amerika huquqining mutlaqo qarama-qarshi tamoyillaridan (masalan, trast yoki ishonib topshirilgan mulk) kelib chiquvchi konstruksiyalar o'zlashtirilayotgan bo'lsa ham, biroq ular o'rnashib qolgan an'analarni buzmagan holda moslashtirilmogda (masalan, ishonib topshirilgan mulk o'rniga o'zganing mol-mulkini ishonchli boshqarish belgilangan).

Qit'a huquq tizimi amal qilayotgan tamoyillardan yana biri – bu mulk huquqining eng to'laqonligi tamoyilidir (**plena in re potestas**). Yevropa mamlakatlarining qonunchiligida mulk huquqining tarkibiy qismlari (mulkdor vakolatlari – egallash, tasarruf etish, daromad olish huquqi va shu kabilar) turlicha ifodalaniladi, ba'zan esa hatto g'aroyib vakolat ham (masalan, mol-mulkni yo'q qilib tashlash huquqi) belgilab qo'yilgan. Biroq ayni vaqtda ushbu vakolat bilan mulk huquqi mazmuni chegaralanmasligi, bu vakolatlar «eng mutlaq tarzda», «mulkdorning xohishiga ko'ra», «mustaqil tarzda» amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Xuddi shu bilan mulk huquqining maxsus xarakteri, uning boshqa huquqlardan farqi, uni boshqa

ashyoviy yoxud majburiyat huquqi bilan taqqoslaganda mazmunan har doim keng va mustaqil ekanligi ta'kidlanadi<sup>1</sup>.

O'zgalar mulkiga bo'lgan huquqlar (**iura in re aliena**) ham nihoyatda turlicha va xilma-xil, biroq bu huquqlar ta'siridagi ashyoning mulkdori mavjudligi ularni yagona guruhga birlashtirib turadi.

Umumiy qoidaga ko'ra, mulkdor uning ashyosiga nisbatan ta'sirlarga toqat qilishi lozim, biroq so'nggi vaqtlarda shunday ashyoviy huquqlar ham vujudga kelmoqdaki, uning asosida mulkdor u yoki bu faol harakatlarni sodir etishi lozim. Mulkdorning qaysi vakolatlari cheklanganligiga qarab ashyoviy huquq egalariga o'zgalar ashyosiga nisbatan berilgan imkoniyatlar bo'yicha ashyoviy huquqlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- faqat foydalanish huquqi;
- faqat tasarruf etish;
- egallash va foydalanish.

**Majburiyat huquqi.** Majburiyat huquqi shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga mo'ljallangan huquq normalari tizimidan iborat. Majburiyat doirasida bir shaxsga boshqa shaxsdan (**iug in perconal**) qandaydir xarakterlarni sodir etish (taqdim etish) yoki muayyan harakatlarni sodir etishdan saqlanishni talab qilish huquqi tegishli bo'ladi. Majburiyat taraflari bo'lib kreditor (talab qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs) va qarzdor (zimmasiga burch, majburiyat yuklatilgan shaxs) hisoblanadi, majburiyat predmeti fuqarolik huquqining har qanday obyekt bo'la oladi, majburiyatning mazmunini taraflarning huquq va majburiyatlari tashkil etadi. Bunda majburiyat mazmuni nafaqat pozitiv huquqqa, balki taraflarning erki, irodasiga ham bog'liq bo'ladi.

Majburiyat huquqi ikki qismga bo'lingan bo'lib, unda majburiyat huquqining umumiy qismi barcha turdagi majburiyatlar uchun qo'llaniladigan normalarni o'z ichiga olgan. Majburiyat huquqining maxsus qismi majburiyatlarning alohida turlariga bag'ishlanadi.

---

<sup>1</sup> Гражданское право. Том 1. Учебник. Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. – М., 2002. – С. 84.

Majburiyatlar, eng avvalo, ularning kelib chiqish asoslari bo'yicha turkumlanadi. Majburiyatlar vujudga kelishining bir qator bosh asoslari farqlanadi. Shartnoma bir tomonlama bitim, zarar yetkazish (delikt), topshiriqsiz boshqalarning ishlarini yuritish, asossiz boyish va qonun<sup>1</sup>.

Shartnoma ikki va undan ortiq shaxslarning o'zaro huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi sifatida tan olinadi. Shartnoma tuzilgandan keyin qat'iy bajarilishi lozim (**pacta sunt sertsonda**), uning ijrosi majburiyligi ta'minlanadi.

Jabrlanuvchining shaxsga yoxud mol-mulkiga qandaydir muayyan shartnoma bilan bog'liq bo'lmagan holda ziyon yetkazish delikt hisoblanadi.

Shartnomani buzgani uchun va delikt uchun javobgarlik ayblilik tamoyili asosida belgilanadi, ayni vaqtda zarar yetkazuvchining aybdorligi prezumpsiyasi belgilab qo'yilgan. Biroq bu umumiy tamoyildan istisnolar ham mavjud.

Shartnomalar, eng avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni bo'yicha turlarga bo'linadi, mol-mulkni topshirish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalar va h.k. Shartnoma huquqida shartnomalarning barcha turlari uchun qo'llaniladigan umumiy qoidalar ham mavjud.

Deliktlar bosh va maxsus deliktlarga bo'linadi. Bosh delikt standart qoidalarga kiritilgan har qanday zararni qoplash uchun asos bo'ladigan umumiy qoidalardan iborat. Maxsus deliktlar zararining alohida xarakteri (mulkiy zarar, ma'naviy zarar, shaxsga yetkazilgan zarar, sog'liqqa yetkazilgan zarar), zarar yetkazish manbai (oshirilgan xavf manbai), aybi (aybli yoxud aybsiz javobgarlik), zarar yetkazuvchining shaxsi (masalan, yollanma xodim, davlat xizmatchisi) va boshqa holatlar bo'yicha o'z xususiyatiga ega.

Mutlaq huquqlar (intellektual mulk) inson tafakkuri, ijodiy faoliyat natijalari qator xalqaro konvensiyalar mualliflik huquqiga bag'ishlangan Bern, Jeneva, Parij va boshqa xalqaro konvensiyalar

---

<sup>1</sup> Гражданское право. Том 1. Учебник. Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. – М., 2002. – С. 85.

asosida yaratilgan, rivojlangan qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan. Shu sababli ham, bu masalada qit'a yoki anglo-amerika huquq tizimi bilan bog'liq o'ziga xoslik mavjud emas. Har ikkala tizimga kiruvchi mamlakatlar qonunchiligi bir asr mobaynida yuqorida ko'rsatilgan konvensiyalar asosida bir xildagi modellar asosida tarkib topdi<sup>1</sup>.

Ushbu institutlar doirasida mavjud bo'lgan tushunchalar o'rtasidagina ayrim juz'iy farqlar mavjud. Qit'a huquq tizimida, odatda, mualliflik yoki patent huquqlari tushunchalaridan foydalaniladi, ba'zan ular «mutlaq huquqlar» nomi bilan umumlashtiriladi. Anglo-amerika huquqida esa (adabiy) va sanoat mulki degan iboralar qo'llaniladi, intellektual mulk tushunchasi ularni birlashtiruvchi ibora hisoblanadi. Bunday talqin mulk tushunchasi doirasini kengaytirishga moyil bo'lgan mavjud doktrinaga mos keladi. Shuni ham e'tirof etish o'rinliki, bunday iboralarni qo'llash xalqaro konvensiyalarga ham qit'a huquq tizimining ba'zi mamlakatlarida masalan, Fransiyada ham rasm bo'lgan. Biroq bunday holda ham «mulk» atamasidan shartli ravishda foydalaniladi (bunday huquqlarning himoyasi mutlaq ekanligini ta'kidlash ma'nosida).

**Vorislik huquqi.** Marhum mol-mulkinging merosxo'rlariga o'tishini tartibga soluvchi normalar tizimiga vorislik huquqi deyiladi. Vorislik bu universal huquqiy vorislik bo'lib, uning doirasida meros qoldiruvchidan vorislarga barcha mol-mulklar, chunonchi aktivi (huquqlari) va passivi (burchlari) ham o'tadi. Ayni vaqtda mol-mulknini meros bo'yicha o'tkazishning shunday shakli ham mavjudki, bunda mol-mulknini oluvchi meros qoldiruvchining qarzlari uchun javobgarlikdan ozod bo'ladi (vasiyat majburiyati yoxud legat). Odatda, legat meros qoldiruvchiga majburiyatlari bo'yicha emas, faqat huquqlari bo'yicha singulyar (qisman) huquqiy vorislikni bildiradi.

Vasiyat bo'yicha va qonun bo'yicha vorislik farqlanadi. Vasiyat bo'yicha vorislikda meros vasiyatda ko'rsatilgan shaxslarga

---

<sup>1</sup> Гражданское право. Том 1. Учебник. Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. – М., 2002. – С. 86.

o'tadi. Vasiyatnoma turli shakllarda tuzilishi mumkin. Meros qoldiruvchining o'z qo'li bilan yozilgan yozma vasiyatnoma, davlat mansabdor shaxsi (notarius) huzurida tantanali ravishda e'lon qilgan vasiyatnoma<sup>1</sup>.

### 3-§. Ingliz-amerika huquq tizimi

Ingliz-amerika huquq tizimi negizida umumiy huquq (**common lawe**) yotadi, umumiy huquq Buyuk Britaniyada qirollik sudlari faoliyati natijasida vujudga kelib, bunda qirollik sudlari uchun majburiy bo'lgan. Sudlar tomonidan yangidan yangi qarorlar qabul qilish asosida oddiy umumiy huquqning rivojlanishi ta'minlanadi, uning rivoji to'xtagach esa, kansler sudi faoliyati natijasida tarkib tongan adolat huquqi (**equity**) rivoji ta'minlandi<sup>2</sup>.

Bunday dualizm Rim xususiy huquqi doirasidagi sivil va pretor huquqlari dualizmiga o'xshaydi. Keyinchalik umumiy huquq va adolat huquqi yig'indisidan pretsedent huquqi vujudga keladi va unga parlament tomonidan qabul qilinadigan statut huquqi (**statute law**) qo'shiladi. Biroq pretsedent huquqi statut huquqiga nisbatan mustaqil rivojlanishga ega bo'ldi va hatto butunlay statut huquqining ham qo'llanish tartibini belgilay boshladi. Xuddi shunday ko'rinishdagi ingliz huquqi Buyuk Britaniya koloniyalariga – AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zellandiya va boshqa mamlakatlarga ham o'tkazildi va modifikatsiyalashtirildi.

Ingliz huquqi AQShda eng ko'p darajada o'zgarishlarga duchor bo'ldi. Shu sababli ham u anglo-amerika huquqi tizimi degan nomni oldi. Bu o'zgarishlar, eng avvalo, AQShning federativ tuzilishi bilan bog'liq. AQSh tarkibiga kiruvchi shtatlar fuqarolik qonunchiligini yaratish sohasida katta mustaqillikka ega bo'lganlar va hozir ham egalar. Shu sababli shtatlarning qonun ijodkorligi faoliyatini unifikatsiyalash uchun federatsiya

---

<sup>1</sup> Гражданское право. Том 1. Учебник. Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. – М., 2002. – С. 87.

<sup>2</sup> Ўша жойда.

darajasida to'laqonli qonunlar qabul qilingan yoxud tavsiyaviy namunaviy kodifikatsiyalar yaratilgan. Biroq AQSh huquqi o'z xususiyatlariga ega bo'lishiga qaramasdan ingliz huquqi bilan yagona tizimni tashkil etadi.

**Huquq manbalari.** Ingliz-amerika tizimida manbalarning umumiy doirasi bir xil qonunlar, sud amaliyoti, odatlar bo'lsa ham, ularning nisbati o'zgarib turadi<sup>1</sup>.

Garchi keyingi vaqtlarda qonunlar ko'proq qabul qilinayotganiga qaramasdan, ular ingliz-amerika huquq tizimida qit'a huquq tizimidagidek rol o'ynamaydi. Ingliz-amerika huquq tizimida kodekslar mavjud emas. Qonunlar fuqarolik huquqining alohida institutlari – yuridik shaxslar, mulk huquqi, oldi-sotdi va shu kabilarga nisbatan qabul qilingan, lekin ular tizimga solinmagan. Faqat u yoki bu darajada tizimga solingan hujjatlar mavjud bo'lib ular fuqarolik huquqining ayrim institutlariga taalluqli xolos (masalan, AQShning Namunaviy Savdo kodeksi).

Fuqarolik huquqi mazmunini belgilashda pretsedent huquqi shaklida namoyon bo'ladigan sud amaliyoti hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pretsedent huquqi – yuqori sud instansiyalari hal qiluvchi qarorlari yig'indisining tizimlashtirilgan doktrinasi bo'lib, ular xuddi shunday o'xshash ishlarda qo'llaniladi. Biroq ilmiy-texnika taraqqiyoti bu borada ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Hozirgi vaqtda mashinali o'qiladigan pretsedentlar to'plamlari mavjud bo'lib, bu esa ulardan foydalanishni ancha yengillashtiradi.

Odatlarda ham, ayniqsa, yangi pretsedentlarni shakllantirishda yetarli darajada katta e'tibor beriladi. Ish muomalasi odatlariga kelganda shuni qayd etish o'rinliki, AQShda ularning ahamiyati yetarli darajada katta, bunda ular xususiy xarakterdagi tavsiyaviy hujjatlar asosini tashkil etadi (shartnoma huquqi, agentlar, ishonib qo'yilgan mulk va shu kabilarga bag'ishlangan), ular alohida shtatlar uchun model vazifasini o'taydi.

Ingliz-amerika doktrinasi pretsedent huquqining hal qiluvchi ta'siri ostida rivojlanmoqda.

---

<sup>1</sup> Гражданское право. Том 1. Учебник. Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. – М., 2002. – С. 88.



**Shaxslar.** Ingliz-amerika huquqida ham shaxslar haqidagi qoidalar jismoniy va yuridik shaxslarga bag'ishlangan normalarga bo'linadi. Shaxslarning huquq subyektligini tartibga solish pozitiv huquqda unchalik aniq emas. Asosiy e'tibor huquq subyektligini amaliyotda ehtiyoj sezilgan tarkibiy qismlari mazmuniga qaratiladi<sup>1</sup>.

Huquq layoqati va muomala layoqatini farqlash amalga oshirilmaydi. Uning o'rniga huquq subyektligining yagona tushunchasi (**legal capacity**) amal qiladi. To'g'ri, amaliyotda passiv va aktiv muomala layoqati mavjud. Boshqacha aytganda, huquqiy harakatlarni mustaqil sodir etish layoqati sifatida talqin etiladi. Huquq subyektligi formal jihatdan teng hisoblanib, umumiy qoidaga ko'ra shaxs tug'ilishi bilan boshlanib, o'limi bilan tugaydi. Ingliz-amerika huquq tizimida shaxsni bedarak yo'qolgan deb topish va vafot etgan deb e'lon qilish mustaqil huquqiy institutlar sifatida mavjud emas.

Yuridik shaxslarga kelganda shuni ta'kidlash o'rinliki, ularning mohiyati yetarli ishlanmagan. Universal kategoriyadagi yuridik shaxslar o'rniga yuridik shaxslarning ikki asosiy turi, shirkatlar (**partships**) va kompaniyalar (Buyuk Britaniya) yoki korporatsiyalar (AQShda, Buyuk Britaniyada ommaviy korporatsiyalar) mavjud. Shirkatlarning bir necha turi bo'lib, ular asosan bir-biridan shirkat majburiyatlari, qarzlari bo'yicha, sheriklarning (ishtirokchilarning) javobgarlik belgilari bo'yicha farqlanadi. To'liq shirkatlar yuridik shaxs hisoblanmaydi. Shirkatlarning turlaridan biri kommandit (**limited partnerships**) shirkat yuridik shaxs hisoblanadi.

Biroq yuridik shaxslar to'g'risidagi asosiy normalar kompaniya (korporatsiya)larga bag'ishlangan hujjatlarda o'z aksini topganini qayd etish lozim. Biroq kompaniyalar ham, korporatsiyalar ham ularning ishtirokchilariga qanday hissa (ulush) yoki aksiyalar tegishli bo'lishiga qarab farqlanmaydi. Ular yagona atama – **shares** bilan almashtiriladi. Korporatsiyalarni

---

<sup>1</sup> Гражданское право. Том 1. Учебник. Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. – М., 2002. – С. 89.

tashkil etishda dastlabki ustav kapitalini shakllantirishga qit'a huquq tizimidagi kabi ahamiyat berilmaydi. Formal jihatdan shu kunga qadar yuridik shaxslarning huquqiy layoqati umumiyligi e'tirof etilmagan. Yuridik shaxslarning maxsus huquq layoqati to'g'risidagi normalar (**ultra vires** doktrinasi) hozircha bekor qilinmagan, biroq amaliyotda uning ahamiyati tobora pasayib bormoqda.

Ingliz-amerika huquqida mulkdor tomonidan tashkil etiladigan muassasa kabi yuridik shaxs turi mavjud emas. Korporatsiyalar (ular foyda, daromad olish maqsadisiz ham tashkil etilishi mumkin) yoxud ishonilgan mulkdorlar (mol-mulkni ishonchli boshqaruvchilar) uning o'rnini bosadi.

**Mulk (property, ownership).** Bu ingliz-amerika huquqining eng asosiy, muhim tushunchalaridan biridir. Shaxslarning ashyoga nisbatan munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan normalar tizimi sifatida ashyoviy huquq mavjud emas. «Ashyoviy huquq» o'rnini «mulk» kategoriyasi egallaydi. Mulkdorning o'zining ashyolari va o'zganing ashyosiga nisbatan huquqlari ham mulk huquqi tarkibiga kiradi. Qit'a huquq tizimi bo'yicha ko'chmas mulk ham o'z ashyosiga nisbatan bo'lgan huquq hisoblanmaydi, chunki yerni oliy mulkdori bo'lib davlat hisoblanadi. Shu ma'noda olganda yerning har bir egasi mulkdor emas<sup>1</sup>.

Ingliz-amerika huquqida mulkni talqin etishning asosiy belgisi bo'lingan (ikkilangan) mulkning mavjudligiga yo'l qo'yish hisoblanadi. «Bir ashyoga – bir mulk huquqi» tamoyili bu o'rinda amal qilmaydi. Buning o'rniga bir necha shaxslarni bir ashyoga nisbatan mulk huquqi mazmuni va miqdori ishtirokchilarning kelishuvi (erki, irodasi) orqali belgilanish tamoyili belgilangan. Qit'a huquqida esa ashyoviy huquqlar turlari va mazmuni obyektiv huquqda qayd etib qo'yilgan bo'lib, bu esa har ikkala huquq tizimi o'rtasidagi farqni yaqqol ko'rsatadi.

Mulk huquqini bo'lish nafaqat gorizontol holatda – makonda, balki vertikal holatda-zamonda yo'l qo'yiladi. Masalan, bir mulkdor

---

<sup>1</sup> Гражданское право. Том 1. Учебник. Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. – М., 2002. – С. 90.

yer uchastkasini ijaraga berishdan daromad olish huquqiga ega bo'lsa, boshqasi undan foydalanishdan daromad olish huquqiga ega. Qandaydir ashyo bir mulkdorga umrbod berilishi mumkin, u vafot etgandan keyingina boshqa mulkdorga berilishi mumkin, har ikkala holatda ham hozirgi va kelgusi mulkdorlar o'rtasida taqsimlanadigan mulk huquqi to'g'risida gap boradi. Demak, ushbu turlicha mulk huquqining mazmuni dastlabki mulkdor erki yoki mulkdorlar kelishuvi bo'yicha belgilanadi.

Mulk (**property**) juda ham keng ma'noda talqin etiladi. An'anaviy huquqlardan tashqari unga ba'zi talab qilish huquqlarini (masalan, pensiyalar, nafaqalar, alimentlar va sh.k. bo'lgan huquqlar), mutlaq huquqlar, ayniqsa, ular begonalashtirilishi mumkin bo'lsa (intellektual mulk) ham kiritiladi.

Ingliz-amerika huquq tizimidagi mulk talqini yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlari ishonilgan mulkda (**trust**) yaqqol namoyon bo'ladi. Ishonilgan mulkning mohiyati shundan iboratki, trust muassisi-dastlabki mulkdor (**setilor**) ashyoni ishonilgan mulkdor (trustee) boshqaruviga topshiradi, ishonchli boshqaruvchi bu mulkdan foydalanish natijasida olingan ashyolar yoxud daromadlarni manfaat ko'ruvchiga (**beneficiary**) topshirishi lozim. Manfaat ko'ruvchi sifatida trust muassisi ham uchinchi shaxslar bo'lishi mumkin. Ishonilgan mulkdor ham, manfaat ko'ruvchi ham mulkdorlar hisoblanadi, biroq ularning huquqlari hajmi bilan farq qiladi, ishonilgan mulkdor o'ziga topshirilgan mol-mulkni boshqarishni (foydalanish) amalga oshirsa, manfaat ko'ruvchi daromad olishga va ashyoni qaytarib olishga bo'lgan huquqlarga ega bo'ladi. Har bir mulkdorning huquqlari hajmi trust qanday shartlarda ta'sis etilganiga qarab (u qonunda, shartnomada yoxud bir tomonlama bitimda belgilab qo'yilishi mumkin) o'zgarishi mumkin. Masalan, ishonilgan miqdorga manfaat ko'ruvchiga daromaddan ulush ajratish yoki ajratmaslik huquqi berilishi mumkin. Ayni vaqtda shunday ishonilgan mulk bo'lishi ham mumkinki, uning doirasida har qanday vaqtda bu huquqni tugatish va ashyoni o'ziga qaytarib olishi mumkin.

Binobarin, trustning bunday «rezina» konstruksiyasi turlicha shakllarga kiritilishi va modifikatsiyalashtirilishi mumkin. Shu

sababli ham uni eng kutilmagan vaziyatlarda – asossiz boyish hollarida, kompaniya va uning direktorlari, prinsipal va agenti o'rtasidagi vorislik va shu kabi munosabatlarda qo'llaydilar. Biroq uning eng asosiy tayinlanish vazifasi – o'z mol-mulkini boshqalar tomonidan samarali boshqarishni ta'minlash hisoblanadi.

Ingliz-amerika huquqi doirasida mol-mulknini egallash shaxsni ashyo bilan faktik, amaliy bog'liqlik holati sifatida talqin etiladi, biroq egallashni himoya qilishda maxsus egallash da'volari emas, balki zarar yetkazishdan kelib chiqadigan (**traspase u nuisance**) da'volar qo'llanadi. Bu esa mol-mulknini egallashni himoya qilish, uni buzishda aybning borligi yoki yo'qligiga bog'liqligidan dalolat beradi.

O'zgalar mulkiga bo'lgan huquqlarga kelganda esa, shuni qayd etish lozimki, u mustaqil kategoriya sifatida mavjud emas. Biroq bu uning amaliyotda qo'llanmasligini anglatmaydi. Masalan, ashyoviy huquqlar jumlasiga garov huquqi va servitutlarni kiritish mumkin.

**Shartnoma va delikt huquqi.** Ingliz-amerika huquq tizimida shartnoma (**contract**) hamda delikt (**tort**) muhim va asosiy tushunchalardan hisoblanadi. Har qanday majburiyatlarga qo'llaniladigan majburiyat huquqining umumiy qismi mavjud emas. Umumiy qism legal ko'rinishda emas, balki doktrinal ko'rinishda faqat shartnoma va delikt huquqida mavjud<sup>1</sup>.

Majburiyatning mavhumlashtirilgan (formallashtirilgan) tushunchasi ham mavjud emas. Asosiy e'tibor delikt va shartnomaga qaratilgan. Majburiyatlarning legal klassifikatsiyasi (tasnifi) ham yo'q. Majburiyatlarning vujudga kelish asoslari bo'lib shartnoma, kvazi shartnoma (shartnomaga o'xshash) majburiyatlar – asossiz boyish, o'zgalar manfaatini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilish va delikt hisoblanadi.

Ingliz-amerika huquqi bo'yicha shartnoma – bu sanksiya bilan ta'minlangan sudga himoya so'rab murojaat qilish imkoniyati nazarda tutilgan, taqdim etish evaziga berilgan

---

<sup>1</sup> Гражданское право. Том 1. Учебник. Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. – М., 2002. – С. 91–92.

va'da hisoblanadi. Demak, shartnoma muqobil talablarni qanoatlantirishni (**consideration**) nazarda tutadi: talab qilish huquqini olish uchun kreditor oldin qarzdorga u yoki bu haqda va'da bergan bo'lishi lozim. Bundan oferta (shartnoma tuzish haqidagi taklif) akseptlanmaguncha taraflarning bir-biri bilan bog'lanmaydi degan qoida kelib chiqadi (ba'zi istisno holatlardan tashqari). Oferta akseptlanmaguncha, erkin ravishda chiqarib olinishi mumkin.

Shartnoma huquqi amaliyot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda rivojlanib boradi. Shartnomalarni legal turkumlash mavjud emas. Amaliy ehtiyojlarga ko'ra vujudga kelgan shartnomalarning alohida turlari alohida qonunlar (masalan, tovarlar oldi-sotdisi to'g'risidagi qonun) bilan tartibga solinadi, u yoki bu aniq va bir xil mezonlar yordamida ularni ajratish mumkin emas.

Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik zarar yetkazganlik tamoyili asosida belgilanadi: qarzdor o'zi tomonidan yo'l qo'yilgan buzilish uchun aybidan qat'i nazar, javob beradi. Bu ingliz-amerika huquqidagi muhim bir qoidadan kelib chiqadiki, ushbu qoidaga asosan qarzdor kreditorga yetkazilgan zararlarni to'liq qoplagan holda shartnomadan har qanday vaqtda voz kechishi mumkin.

Ingliz-amerika huquqida shartnoma huquqiga asosiy e'tiborning qaratilganligining yana bir sababi shuki, bu huquq tizimida muayyan darajada rivojlantirilgan bitimlar haqidagi ta'limotlar mavjud emas. Shu sababli ham bitimlar to'g'risidagi normalar shartnoma huquqida ifodalangan.

Delikt huquqi sud amaliyoti tomonidan ishlab chiqilgan maxsus deliktlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Bosh (general) delikt mavjud emas, faqat uning doktrinal modellarigina mavjud. Delikt deyilganda, shaxsga yoki mol-mulkka zarar yetkazish tushuniladi. Maxsus deliktlarning legal tasnifi ham mavjud emas.

Deliktlarning quyidagi turlari farqlanadi: shaxsga ham, uning mol-mulkiga ham zarar yetkazishga taalluqli bo'lgan bostirib kirish, tajovuz (**trespass**); muayyan shaxs yoxud nomuayyan doiradagi shaxslarni mol-mulkdan xotirjam foydalanishni buzadigan yomon ziyonkorlik (**nuissance**); o'zgalar biznesiga ziyon yetkazish maqsadini qo'llaydigan bo'hton (**libel la stander**), fitna (**conspiracy**); boshqalarning haq-huquqlariga

loqaydlik bilan munosabatda bo'lganini ifodalovchi beparvolik (**negligance**) va shu kabilar.

**Vorislik huquqi.** Ingliz-amerika huquq tizimida u bir qator o'ziga xos belgilarga ega. Ingliz-amerika huquq tizimi bo'yicha vorislik o'z mohiyatiga ko'ra universal huquqiy vorislik hisoblanmaydi, chunki meros qoldiruvchining barcha huquq va majburiyatlari uchinchi shaxsning ishonilgan mulkiga (**trust**) o'tadi, ishonilgan mulkdorning asosiy vazifasi meros qoldiruvchining (bevosita ifodalangan yoki taxmin qilingan) erki-irodasini bajarish hisoblanadi. Vasiyat bo'yicha vorislikda **executor** va qonun bo'yicha vorislikda **administrator** deb ataladigan bu ijrochining vazifasi meros qoldiruvchining qarzlari to'lash, qolgan mol-mulkni merosxo'rlarga berish, merosxo'rlar manfaatini ko'zlab harakat qilishdir. Merosxo'rlar mol-mulkni qarzlarni tozalangan holda olganlari uchun ular meros qoldiruvchining qarzlari uchun javobgar emaslar. Shunday qilib, meros bilan legat o'rtasida farq yo'q va shu sababli legat konstruksiyasi mavjud emas.

Ingliz-amerika huquqida qonun bo'yicha va vasiyat bo'yicha vorislik farqlanadi. Biroq vasiyatnomaning faqat bir shakliga yo'l qo'yiladi: vasiyatnoma yozma bo'lishi, meros qoldiruvchi tomonidan imzolanishi va eng kamida ikki guvoh hozirligida tasdiqlangan bo'lishi shart<sup>1</sup>.

#### **4-§. Musulmon huquq tizimi**

Musulmon huquqi amal qilayotgan mamlakatlarda bu huquq tizimining ta'siri turlichadir. Masalan, Saudiya Arabistoni hamda Eronda u qat'iy va mutlaq ta'sirga ega. Ba'zi mamlakatlarda dualizm va plyuralizmga yo'l qo'yiladi. Ba'zi mamlakatlarda (Suriya) musulmon huquqi qonunchilikning asosiy manbai sifatida Konstitutsiyaviy asosga ega bo'lsa, boshqa mamlakatlarda uni qo'llash shariat sudlari tizimi bilan ta'minlanadi (Iroq, Malayziya, Iordaniya).

---

<sup>1</sup> Гражданское право. Том 1. Учебник. Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. – М., 2002. – С. 90.

Musulmon huquqi normalari turli mazhablar bo'yicha bir oz farq qilishi mumkin. Eng yirik mazhablar Molikiylar (asoschisi – Molik ibn Anas), Hanafiylar (asoschisi – No'mon ibn Sobit), Shofiiylar (asoschisi – Muhammad ibn Idris), Hanbaliylar (asoschisi – Ahmad ibn Hanbal) hisoblanadi. Yaqin Sharq mamalkatlari qonunchiligida va yuridik ta'limotlar (doktrinalar) va fuqarolik-huquqiy munosabatlar sohasida musulmon huquqini qo'llashda musulmonlarni shaxsiy maqomi mavjud bo'lib, u asosan oila-nikoh va vorislik munosabatlarda qo'llanadi. Ushbu doktrina XIX asrda Misrda yirik olim va davlat arbobi Muhammad Qadriy (1821–1888) tomonidan ishlab chiqilgan va Suriya, Marokash, Iroq, Tunis, Iordaniya qonunlarida o'z ifodasini topgan. Ushbu doktrinaning qo'llanish doirasi ba'zi mamlakatlarda oila-nikoh, vorislik (meros) masalalaridan tashqari hadya, vaqf mulkidan foydalanish masalalarini qamrab oladi. Hindistonda musulmon huquqi musulmon jamoasi a'zolariga tegishli shaxsiy huquq sifatida qaraladi. Agarda Sharqning Arab mamlakatlarida musulmon huquqi davlat ta'siri ostida yangilanib, modifikatsiyalashtirilgan bo'lsa, Hindistonda an'anaviy, musulmon huquqi manbalari – Qur'on, Sunna, Ijmo', Qiyos qo'llaniladi. Hindistonning Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan davrda qabul qilingan «Musulmonlarning shaxsiy huquqlari to'g'risida»gi qonun (1937-yil), «Musulmoncha nikohlarda ajralish to'g'risida»gi qonuni (1939-yil) amal qiladi<sup>1</sup>.

Musulmon mamlakatlarida fuqarolik huquqining manbalari ichida kodifikatsiyalashtirilgan me'yoriy hujjatlar markaziy o'rinni egallaydi. Masalan, Misr FK(1949-yil)da musulmon huquqining barcha mazhablari mujassamlangan. Ushbu FK Iroq, Eron FK mazmuniga ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Islom davlatlari qonunchiligi va huquqiy doktrinalari mulkchilik masalalarida ingliz-amerika yoxud qit'a huquq tizimlari asosiy institutlarini o'zlashtirgan. Ayni vaqtda sof musulmon huquqi ta'siri ostida qolgan munosabatlar ham mavjud. Bu asosan musulmonlarning shaxsiy maqomi va vaqf mulki bilan bog'liq. Vaqf mulki diniy-xayriya vazifalarini bajarib, islom

---

<sup>1</sup> Zokirov I. B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYul. 2009. – B. 83.

davlatlari sotsial-iqtisodiy hayotida jiddiy rol o'ynamaydi. Biroq shunga qaramay, u musulmon mulk huquqining o'ziga xosligini namoyon qiladi.

Musulmon-huquqiy doktrinasida mulkchilik munosabatlariga kuchaytirilgan e'tibor mavjud, unga alohida g'oyaviy-siyosiy tus beriladi. Bu, ayniqsa, yerga nisbatan mulkchilikda yaqqol ko'rinadi. Islom mamlakatlarida yer xo'jasiz, egasiz, qarovsiz qolmasligiga e'tibor qaratiladi. Agarda yer muayyan muddat (odatda, 5 yil ) davomida ishlanmasa mulkdor yerdan mahrum etilishi mumkin. Musulmon huquqida yerga nisbatan davlat mulkchiligi ustuvor tarzda mustahkamlab qo'yilgan, bu esa agrar munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Garchi yerga nisbatan xususiy mulkchilikning «muqaddas va daxlsizligi» rad etilsa ham, umuman olganda, xususiy mulk aslo inkor etilmaydi, balki o'zining mustahkam asosiga ega. Bunda faqat mulkdorning mutlaq, hech narsa bilan chegaralanmaydigan vakolatlariga inkor etiladi xolos.

Ko'pgina musulmon mamlakatlari kolonial qaramlikni boshdan kechirgan. Shu sababli ham majburiyat-huquqiy munosabatlariga umumiy huquq va qit'a huquqi o'z ta'sirini o'tkazgan. Majburiyatning vujudga kelish asoslari orasida shartnoma markaziy o'rinni egallaydi. Shartnoma uning tuzuvchi shaxslar erki-irodasining mos kelishuvi natijasida vujudga keladi, albatta, bunday erk-iroda huquqiy ko'rsatmalarni buzmasligi lozim. Shartnoma uni tuzgan shaxslar uchun qonun bo'lib qoladi, u taraflarning kelishuvi yoxud qonunda nazarda tutilgan asoslar bo'yichagina o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin (1975-yilda qabul qilingan Jazoir FKning 59 va 106-moddalari).

Eron FKda majburiyat huquqining o'ziga xosliklari o'z ifodasini topgan. Undagi shartnomalarning turkumlanish mezonini bo'lib shartnomaning taraflar uchun qay darajada majburiyligi hisoblanadi. FKda shartnomalarning quyidagi turlari belgilab qo'yilgan: chaqirib olinmaydigan (favqulodda holatlardan tashqari hech qaysi taraf tomonidan bekor qilinishi mumkin emas), chaqirib olinadigan (har qaysi taraf o'z xohishiga ko'ra



xohlagan vaqtda bekor qila oladi, masalan, topshiriq, omonat), bekor qilinishi mumkin bo'lgan (bunday shartnoma nafaqat taraflar xohishga ko'ra, balki uchinchi shaxslar tashabbusi bilan ham bekor qilinishi mumkin), qat'iy (tasodifiy tashqi omillarga hech qanday bog'liq emas), shartli (qit'a huquq tizimidagi sharti kechiktirilgan yoki bekor bo'lish sharti bilan tuzilgan bitimlarga o'xshash) shartnomalar<sup>1</sup>.

Ma'lumki, qit'a huquq tizimida xususiy va ommaviy huquq farqlanadi, xususiy huquq dualizm mavjud bo'lgan va savdo huquqlariga bo'linadi. Musulmon huquqi amal qiladigan mamlakatlarda bunday bo'linish sezilmaydi. To'g'ri, Misr qonunchiligida savdo, shirkat, dengiz kemalarini qurish pudrati, shuningdek, ta'minlovchi bitimlar savdo qonunchiligi bilan tartibga solinishi ko'rsatilgan.

Shartnomalarni tuzish tartibi ham qit'a huquq tizimiga o'xshash. Kelishuv qachon sodir bo'lgani bo'yicha «hozir bo'lgan shaxslar» o'rtasida shartnoma (bunda taraflar bevosita va doimiy muloqotda bo'ladilar), «rozilikni izhor qilish» shartnomalari (bunda aksept «sodir bo'lgandan» shartnoma tuzilgan hisoblanadi) va «rozilikni olish» shartnomalari (bunda aksept oferentga ochiq-ravshan yetkazilishi lozim), tuzish tartibi farqlanadi, (Jazoir FKning 64-67 moddalari).

Tuzilgan shartnomalarning haqiqiylik shartlari deyarli o'xshashdir. Masalan, Jazoir FKning 96-moddasiga asosan ommaviy tartibga va xushxulq axloqqa zid shartnomalar haqiqiy emas. Shuningdek, shartnoma predmeti jismoniy jihatdan mumkin bo'lmagan harakatlar sodir etilishini talab etsa, zo'rlik, aldash, yanglishuv ta'sirida tuzilgan bo'lsa ham shartnoma haqiqiy hisoblanmaydi. Ba'zi mamlakatlarda ushbu talablar bevosita FKda va joriy shartnomalarda mavjud emas. Shakl bo'yicha talablar, masalan notarial guvohlantirish shartligi bitimlarni qayd etish to'g'risidagi qonunda turli shirkatlar tuzish, hadya, ko'chmas mulklar bo'yicha bitimlar uchun belgilab qo'yilgan (Qonunning 46-47-moddalari).

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2009. – B. 84.

Shartnomalarning predmeti bo'lib, muomaladan chiqarilmagan har qanday ashyolar, shu jumladan, shartnoma tuzilgan vaqtda natura holda mavjud bo'lmagan ashyolar ham, shuningdek, boshqa shaxslarga o'tkazish mumkin bo'lmagan huquqlardan tashqari har qanday huquqlar bo'lishi mumkin. Biroq kelajakda olinishi kutilayotgan meros shartnoma predmeti bo'la olmaydi (Jazoir FKning 92-moddasi).

Ba'zi holatlarda musulmon mamlakatlari Fklari shaxsiy huquqiy tizimlarni belgilashda hududiy huquq qoidalari ta'sirini aks ettiradi. Masalan, Eron FK (247–263-moddalari) shariat normalarini o'zida mujassamlashgan holda predmeti uchinchi shaxslarning mol-mulki bo'lgan shartnomalarni tuzish imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Fuqarolik qonunlarida shartnomalarni ijro etish va ularni ijro etmaslik oqibatlari, shuningdek, lozim darajada ijro etmaslik masalalari batafsil tartibga solingan<sup>1</sup>.

Osiyo va Arab Sharqi mamlakatlarining qit'a huquqi tizimini qabul qilgan huquq tizimlarida majburiyatlarning natura shaklida bajarilishi shartligi belgilab qo'yilgan. Bu esa shartnomalarni natura shaklida ijro etish lozimligini anglatadi.

Zararlarni undirish – majburiyatlarni ijro etmaganlik yoxud lozim darajada ijro etmaganlik uchun vujudga keladigan oqibat hisoblanadi. Umumiy qoida bo'yicha zarar nafaqat majburiyat ijro etilmaganligi sababli yetkazilgan muayyan mulkiy talofat, balki boy berilgan foydani ham o'z tarkibiga oladi (Jazoir FKning 182-moddasi, Eron FPKning 728-moddasi, Indoneziya FKning 1243-moddasi).

Ko'pgina musulmon mamlakatlarida vorislik munosabatlarini tartibga solish ko'proq musulmon huquqiy doktrinasi asoslanadi. Aholisining katta ko'pchiligi islomga e'tiqod qiladigan mamlakatlarda meros sohasida huquq tizimi dualizm mavjud emas. Hatto fransuz huquqi namunasidagi Fklari amal qiladigan (Suriya, Iroq) Fklarida ham vorislik tartibga solinmagan.

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2009. – B. 85.

Vorislik huquqi musulmon huquqining eng muhim institutlaridan biri bo'lib, atroflicha ishlab chiqilgan, puxta muvofiqlashtirilgan qat'iy huquq normalari tizimidan iboratdir. Ayni vaqtda musulmon mamlakatlaridagi vorislik huquqi faqat an'anaviy musulmon huquqi normalari bilangina tartibga solinadi, deb o'ylash noto'g'ri bo'lur edi. Ba'zi mamlakatlar qonunlarida musulmon huquqining an'anaviy tamoyillaridan sezilarli farq qiladigan ancha qoidalar mavjud. Masalan, Suriyada va Pokistonda nevaralarning taqdim qilish huquqi bo'yicha meros olishi tan olinadi. Suriyada ayollarning meros olish bo'yicha hissalarini kengaytirilgan<sup>1</sup>.

Musulmon huquqida vasiyat qilish erkinligi chegaralanadi. Vasiyat qiluvchi qonun bo'yicha vorislarni meros olishga chaqirish navbatini o'zgartira olmaydi va huquq tomonidan belgilanganiga zid ravishda vorislikning alohida tartibini yarata olmaydi. Bundan tashqari, vasiyat bo'yicha qonunga asosan vorislar doirasiga kirmaydigan shaxslar merosxo'r bo'lib qolgan taqdirda mol-mulkning faqat uchdan birigina berilishi mumkin xolos.

Musulmon huquqida qonun bo'yicha vorislikda ayol va erkakning meros hajmlarida tengligi mavjud emas. Vorislik huquqi tabiati bo'yicha meros mol-mulkiga nisbatan erkak va ayol sifatida teng huquqlarga ega. Meros chaqirilish navbatida erkak va ayol teng, biroq ayol erkak ulushining yarmini oladi, xolos. Marhumning uzoq qarindosh-urug'larini merosxo'r sifatida navbatga chaqirilishida ham erkak va ayol teng emas.

An'anaviy musulmon huquqida vafot etgan musulmon shaxsning vorislari sifatida boshqa dindagi yoxud e'tiqoddagi shaxslarning chaqirilishida ham qiyinchiliklar mavjud.

Qonun bo'yicha vorislik hanafiy mazhabida quyidagi toifalarga bo'linadi:

Qur'on bo'yicha muayyan ulushlarda meros oluvchi vorislar: er; xotin; bobosi yoxud ota tomonidan to'g'ri nasab chizig'i bo'yicha boshqa erkak qarindosh; onasi; buvisi yoxud ota tomonidan to'g'ri nasab chizig'i bo'yicha boshqa ayol qarindosh;

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2009. – B. 86.

qizi; o'g'lining qizi bo'lgan nabirasi yoxud o'g'il tarafdin to'g'ri nasl chizig'i bo'yicha boshqa ayol qarindoshi; tug'ishgan singlisi; ota bir ona boshqa singlisi; ota boshqa ona bir aka-ukasi; ota boshqa ona bir singlisi.

Agnat vorislari, ya'ni, oila boshlig'i qaramog'ida bo'lgan oila a'zolari, meros qoldiruvchining o'g'illari va qizlari, o'g'il tomondan nabiralar, otasi, aka-ukalari, ota tomondan amakilari va jiyanlari, meros qoldiruvchining tug'ishgan va ota bir ona boshqa singillari.

Meros qoldiruvchining uzoq qarindoshlari, bular jumlasiga agnat qarindosh bo'lgan ayollar va barcha kognatlar, ya'ni birinchi toifaga kirmaydigan qon-qarindoshlar. Ular yuqoridagi ikki toifa mavjud bo'lmagan taqdirdagina meros oladilar.

Toifalar navbat asosida merosga chaqiriladilar. Qator vorislar vasiyatga qarab Qur'on bo'yicha yoki ikkinchi toifa vorislari sifatida merosga chaqirilishlari mumkin. Har bir toifa doirasida ham muayyan navbat mavjud, navbat boshidagi vorislarning meros olish imkoniyatini bekor qiladi<sup>1</sup>.

Birinchi navbatdagi vorislar quyidagilar hisoblanadi:

Qur'on bo'yicha vorislardan: marhumning xotini (eri), ota-onasi va qizlari. Bular majburiy vorislar bo'lib, merosdan chetlatilishi mumkin emas, istisno hollardan tashqari; ikkinchi toifa vorislariga – marhumning o'g'illari ( qizlari – o'g'illari bo'lmagan holda) kiradi.

Ushbu toifalarning boshqa vorislari meros olishda qatnashmasligi ham mumkin (masalan, o'g'li va otasi mavjud bo'lganda).

Qur'on bo'yicha vorislarning ulushlari ( $1/2$ ,  $1/4$ ,  $1/8$ ,  $1/6$ ,  $1/3$ ,  $2/3$ ) meros qoldiruvchining xarajatlari va qarzlari qoplash bilan bog'liq to'lovlar:

– meros qoldiruvchini davolash, dafn etish bilan bog'liq xarajatlar;

– meros mol-mulkni boshqarish bo'yicha hujjatlarni rasmiy-lashtirish xarajatlari;

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2009. – B. 87.

– meros qoldiruvchining vafotidan uch oygacha oldingi davr uchun meros qoldiruvchining ishchi-xizmatlariga to‘lanishi lozim bo‘lgan ish haqi

– vasiyat va vasiyat majburiyati bo‘yicha ulushlar.

Hanafiy mazhabiga ko‘ra qonun bo‘yicha va vasiyat bo‘yicha vorislikda meros qoldiruvchining o‘limiga qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sabab bo‘lgan merosxo‘rlar meros olishdan chetlashtirilishi mumkin.

Shia mazhabida, garchi u ham Qur‘onga asoslansada, meros olish o‘z xususiyatlariga ega. Birinchidan, unda ayollarga nisbatan xayrixohlik darajasi yuqori. Shialarda agnat kelib chiqishi bo‘yicha erkak qarindoshlarga beriladigan imtiyozlar yo‘q. Marhumning o‘g‘li va qizi vorislik huquqiga ega. Ikkinchidan, shialarda vorislar tasnifi oddiy bo‘lib, uning asosida marhum bilan qon-qarindoshlik va er (xotinlik) munosabati yotadi.

Barcha vorislar uchga bo‘linadi: birinchi navbatda er-xotin, ota-ona, farzandlar va ularning bolalari; ikkinchi navbatda bobosi, ota va ona ajdodi bo‘yicha buva-buvilari, aka-ukalari, opa-singillar hamda ularning farzandlari kiradi; uchinchi navbatda meros qoldiruvchining ota-ona ajdodi bo‘yicha tog‘a-amaki, xola-ammalari va ularning farzandlari kiradi.

### **Tayanch iboralar:**

Fuqarolik-huquqiy tizim, qit‘a huquq tizimi, umumiy huquq tizimi, musulmon huquq tizimi, milliy-huquqiy tizim, musovama, vazia, murobaha, tavliya, fiqh.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Qit‘a huquq tizimida deliktlar necha turga bo‘linadi?
2. Qit‘a huquq tizimini asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
3. Ingliz-amerika huquqida qonun bo‘yicha va vasiyat bo‘yicha vorislik qanday farqlanadi?
4. Ingliz-amerika huquqining eng asosiy, muhim tushunchalari nimalardan iborat?

5. Ingliz-amerika huquqi doirasida mol-mulkni egallash qanday amalga oshiriladi?

6. Ingliz-amerika huquqida shaxslar tushunchasiga qanday yondoshiladi?

7. Musulmon huquqida sotilayotgan tovarga belgilanadigan narx qanday bo'lishi mumkin?

8. Musulmon huquqida fiqh tushunchasi nimani anglatadi?

9. Musulmon huquqida foizlar evaziga qarz berish qanday harakat hisoblanadi?

10. Musulmon mamlakatlarida vorislik munosabatlarni tartibga solish qanday doktrinaga asoslanadi?

### **III bob. FUQAROLIK HUQUQINING MANBALARI**

#### **1-§. Fuqarolik huquqi manbalari tushunchasi va turlari**

Ma'lumki, har bir soha muayyan asoslarga, qoidalarga va negizlarga tayanadi. Har bir munosabatni tartibga solishda shu munosabatlar uchun umumiy asosga aylangan birlashtiruvchi tushuncha va holatlar belgilovchi rol o'ynaydi. Tegishli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda eng muhim bo'lgan va shu sohadagi deyarli, barcha munosabatlarga taalluqli bo'lgan qoidalar fanda manbalar deb yuritiladi.

Shu ma'noda, huquq manbalari deganda, umumiy ma'noda huquqning ifoda etilish shakli tushuniladi. Bunda huquq turli vositalar va davlat tomonidan ishlab chiqilgan yoki qabul qilingan maxsus usullar orqali amalga oshiriladi. Ifoda etilish tushunchasini tahlil etganda huquqni jamiyat hayotidagi turli ijtimoiy munosabatlarga qo'llash nazarda tutiladi. Masalan, tovar ayirboshlash, o'zganing mol-mulkidan vaqtincha foydalanish, turli xildagi xizmat ko'rsatish va shunga o'xshash munosabatlarga nisbatan huquqning ifoda etilishi davlat tomonidan qabul qilingan maxsus hujjatlar, ya'ni, vositalar orqali namoyon bo'ladi.

Fuqarolik huquqining manbalari deganda, fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan normativ hujjatlar tushuniladi.

Umuman olganda, huquq nazariyasida huquq manbalariga nisbatan bir qancha shartlar qo'yiladiki, bu shartlar va talablar manbaning aynan huquqqa tegishliligini va uning boshqa soha manbalaridan ajratib turilishiga yordam beradi. Bunday shartlar jumlasiga:

- huquq manbasi normativ xarakterga ega bo'lishi kerak;
- huquq manbasi o'zining nomlanishi va ta'sir kuchi doirasida tegishli vakolatli davlat organi tomonidan qabul qilingan yoki chiqarilgan bo'lishi lozim;
- huquq manbalari har doim tegishli tartib va qoida asosida qabul qilinishi lozim;
- huquq manbasi tegishli ravishda ro'yxatga olinishi va muayyan shartlar asosida e'lon qilinishi lozim.

Huquq manbaini tashkil etgan xalqning erki davlat erki bo'lib, ma'lum shaklda qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda ifodalanadi.

Huquq manbalari to'g'risida so'z yuritilganda, birinchi navbatda, qonun ustida to'xtalish lozim. O'zbekiston Respublikasida qonunlar Oliy Majlis – hokimiyatning qonun chiqaruvchi oliy organi tomonidan qabul qilinadi va bu qonunlar barcha uchun majburiy bo'lgan normativ hujjatlardir.

Fuqarolik huquqining manbalari huquqning boshqa sohalari manbalaridan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu xususiyatlar fuqarolik huquqi manbalari tartibga soladigan huquqiy munosabatlarning mohiyatidan kelib chiqadi. Ma'lumki, fuqarolik-huquqiy munosabatlar odatdagi, kundalik, normal ijtimoiy munosabatlardir.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning «odatdagi» munosabatligi shu bilan belgilanadiki, bu munosabatlar har doim sodir bo'ladi va kishilarda bu munosabatlarning amalga oshirilishi odatdagi jarayon kabi tasavvur hosil qiladi. Masalan, har kuni do'kondan non sotib olinganda, deyarli, barcha fuqaro – xaridor nonni muayyan summa to'lagan holda sotuvchi bilan kelishib, sotib olishi mumkinligini biladi. Bu hol bir necha asrlardan beri odat tusiga aylangan. Mantiqan olib qaraganda, bunday munosabatlar juda ko'plab topiladi va ularda odat an'analari ga aylangan holatlar kuzatiladi. Aynan ana shu holatlar fuqarolik qonunchiligi tomonidan tartibga solinadi. Shu bilan birga, odatda, kishilar uchun yangilik bo'lmagan va sodir bo'lishi g'ayri tabiiy tuyulmagan voqealardir. Bu munosabatlarning shu zaylda amalga oshirilishi kishilarda ajablanish hissini vujudga keltirmasligi lozim. Odatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik har doim mavjud an'analardan kelib chiqib belgilanishi kerak.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning kundalik munosabatlar sifatida talqin etilishining asosiy sababi, ularning har kuni amalga oshirilishi bo'lib hisoblanadi. Agar fuqarolik-huquqiy munosabatlarning «odatdaligi» bevosita munosabatlarni amalga oshirilishi tartibi va jarayoni bilan bog'liq bo'lsa, «kundalikligi» xususiyati bu munosabatlarning hayotiy zaruriyat va ehtiyojlar



bilan bog'liq ravishda har kuni sodir etilishi bilan bog'liq bo'ladi. Bunday munosabatlar jumlasiga: chakana oldi-sotdi shartnomalari va haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalarini ko'rsatish mumkin.

Huquqiy munosabatlar orasida faqatgina fuqarolik-huquqiy munosabatlar «normal» munosabatlardir. Ya'ni, fuqarolik-huquqiy munosabatlar bir-biriga bo'ysunish tamoyiliga asoslanmagan, erk-iroda va xohishga tayangan, majburlash va tazyiqdan holi bo'lgan holda vujudga keladigan munosabatlardir. Fuqarolik huquqining manbalari ham aynan o'zi tartibga soladigan munosabatlarning shu xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Umumiy qoidaga ko'ra, fuqarolik huquqiy munosabat deb shaxslar o'rtasida bo'ladigan va fuqarolik huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlarga aytiladi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar ham bu munosabatlarni tartibga solishda vujudga kelayotgan munosabatning mazmuniga tayanadi.

Fuqarolik huquqi manbalarining yana bir xususiyati, ularda imperativ me'yorlarga qaraganda dispozitiv me'yorlarning kengroq qo'llanilishidir. Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, huquqiy tartibga solish usuliga qarab, huquq normalarini imperativ va dispozitiv normalar guruhlariga bo'lish mumkin.

Imperativ normalar deb, ma'lum bir huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning erklari bilan o'zgartirilishi mumkin bo'lmagan, qat'iy xarakterda bo'lgan, qat'iy buyruq beradigan normalarga aytiladi. Imperativ normalarga misol qilib (FK 23-moddasining uchinchi qismi). «Fuqarolarning huquq layoqatidan yoki muomala layoqatidan to'la yoki qisman voz kechishi va huquq layoqati yoki muomala layoqatini cheklashga qaratilgan boshqa bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emasdir», – deb aytilgan normani ko'rsatish mumkin.

Dispozitiv normalar deb taraflarning o'z ixtiyorlari bilan to'ldirilishi mumkin bo'lgan va shartnomalarda huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining o'zaro kelishuvi bo'yicha tartibga solinishi mumkinligini ko'rsatadigan normalarga aytiladi. Masalan, FK 223-moddasining birinchi qismida ulushli

mulkdagi mol-mulk ishtirokchilar o'rtasida ularning kelishuviga muvofiq taqsimlanishi mumkin deb yozilgan. Demak, bu huquqiy normaning mazmuniga ko'ra umumiy mulk ishtirokchilari o'ziga tegishli bo'lgan ulushini o'zlarining kelishuviga muvofiq taqsimlashlari mumkin ekan.

Darhaqiqat, fuqarolik huquqiy manbalarda dispozitiv me'yorlar ko'p uchraydi. Bu me'yorlarning fuqarolik huquqida kengroq qo'llanilishiga sabab fuqarolik huquqida ishtirokchilarga keng imtiyoz va erkinliklar berilganligidadir. Zero, FKning birinchi moddasida ta'kidlanganidek, fuqarolik qonunchiligi ular tomonidan tartibga solinadigan ishtirokchilarining tengligini e'tirof etishga, mulkning daxlsizligiga, shartnomaning erkinligiga, xususiy ishlarga biron-bir kishining o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'yilmasligiga, fuqarolik huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirilishini, buzilgan huquqlar tiklanishini, ularning sud orqali himoya qilinishini ta'minlash zarurligiga asoslanadi.

Ushbu moddaning talablaridan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, fuqarolik huquqining manbalari yuqorida belgilangan talablarga amal qilgan holda qabul qilinishi lozim. Ya'ni, har qanday fuqarolik qonunchiligi shu munosabat ishtirokchilarining tengligini e'tirof etishi, mulkning daxlsizligi, shartnomalarning erkinligi va hokozolarga amal qilgan holda chiqarilishi kerak. Bu talablarga zid holda qabul qilingan qonun hujjati haqiqiy emas deb topilishi va tegishli tartibda bekor qilinishi zarur.

Yuqorida aytganimizdek, fuqarolik huquqining manbalari deganda, fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan normativ hujjatlar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida: «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir», deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni – Konstitutsiya barcha qonunchilik uchun, jumladan, fuqarolik qonunchiligi uchun ham rahbariy manba hisoblanadi. Konstitutsiya normalari u yoki bu munosabatni umumiy holda, konstitutsiyaviy darajada normalaydi, fuqarolik huquqiga doir qonunlar esa, uni to'ldiradi,

aniqlashtiradi. Mamlakatimizning asosiy qonunida huquqning, shu jumladan, fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari mustahkamlangan. Asosiy qonunimiz Konstitutsiyaning 18, 27, 36, 42, 53, 54-moddalari bevosita fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Masalan, Konstitutsiyaning 18-moddasida teng huquqlilik to'g'risida, 27-moddasida inson sha'ni, qadr-qimmatining qadrlanishi to'g'risida so'z boradi, 36-moddada esa har bir kishining mulkdor bo'lishi mustahkamlab qo'yilgan. Vorislik huquqi qonun bilan kafolatlanishi ta'kidlangan, 42-moddada bo'lsa ijod erkinligi o'z ifodasini topgan. Konstitutsiyaning 53-moddasida «bozor munosabatlari» o'z aksini topgan.

Ushbu moddadagi quyidagi holatlarni alohida ko'rsatish mumkin:

- O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etishi;
- iste'molchilar huquqlarining ustuvorligi;
- iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish va mehnat qilish erkinligi;
- barcha mulk shakllarining tengligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi;
- xususiy mulkning boshqa mulk shakllari kabi daxlsizligi va davlat muhofazasida ekanligi;
- mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkinligi kabi qoidalar.

Bu holatlar, keyinchalik, mos ravishda O'zbekiston Respublikasining joriy qonun va qonunosti hujjatlarida o'z aksini topdi. Konstitutsiyaning 54-moddasida esa mulk huquqining mazmuni bevosita o'z ifodasini topgan. Bunga asosan mulkdor o'ziga tegishli mol-mulkni o'z xohishiga ko'ra egallash, foydalanish, tasarruf qilishga haqli. Ayni paytda, mulkdor huquqining chegaralari ham Konstitutsiyada belgilab berilgan. Ya'ni mol-mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlariga putur yetkazmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolik huquqining asosiy ishtirokchisi hisoblangan inson va uning manfaatlarini oliy qadriyat deb hisoblaydi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi ham konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslangan holda bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos keladigan mexanizmni yaratishga qaratilgan bo'lib u fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda alohida o'rinni egallaydi.

Bozor munosabatlarining butun tizimini birlashtirishga va uning ichki uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladigan, fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan, bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablariga qaratilgan kodifikatsiyalashtirilgan qonun bu – fuqarolik kodeksidir.

Amaldagi fuqarolik kodeksi shaxslarning mulkiy huquqlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yangicha hal qildi. Unda:

– xilma-xil fuqarolik huquqiy bitimlar tuzishda keng erkinlik va imkoniyatlar berilganligi;

– fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini keng tartibga solish;

– fuqarolarning huquq layoqati kengaytirilganligi, ular yollanma mehnatdan foydalanishi, xususiy mulkka, jumladan, xususiy korxonalariga ega bo'lishi, mulk shakllarining tengligi va uning himoyasi kafolatlanganligi;

– fuqarolik-huquqiy munosabat subyekti bo'lgan yuridik shaxslarga tashkilotlarga o'z faoliyatlarini amalga oshirishda, xo'jalik ishlarini yuritishda keng imkoniyatlar berilganligini ta'kidlab o'tish joiz.

O'zbekiston Respublikasining joriy qonunlari ham fuqarolik huquqining manbai hisoblanadi. Ularga «Mulchilik to'g'risida»gi, «Ijara to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi, «Qimmatli qog'ozlar va fond birjalari to'g'risida»gi, «Jamoat fondlari to'g'risida»gi, «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi, «Garov to'g'risida»gi, «Lizing to'g'risida»gi, «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi, «Xususiy korxonalar to'g'risida»gi va boshqa qonunlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi» deb ko'rsatilgan. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan va fuqarolik huquqiy xarakteriga ega bo'lgan qonun hujjatlari fuqarolik huquqining manbaini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 94-moddasida «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi» – deb belgilangan. Prezident tomonidan chiqariladigan mazkur me'yoriy hujjatlar qonun osti hujjatlari deb yuritiladi. Prezident farmonlari turmushda, hayotda, xalq xo'jaligida, iqtisodiyotda, ishlab chiqarishda kechiktirib bo'lmaydigan munosabatlarni tartibga solish va mustahkamlash ehtiyojidan kelib chiqadi. Ularning aksariyati fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solayotganligi uchun fuqarolik huquqining manbai bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasida «Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi» – deb ko'rsatilgan. Shunga binoan Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, qonunlar, Oliy Majlisning boshqa qarorlari va Prezidentning farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlash yuzasidan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Shuning uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan me'yoriy hujjatlar fuqarolik huquqining manbai bo'lib hisoblanadi.

Respublika vazirliklari, Davlat qo'mitalari, idoralari chiqargan tegishli normativ hujjatlar ham fuqarolik huquqi manbalari hisoblanadi.

Viloyat, tuman va shahar hokimliklari o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi zarur bo'lgan fuqarolik-huquqiy xarakteriga ega bo'lgan qarorlar qabul qiladilar. Bunday qarorlar ham fuqarolik huquqining manbalari hisoblanadi.

Fuqarolik qonunchiligida tegishli normalar bo'lmagan taqdirda, bu munosabatlarni tartibga solishda mahalliy odat va an'analar qo'llaniladi (FKning 6-moddasi).

Tadbirkorlik faoliyatining biror-bir sohasida vujudga kelgan va keng qo'llaniladigan xulq-atvor qoidasi biror-bir hujjatda yozilgan-yozilmaganidan qat'i nazar, ish muomalasi odati hisoblanadi.

Fuqarolik qonunchiligida tegishli normalar bo'lmagan taqdirda bu qonunchilik bilan tartibga solinadigan munosabatlarga nisbatan mahalliy odat va an'analar qo'llaniladi. Biroq qo'llaniladigan ish odatlari, mahalliy odatlar va an'analar qonunchilik normalariga, shartnoma shartlari mazmuniga zid bo'lmasligi kerak (FKning 6-moddasi).

Fuqarolik qonunchiligini to'g'ri sharhlash va tatbiq etish uchun sud tajribasi muhim ahamiyatga ega bo'lsa ham, ammo u huquq manbai bo'lib hisoblanmaydi. Fuqarolik ishi bo'yicha sud tomonidan chiqarilgan qaror faqat mazkur ish uchungina majburiydir. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»<sup>1</sup> Qonunining 18-moddasining 5-bandida «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumida sud amaliyotining dolzarb masalalarini ko'rib chiqadi va qonunchilikning qo'llanilishi yuzasidan tushuntirishlar beradi» – deb belgilangan. Bunga binoan Oliy sud Plenumi sud ishlarini ko'rishda qonunlarni qo'llash masalalari yuzasidan sudlarga rahbariy tushuntirishlar fuqarolik huquqining manbalari bo'lmasa ham, barcha sudlar uchun majburiy hisoblanadi va sudlar tomonidan og'ishmay ijro etilishi shart.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi «Sudlar to'g'risida»gi O'RQ-703-sonli Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 03/21/703/0723-son.

## **2-§. Fuqarolik qonunlarining vaqt, hudud va shaxslar bo'yicha amalda bo'lishi**

Fuqarolik qonunlarining amalda bo'lish vaqti deyilganda, mazkur hujjatlarning qonuniy kuchga kirishi paytidan toki huquqiy kuchini yo'qotish paytiga qadar bo'lgan davr nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yilda qabul qilingan Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi Qonuniga asosan normativ-huquqiy hujjatlar, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, ular rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini e'lon qilish hamda amalga kiritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Jumladan, normativ xarakterga ega bo'lgan qarorlarda ularning amalga kirish vaqti ko'rsatiladi, agar ko'rsatilmasa qarorlar qabul qilinib, matbuotda e'lon qilingan paytidan kuchga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasi ikkinchi qismiga asosan qonunlarni va boshqa normativ hujjatlarni qo'llashning zarur sharti ularning matbuotda e'lon qilinganligi hisoblanadi. E'lon qilinganlik deyilganda, qonun yoki normativ hujjat matni yoki asosiy mazmuni rasmiy manbalarda, matbuotda nashr etilganligi, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, radio, televideniye orqali ma'lum qilinganligi yoki xizmat tartibida ijrochilarga maxsus yetkazilganligi tushuniladi.

Umumiy qoidaga asosan fuqarolik qonunchiligi orqaga qaytish kuchiga ega emas<sup>2</sup>. Fuqarolik qonunlari, shu jumladan, Fuqarolik kodeksi ham, umumiy qoida bo'yicha faqat kelajak uchungina amalda bo'lib, orqaga qaytish kuchiga ega emas, ya'ni ular yangi qonunning amalga kiritilish vaqtiga qadar vujudga kelgan huquqiy munosabatlarga tatbiq etilmaydi (FK 4-moddasining birinchi qismi).

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi O'RQ-682-sonli Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021 y., 03/21/682/0354-son.

<sup>2</sup> Иванова Е.В. Гражданское право. Учебник. М., Книжный мир. 2001. – С. 19.

Qonunning orqaga qaytish kuchiga ega bo'lishi, ya'ni, mazkur qonun amalga kiritilgan kunga qadar vujudga kelgan huquqiy munosabatlarga ham tatbiq etilishiga shu qonunning o'zida yoki boshqa qonunlarda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi (FK 4-moddasining ikkinchi qismi). Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 29-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini amalga kiritish tartibi to'g'risida»gi qarorining 6-bandida keltirilishicha, kodeks 187-moddasining qoidalari mulkka egalik qilish 1997-yilning 1-martiga qadar boshlangan va kodeks amalga kiritilayotgan vaqtda davom etayotgan hollarda ham tatbiq etiladi. Fuqarolik qonunlari amalga kiritilguniga qadar vujudga kelgan munosabatlar bo'yicha bu qonun hujjati u amalga kiritilganidan keyin vujudga kelgan huquq va burchlarga nisbatan qo'llaniladi, tuzilgan shartnoma bo'yicha tomonlarning munosabatlari bundan mustasno.

Fuqarolik huquqiy xarakterdagi normativ hujjatlar to bekor qilingunicha yoki yangi hujjatlar bilan almashtirilgunicha amalda bo'ladi.

Fuqarolik qonunlari muayyan hududga taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasining normativ hujjatlari O'zbekiston hududida amalda bo'ladi. O'zbekiston qonunchiligida va boshqa normativ hujjatlarda muayyan qoidalarning ma'lum viloyat, shahar yoki tuman hududidagina tatbiq qilinishi to'g'risida ko'rsatmalar bo'lishi mumkin.

Fuqarolik qonunlarining shaxslarga nisbatan tatbiq etilishi deyilganda, uning barcha shaxslar, jumladan, fuqarolar (O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar) va yuridik shaxslar (mahalliy, xorijiy, qo'shma yuridik shaxslar)ga nisbatan bir xilda qo'llanishi tushuniladi. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Fuqarolik qonunchiligi umumiy qoida bo'yicha barcha uchun umummajburiy hisoblanadi. Lekin muayyan sohani tartibga solishga qaratilgan qonunchilik faqat shu soha vakillariga taalluqli bo'ladi. Masalan, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning



huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonun aksiyadorlik jamiyati va uning aksiyadoriga, «Noshirlik faoliyati to'g'risida»gi qonun noshirlar va ularning faoliyatini tartibga solinishida qo'llaniladi. Muayyan sohani tartibga soluvchi qonun hujjati shu soha vakillari bo'lmagan shaxslarga tatbiq etilmaydi.

### **3-§. Fuqarolik huquqida qonun analogiyasi va huquq analogiyasi**

Fuqarolik qonunlari ijtimoiy hayot munosabatlarida kun sayin vujudga kelayotgan munosabatlarni to'la o'z ichiga olgan qoidalarni bera olmaydi. Turmushda fuqarolik huquqi normalari bilan nazarda tutilmagan yangi munosabatlar ham paydo bo'lishi mumkin. Shu sababli fuqarolik huquqida analogiya (qiyoslash, o'xshatish)ga yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi FKning 5-moddasiga asosan fuqarolik huquqiy munosabatlari qonunchilik yoki taraflarning kelishuvi bilan to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagan hollarda fuqarolik qonunchiligining o'xshash munosabatlarni tartibga soluvchi normasi qo'llaniladi (qonun o'xshashligi). Agar qonun o'xshashligidan foydalanish mumkin bo'lmasa, taraflarning huquq va burchlari fuqarolik qonunchiligining umumiy negizlari, oqillik va adolat talablariga amal qilgan holda belgilanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan normaga binoan o'xshatish ikki turga bo'linadi:

**birinchisi** – qonun bo'yicha qiyoslash;

**ikkinchisi** – huquq bo'yicha qiyoslash.

O'xshash munosabatlarni tartibga soladigan qonunni tatbiq etishga qonun analogiyasi deyilsa, nizoli munosabatni qonunlarning umumiy asoslari va ma'nosiga tayanib hal qilishga huquq analogiyasi deb ataladi.

Analogiya to'g'risidagi qonunlarni tatbiq etishda quyidagilarni nazarda tutish lozim:

**birinchidan**, yuqorida ko'rsatilgan qoidalarga faqat mazkur masala yuzasidan tegishli qonun va farmoyishlar bo'lmagan holdagina asoslanib ishni hal qilish mumkinligini;

**ikkinchidan**, bunday analogiya tariqasida sud qarori faqat nizo uchun kuchda bo'lishini;

**uchinchidan**, sud qonunlarining umumiy negizlari va mazmuniga quruqdan-quruq havola qilmay, balki qarorni ifodalashda sud qaysi qonunning umumiy asoslariga tayanib, o'z qarorini chiqarganligini ko'rsatish lozim.

Fuqarolik huquqlarini cheklaydigan va javobgarlik belgilaydigan normalarni o'xshashlik bo'yicha qo'llanishiga yo'l qo'yilmaydi

#### **4-§. Fuqarolik-huquqiy normalarni sharhlash va ularning turlari**

Fuqarolik-huquqiy normalarni tatbiq etish va sharhlash to'g'risida to'xtalib, shuni aytish kerakki, huquqiy normalarni tatbiq etish deganda, konkret fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tegishli huquq normasiga muvofiq holda qilinishi va bu munosabat yuzasidan majburiy kuchga ega bo'lgan qaror qabul qilinishi tushuniladi. Huquq normalari tatbiq etishga vakolatli bo'lgan davlat organlari tomonidan, Jumladan, sud, prokuratura, xo'jalik sudi va boshqa organlar, shuningdek, ba'zi hollarda jamoat tashkilotlari tomonidan qo'llaniladi.

Huquq normalarini tatbiq etish tushunchasidan ularga rioya qilish tushunchasi farq qiladi. Huquq normasini yuqorida aytilganidek, faqat muayyan vakolatli organlarga tatbiq etishlari mumkin bo'lsa, huquqiy normalarga rioya qilishga har bir shaxs (fuqaro va tashkilot) majburdir.

Huquq normasining to'g'ri qo'llanilishi uning hozirgi vaqtda amalda bo'lish-bo'lmasligini, ya'ni uning bekor qilingan-qilinmaganligini yoxud o'zgartirilgan-o'zgartirilmaganligini, uning qanchalik majburiy bo'lish-bo'lmasligini va haqiqiy matnini aniqlash imkoniyatini beradi. Huquq normasini tegishli fuqarolik huquqiy munosabatga tatbiq etish uchun uning aniq mazmunini, ma'nosini va ahamiyatini belgilash zarur. Huquq normasi ma'nosini belgilash va tushuntirishga qonunni sharhlash deyiladi.

Fuqarolik huquqi normalarini sharhlash sharhlovchi subyektlar, sharhlash usullari, shuningdek, hajmiga qarab bo'linadi.

Normalarni sharhlovchi subyektlar huquq normalariga rasmiy va norasmiy sharh beruvchilarga bo'linadi<sup>1</sup>. Rasmiy sharh vakolatli bo'lgan hokimiyat organlari tomonidan beriladi va u ma'lum darajada majburiy kuchga ega bo'ladi. Bunday sharh O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan beriladi. Ular Respublika doirasida barcha fuqarolar va tashkilotlar uchun majburiy hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy Kengashlar tomonidan beriladigan sharhlar ham rasmiy, ayni paytda, majburiy hisoblanadi.

Rasmiy sharhning turlaridan biri sud sharhlashidir. Ma'lum bir ishni hal qilishda sud tomonidan berilgan sharh chiqarilgan qarorning qonuniy kuchga kirganidan so'ng mazkur ish bo'yicha majburiy hisoblanadi. Ammo kelajakda shunga o'xshash boshqa ishni hal qilishda, boshqa sudlar, jumladan, shu sudning o'zi ham avvalgi ishning hal qilinishiga qarab masalani yecha olmaydi. Chunki, umumiy xarakterda bo'lgan ba'zi sharhlar Oliy sud Plenumi tomonidan beriladi. «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 22-moddasi ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida «Oliy sud Plenumi sud amaliyotini umumlash tirish materiallarini ko'rib chiqadi va qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar beradi» deb ko'rsatildi<sup>2</sup>. Shu tartibda qabul qilinadigan qarorlar sudlarda ishlarning bir xilda ko'rilishini ta'minlashga qaratilganligi sababli sudlar uchun majburiydir.

**Norasmiy sharh** deb, majburiy kuchga ega bo'lmagan sharhga, masalan, ilmiy asarlarda, darsliklarda, ma'ruzalarda beriladigan sharhlarga aytiladi. Bunday sharhlar yuridik kuchga ega bo'lmasa ham, qonunning ma'nosini aniqlashga yordam beradi. Ular imloviy, mantiqiy, tizimli va tarixiy sharhlashga bo'linadi.

**Imloviy sharhlashda** imlo qoidalaridan foydalanib qonunda ishlatilgan ayrim so'zlar, jumlar, ifodalarning ma'nosini aniqlash

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. T., TDYuI. 2006. – B. 68.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi «Sudlar to'g'risida»gi O'RQ-703-sonli Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 03/21/703/0723-son.

yo'li bilan huquqiy normalarning mazmuni belgilanadi. Masalan, FKning 30-moddasida «Ruhii kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonunchilikda belgilab qo'yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin» deyiladi. Bu yerda qonun chiqaruvchi «yoki» so'zini ishlatishi natijasida fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish uchun ikkita asosdan bittasi, ya'ni o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaslik yoki ularni boshqara olmaslikning mavjud bo'lishi yetarli ekanligini ifodalaydi.

**Mantiqiy sharhlashda** qonunda ishlatilgan ifodalar, tushunchalar bir-biri bilan ichki, uzviy, mantiqiy bog'langanligini aniqlab, huquqiy normaning mazmuni belgilanadi. Masalan, FKning ushbu 30-moddasida «Ruhii kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonunchilikda belgilab qo'yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topish mumkin», – deb aytili. Demak, voyaga yetgan fuqaro ruhiy kasal bo'lsa ham, to sud tomonidan «**muomalaga layoqatsiz**» deb tanilguniga qadar muomalaga layoqatli deb faraz qilinadi.

**Tizimli sharhlashda** huquq normasining mazmuni uning huquq tizimida egallagan o'rnini belgilash, uni boshqa huquqiy normalar bilan taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Masalan, 1963-yilda qabul qilingan GKning 321-moddasida mulkning ijaraga oluvchi tomonidan yomonlashtirilgan holda yetkazilgan zararlarning ijaraga beruvchi tomonidan qoplanishiga aytiladi. Bu yerda zarar yetkazilishi shartnoma bo'yicha olingan majburiyatni buzish bilan bog'liq bo'lgani uchun nizo GKning 479-moddasi bilan emas, 321-moddasi bilan hal qilinadi.

**Tarixiy sharhlashda** huquq normasi qanday tarixiy vaziyatlarda qabul qilinganligini belgilash yo'li bilan aniqlanadi. Sharhlash o'zining hajmi bo'yicha tub ma'nodagi sharhda qonunning ma'nosi uning ifodalanish, ya'ni yozilish shakliga aynan to'g'ri kelishi kerak. Cheklangan sharhda qonunning ma'nosi uning ifodalanishiga qaraganda birmuncha torroq ko'rinadi. Kengaytirilgan sharhda qonunning mazmuni uning tub

tahririga qaraganda birmuncha kengroq tushuniladi. Masalan, FKning 115-moddasida: «Bitimning qonun talab qiladigan shakliga rioya qilmaslik qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan holdagina uning haqiqiy emasligiga sabab bo'ladi» – deb yozilgan. Bunda «qonun» so'zi faqat Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan normativ hujjatnigina bildirmay, balki huquqning boshqa normalarini o'zining ta'siriy kuchiga qarab imperativ va dispozitiv normalarga bo'ladi.

### **Tayanch iboralar:**

Huquq manbalari, qonun, farmon, farmoyish, qaror, buyruq, mahalliy odat va an'analar, imperativ normalar, dispozitiv normalar, analogiya, qonun analogiyasi, huquq analogiyasi, sharh, rasmiy sharh, norasmiy sharh, tizimli sharh, mantiqiy sharh.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Huquq normalarini sharhlash qanday turlarga bo'linadi?
2. Imperativ normalarga misol keltiring.
3. Dispozitiv normalar deganda qanday normalar tushuniladi?
4. Mantiqiy sharhlashga ta'rif bering.
5. Huquq va qonun analogiyasi nima?
6. Rasmiy sharh deganda nimani tushunasiz?
7. Norasmiy sharhga misol keltiring.
8. Dispozitiv normalarga ta'rif bering.
9. Imperativ normalar deganda nima tushuniladi?
10. Tizimli sharhlash nima?
11. Siz kelajakda yaxshi huquqshunos va yuqori malakali kadr bo'lish uchun fuqarolik huquqi normalarini sharhlashni bilishingiz kerak. Buning uchun siz FSMU texnologiyasini qo'llagan holda quyidagilarga javob bering:
  - a) Fuqarolik-huquqiy normalarni sharhlash deganda nimalar tushuniladi?
  - b) Fuqarolik-huquqiy normalarni sharhlash qanday faoliyat?

v) Fuqarolik-huquqiy normalarni sharhlash jarayonida nimalar aniqlanadi?

d) Fuqarolik-huquqiy normalarni sharhlashning muhimligi nimalar bilan bog'liq?

e) Fuqarolik-huquqiy normalarni anglash nima?

g) Fuqarolik-huquqiy normalarni tushuntirish nima?

z) FKning birorta moddasini sharhlang.

## **IV bob. FUQAROLIK HUQUQ VA BURCHLARINING VUJUDGA KELISHI**

### **1-§. Fuqarolik huquqiy munosabat tushunchasi**

Fuqarolik-huquqiy munosabat deb huquq subyektlari o'rtasida bo'ladigan va fuqarolik-huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatga aytiladi. Shaxslar o'rtasida tuziladigan oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, biror-bir ishni bajarish, xizmat ko'rsatish, ijara, qarz to'g'risidagi shartnomalar fuqarolik-huquqiy munosabatlar jumlasiga kiradi.

Fuqarolik-huquqiy munosabat ijtimoiy munosabat sifatida, eng avvalo, shaxslar, kishilar o'rtasidagi munosabat bo'lganligi uchun unda qatnashuvchilarning erki-irodasidan vujudga keladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatda ifodalangan shaxslarning e'klari, turli-tuman manfaatlari davlatning fuqarolik-huquqiy normalarida (qonunlarda) o'z ifodasini topadi.

Shaxslar o'rtasida bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar qonun bilan tartibga solinadigan normal munosabatlar bo'lganligi tufayli ular ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi lozim. Ammo ba'zi hollarda huquqiy munosabat yuzasidan olingan majburiyatlar ixtiyoriy ravishda amalga oshirilmaganligi tufayli davlat tomonidan belgilangan majburiy ijro choralari qo'llaniladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatga xos ba'zi xususiyatlar ham mavjud. Jumladan, fuqarolik-huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslar bu munosabatlarda o'zlariga xos mulkka, aniqrog'i, muayyan mulkiy mustaqillikka ega holda qatnashadilar. Fuqarolik-huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslar bir-birlariga nisbatan teng huquqli shaxslar hisoblanadi. Fuqarolik-huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslarning huquqlari buzilgan taqdirda, bu huquqlar, odatda, da'vo qo'zg'atish yo'li bilan sudlar tomonidan qo'riqlanadi<sup>1</sup>.

Boshqa huquqiy munosabatlar singari fuqarolik-huquqiy munosabatlar ham uchta mustaqil elementdan – huquqiy munosabat subyektlari, obyektlari va mazmunidan iboratdir.

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. T., TDYuI. 2006. – B. 71.

Bunda, fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari bo'lib, ushbu huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslar – fuqarolar va tashkilotlar (ya'ni, yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan korxonalar) hisoblanadi. Davlat ham fuqarolik huquqiy munosabat subyekti bo'lishi mumkin.

Fuqarolik-huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslar fuqarolik huquqi layoqatiga, ya'ni fuqarolik huquqlari va burchlariga ega bo'lish layoqatiga molik bo'lishlari lozim.

Fuqarolik-huquqiy munosabatning mazmunini shu munosabatda qatnashuvchi shaxslarning subyektiv huquqlari va burchlari tashkil etadi.

Ba'zi mualliflar fuqarolik-huquqiy munosabatning mazmunini bunday munosabat qatnashchilarining o'z subyektiv huquq va majburiyatlariga muvofiq amalga oshiradigan o'zaro harakatlari tashkil etadi, subyektiv huquqlar va burchlar esa huquqiy munosabatning huquqiy shaklidir, deb hisoblaydilar<sup>1</sup>.

Subyektiv huquq deyilganda, muayyan huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxsga tegishli huquq tushuniladi. Subyektiv huquqlar obyektiv huquq normalari, ya'ni davlat tomonidan belgilangan umumiy qoidalar asosida vujudga keladi va ularga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquqlari, odatda, obyektiv huquq (davlat tomonidan o'rnatiladigan va belgilab qo'yiladigan huquqlar) normalaridan kelib chiqadi. Ushbu huquqqa nisbatan «subyektiv» so'zi qo'llanilishining asosiy sababi, fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchisining ushbu huquqning sohibi bo'lish hamda uni amalga oshirishdagi xohish-irodasining birlashishi ahamiyatga egaligidir. Chunki subyektiv huquq sohibi o'zining bu huquqlarini o'z xohishiga ko'ra amalga oshirishi yoki umuman amalga oshirmasligi yoxud ushbu huquqlardan voz kechishi mumkin.

Subyektiv huquqlar o'z egasiga qonun bilan yo'l qo'yilgan doiralarda o'z xohishi va ixtiyori bilan harakat qilish imkoniyatini beradi. Boshqacha qilib aytganda, subyektiv huquq subyektga o'z erkini amalga oshirish va o'z manfaatlarini qondirish imkoniyatini

---

<sup>1</sup> Гражданское право. Учебник. Ч. 1. – М.: Проспект. 2000. С. 78–79.



beradigan munosabatlarni vujudga keltiradi. Subyektiv huquq ikkinchi tomondan, huquqqa ega bo'lgan shaxsning boshqa shaxslardan o'z huquqining buzilmasligini talab qilish imkoniyatini nazarda tutadi. Masalan, mulk egasining subyektiv huquqi, bir tomondan, o'z mulkini egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish bilan bog'liq huquqlarni nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, u subyektiv huquq egasi sifatida o'z huquqlarining buzilmasligini har kimdan talab qila oladi. Subyektiv huquqlar o'z harakatlariga ko'ra mulkiy yoxud shaxsiy nomulkiy bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida subyektiv huquqlar kafolatlangan huquqlardir. Davlat bu huquqlarning amalga oshirilishini ta'minlaydigan moddiy sharoitlarni yaratadi.

Huquqiy munosabatlarning mazmunini yuqorida ko'rsatilganidek, huquqlar bilan bir qatorda majburiyatlar ham tashkil etadi. Majburiyatning mohiyati shundaki, bunda huquqiy tartibning talabi bo'yicha uni o'z zimmasiga olgan shaxs ma'lum harakatlarni qilishga yoki harakatlarni qilishdan saqlanishga majbur bo'ladi.

Har qanday majburiyat qarzidor shaxsning, ya'ni zimmasida majburiyat bo'lgan shaxsning erkini ma'lum darajada cheklaydi, uni huquq egasining manfaatlari bilan bog'laydi. Masalan, sotuvchi sotilgan mulkni xaridorga shartnomaga muvofiq ravishda topshirishga majbur. Ya'ni, birovdan ashyo sotib olgan shaxs bu ashyoning o'ziga topshirilishi uchun lozim bo'lgan barcha harakatlar qilinishini talab etishga haqlidir, sotuvchi esa-ashyoni topshirish bilan bog'liq harakatlarni qilishga majbur bo'ladi.

Shaxsdan muayyan harakat qilishni talab etadigan majburiyatlar ijobiy (pozitiv) majburiyatlar, muayyan harakatlarni qilishdan saqlanishni talab etadiganlari esa salbiy (negativ) majburiyatlar deb ataladi.

Subyektiv huquqlar va majburiyatlar yagona huquqiy munosabatning elementi bo'lib, o'zaro bog'langandir. Birovda subyektiv huquqning bo'lishi, boshqa birovda, albatta, bu huquqqa yarasha majburiyat bo'lishini bildiradi va, aksincha, har qanday majburiyat o'z qarshisida uni bajarishni talab qilishga haqli shaxsning bo'lishini bildiradi. Jumladan, mulkdor o'ziga qarashli mulkdan foydalanish huquqiga ega bo'lgani uchun u boshqa

fuqarolardan bu huquqdan foydalanishda to'sqinlik qilmasligini talab qila oladi. Qarzdor ma'lum bir harakatni bajarishga majbur bo'lsa, kreditor bu harakatning bajarilishini talab qilishga haqlidir.

Fuqarolik-huquqiy munosabatning obyekti deb, fuqarolik huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslarning subyektiv huquqlari va majburiyatlari nimaga qaratilgan bo'lsa, shunga aytiladi. Bular – ashyolar, mol-mulklar, pullar va qimmatli qog'ozlar, ishlar va xizmatlar, intellektual faoliyat natijalari, shaxsiy nomulkiy huquqlardir.

Fuqarolik huquqiy munosabatlarning obyektlari sifatida ko'rilgan ashyolar fuqarolik huquqida muhim ahamiyatga ega.

Ishlar va xizmatlar fuqarolar hamda yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan huquqiy munosabatlarning obyektlari bo'lib hisoblanadi.

Masalan, oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sotuvchi ashyoni topshirishga qaratilgan harakatni qiladi, pudrat shartnomasi bo'yicha, kiyim tikish atelyesi mijozning buyurtmasi bo'yicha kiyim tikishga qaratilgan harakatni qilishga va o'zi bajargan ish natijasini topshirishga majburdir.

Intellektual faoliyat natijalari, Jumladan, fan yoki san'at asarlari, ixtirolar, sanoat namunalari, mualliflik hamda sanoat mulki huquqi normasi bilan tartibga solinadigan va qo'riqlanadigan huquqiy munosabatlarning obyekti bo'ladi.

Mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy huquqlar FKning 100-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, ular shaxsning nomi, sha'ni, qadr-qimmat, ishchanlik obro'si va boshqa shaxslarning mulkiy xarakterda bo'lmagan manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan huquqiy munosabatlarning obyekti sifatida ko'riladi. Amaldagi fuqarolik-huquqiy xarakterdagi qonunlarimizda fuqarolik-huquqiy munosabat obyektlarini tashkil etadigan mulkiy va shaxsiy-nomulkiy huquqlar doirasi birmuncha kengaytirilgan.

## **2-§. Fuqarolik huquqiy munosabatlarning turlari**

Fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlari inobatga olingan holda fuqarolik-huquqiy munosabatlarning alohida turlari bo'yicha tasniflanadi.

**1. Mulkiy va mulkiy bo'lmagan shaxsiy huquqiy munosabatlar.** Mulkiy munosabatlar deganda, muayyan iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, masalan, mulk yuzasidan belgilanadigan, mulkni sotish, ijaraga qo'yish va boshqacha shaklda qo'ldan-qo'lga o'tkazish, umuman mulkiy muomala bilan bog'liq huquqiy munosabatlar tushuniladi.

Mulkiy bo'lmagan shaxsiy huquqiy munosabatlar shaxs (fuqarolar va yuridik shaxslar)ning o'zi bilan bevosita bog'liq bo'lgan, o'z sohibidan begonalashtirilishi va birovga o'tkazilishi mumkin bo'lmagan shaxsiy huquqlar, jumladan, shaxsning mualliflik nomi, qadr-qimmati va boshqa shaxsiy manfaatlar bilan bog'liq bo'lgan huquqlardan iborat.

**2. Mutlaq va nisbiy huquqiy munosabatlar.** Mutlaq huquqiy munosabatlarda subyektiv huquq egalari o'z huquqlarining buzilmasligini har kimdan va hammadan talab qila oladilar. Mutlaq huquqlar noma'lum har bir kimsa tomonidan buzilishi mumkin bo'lgani sababli har kimdan qo'riqlanadi. Ularga mulk, mualliflik huquqlari, shaxsiy huquq kabilar kiradi.

Nisbiy huquqiy munosabatda esa faqat bir shaxs (yoki shaxslar)gina huquq yoki majburiyat oladi. Nisbiy huquqlar zimmasida majburiyat olgan ma'lum shaxs (yoki shaxslar)ga nisbatangina kuchda bo'ladi. Shartnomaga asoslangan barcha huquqlar nisbiy huquqlar jumlasidandir. Nisbiy huquqlarga asoslangan talablarning amalga oshirilishi, majburiyatlarning bajarilishi, qarzga olingan pulning to'lanishi bo'yicha o'z zimmasiga shartnoma asosida majburiyat olgan shaxsdangina talab qilish mumkin bo'ladi.

**3. Mulkiy huquqiy va majburiyat munosabatlari.** Mulkiy huquqiy munosabatlar, mutlaq huquqiy munosabat bo'lib, mulkiy xarakterga ega hamda ashyoni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etishga qaratiladi. Mulkiy-huquqiy munosabatlarda huquq egasi bo'lgan shaxslar boshqa shaxslarning ijobiy harakatlariga muhtoj bo'lmay, o'z huquqlarini o'zlari bevosita amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Majburiyat munosabatlari nisbiy munosabatdan iborat bo'lib, mulkiy huquqiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lsa ham, hamma vaqt moddiy narsa (ashyo) bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin. Bunday munosabatlar, odatda, fuqarolik muomalasi natijasida vujudga keladi. Jumladan, muayyan ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatilishi yoki yetkazilgan zararni to'latilishiga qaratilishi mumkin. Barcha shartnomalar, birovgga zarar yetkazish, mulkni asossiz olish yoki tejash bilan bog'liq munosabatlar majburiyat munosabatlari hisoblanadi.

**4. Tashkiliy-huquqiy munosabatlar.** Tashkiliy-huquqiy munosabatlar mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlardan farqli o'laroq, nimaga nisbatan qaratilgan bo'lishi bilan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular bevosita mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabat ishtirokchilari o'rtasida muayyan huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni o'rnatishni tashkil qilish vazifasini bajaradi. Tashkiliy-huquqiy munosabatlar o'z maqsadiga muvofiq ba'zi hollarda muayyan iqtisodiy-huquqiy tuzilmalarni tashkil etishga qaratiladi.

Tashkiliy-huquqiy munosabatlar nisbatan mustaqil hisoblanadi. Chunki ular ko'pchilik hollarda mulkiy munosabatlarni o'rnatish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Tashkiliy-huquqiy munosabatlarda iqtisodiy mustaqil va yuridik jihatdan bir-biriga bo'ysunmagan taraflar qatnashadi. Shuning uchun ham ularning o'zaro munosabatlari fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan tenglik tamoyili asosida o'rnatiladi<sup>1</sup>.

**5. Oddiy va murakkab huquqiy munosabatlar.** Huquq va majburiyatlarning taqsimlanishiga ko'ra huquqiy munosabatlar oddiy va murakkab munosabatlarga bo'linadi. Ko'pchilik fuqarolik huquqiy munosabatlar murakkab huquqiy munosabatlar hisoblanadi, chunki unda ishtirok etuvchilarning har birida huquq va majburiyat bo'ladi. Oddiy huquqiy munosabatlarda unda ishtirok etuvchilarning birida faqat huquq ikkinchisida esa faqat majburiyat bo'ladi (masalan, qarz shartnomasi).

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov X.R. Fuqarolik huquqining predmeti, metodi va tamoyillari. – T.: TDYuI, 2003. – B. 25–28.

### **3-§. Fuqarolik huquqlari va burchlarining vujudga kelish asoslari. Yuridik faktlar**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar fuqarolik huquqiy munosabatlarning yangicha mazmun va mohiyatga ega bo'lishi hamda ushbu munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari vujudga kelishi asoslari doirasini kengaytirib yubordi, yangilangan qonunchilik tizimining ishlab chiqilishi esa iqtisodiy munosabatlar subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari hamda kafolatlarini belgilashda alohida ahamiyat kasb etdi.

Ta'kidlash lozimki, Sobiq Ittifoq davridagi fuqarolik huquq va burchlarning vujudga kelishi asoslariga nisbatan bir yoqlama yondashuv hamda davlatning iqtisodiy muomaladagi hukmronligi sharoitida mavjud bo'lgan cheklashlar va to'siqlarning bartaraf etilganligi fuqarolik huquq va burchlarning vujudga kelishi asoslari, shuningdek, fuqarolik huquqidagi yuridik faktlarning yangicha mazmun-mohiyatini belgilab berdi. Endilikda, yuridik faktlar tushunchasi va turlarini yangilangan fuqarolik qonunchiligi va iqtisodiy qonuniyatlar zahirida tahlil etishni taqozo etmoqdaki, bu holat, avvalo shartnoma erkinligi tamoyilining bozor iqtisodiyotidagi fuqarolik muomalasining eng muhim qoidasi ekanligidan kelib chiqadi. Binobarin, yuridik faktlarning bir turi hisoblangan shartnoma va bitimlar asosida fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelishi avvalgi qonunchilikdan farqli ravishda faqat qonunda belgilanganlik holati bilan cheklanmaydi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 8-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, fuqarolik huquq va burchlari qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlar bilan birga, qonunda nazarda tutilmagan bo'lsa-da, unga zid bo'lmagan shartnoma va bitimlardan vujudga kelishi belgilandiki, endilikda u yoki bu shartnomaning qonunda belgilangan yoki belgilanmaganligi uning haqiqiy emas deb topilishi asosi sifatida baholanmasligini ta'minlaydi.

Huquq nazariyasida yuridik faktlar deganda, huquq normalari huquqiy oqibatlar vujudga kelishi bilan bog'laydigan hayotiy

holatlar tushunilishi qabul qilingan<sup>1</sup>. Bunda huquq normasi va huquqiy munosabat shunday bog'langanki, yuridik fakt huquqiy normani harakatga keltiruvchi va yuridik oqibatni yuzaga keltiruvchi kuch yoki omil hisoblanadi

Ma'lumki, yuridik faktlar deganda, fuqarolik huquqiy munosabatlarni belgilash, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan holatlar tushuniladi. Yuridik faktlar har doim huquqiy oqibat tug'dirishi bilan kishilarning odatdagi harakatlaridan farq qiladi. Shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan har qanday harakatlar ham yuridik fakt hisoblanmasligini hisobga olsak, yuridik fakt sodir etilishi doimo huquqiy munosabat vujudga kelishini ta'minlashini anglab olishimiz mumkin bo'ladi. Shu ma'noda, har qanday huquqiy munosabat asosida muayyan yuridik fakt yotadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yoki tabiatda sodir etiladigan turli harakatlar va hodisalar yuridik fakt sifatida baholanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, suv toshqini yoki yong'in yuridik fakt sifatida baholanishi uchun, birinchi navbatda, sug'urta shartnomasi tuzilishi lozim bo'ladi, aks holda bu hodisalar yuridik fakt hisoblanmaydi.

Shu bilan birga, harakatning yuridik fakt hisoblanishi ham uning huquq yo'l qo'ygan yoki huquq yo'l qo'ymaganidan qat'i nazar e'tirof etiladi va, faqatgina bunda, uning huquqiy oqibat tug'dirishi, ya'ni fuqarolik huquqiy munosabatni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilish holati e'tiborga olinadi. Masalan, fuqaroning hayoti va sog'ligiga zarar yetkazish yuridik fakt hisoblanadi, binobarin mazkur huquq yo'l qo'ymagan harakat oqibati – delikt munosabati vujudga keladi va zarar yetkazgan shaxs zimmasiga zararni qoplash majburiyati yuklanadi.

Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda fuqarolik qonunchiligida yuridik fakt tushunchasiga ta'rif berilmaydi. FKda esa «yuridik fakt» iborasi faqatgina bitta o'rinda (FKning 850-moddasida) eslab o'tiladi, xolos. Fuqarolik huquqi fani esa «yuridik fakt»

---

<sup>1</sup> Теория государства и права: Курс лекций / Под ред. М.Н. Марченко. – М.: Зерцало, ТЕИС, 1996. 397 с; Курцев Н.П., Горюнова Е.Н. Правовая природа юридических фактов // Юрист, 2003, № 10.

atamasidan keng foydalanadi hamda deyarli har bir fuqarolik huquqiy institutida yuridik faktlarning u yoki bu turiga to'xtalib o'tadi. Shu munosabat bilan mamlakatimiz fuqarolik qonunchiligiga yuridik fakt tushunchasini kiritish va yuridik faktlarning huquqiy munosabatlardagi amaliy o'rnini oshirish, yuridik faktlarni belgilashning moddiy-huquqiy qoidalarini belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, yuridik faktlar turlarini tasniflash asoslarini tahlil etish va bu boradagi nazariy qoidalarni takomillashtirish, yuridik fakt turlarini amalda to'g'ri qo'llash mexanizmini ishlab chiqish ham fuqarolik huquqi oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Fuqarolik huquqi normalari o'z-o'zidan fuqarolik huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi ma'lum holatlar bilan belgilanadi. Binobarin, huquqiy munosabatlarni belgilash, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan holatlar yuridik faktlar deb yuritiladi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlar vujudga kelishi uchun huquqiy normalarda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan, shuningdek, nazarda tutilmagan bo'lsa-da, fuqarolik qonunlarining umumiy asoslari va mazmuniga muvofiq keladigan muayyan holatlar mavjud bo'lishi kerak.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradigan, o'zgartiradigan va bekor qiladigan asoslar sifatida ko'rilgan yuridik faktlar turlicha bo'lib, subyektlar erki-irodasi mazmuniga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

### **1. Hodisalar;**

### **2. Harakatlar.**

FKning 8-moddasi birinchi qismida ko'rsatilishicha fuqarolik huquqlari va burchlari qonunchilikda nazarda tutilgan asoslardan, shuningdek, fuqarolar hamda yuridik shaxslarning garchi qonunchilikda nazarda tutilgan bo'lmasa-da, lekin fuqarolik qonunchiligining umumiy negizlari va mazmuniga ko'ra fuqarolik huquq hamda burchlarini keltirib chiqaradigan harakatlardan vujudga keladi.

Fuqarolik kodeksining 8-moddasi ikkinchi qismida fuqarolik huquqlari va burchlarining vujudga kelish asoslari ko'rsatilgan.

### **Ular quyidagilardan iborat:**

1. Qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlardan, shuningdek, garchi qonunda nazarda tutilmagan bo'lsa-da, unga zid bo'lmagan shartnoma va boshqa bitimlardan;

2. Qonunda fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asosi sifatida nazarda tutilgan davlat organlarining yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hujjatlaridan;

3. Sudning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilagan qarorlaridan;

4. Qonun yo'l qo'ygan asoslarda mol-mulk olish natijasida;

5. Fan, adabiyot, san'at asarlarini yaratish, ixtirolar va boshqa intellektual faoliyat natijasida;

6. Boshqa shaxsga zarar yetkazish natijasida;

7. Asossiz boyib ketish natijasida;

8. Fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa harakatlari natijasida;

9. Qonunchilik fuqarolik-huquqiy oqibatlarning kelib chiqishi bilan bog'laydigan hodisalar natijasida.

Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart bo'lgan mol-mulk bo'lgan huquqlar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, unga bo'lgan huquqlar tegishli ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Hodisalar, voqealar, ya'ni kishilarning erkidan tashqari sodir bo'ladigan faktlar (masalan: o'lim, tug'ilish va shunga o'xshashlar) faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina fuqarolik huquqi va majburiyatlarini vujudga keltiradi. Masalan, fuqaro vafot etgan taqdirda uning merosxo'rlari vorislik huquqi to'g'risidagi normalar asosida meros olish huquqiga, marhumning qarzi bo'lsa, olgan meros mulki qiymati hajmidan shu qarzni to'lashga majbur bo'ladilar. Tabiiy ofatlar, yong'in yuz bergan taqdirda, sug'urta organlari jabrlangan shaxs zararini sug'urta haqidagi huquqiy normalarga asosan to'lashga majbur bo'ladilar (agar avvaldan sug'urta shartnomasi tuzilgan bo'lsa).



Harakatlar fuqarolik huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi shaxs (yoki shaxslar)ning erki bo'yicha qilinadigan yuridik faktlar hisoblanadi. Har qanday harakat ham yuridik fakt hisoblanmaydi, faqatgina muayyan huquqiy oqibat tug'diradigan harakatgina yuridik fakt sifatida e'tirof etiladi. Ular o'z navbatida ikki turga: huquq yo'l qo'ygan va huquq yo'l qo'ymagan harakatlarga bo'linadi.

Huquq yo'l qo'ygan harakatlar qonun bilan man etilmagan harakatlardan iborat. Bunday harakatlar fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquqlari yoki burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlar bo'lib, muayyan huquqiy oqibatni tug'dirishga qaratiladi.

Huquq yo'l qo'ymagan harakatlarga boshqa shaxsga zarar yetkazish va asossiz boyib ketish holatlari tan olinadi (FK 8-moddasining ikkinchi qismi, 6–7-bandlari).

Qonun yo'l qo'ygan asoslarda mol-mulk olish natijasida ham fuqarolik huquq va majburiyatlari vujudga keladi. Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan mol-mulkka nisbatan huquqlar, agar qonunda boshqacha tartib belgilab qo'yilmagan bo'lsa, tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

#### **4-§. Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish tartibi**

Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va burchlarni bajarish vaqtida fuqarolar va tashkilotlar davlatimiz bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida qonunlarga va normativ huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir.

Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish tartibi amaldagi FKning 9-moddasida ko'rsatilgan. Unga asosan fuqarolar va yuridik shaxslar fuqarolik huquqlarini o'z e'klari bilan, o'z manfaatlarini ko'zlab qo'lga kiritadilar hamda amalga oshiradilar. Ular o'zlariga tegishli fuqarolik huquqlarini, shu jumladan, bu huquqlarni himoya qilish huquqini ham o'z xohishlariga qarab tasarruf etadilar. Bunda ular, hatto o'zlariga tegishli huquqlarni

amalga oshirishdan voz kechishga ham haqlidirlar va bu holat qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari (masalan, merosdan voz kechish) huquqlarning bekor qilinishiga olib kelmaydi.

Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish boshqa shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart. Qonun fuqarolik huquqi munosabat ishtirokchilarining insofli, oqilona va adolat bilan harakat qilishini nazarda tutadi.

Fuqarolar va yuridik shaxslar o'z huquqlarini amalga oshirishda jamiyatning ma'naviy tamoyillari, axloqiy normalarini hurmat qilishlari, tadbirkorlar esa ish yuritish odobi qoidalariga rioya qilishlari shart. Ular o'z huquqlarini amalga oshirish jarayonida boshqalarga zarar yetkazmasliklari, o'z huquqlarini suiiste'mol qilmasliklari, shuningdek, ulardan qonunchilikka zid ravishda foydalanmasliklari shart.

Fuqarolar va yuridik shaxslar o'z huquqlarini amalga oshirishda ushbu shartlarga rioya etmasalar, sud ularga tegishli huquqni himoya qilishni rad etishi mumkin. Subyektiv fuqarolik huquqini amalga oshirish zimmasida majburiyat bo'lgan shaxsni muayyan xatti-harakatni qilishga (agar o'z burchini ixtiyoriy ravishda bajarmasa) majbur qilish yo'li bilan kafolatlanadi.

## **5-§. Fuqarolik huquqlarining himoya qilinishi**

O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shaklantirish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash va bu huquqlarni himoya qilishning samarali mexanizmini yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Mazkur muhim strategik vazifalarni bajarish ko'p jihatdan jamiyatda ijtimoiy munosabatlar subyektlarining huquqlarini himoya qilish usuli va vositalarining mukammalligiga bog'liq. Bugungi kunda insonning mulkiy, shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini himoya qilish usul va vositalarining anchagina mukammallashgan tizimiga ega. Biroq huquqlarni himoya qilish usullari va vositalari barcha huquq sohalari yo'nalishlarida ham mukammal tizimga ega deb aytish mumkin emas.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari FKning 11-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

Ular quyidagilardan iborat:

- Huquqni tan olish (masalan, asarning biron tomonidan o'zlashtirilib nashr etilgani to'g'risida nizo bo'lgani holda, shu asarga nisbatan mualliflikni tan olish);

- Huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish (masalan, mulk egasi o'zining mulkidan foydalanish huquqining har qanday ravishda buzilishini bartaraf etish va kelgusida mulkdan foydalanishda halaqit bermaslik majburiyatini buzuvchi shaxsga yuklash);

- Bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash;

- Davlat organining yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;

- Shaxsning o'z huquqlarini o'zi himoya qilishi;

- Burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish (masalan, sotilgan ashyo sotuvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda topshirilmaganida, uning oluvchisiga majburiy tarzda olib berish);

- Zararni to'lash;

- Neustoyka undirish;

- Ma'naviy ziyonni qoplash;

- Huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish;

- Davlat organining yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo'llamasligi;

- Qonunda nazarda tutilgan boshqacha usullar.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish tartibi ham umumiy va maxsus tartibga bo'linadi.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilishning umumiy tartibi sud va xo'jalik sudi orqali himoya qilishdan, shuningdek, fuqaroni o'z huquqlarini o'zi himoya qilishdan iborat bo'ladi. FKning 10-moddasiga asosan buzilgan huquqlarni fuqarolik huquqlarini protsessual qonunlarda yoki shartnomada belgilab qo'yilganidek, ishlar qaysi sudlovga taalluqli bo'lishiga qarab, sud, xo'jalik sudi yoki xolislar sudi tomonidan himoya qilinadi.

Qonunda nazarda tutilgan hollardagina fuqarolik huquqlari ma'muriy tartibda himoya qilinadi. Ma'muriy tartibda qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilish mumkin (FK 10-moddasining ikkinchi qismi).

Shaxsning o'zi tomonidan ham fuqarolik huquqlarini himoya qilishga yo'l qo'yiladi. Biroq bunda himoya ma'lum shartlar asosida amalga oshirilmog'i lozim. Ular FKning 13-moddasida nazarda tutilgan. Unga asosan shaxsning o'zi tomonidan fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari huquqni buzish darajasi bilan baravar bo'lishi hamda huquqni buzishga yo'l qo'yish uchun zarur harakatlar doirasidan chiqib ketmasligi lozim.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, huquqiy demokratik davlat shakllanib borgani sari fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati ham tobora oshib boradi. Bunday sharoitda fuqarolik huquqlarini huquq egasi tomonidan o'zini o'zi himoya qilish usulini qo'llash doirasi ham kengayib borishi lozim. O'zini o'zi himoya qilish usulining keng qo'llanilishi esa huquqni himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va sud tomonidan aralashuv zaruriyatini muayyan jihatdan kamaytiradi. Biroq o'zini o'zi himoya qilish usuli muayyan huquqiy asosga ega bo'lishi lozim. Ushbu huquqiy asoslarda o'zini o'zi himoya qilishni qo'llash holatlari, shartlari, doirasi, qo'llaniladigan himoya vositalari, uni suiiste'mol qilish oqibatlarini batafsil tartibga solinmog'i lozim<sup>1</sup>.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilishning maxsus tartibida faqat qonun yoki boshqa normativ hujjatlarda maxsus ko'rsatma bo'lgan taqdirdagina qo'llanilishi mumkin. Himoya qilishning maxsus tartibi quyidagichadir: fuqarolik huquqlarini himoya qilish qonunlar bilan belgilangan hollarda va tartibda kasaba uyushma tashkilotlari tomonidan ham amalga oshiriladi.

Fuqaro va tashkilotlarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish sud tartibida amalga oshiriladi. Ba'zi hollarda, agar fuqaroning sha'niga dog' tushiradigan va qadr-qimmatini pastga uradigan ma'lumotlar shaxsning turar joy yoki ish joyida birinchi

---

<sup>1</sup> Akromxodjaeva Z.S. Intellektual mulk huquqini fuqarolik-huquqiy himoya qilishni takomillashtirish muammolari. Nomzodlik dissertatsiyasi. – T., 2008. – B. 12.

marta sodir etilgan bo'lsa, jabrlangan shaxsning huquqi turar joy yoki ishxonasida himoya qilinishi mumkin.

### **Tayanch iboralar:**

Fuqarolik huquqlari va burchlarining vujudga kelish asoslari, huquq yo'l qo'ygan harakatlar, huquq yo'l qo'ymagan harakatlar, fuqarolik huquqlarini amalga oshirish tartibi, fuqarolik huquqlarini himoya qilish, fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari, hodisalar, harakatlar.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish tartibi qaysi me'yoriy hujjatda ko'rsatilgan?
2. Fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullariga nimalar kiradi?
3. Yuridik faktlarni tushuntirib bering.
4. Noqonuniy harakatlarga misol keltiring.
5. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarni sanab bering.
6. Huquqni tan olish tushunchasiga ta'rif bering.
7. Bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llashning mohiyatini ochib bering.
8. Burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish nima?
9. Shaxsning o'z huquqlarini o'zi himoya qilishiga izoh bering.
10. Huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish nimalarda namoyon bo'ladi?

## **V bob. FUQAROLIK HUQUQINING SUBYEKTI SIFATIDA FUQAROLAR**

### **1-§. Fuqarolarning huquq layoqati**

Huquq subyektlarini xarakterlaydigan asosiy huquqiy xususiyatlar huquq va muomala layoqatlaridan iborat. Fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e'tirof etiladi (FKning 17-moddasi). Har bir shaxs fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lish layoqatiga molik bo'lmay turib, fuqarolik huquqining subyekti bo'la olmaydi. Bu qoida, odatda, yuridik shaxslarga taalluqli bo'lsa-da, jismoniy shaxslar uchun ahamiyatli hisoblanadi.

Davlat hayotning moddiy sharoitlariga qarab fuqarolarning huquq layoqati, ya'ni muayyan huquq va burchlarga ega bo'lish layoqatini belgilaydi. Huquq layoqatining xarakteri va mazmuni jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlaridan kelib chiqadi.

Fuqarolik huquq layoqati fuqarolarga o'zlarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida xilma-xil huquqiy munosabatlarga kirishishning yuridik imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida aytilganidek, O'zbekiston Respublikasidagi barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar. Ushbu qoidaga asoslangan holda, fuqarolik huquqida fuqarolar huquq layoqatida teng hisoblanadilar. Ya'ni, barcha fuqarolarga bir xildagi huquq va burchlar belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari huquq layoqatining mazmuni Konstitutsiyaning «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari» nomli ikkinchi bo'limidagi qator moddalarda keng ta'riflangan va mustahkamlangan. Ularda fuqarolarning mol-mulkka ega bo'lishi, meros olishi, meros qoldirishi, kasb va turar-joy tanlash, fan, adabiyot, san'at asarlari yaratish, tadbirkorlik faoliyati bilan va umuman qonunda taqiqlanmagan har qanday faoliyat bilan shug'ullanish, shuningdek, boshqa keng mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga

ega bo'lishlari mumkinligi aytilgan va asosiy qonun darajasida mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning fuqarolik huquq layoqati mazmuni FKning 18-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Unga asosan fuqarolar:

- mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo'lishlari;
- mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari;
- bankda jamg'armalarga ega bo'lishlari;
- tadbirkorlik, dehqon (fermer) xo'jaligi bilan hamda qonunda taqiqlab qo'yilmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari;
- yollanma mehnatdan foydalanishlari, o'zlari mustaqil ravishda yoki boshqa fuqarolar va yuridik shaxslar bilan birgalikda yuridik shaxslar tashkil etishlari;
- qonunga zid bo'lmagan har qanday bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda qatnashishlari;
- boshqa shaxslar tomonidan yetkazilgan zararning to'lanishini talab qilishlari;
- mahsulot turini va yashash joyini tanlashlari;
- fan, adabiyot va san'at asarlarining, ixtirolarning, qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqiga ega bo'lishlari;
- boshqa mulkiy va shaxsiy huquqlarga ega bo'lishlari mumkin.

Qonunda belgilangan hollar va tartibdan tashqari, hech kimning huquq va muomala layoqati cheklanishi mumkin emas. Fuqaroning huquq va muomala layoqatidan to'la yoki qisman voz kechishi haqidagi, shuningdek, o'z huquq va muomala layoqatini cheklashga qaratilgan bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emas, deb hisoblanadi (qonun yo'l qo'ygan hollardan tashqari) (FKning 23-moddasi). O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 43-moddasi ayrim fuqarolik huquqlaridan, jumladan: xizmat bo'yicha cheklash, mol-mulkni musodara qilish, muayyan huquqdan mahrum qilishni ko'zda tutadi. Jinoyat qonunida huquqdan mahrum qilish vaqtincha chora sifatida ko'zda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 45-moddasida ko'rsatilganidek, muayyan huquqdan mahrum qilish bir yildan

bash yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin. Bu muddat o'tgach, fuqaro yana o'zi mahrum qilingan o'sha huquqni qonuniy asoslarda qo'lga kiritishi mumkin bo'ladi.

Huquq layoqati kishi tug'ilganidan to o'limigacha undan ajralmaydi, u bilan birga bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq ham har xil huquqlarga, jumladan, yashash huquqi, ovqatlanish huquqi, erkin bo'lish huquqi kabi qator tabiiy huquqlarga, shu jumladan, ota-onalardan tarbiya olish va boshqa huquqlarga ega bo'ladi. Aqli zaif va ruhi xastalar ham huquq subyekti bo'lib hisoblanadi. Ular, xususan, davolanish, pensiya olish va boshqa huquqlarga ega. Ularning mulkiy huquqlari to'liq hajmda saqlanadi.

Kishi tug'ilishi bilan uning hayoti boshlanganidek, tug'ilishi bilan huquq subyekti sifatida yashashi ham boshlanadi. Kishining tug'ilish fakti muhim yuridik ahamiyatga ega bo'lganligi tufayli bolaning tug'ilishi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limida (FHDYo) davlat ro'yxatdan o'tkaziladi. Ro'yxatdan o'tkazilmaslik tug'ilgan bolaning huquqiga ta'sir etmaydi, faqat uning huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur harakatlarni amalga oshirishda qiyinchilik tug'diradi.

Kishining huquq layoqati subyekti bo'lib, yashashi faqat uning tug'ilishi bilan boshlansa ham, qonun ba'zi hollarda hammaning, ya'ni hali tug'ililmagan bolaning – kelgusidagi huquq subyektining manfaatlarini ham e'tiborga oladi va qo'riqlaydi. Masalan, qonunga asosan, meros qoldiruvchi vafot etgan, ya'ni qonunda belgilangan tartibda meros ochilganidan so'ng tug'ilgan bolalari ham voris bo'la oladilar (FKning 1118-moddasi).

Huquq layoqati kishi, ya'ni huquq subyekti vafot etishi bilan tamom bo'ladi.

## **2-§. Fuqarolarning muomala layoqati**

Muomala layoqati tushunchasi huquq subyektlari tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Zero muomala layoqati huquq subyektlarining subyekt sifatida namoyon bo'lishida asosiy rol o'ynovchi vazifasini o'taydi. O'z o'rnida fuqarolarning muomala layoqati ularning fuqarolik huquqi subyekti sifatida harakat qilib



o'zlari uchun huquq va majburiyatlarni olishlarida muhim o'rin tutuvchi element hisoblanadi

Muomala layoqati fuqarolarning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlarini olish, amalga oshirish, o'zlari uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqatidir (FKning 22-moddasi).

Muomala layoqati tushunchasi xususida turli fikrlar mavjud. Muomala layoqatiga ega bo'lish, bu – turli xil yuridik harakatlarni shaxsan amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lish: shartnomalar tuzish, ishonchnomalar berish, shuningdek, keltirilgan mulkiy zararlar, shartnoma va boshqa majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'lishdir<sup>1</sup>.

Muomala layoqati shaxsning o'z xatti-harakatlari bilan fuqarolik huquqlarini qo'lga kiritishi va o'zi uchun fuqarolik majburiyatlarini vujudga keltira olishi tushuniladi<sup>2</sup>.

Muomala layoqati bu – mustaqil va to'la ravishda bitimlarni tuzish layoqatidir<sup>3</sup>.

Muomala layoqati yuridik harakatlar qilish, ya'ni qonun bo'yicha ma'lum huquqiy oqibatlar qilish (masalan, shartnomalar tuzish, yetkazilgan zararni to'lash va hokazolar) layoqatidir<sup>4</sup>.

Ayrim mualliflar muomala layoqati mazmunini tashkil qiladigan unsurlarni tahlil qilib, quyidagi xulosaga keladilar:

– o'z harakatlari bilan huquqlarga egalik qilish va majburiyatlarni vujudga keltirish (huquqqa egalik qilish) layoqati;

– o'z xatti-harakatlari bilan o'zida mavjud bo'lgan huquqlarni amalga oshirish va majburiyatlarni ijro qilish layoqati (amalga oshirish huquqiga layoqatlilik);

– harakati bilan o'ziga tegishli bo'lgan huquqlarni tasarruf qilish layoqati;

---

<sup>1</sup> Ashurova N. Voyaga yetmaganlarning fuqarolik huquqiy munosabatda ishtiroki. Yu.f.n. diss... – Toshkent. 2008. – B. 46.

<sup>2</sup> Umarov T.A. Xalqaro xususiy huquq: Jismoniy shaxsning huquqiy holati. – T.: Ijod dunyosi. 2003. – B. 96.

<sup>3</sup> Вагацума С. Гражданское право Японии. – М.: 1983. – Б. 47.

<sup>4</sup> Zokirov I.B. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqi. – Toshkent, TDYuI. 2006.

– fuqarolik huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilgan taqdirda javobgar bo'lish layoqati<sup>1</sup>.

Muomala layoqati bu – eng avvalo, o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish layoqatidir. Lekin bu bilan muomala layoqatining mazmuni cheklanmaydi. Muomala layoqatining mazmuni, shuningdek, o'z ichiga shaxsning o'z xatti-harakatlari bilan huquq va majburiyatlarini vujudga keltirish layoqatini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari muomala layoqatining mazmunida shaxsning ruxsat etilmagan harakatlarni amalga oshirishlari natijasida javobgar bo'lish layoqatlari ham mavjud. Shunday qilib, muomala layoqati bu – fuqarolik huquq va majburiyatlariga mustaqil ravishda egalik qilish, amalga oshirish va javobgar bo'lish layoqatidir<sup>2</sup>.

Demak yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, muomala layoqati bu – shaxsning o'z aqliy anglash imkoniyatidan kelib chiqib, aktiv yoki passiv harakatlari orqali huquq va majburiyatlarni qo'lga kiritishi tushuniladi.

Muomala layoqatini yuridik harakatlar qilish, ya'ni qonun bo'yicha ma'lum huquqiy oqibatlar qilish layoqati deb ham ta'riflash mumkin (masalan, shartnomalar tuzish, yetkazilgan zararni to'lash va hokazolar).

Muomala layoqatining huquq layoqatidan farqi shuki, barcha fuqarolar ham muomala layoqatiga ega bo'lavermaydilar. Muomala layoqatiga ega bo'lishning sharti shundan iboratki, muomala layoqatiga ega bo'lgan fuqarolar aqli rasolik bilan o'z harakatlarining oqibatlarini tushunib harakat qiladilar. Ma'lumki, yangi tug'ilgan bola to'liq huquq layoqatiga ega bo'lsa ham, o'z harakatlari bilan birona huquq va majburiyat olmaydi. Ongli harakatlar qilish layoqati faqat ma'lum yoshga yetgandan keyingina boshlanadi. Binobarin, fuqarolik muomala layoqatining fuqaro to'la hajmda voyaga yetishi bilan vujudga kelishini

---

<sup>1</sup> Кузнецова Л.Г. Шевченко Я. Н. Гражданско-правовое положения несовершеннолетних. М.: Юридическая литература. 1968. – Б.17.

<sup>2</sup> Иоффе О.С. Советское гражданское право. Курс лекций. – Ленинград: ЛГУ. 1958. – С. 82.

ko'rsatadi. Voyaga yetish 18 yoshga to'lish bilan boshlanadi. Bu yoshga yetish bilan kishi fuqarolik huquqiy munosabatlarida, jumladan, mulkiy munosabatlarda to'la qatnashuvchigina bo'lib qolmay, siyosiy huquqlar bilan birga boshqa fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini ham oladi.

Qonun voyaga yetish yoshini belgilash bilan bir qatorda, voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o'tgan fuqaro nikohdan o'tgan vaqtdan e'tiboran to'la hajmda muomala layoqatiga ega bo'lishini belgilaydi (FKning 22-moddasi).

Voyaga yetgan fuqarolar teng darajada muomalaga layoqatli hisoblanadilar. Fuqarolarning muomala layoqati faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina cheklanishi mumkin. Fuqaroning muomala layoqatini cheklashga qaratilgan bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emas (FKning 23-moddasi).

To'la muomala layoqati yuqorida ko'rsatilganidek, o'n sakkiz yoshga yetgan fuqarolarga berilgani sababli bu yoshga to'lmagan shaxslarning huquqiy holatini belgilashda ular ikkiga bo'linib, ya'ni o'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan va o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslar muomala layoqati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

O'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar) to'la ravishda muomalaga layoqatsiz hisoblanadilar.

### **Olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolalar:**

1. Mayda maishiy bitimlar;
2. Tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial guvohlantirish yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlar;
3. Qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag'larni tasarruf etish borasidagi bitimlarni amalga oshirishga haqlidirlar (FKning 29-moddasi).

Kichik yoshdagi bolalar mustaqil tuza oladigan mayda maishiy bitim deganda, bola yoki uning oila a'zolarining odatdagi, har kungi ehtiyojini qondirishga qaratilgan va yuqori

bo'lmagan bahodagi bitim tushuniladi. Bitimning mayda maishiy bitim ekanligini belgilovchi ikki shart mavjud bo'lishi talab etiladi. Birinchisi, odatdagi, har kungi ehtiyojlarni qondirishga qaratilganligi va ikkinchisi, yuqori bo'lmagan bahoda bo'lishi talab etiladi.

O'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar uchun bitimlarni ularning nomidan ota-onalari, farzandlikka oluvchilar yoki vasiylari tuzadilar.

Birovga yetkazilgan zararlari uchun ham kichik yoshdagi bolalar javobgar bo'lmaydilar. Ular uchun ota-onalari yoki boshqa nazoratchilari javobgardir. O'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning banklarga omonat qo'yish va ularni tasarruf qilish huquqlari qonun bilan belgilanadi.

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar (o'smirlar) qisman muomalaga layoqatli bo'lib, qonuniy vakillari (ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylari)ning roziligi bo'lgan taqdirda, o'z harakatlari bilan huquq va majburiyatlar olishlari mumkin.

O'smirlar bitimlarni ota-onalari, farzandlikka oluvchilar yoki homiylarining roziligi bilan tuzadilar. Ammo ular mustaqil ravishda o'zlarining ish haqlari yoki stipendiyalarini tasarruf qilishga, o'z asarlari, ixtirolariga bo'lgan mualliflik hamda ixtirochilik huquqlarini, o'z kashfiyotlariga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishga, kredit muassasalariga mablag'lar qo'yish va ularni tasarruf etishga, shuningdek, mayda maishiy bitimlarni tuzishga haqlidirlar. Ular 16 yoshdan kooperativlarga a'zo bo'lib kirishlari mumkin.

Yetarli asoslar mavjud bo'lganida, sud qonuniy vakillari yoxud vasiylik va homiylik organining iltimosnomasiga ko'ra, o'smirning o'z ish haqi yoki stipendiyasini mustaqil tasarruf qilish huquqini cheklashi yoki bu huquqdan mahrum etishi mumkin (FK 27-moddasining to'rtinchi qismi).

O'smirlar boshqa shaxslarga yetkazilgan zararlari uchun FK bilan belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Ruhiy kasallar va aqli zaiflar to'la hajmda muomalaga layoqatsiz hisoblanadilar. Ongli harakatlar qilish va o'z

harakatlarining yuridik oqibatlarini hisobga olish layoqati (muomala layoqati)ga, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli ega bo'lmagan fuqaro – muomala layoqatiga ega emas deb tanilishi mumkin. Har qanday ruhiy kasallik yoki aqli zaiflik fuqaroni ongli harakatlar qilish va fuqarolik muomalasida qatnashish layoqatidan mahrum qilmaydi. Ruhiy holat buzilishi faktining o'zigina kishini muomalaga layoqatsiz deb topishga asos bo'lmaydi. FKda ko'rsatilishicha, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni idora qila olmaydigan fuqaro sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilishi mumkin, shu munosabat bilan unga nisbatan vasiylik belgilanadi (FKning 30-moddasi). Ta'kidlash joizki, yuqoridagi asoslarga ko'ra, fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish uchun fuqaro 18 yoshga to'lgan bo'lishi zarur.

Ruhiy kasalni yoki aqli zaif kishini sud tomonidan tayinlangan psixiatrlarning ishtiroki bilan bo'ladigan maxsus komissiya tomonidan ko'rib tekshirish va uning natijalari haqida dalolatnoma tuzish sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topish haqida hal qiluv qarori chiqarish uchun asos bo'ladi. Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro nomidan bitimlarni vasiylari tuzadilar.

Fuqaroning muomalaga layoqatsiz deb topilishiga sabab bo'lgan asoslar bekor bo'lsa, sud uni muomalaga layoqatli deb topadi va belgilangan vasiylikni bekor qiladi (FKning 30-moddasi). Qonun ba'zi hollarda voyaga yetgan fuqarolarning muomala layoqatini cheklash hollarini nazarda tutadi, jumladan, FKning 31-moddasida ko'rsatilishicha, spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish natijasida o'z oilasini og'ir moddiy ahvolga solib qo'yayotgan fuqaroning muomalaga layoqati FPKda belgilangan tartibda sud tomonidan cheklab qo'yilishi mumkin. Lekin bularni u mayda maishiy bitimlarni istisno qilganda, bitimlarni homiyning roziligisiz tasarruf eta olmaydi.

Agar fuqaro spirtli ichimlik yoki narkotik moddalarni iste'mol qilishni tashlasa, sud uning muomalaga layoqati cheklanganligini bekor qiladi. Sud qaroriga asosan unga nisbatan belgilangan homiylik ham bekor qilinadi.

### 3-§. Vasiylik va homiylik

Vasiylik va homiylik muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga to'liq layoqatli bo'lmagan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda mulkiy huquqlarni qo'riqlash uchun belgilanadi.

Vasiylik o'n to'rt yoshga to'lmagan yetim bolalarga va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy, shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida belgilanadi.

Homiylik o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan yetim va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga, shuningdek, sud tomonidan muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy, shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida belgilanadi.

Homiylik ba'zi hollarda jismoniy kamchiliklari bo'lgan, masalan ko'zi ojiz (ko'rlik), mayiblik sababli o'z huquqlarini o'zlari amalga oshira olmaydigan va himoya qila olmaydigan to'la muomala layoqatiga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan ham belgilanadi. Bunday shaxslarga nisbatan homiylikning vazifasi huquqlar olish yoki ularni amalga oshirish bilan bog'liq turli harakatlarni ular uchun bajarishdan iborat.

Mahalliy organlar vasiylik va homiylik organlari bo'la oladi. Ular voyaga yetmaganlarga nisbatan vasiylik harakatlarini amalga oshirishni yosh bolalarga nisbatan – xalq ta'lim bo'limlariga, ruhiy kasal va aqli zaiflarga nisbatan – sog'liqni saqlash bo'limlariga, vasiylikka olinuvchilarning boshqa toifalariga nisbatan esa – ijtimoiy ta'minot bo'limlariga yuklaydilar. Qishloq joylarida vasiylik va homiylik fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashaydigan, ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan O'zbekiston Respublikasining voyaga yetmagan fuqarolariga va sog'lig'i tufayli

o'z huquqini mustaqil ravishda amalga oshira olmaydigan, o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan, O'zbekiston Respublikasi-ning voyaga yetmagan fuqarolariga vasiylik va homiylik faoliyatini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasining konsullik idoralari zimmasiga yuklanadi.

Agar vasiylikka olinuvchining mulki u turgan joyda bo'lmasa, ikki vasiy: biri uning o'ziga nisbatan, ikkinchisi vasiylikka olingan shaxsning mulkiga nisbatan tayinlanishi mumkin.

Ota-onalar vasiylik va homiylik vazifalariga alohida tayinlanmay, qonun bo'yicha bajaradilar. Ota-onalari bo'lmagan taqdirda yoki ular amalda bu vazifani birorta sabab, masalan, qamoqda yoki shifoxonada bo'lishi tufayli bajara olmasalar yoki ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan bo'lsalar vasiylik va homiylik organlari vasiy va homiyni, birinchi navbatda, vasiylikka olinuvchiga yoki homiy tayinlanayotganga yaqin shaxslardan biriga tayinlaydi.

Quyidagi shaxslar vasiy va homiy etib tayinlanishi mumkin emas:

- ota-onalik huquqidan mahrum etilganlar yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;

- sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;

- sobiq farzandlikka oluvchilar, agar farzandlikka olish ularning o'z zimmasiga yuklangan majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganligi, farzandlikka olinganlar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lganligi, surunkali alkogolizm yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lganligi oqibatida bekor qilingan bo'lsa;

- o'z zimmalariga yuklangan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi yoki o'z huquqlarini suiiste'mol qilganligi farzandlikka olinganlar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lganligi, surunkali alkogolizm yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lganligi oqibatida bekor qilingan bo'lsa;

- o'z zimmalariga yuklangan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi yoki o'z huquqlarini suiiste'mol

qilganligi uchun vasiy yoki homiy majburiyatlarini bajarishdan chetlashtirilgan shaxslar;

– qasddan sodir etgan jinoyati uchun ilgari hukm qilinganlar<sup>1</sup>.

Vasiy va homiyning asosiy vazifasi vasiylikka olinuvchining shaxsi va mulki yuzasidan g'amxo'rlik qilishdan, vasiylikka olinuvchining manfaatlarini qo'riqlashdan iborat. Binobarin, vasiylikka oluvchi o'ziga ishonilgan mulkdan o'zi uchun hech qanday foyda olmasligi lozim. U vasiylikka olingan shaxsni asrash va uning mulkini idora etish xarajatinigina undirishga haqli. Umumiy qoida bo'yicha vasiylik va homiylik vazifalari bepul bajariladi. Vasiy va homiy o'z vasiyligi yoki homiyligidagi shaxsga ta'minot berishga majbur emas. Vasiy va homiyning o'z vasiyligi yoki homiyligidagi shaxsning ta'minoti uchun qilgan xarajatlari qonunchilikda belgilangan tartibda ushbu shaxsning mablag'i hisobidan qoplanadi, bu mablag' yetarli bo'lmagan taqdirda esa, uning ta'minoti uchun vasiylik va homiylik organlari nafaqa tayinlashi mumkin.

### **Vasiylar va homiylar quyidagi huquqlarga ega:**

– o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsni uning fikrini hamda vasiylik va homiylik organlarining tavsiyalarini hisobga olgan holda tarbiyalash usullarini mustaqil belgilash;

– o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsni qonuniy asoslarsiz o'zida ushlab turgan har qanday shaxsdan, shu jumladan, ota-onasidan hamda boshqa yaqin qarindoshlaridan uni qaytarib berishni sud tartibida talab qilish;

– o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsning ta'minoti, unga tarbiya, ta'lim berish va uning sog'lig'ini saqlash bo'yicha huquqiy, uslubiy, diagnostika va maslahat yordami olish;

– o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxs mustaqil ravishda amalga oshirishga haqli bo'lmagan bitimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirish;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentyabrdagi 269-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida»gi Nizom // «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2014-yil 29-sentabr, 39-son, 490-modda.



– zarur ijtimoiy yordam olish uchun vasiylik va homiylik organlariga, ta’lim muassasalariga, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlariga, nodavlat notijorat tashkilotlarga murojaat qilish;

– o’z vasiyligidagi yoki homiylikdagi shaxsning davolanishi va sog’lig’ini tiklash maqsadida davolash, sanatoriy-kurort muassasalariga yo’llanmalar olish uchun sog’liqni saqlash muassasalariga murojaat qilish.

Vasiylar va homiylar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo’lishi mumkin.

### **Vasiylar va homiylarning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:**

– o’zining yashash joyi o’zgarganligi haqida vasiylik va homiylik organini xabardor qilish;

– o’z vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsni tarbiyalashi, uning ta’minoti, sog’lig’i, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy kamoloti haqida g’amxo’rlik qilish, shuningdek, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

– o’z vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning maktabgacha ta’lim, umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi olishi uchun sharoitlar bilan ta’minlash;

– alimentlar, pensiyalar, nafaqalar hamda qonunchilikka muvofiq boshqa ijtimoiy to’lovlar to’lashni talab qilish yuzasidan zarur choralar ko’rish;

– o’z vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning o’zlariga topshirilgan mol-mulkini asrab-avaylashi, mol-mulkning qiymati pasayishiga yo’l qo’ymasligi hamda undan foyda chiqarishga imkon tug’dirmaslik;

– o’z vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning mulkiy huquqlariga daxl qiladigan harakatlarni amalga oshirishda vasiylik va homiylik organlarining ruxsatlarini olish;

– o’z vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning mol-mulkini boshqarishdan tushgan daromadlardan va boshqa mavjud mablag’laridan uning ta’minoti uchun foydalanish;

– o’z vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning parvarish qilinishini, tibbiy kuzatuvini va davolash-profilaktika muassasalarida davolanishini ta’minlash;

– vasiylik va homiylik organlariga o‘z majburiyatlarining bajarilishi haqida hisobotlar taqdim etish;

– o‘z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxs statsionarda davolanish uchun joylashtirilganligi haqida vasiylik va homiylik organlarini xabardor qilish;

– agar fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topishga yoki muomala layoqati cheklanganligiga doir asoslar bekor bo‘lgan bo‘lsa, o‘z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsni muomalaga layoqatli deb topish to‘g‘risida sudga ariza bilan murojaat qilish;

– o‘z vasiyligidagi yoki homiyligidagi voyaga yetmagan shaxs bilan birga yashash.

Vasiylar va homiyarlar g‘amxo‘rlik qilish uchun o‘zlariga ishonilgan shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini amalga oshirishlarida yordam ko‘rsatadilar, ularni uchinchi shaxslarning yomon niyatli harakatlaridan saqlaydilar. Bitim tuzish uchun vasiylik va homiylik organlarining roziliklari talab qilinmagan hollarda, bitimlar tuzishga rozilik bera oladilar.

Vasiylar va homiyarlar o‘z himoyalaridagi shaxslarning huquq va manfaatlarini har qanday shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan sudlarda ham maxsus vakolatlarsiz himoya qila oladilar (FKning 32-moddasi).

### **Vasiylik quyidagi hollarda tugatiladi:**

- vasiylikdagi shaxs vafot etganda;
- voyaga yetmagan o‘n to‘rt yoshga to‘lganda;
- voyaga yetmagan ota-onasiga qaytarilganda;
- vasiylikdagi shaxs farzandlikka olinganda;
- fuqaroning muomala layoqati sud tomonidan tiklanganda.

### **Homiylik quyidagi hollarda tugatiladi:**

- homiylikdagi shaxs vafot etganda;
- homiylikdagi shaxs voyaga yetganda;
- homiylikdagi shaxs ota-onasiga qaytarilganda;
- homiylikdagi shaxs farzandlikka olinganda;
- fuqaroning muomala layoqatini cheklash haqidagi sudning qarori bekor qilinganda;

- voyaga yetmagan to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinganda (emansipatsiya);
- homiylikdagi shaxs nikohga kirganda;
- sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxsning sog'lig'i yaxshilanganda.

Vasiylik va homiylik bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga oid asosiy qoidalar O'zbekiston Respublikasining «Oila kodeksi», «Vasiylik va homiylik organlari to'g'risida»gi Qonun<sup>1</sup> va O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risidagi Nizom<sup>2</sup> bilan tartibga solinadi.

#### **4-§. Xususiy tadbirkor fuqarolarning huquqiy maqomi**

Xususiy tadbirkor fuqarolarning hamma o'y-fikrlari, harakatlari va sarf-xarajatlari foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Bu foyda tadbirkorlikning keyingi rivojlanishi va sotsial ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi.

Har qanday ishda bo'lganidek, tadbirkorlikda ham muvaffaqiyat o'z-o'zidan kelmaydi. Uning zaminida har doim og'ir mehnat, uddaburonlik, mohirlik, bilimdonlik va tashabbus yotadi. Bir so'z bilan aytganda, «Xususiy tadbirkorlik, ma'lum ma'noda, birovlarining cho'ntagidagi pulni zo'rlik ishlatmay olish san'atidir».

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni liberallashtirish, boshqaruvning bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi ortiqcha byurokratik to'siq va g'ovlarni bartaraf etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ya'ni, so'nggi yillarda xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi roli va o'rnini tubdan oshirish, tadbirkorlik

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 2-yanvardagi «Vasiylik va homiylik to'g'risida»gi O'RBQ-364-sonli Qonuni // «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2014-yil 6-yanvar, 1-son, 1-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentyabrdagi 269-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida»gi Nizom // «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2014-yil 29-sentabr, 39-son, 490-modda.

faoliyatini tashkil etish yo'lidagi mavjud to'siq va cheklovlarni tugatish bo'yicha bir qator normativ hujjatlar qabul qilindi<sup>1</sup>.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari (qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno), ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi qonunchilikda man etilgan boshqa shaxslar tadbirkorlik faoliyatining subyektlari bo'lishi mumkin emas<sup>2</sup>.

Umumiy qoida bo'yicha fuqarolar 18 yoshga to'lib, to'liq muomala layoqatiga ega bo'lgach, xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishga haqli.

Xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan fuqaro tuman (shahar) hokimligiga zarur hujjatlar taqdim etgan holda ariza bilan murojaat qiladi. Agar tadbirkor maxsus ruxsatnoma talab etiladigan faoliyat turi bilan shug'ullanish istagini bildirsa, tegishli organlarning xulosasini ham taqdim etishi lozim.

Yuridik shaxs bo'lmasdan o'z faoliyatini amalga oshiruvchi xususiy tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxsga u, albatta, davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvoohnoma beriladi va tegishli hududiy soliq organida qayd etiladi. Shu paytdan boshlab fuqaro tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqli. Uning faoliyatiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi FKning tijorat tashkilotlari bo'lgan yuridik shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi qoidalari qo'llaniladi. Xususiy tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan yakka tartibdagi tadbirkor o'z nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi,

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4725-sonli Farmoni // «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2015-yil, 20-son, 251-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 maydagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi O'RQ-328-sonli Qonuni // «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2012-yil, 18-son, 201-modda.

huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi hamda ularni amalga oshiradi.

Davlat ro'yxatidan o'tmasdan turib xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanganlik uchun qonunlarda tegishli javobgarlik mavjud.

Yakka tadbirkor kreditorlarning u tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan talablarini qanoatlantirishga qodir bo'lmasa, bunday tadbirkor belgilangan tartibda bankrot deb topilishi mumkin. Yakka tadbirkorni bankrot deb topish rasm-rusmlarini amalga oshirish jarayonida uning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan majburiyatlari bo'yicha kreditorlari ham o'z talablarini qo'yishga haqli. Mazkur kreditorlarning ushbu tartibda qo'yilgan talablari yakka tadbirkor bankrot deb topilganidan keyin ham o'z kuchini saqlab qoladi (FKning 26-moddasi).

Xususiy tadbirkorga berilgan guvohnoma muddati tamom bo'lganida, qonunga nomuvofiq faoliyat yuritganda, jumladan, ruxsat olish asosida shug'ullanish lozim bo'lgan faoliyat bilan ruxsatsiz shug'ullanganda, xususiy tadbirkorlik huquqi bekor bo'ladi. Xususiy tadbirkor o'z xohishiga ko'ra guvohnomada ko'rsatilgan muddatdan oldin ham tadbirkorlik faoliyatini to'xtatishga haqli.

Bugungi kunda yakka tadbirkor fuqaro ham mustaqil, yuridik shaxs tuzib, faoliyat yuritishi ham mustahkamlandi. Masalan, xususiy korxonalar, oilaviy korxonalar, dehqon xo'jaligi va boshqalar shular jumlasidandir.

## **5-§. Fuqarolarning turar joyi**

Fuqaroning doimiy turar joyi fuqarolik huquqi uchun muayyan ahamiyatga egadir. Fuqaroning doimiy yoki asosan yashab turgan joyi uning yashash joyi hisoblanadi, deb ko'rsatiladi. O'n to'rt yoshga to'lgan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar) ning yoki vasiylikda bo'lgan fuqarolarning qonuniy vakillari, ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari yashaydigan joy voyaga yetmaganlar yoki vasiylikda bo'lgan fuqarolarning yashash joyi hisoblanadi (FKning 21-moddasi).

Fuqaroning doimiy turar joyi deb, uning davr taqozosi bilan turli uzrli sabablarga ko'ra jamoatchilik tomonidan tan olingan, rasmiy ravishda o'rnashib olgan, uy-joy qilib turgan joyiga aytiladi. Fuqaroning, asosan, ya'ni ko'proq yashab turgan joyi deb, uning doimiy yashash joyida emas, balki boshqa joylarga nisbatan ko'proq yashagan, boshqa joylarda qancha vaqt davomida yashab turgan bo'lishidan qat'iy nazar, u turli sabablarga ko'ra, masalan mehnat vazifasini bajarishi tufayli ma'lum bo'lgan boshqa joyda yashab turgan joyiga aytiladi<sup>1</sup>.

Ba'zi olimlar turar joy shaxsning turar joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida doimiy yashash uchun vakolatli davlat organi tomonidan rasmiylashtirish tartibida foydalanish mumkin bo'lgan qurilishni tushunish kerak, deb hisoblaydilar<sup>2</sup>.

Turar joy tanlash huquqi muomalaga layoqatli fuqaroning o'zi tomonidan belgilanadi. Turar joy tanlash huquqi faqat qonunda nazarda tutilgan hollar va tartibdagina, masalan, ozodlikdan mahrum qilinishi hollarida maxsus ijozat olish yo'li bilan joylashish mumkin bo'lgan hududlarda cheklanishi mumkin.

Odatda, fuqaro yashash uchun qayerda ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, shu joy uning turar joyi hisoblanadi. Fuqaroning turar joyi qonunga muvofiq ko'p hollarda huquqiy ahamiyatga ega. Jumladan, fuqarolik da'volari bilan, qoidaga ko'ra javobgarning turar joyi hududidagi sudga murojaat qilinadi.

Ammo ba'zi da'volar, masalan: aliment undirish, zararni to'latish to'g'risidagi da'volar da'vogarning turar joyidagi sudga bildirilishi mumkin. Majburiyatlarning ko'p qismi qarzdorning turar joyida, pul majburiyatlari esa kreditor turgan joyda ijro etiladi. Meros qoldirgan shaxsning oxirgi doimiy turar joyi bo'yicha meros ochiladi va hokazo.

Turar joy bilan bog'liq bo'lgan huquqiy munosabatlar asosan O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi bilan tartibga solinadi.

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov H.R. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1997. – 116 b.

<sup>2</sup> Ландкоф С.Н., Лисниченко Т.Н., Фельдман А.М. Жилищное и жилищно-строительное законодательство. – Киев.: 1975. – 111 с.

## **6-§. Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki vafot etgan deb e'lon qilish**

Fuqaroning huquq layoqati uning o'limi natijasida batamom tugaydi. Ammo huquqiy munosabatdan kelib chiqadigan noaniqliklarni bartaraf etish uchun shu huquqiy munosabatlarning ishtirokchilaridan biri bo'lgan fuqaro ayrim sabablarga ko'ra doimiy yashash joyidan uzoq muddatga ketib qolganda, uning haqiqiy yashash joyini aniqlash imkoniyati bo'lmasa, bunday hollarda bedarak yo'qolgan deb topilishi mumkin.

Fuqarolik huquqida, umuman huquqning boshqa sohalarida ham bedarak yo'qolgan deb topish instituti katta amaliy ahamiyatga ega. Bu institut bedarak yo'qolgan fuqaroning qarindoshlari va boshqa manfaatdor shaxslarning shaxsiy va mulkiy huquqlari ta'minlanishini kafolatlaydi.

Turmushda shunday voqealar ham bo'ladiki, ba'zan bir fuqaro o'zining doimiy yashash joyiga uzoq muddat kelmay qo'yadi. U o'zining qayerda turganligi to'g'risida birona ma'lumot ham yubormaydi. Uning qayerda yashayotganini yoki qayerga ketganini aniqlashga qaratilgan barcha harakatlar behuda ketadi. Uning tirik yoki o'likligini aniqlash mumkin bo'lmaydi. Bunday hollarda ham huquqiy munosabat qatnashchisi bo'lgan fuqaroning ancha vaqt yo'qolib ketishi uning huquqiy munosabatlardagi taqdiriga ta'sir qilmasligi kerak. Odatda, bunday fuqaroning doimiy yashab turadigan joyida qandaydir mulklari qoladi. Bu shaxs biror-bir majburiyatda qarzdor yoki kreditor bo'lishi mumkin. U, shuningdek, huquq va majburiyatning egasi bo'lgani uchun boshqa kishilarning shaxsi bilan bevosita bog'liq bo'lishi, jumladan, nikohda bo'lishi, ota-onalik huquq va majburiyatiga ega bo'lishi ham mumkin. Fuqaroning uzoq vaqt doimiy turar joyiga qaytib kela olmasdan bedarak yo'qolib ketishi ko'p vaqtga cho'zilib ketmasligi kerak. Chunki davlat fuqarolik huquqi munosabatning bunday beqarorligiga befarq qaray olmaydi. Bedarak yo'qolgan fuqaroning yaqin kishilarining, kreditorlarining, davlatning, va nihoyat o'zining shaxsiy manfaatlari bunday noaniqlik va beqarorliklarning tugatilishini talab etadi.

Basharti, bedarak yo'qolgan fuqaro o'lgan bo'lsa, uning biror-bir huquqiy munosabatda bo'lishi to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas. Binobarin, unga tegishli bo'lgan huquq va burchlar boshqalarga o'tishi kerak. Manfaatdor shaxslar esa, uning vorislariga nisbatan o'zlarining tegishli e'tiroz va da'volarini bildirish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin.

Fuqarolik kodeksi 33-moddasining birinchi qismida bedarak yo'qolgan deb topish to'g'risida umumiy qoida beriladi. Unga asosan, agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topishi mumkin. Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish uning fuqarolik huquqlarini bekor qilmaydi. Aksincha, bedarak yo'qolgan deb topilgan fuqaroning huquqlarini himoya qilish uchun zarur choralar amalga oshirilishi talab qilinadi.

Bedarak yo'qolgan deb topilgan fuqaroning mol-mulkini doimiy suratda boshqarib turish zarur bo'lsa, bu mol-mulk sudning qaroriga muvofiq vasiylik va homiylik organi tomonidan belgilanadigan va ushbu organ bilan tuziladigan ishonchli boshqaruv to'g'risidagi shartnoma (FKning 49-bobi) asosida ish olib boradigan shaxsga topshiriladi. Bu mol-mulkdan bedarak yo'qolgan shaxs qonunga muvofiq boqishi kerak bo'lgan fuqarolarga ta'minot beriladi, uning soliqlar va boshqa majburiyatlar bo'yicha qarzlari to'lanadi (FKning 34-moddasi).

Manfaatdor shaxslarning arizalari bo'yicha vasiylik va homiylik qiluvchi organ bedarak yo'qolgan fuqaroning mulkini qo'riqlash uchun, shuningdek, uning mulkini idora etish uchun, uning qayerda ekanligi to'g'risidagi oxirgi ma'lumot olingan kundan e'tiboran bir yil o'tishini kutmasdanoq mulkka boshqaruvchi tayinlashi mumkin.

Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish boshqa huquqiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish topshiriq shartnomasining bekor bo'lishiga asos bo'ladi. Agar fuqaro jinoyat qilgan yoxud alimentlarni undirish ishi bo'yicha qidiruvdan yashirinib yurgan bo'lsa, bunday hollarda u bedarak yo'qolgan deb topilmaydi.



Bedarak yo'qolgan deb topilgan fuqaro qaytib kelgan yoki uning turar joyi aniqlangan taqdirda, sud uning bedarak yo'qolgan deb topish haqidagi qarorni bekor qiladi. Sudning qarori asosida fuqaroning mol-mulkini boshqarish bekor qilinadi (FKning 35-moddasi).

Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi asosiy qoida FKning 36-moddasida berilgan. Bu qoidada aytilishicha, «agar fuqaroning qayerda turganligi haqida uning yashash joyida uch yil mobaynida ma'lumot bo'lmasa, basharti u o'lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo'lgan deb taxmin qilish uchun asos bo'ladigan vaziyatlarda bedarak yo'qolgan bo'lib, uning qayerdaligi haqida olti oy mobaynida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud uni vafot etgan deb e'lon qilishi mumkin.

Harbiy harakatlar munosabati bilan bedarak yo'qolgan harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqaro harbiy harakatlar tamom bo'lgan kundan e'tiboran kamida ikki yil o'tganidan keyin sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi mumkin».

Fuqaro vafot etgan deb e'lon qilinganda, uning huquqiy munosabatlari tugaydi, mulkiga nisbatan meros ochiladi, shaxsiy majburiyatlari tamom bo'ladi va hokazo.

Basharti, vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro tirik bo'lsa, uning barcha huquqiy munosabatlari amalda davom etaveradi. Vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro qaytib kelgan taqdirda yoki uning qayerda turganligi ma'lum bo'lgan taqdirda, uni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi qaror sud tomonidan bekor qilinadi. Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi qaror bekor qilinganidan keyin u har qanday shaxsdan bu shaxsga bepul o'tib qolgan mavjud mol-mulkini o'ziga qaytarib berishni uch yil (FKning 150-moddasi talabiga ko'ra) mobaynida sud orqali talab qilishga haqli.

Agar vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning mol-mulki uning vorislari tomonidan uchinchi shaxslarga sotilgan bo'lib, bu shaxslar xarid narxini fuqaro qaytib kelgan paytgacha batamom to'lamagan bo'lsalar, bu holda to'lanmagan summani talab qilish huquqi qaytib kelgan fuqaroga o'tadi.

Vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning mol-mulkini haq to'lashni nazarda tutadigan bitimlar asosida olgan shaxslar mol-mulkni vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning tirikligini bila turib, sotib olganliklari isbotlansa, ular fuqaroga bu mol-mulkni qaytarib berishlari shart. Bunday mol-mulkni asli holida qaytarib berishning imkoni bo'lmasa, uning qiymati to'lanadi.

Agar vafot etgan deb e'lon qilingan shaxsning mol-mulki meros huquqi bo'yicha davlatga o'tgan va sotib yuborilgan bo'lsa, fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi qaror bekor qilinganidan keyin unga mol-mulkni sotishdan tushgan pul qaytarib beriladi (FKning 37-moddasi).

## **7-§. Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish**

FKning 38-moddasiga asosan, quyidagi fuqarolik holati hujjatlari davlat tomonidan qayd etilishi kerak:

- Tug'ilish;
- O'lim;
- Nikoh tuzilganligi;
- Nikohdan ajralish.

Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish fuqarolik holati hujjatlarini yozish organlari tomonidan fuqarolik hujjatlarini qayd etish daftariga tegishli yozuvlarni kiritish hamda shu yozuvlar asosida fuqarolarga guvohnomalar berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Fuqaroning shaxsiy hayotdagi hamda uning jamiyatdagi huquqiy holati (fuqarolik holati) uchun, uning fuqarolik huquqi va oila huquqining subyekti sifatida tanilishi uchun ahamiyatli hisoblangan yuqoridagi faktlar davlatning tegishli organlari tomonidan qayd qilinadi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatga olish shahar va tuman markazlarida, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYo) bo'limi tomonidan, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari kotiblari tomonidan olib boriladi.

Fuqaroning tug'ilish faktini ro'yxatga olish mazkur fuqaroga nisbatan fuqarolik huquq layoqatini vujudga kelganligini va

bolaning ma'lum ota-onadan tug'ilganligi belgilash uchun zarur. Fuqaroning faqat ma'lum yoshga to'lgandan so'ng muomala layoqatiga ega bo'lganligi sababli tug'ilish faktini olish mazkur fuqaroga FHDYo bo'limi fuqarolik muomala layoqatining vujudga kelganligini belgilash uchun ham ahamiyatlidir. Bolaning tug'ilishi to'g'risidagi ariza FHDYo organiga bir oylik muddat ichida bolaning ota-onasi yoki ulardan biri tomonidan, alohida hollarda esa, qo'shnilari, qarindoshlari tibbiyot muassasalari ma'muriyati, ichki ishlar yoki vasiylik va homiylik organlari tomonidan berilishi mumkin. Tug'ilish to'g'risidagi ariza bola o'lik tug'ilgan taqdirda ham berilishi shart. O'lik tug'ilgan bola tug'ilishdan keyin 24 soat ichida FHDYo idorasida qayd etilishi kerak.

Nikohni qayd etish muhim davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hujjat hisoblanadi. Oila qonunchiligida belgilanishicha, faqat FHDYo idoralarida qayd etilgan nikohgina er va xotin uchun muayyan huquq hamda majburiyatlarni vujudga keltiradi. Nikoh nikohlanuvchilarning turar-joylari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oila qonunchiligiga rioya qilinib ro'yxatdan o'tkaziladi.

Nikohdan ajralish er-xotinning roziligi bo'yicha yoki sudning nikohni bekor qilish to'g'risidagi hal qiluv qarori asosida qayd etiladi. Er va xotinning ajralishlari FHDYo idoralarida qayd etilgandan keyingina tan olinadi va ular o'rtasida er va xotinlikka oid huquq hamda majburiyatlar bekor bo'ladi.

Fuqaroning vafot etganligi yoki vafot etgan deb e'lon qilinganligini qayd etish ham muhim ahamiyatga ega. Fuqaroning o'lim fakti qayd etilishi huquq layoqatini bekor qiladi. Shu munosabat bilan vafot etganning huquq va majburiyatlari tamom bo'ladi. Uning mulkiga nisbatan meros ochiladi. Fuqaroning vafot etganligi to'g'risidagi ma'lumot o'lim fakti to'g'risidagi tibbiyot guvohnomasi bilan uch kundan kechiktirilmay FHDYo idorasiga bildirilishi va shu muddat ichida o'lim fakti qayd etilishi shart.

O'ldirilgan, shuningdek, o'zini-o'zi o'ldirgan yoki baxtsiz hodisadan o'lgan yoki murda topilgan paytdan boshlab 24 soat ichida o'lim sababi to'g'risida tibbiyot muassasasi tomonidan

berilgan guvohnomaga muvofiq FHDYo organida qayd etiladi. O'lim fakti to'g'risidagi arizalar va marhumning yaqin kishilari yoki turar-joy idorasi tomonidan, zo'rlik bilan o'ldirilishi, o'zini o'zi o'ldirish yoki baxtsizlik hodisasidan o'lish hollaridagi tegishli ma'lumotlar tergov organlari yoxud militsiya tomonidan berilishi lozim.

Farzandlikka olish fakti bu to'g'rida shahar (tuman) hokimligi tomonidan chiqarilgan qarorga binoan ro'yxatdan o'tkaziladi. Farzandlikka olinuvchining nasabi va ota ismi sifatida farzandlikka oluvchining nasabi va ismi ko'rsatilishida yoki farzandlikka oluvchi er va xotin bolaning ota-onalari sifatida yozilishida bolaning tug'ilishi to'g'risida yozilgan ma'lumotlarga tegishlicha o'zgartirishlar kiritiladi. Farzandlikka olishning bekor qilinishi ham shahar (tuman) hokimliklari qarori bilan rasmiylashtiriladi va FHDYo idorasida qayd etiladi.

Fuqarolar familiya va ism hamda ota ismlarini o'zgartirish to'g'risida 16 yoshga to'lganlaridan so'ng FHDYo idoralariga murojaat qilishlari mumkin. Fuqaroning ishi tergovda yoki u sudlangan bo'lsa, shuningdek, davlat hokimiyati idoralari norozilik bildirsa, FHDYo idoralarida nasab va ismlarning o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi va bu sud tomonidan hal etiladi.

Otalikni belgilash nikohda bo'lmagan ota-onadan tug'ilgan bolaga otalikni belgilash ota va onasi (agar otasi voyaga yetmagan bo'lsa, unda uning ota-onasi yoki qonuniy vakili) tomonidan berilgan birgalikdagi ariza asosida FHDYo organida amalga oshiriladi. Otalikni belgilashda ota-onaning shaxsan ishtiroki talab etiladi. 10 yoshga to'lgan bolaga nisbatan otalik uning roziligi bilan belgilanadi.

FHDYo organi otalikni belgilash haqidagi ariza asosida tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuviga tegishli o'zgartirishlar kiritadi.

Agar otalik belgilangan shaxs nikoh tuzgan bo'lsa, u holda FHDYo organi nikoh tuzilganligi va bolalarining tug'ilganligi haqidagi dalolatnoma yozuvlariga tegishli o'zgartirishlar kiritadi, shuningdek, otalikning belgilanganligi haqida ma'lumotnoma beradi.

Fuqarolik holatlari hujjatlari yozuvlarini bekor qilish va tiklash FHDYo idoralari tomonidan manfaatdor shaxslar o'rtasida nizo bo'lsa yoki fuqarolik holati hujjatlaridagi yozuvlarda jiddiy tafovutlar bo'lsa, sud qaroriga asosan amalga oshiriladi. Ushbu faktlarning davlat va jamiyat hayotidagi, fuqarolar hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqib, FHDYo organlari arxivlarida ular tuzilgan kundan boshlab, 75 yil mobaynida saqlanadi. Bu muddat tugagach, ushbu dalolatnoma yozuvlari daftarlari tegishli shahar, viloyat va Respublika FHDYo arxivlariga topshiriladi.

Fuqaroning tug'ilishi, nikohga kirishi, nikohning bekor qilinishi, farzandlikka olinishi, familiya va otasi ismining o'zgartirilishi, fuqaroning o'limi faktlarini qayd etish O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi shahar va tuman hokimliklari fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish bo'limlarida hamda o'zini o'zi boshqarish idoralarida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalariga muvofiq rasmiylashtiriladi.

### **Tayanch iboralar:**

Fuqaro, huquq layoqati, muomala layoqati, fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish, fuqaroni vafot etgan deb topish, vasiylik, homiylik, xususiy tadbirkorning huquqiy maqomi.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Huquq layoqatiga ta'rif bering.
2. Muomala layoqati deganda nimani tushunasiz?
3. Vasiylik kimlarga nisbatan belgilanadi?
4. Kimlar vasiy yoki homiy etib tayinlanishi mumkin emas?
5. Qaysi fuqarolik holati hujjatlari davlat tomonidan qayd etiladi?
6. Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish qanday huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin?
7. Farzandlikka olish qanday amalga oshiriladi?
8. Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish qanday oqibatlarni keltirib chiqaradi?

9. Qaysi fuqarolik holati hujjatlari davlat tomonidan qayd etilishi kerak?

10. Fuqaro vafot etgan deb e'lon qilinganda nimalar vujudga keladi?

11. Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va vafot etgan deb e'lon qilish xususidagi sud amaliyotini quyidagi jadval bo'yicha viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahar kesimida tahlil qiling.

<b>№</b>	<b>Respublika, viloyat, shahar nomlari</b>	<b>2018-yil</b>	<b>2019-yil</b>	<b>2020-yil</b>
1.	Andijon viloyati			
2.	Buxoro viloyati			
3.	Samarqand viloyati			
4.	Surxondaryo viloyati			
5.	Sirdaryo viloyati			
6.	Navoiy viloyati			
7.	Namangan viloyati			
8.	Farg'ona viloyati			
9.	Qashqadaryo viloyati			
10.	Jizzax viloyati			
11.	Xorazm viloyati			
12.	Toshkent viloyati			
13.	Qoraqalpog'iston Respublikasi			
14.	Toshkent shahri			

## VI bob. FUQAROLIK HUQUQINING SUBYEKTI SIFATIDA YURIDIK SHAXSLAR

### 1-§. Yuridik shaxs tushunchasi

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, azaldan mulkiy munosabatlarda jismoniy shaxslar bilan bir qatorda ma'lum darajadagi mulk mablag'iga ega bo'lgan ayrim birlashmalar ham ishtirok etganlar. Bundan XXV asr oldin Rim davlatida xususiy korporatsiyalar mavjud bo'lib, ular diniy maqsaddagi uyushmalar (**sodalitates, sollegia sodalicia**), mohir duradgorlar uyushmasi (**fabrorum, pistorum**)dan iborat edi.

Rim yuristlaridan Gayning guvohlik berishicha, XII jadval qonunlari diniy maqsaddagi uyushmalarga o'zlari uchun qonunga xilof bo'lmagan holda nizom yaratishlari uchun huquq berganlar. Rim respublika davrida ko'plab korporatsiyalar, jumladan: (**collegia apparitorum**), ya'ni, magistrlar xizmatchilari korporatsiyasi, turli o'zaro yordam ko'rsatuvchi birlashmalar, shuningdek, (**coollegia funeraticia**) dafn etish marosimini o'tkazish bilan shug'ullanuvchi korporatsiyalar hamda (**collegia publicanorum**) Rimning siyosiy va xo'jalik hayotida muhim o'rin tutgan, davlat bilan shartnoma tuzib, davlat hisobidan sarmoya undirib, davlat imeniylarida davlat uchun yirik qurilish ishlarini olib boruvchi tadbirkorlar birlashmasi va boshqalar mavjud edi. Ularning ko'pchiligi prinsipiati davrida yuridik shaxs sifatida e'tirof etildi.

Fuqarolik huquqining mustaqil subyektlari sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qatnashish va shu munosabat bilan muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lish layoqati nafaqat fuqarolarga, balki yuridik shaxslarga ham beriladi.

O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarning butun bir turkumi vujudga keltirilgan. Jumladan: «Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi, «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi, «Xususiy korxonalar to'g'risida»gi, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «Vijdon

erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida»gi, «Jamoat fondlari to'g'risida»gi, «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi, «Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida»gi va boshqa qonunlar. Ularning har birida turli xo'jalik yuritish shakliga ega bo'lgan u yoki bu yuridik shaxslarga o'ziga xos ta'riflar, tushunchalar berilgan.

Amaldagi fuqarolik kodeksi esa ularning barchasini umumlashtirib, quyidagicha ta'rif beradi: «O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan ham o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi» (FKning 39-moddasi).

Yuqorida berilgan ta'rifga ko'ra, har qanday tashkilot emas, balki muayyan talablarga javob beradigan tashkilotlarga yuridik shaxs bo'la oladi.

Yuridik shaxslar:

- tashkiliy birlik;
- mulkiy mustaqillik;
- mustaqil mulkiy javobgarlik;
- fuqarolik muomalasida o'z nomidan harakat qilish belgilariga ega bo'lishi kerak.

**Tashkiliy birlik** – bu yuridik shaxsning huquq subyekti sifatida tashkil bo'lganligini, muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishini bildiradi.

Yuridik shaxsning tashkiliy jihatdan tuzilishini ko'rsatadigan Ustavi yoki Nizomi bo'lishi kerak. Ba'zi davlat muassasalari va davlat byudjetida bo'lgan boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda, boshqa tashkilotlar ham alohida Nizomga ega bo'lmay, mazkur turdagi tashkilotlar haqidagi umumiy Nizom asosida ish olib borishlari mumkin.

Yuridik shaxslarning ayrim filiallari ma'lum tizimga ega bo'lgan, muayyan tarzda tashkil etilgan bo'lsa ham, ular butun bir



tashkilot (korxonona muassasa) ishining bir qisminigina bajaruvchi tashkilotlari bo'lgani tufayli yuridik shaxs bo'la olmaydi.

**Mulkiy mustaqillik** – fuqarolik huquqining subyeksi bo'lishi uchun yuridik shaxs hisoblangan har qanday tashkilotning o'ziga xos mulki bo'lishi, har qaysi davlat tashkilotining o'ziga birlashtirilgan mulki bo'lishini taqazo qiladi. Boshqacha aytganda, yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak (FK 39-moddasining ikkinchi qismi).

Yuridik shaxslarning mol-mulki ularning Ustav doirasida aks ettiriladi. Ustav fondi ta'rischilarning qo'shgan pul mablag'lari, ko'chmas mol-mulklari, a'zolik badallaridan, tadbirkorlik faoliyatidan topilgan daromadlaridan, fuqarolarning ixtiyoriy xayriya mablag'laridan, aksiyalaridan tushgan devidendlardan va qonunda man etilmagan o'zga manbalardan tashkil topadi. Bu sohada ayrim cheklovlar ham bor. Jumladan, siyosiy partiyalar davlat organlaridan, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan, xorijiy davlatlar va tashkilotlardan, xalqaro tashkilotlardan, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan, diniy tashkilotlardan, anonim xayriya beruvchilardan mablag'lar va boshqa mol-mulklar olishi taqiqlanadi.

Davlat tashkilotlari davlatga qarashli mulkka nisbatan to'la xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqigagina egadirlar. Jamoa xo'jaliklari, boshqa kooperativ va jamoat tashkilotlari, ularning birlashmalari o'zlariga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mulkni egallaydi. Alohida mulkka ega bo'lmagan yoki mustaqil ravishda boshqara olmaydigan va shu sababli boshqa shaxslar bilan xo'jalik munosabatlarida bo'la olmaydigan tashkilotlar fuqarolik huquqining subyeksi bo'lib hisoblanmaydi.

**Mustaqil mulkiy javobgarlik** – yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli bo'lgan (davlat tashkiloti esa, o'ziga birlashtirib qo'yilgan) mulki bilan javob beradi. Yuridik shaxs hisoblangan davlat tashkilotlarining majburiyatlari yuzasidan davlat javobgar bo'lmaydi, bu tashkilotlar ham davlat tashkilotlari majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydilar. Davlat byudjetida turadigan tashkilotlarning qarzini qoplash,

mablag' berish shartlari va tartibi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

Yuridik shaxsning yuqori organi o'ziga qarashli yuridik shaxs hisoblangan tashkilotlarning qarzlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi. Ammo yuridik shaxsning yuqori organi o'ziga bo'y-sunadigan tashkilotning qarzlari uchun qonunda yoki Nizomda nazarda tutilgan hollarda javobgar bo'lishi mumkin. Quyi tashkilotlar ham o'zlarining yuqori tashkilotlari majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydilar. Yuridik shaxslar o'z majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli butun mol-mulki bilan javob beradi. Davlat korxonasi mol-mulki yetarli bo'lmaganida davlat uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

Yuridik shaxsning bankrotligi uning mulkdori yoki ta'sischi harakatlarini tufayli vujudga kelgan bo'lsa, yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo'lmaganida uning mulkdori (yoki muassisi) zimmasiga subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin.

**Fuqarolik muomalasida o'z nomidan harakat qilish** – yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o'z nomidan huquqiy munosabatlarda qatnashib, turli bitimlar tuza olishi, mulkiy va mulkiy xarakterda bo'lmagan huquqlarga ega bo'la olishi va majburiyatlarni vujudga keltira olishi demakdir. Yuridik shaxs sudda, xo'jalik sudida mustaqil ravishda da'vogar va javobgar bo'la oladi.

Har bir yuridik shaxs o'z firma nomiga ega bo'lishi talab etiladi. Firma nomi yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklini bildiradi. Masalan, «Nargiza» savdo-ishlab chiqarish jamoa korxonasi. Bu yerda «Nargiza» korxonaning nomi, ya'ni, korxonaning mahsulot va xizmatlari «Nargiza» yorlig'i ostida chiqariladi. Savdo ishlab chiqarish korxonasi faoliyatining xarakterini, jamoa korxonasi korxonaning jamoa mulkchiligiga asoslanganligini bildiradi.

Shuningdek, yuridik shaxslar rasmiy nomga, ya'ni davlat nomidan ega bo'lishlari ham mumkin. Yuridik shaxslarga rasmiy nomni berishda O'zbekiston Respublikasi Hukumati ruxsat beradi.

## 2-§. Yuridik shaxslar to'g'risidagi nazariyalar

Yuridik shaxs institutini takomillashtirish juda qiyin va o'ta muhim masalalardan biri bo'lib, uni chuqur ilmiy tadqiqotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yuridik shaxslarni takomillashtirish masalasi tarixdan ma'lumki, yuridik shaxs tushunchasi vujudga kelgan kundan boshlab olib borilgan bo'lib, XIX asrda bir qator fundamental nazariyalarni yaratishga olib keldi va bu nazariyalar hozirgi kunda ham sivilistika fanida rivojlanib bormoqda.

Yuridik shaxslar zamirida qanday ma'no yotganligini aniqlash uchun yuridik shaxslar to'g'risidagi turli nazariyalarni ikki guruhga ajratish mumkin.

Ushbu nazariyalarning birinchi guruhiga mashhur tarixiy maktabning asoschisi **Fridrix Karl fon Savinyaning** ishini keltirish mumkin. Uning konsepsiyasi yuridik shaxs nazariyalarining birinchi fundamental nazariyalaridan biri bo'lib, u «**Uydirma nazariyasi**» nomini oldi. Savinyaning qarashlaricha, huquq subyekti xususiyatlariga haqiqatan ham faqatgina inson egalik qiladi. Ammo qonun chiqaruvchi amaliy maqsadda tan oladiki, yuridik shaxslar asosida inson shaxsiyati yotadi, deya insonni yuridik shaxsning timsoliga aylantiradi. Shunday yo'l bilan qonun chiqaruvchi yuridik uydirmani ishga soladi, ya'ni o'ylab chiqarilgan huquq subyektini yaratadi<sup>1</sup>.

**Aloiz fon Brins** tomonidan taklif etilgan «**Maqsadga yo'naltirilganlik**» nazariyasining uydirma nazariyasi bilan umumiy tomonlari shundaki, u ham yuridik shaxs xususiyatlariga ega bo'lgan real subyektning mavjudligini inkor etadi. Yuridik shaxs institutining asosiy maqsadi faqatgina mulkni boshqarish bo'lar ekan, yuridik shaxs maqsadga yo'naltirilganlikdan boshqa narsa emas<sup>2</sup>.

Yuridik shaxs nazariyasining ikkinchi guruhi yuridik shaxsni haqiqatda mavjudligini asoslash tezisidan kelib chiqadi. Asosiy

---

<sup>1</sup> Сергеев А.П., Толстой Ю.К. Гражданское право. – М., Проспект. 2002. – С. 147.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

tezis **Karl Georg fon Bezeler** tomonidan talqin etilgan bo'lib, u «**Mavjudlik nazariyasi**» deb ataladi va uydirma nazariyasiga umuman qarama-qarshi nazariya hisoblanadi. U huquq subyekti sifatida nafaqat alohida shaxslar, balki ijtimoiy organizmlar ham ishtirok etishi mumkinligini e'tirof etdi. Ushbu nazariyaning boshqacha nomi «**Ijtimoiy organizmlar nazariyasi**» deb ataladi<sup>1</sup>.

Mavjudlik nazariyasi o'z davomini fransuz sivilisti **R.Salleyl** ishlarida mujassamini topdi. U **Bezeler** va **Girkening** qarashlariga asosan yuridik shaxslarning ba'zi biologizatsiyasidan ozod qilishga erishdi va natijada **R. Salleylning «Realistik nazariyasi»** to'liq va chuqurroq ishlangan realistik yo'nalishdagi konsepsiyaga aylandi. Jamiyat uning a'zolari kabi real hisoblangan insonlar jamoasi, birlashmalarining o'zaro munosabati evaziga mavjud bo'ladi. Bunday birlashmalarining maqsadi uning a'zolari xohishlaridan kelib chiqadi. Qonun soxta yuridik birlashmalarni tashkil etmaydi, balki faqatgina shaxslar birlashmasini huquqning mustaqil subyektlari sifatida tan oladi<sup>2</sup>.

**Rudolf fon Ieringning «Qiziqish nazariyasi»** ham yuridik shaxs nazariyalari ichida alohida guruhni tashkil etadi. Ieringning taxminiga ko'ra, yuridik shaxs haqiqiy – tabiiy huquq subyekti sifatida mavjud emas. Bu yuridik uydirmadan boshqa narsa emas. Huquq bu qonuniy himoya bo'lsa, qonun chiqaruvchi insonlar guruhiga huquqiy himoya berayapti ularning jamiyatda bir butun sifatida ishtirok etishiga ruxsat berayapti. Lekin bu Ieringning fikricha, huquqning yangi subyektining paydo bo'lganini anglatmaydi<sup>3</sup>.

Sobiq sovet yuridik ilmi yuridik shaxslarni o'rganishga jiddiy e'tibor berdi. 40–50-yillarda ushbu institutga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar paydo bo'ldi. Bu davrda sivilist olimlar o'z e'tiborlarini ko'proq davlatga tegishli yuridik shaxslarni o'rganishga qaratdilar.

---

<sup>1</sup> Сергеев А.П., Толстой Ю.К. Гражданское право. – М., Проспект. 2002. – 147–148 с.

<sup>2</sup> Сергеев А.П., Толстой Ю.К. Гражданское право. – М., Проспект. 2002. – С. 148.

<sup>3</sup> Сергеев А.П., Толстой Ю.К. Гражданское право. – М., Проспект. 2002. – С. 148–149 с.

Bu davrga kelib, asosan, uchta davlat yuridik shaxslarini izohlovchi nazariyalar yaratildi.

Akademik A. Venediktov tomonidan «**Kollektiv nazariyasi**» taklif etildi. Ushbu nazariyaga ko'ra davlat yuridik shaxslarining huquq subyekti sifatida ishchi va xizmatchilar korxonasi kollektivi va boshqa xalq kollektivlari e'tirof etilishi mumkin.

«Davlat nazariyasi» S.I. Asknazi tomonidan ishlab chiqildi. Ushbu nazariyaga asosan, har bir davlat korxonasi ortida uning mol-mulki egasi davlat turadi. Unga asoslangan holda yuridik shaxsning insoniy asosini ushbu korxonaning mehnat jamoasiga qo'yish mumkin emas. Davlat yuridik shaxsi bu xo'jalik munosabatlarining ma'lum uchastkasida harakat qiluvchi davlatning o'zidir.

«Direktor nazariyasi» Yu.K. Tolstoy tomonidan taklif etilgan va uning ishlarida to'la o'rganilgan. Ushbu nazariyaga asosan yuridik shaxsning asosiy maqsadi fuqarolik huquqiy munosabatlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishdir. Faqat direktorga fuqarolik huquqiy munosabatlarida korxonasi nomidan ishtirok etish vakolati berilgan. Shuning uchun aynan u davlat yuridik shaxsining yuridik tashuvchisi hisoblanadi.

Bundan tashqari, D.M. Genkin va B.B. Cherepaxin tomonidan taklif etilgan yuridik shaxslarning «**Sotsial reallik nazariyasi**», O.A. Krasavchikov taklif etgan «**Sotsial aloqalar nazariyasi**», A.A. Pushkin va B.I. Puginskiylar tomonidan taklif etilgan «**Tashkilot nazariyasi**» kabi nazariyalar o'sha davr uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'ldi<sup>1</sup>.

Bir vaqtning o'zida yuridik shaxslar to'g'risida juda ko'plab ilmiy nazariyalarning mavjud bo'lishi yuridik shaxs institutini juda murakkab huquqiy tabiatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyot rivojlanishining turli bosqichlarida birinchi o'ringa yuridik shaxslar to'g'risidagi nazariyalarning xususiyatlari ilgari surildi. Bu esa, o'z navbatida yuridik shaxs instituti rivojlani-shining evolyutsiyasiga turtki bo'ldi.

---

<sup>1</sup> Сергеев А.П., Толстой Ю.К. Гражданское право. – М., Проспект. 2002. – С. 151.

### **3-§. Yuridik shaxsning huquq layoqati va muomala layoqati**

Yuridik shaxs o'z faoliyatida o'z ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan maqsadlarga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi. Tashkilotlar bilan fuqarolar o'rtasidagi huquq layoqatlarining hajmida farq bo'lishi mutlaqo tabiiydir. Tashkilotlar fuqarolarga nisbatan belgilangan birmuncha huquq va majburiyatlarga ega bo'la olmaydilar, faqat o'z ustav yoki nizomlarida ko'rsatilgan faoliyat bilangina shug'ullana oladilar.

Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning ustavi, nizomi yoki qonunchilik bilan belgilanadi (FK 41-moddasining uchinchi qismi).

Yuridikshaxshisoblangantashkilotyoki korxonatnashadigan munosabatlarning doirasi uning tashkil qilinish maqsadlari bilan hamda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarning xarakteri bilan belgilanadi. Yuridik shaxs o'zi qatnashadigan munosabatlarga qarab ma'lum huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Shunday qilib, yuridik shaxsning huquq layoqati, unga maxsus yuklangan vazifalar bilan belgilanadi (maxsus huquq layoqati prinsipi). Yuridik shaxs qonunchilikda belgilab qo'yilgan ayrim faoliyat turlari bilan faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosidagina shug'ullanishi mumkin. Masalan, neft, neft mahsulotlari va gaz qazib chiqarish, ularni qayta ishlash va sotish faoliyati.

Fuqarolik huquqida fuqarolarga nisbatan huquq layoqatining tenglik prinsipi o'rnatilgan, fuqarolik huquq layoqatining mazmuni hamma fuqarolar uchun qonun bilan teng hajmda belgilangan bo'lsa, yuridik shaxslarning huquq layoqati undan farqlanib, ularning har qaysi turi uchun har xil bo'ladi. U barcha yuridik shaxslar uchun birorta umumiy hajmda oldin emas, balki konkret yuridik shaxsning paydo bo'lishida, uning ish maqsadlariga qarab, qonun, ustav yoki nizomlarida belgilanadi.

Yuridik shaxslarning muomala layoqati ham fuqarolik muomala layoqatidan farq qiladi. Agar fuqarolarda huquq layoqatidan farq qilib, muomala layoqati muayyan yoshga yetgach vujudga kelsa, muomala layoqati yuridik shaxslarda

huquq layoqati bilan bir vaqtda tashkil topadi. Shu bilan, birga fuqarolik muomala layoqatidan farq qilib yuridik shaxslarning muomala layoqatini cheklash va uni muomalaga layoqatsiz deb topish mumkin emas.

Yuridik shaxs o'z ustavi yoki nizomi asosida harakat qiladi. Yuridik shaxsning huquq layoqati, uning ustavi yoki nizomi tasdiqlangan paytdan boshlab yoxud tegishli vakolatli idora ushbu yuridik shaxsni tashkil etish haqidagi qaror chiqargandan keyin vujudga keladi. Yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi (FK 44-moddasining to'rtinchi qismi).

Umumiy qoida bo'yicha, yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari qonun talablari darajasida bo'lsa, uni uch ish kunida davlat ro'yxatidan o'tkazish lozim. Ayrim yuridik shaxslarni tashkil qilish va davlat ro'yxatidan o'tkazish qonun bilan taqiq qilinadi.

Yuridik shaxsning ustavi yoki u haqidagi nizom shunday hujjatki, bunda uning faoliyati uchun yuridik ahamiyatga ega bo'lgan qoidalar mustahkamlanadi. Ustavda quyidagi:

- Yuridik shaxsning nomi, joylashgan joyi, pochta manzili;
- Yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli;
- Maqsadi va faoliyat sohalari;
- Ustav fondining miqdori, vaqti, shakllantirish tartibi;
- Ustav fondini ko'paytirish va kamaytirish;
- Foydani taqsimlash va zararlarni qoplash;
- Faoliyat ustidan nazorat qilish;
- Mehnat munosabatlari;
- Hujjatlarni saqlash va axborot taqdim etish tartibi;
- Yuridik shaxsni qayta tashkil etish va tugatish tartibi;
- Qonunda nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Ba'zi hollarda, yuridik shaxsni tashkil etishda, mazkur turdagi yuridik shaxslarning tashkiliy tuzilishi va faoliyatiga doir barcha umumiy qoidalarni nazarda tutgan namunaviy ustavlarning bo'lishi yuridik shaxs ustavini tuzish vazifasini yengillashtiradi. Bunday namunaviy ustavlarga fermer xo'jaligining namunaviy ustavini qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi)ning namunaviy ustavini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Yuridik shaxsning organlari ham bo'ladi. Yuridik shaxs qonun, ustav yoki nizom bo'yicha belgilangan vakolatlar doirasida harakat qiluvchi o'z organlari orqali fuqarolik huquqlari va burchlariga ega bo'ladi.

Yuridik shaxslarning muomala layoqati, ya'ni o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlari va burchlarini olish layoqati, yuqorida ko'rsatilganidek, ularning organlari orqali amalga oshiriladi. Yuridik shaxslarning organlari qonun, ustav yoki nizomga muvofiq ravishda yuridik shaxsning erk-irodasini ifodalaydi va yuridik shaxs nomidan faoliyat olib boradi.

Yuridik shaxslarning organlari yakka boshchilikka asoslanib, direktor, rais, boshqaruvchi yoki kollegial boshqaruv, vakillar majlisi, umumiy majlis (yoki yig'ilish) singari tartibida boshqaradigan organ bo'lishi mumkin.

Davlat tashkilotlari hisoblangan yuridik shaxslarning organlari, qoida bo'yicha, yakka boshchilik asosida belgilanadi. Shu bilan birga yakka boshchilik asosida harakat qiluvchi organlar ishlab chiqarishga oid muhim masalalarni hal qilishda jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalari fikri bilan ham hisoblashadilar.

Kooperativ va jamoat tashkilotlari hisoblangan yuridik shaxslarning organlari ikki turga: yakka boshchilikka asoslangan (masalan, boshqaruv raisi) yoki kollegial tartibda boshqarishga asoslangan (masalan, a'zolarining umumiy majlisi, boshqaruvi) bo'lishi mumkin.

#### **4-§. Yuridik shaxslarning vujudga kelish va bekor bo'lish tartibi**

Fuqarolik huquqi fani yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida davlat organlarining ishtirokining xarakteridan qat'iy nazar an'anaviy ravishda yuridik shaxslarni quyidagi usullarda vujudga kelishi mumkinligini ko'rsatadi:

1. **Buyruq orqali.** Bunday usul bilan davlat tashkilotlari hisoblangan yuridik shaxslar tashkil topadi.

2. **Murojaat qilish usuli.** Bunda muassislar tomonidan tuziladigan yuridik shaxslarning vujudga kelishi imkoniyati qonun tomonidan oldindan belgilab qo'yilmagan bo'ladi.



3. **Ruxsat olish usuli.** Bunday usulda tashkil topadigan yuridik shaxslarning vujudga kelish imkoniyatlari qonunlarda oldindan belgilab qo'yiladi. Binobarin, ularning tashkil bo'lish-bo'lmasligi, maqsadga muvofiqligi tekshirilmaydi, balki ta'sis hujjatlarining qonunga muvofiqligi tekshiriladi xolos. Yuridik shaxs ta'sis shartnomasi ishtirokchilar tomonidan tuziladi, ustavi (nizomi) esa tasdiqlanadi.

Ta'sis hujjatlarida yuridik shaxslarning tarkibi va vakolatlari hamda boshqa zaruriy ma'lumotlar bo'lishi kerak.

**Ta'sis shartnomasida:**

- Yuridik shaxsning nomi, joylashgan joyi, pochta manzili;
- Yuridik shaxslar va fuqarolarning yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida ma'lumotlar;
- Maqsadi va faoliyat sohalari;
- Yuridik shaxsning huquqiy maqomi;
- Ta'sischilarning huquq va majburiyatlari;
- Yuridik shaxsning ustav fondini shakllantirish tartibi;
- Ustav fondini ko'paytirish va kamaytirish;
- Foydani taqsimlash va zararlarni qoplash tartibi;
- Yuridik shaxsni boshqaruv organlari;
- Yuridik shaxsning hujjatlarini saqlash;
- Yuridik shaxsni qayta tashkil etish va tugatish tartibi;
- Qonunda nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlar belgilanadi.

Yuridik shaxs murojaat qilish va ruxsat olish usullari orqali tashkil topganda, albatta, uni tashkil qiluvchilar tashabbuskor guruh bo'ladi. Bu guruh fuqarolar (jismoniy shaxslar)dan ham, yuridik shaxslardan ham iborat bo'lishi mumkin. Ular muassislar yoki ta'sischilar deb ataladi. Ta'sischilar orasida davlat ham uning organlari bo'lishi mumkin. Muassislar ko'p hollarda yuridik shaxsning mol-mulkini vujudga keltirishga o'z ulushini qo'shadi. Bu ulushlar asosida ko'p hollarda ustav fondi tashkil topadi.

Fuqarolik qonunchiligi «ta'sischi» va «muassis» atamalarining tushunchasi hamda ular o'rtasidagi farqli jihatlarni belgilamaydi. Ko'pchilik hollarda (ayniqsa, keyingi paytda «ta'sischi» atamasi huquq normalarida deyarli qo'llanilmayapti. Yuridik shaxsni tashkil etayotgan shaxs (yoki shaxslar) huquq normalarida

muassis (yoki muassislar) atamasi bilan nomlanmoqda. Bu holat esa o'z o'zidan kundalik hayotda ishlatilayotgan «ta'sischi» va «muassis» atamalarining bir xildagi ma'noga egaligini ifodalaydi.

Yuridik shaxs o'z faoliyatida ko'zlangan maqsad bo'yicha tijoratchi va tijoratchi bo'lmagan turlarga bo'linadi (FKning 40-moddasi). Yuridik shaxslarning tijoratchi turlari muassislarning foyda olish maqsadini ko'zlab tuziladi. Notijorat turlarida muassislar foyda olish maqsadini ko'zlamaydilar.

Qonunchilikka muvofiq, tijoratchi yuridik shaxslar ham notijorat yuridik shaxslar ham tadbirkorlik (foyda olishga qaratilgan faoliyat) faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin, lekin bunda tijorat yuridik shaxslardan farq qilib notijorat yuridik shaxslar o'z tadbirkorlik faoliyatlaridan olgan foydani faqat a'zolarining ehtiyojini qondirish yoki o'zga mushtarak maqsadni amalga oshirish uchun ishlatadilar. Olingan foydani boshqa maqsadlarda ishlatilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bu esa notijorat tashkiloti tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, muayyan foyda ko'rishini mumkinligini belgilaydi. Faqatgina notijorat yuridik shaxslarning asosiy maqsadi (yordamchi yoki boshqa maqsadlar bundan mustasno) foyda olish bo'lmaydi, xolos.

Yuridik shaxs bekor bo'lganida, ularning tijorat turlarida yuridik shaxs hamma kreditorlar bilan hisob-kitob qilgandan keyin mol-mulki muassislar o'rtasida taqsimlab olinadi. Notijorat xarakterdagi yuridik shaxslarda esa qolgan mol-mulkka nisbatan muassislar haq-huquqqa ega bo'lmaydilar. Yuridik shaxslarning davlat ro'yxatidan o'tish ma'lumotlari, shuningdek, o'ziga xos nomi davlat reestriga kiritiladi.

Yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishni tashkil etishning maqsadga muvofiq emasligi haqidagi asos bilan uni ro'yxatdan o'tkazishni rad etish faqat yuridik shaxslarni murojaat etish usuli bilan tashkil qilish tartibida qo'llaniladi. Davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etilganda sudga shikoyat bilan murojaat qilish mumkin bo'ladi. Yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tgan paytidan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Yuridik shaxsni qayta tuzish bu haqdagi tegishli qaror bilan amalga oshiriladi. Qarorda

muassislarni shartnomaga qo'shilish va shartnomadan chiqish tartibi kabilar ko'rsatiladi. Odatda, tijoratchi yuridik shaxslarning ustavlari qonunda belgilangan tartibda tuman hokimliklarida davlat ro'yxatiga olinadilar. Jamoat birlashmalari maqomiga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, yirik qo'shma korxonalar, davlat tomonidan tashkil etilgan yuridik shaxslar nizomlari maxsus vakolatni davlat organlari tomonidan (Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi) tasdiqlanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilgan tub islohotlarning mazmun-mohiyatida Respublika iqtisodiyotini yuksaltirish va xalq turmush farovonligi darajasini oshirish yotadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishi va istiqbolda yuksalishida yuridik shaxslar alohida o'rin tutadi. Aynan yuridik shaxslar jamiyat a'zolarining yirik sarmoyalarini birlashtirish, ko'p miqdordagi moddiy ne'matlar almashinuvi va bu orqali katta daromad olish evaziga mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida asosiy subyekt hisoblanadi. Faqatgina yuridik shaxslar tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlar, salohiyat va erkinliklarga ega bo'ladi.

Shu munosabat bilan yuridik shaxslarning tashkil etilishi va bekor bo'lishi bilan bog'liq munosabatlar bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga ega. Yuridik shaxslarning tashkil topishi yangi huquq subyektini vujudga keltirib, iqtisodiy va huquqiy munosabatlarda yangi subyektiv huquq va majburiyatlarning paydo bo'lishi bilan birga, iqtisodiy rivojlanishga o'ziga xos hissa qo'shsa, yuridik shaxslarning tugatilishi huquq subyektining barham topib, mavjud huquqiy aloqalar, huquq va majburiyatlarning keyingi taqdirini belgilash va kreditorlarning huquqlari kafolatlarini ta'minlash evaziga iqtisodiy munosabatlardagi subyekt faoliyatini yakunlashga olib keladi.

Yuridik shaxslarning bekor bo'lishi har doim o'ziga xos hayotiy dolzarblikni vujudga keltiradi. Chunki bir huquq subyektining barham topishi va uning o'rniga yangi huquq subyektining vujudga kelishi yoki mol-mulkning keyingi taqdirini hal qilish masalalari har bir davlat uchun hamma vaqt muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Zero, ushbu munosabatlarning mamlakatda qanday

tartibga solinganligiga qarab, davlatning iqtisodiy rivojlanishini belgilab olish mumkin.

Hozirgi kunda yuridik shaxslarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish jarayoni amaldagi fuqarolik kodeksi va yuridik shaxslar to'g'risidagi bir qator qonunlar asosida amalga oshirilmoqda.

Qayta tashkil etish yo'li bilan turli shakllarda, jumladan, FKning 49-moddasida ta'kidlanishicha, yuridik shaxsni qayta tashkil etish: **qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish** shakllarida amalga oshirilishi mumkin.

Yuridik shaxslarning qayta tashkil qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi qonunlari yoki kooperativ va jamoat tashkilotlari ustavlari bilan belgilanadi.

Yuridik shaxslar qayta tashkil etilganida universal huquqiy vorislik vujudga keladi.

Yuridik shaxsni tugatish uning huquq va burchlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga o'tmasdan bekor qilinishiga olib keladi.

Yangi yuridik shaxsning unga o'z faoliyatini tugatgan ikki yoki bir nechta yuridik shaxsning barcha huquqlari va majburiyatlarini o'tkazish yo'li bilan vujudga kelishi yuridik shaxslarni **qo'shib yuborish** deb e'tirof etiladi.

Qo'shib yuborishda ishtirok etayotgan yuridik shaxs qo'shib yuborish haqida shartnoma tuzadi, unda qo'shib yuborish tartibi va shartlari, shuningdek, har bir yuridik shaxsning aksiyalarini (ulushlarini) yangi yuridik shaxsning aksiyalariga va (yoki) ulushlariga ayirboshlash tartibi belgilab qo'yiladi.

Yuridik shaxslar qo'shib yuborilgan taqdirda ularning har biriga tegishli barcha huquq va majburiyatlar topshirish dalolatnomasiga muvofiq yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o'tadi.

Bir yoki bir nechta yuridik shaxs faoliyatini tugatib, ularning huquq va majburiyatlarini boshqa yuridik shaxsga o'tkazish yuridik shaxsni **qo'shib olish** deb e'tirof etiladi.

Qo'shib olinayotgan yuridik shaxs va qo'shib olayotgan yuridik shaxs qo'shib olish to'g'risida shartnoma tuzadi, unda qo'shib olish tartibi va shartlari, shuningdek, qo'shib olinayotgan yuridik shaxsning aksiyalarini (ulushlarini) qo'shib olayotgan yuridik shaxsning aksiyalari va (yoki) ulushiga ayirboshlash tartibi belgilab qo'yiladi.

Bir yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qo'shib olinayotganda qo'shib olinayotgan yuridik shaxsning barcha huquq va majburiyatlari topshirish dalolatnomasiga muvofiq qo'shib olayotgan yuridik shaxsga o'tadi.

Yuridik shaxs faoliyatini uning huquq va majburiyatlarini tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga o'tkazgan holda tugatish – yuridik shaxsni **bo'lish** deb e'tirof etiladi. Yuridik shaxs bo'linganda uning barcha huquq va majburiyatlari taqsimlash balansiga muvofiq tashkil etilayotgan ikki yoki bir nechta yuridik shaxsga o'tadi.

Qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning faoliyatini tugatmagan holda, uning huquq va majburiyatlarining bir qismini o'tkazgan holda bir yoki bir nechta yuridik shaxsni tashkil etish – yuridik shaxsni **ajratib chiqarish** deb e'tirof etiladi.

Yuridik shaxs tarkibidan bir yoki bir nechta yuridik shaxs ajralib chiqqanda ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilgan yuridik shaxsni huquq va majburiyatlarining bir qismi taqsimlash balansiga muvofiq ularning har biriga o'tadi.

Yuridik shaxs qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilgan holda yuridik shaxsning boshqa tashkiliy-huquqiy shakli etib **o'zgartirilishga** haqli.

Yuridik shaxs o'zgartirilganida uning barcha huquq va majburiyatlari saqlanib qoladi.

Yuridik shaxsning tugatilishi huquq va majburiyatlarni huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tkazmagan holda yuridik shaxs faoliyatini tugatishga sabab bo'ladi.

## **Fuqarolik kodeksining 53-moddasida yuridik shaxslarni tugatish asoslari quyidagicha belgilangan:**

Yuridik shaxsni tugatish uning huquq va burchlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga o'tmasdan bekor qilinishiga olib keladi<sup>1</sup>.

Yuridik shaxs quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

uning muassislari (ishtirokchilari)ning yoki ta'sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq, shu jumladan, yuridik shaxsning amal qilish muddati tugashi, uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadga erishilganligi munosabati bilan yoki yuridik shaxsni tashkil qilish chog'ida qonunchilik buzilishiga yo'l qo'yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf etib bo'lmasa, sud yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazishni haqiqiy emas deb topganida;

faoliyat litsenziyasiz, faoliyat (harakatlar) ruxsatnomasiz yoxud vakolatli organi xabardor qilmasdan amalga oshirilgan yoki qonunda taqiqlangan faoliyat amalga oshirilgan taqdirda, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek, ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa hollarda sudning qaroriga ko'ra;

moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilmaganligi sababli belgilangan tartibda harakatsiz rejimga o'tkazilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida faoliyat tiklanmagan taqdirda, ro'yxatdan o'tkazuvchi organing qaroriga ko'ra, bundan nodavlat notijorat tashkilotlari mustasno.

Sudning yuridik shaxsni tugatish to'g'risidagi qarorida uning muassislari (ishtirokchilari) yoxud yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari bilan uni tugatishga vakil qilingan organ zimmasiga yuridik shaxsni tugatishni amalga oshirish vazifasi yuklatilishi mumkin.

---

<sup>1</sup> Qarang: FKning 54 – 56-moddalari, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning 49-moddasi, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 98-moddasi, «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 56-moddasi, «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi Qonunning 55-moddasi, «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi Qonunning 27-moddasi ikkinchi – uchinchi qismlari, 31-moddasi ikkinchi – to'rtinchi qismlari.

## 5-§. Yuridik shaxslarning turlari

Yuridik shaxslarning turlari jamiyatda mavjud bo'lgan mulk shakllariga bevosita bog'liqdir. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida mulk xususiy mulk va ommaviy mulk shakllarida bo'lib, yuridik shaxslar ham, o'z navbatida, davlatga tegishli va xususiy (nodavlat) yuridik shaxslarga bo'linadi.

FKning 40-moddasida aytilganidek, foyda olishni o'z faoliyatining maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo'lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

Tijoratchi bo'lgan yuridik shaxslar jumlasiga xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va xo'jalik jamiyatlari, ishlab chiqarish kooperativlari hamda unitar korxonalar kiradi.

Tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxslar jumlasiga jamoat birlashmalari, jamoat fondlari va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasalar kiradi.

Tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar o'z ustavida belgilangan maqsadlarga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyatlari bilan ham shug'ullana oladi. Nodavlat notijorat tashkilotlarning davlat va jamiyat hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqib, 1999-yil 14-aprelda O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi va amalga kiritildi<sup>1</sup>.

FKning 77-moddasiga ko'ra, yuridik shaxslar o'zlarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, mushtarak manfaatlarini ifoda etish hamda himoya etish maqsadida uyushmalar (ittifoq) shaklida birlashmalar tuzishlari mumkin. Uyushma yuridik shaxs hisoblanib, uning a'zolari o'z mustaqilliklarini va yuridik shaxs huquqlarini saqlab qoladilar. Uyushma o'z a'zolarining majburiyatlari bo'yicha uyushmaning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda va tartibda subsidiar javobgar bo'ladi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ham yuridik shaxs sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning qatnashchilaridir (FKning 78-moddasi).

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 1999-yil, 5-son, 115-modda.

Umuman, yuridik shaxslar o'z faoliyatlarida fuqarolik kodeksi normalariga, soha qonunlariga, shuningdek, ustavlariga va boshqa ta'sis hujjatlariga asoslangan holda ish olib boradilar.

## **6-§. Yuridik shaxslarning filiallari va vakolatxonalari**

Yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallari ularning alohida tarkibiy bo'linmasi bo'lib, ularning faoliyat sohasini va iqtisodiy manfaatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Yuridik shaxslar o'z manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilish uchun sharoit yaratish maqsadida o'zi joylashgan yerdan tashqarida o'ziga qarashli bo'lgan vakolatxona va filiallarni ochadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar o'z vazifalarini amalga oshirish va aholiga yaqindan xizmat ko'rsatish maqsadlarida o'z filiallari (bo'limlari, idoralari, agentliklari) ni tashkil etishlari mumkin<sup>1</sup>.

Filial yuridik shaxsning u turgan yerdan tashqarida joylashgan hamda uning barcha vazifalarini yoki vazifalarining bir qismini shu jumladan vakolatxona vazifalarini bajaradigan alohida bo'linmasidir (FK 47-moddasining ikkinchi qismi).

Agar qonunchilikda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, filial yuridik shaxsning tarkibiy qismi bo'lib, mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydi va muayyan bir joyda yuridik shaxsning vazifalarini boshqarishga xizmat ko'rsatish maqsadida tuziladi.

Filiallar o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida ba'zi yuridik harakatlarni qilishlari mumkin. Ammo bunday harakatlar natijasida olingan majburiyatlar yuzasidan yuridik shaxs mulkiy javobgar bo'ladi.

Vakolatxona yuridik shaxsning u turgan yerdan tashqarida joylashgan, yuridik shaxs manfaatlarini ifodalaydigan va ularni himoya qiladigan alohida bo'linmasidir. Qonunda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, vakolatxona va filiallar yuridik shaxs hisoblanmaydi. Ular o'zlarini tashkil etgan yuridik shaxs tomonidan mol-mulk bilan ta'minlanadilar hamda u tasdiqlagan nizomlar asosida ish olib boradilar. Vakolatxona va filiallarning

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI, 2006. – B. 133.



rahbarlari yuridik shaxs tomonidan tayinlanadi hamda uning ishonchnomasi asosida ish olib boradi (FKning 47-moddasi).

Filiallar va vakolatxonalar yuridik shaxs tomonidan ochiladi, uning alohida qismlaridan bo'lib hisoblanadi, yuridik shaxs tomonidan berilgan vakolatlarni uning nomidan amalga oshiradi, ularning majburiyatlari bo'yicha yuridik shaxs javobgar bo'ladi<sup>1</sup>.

Vakolatxona va filiallar ularni tashkil etgan yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Vakolatxonalar fuqarolik muomalasida ular tashkil etuvchi yuridik shaxs nomidan ish ko'radi, ya'ni uning manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi. Xususan, vakolatxonalar alohida shartnomalar tuzishi, ularning ijrosini nazorat etishi, o'z tashkilotiga oid tijorat va ijtimoiy xususiyatga ega reklama bilan shug'ullanishi mumkin.

Filiallar faoliyatining predmeti va sohasi ancha kengroq, ular yuridik shaxs manfaatlarini ifodalash bilan birga, barcha vazifalarini yoki vazifalarining bir qismini, shu jumladan, vakolatxona vazifalarini bajaradi. Yuridik shaxs shug'ullanayotgan ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini olib borish huquqi faqat filialga beriladi.

### **7-§. Yuridik shaxslarning tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlariga bo'lgan huquq**

O'zbekiston Respublikasida tovarlar ishlab chiqaradigan, xizmatlar ko'rsatadigan va xo'jalik-tijorat faoliyati bilan shug'ullanadigan hamda fuqarolik muomalasida qatnashadigan har bir yuridik shaxs o'ziga xos tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisiga ega bo'ladi. Bu belgilar bir yuridik shaxsning tovarlari va xizmatlarini boshqa yuridik shaxslarning turdosh tovarlari va xizmatlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilardir.

Tovar belgilari tarixi juda uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, ming yillar oldin ishlab chiqarilgan

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov H.R. Fuqarolik huquqi muammolari. – T., TDYuI. 2010, – B. 184.

ashyolar, tovarlar yoki hayvonlarga turli maxsus belgilar qo'yilgan bo'lib, ular ushbu ashyolarning kimga tegishliligini yoki kim ishlab chiqarganini ko'rsatib turgan. Bunday belgilar qadimgi Xitoy, Gretsiya, Misr va Rimda mavjud bo'lgan<sup>1</sup>.

Tovar belgisi sifatida tasvirlar, so'zlar, muayyan shakl tarzidagi belgilar va boshqa belgilar yoki ularning istalgan bir rangdagi yoki turli rangdagi jamlama ifodasi tovar belgilari sifatida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi talabnoma yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan shaxsan yoki patent idorasida ro'yxatga olingan patent vakili orqali berilishi mumkin.

Jamoat manfaatlariga, insoniylik va axloq qoidalariga zid bo'lgan belgilar tovar belgisi yoki tovar belgisining qismi sifatida ro'yxatdan o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tovar belgisining egasi ushbu belgidan foydalanishda va uni tasarruf etishda, shu jumladan, undan o'zga shaxslar foydalanishiga ruxsat berish yoki taqiqlab qo'yishda mutlaq huquqqa egadir.

Tovar belgisidan qonunga zid ravishda foydalangan yuridik va jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari tovar belgilarini boshqa davlatlarda ro'yxatdan o'tkazish yoki xalqaro miqyosda ro'yxatdan o'tkazish huquqiga ega.

Chet el yuridik shaxslari xalqaro shartnomalarga yoki o'zaro hamkorlik asosida tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunida nazarda tutilgan huquqlardan O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari bilan bab-baravar foydalanadilar.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida O'zbekiston Respublikasi tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari to'g'risidagi qonundan farq qiluvchi o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

---

<sup>1</sup> Сударинов С.А. Право интеллектуальной собственности. – М, Проспект. 2010. 226–227 с.

Tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari to'g'risidagi qonunning qo'llanilishi bilan bog'liq nizolar tegishli sudlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi bu – bir yuridik va jismoniy shaxslar tovarlari va xizmatlarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning shu turdagi tovarlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan belgilardir.

Mamlakat, aholi punkti, joy yoki boshqa jo'g'rofiy obyektning tovarini belgilash uchun ishlatiladigan, uning alohida xususiyatlari tamomila yoki asosan mazkur jo'g'rofiy obyektga xos tabiiy sharoitlar bilan yoki boshqa omillar yoxud tabiiy sharoitlar va ushbu omillarning birikmasi bilan belgilanadigan nomi tovar kelib chiqqan joy nomi deb e'tirof etiladi.

Tovar chiqarilgan (tayyorlangan) joy nomi sifatida mamlakat nomi ishlatilishi (Braziliya kofesi, Eron gilami, Gruziya choyi), aholi punkti yoki mintaqaviy hudud nomi (Toshkent suvi, Chust pichog'i) umuman qandaydir geografik obyekt nomi (masalan, Tyan-Shan suvi) qo'llanilishi mumkin. Bunday maqsadlarda o'sha geografik obyekt tarixiy nomi ishlatilishi mumkin. Bunda eng asosiysi o'sha joyda ishlab chiqarilgan tovarning yuqori sifati, alohida belgilarga ega ekanligi va xuddi shu holat tovarlar bozorida, xaridorlar orasida ma'lum ahamiyatga ega ekanligidir.

Tovarlarning kelib chiqish mamlakatlarini aniqlash qoidalari 1988-yil 8-aprelda Adliya Vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan.

Tovar kelib chiqqan joy nomi O'zbekiston Respublikasi Patent idorasi ro'yxatidan o'tkaziladi. Bunda asos bo'lib FKning 1108-moddasi ikkinchi qismida belgilangan talablarga ishlab chiqariladigan tovarning javob berishi va ayni o'shanday tovar ishlab chiqaruvchining o'sha hudud doirasida faoliyat yuritishi hisoblanadi.

Tovar chiqarilgan joy nomidan foydalanish huquqi guvohnomasi 10 yil muddatga beriladi, bu muddat tugagach, uzaytirilishi mumkin.

Tovar kelib chiqqan joy nomini tovarda, uning idishi hamda o'rovida, peshlavhalarda, rasmiy blankalarda, rekiamada, bosma nashrlarda va tovarni fuqarolik muomalasiga kiritish bilan bog'liq boshqa hujjatlarda ishlatish tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish deb hisoblanadi.

Litsenziya shartnomasi asosida tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqini boshqa shaxsga berishga, bunday huquqdan boshqa shaxslar foydasiga voz kechish to'g'risida bitimlar tuzishga va tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqini berishga yo'l qo'yilmaydi.

Tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnomasi bo'lmagan shaxslarning tovar kelib chiqqan joyning ro'yxatdan o'tkazilgan nomidan foydalanishiga, hatto, basharti bunda tovar kelib chiqqan joyning haqiqiy nomi ko'rsatilgan yoki nom tarjima qilib yoxud «ko'rinishdagi», «turdagi», «usuldagi» va shunga o'xshash so'zlarni qo'shib qo'llanilgan taqdirda ham, shuningdek, har qanday tovar kelib chiqqan joy nomi va tovarning alohida xususiyatlari xususida iste'molchini chalg'itishi mumkin bo'lgan o'xshash belgilardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi<sup>1</sup>.

Dunyoning deyarli barcha davlatlarida tovarlarni chiqarilgan joylar nomlaridan g'ayriqonuniy foydalanish, bu joylar nomlari haqida noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumot berish g'irrom raqobatning ko'rinishlaridan hisoblanadi va tegishli javobgarlik choralari (zararlarni to'latish, hududiga olib kelishni taqiqlash, arest solish, tovarlarni yo'q qilib tashlash va h.k.) qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi Qonunining 13-moddasiga asosan yuridik shaxsning intellektual faoliyati natijalaridan va ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalaridan, tovarni individuallashtirish vositalaridan qonunga xilof ravishda foydalangan holda tovarni realizatsiya qilish, tovarning xususiyati, ishlab chiqarish usuli va joyi, iste'mol

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi «Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida»gi 267-II-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 178-modda.

xossalari, narxi, sifati, ishlab chiqaruvchining (bajaruvchining) kafolat majburiyatlari xususida iste'molchilarni chalg'itish, xo'jalik yurituvchi subyekt (raqobatchi) tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarni uning tashqi bezatilishini, nomini, tamg'alanishini, tovar belgisini va yuridik shaxsni individuallashtirishning boshqa vositasini takrorlash, reklama materiallaridan, tovarning firma o'rovi va shaklidan nusxa ko'chirish orqali qalbakilashtirish insofsiz raqobat hisoblanadi va taqiqlanadi<sup>1</sup>.

### **Tayanch iboralar:**

Yuridik shaxs, yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari, vakolatxona, filial, yuridik shaxsni qo'shib olish, yuridik shaxsni qo'shib yuborish, yuridik shaxsni bo'lish, yuridik shaxsni ajratib chiqarish, yuridik shaxsni tugatish, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi, tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Yuridik shaxs deganda nimani tushunasiz?
2. Yuridik shaxslarning qanday belgilarini bilasiz?
3. Yuridik shaxs qanday usullarda vujudga keladi?
4. Yuridik shaxsni maxsus huquq layoqati deganda nimani tushunasiz?
5. Yuridik shaxs qachon bankrot deb e'lon qilinadi?
6. Tovar chiqarilgan joy nomidan foydalanish huquqi necha yilga beriladi?
7. Tovar kelib chiqqan joy nomi qaysi idora tomonidan ro'yxatga olinadi?
8. Vakolatxona deb nimaga aytiladi?
9. Tovar belgisi sifatida nimalardan foydalanish mumkin?
10. Yuridik shaxsning filiali qanday ma'noni bildiradi?
11. Yuridik shaxslarni tugatish qanday huquqiy munosabat hisoblanadi?

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 6-yanvardagi «Raqobat to'g'risida»gi O'RQ-319-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-yil, 1-son, 5-modda.

12. Yuridik shaxslarni ajratib chiqarish deganda nimalar tushuniladi?

13. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligida yuridik shaxslarni tugatish qanday usullarga bo'linadi?

14. Yuridik shaxslarni bo'lib yuborishning mohiyatini tushintirib bering.

15. Yuridik shaxslarni qo'shib yuborish to'g'risidagi shartnoma qaysi shartnomalar turkumiga kiradi?

### 1-§. Tijoratchi tashkilotlar tushunchasi

Tijoratchi, ya'ni foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan yuridik shaxslar: xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, ishlab chiqarish kooperativlari, unitar korxonalar va qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin. (FK 40-moddasining ikkinchi qismi).

Ushbu tijoratchi tashkilotlar mulkiy munosabatlarda keng tarqalgan tadbirkorlikning tashkiliy – huquqiy shakllaridan hisoblanadi. Tadbirkorlar tomonidan tuzilgan bunday shaklga o'xshash birlashmalar qit'a huquqida kompaniyalar yoki firmalar, anglo-amerika huquq tizimida esa korporatsiyalar deb nomlanadi.

O'tmishda, O'zbekistonda bunday birlashmalar shirkatlardan iborat bo'lib, ular asosan savdo, shuningdek, hunarmandchilik bilan shug'ullanishgan.

Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari o'z a'zolarining ixtiyori bilan, ya'ni ular tomonidan tuzilgan shartnomaga asosan vujudga kelgan, umumiy huquq layoqatiga ega bo'lgan tijoratchi tashkilot hisoblanadi. FKning 58-moddasida belgilangan qoidaga binoan xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari ularni tashkil qilishda qatnashgan muassislar (ishtirokchilari) ning mol-mulkidan ajratilgan va ularning hissalaridan tashkil topgan ustav kapitaliga (fondiga, mulkiy jamg'armasiga) ega bo'lgan tijoratchi yuridik shaxs hisoblanadi. Ular muassislar (ishtirokchilar) qo'shgan hissalarini, shuningdek, sotib olingan aksiyalari hisobiga vujudga kelgan, o'z faoliyatini amalga oshirish natijasida qo'lga kiritilgan va sotib olingan mol-mulklariga nisbatan yakka-yu yagona mulk huquqi subyekti hisoblanadi.

Tijoratchi tashkilotlar to'liq shirkat, kommandit shirkat, mas'uliyati cheklangan jamiyat, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat yoki aksiyadorlik jamiyati shakllarida tuzilishi mumkin.

## 2-§. Xo'jalik shirkatlari – yuridik shaxs sifatida

Xo'jalik shirkati – bu shirkat nomidan harakat qiluvchi ikki yoki undan ortiq shaxsning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tuzgan shartnomaviy yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan birlashmasidir.

O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»<sup>1</sup> Qonunning 3-moddasiga muvofiq muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) bo'lingan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ega bo'lgan tijorat tashkiloti xo'jalik shirkati hisoblanadi, bunday shirkatda muassislar (ishtirokchilar) yoki ulardan ayrimlari shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati yuritishda shaxsan ishtirok etadilar. Xo'jalik shirkati, agar uning ta'sis shartnomasida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, nomuayyan muddatga tuziladi va qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday turdagi faoliyatni amalga oshirishi mumkin.

Xo'jalik shirkati qonunchilikda belgilangan tartibda boshqa yuridik shaxslarning muassisi (ishtirokchisi) bo'lishi, vakolatxonalar va filiallar tashkil etishi mumkin.

Xo'jalik shirkatlarining ta'sis shartnomasi shirkatni ta'sis etish hujjati hisoblanadi.

Ta'sis shartnomasida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- ta'sis etilayotgan xo'jalik shirkatining turi, uning faoliyat sohasi, maqsadlari va muddatlari;
- muassislarning (ishtirokchilarning) tarkibi;
- ta'sis etilayotgan xo'jalik shirkatining firma nomi va pochta manzili;
- ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori va uni hosil qilish tartibi;
- xo'jalik shirkati har bir ishtirokchisi ulushining miqdori va nominal qiymati;
- xo'jalik shirkati ishtirokchilari hissalarining tarkibi, ularni kiritish muddatlari va tartibi;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi 308-II-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, 1-son, 8-modda.



– xo‘jalik shirkatining ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish va kamaytirish tartibi;

– xo‘jalik shirkatining faoliyatini boshqarish tartibi;

– foydani taqsimlash va zararni qoplash tartibi;

– xo‘jalik shirkatini qayta tashkil etish va tugatish tartibi;

– qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa shartlar.

Korporativ huquq bo‘yicha yetakchi mutaxassislardan biri shirkatlarning kelib chiqishini oila boshlig‘i oilada yakka hukmronligiga asoslangan oilaviy tadbirkorlikdan kelib chiqqan deb hisoblaydi.<sup>1</sup> Dastlabki paytlarda shirkatlarda asosan shirkat rahbarining yoshi, tajribasi muhim rol o‘ynagan bo‘lsa, keyinchalik ishtirokchilar o‘rtasida uddaburon, tadbirkor shaxslar ta’siri orta bordi. Vaqt o‘tgan sayin shirkatlarning o‘zi ham turlarga ajrala boshladi.

Bozor munosabatlari mustahkamlanib borayotgan hozirgi sharoitlarda ham shirkatlar xo‘jalik yurituvchi subyektlar tizimida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Shirkatlarning huquqiy maqomi quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

**Birinchi**dan, shirkatlar ishtirokchilarni shartnoma, kelishuvga asoslangan birlashmasi, uyushmasi hisoblanadi.

**Ikkinchi**dan, shirkatlar – bu ishtirokchilarning turli mol-mulklarini (pul mablag‘lari, ashyolar, ko‘char va ko‘chmas mol-mulklar) birlashtirish shaklidir.

**Uchinchi**dan, shirkat kishilarning ixtiyoriy birlashuvi hisoblanadi. Shirkatda eng kamida ikki va undan ortiq ishtirokchi erkin ravishda birlashadi. Ishtirokchilar miqdori ko‘p bo‘lishiga deyarli barcha mamlakatlar qonunchiligi yo‘l qo‘yadi, biroq amalda shirkat ishtirokchilari unchalik ko‘p bo‘lmaydi. Ishtirokchilarni yagona manfaat, o‘zaro hamkorlik asosida faoliyat yuritish qulay ekanligiga ishonch, shuningdek, foyda (daromad) olishga intilish birlashtiradi. Shirkatda muvaffaqiyat qozonishning asosiy garovi bir-biriga yordam berish, qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. Xo‘jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllari ichida shirkatga nisbatan ishtirokchilarning o‘zaro ishonchi, kollektivizm tuyg‘usi, o‘zaro

---

<sup>1</sup> Кашанина Т.В. Корпоративное право. М., Норма, 1999. – С. 158.

hamkorlik va o'zaro yordam eng yuqori darajada bo'lishi shart va zarur hisoblanadi. Aks holda, shirkat tashkil etishdan ma'no yo'qoladi.

**To'rtinchidan**, shirkatning yana bir xususiyati uning ishtirokchilarining moddiy resurslarni birlashtirish bilangina cheklanmasdan o'z kuch-g'ayratlarini, sa'y-harakatlarini birlashtirishda ham namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, shirkat ishtirokchilari o'z sa'y-harakatlarini birlashtirishlari ularning shirkat faoliyatida shaxsan ishtirok etishlarida ko'rinadi. Shirkat ishtirokchilarining shaxsan ishtiroki quyidagi ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin:

– tovarlar ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishda shaxsan qatnashuv;

– shirkatning tashkiliy, boshqaruv va ijro faoliyatida ishtirok etish (masalan, rahbarlik qilish, ish qog'ozlarini yuritish, faoliyatni tashkil etishda boshqacha qatnashish);

– shirkat nomidan boshqa subyektlar, idoralar, tashkilotlar bilan bo'lgan munosabatlarda vakillik qilish;

– shirkat faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda intellektual mehnati, salohiyati bilan ishtirok etishi (biznes – rejalar ishlab chiqish, nou-xaular tayyorlash, ilmiy-texnik, texnologik, ilmiy-axborot hujjatlari ishlab chiqish va hokazolar). Albatta, ishtirokchilarning bunday ishtiroki har xil bo'lishi mumkin (kimdir katta va doimiy hajmlarda, boshqa birov nisbatan kichikroq hajmlarda va ahyon-ahyonda). Biroq har bir ishtirokchi shirkat faoliyatini amalga oshirishda, albatta, shaxsan ishtirok etishi shart, aks holda, «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi Qonun 3-moddasining birinchi qismidagi shirkat muassislari (ishtirokchilari) yoki ularning ayrimlarini shirkat faoliyatida shaxsan ishtiroki to'g'risidagi talab buzilgan bo'lib hisoblanadi.

**Beshinchidan**, shirkatning maqsadi (uning ishtirokchilarining maqsadi ham) ishtirokchilar birgalikdagi faoliyatidan foyda (daromad) olish hisoblanadi.

Xo'jalik shirkati to'liq shirkat yoki kommandit shirkat shaklida tuziladi.

Ishtirokchilari o'z o'rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan hamda uning majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradigan shirkat to'liq shirkat hisoblanadi.

Shaxs faqat bitta to'liq shirkatning ishtirokchisi bo'lishi mumkin.

To'liq shirkatning firma nomi uning barcha ishtirokchilari-ning nomlari (nomlanishi)ni, shuningdek, «to'liq shirkat» degan so'zlarni yoxud bir yoki bir necha ishtirokchining «va kompaniya» degan so'zlar qo'shilgan nomi (nomlanishi)ni, shuningdek, «to'liq shirkat» degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak. (FKning 60-moddasi).

To'liq shirkat esa o'zining alohida mol-mulkiga ega bo'lgan yuridik shaxs hisoblanadi. Biroq shuni e'tirof etish lozimki, to'liq shirkatda ishtirokchilarning o'z shaxsiy mehnati, sa'y-harakatlari bilan ishtirok etish alohida muhim ahamiyatga ega.

**Birinchi**dan, u barcha ishtirokchilarni birgalikdagi faoliyatdan o'ta manfaatdorligini ta'minlaydi. Birgalikdagi faoliyat jarayonida barcha ishtirokchilar bir-birlarining ishlarini o'zaro nazorat qiladilar, kuzatib boradilar.

**Ikkinchi**dan, har bir ishtirokchiga korporatsiya faoliyati yakuniy natijasi qat'iy bog'liq bo'lgani sababli bunday korporatsiyaga kishilarning uyushuvi faqat ishonchga asoslangan bo'lishini taqozo qiladi. O'z-o'zidan ravshanki, o'zaro ishonchga asosan kishilar doirasi unchalik keng bo'lmaydi, demak, korporatsiya o'ziga xos ixcham va kompakt bo'lishi tabiiy.

Binobarin, xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakli bo'lgan to'liq shirkatni minglab va hatto yuzlab xodim ishlovchi korxonalar tashkil etish, yirik miqdordagi kapitallarni birlashtirish uchun asos ko'plab bo'lmaydi. To'liq shirkatda ishtirokchilar qo'shgan ulushlar hajmi juda muhim ahamiyatga ega emas. To'liq shirkatda agar sinchiklab o'rganilsa, har bir ishtirokchining majburiyatlarini ulushlarga ajratish mumkin. Biroq bu kreditorlar uchun maqsadga muvofiq emas, o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli ham qonunda solidar majburiyat belgilangani ham oqilona yechim bo'lgan deb aytish mumkin.

Bunda ko'proq shaxsiy ishtirok etish bilan bog'liq omillar yetakchi ahamiyatga ega ekanligini ham unitmaslik lozim.

To'liq shirkat ishtirokchilarining ishonchga asoslangan munosabatlaridan ushbu korporatsiyani boshqarishning o'ziga xos xususiyati ham kelib chiqadi. Aslini olganda, to'liq shirkatda qandaydir boshqaruv organi mavjud emas. To'liq shirkat faoliyati bo'yicha qaror konsensus asosida alohida (ya'ni, barcha ishtirokchilar o'zaro, yakdil roziligi asosida) qabul qilinadi. «Ta'sis shartnomasida alohida belgilab qo'yilgan masalalar bo'yicha esa qaror oddiy ko'pchilik ovoz bilan ham qabul qilinishi mumkin. Shirkatning har bir a'zosi shirkat ustav fondiga qo'shgan ulushi yoki shirkat faoliyatida shaxsan ishtirokidan qat'iy nazar qaror qabul qilishda bir ovozga ega. Albatta, amaliyotda, odatda, ishtirokchilar o'rtasida o'ziga yetakchi lider, norasmiy tarzda bo'lsa ham (hech bo'lmaganda jo'raboshi sifatida) ajralib turadi, u ishtirokchilar faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda yo'naltirib, muvofiqlashtirib turadi. Qolgan barcha ishtirokchilar, odatda, undan bemaslahat ish qilmaydilar. Ba'zan ishtirokchilar yetakchi liderni saylab olishlari ham mumkin (bunda uning mavqeyi huquqiy rasmiylashtirilib qo'yiladi). Bunday saylov barcha ishtirokchilarning yakdil roziligi (to'liq konsensus) bo'lgandagina haqiqiy hisoblanadi. Agarda ushbu prinsipga rioya qilinmasa, u holda shirkat ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ishonch munosabatlariga putur yetadi.

Shirkatning yana bir turi kommandit shirkat hisoblanadi (commandant) – fransuzcha boshqarish, farmoyish berish, hukmronlik qilish degan ma'noni anglatadi va u lotincha commendere – topshirish degan so'zdan kelib chiqqan. Adabiyotlarda kommandit shirkatning kelib chiqishini Yevropa o'rta asrlar tarixi bilan bog'lashadi. Kommendaning ilk, ibtidoiy ko'rinishi tovar shirkati bo'lgan. Sadogarlar o'zaro pul mablag'lari to'playdilar. Ularning bir guruhi tovar olib kelgani dengiz kemalarida ketadilar. Ikkinchi guruhi esa o'z uylarida qoladilar. Bunda ikkinchi guruh birinchi guruhga o'z mablag'larini ishonib topshiradilar. Birinchi guruh qaytib kelgach, foyda har ikkala guruh o'rtasida taqsimlanadi. Bunda, albatta, kemalarda suzib mol keltirganlar foydadan ulushni ko'proq oladilar. Keyinchalik

tovar kommendasi o'z ko'rinishini o'zgartirib, pul kommendasi ko'rinishiga o'tdi. Bunday shakl tadbirkorlik faoliyatida nafaqat savdogarlarni, balki ortiqcha kapitallarga ega bo'lgan, biroq savdo-sotiq bilan bevosita shug'ullanishni istamagan boshqa tabaqa vakillari (zodagonlar, ziyolilar, ruhoniylar)ni ham ishtirok etishlariga imkon berdi.

Kommenda institutining asosini o'z kapitallaridan samarali foydalanishga bo'lgan intilish tashkil etadi. Biroq kapital egasi muayyan sabablarga ko'ra (ruhiy, psixologik holati, sog'lig'i, keksaligi, boshqa soha bilan shug'ullanishi sababli) tadbirkorlik faoliyati bilan bevosita shug'ullanishni xohlamaydi yoxud bunga imkoni bo'lmaydi. Shu sababli ham u o'z kapitalini samarali ishlatishni xohlaydi va kommandit shirkatda ishtirok etish usulini tanlaydi. Bunday shirkatda, eng asosiysi, tadbirkorlik kapitali ishtirokchilar badallari va korxonalar tashkilotchisining o'zidan iborat. Kommandit shirkatda turlicha huquqiy maqomga ega bo'lgan ikki guruh ishtirokchilar farqlanadi. Bir tomondan, barcha tashkiliy ishlarni olib boruvchi boshqaruvchi ishtirokchilar va boshqa tomondan qo'shgan kapitali hajmidan qat'iy nazar shirkatni boshqarishda bir xilda huquqlarga ega bo'lgan boshqa ishtirokchilar guruhi.

Kommandit shirkat to'liq shirkatga nisbatan ko'proq kapitallarni to'plash, birlashtirish imkonini beradi. Aslini olganda, o'zining barcha mol-mulki va mablag'larini tadbirkorlik o'yiniga tikishni xohlovchilardan ko'ra muayyan miqdordagi kapitalnigina tikadigan (boshqa mol-mulk va mablag'larni xavfsiz qoldiradigan) shaxslar har doim ko'proq topiladi. Ayni vaqtda serg'ayrat va uddaburon tadbirkorlar ushbu usulni qo'llagan holda boshqalarning mablag'larini o'z tadbirkorlik faoliyatiga jalb eta oladilar. Garchi kommandit shirkat to'liq shirkatga qaraganda bir oz murakkab tarkibli bo'lsa ham, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan olganda, nisbatan sodda hisoblanadi.

Albatta, ushbu shirkatning eng asosiy xususiyati – uning ishtirokchilari javobgarligi xarakteri bilan bog'liq. U ikki tomonlama, ikki yoqlama xarakterga ega. Ta'sischi (to'liq ishtirokchilar – ular bir yoki bir necha bo'lishlari mumkin)

shirkat majburiyatlari uchun to'liq hajmda javobgar bo'ladilar. Ularning javobgarligi, ular tomonidan shirkat ustav kapitaliga qo'shgan ulushlari hajmidan qat'iy nazar, to'la miqdorda belgilanadi. Xuddi shu ma'noda o'lganda to'liq a'zolar javobgarligi cheklanmaydi. Agarda shirkat mol-mulki yetarli bo'lmasa, u holda to'liq a'zolarning shaxsiy (xususiy) mol-mulkklariga ham shirkat majburiyatlari bo'yicha javobgarlik qaratiladi. Xuddi shu sababli ham ularni to'liq ishtirokchilar deb aytish ularning huquqiy maqomiga mos keladi. Ularning javobgarligi solidar hisoblanadi, ya'ni, bir ishtirokchi hamma ishtirokchi uchun va hamma ishtirokchi bir ishtirokchi uchun javob beradi. Kreditorlar ularning har biriga talab qo'yishlari mumkin.

To'liq ishtirokchilarning kuchaytirilgan javobgarligi kommandit shirkat mol-mulkigagina hissa qo'shadigan boshqa ishtirokchilar ishonchini o'ziga xos ravishda kafolatlaydi.

Shirkatga faqat mol-mulk bilan ulush qo'shuvchi a'zo kommandit a'zo, hissa qo'shuvchi a'zo deb ataladi. Kommandit a'zolar shirkat majburiyatlari bo'yicha faqat shirkat ustav kapitaliga qo'shgan ulushlari hajmda javob beradilar. Hissa qo'shuvchilar uchun bunday cheklangan javobgarlikning belgilanishi kommandit shirkatning potensial ishtirokchilari doirasini kengaytiradi. Shunga qaramasdan, baribir kommandit shirkat a'zolari unchalik ko'p bo'lmaydi.

Kommandit shirkatning tarkibini xarakterlovchi yana bir holat shundan iboratki, u eng kamida ikki ishtirokchidan – bir ishtirokchi va bir kommandit ishtirokchidan iborat bo'lishi lozim.

Kommandit shirkatlariga legal ta'rif FK 61-moddasining birinchi qismida va «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi Qonun 28-moddasining birinchi qismida berilgan. Ushbu ta'riflarga ko'ra, shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshiradigan hamda shirkatning majburiyatlari bo'yicha o'zlarining butun mol-mulkklari bilan javob beradigan ishtirokchilar (to'liq ishtirokchilar) (to'liq sheriklar) bilan bir qatorda shirkat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar doirasida javobgar bo'ladigan hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etmaydigan bir yoki bir necha

ishtirokchi (hissa qo'shuvchi, kommanditchi) mavjud bo'lsa, bunday shirkat kommandit shirkat hisoblanadi.

Kommandit shirkatning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uning hissa qo'shuvchilarini shirkat faoliyatiga rahbarlik qilishda ishtirokining cheklanishida namoyon bo'ladi. Umumiy qoidaga ko'ra kommandit shirkatni boshqarish to'liq sheriklar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda to'liq sheriklar to'liq shirkatda qanday tarkibda boshqarishni amalga oshirsa, ushbu holat amal qiladi. Hissa qo'shuvchilar shirkat nomidan o'zlaricha ish yurita olmaydilar, shirkat nomidan uchinchi shaxs oldida qandaydir majburiyatlar vujudga kelishiga olib keluvchi harakatlarni ham sodir eta olmaydilar. Kommandit ishtirokchining mas'uliyati cheklangan, binobarin, u kreditorlar oldida go'yoki to'liq mas'uliyatli ishtirokchi sifatida ish ko'ra olmaydi. Albatta, hissa qo'shuvchi umuman shirkat nomidan harakat qila olmaydi, deb aytish mumkin emas. «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi Qonun 29-moddasining ikkinchi qismiga asosan hissa qo'shuvchilar faqat ishonchnoma asosida kommandit shirkatni boshqarish va uning ishlarini yuritishda ishtirok etishga haqli. Hissa qo'shuvchilar kommandit shirkatni boshqarish va uning ishlarini yuritish bo'yicha to'liq sheriklarning xatti-harakatlari xususida bahslashishga haqli emaslar.

Kommandit shirkatda ishtirok etayotgan to'liq sheriklarning huquqlari va ularning shirkat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi to'liq shirkat ishtirokchilari javobgarligi kabi bo'ladi. Shaxs faqat bitta kommandit shirkatda to'liq sherik bo'lishi mumkin. To'liq shirkat ishtirokchisi kommandit shirkatda to'liq sherik bo'la olmaydi. Kommandit shirkatdagi to'liq sherik o'sha shirkatning o'zida hissa qo'shuvchi va boshqa to'liq shirkatda ishtirokchi bo'lishi mumkin emas. Kommandit shirkatning firma nomi yo barcha to'liq sheriklarning nomlarini (nomlanishini) va «kommandit shirkat» degan so'zlarni yoxud kamida bitta to'liq sherikning «va kompaniya» degan so'zlar qo'shilgan holdagi nomini (nomlanishini), shuningdek, «kommandit shirkat» degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Agar kommandit shirkatning firma nomiga hissa qo'shuvchining nomi kiritilgan bo'lsa, bunday hissa qo'shuvchi to'liq sherikka aylanadi.

Kommandit shirkat faoliyatini boshqarish to'liq sheriklar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday shirkatni uning to'liq sheriklari tomonidan boshqarish va uning ishlarini yuritish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

Shirkatni qayta tashkil etish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Shirkat qonunlarda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, shuningdek, shirkatda yagona ishtirokchi qolgan taqdirda tugatiladi. Bunday ishtirokchi shirkatning yagona ishtirokchisiga aylangan paytdan e'tiboran olti oy ichida yangi ishtirokchilarni qabul qilishga va shirkatni saqlab qolishga, shirkat tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatni moliyalashtirish to'g'risida hissa qo'shuvchilar bilan shartnoma tuzishga va kommandit shirkat tuzishga, shirkatni qayta tuzish yoki tugatishga haqlidir.

Agar shirkatning ta'sis shartnomasida yoki qolgan ishtirokchilarning kelishuvida shirkat o'z faoliyatini davom ettirishi nazarda tutilgan bo'lmasa, shirkat «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi Qonun 22-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan hollarda ham tugatiladi.

### **3-§. Xo'jalik jamiyatlari – yuridik shaxs sifatida**

Xo'jalik jamiyatlari o'z mohiyati bo'yicha kapitalarni birlashtirishning tashkiliy-huquqiy shakli hisoblanadi. Xo'jalik jamiyatlari, o'z navbatida, mas'uliyati cheklangan jamiyat, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat yoki aksiyadorlik jamiyati kabi turlarga bo'linadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida savdo, umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish sohalarida ko'plab korxonalar mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida faoliyat yuritmoqda, shu sababli ham mas'uliyati cheklangan jamiyatlar xo'jalik yurituvchi subyektlarni anchagina qismini tashkil etadi. Kichik va o'rta biznes esa mutloq ko'pchilikni tashkil etadi.



Mas'uliyati cheklangan jamiyat ko'rinishidagi korporatsiyalar germaniyalik yuristlar tomonidan kashf qilingan. Ularning vujudga kelishiga asosiy sabab XIX asrda Yevropa savdo-sotiq va sanoatida ro'y bergan o'zgarishlar hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlari haddan tashqari katta, beso'naqay va qo'pol bo'lib, kichik va o'rta biznesda qo'llash deyarli mumkin bo'lmagan. Boshqa jihatdan olganda esa, to'liq shirkatlarni yanada kengroq qo'llanish imkoniyatlari ham cheklangan edi. Xuddi shu sababli ham, amaliyotchilar talabiga ko'ra, mas'uliyati cheklangan jamiyat to'g'risidagi qonun ishlab chiqildi va 1892-yil 20-aprelda qabul qilindi. Keyinchalik dunyoning boshqa mamlakatlarida ham u keng tarqala boshladi. Mas'uliyati cheklangan jamiyat bir vaqtning o'zida ham ishtirokchining shaxsan ishtirokini va ham kapitallarni birlashtirish imkoniyatini ta'minlaydi. Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchisi xohlasa mas'uliyati cheklangan jamiyat faoliyatida ishtirok etishi mumkin, xohlamasa yo'q. U bir vaqtning o'zida bir necha jamiyatlarda ishtirok etishi mumkin. Nafaqat professional tadbirkor, balki har qanday shaxs mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchisi bo'lishi mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tuzish va faoliyatini tashkil etish O'zbekiston Respublikasining «Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»<sup>1</sup> 2001-yil 6-dekabrda Qonuni bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi FKning 62-moddasida mas'uliyati cheklangan jamiyatga doir asosiy qoidalar berilgan. Hozirgi vaqtda mas'uliyati cheklangan jamiyat mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxsning eng ko'p tarqalgan va eng ommaviy tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri hisoblanadi. Foyda olish va uni mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash imkoniyati jamiyat faoliyatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyat qonunchilik bilan taqiqlanmagan faoliyatning istalgan turini amalga oshirishga haqli ekanligi ko'rsatilgan.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda «Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat to'g'risida»gi 310-II-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 2002-yil, 1-son, 10-modda.

«Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi qonunning 3-moddasiga ko'ra: bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchisi tavakkal qilish darajasi unchalik yuqori emas. Mabodo, jamiyat ishi yurishmasa, u jamiyatning ustav kapitaliga qo'shgan ulushlari doirasida javobgar bo'ladi, xolos. To'g'ri, qonun 5-moddasining o'ninchi qismida mas'uliyati cheklangan jamiyatning bankrotligi ishtirokchi sifatida shaxsning aybi tufayli vujudga kelgan bo'lsa, jamiyatning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda bunday shaxs zimmasiga uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin deb ko'rsatilgan. Lekin ushbu norma amalda deyarli qo'llanilmaydi. Bunda eng asosiy muammo, jamiyatning bankrotligi bilan jamiyat ishtirokchisi harakatlari o'rtasida sababiy bog'lanishni aniqlash muammosi hisoblanadi. Ma'lumki, fuqarolik huquqida ayb, qasd, ehtiyotsizlik va qo'pol ehtiyotsizlik ko'rinishlarida bo'lishi mumkin. Binobarin, «ishtirokchi shaxsning aybi» deganda, qonun chiqaruvchi nimani nazarda tutishi aniqlashtirilishi lozim. Agarda ayb tushunchasi keng ma'noda talqin etilsa, u holda mas'uliyati cheklangan jamiyat mohiyatiga zid bo'lgan bo'lur edi. Boshqacha aytganda, ishtirokchini jamiyat majburiyatlari uchun javobgarligi, uning qo'shgan ulushlari doirasidan tashqari chiqib ketgan bo'lur edi. Shu sababli ham, fikrimizcha, «ishtirokchining aybi» tor ma'noda talqin etilishi va uning qasddan g'araz niyatlar bilan qilgan jinoiy harakatlarinigina qamrab olishi lozim.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari bo'lib jismoniy shaxslar ham, yuridik shaxslar ham bo'lishi mumkin. Albatta, jismoniy shaxslar mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchisi bo'lishi uchun to'liq muomala layoqatiga ega bo'lishi lozim. Qonunda ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning jamiyatda ishtirok etishi taqiqlanishi yoki cheklanishi mumkin. Bunga yaqqol misol qilib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-martdagi «Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish taqiqlangan mansabdor shaxslarning ro'yxati to'g'risida»gi qarorini ko'rsatish mumkin<sup>1</sup>. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, Prezident, Konstitutsiyaviy sud a'zolari, sudlar to'g'risidagi, prokuratura to'g'risidagi qonunlarga ko'ra, prokurorlar, tergovchilar, sudyalar ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqli emaslar. Demak, ular mas'uliyati cheklangan jamiyatda ishtirokchi bo'lishga ham haqli emaslar.

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat mas'uliyati cheklangan jamiyat bilan birgalikda yuridik shaxsning mustaqil tashkiliy-huquqiy shakli hisoblanadi. Lekin mas'uliyati cheklangan jamiyat ham, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat ham juda ko'p o'xshash jihatlarga ega. Ushbu tashkiliy-huquqiy shakllarning

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish taqiqlangan mansabdor shaxslarning ro'yxati to'g'risida»gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plami, 1992-yil, 3-son, 7-modda.

o'xshashligi qonun chiqaruvchiga O'zbekiston Respublikasi FKning mas'uliyati cheklangan jamiyat to'g'risidagi qoidalarni qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatga ham taalluqli qilishiga imkon berdi, mas'uliyati cheklangan jamiyat va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlarning asosiy farqi javobgarlikning huquqiy tartibga solinishidan iborat.

Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat ishtirokchilari javobgarligining eng yuqori miqdori qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning ustavida nazarda tutiladi. Ishtirokchilardan biri bankrot bo'lib qolganida uning qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi, agar jamiyatning ta'sis hujjatlarida javobgarlikni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa, boshqa ishtirokchilar o'rtasida ularning qo'shgan hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyat turlarini amalga oshirishi mumkin.

Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga qarashli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi. Jamiyat o'z ishtirokchilarining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi. Jamiyatning bankrotligi ishtirokchi sifatidagi shaxsning aybi tufayli vujudga kelgan bo'lsa, jamiyatning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda bunday shaxs zimmasiga uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin. Davlat va uning organlari jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, xuddi shuningdek, jamiyat ham davlat va uning organlari majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

Yuridik va jismoniy shaxslar jamiyatning ishtirokchilari bo'ladilar. Qonunda ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning jamiyatda ishtirok etishi taqiqlanishi yoki cheklanishi mumkin. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, agar qonunchilikda boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, jamiyatning ishtirokchilari bo'lishga haqli emaslar. Jamiyat bir shaxs tomonidan ta'sis etilishi mumkin bo'lib, u jamiyatning yagona ishtirokchisiga aylanadi. Jamiyat keyinchalik bir ishtirokchisi bo'lgan jamiyatga aylanishi mumkin. Jamiyat yagona ishtirokchi sifatida bir shaxsdan iborat

boshqa xo'jalik jamiyatiga ega bo'lishi mumkin emas. Jamiyat ishtirokchilarining soni ellik kishidan oshmasligi lozim. Agar jamiyat ishtirokchilarining soni ushbu moddaning oltinchi qismida belgilangan me'yordan oshib ketsa, jamiyat bir yil ichida ochiq aksiyadorlik jamiyati yoki ishlab chiqarish kooperativi etib qayta tuzilishi kerak. Agar ko'rsatilgan muddat davomida jamiyat qayta tuzilmasa va jamiyat ishtirokchilarining soni belgilangan me'yorga qadar kamaymasa, u yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning talabiga binoan sud tartibida tugatilishi kerak.

Jamiyatning ta'sis shartnomasi va ustavi jamiyat ta'sis hujjatlari deb hisoblanadi. Agar jamiyat bir shaxs tomonidan ta'sis etilsa, shu shaxs tasdiqlagan ustav jamiyatning ta'sis hujjati hisoblanadi. Jamiyat ishtirokchilarining soni ikki va undan ortiq kishiga ko'paysa, ular o'rtasida ta'sis shartnomasi tuzilishi kerak.

Jamiyat ustav fondi (ustav kapitali) uning ishtirokchilari ulushlarining nominal qiymatlaridan tarkib topadi. Jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)ning miqdori jamiyatni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlarni taqdim etish sanasidagi holatga ko'ra, qonunchilikda belgilangan eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan kam bo'lmasligi lozim. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan paytga qadar uning har bir ishtirokchisi ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) dagi o'z hissasining kamida 30 foizini kiritish shart. Jamiyatning har bir ishtirokchisi ta'sis hujjatlarida belgilangan va jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab bir yildan oshmaydigan muddat mobaynida jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) o'z hissasini to'liq kiritishi kerak. Jamiyatning ishtirokchisi tomonidan hissaning to'liq kiritilganligi jamiyat ishtirokchisiga beriladigan guvohnoma bilan tasdiqlanadi.

Jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi jamiyat boshqaruvining oliy organi hisoblanadi.

Jamiyatning ustavida jamiyatning kuzatuv kengashini tuzish nazarda tutilishi mumkin.

Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi tomonidan

yoki jamiyatning kollegial ijro etuvchi organi tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyatning ijro etuvchi organi jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishiga va agar tuzilishi jamiyatning ustavida nazarda tutilgan bo'lsa, jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdordir.

#### **4-§. Aksiyadorlik jamiyatlari yuridik shaxs sifatida**

Aksiyadorlik jamiyati davlat korxonalarini xususiyashtirish, yangi korxonalarni tashkil etish va ularni boshqarishda aholining ishtirokini ta'minlaydigan, kishilarda mulkdorlik tuyg'usini tarbiyalaydigan hamda shaxslarning bo'sh qolgan mablag'larini aksiya sotish orqali bir joyga to'plab tadbirkorlikka yo'naltiradigan xo'jalik yurituvchi subyektdir. Yirik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ishlarni bajarish asosan aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan amalga oshiriladi. Aniqrog'i ular jahondagi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy usqurtmalardan biridir. Chunki ular yuridik va jismoniy shaxslar qo'lida vaqtincha bo'sh qolgan kapitalni aksiya sotish orqali bir joyga yig'ib, so'ng uni foyda olish uchun yo'naltiradilar.

Aksiyadorlik jamiyatlari xo'jalik yurituvchi subyektlar tizimida alohida o'rin egallaydi. G'arb mamlakatlarida aksiyadorlik jamiyatlari yirik ishlab chiqarishni tashkil etishda yetakchi o'rinni egallaydi.

Bugungi mamlakatimiz iqtisodiyotida aksiyadorlik jamiyatlari asosan sanoat, transport, bank, moliya, sug'urta, ulgurji savdo sohasida keng qo'llanmoqda.

Ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti aksiyadorlik jamiyati deb e'tirof etiladi.

Aksiyadorlar jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. (FKning 64-moddasi).

Aksiyadorlik jamiyatlarining huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va «Aksiyadorlik jamiyatlari

va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonun<sup>1</sup> va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Aksiyadorlik jamiyati o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi. Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

Aksiyalarning haqini to'liq to'lamagan aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi. Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

Agar jamiyatning bankrotligi jamiyat uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan aksiyador sifatida ish yuritayotgan shaxsning g'ayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, jamiyatning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda, mazkur aksiyadorning zimmasiga jamiyatning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin. Aksiyador majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga jamiyat ustavida bu huquqda nazarda tutilgan taqdiridagina ega bo'ladi.

Jamiyat uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan aksiyador jamiyat muayyan harakatni amalga oshirishi oqibatida bankrot bo'lishini oldindan bila turib, ushbu huquqidan jamiyat tomonidan shunday harakat amalga oshirilishi uchun foydalangan taqdiridagina jamiyatning bankrotligi aksiyadorning harakatlari tufayli yuzaga kelgan deb hisoblanadi.

Davlat va uning organlari jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, xuddi shuningdek jamiyat ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

Aksiyadorlik jamiyati ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin. Ochiq aksiyadorlik jamiyatining muassislari tarkibiga kiruvchilarning eng kam soni cheklanmaydi, yopiq aksiyadorlik jamiyatining muassislari esa kamida uch shaxsdan iborat qilib belgilanadi.

---

<sup>1</sup> Batafsil qarang: O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'RBQ-370-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil. 19-son, 210-modda.

Ochiq aksiyadorlik jamiyatining muassislari tarkibiga kiruvchilarning eng kam soni cheklanmaydi. Yopiq aksiyadorlik jamiyatlarining muassislari esa kamida uch shaxsdan iborat qilib belgilanadi. Aynan muassislarining belgilangan miqdori turli davlatlarda turlicha belgilangan. Masalan, Italiyada – 2, Shveysariyada – 3, Germaniyada – 5, Angliya, Fransiya, Yaponiyada – 7, Estoniya, Rossiya, Niderlandiya, Shvetsiya, Finlandiya va AQShning ko'pgina shtatlarida – 1 kishi va h.k.

Qatnashchilari o'zlariga tegishli aksiyalarini o'zga aksiyadorlarning roziligisiz boshqa shaxslarga berishi mumkin bo'lgan aksiyadorlik jamiyati ochiq aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Ochiq aksiyadorlik jamiyati o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ochiq obuna o'tkazishga va qonunchilikning talablarini hisobga olgan holda ularni erkin sotishga haqlidir. Ochiq aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining soni chegaralanmaydi.

Aksiyalari faqat o'z muassislari yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar orasida taqsimlanadigan aksiyadorlik jamiyati yopiq aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Bunday jamiyat o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ochiq obuna o'tkazishga yoxud ularni cheklanmagan doiradagi shaxslarga sotib olish uchun boshqacha tarzda taklif etishga haqli emas. Yopiq aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining soni ellik nafardan ziyod bo'lishi mumkin emas. Belgilangan chegaradan ortib ketgan taqdirda u yopiq aksiyadorlik jamiyatlari uchun miqdori aksiyadorlarning chegaralangan limitidan ortib ketgan shaxslar aksiyadorlar reestrída ro'yxatga olingan kundan e'tiboran olti oy ichida ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilishi, ushbu muddat tugagach, sud tartibida tugatilishi lozim.

Aksiyadorlik jamiyati ustav fondining eng kam miqdori jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha 400 ming AQSh dollariga teng bo'lgan summadan kam bo'lmasligi kerak<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2009-yil, 15-son, 176-modda.



Aksiyadorlik jamiyatlari filiallar tashkil etishi hamda vakolatxonalar ochishi mumkin. Ular o'zlari tashkil etgan jamiyat tomonidan mol-mulk bilan ta'minlanadi va shu jamiyat tasdiqlagan nizomlar asosida ish ko'radi. Filialning yoki vakolatxonaning rahbari jamiyat tomonidan tayinlanadi va jamiyat tomonidan berilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.

Filial hamda vakolatxona faoliyati uchun javobgarlik ularni tashkil etgan va ochgan jamiyat zimmasida bo'ladi.

Jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida filiallar tashkil etish va vakolatxonalar ochish, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, filiallar va vakolatxonalar joylashgan yerdagi mamlakatning qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

Jamiyatning muassislari tomonidan jamiyatni tashkil etish to'g'risida ta'sis shartnomasi va ta'sis yig'ilishi (muassis) tasdiqlagan ustav jamiyatning ta'sis hujjati hisoblanadi.

Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi kerak..

Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) jamiyat mol-mulkining jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi.

Jamiyat davlat mulki negizida tashkil etilayotganda tashkilotning (mol-mulkning) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aniqlangan bozor qiymati jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) summasini tashkil etadi.

Jamiyat oddiy aksiyalarni joylashtirishi shart, shuningdek imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga haqli. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizidan oshmasligi kerak.

Jamiyat ta'sis etilayotganda uning barcha aksiyalari jamiyat muassislari o'rtasida joylashtiriladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi jamiyatning boshqaruv organlaridir.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi jamiyat ustavida belgilangan muddatlarda, ammo moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida jamiyatning kuzatuv kengashini va taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash to'g'risidagi, jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi, kollegial ijroiya organining a'zolari, ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek ushbu Qonun 59-moddasiga muvofiq jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash, jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (taftishchisining) o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining (taftishchisining) xulosalarini eshitish, jamiyatning yillik hisoboti va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi.

Jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolati jamiyatning ustavida belgilanadigan direktor yoki jamiyat boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Agar jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik boshqaruv tomonidan amalga oshiriladigan bo'lsa, jamiyat ustavida boshqaruv rahbarining (boshqaruv raisining) vakolati ham belgilangan bo'lishi lozim.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat ijroiya organining vakolatlari shartnoma bo'yicha tijorat tashkilotiga (ishonchli boshqaruvchiga) berilishi mumkin. Tuziladigan shartnomaning shartlari, agar jamiyat ustavida

o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tayinlanadigan jamiyat ijroiya organi tarkibiga kirgan shaxsning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, jamiyat kuzatuv kengashining qarori bilan belgilangan shaxs uning vazifalarini aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda vaqtincha bajarib turishiga yo'l qo'yiladi.

Jamiyat ijroiya organining vakolatiga jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

Jamiyatning ijroiya organi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

Jamiyatning direktori (boshqaruv raisi) jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan, uning manfaatlarini ifodalaydi, jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlaydi, shtatlarni tasdiqlaydi, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi.

Jamiyatning ijroiya organlarini tuzish hamda ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, agar jamiyat ustavida ushbu masalalarni hal etish jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilmagan bo'lsa, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra amalga oshiriladi. Jamiyat ustaviga muvofiq yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoxud jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra jamiyat direktorini yoki boshqaruv a'zolarini tayinlash tanlov asosida amalga oshirilishi mumkin.

Jamiyat direktorining, jamiyat boshqaruvi a'zolarining, ishonchli boshqaruvchining huquq va majburiyatlari tegishincha ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarida, jamiyat ustavida hamda ularning har biri jamiyat bilan bir yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida

har yili qaror qabul qilinadi. Shartnoma jamiyat nomidan jamiyat kuzatuv kengashining raisi yoki kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolandi. Jamiyatning direktori, jamiyat boshqaruvining raisi, ishonchli boshqaruvchi bilan tuziladigan shartnomada ularning jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlari hamda jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va jamiyat kuzatuv kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyligi nazarda tutilishi kerak.

Jamiyatning direktoriga, boshqaruv a'zolariga to'lanadigan haq miqdori, shuningdek, ishonchli boshqaruvchining xizmatlariga haq to'lash shartlari jamiyat faoliyatining samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi va shartnomada belgilangan bo'lishi kerak.

Jamiyatning direktori (boshqaruv raisi) vazifalarini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan birgalikda egallab turishga faqat jamiyat kuzatuv kengashining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki jamiyat kuzatuv kengashi jamiyatning direktori, boshqaruv a'zolari, ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomani ular shartnoma shartlarini buzgan taqdirda tugatishga (bekor qilishga), agar jamiyat ustaviga ko'ra kuzatuv kengashiga shunday huquq berilgan bo'lsa, haqli.

Jamiyat kuzatuv kengashi jamiyatning direktori, jamiyat boshqaruvining a'zolari, shuningdek, ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomani, agar ular jamiyat ustavini qo'pol tarzda buzsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan jamiyat ijroiya organining, ishonchli boshqaruvchining vakolatlarini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, jamiyat ijroiya organining vakolatlarini boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi masala o'sha yig'ilishning o'zida hal etilishi yoxud jamiyat ijroiya organining rahbari vazifasini

vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlagan holda aksiyadorlarning yaqin oradagi umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish uchun qoldirilishi mumkin. Agar jamiyatning ijroiya organini tuzish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan bo'lsa, jamiyat ijroiya organining, ishonchli boshqaruvchining vakolatlarini tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan jamiyat kuzatuv kengashi jamiyat ijroiya organining rahbari vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi, shuningdek, jamiyatning ijroiya organi to'g'risidagi masalani hal etish uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqiradi.

Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ortig'ini tashkil etsa, yirik bitim deb hisoblanadi, kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno.

Jamiyatning yirik bitimi predmeti bo'lgan mol-mulkning bozor qiymati deganda, mol-mulkning eng ehtimol tutilgan narxi tushunilib, ushbu qiymat bo'yicha mazkur mol-mulk ochiq bozorda bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo'lgan holda o'z manfaatlari yo'lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladigan raqobat sharoitida boshqa shaxsga berilishi mumkin, bitim narxining baland-pastligida esa biror-bir favqulodda holatlar, shu jumladan taraflardan birining ushbu bitimga qo'shilish majburiyati aks etmaydi.

Xo'jalik shirkati va jamiyatlari yuridik shaxs huquqini olgan sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

FKning 67-moddasiga muvofiq, bir (asosiy) xo'jalik jamiyati yoki shirkati ikkinchi xo'jalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqeyiga ega bo'lgan holda ishtirok etishi tufayli

yoxud ular o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yo bo'lmasa boshqacha tarzda ikkinchi xo'jalik jamiyati tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega bo'lsa, ushbu ikkinchi xo'jalik jamiyati sho'ba xo'jalik jamiyati hisoblanadi.

Sho'ba xo'jalik jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi. Sho'ba xo'jalik jamiyati o'zining asosiy jamiyati (shirkati)ning qarzlari bo'yicha javob bermaydi.

Asosiy jamiyat (shirkat) aybi bilan sho'ba xo'jalik jamiyati nochor (bankrot) bo'lib qolgan taqdirda, asosiy jamiyat (shirkat) uning qarzlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

Sho'ba xo'jalik jamiyati ishtirokchilari (aksiyadorlari) asosiy jamiyatdan (shirkatdan) uning aybi bilan sho'ba jamiyatga yetkazilgan zararni to'lashni, agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, talab qilishga haqli.

Xo'jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat xo'jalik jamiyatiga qarashli ovoz beradigan aksiyalarning yigirma foizidan ko'prog'iga ega bo'lsa, bunday xo'jalik jamiyati qaram jamiyat deb hisoblanadi. Qaram xo'jalik jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi.

Xo'jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat qaram jamiyat ustav fondining tegishli qismini qo'lga kiritib olganligi haqidagi ma'lumotlarni qonunda nazarda tutilgan tartibda darhol e'lon qilinishi shart.

Xo'jalik jamiyatlari bir-birlarining ustav fondlarida o'zaro qatnashishining chegarasi va bunday jamiyatlardan biri boshqa jamiyat ishtirokchilari yoki aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida foydalanishi mumkin bo'lgan ovozlar soni qonunda belgilab qo'yiladi.

## **5-§. Davlat korxonalari – yuridik shaxs sifatida**

Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yuridik shaxslar alohida o'rin tutadi. Jamiyatni yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish sharoitida yuridik shaxslar ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatishning barcha sohalarida yetakchi kuch va iqtisodiy muomalaning asosiy subyekti hisoblanadi.

Ma'lumki, mustaqillikka erishilgach, mulkchilik munosabatlarining tubdan yangilanganligi, davlat mulkiga asoslangan yuridik shaxslar bilan birga xususiy mulk negizida ham yuridik shaxslar tashkil etilishiga sharoit yaratib berdi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisoddagi asosiy ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar hisoblangan yuridik shaxslarga nisbatan davlatning gegimonligiga chek qo'yishi bilan birga davlatga qarashli yuridik shaxslarning huquq subyektliligiga, ularning vakolatlari doirasiga, muassis davlat va yuridik shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning tubdan yangilanishiga, bir so'z bilan aytganda, davlatga qarashli yuridik shaxslar fuqarolik huquqiy maqomining o'zgarishiga olib keldi.

Bugungi kunda davlat unitar korxonalari, davlatga qarashli muassasalar, davlat ulushi mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari, davlat ishtirokidagi qo'shma korxonalar, davlat kompaniyalari va korporatsiyalari bilan birga davlat boshqaruv organlari ham bozor munosabatlari sharoitida yuridik shaxs maqomiga egaligi va iqtisodiy munosabatlarda fuqarolik huquqining boshqa subyektlari bilan birga yuridik shaxs rejimidan foydalanib huquqiy munosabatga kirishayotganligi hisobga olsak, uning amaliy jihatdan dolzarb ekanligini anglash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, davlatga qarashli, davlat ulushi bo'lgan hamda davlat ishtirokidagi yuridik shaxslar tashkil topishi, ularning huquq va muomala layoqati mazmuni, faoliyatining huquqiy asoslari, ularni qayta tashkil etish va tugatish usullarini tadqiq etish bu boradagi mavjud muammolarni aniqlash va ularning yechimini topish ham mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Binobarin, iqtisodiy munosabatlarda davlat o'z mulki asoslangan yuridik shaxs tashkil etishi yoki boshqa subyektlar bilan birgalikda u yoki bu tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxsga ulush qo'shishi hamda yuridik shaxsning ustav fondiga mol-mulkni kiritish orqali o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Ma'lumki, fuqarolik huquqida davlatga tegishli yuridik shaxslar «mustaqil» subyekt sifatida o'z mulki (bu o'rinda operativ boshqarish va xo'jalik yuritish)ga ega bo'ladi, huquqiy munosabatlarda o'z nomidan qatnashadi. Biroq yuridik shaxs

bilan davlat o'rtasidagi aloqalar hamda majburiyatlar yuzasidan davlatning javobgarligi fuqarolik huquqi nazariyasida bahsli holat hisoblanadi. Garchi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida davlat va yuridik shaxslarning javobgarligi farqlab qo'yilgan bo'lsa-da, bunday farqlanishning aniq chegarasi mavjud emas. Shu munosabat bilan davlatga qarashli yuridik shaxslarning huquqiy asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi FKning 70-moddasiga muvofiq, unitar korxonada deb o'ziga birlashtirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilotga aytiladi. Unitar korxonada tijorat tashkiloti hisoblanadi, lekin uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u korporativ yuridik shaxs emas, uning faoliyati uning ishtirokchilarining a'zolari asosida barpo etilmaydi. U bitta shaxs – mulkdor, odatda davlat tomonidan tuziladi. Davlat esa o'zi unitar korxonaga operativ boshqarish huquqida yoki xo'jalik yuritish huquqida beradigan mol-mulkiga bo'lgan mulkiy huquqini, shuningdek, unitar korxonada tomonidan uning faoliyati jarayonida egallagan mol-mulkiga bo'lgan mulkiy huquqini o'zida saqlab qoladi. Bunda mulkdor unitar korxonaning davlat ro'yxatidan o'tkazilishi paytiga kelib uning ustav fondini to'liq to'lashi shart.

Bu korxonaning mulki bo'linmasdir va u qo'shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo'yicha, shu jumladan, korxonada xodimlari o'rtasida ham taqsimlanmaydi. Unitar korxonaning mol-mulki unga xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida tegishlidir. Unitar korxonada o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulk bilan javob beradi. Unitar korxonada o'z mol-mulk egasining majburiyati bo'yicha javob bermaydi.

Unitar korxonaning ta'sis hujjati Ustav bo'lib, tegishli davlat idoralari ro'yxatdan o'tkaziladi. Qonunchilikning umumiy belgilangan me'yorlariga muvofiq, unitar korxonaning Ustavida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- firma nomi, manzili (pochta manzili);
- faoliyatining predmeti va maqsadlari;
- korxonaning faoliyatini boshqarish tartibi;



- ustav fondining miqdori, uni shakllantirishning tartibi va manbalari, uning ko'paytirilishi va kamaytirilishining tartibi;
- mol-mulkini tasarruf qilish shartlari;
- daromadni (foydani) taqsimlash va zararlarni qoplash tartibi;
- rahbarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi va hokazolar.

Ustavga qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa qoidalar ham kiritilishi mumkin.

FKning 71-moddasida belgilanishicha, yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan, xo'jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxonalar mulkdorning yoki u vakil qilgan organning qaroriga muvofiq tashkil etiladi. Korxonaning ta'sis hujjati belgilangan tartibda tasdiqlangan ustavidan iborat. Xo'jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxonalar o'z mol-mulkingning bir qismini xo'jalik yuritish uchun belgilangan tartibda topshirish yo'li bilan yuridik shaxs bo'lgan boshqa unitar korxonalar (sho'ba korxonalar) tashkil etilishi mumkin.

Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, davlat organining qaroriga muvofiq, davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida operativ boshqarish huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi (davlat korxonasi) tashkil etilishi mumkin. Operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat korxonasining firma nomi uning davlat korxonasi ekanligini ko'rsatib turadi, korxonaning mol-mulki yetarli bo'lmaganida davlat korxonalar majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

Davlat korxonasi uni tuzgan davlat organining qaroriga muvofiq qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin (FKning 72-moddasi).

**Davlat korxonasi** – davlat mulkidagi, o'ziga tezkorlik bilan boshqarish uchun berilgan mulk negizida tashkil etilgan davlat unitar korxonasi shaklidagi tijorat tashkilotidir, u o'ziga birlashtirilgan mulkdan qonunda belgilangan doirada, o'z faoliyati maqsadlariga, mulkdorning (yoki uning topshirig'iga ko'ra u vakolat bergan davlat organi – muassisning) topshiriqlariga

hamda egalik qilish huquqidagi mulkning maqsadiga muvofiq mulkdan foydalanishni va uni tasarruf etishni amalga oshiradi.

Davlat korxonasi ta'asis hujjati bu uning ustavidir. Davlat korxonasi ana shu ustav asosida ish olib boradi. Ustavda quyidagilar belgilanadi: korxonaning nomi, joylashgan yeri, mol-mulki va mablag'lari, xo'jalik faoliyati turi, faoliyat predmeti, mohiyatni tashkil qilish, unga haq to'lash, korxonaga boshqaruvi, hisoboti, korxonaga faoliyatini qayta tashkil qilish va tugatish haqidagi qoidalar.

Davlat korxonasi o'z ta'asischisi bilan kelishilgan holda, qonunchilik talablariga rioya qilgan holda filiallarni tuzish va vakolatxonalarini ochishga haqlidir. Davlat korxonasi filial tuzilishi yoki vakolatxonaga ochilishidan keyingi bir hafta muddat ichida bu haqda O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi (uning hududiy boshqarmasi) ni xabardor etishi lozim.

Davlat korxonasi filiallari va vakolatxonalarini ularni tuzgan davlat korxonasi nomidan davlat korxonasi tomonidan tasdiqlangan nizomlar asosida faoliyat yuritadi va ularni barpo etgan davlat korxonasi mol-mulki bilan ta'minlanadi. Davlat korxonasi filiali yoki vakolatxonasi rahbari davlat korxonasi ta'asischisi bilan kelishilgan holda uning rahbari tomonidan tayinlanadi va uning ishonchnomasi asosida ish yuritadi. Filial yoki vakolatxonasi rahbari bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda, ishonchnoma davlat korxonasi rahbari tomonidan bekor qilinishi lozim.

Davlat korxonasi barcha soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga to'lashdan keyin qolgan sof foydasi korxonaning tasarrufida qoladi va ta'asischining qaroriga ko'ra ishlatiladi. Davlat korxonasi uning tasarrufida qolgan sof foydasi hisobiga zaxira fondi va boshqa fondlarni, korxonaning ustavida nazarda tutilgan tartibda va miqdorda tuzishga haqlidir, ularning miqdori ta'asischi tomonidan tasdiqlanadi.

## **6-§. Ishlab chiqarish kooperativlari – yuridik shaxs sifatida**

Fuqarolarning shaxsiy ishtiroki, a'zolar (ishtirokchilar)ning mulki bilan qo'shiladigan pay badallarini birlashtirish asosida birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo'jalik faoliyatini olib borish uchun a'zolik negizidagi ixtiyoriy birlashmasi ishlab chiqarish kooperativi hisoblanadi. Qonunda va ishlab chiqarish kooperativining ta'sis hujjatlarida uning faoliyatida a'zolik asosida yuridik shaxslar ham ishtirok etishi nazarda tutilishi mumkin (FKning 69-moddasi).

Ishlab chiqarish kooperativining a'zolari kooperativning majburiyatlari bo'yicha qonunda va kooperativ ustavida nazarda tutilgan miqdorlarda va tartibda subsidiar javobgar bo'ladilar.

Kooperativning firma nomi kooperativ nomini va «ishlab chiqarish kooperativi» degan so'zlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish kooperativlarining huquqiy mavqeyi va a'zolarining huquqiy burchlari fuqarolik kodeksi hamda boshqa qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi. Kooperativ fuqarolar istagi bilan yoki yuridik shaxslarning tashabbusi bilan mutlaqo ixtiyorlik asosida tashkil etiladi. Kooperativ a'zolari bo'lgan fuqarolarning soni uch kishidan kam bo'lmasligi kerak.

Kooperativ mustaqil tarzda ham mulkning har qanday shakliga mansub korxonalar, muassasalar, tashkilotlar huzurida ham tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Kooperativning ustavi kooperativ ta'sis etishni istagan fuqarolarning umumiy yig'ilishida yoki yuridik shaxslar muxtor vakillarining yig'ilishida qabul qilinadi va kooperativ joylashgan yerdagi hokimlikda ro'yxatga olinadi. Kooperativning oliy boshqaruv irodasi umumiy yig'ilishi konferensiya, syezd bo'lib, ular kooperativ raisi (boshqaruvi)ni, taftish komissiyasi (taftishchi)ni saylaydi va ularga kooperativni boshqarish bo'yicha o'z vakolatlarini topshiradi.

Kooperativning mol-mulki o'z a'zolarining pul va moddiy badallari, banklarning kreditlari, o'zi ishlab chiqargan mahsulotlar, bu mahsulotlarni sotishdan, kooperativ ustavida nazarda tutilgan

o'zga xil faoliyatdan kelgan daromadlar hamda qonunlarda man etilmagan boshqa manbalar hisobiga hosil bo'ladi.

Ishlab chiqarish kooperativlari fuqarolarning ixtiyoriy birlashmasidan tashkil topadi. Ular birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo'jalik faoliyatini olib borish uchun o'z xohishlari bilan ushbu birlashmaga a'zo bo'ladilar. Birlashma fuqarolarning o'zlari shaxsan ishtirok etishi va ularning mulkiy badallarini qo'shish, ya'ni birlashtirish tamoyiliga asoslanadi. Qonunda va ishlab chiqarish kooperativining ta'sis hujjatlarida uning faoliyatida a'zolik asosida yuridik shaxslar ham ishtirok etishi nazarda tutilishi mumkin. Kooperativning majburiyatlari bo'yicha uning a'zolari qonunda va kooperativ ustavida nazarda tutilgan miqdorlarda va tartibda subsidiar (qo'shimcha), ya'ni ular kooperativning javobgarlikdan qutilishi uchun to'lashi kerak bo'lgan mablag'ining (mulkining) yetishmay qolgan qismi miqdorida javob beradilar.

Kooperativ a'zolarining umumiy majlisda tasdiqlangan ustav kooperativining ta'sis hujjati bo'lib hisoblanadi. FKning 43-moddasida ma'lumotlardan tashqari kooperativ a'zolarining qo'shadigan badallari, badallarning tarkibiy qismi, miqdorlari va badal qo'shishga oid majburiyatlarni buzganlik uchun ularning javobgarligi, kooperativ faoliyatida o'z mehnatlari bilan qatnashish tartibi va uning xarakteri, shuningdek, o'z mehnati bilan qatnashish haqidagi majburiyatlarni buzganlik uchun ularning (a'zolarining) javobgarligi, kooperativ daromadlari va ko'rgan zararlarini taqsimlash tartibi, kooperativ qarzlari bo'yicha subsidiar javobgarlikning shartlari va miqdori, kooperativni boshqaruv organlarining tarkibi va uning vakolat doirasi va qaror qabul qilishi tartibi, kooperativ a'zolarining barchasi yoki bir qismi ovoz berishi zarur bo'lgan masalalar haqida ma'lumotlar kooperativ ustavida nazarda tutilgan bo'lishi lozim.

### **Kooperativ quyidagi hollarda o'z faoliyatini tugatadi:**

1. Mol-mulk egasining yoki u vakolat bergan organning qaroriga yoxud sudning hal qiluv qaroriga muvofiq;

2. Agar ro'yxatga olingandan bir yil o'tgach ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatini boshlamasa yoki amalda to'xtatib qo'yilgach,

daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani topshirgan vaqtdan boshlab bir yil davomida faoliyatini boshlamasa;

3. Olti oydan ko'proq vaqt davomida to'lovga qobiliyatsiz bo'lsa;

4. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

Kooperativ tugatilgan taqdirda unga nisbatan haqdorlar va yollanib ishlovchilarning da'volari qondirilgandan keyin qolgan mol-mulk kooperativ a'zolari o'rtasida ustavda ko'rsatilgan tartibda taqsimlanadi.

## **7-§. Xususiy korxonalar – yuridik shaxs sifatida**

Yagona jismoniy shaxs mulkdor tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot xususiy korxonaga deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonaga tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonaga o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudga da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin. Xususiy korxonaga o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi.

Xususiy korxonaga mulkdori korxonaning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda, xususiy korxonaning majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulk bilan qonunchilikka muvofiq subsidiar javobgar bo'ladi<sup>1</sup>.

Xususiy korxonaga to'liq firma nomiga ega bo'lishi lozim va qisqartirilgan firma nomiga ega bo'lishga haqli. Xususiy korxonaning to'liq firma nomi uning to'liq nomini va «xususiy korxonaga» degan so'zlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Xususiy korxonaning qisqartirilgan firma nomi uning qisqartirilgan nomini va «xususiy korxonaga» degan so'zlarni yoki «XK» abbreviaturasini o'z ichiga olishi kerak.

---

<sup>1</sup> Batafsil qarang: O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda «Xususiy korxonaga to'g'risida»gi 558-II-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-yil, 3-son, 28-modda.

Xususiy korxonalar mulkdor tomonidan tuziladi, mulkdor unga tegishli mol-mulk beradi va uning ustavini tasdiqlaydi. Xususiy korxonalar, agar uning ustavida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, nomuayyan muddatga tuziladi.

Xususiy korxonalar qonunchilikda belgilangan tartibda boshqa yuridik shaxslarning muassisi bo'lishga yoki ularning ustav fondida o'zgacha tarzda ishtirok etishga, vakolatxonalar ochishga va filiallar tuzishga haqli.

Xususiy korxonalarining ta'sis hujjati uning ustavidir. Xususiy korxonalarining ustavida korxonalarining firma nomi, uning joylashgan yeri va pochta manzili to'g'risidagi ma'lumotlar, asosiy faoliyat turlarining ro'yxati, mulkdorning familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi, ustav fondining miqdori o'z ifodasini topishi lozim, bundan tashqari ustavda qonunchilikka zid kelmaydigan boshqa qoidalar ham belgilanishi mumkin.

Xususiy korxonalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. Xususiy korxonalar davlat ro'yxatidan o'tkazish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Xususiy korxonalarining ustav fondi bo'linmasdir va uni mulkdorning o'zi belgilaydi. Pul, qimmatli qog'ozlar, pul bilan baholanadigan boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar yoxud boshqa shaxsga beriladigan o'zga huquqlar xususiy korxonalarining ustav fondiga qo'shiladigan hissa bo'lishi mumkin. Mulkdor xususiy korxonalarining ustav fondiga o'zi kiritadigan mol-mulkni mustaqil baholaydi. Agar xususiy korxonalarining ustav fondi shakllantirilayotganda mulkdor o'z oila a'zolarining umumiy (ulushli yoki birgalikdagi) mulki hisoblangan mol-mulkni korxonaga berayotgan bo'lsa, ushbu mol-mulkning barcha mulkdorlaridan notarial tasdiqlangan rozilik olish talab etiladi.

Xususiy korxonalarining ustav fondini ko'paytirish va kamaytirish mulkdorning qaroriga ko'ra xususiy korxonalarining ustaviga o'zgartishlar kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi. Agar ikkinchi moliya yilining va shundan keyingi har bir moliya yilining yakunida xususiy korxonalar sof aktivlarining qiymati uning ustav fondidan kam ekanligi ma'lum bo'lib

qolsa, xususiy korxonada o'z ustav fondini o'zining sof aktivlari qiymatidan oshmaydigan miqdorda kamaytirishi shart. Xususiy korxonada sof aktivlarining qiymati qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlanadi.

Xususiy korxonada mulkdori korxonani rahbar sifatida yakka boshqaradi, korxonada nomidan ishonchnomasiz ish ko'radi, uning manfaatlarini ifodalaydi, xususiy korxonaning pul mablag'larini hamda boshqa mol-mulkini tasarruf etadi, shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalari tuzadi, ishonchnomalar beradi, banklarda hisob varaqlar ochadi, shtatlarni tasdiqlaydi, korxonaning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi.

Xususiy korxonada mulkdori xususiy korxonada ustaviga qonunchilikda belgilangan tartibda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish, xususiy korxonani qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida qaror qabul qilish, xususiy korxonaning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin qolgan foydasidan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanish, xususiy korxonaga tegishli mol-mulkni boshqa shaxsga berish, ijaraga berish, garovga qo'yish, boshqa yuridik shaxslarning ustav fondiga hissa sifatida kiritish yoki ushbu mol-mulkni boshqacha usulda tasarruf etish huquqiga ega. Xususiy korxonada mulkdori qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Xususiy korxonada mulkdori ustav fondini shakllantirishi, o'ziga qarashli korxonani yakka boshqarishi shart. Xususiy korxonada mulkdori zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Xususiy korxonada mulkdori o'zi vaqtinchalik bo'lmagan taqdirda shu muddatda rahbarlik vazifasini bajarib turishni boshqa jismoniy shaxs zimmasiga yuklash to'g'risida yozma qaror qabul qiladi. Xususiy korxonada mulkdori muvaqqat rahbarning xususiy korxonada mol-mulkini tasarruf etishga oid huquqini cheklab qo'yishi mumkin. Vafot etganligi, muomalaga layoqatsizligi, muomala layoqati cheklanganligi yoki bedarak yo'qolgan deb topilganligi oqibatida mulkdorning xususiy korxonada rahbari vazifasini bajarishi mumkin bo'lmay qolgan taqdirda xususiy

korxonani boshqarish fuqarolik qonunchiligiga va xususiy korxonaning ustaviga muvofiq amalga oshiriladi.

Xususiy korxonaning mol-mulki natsionalizatsiya va rekvizitsiya qilinmaydi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Xususiy korxonaning mulkdoriga rekvizitsiya qilinayotgan mol-mulkning bozor qiymatiga muvofiq kompensatsiyasi to'lanadigan tabiiy ofatlar, avariya, epidemiyalar, epizootiyalar va favqulodda tushdagi boshqa holatlar bundan mustasno.

Xususiy korxonalar qonunchilikka muvofiq, har qanday faoliyat turlarini amalga oshiradi. Xususiy korxonalar bitimlar tuzishda erkindir.

Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlari uchun qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlar, preferensiyalar va kafolatlar tatbiq etiladi.

Xususiy korxonaning foydasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng korxonalar mulkdorining tasarrufiga o'tadi hamda unga soliq solinmaydi.

Xususiy korxonalar faoliyatini tekshirish nazorat qiluvchi organlar tomonidan ko'pi bilan ikki yilda bir marta, belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Xususiy korxonalarining – kichik tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar ko'pi bilan to'rt yilda bir marta, boshqa xususiy korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar esa ko'pi bilan uch yilda bir marta amalga oshiriladi.

Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar – kichik tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran dastlabki uch yil mobaynida rejali tekshirishlardan o'tkazilmaydi.

Aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar – kichik tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyati, shuningdek xususiy korxonalar – kichik tadbirkorlik subyektlarining byudjet hamda markazlashtirilgan mablag'lar va resurslardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan



e'tiboran dastlabki ikki yil mobaynida rejali tekshirishlardan o'tkazilmaydi.

Xususiy korxonalar o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida qonunga muvofiq assotsiatsiyalarga (uyushmalarga) va boshqa birlashmalarga birlashishlari mumkin.

Xususiy korxonalar mulkdori xususiy korxonani mol-mulk majmuasi sifatida sotishga, hadya qilishga, vasiyat qilib qoldirishga yoki uni o'zgacha usulda boshqa shaxsga o'tkazishga haqli. Xususiy korxonalar boshqa shaxsga berilgan taqdirda, o'zining firma nomidan, tovar belgilaridan, xizmat ko'rsatish belgilaridan hamda mazkur xususiy korxonalar va uning mahsulotini, u bajarayotgan ishlarni yoki ko'rsatayotgan xizmatlarni individuallashtiruvchi o'zga vositalardan foydalanish huquqlari, agar qonunchilik hujjatlarida yoxud shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, yangi mulkdorga o'tadi.

Xususiy korxonalar uning mulkdori yoki sudning qaroriga ko'ra, qonunchilikda belgilangan tartibda qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin. Xususiy korxonalarining tuzilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

### **Tayanch iboralar:**

Tijoratchi tashkilotlar, to'liq shirkat, kommandit shirkat, mas'uliyati cheklangan jamiyat, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat, aksiyadorlik jamiyati, xususiy korxonalar, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxonalar.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Unitar korxonalar deb qanday korxonalar aytiladi?
2. Kooperativning majburiyatlari bo'yicha uning a'zolari javob beradimi?
3. Qo'shma korxonalarini tashkil etishning ham ijobiy ham salbiy jihatlari sanab bering.
4. Sho'ba xo'jalik jamiyati o'zining asosiy jamiyatining majburiyatlari bo'yicha javob beradimi?

5. Xususiy korxonada kim tomonidan va qancha muddatga tuziladi?

6. Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tuzish va faoliyatini tashkil etish qaysi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi?

7. Mas'uliyati cheklangan jamiyat ko'rinishidagi korporatsiyalar qachon va kimlar tomonidan kashf qilingan?

8. Xo'jalik jamiyatining ta'sis hujjatlariga nimalar kiradi?

9. Aksiyadorlik jamiyati ustavining huquqiy tabiati nima?

10. To'liq shirkat va kommandit shirkat o'rtasidagi farqni tushintiring.

### 1-§. Notijorat tashkilotlar tushunchasi

Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir<sup>1</sup>.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

Notijorat shakldagi tashkilotlarning turlari tijoratchi shakldagi tashkilotlarning turlariga nisbatan ko'proq desa ham bo'ladi. Ular nafaqat nodavlat, shuningdek, davlat tashkilotlaridan iborat bo'lishlari ham mumkin. FK 40-moddasining uchinchi qismiga muvofiq «Tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, jamoat fondi va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin».

Notijorat tashkilotning tijoratchi yuridik shaxslardan farq qiladigan asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) notijorat tashkilotlari mulkiy munosabatlarini professional ishtirokchisi hisoblanmaydi, ular asosan o'zining ustavida belgilangan maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin (FK 40-moddasining to'rtinchi qismi);

2) notijorat tashkilotlari o'zlariga tegishli bo'lgan mol-mulkdan ularning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan maqsadlar uchun foydalanishga ruxsat etiladi (FK 74-moddasining ikkinchi qismi);

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi 763-I-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1999-yil, 5-son, 115-moddasi.

3) notijorat tashkilotlar foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmaydilar (FK 40-moddasining birinchi qismi);

4) notijorat tashkilotlarining ma'lum darajada tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirishdan olingan daromadlari (foyda) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlanmaydi («Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonunning 2-moddasi).

Notijorat tashkiloti qatnashchilari (a'zolari) unga kirish paytida va butun a'zolik davomida tashkilotga o'tkazgan mol-mulkiga nisbatan mulkiy huquqqa ega bo'la olmaydilar. Tashkilotga kirish (a'zo bo'lish) ixtiyoriy hisoblanadi. Tashkilotdan chiqib ketadigan ishtirokchi (a'zo) uning mulkiga nisbatan talab qilish huquqiga ega bo'lmaydi.

Tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxslarning ro'yxatini (masalan, jamoat birlashmasi, jamoat fondi, muassasa va boshqa shakllari) uzil-kesil deb bo'lmaydi. Chunki tijoratchi bo'lmagan tashkilotlarning o'zgacha shakli mavjud bo'lishi ham mumkin. Lekin FK 40-moddasining uchinchi qismiga muvofiq tijoratchi bo'lmagan tashkilotlarning boshqa shakllari qonunda nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxs foyda olish maqsadida tadbirkorlik faoliyatini shaxsan o'zi yoki ushbu maqsadda uning tomonidan tuzilgan tijoratchi tashkilot amalga oshirishi mumkin. Tijoratchi bo'lmagan tashkilotning tadbirkorlik faoliyati uning qaysi tashkilot, ya'ni asosiy yoki u tomonidan tuzilgan tashkilot bo'lishidan qat'i nazar davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Mulk egasi tomonidan moliyaviy ta'minlanadigan davlat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruv organlarining va muassasalardan tashqari boshqa tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar ularning ta'sischi (ishtirokchilari) tomonidan berilgan pul mablag'lari va badallar hisobiga tashkil topgan mol-mulkning egasi hisoblanadilar.

Nodavlat notijorat tashkilotlari jamoat birlashmasi, jamoat fondi, muassasa shaklida, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqa shaklda tashkil etilishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari o'zlarining faoliyatini muvofiqlashtirib borish, shuningdek, umumiy manfaatlarini

ifodalash hamda himoya qilish maqsadida uyushmalar (ittifoqlar) shaklida birlashmalar tuzishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkiloti uning muassislari (a'zolari) qarori asosida qonunchilikka muvofiq tuziladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining uyushmalari (ittifoqlari) kamida ikkita nodavlat notijorat tashkiloti tashabbusi bilan tuzilishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotining tashabbuskorlari yoki muassislari ta'sis syezdini (konferensiyasini) yoki umumiy yig'ilishni chaqiradilar, unda ustav qabul qilinadi hamda rahbar organlari tuziladi.

Nodavlat notijorat tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran tuzilgan deb hisoblanadi va o'z faoliyatini olib boradi.

Nodavlat notijorat tashkilotini tashkil etishga doir tashkiliy tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- NNTni ro'yxatdan o'tkazish uchun hujjatlarni tayyorlash;
- Firma nomini berish;
- Emblemani ro'yxatdan o'tkazish;
- Nodavlat notijorat tashkiloti joylashadigan yerni tanlash va ijara shartnomasi tuzish;
- NNT faoliyatini moliyalashtirish manbalari to'g'risidagi deklaratsiya;
- Ro'yxatga olish yig'imini to'lash;
- Hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etish;
- NNTni davlat organlarida ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomili;
- Barcha mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarni yagona davlat reestriga kiritish.

Nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunchilikni buzgan taqdirda sud tomonidan to'xtatib qo'yilishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunchilik buzilgan, shuningdek, ustav maqsadlariga zid harakatlar sodir etilgan taqdirda, prokuratura

organlari yoki adliya organlari ko'rsatilgan qoidabuzarliklar to'g'risida mazkur nodavlat notijorat tashkilotining rahbar organlariga taqdimnoma kiritadi hamda bu qoidabuzarliklarni bartaraf etish muddatini belgilaydi. Agar bu qoidabuzarliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmasa, nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati prokuratura va adliya organlarining taqdimnomasi asosida sudning qarori bilan olti oygacha bo'lgan muddatga to'xtatib qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasining hududida favqulodda holat joriy etilgan taqdirda nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatini to'xtatib qo'yish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

Bugungi kunda nodavlat notijorat tashkilotlari demokratik qadriyatlar, odamlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlari sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, bandlikni ta'minlash va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash sohalaridagi dolzarb muammolarni hal qilish bo'yicha dasturlarni amalga oshirishga, shuningdek, huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish jarayoniga keng jalb qilinmoqda.

Nodavlat notijorat tashkiloti qonun bilan taqiqlanmagan hamda o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan maqsadlarga muvofiq bo'lgan faoliyatning har qanday turini amalga oshirishi mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda yildan yilga nodavlat notijorat tashkilotlarining samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Natijada ularning soni yildan yilga o'sish bilan birga, faoliyat ko'rsatish sohaları kengayib bormoqda. Masalan, 1991-yilda Respublikamizda 100 ga yaqin NNTlar mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib ularning soni 9 478 tani tashkil etadi.

Ushbu tashkilotlarning 6 561 tasi jamoat birlashmasi, 434 tasi muassasa, 488 tasi jamoat fondi va 1 995 tasi boshqa tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilgan.

Nodavlat notijorat tashkilotlari ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohaning turli yo'nalishlarida, xususan, tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida – 2 000 dan ortiq, ekologiyani asrash sohasida – 100 dan ortiq, sportni rivojlantirish sohasida – 1200 dan ortiq, imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasida – 600 dan ortiq, yoshlarni qo'llab-quvvatlash sohasida – 600 dan ortiq, ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilishda – 300 dan ortiq, faxriylarni qo'llab-quvvatlash sohasida – 400 dan ortiq, milliy madaniy aloqalarni va millatlararo do'stlikni rivojlantirish sohasida – 200 dan ortiq, xodimlarning huquqlarini himoya qilish sohasida – 570 dan ortiq, ta'lim, fan va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish sohasida – 240 dan ortiq, sog'liqni saqlash sohasida – 220 dan ortiq, OAV va jurnalistikani rivojlantirish sohasida – 30 ga yaqin, madaniyat, tarix va ma'rifat sohasida – ortiq NNT va ularning hududiy bo'limlari mavjud.

## **2-§. Matlubot kooperativi – yuridik shaxs sifatida**

Matlubot kooperativi tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxs hisoblanadi. Amaldagi FKning 73-moddasiga asosan ishtirokchilarning moddiy (mulkiy) ehtiyojlarini qondirish maqsadida fuqarolarning a'zoligiga asoslangan ixtiyoriy birlashmasi matlubot kooperativi hisoblanadi va birlashuv uning a'zolari tomonidan o'z mulkiy (pay) badallarini qo'shish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Matlubot kooperativining tashkiliy-huquqiy shakli uni notijorat tashkilotlar tizimida obyektiv ajratib ko'rsatuvchi va uni boshqa shakllaridan jiddiy darajada farqlab turuvchi muayyan fuqarolik-huquqiy belgilar va mexanizmlarning majmuidan iborat<sup>1</sup>.

Matlubot kooperativining oliy boshqaruv organi kooperativ a'zolarining umumiy yig'ilishi hisoblanadi.

Matlubot kooperativi ustavida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak: uning nomi, manzili, faoliyatining maqsadlari, kooperativ a'zolari qo'shadigan pay badallarining miqdori, kooperativ a'zolari

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. I jild. – Toshkent: «Vektor-Press» nashriyoti, 2010. – B. 225.

pay badallarining tarkibi va ularning qo'shish tartibi, badalni qo'shish majburiyatini buzganlik uchun javobgarlik, kooperativni boshqarish organlarining tarkibi va vakolatlari, ular tomonidan qarorlar qabul qilish tartibi, shu jumladan, qarorlar bir ovozdan yoki ovozning ko'pchiligi bilan qabul qilinadigan masalalar va shuningdek, kooperativ ko'rgan zararlarni kooperativ a'zolari tomonidan to'lash tartibi, kooperativning qayta tashkil etilishi va faoliyatining tugatilishi, matlubot kooperativining filiallari va vakolatxonolari to'g'risidagi masalalar ko'rsatiladi.

Matlubot kooperativining nomidan uning faoliyatining asosiy maqsadi ko'rsatilishi, shuningdek, «kooperativ» so'zi yoki «matlubot jamiyati» degan so'zlar bo'lishi kerak.

Matlubot kooperativining a'zolari uning majburiyatlari bo'yicha har bir kooperativ a'zosi to'laydigan qo'shimcha badalning to'lanmagan qismi doirasida subsidiar javobgar bo'ladilar. Bu holda kooperativ a'zolari solidar javob beradilar (FK 73-moddasining beshinchi qismi).

Matlubot kooperativining a'zolari ko'rilgan zararni yillik balans tasdiqlanganidan keyin uch oy mobaynida qo'shimcha badallar to'lash yo'li bilan qoplashlari shart. Ushbu burch bajarilmagan taqdirda, kooperativ kreditorlarning talablariga muvofiq sud tomonidan tugatilishi mumkin.

Matlubot kooperativining a'zolari uning majburiyatlari bo'yicha har bir kooperativ a'zosi to'laydigan qo'shimcha badalning to'lanmagan qismi doirasida subsidiar javobgar bo'ladilar. Bu holda kooperativ a'zolari solidar javob beradilar.

Matlubot kooperativining tijorat faoliyatiga nisbatan FKning tijoratchi tashkilotlar to'g'risidagi qoidalari qo'llaniladi.

Matlubot kooperativlarining huquqiy maqomi, shuningdek, ular a'zolarining huquq va burchlari FKga va boshqa qonunlarga muvofiq belgilanadi.

### **3-§. Jamoat birlashmalari – yuridik shaxs sifatida**

O'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning



boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasi deb ataladi.

Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etiladi<sup>1</sup>.

Amaldagi FKning 74-moddasida ko'rsatilganidek, «Ma'naviy yoki o'zga nomoddiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmalari jamoat birlashmalari hisoblanadi».

Jamoat birlashmalariga O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarolari a'zo bo'lishi mumkin. A'zolik yakka tartibdagi ariza yoki tashkilot a'zolari sonini hisobga olish imkonini beruvchi hujjat asosida rasmiylashtiriladi. Jamoat tashkilotining oliy rahbarlik organi syezd (konferensiya) yoki umumiy yig'ilish hisoblanadi. Jamoat tashkilotining doimiy faoliyat olib boruvchi rahbarlik organi syezd (konferensiya) yoki umumiy yig'ilishga hisobot beradigan saylanadigan ijro organi hisoblanadi<sup>2</sup>.

Jamoat birlashmalari o'z ustavlarida nazarda tutilgan ishlab chiqarish yoki o'zga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga haqidirlar.

Jamoat birlashmalarining ishtirokchilari (a'zolari) ushbu birlashmalarga mulk qilib bergan mol-mulklariga, shu jumladan a'zolik badallariga bo'lgan huquqlarini saqlab qolmaydilar. Ular a'zo sifatida ishtirok etayotgan jamoat birlashmalarining

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi 223–XII-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-yil., 4-son, 76-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. I jild. – Toshkent: «Vektor-Press» nashriyoti, 2010. – B. 230.

majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar, mazkur birlashmalar esa – o'z a'zolarining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar.

Jamoat birlashmalari huquqiy mavqeyining xususiyatlari qonunchilik bilan belgilanadi.

Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish; fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish; kasb-kor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish; ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish; aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish; madaniy-ma'rifiy, fizkultura-sog'lomlashtirish va sport ishlarini o'tkazish; tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi; respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlash; qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi.

Faoliyati jamiyatning axloqiy negizlarini, umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini buzishga qaratilgan, shuningdek, konstitutsion tuzumni g'ayriqonuniy yo'l bilan o'zgartirish yoki O'zbekiston Respublikasi hududining birligini buzish, urushni, zo'raonlikni va shafqatsizlikni, jamiyatni parchalashga olib boradigan ijtimoiy, shu jumladan, sinfiy, shuningdek, irqiy, milliy va diniy adovatni avj oldirish, qonun bilan taqiqlangan boshqa xatti-harakatlar qilish maqsadini ko'zlaydigan jamoat birlashmalarining tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jamoat birlashmasi kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi.

Jamoat birlashmasini tuzish tashabbuskorlari ta'sis syezdini (konferensiyasini) yoki umumiy yig'ilishini chaqiradilar, unda ustav (nizom, o'zga asosiy hujjat) qabul qilinadi va rahbar idoralar tuziladi.

O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi xalqaro, jamoat tashkilotlarining respublika, viloyatlararo birlashmalarining ustavleri O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida jamoat birlashmasining ustavini ro'yxatga olish tartibi Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

Viloyat, tuman, shahar, posyolka, qishloq hududida yoki ikki va undan ortiq nohiya, shahar, posyolka, qishloq hududida faoliyatini amalga oshiradigan jamoat birlashmalarining ustavleri viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklarining adliya boshqarmalari tomonidan ro'yxatga olinadi.

Jamoat birlashmalari va ularning tashkilotlari ustavi ro'yxatga olingandan boshlab yuridik shaxs huquqini oladi. Siyosiy partiyalar xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas.

Jamoat birlashmasining har bitta alohida ishtirokchisi yoki hatto jamoat tashkilotining a'zosi undan chiqqan holda ham, jamoat birlashmasiga tegishli mol-mulkdan ulush olish huquqiga ega bo'lmaydi.

Jamoat birlashmasi yuridik shaxs sifatida o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli mol-mulk bilan javob beradi, biroq o'z ishtirokchilari yoki a'zolarining majburiyatlari uchun javobgar hisoblanmaydi. Jamoat birlashmalarining ishtirokchilari yoki a'zolari ham jamoat birlashmalarining majburiyatlari uchun javobgar bo'lmaydi<sup>1</sup>.

Jamoat birlashmalari ramz sifatida o'z timsoliga, bayrog'iga va vimpeliga ega bo'lishi mumkin.

Jamoat birlashmalari qonun oldida tengdirlar. Jamoat birlashmalarining huquqlari ularning ustavlarida qayd etiladi.

Jamoat birlashmalari ixtiyoriylik asosida jamoat birlashmalarining ittifoqlariga uyushishga haqlidirlar.

Jamoat birlashmalari faoliyati asosan O'zbekiston Respublikasining «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi, «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi, «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi qonunlari bilan tartibga solinadi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. I jild. – Toshkent: «Vektor-Press» nashriyoti, 2010. – B. 232.

#### **4-§. Jamoat fondlari – yuridik shaxs sifatida**

Fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qoʻshish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, maʼrifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni koʻzlaydigan, aʼzolari boʻlmagan nodavlat notijorat tashkiloti jamoat fondi hisoblanadi. (FKning 75-moddasi).

Jamoat fondiga uning muassislari (muassisi) yoki vasiyat qiluvchi tomonidan oʻtkazilgan mol-mulk fondning mulkidir. Fond muassislari (muassisi) yoki fond vasiyatnoma boʻyicha tashkil etilganda vasiyatnomani ijro etuvchi fondning majburiyatlari boʻyicha javob bermaydilar. Fond esa, oʻz muassislari (muassisi) ning yoki vasiyatnomani ijro etuvchining majburiyatlari uchun javob bermaydi.

Jamoat fondining mol-mulkidan oʻz ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish hamda maʼmuriy xarajatlarni qoplash uchun foydalaniladi. Jamoat fondi qonunchilikka muvofiq, oʻz ustavida nazarda tutilgan maqsadlarga toʻgʻri keladigan doirada tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanishga haqli. Jamoat fondlarining tijorat tashkilotlari ustav fondi (ustav kapitali)dagi ishtiroki qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Jamoat fondlari har yili oʻz faoliyati toʻgʻrisida hisobot eʼlon qilishi shart.

Oʻzbekiston Respublikasida respublika fondlari hamda mahalliy fondlar tashkil etiladi va faoliyat koʻrsatadi.

Faoliyatini oʻz ustaviga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi hududida yoki ikki yoxud undan ortiq viloyat (Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Toshkent shahri) hududida amalga oshiradigan fondlar respublika fondlari jumlasiga kiradi.

Faoliyatini oʻz ustaviga muvofiq tuman(lar), shahar(lar), viloyat yoki Qoraqalpogʻiston Respublikasi hududida amalga oshiradigan fondlar mahalliy fondlar jumlasiga kiradi.

**Fondni davlat roʻyxatidan oʻtkazish va qayd etishda quyidagi hujjatlar roʻyxatdan oʻtkazuvchi organga taqdim etiladi:**

– muassislar (muassis) yoki ular (u) vakolat bergan shaxslar (shaxs) tomonidan imzolangan roʻyxatdan oʻtkazish toʻgʻrisidagi,

ularning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili va yashash joyi (pochta manzili) ko'rsatilgan ariza;

– agar fond vasiyatnoma bo'yicha tashkil etilayotgan bo'lsa, vasiyatnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;

– ta'sis yig'ilishi (syezdi, konferensiyasi) yoki muassis (fond bir yuridik shaxs tomonidan tashkil etilayotgan bo'lsa) tomonidan qabul qilingan, fond muassislari (muassisi) to'g'risidagi ma'lumotlar, fondning maqsad va vazifalari ko'rsatilgan qaror;

– fond ustavidan ikki nusxa;

– ro'yxatga olish yig'imi to'langanligi to'g'risidagi bank to'lov hujjati;

– fondning dastlabki mablag'lari shakllanganligini tasdiqlovchi hujjat.

«Jamoat fondlari to'g'risida»<sup>1</sup> Qonunning 14-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan hujjatlar muassislar (muassis) fondni tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilgan kundan e'tiboran ikki oy ichida davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etiladi. Fond vasiyatnoma bo'yicha tashkil etilayotgan bo'lsa, mazkur hujjatlar merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berilganidan keyin ikki oy ichida taqdim etiladi.

**Chet el fondlarining vakolatxonalari va filiallari davlat ro'yxatidan o'tkazilishi uchun quyidagi hujjatlar ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etiladi:**

- ro'yxatga olish to'g'risida fond vakolatli organining arizasi;
- fondning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan, fondning vakolatxonasi yoki filiali to'g'risidagi nizom;
- vakolatxona yoki filial mol-mulkini boshqarish uchun fondning vakolatli organi tomonidan berilgan ishonchnoma;
- fondning ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma va ustavning yoki ularning o'rnini bosuvchi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustdagi «Jamoat fondlari to'g'risida»gi 527-II-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, 9–10-son, 141-modda.

hujjatlarning belgilangan tartibda legallashtirilgan hamda davlat tiliga tarjima qilingan matni;

- ro'yxatga olish yig'imi to'langanligi to'g'risidagi bank to'lov hujjati.

**Respublika fondlari va mahalliy fondlarning vakolatxonalari hamda filiallari qayd etilishi uchun quyidagi hujjatlar ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etiladi:**

- fond boshqaruvining fond vakolatxonasini ochish yoki filialini tashkil etish to'g'risidagi qarori;
- fond boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan, fondning vakolatxonasi yoki filiali to'g'risidagi nizom;
- vakolatxona yoki filial mol-mulkini boshqarish uchun fond boshqaruvi tomonidan berilgan ishonchnoma;
- fond ustavining va fond davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxalari.
- Jamoat fondini boshqarish va uning organlarini shakllantirish tartibi ustav bilan belgilanadi.

**Fond ustavida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:**

- jamoat fondining nomi;
- fondning joylashgan yeri (pochta manzili);
- fondning maqsad va vazifalari;
- fond organlarining tuzilishi, vakolatlari va shakllantirish tartibi;
- fond organlarining mansabdor shaxslarini tayinlash (saylash) va lavozimidan ozod qilish tartibi;
- fondning mol-mulkini shakllantirish manbalari, vakolatxonalari hamda filiallarining mol-mulkni boshqarish borasidagi huquq va majburiyatlari;
- fond vakolatxonalarini ochish va filiallarini tashkil etish tartibi;
- fondni qayta tashkil etish va tugatish tartibi;
- fond tugatilgan taqdirda uning mol-mulkidan foydalanish tartibi;
- fond ustaviga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish tartibi.

Fond ustavida fondning tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan ramziy belgisining tavsifi, shuningdek, qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa qoidalar ham bo'lishi mumkin.

Jamoat fondining ustavida fondning belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan ramziy belgisining tavsifi, shuningdek, qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa qoidalar ham bo'lishi mumkin.

### **Fond quyidagi huquqlarga:**

- mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar asosida mol-mulkli bo'lishga;
- fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzishga;
- xayriyalar, badallar, grantlar va boshqa mablag'lar olishga;
- sudda, boshqa organlar va tashkilotlarda o'z manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilishga;
- ommaviy axborot vositalari ta'sis etish va noshirlik faoliyatini amalga oshirishga;
- o'z faoliyati to'g'risida ma'lumotlar tarqatishga;
- vakolatxonalar ochish va filiallar tashkil etishga;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga belgilangan tartibda takliflar kiritishga;
- xalqaro aloqalar o'rnatish, hamkorlik to'g'risida bitimlar tuzish hamda xalqaro dasturlar va loyihalarda ishtirok etishga haqli.
- Fond qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### **Fondning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:**

- o'z faoliyatini qonunchilikka va fondning ustaviga muvofiq amalga oshirishi;
- fond faoliyatining oshkoraligini ta'minlashi va fondning mol-mulkidan foydalanilishi to'g'risida har yili hisobotlar e'lon qilishi;
- ro'yxatdan o'tkazuvchi organ vakillariga fond o'tkazadigan tadbirlarga erkin kirish imkoniyatini berishi;
- o'z faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati va davlat statistika organlariga hisobotlar taqdim etishi shart.

Fond zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Fond O'zbekiston Respublikasi hududida va boshqa davlatlarda vakolatxonalar ochishi hamda filiallar tashkil etishi mumkin.

Fondning vakolatxonasi fondning o'zi turgan yerdan tashqarida joylashgan hamda uning manfaatlarini ifodalaydigan va himoya qiladigan alohida bo'linmasi hisoblanadi.

Fondning filiali fondning u turgan yerdan tashqarida joylashgan hamda uning barcha vazifalarini yoki vazifalarining bir qismini, shu jumladan, vakolatxona vazifalarini bajaradigan alohida bo'linmasidir.

Fondning vakolatxonalari va filiallari fond nomidan ish ko'radi hamda ustavda belgilangan maqsad va vazifalarning amalga oshirilishi uchun fond oldida mas'uldir. Fondning O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan vakolatxonalari va filiallari yuridik shaxs bo'lmaydi, Jamoat fondlari to'g'risidagi qonunning tegishli moddlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Vakolatxonalar va filiallarni fond mol-mulk bilan ta'minlaydi. Vakolatxona va filialning mol-mulki alohida balansda hamda fondning balansida hisobga olinadi. Fondning vakolatxonalari va filiallari fond boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida faoliyat ko'rsatadi.

Chet el fondlari O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq o'z vakolatxonalarini ochishi va filiallarini tashkil etishi mumkin.

Chet el fondlarining O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan vakolatxonalari va filiallari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi kerak.

Chet el fondlarining O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan vakolatxonalari va filiallariga, qonunda boshqacha qoidalar belgilangan bo'lmasa, fondlarning tashkil etilishi, faoliyat yuritishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan qoidalar tatbiq etiladi.

Jamoat fondlari asosan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, «Jamoat fondlari» va «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi qonunlari bilan tartibga solinadi.



## 5-§. Muassasalar – yuridik shaxs sifatida

Muassasalar bundan ikki yarim ming yil avval qadimgi Rim davlatida vujudga kelgan. Ular o'zining vujudga kelish vaqtidan boshlab deyarli besh asr o'tgunga qadar juda ham sekinlik bilan rivojlanib borgan. Rim huquqiga oid manbalarda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan ko'pgina xayriya muassasalari haqida ta'kidlanadi. Bunday muassasalarga cherkovlar, kasalxonalar, maktablar, mehribonlik uylari, harbiylar uchun maxsus kasalxonalar kabi tashkilotlar kirar edi. Miloddan avvalgi II asrga kelib Rim imperatorlarining xayrixohligi natijasida muassasalarning soni ham, turlari ham ko'payib bordi.

Qadimgi Rimda xayriya muassasalari orasida yetim qolgan bolalar va juda qashshoq hayot kechiruvchi oilalardagi farzandlarni o'z bag'riga olgan va ularga har tomonlama yordam ko'rsatgan «**alimenta**» deb atalgan muassasalar mavjud bo'lgan. Aliment muassasalari mil. avv. I asrda Rim imperatori Nerva (mil. avv. 33-yil) hukmronligi davrida vujudga kelgan. Bu muassasalar keyinchalik shaxsan imperatorlar tomonidan vujudga keltirila boshlangan. Ular imperatorlarning buyrug'i bilan shaharning mansabdor shaxslari tomonidan moddiy jihatdan ta'minlab turilgan. Bu jarayonda shaxsan kvestor (konsulning sudlov va moliyaviy ishlar bo'yicha yordamchisi) ham qatnashgan. Aliment muassasalari faqatgina insonparvarlik maqsadida faoliyat yuritib, ko'rsatilgan yordamlarning barchasi beg'araz hisoblangan. Alimentdan nafaqat yetim bolalar va og'ir sharoitdagi oilalarning farzandlari, balki voyaga yetgan bo'lsa-da, siyosiy jarayonlarda qatnasha olmaydigan bolalar ham, yetim qolgan va yolg'iz qizlar ham foydalanganlar. Jumladan, 821–61-yillarda Rimda yetim qolgan qizlar uchun alohida stipendiyalar (**stipendium**) ajratilar edi. Aliment muassasalarining ko'payishida va rivojlanishida Pliniy, Antonin Piy, Septimiy Sever (222–235-y.) kabi imperatorlarning faoliyati katta rol o'ynagan.

Bu muassasalarning huquqiy maqomi haqida shuni aytish mumkinki, ular fuqarolik huquqiy munosabatlarda yuridik shaxs sifatida qatnasha oladigan, aniq bir xayriya maqsadlarida faoliyat

olib boradigan va o'zining jamg'armasiga ega bo'lgan tashkilotlar edi.

Davlat muassasalari yuridik shaxs sifatida davlat byudjetida turadigan va mustaqil smetaga ega bo'ladigan davlat muassasalari ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat, jumladan, ma'muriy idora etish yoki ijtimoiy ma'naviy ishlarni boshqarishni amalga oshiradi. **Bular jumlasiga mustaqil smetaga, rahbarlarni kredit taqsimlash huquqiga ega muassasalar:**

- shifoxonalar
- ta'lim muassasalari
- teatrlar
- muzeylar
- sudlar
- prokuratura va boshqalar kiradi.

Yuridik shaxs hisoblangan davlat muassasalari o'z nizomlari doirasida o'zlari yuritayotgan vazifalarni amalga oshirib, turli fuqarolik huquqiy bitimlar tuzadilar, o'zlariga birlashtirilgan mulkdan operativ boshqarish huquqi asosida foydalanadilar. Davlat organlari o'z qarzlari uchun javobgar bo'ladi. Biroq mablag'i yetmasa, belgilangan tartibda davlat ham uning uchun javobgar bo'lishi mumkin<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 76-moddasiga asosan «Boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladigan tashkilot muassasa hisoblanadi».

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida byudjet muassasalari tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish va ulardan samarali foydalanish kabi ta'sirchan shakllarni qo'llashni talab etadi.

Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida muassasalarning huquqiy maqomi ularni fuqarolik muomalasidagi ishtiroki va

---

<sup>1</sup> I.B. Zokirov. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2006. B.131.

tartibi tubdan o'zgardi. Amaliyotning ko'rsatishicha, hozirgi kunda davlat muassasalari faqatgina davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobidan faoliyat ko'rsatishdan tashqari, o'zlarining nizomlarida belgilangan tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqdalar.

## **6-§. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs sifatida**

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bugungi kunda katta kuch bo'lib, uni davlat oldida turgan vazifalarni hal qilishga mohirona yo'naltirish alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishni o'zini o'zi boshqarish organlarisiz tasavvur qilish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuniga<sup>1</sup> asosan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir.

Shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek, shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar yig'inlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonunchilik bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hudud doirasida amalga oshiradi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda hisobga olinishi lozim.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-apreldagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'RQ-350-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil, 17-son, 219-modda.

Fuqarolar shaharchalar, qishloqlar, ovullar va mahallalarda o'zini o'zi boshqarishga doir o'z konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlariga muvofiq fuqarolar yig'inlari orqali amalga oshiradilar.

Fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, bevosita hamda o'zlarining saylab qo'yiladigan vakillari orqali o'zini o'zi boshqarishni amalga oshirishda teng huquqlarga egadir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishga doir huquqlarini cheklash taqiqlanadi.

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:**

- demokratizm;
- oshkoralik;
- ijtimoiy adolat;
- insonparvarlik;
- mahalliy ahamiyatga molik masalalarni yechishda mustaqillik;
- jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam.

Mahalliy o'z-o'zini boshqaruv organlari ichida mahalla alohida o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasida 1990-yil 31-oktyabrda qabul qilingan «Mulkchilik to'g'risida»gi qonunining 10-moddasida «mahallalar egalik qiladigan, foydalanadigan va tasarruf etadigan mol-mulk mahalla aholisining birgalikdagi mehnat faoliyati yoki ularning mushtarak daromadlari, shuningdek, mazkur mol-mulkdan xo'jalik maqsadlarida foydalanishdan kelgan tushumlar, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari moddiy va xayriya yo'sinidagi yordamlari, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari beradigan moddiy va moliyaviy resurslar asosida vujudga keltirilgan mol-mulkdan iborat» deyiladi.

Mahallada istiqomat qiluvchi aholi mahalla mulkining subyektidir. O'zi saylab qo'ygan organlar mahalla mulkini to'la xo'jalik yuritish asosida egallaydi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni 8-moddasining uchinchi qismiga asosan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish

organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, belgilangan namunadagi muhrga ega bo'ladi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlarida hisobga olinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5938-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-iyundagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

### **Mazkur qaror bilan:**

- fuqarolar yig'inlari toifalarini, faoliyatining asosiy prinsiplarini, huquqiy maqomi, organlari, komissiyalari va jamoatchilik tuzilmalarini, yig'in raisi (oqsoqoli), uning o'rinbosarlari va maslahatchilarining vakolatlarini, yig'inlar faoliyatining hisobi va hisobotini, shuningdek, ularni qayta tashkil etish va tugatish tartibini nazarda tutuvchi Fuqarolar yig'ini to'g'risidagi namunaviy nizom;

- fuqarolar yig'inlaridagi komissiyalarning huquqiy maqomi, asosiy vazifalari, huquqlari va majburiyatlari, ularning a'zolariga qo'yiladigan talablarni, faoliyatini tashkil etish tartibini nazarda tutuvchi Fuqarolar yig'ini komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizom;

- fuqarolar yig'inlaridagi jamoatchilik tuzilmalarining maqsadi, asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlarini hamda uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilovchi Fuqarolar yig'ini huzuridagi jamoatchilik tuzilmalari to'g'risidagi nizom;

- fuqarolar yig'ini raisiga (oqsoqoliga) guvohnoma va ko'krak nishoni berish, ularning shakli, guvohnoma blankalarini tayyorlash, hisobga olish, foydalanish hamda saqlash tartibini belgilovchi Fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) guvohnomasi va ko'krak nishoni to'g'risidagi nizom;

- fuqarolar yig'inlarida ish yuritishni tashkil etish, boshqaruv hujjatlarini tayyorlash hamda ularning ijrosini

ta'minlash, yig'inga tushgan hujjatlarni ro'yxatga olish masalalarini tartibga soluvchi Fuqarolar yig'inlarida ish yuritishni tashkil qilish va olib borish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mahallaning o'rni hamda rolini yanada oshirishga xizmat qiladigan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Avvalo, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy asosini bugungi kun talablari darajasida takomillashtirish ayni muddaodir.

Bugungi kunda asosiy vazifalardan yana biri joylarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda mahallalarning davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro ijtimoiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishdan iboratdir.

Shuningdek, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini hamda aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, jamiyatning ma'naviy-axloqiy tafakkurini yuksaltirish, joylarda qonunchilik, davlat hamda hududiy dasturlarning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini kengaytirish, «Oila» institutini rivojlantirish va mustahkamlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Ayni chog'da, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda yoshlar ishtirokini kengaytirish, sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish bo'yicha fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirish bizni ko'zlangan maqsad sari yanada yaqinlashtiradi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-iyundagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-380-sonli Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.06.2021-y., 09/21/380/0574-son; 10.08.2022-y., 09/22/438/0726-son.

Tabiiyki, bu vazifalarni uddalash har bir mahalla va unda istiqomat qilayotgan har bir fuqarodan yuksak mas'uliyat va fidoyilikni talab qiladi.

## **7-§. Yuridik shaxslarning birlashmalari**

Yuridik shaxslarning birlashmalari deb a'zolik tamoyiliga asoslangan, o'zlarining tadbirkorlik faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, mushtarak mulkiy manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan notijorat uyushmalarga (ittifoqlarga) aytiladi.

Yuridik shaxslarning uyushmalari va ittifoqlari tijoratchi bo'lgan, shuningdek, tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi. Uyushma (ittifoq)ning o'zi notijorat yuridik shaxsdan iborat bo'lib, uning tarkibiga kirgan tijoratchi va notijoratchi yuridik shaxslar (tashkilotlar) uyushmaning (ittifoqning) a'zolari (ishtirokchilari) bo'lib hisoblanadi. Uyushmaning ushbu a'zolari o'z o'rnida uning ta'sischiylari hisoblanadi.

Agar a'zolarining, ya'ni ishtirokchilarning (yuridik shaxslarning) qaroriga muvofiq ularga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish vazifasi yuklatilsa, ular xo'jalik jamiyati yoki shirkatlarga aylanadi (FKning 77-moddasi).

Yuridik shaxslar uyushmalar (ittifoqlar)ga va boshqa birlashmalarga qonunga muvofiq birlashishlari mumkin. Bunday birlashmalar tijoratchi va tijoratchi bo'lmagan tashkilotlardan iborat bo'lishi mumkin. Ular yuridik shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini muvofiqlashtirish va manfaatlarni himoya qilish maqsadida tuziladi. Birlashmalar (assotsiatsiyalar, ittifoqlar) tarkibiga kirgan yuridik shaxslar o'z mustaqilligini saqlab qoladi. Ular umumiy qoidaga ko'ra tijoratchi deb hisoblanmaydi. Uyushmaning yuridik shaxs hisoblanishi uning a'zolarining o'z mustaqilligini va yuridik shaxs huquqlarini saqlab qolishga to'sqinlik qilmaydi. Uyushma a'zolari (uyushmaga kirgan yuridik shaxslar) uning majburiyatlari bo'yicha uyushmaning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorida va tartibda subsidiar javobgar bo'lishlari mumkin.

FKning 77-moddasida yuridik shaxslarning birlashmalari sifatida faqat uyushma va ittifoqlarga e'tibor beriladi. Chunki birlashmalarning boshqa turlari (konsernlar, konsorsiumlar, korporatsiyalar) aksiyadorlar jamiyatlari va xo'jalik shirkatlari shaklida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin. FKning 77-moddasiga tijoratchi bo'lmagan birlashmalarning shakllari sifatida uyushma va ittifoqlarga bag'ishlangan qoidalar nazarda tutiladi.

Uyushma bilan ittifoq tushunchalari o'rtasida ham qisman farq mavjud. Uyushmani ifodalovchi asosiy belgi tarkibiy qismining bir xil bo'lishidan, ittifoqning esa har xil bo'lishidan iborat. Uyushma tarkibiy qismining bir xil bo'lishi unda ishtirok etuvchilarning shakl jihatdan umumiy bo'lishi bilan (masalan, aksiyador jamiyatlarning uyushmalari), faoliyati jihatidan iqtisodning bitta yoki aralash sohalarga (masalan, neft sanoati korxonalarining uyushmasi) tegishli bo'lishi bilan belgilanadi.

«O'zbekiston transport va transport kommunikatsiyalari uyushmasini tashkil etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan «O'zbekiston temir yo'llari» davlat aksiyadorlik kompaniyasi, O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi, «O'zavtoyo'l» DAK, transport kommunikatsiyalari qurilishi bilan shug'ullanuvchi respublika loyiha va qurilish kabi tashkilotlar ushbu uyushma tarkibiga kiradi.

Qonunchilik amaliyotida «uyushma» bilan «ittifoqlar» tushunchalar ma'nosiga va ularning bir-biridan farq qilishiga alohida e'tibor berilmaydi. Ba'zan faoliyat jihatdan bir turdagi bo'lgan tashkilotlar birlashmalari to'g'risidagi Qonunlarda ushbu tushunchalar birgalikda foydalaniladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonunining 10-moddasi ikkinchi qismida ushbu tashkilotlar «uyushmalar (ittifoqlar)» shaklida birlashmalar tuzilishi mumkinligi nazarda tutiladi. «Homiylilik to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasi ikkinchi qismida homiylilik tashkilotlarining nodavlat notijorat tashkilotlar hisoblanuvchi «uyushmalar (ittifoqlar)» birlashmalari tuzishi mumkinligi nazarda tutiladi.



Ittifoqning umumiy maqsadi muvofiqlashtirish, vakolatlik qilish bilan bir qatorda, muayyan hududning manfaatlarini himoya qilish (masalan, fan-texnika, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at muassasalarining ittifoqlari) bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi savdo-sanoat palatasi to'g'risida»<sup>1</sup> Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tadbirkorlik tashabbusini amalga oshirish uchun qulay huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlarni ta'minlash, biznes hamjamiyati hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, boshqa organlar va tashkilotlar o'rtasida o'zaro manfaatli sheriklikni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilashga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini barcha choralar bilan qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etildi. Savdo-sanoat palatasi yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan nodavlat notijorat tashkilot hisoblanadi.

Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tuziladigan hududiy boshqarmalar bilan birgalikda yagona tizimni tashkil etadi. Ushbu tizimga kirgan tadbirkorlikning turli sohalarida (ishlab chiqarish, savdo-sotiq, ishni bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi va h.k.) faoliyatini mustaqil amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisoblanuvchi hududiy boshqarmalardan, ularning tashkilotlaridan va zaruratga qarab, yuridik shaxs bo'lmagan tuman va shahar filiallaridan iborat bo'lishi mumkin.

Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida yuridik shaxs hisoblanuvchi hududiy boshqarmalari mavjud, ular tadbirkorlikni, eng avvalo, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashadi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risida»gi O'RBQ-483-sonli Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.07.2018-y., 03/18/483/1482-son.

Shuning bilan birga, Palata zimmasiga tadbirkorlarga chet ellik sheriklar bilan amaliy muloqotlar va aloqalarni kengaytirishda, eksport mahsulotini tashqi bozorlarga olib chiqishda, shuningdek, raqobatbardosh tayyor mahsulot chiqarishni ta'minlovchi yangi ishlab chiqarishlar barpo etish hamda mavjud ishlab chiqarishlarni texnikaviy jihatdan qayta jihozlash uchun to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarni jalb etishda ko'maklashish vazifalari yuklatiladi.

Mamlakatimiz va xorijiy tadbirkorlar, shu jumladan, kichik va xususiy biznes korxonalari o'rtasida barqaror iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish hamda chuqurlashtirish, eksport salohiyatini oshirish, respublikaga investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalb etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan 2005-yil 7-iyunda «O'zbekiston Respublikasining Savdo-sanoat palatasining xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonalarini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Mazkur Farmonga muvofiq, xorijiy mamlakatlarda, birinchi navbatda, Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Germaniya Federativ Respublikasi, Avstriya Respublikasidagi ishlarni qamrab olgan holda savdo-sanoat palatasi vakolatxonalarini, jumladan, savdo-investitsiya uylarini tashkil etish nazarda tutildi.

Savdo-investitsiya uylari O'zbekiston Respublikasining va ular qaysi davlat hududida tashkil etilsa, o'sha davlatlarning qonunchiligida belgilangan tartibda o'zini-o'zi qoplash va o'zini-o'zi moliyalash prinsiplari asosida faoliyat yuritish huquqiga ega.

**Savdo-sanoat palatasiga savdo-investitsiya uylari orqali quyidagi vazifalarni amalga oshirish tavsiya etiladi:**

– mamlakatimizning eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarini xorijiy bozorlarga chiqarish;

– O'zbekistonning investitsiya imkoniyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish hamda O'zbekistondagi xorijiy investorlar va sheriklar uchun axborot-maslahat ishlarini tashkil etish;

– O'zbekiston tadbirkorlarga manfaatli shartlarda yetkazib berish uchun ilg'or mini-texnologiyalarni tanlab olish;

– tegishli chet davlatlarida savdo-sanoat palatasi va uning a'zolari manfaatlarini ifoda etish.

Savdo-sanoat palatasi O'zbekistonda va chet el davlatlarida tashkilotlar tuzish, o'z vakolatlarini ochish, O'zbekistonda va uning hududidan tashqarida ko'rgazmalar hamda yarmarkalar tashkil etish va o'tkazish, xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlariga kirish, to'g'ridan-to'g'ri xalqaro muloqotlar olib borish, hamkorlik to'g'risidagi tegishli bitimlar tuzish kabi huquqlarga ega.

Jamoat birlashmalari ham ittifoqlar tuzishlari mumkin. «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasiga binoan jamoat birlashmalari ittifoqlarga uyushishlari mumkin. Ular qonunda jamoat birlashmalari uchun belgilab qo'yilgan tartibda tuzilishi, amal qilishi va o'z faoliyatlarini to'xtatishlari mumkin.

Uyushma va ittifoqlar ularga ixtiyoriy ravishda berilgan vakolat doirasida yuridik shaxslarning faoliyatini muvofiqlashtirish va manfaatlarini himoya qilishga oid vazifalarini amalga oshirish va boshqarish kabi faoliyatlarni bajaradi. Har qanday boshqarish qaror qabul qilish bilan bog'liq bo'lishi hisobga olingan holda, uyushma va ittifoqlarga berilgan bunday vakolat ularning ta'sis hujjatlari bilan belgilanadi.

Uyushma va ittifoqlar o'zlari tijoratchi tashkilot bo'lmaganligi tufayli asosiy maqsadi foyda undirishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin emas. Shunday ekan, ularga berilgan vakolatni amalga oshirish bilan bog'liq hujjatlar, masalan, ish haqi, binolarning ijara haqi, texnika va boshqa asbob-uskunalarni sotib olish bilan bog'liq xarajatlar moliyaviy jihatdan boshqaruv idoraning tarkibiga kirgan tashkilotlar hisobidan ta'minlanadi.

FK 77-moddasi ikkinchi qismining ma'nosidan uyushma va ittifoqlar tijoratchi bo'lmagan tashkilot ekanligi va ularning qanday maqsadni ko'zlab tuzilishi zarurligi to'g'risidagi qoida nazarda tutiladi. Shunday ekan, ularning ta'sis hujjatlarida foyda undirish faoliyati asosiy maqsad sifatida nazarda tutilgan bo'lishi mumkin emas. Lekin faoliyat yuritish jarayonida tijorat bilan shug'ullanish ular uchun maqsad sifatida nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

## **Bunday hol yuz bergan taqdirda quyidagi tadbirlar qo'llanilishi mumkin:**

a) birlashmaning ishtirokchilari qonunga muvofiq (FKning 40-moddasi), uni o'z qaroriga asosan xo'jalik shirkati va jamiyatiga, ishlab chiqarish koorperativiga, unitar korxonaga aylantirib, qayta tashkil qilishlari mumkin;

b) birlashmaning o'zi ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqa shaklda tashkil etilishi mumkin;

v) birlashma qonunda belgilangan tartibda uning qismiga kirishi mumkin;

g) tijoratchi bo'lmagan tashkilot o'zining ustavida belgilangan maqsadlarga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

Birlashmani tashkil qilgan yoki unga kirgan tashkilotlarning huquqiy maqomida o'zgarish yuz bermaydi. Ularning yuridik shaxs sifatida huquq layoqati to'la saqlanib qolinadi. Birlashmaning o'zi yuridik shaxs hisoblanadi va uning nisbatan javobgarlik to'g'risidagi umumiy qoidalar tatbiq qilinadi (FKning 48-moddasi).

Umumiy qoidaga binoan birlashma o'z a'zolari uning majburiyatlari bo'yicha qo'shimcha javobgar bo'ladi. Bunday javobgarlik birlashmani fuqarolik-huquqiy maqomining muhim xususiyatlaridan iborat. Birlashmaning mol-mulki uning kreditorlarining talablarini qanoatlantirish uchun yetarli bo'lmagan taqdirda, uning a'zolari (ishtirokchilari) o'z mol-mulkulari bilan birlashmaning qarzlari bo'yicha javob beradilar (FK 77-moddasining oltinchi qismi).

Bunday javobgarlik subsidiar xarakterga ega bo'lib, uning miqdori birlashmaning o'z qarzdorlaridan qutilishi uchun mol-mulkingin yetarli bo'lmagan qismi hajmida belgilanadi.

Yuridik shaxslarning birlashmalari ta'sis hujjatlari Ustav va ta'sis shartnomasidan iborat bo'lib, ularda birlashmaning nomi, tashkiliy tuzilmasi, maqsadlari va vazifalari, shuningdek, ishtirokchilarning o'zaro huquqlari va majburiyatlari belgilab qo'yiladi.

Yuridik shaxs birlashmalarining mulkiy-moliyaviy bazasi, asosan, ishtirokchilar tomonidan kiritiladigan ulushlardan tarkib topadi, ammo qonun chiqaruvchi notijorat tashkilotlarning boshqa turlari uchun xos bo'lib hisoblangan boshqa manbalarni (xayriyalar, grantlar va h.k. larni) ham cheklab qo'ymagan. Bunda birlashma ishtirokchilari o'z birlashmalariga nisbatan hech qanday mulkiy huquqqa ega emaslar, shu sababli ishtirokchining ulushini boshqa shaxslarga o'tkazib berishga, xuddi shu kabi birlashmadan chiqish chog'ida ulushning bo'linishini talab etishga yo'l qo'yilmaydi<sup>1</sup>.

### **Tayanch iboralar:**

Notijorat tashkilotlar, matlubot kooperativi, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari, muassasalar, yuridik shaxs uyushmalari, yuridik shaxs birlashmalarining fuqarolik-huquqiy maqomi, notijorat tashkilotlarning tadbirkorlik faoliyati.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Birlashmaning ishtirokchilari qonunga muvofiq uni o'z qaroriga asosan qayta tashkil etishi mumkinmi?
2. Yuridik shaxslarning birlashmalari qanday tamoyillarga asoslangan bo'lishi kerak?
3. O'zbekiston Respublikasining Savdo-sanoat palatasi qanday huquqlarga ega?
4. Amaliyotda «uyushma» va «ittifoq» tushunchalari o'rtasida qanday farqlar mavjud?
5. Jamoat fondining mol-mulkidan qaysi maqsadlarda foydalaniladi?
6. Jamoat birlashmalarining huquqiy holati qanday huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi?
7. Jamoat fondi nima?
8. Fondlar qanday turlarga bo'linadi?
9. Muassasa deb qanday tashkilotga aytiladi?

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. I jild. – Toshkent: «Vektor-Press» nashriyoti, 2010. – B. 244.

10. Uyushma va birlashmalarning ta' sis hujjatlari nimalardan iborat?

11. O'zbekiston Respublikasida 2019 va 2020-yillarning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo'yicha tugatilgan yuridik shaxslarning soni va foizi to'g'risidagi ma'lumotlarni quyidagi jadval orqali tahlil qiling:

<b>№</b>	<b>Ro'yxatdan o'tgan joyi</b>	<b>2019-yil 1-yanvar holatiga ko'ra</b>	<b>%</b>	<b>2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra</b>	<b>%</b>
	O'zbekiston Respublikasi bo'yicha				
	Qoraqalpog'iston Respublikasi				
	Andijon viloyati				
	Buxoro viloyati				
	Jizzax viloyati				
	Qashqadaryo viloyati				
	Navoiy viloyati				
	Namangan viloyati				
	Samarqand viloyati				
	Surxondaryo viloyati				
	Sirdaryo viloyati				
	Toshkent viloyati				
	Xorazm viloyati				
	Farg'ona viloyati				
	Toshkent shahri				

## **IX bob. DAVLAT FUQAROLIK HUQUQIY MUNOSABATLAR SUBYEKTI SIFATIDA**

### **1-§. Davlat to'g'risida umumiy qoidalar**

Fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarda jismoniy va yuridik shaxslar bilan bir qatorda davlat hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ham ishtirok etadi. Davlat va uning tegishli tuzilmalarini fuqarolik huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi ularning fuqarolik huquqi subyekti sifatida tan olinishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi FK 2-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ishtirokchilari bo'ladilar. Bu uchchala subyekt ham fuqarolik huquqida bir-biri bilan teng huquqli ishtirokchi sifatida ko'riladi va biridan ikkinchisi ustun hisoblanmaydi.

Davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida boshqa subyektlar bilan o'zaro huquqiy aloqalarga kirishar ekan, bunda u o'ziga tegishli bo'lgan imtiyozlar: hokimiyat vakolati, hukmronlik va boshqarish faoliyati, ustunlik maqomidan voz kechishiga to'g'ri keladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat suverenitet sohibi sifatida yagona va bo'linmas subyekt hisoblanadi. Binobarin, bitta alohida olingan hududda ikkita suverenitet sohibi bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Shu bilan birga, davlat o'zi tomonidan tashkil etilgan korporatsiyalar, ijtimoiy kompaniyalar, moliyaviy korporatsiyalar, davlat kompaniyalari va maxsus banklar orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda huquq va majburiyatlar sohibi sifatida suveren davlatning ishtirok etishi, davlatning fuqarolik huquqi subyekti ekanligi maqomini belgilashning eng muhim jihatidir. Davlat suverenitet sohibi sifatida har qanday huquqiy munosabatda bo'lgani kabi fuqarolik-huquqiy munosabatda ham o'ziga xos manfaatlar asosida ishtirok

etadi. Birinchi navbatda, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi.

Ma'lumki, davlat ko'p qirrali tuzilmadir. Shuning uchun ham davlatning jamiyat hayotida tutgan o'rni va u bajaradigan funksiyalari o'ta muhimdir. Mana shu jihatlarni hisobga olmasdan, davlatning fuqarolik huquqi subyektligi ekanligi masalasini ifodalash mumkin emas. Fuqarolik-huquqiy munosabatning «yagona va bo'linmas subyektligi» iborasi fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari orasida faqatgina davlatga nisbatan qo'llaniladi. Vaholanki, fuqarolik-huquqiy munosabatda boshqa subyektlar fuqarolar va yuridik shaxslar ham alohida subyekt hamda shaxs sifatida ishtirok etadi.

Davlat muayyan hududdagina yagona, suveren, hukmron va bo'linmas tuzilma bo'lganligi munosabati bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa subyektlaridan yaqqol ajralib turadi.

**Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarning alohida subyektligini davlatning quyidagi jihatlari asosida talqin etish mumkin:**

birinchidan, davlat hokimiyat egasi;

ikkinchidan, davlat shaxs sifatida;

uchinchidan, davlatning fuqarolik huquqiy layoqati;

Fuqarolik huquqining boshqa subyektlari singari davlat ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarning teng huquqli subyektligi sifatida ushbu munosabatda qatnashadi. Lekin davlat boshqa subyektlarda mavjud bo'lmagan bir qator xususiyatlarga egaki, bu xususiyatlar davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtirokida muhim o'rin tutadi.

Birinchi navbatda, davlat hokimiyat sohibidir. Zero, hokimiyatning davlat qo'lida bo'lishi uning alohida maqomga ega bo'lgan subyektligini ifodalaydi. Chunki davlat va uning hokimiyatisiz muayyan hududda, jamiyat boshqaruvini tushunish, tasavvur qilish qiyin.

«Hokimiyat» atamasini ikki xil ma'noda tushunish mumkin. Birinchisi, bu «hokimiyat»ni sof ma'noda davlat hokimiyati sifatida tushunish, ikkinchisi, ko'chma ma'nodagi «hokimiyat» yoki «hokimiyat vakolatlari» tushunchalari bo'lib, ularni bir



shaxsning ikkinchi shaxsga nisbatan huquqdorligi yoki o'zga shaxslarni o'z ta'siri ostida qoldirish, deb tushunishdir. Ana shu ikkinchi ma'nodagi hokimiyat vazifasi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda, umuman, huquqiy munosabatlarda davlatdan o'zga subyektlarga ham mansub bo'lishi mumkin.

**Huquqshunos olim Z.M. Islomovning ta'kidlashicha, hozirgi vaqtda davlatning umume'tirof etilgan quyidagi asosiy belgilarini ko'rsatish mumkin:**

1. Davlat o'z davlati chegaralari doirasida fuqarolik tushunchasi bo'yicha butun jamiyatning, butun aholining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi.

2. Davlat suveren hokimiyatning yagona sohibidir.

3. Davlat yuridik kuchga ega bo'lgan va huquq normalarini aks ettirgan qonunlar va ularga asoslanib chiqariladigan hujjatlarni qabul qiladi va h.k.

Darhaqiqat, davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlarda butun jamiyatning, butun aholining yagona vakili sifatida qatnashadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasiga muvofiq, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Xalq davlat hokimiyatining yagona manbai bo'lganligi uchun ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat xalq irodasini ifoda etadi va uning manfaatlariga xizmat qiladi.

Davlat xalq manfaatlaridan kelib chiqib, turli bitimlar tuzishi, fuqarolik huquqining boshqa subyektlari bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishi mumkin. Shu bilan birga, davlat jamiyat va aholining manfaatlariga muvofiq, fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarni belgilaydi. Suveren hokimiyatning yagona sohibi sifatida davlat o'z hududidagi boshqa barcha subyektlarning «hokimiyati»dan ustun turadi. Bunday ustunlik davlatning o'z hududidagi barcha shaxslardan mustaqilligini ta'minlaydi va bu mustaqillik davlat suverenitetining asosiy belgisi hisoblanadi. Garchi davlat yagona hokimiyat sohibi hisoblansa-da, u fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o'zining ana shu belgisidan foydalanmaydi. Aks holda davlat ishtirokidagi mulkiy munosabatlar fuqarolik huquqiy xarakterini yo'qotadi.

Umumiy qoidaga ko'ra, suverenitet ichki va tashqi ko'rinishda namoyon bo'ladi. O'z mamlakati hududida davlat oliy hokimiyat egasi bo'lib, uning ichki ishlariga hech kim aralashishga haqli emas. Hech qaysi davlat va xalqaro tashkilot davlatning ichki ishlariga aralashmasligi, ushbu davlat mustaqilligining eng muhim belgisidir. Zero, suverenitet mazkur davlatning boshqa davlat va xalqaro huquqning boshqa subyektlaridan mustaqilligini ifodalaydi<sup>1</sup>.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlardan o'zga huquqiy munosabatlarda davlat o'zining hokimiyat vakolatlaridan va suverenitetiga tegishli boshqa huquqlaridan foydalanishi, huquqiy munosabatlardagi o'zining ustunlik mavqeyini to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatishi mumkin. Masalan, ma'muriy-huquqiy munosabatlarda davlat boshqaruvi eng asosiy va birlamchi o'rinda turadi.

Davlat va uning organlari fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o'zlarining hokimiyat vakolatlaridan foydalanmaydilar. Ular bu munosabatlarda o'z kontragentlari bilan teng asoslarda ishtirok etadilar. Bunday ishtirok quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

Birinchidan, davlat va uning organlari tomonidan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilariga hokimiyat ta'siri o'tkazilmasligi;

Ikkinchidan, o'z faoliyatlarini yuritish va boshqa kontragentlar faoliyatini tartibga soluvchi me'yorlar asosida amalga oshirishi;

Uchinchidan, shartnoma munosabatlarida kontragentlar bilan teng huquqliligi<sup>2</sup>.

**Davlat oliy hokimiyat, suverenitet sohibi bo'lganligi tufayli fuqarolik-huquqiy munosabat subyekti sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan:**

– Davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyekti sifatida fuqarolik huquqi subyektlari amal qiladigan qonunlarni o'zi belgilaydi;

– Davlatning fuqarolik huquq va burchlari davlat organlarining hujjatlaridan vujudga keladi;

---

<sup>1</sup> Тихомиров Ю.А. Публичное право. – М.: 1995.

<sup>2</sup> Ўша жойда.

– Davlat immunitetdan foydalanadi;

– Huquq va muomala layoqatini cheklash bo'yicha boshqa subyektlarga taalluqli bo'lgan qoidalar davlatga tatbiq etilmaydi<sup>1</sup>.

Davlat fuqarolik-huquqiy munosabat subyekti sifatida fuqarolik huquqi subyektlari amal qiladigan qonunlarni o'zi belgilar ekan, bunda davlat o'zi chiqarayotgan qonunchilik hujjatlarida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o'z ishtirokining qonuniy asoslari va shartlarini ham mustahkamlaydi. Fuqarolik huquqi subyektlari amal qiladigan bu qonunchilik hujjatlari bir vaqtning o'zida davlat va u bilan huquqiy munosabatga kirishayotgan subyektlarning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi normalarni o'zida ifodalaydi.

Davlat fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarda ularning boshqa ishtirokchilari bilan baravar asoslarda ishtirok etadi.

Davlatning o'z hokimiyat vakolatlaridan foydalanib, fuqarolik-huquqiy munosabatlarga ta'sir o'tkazishi fuqarolik qonunchiligida ancha keng o'rin egallaydi. Bunda davlat jamiyat, shaxs va xalq manfaatlari hamda muayyan sohaning rivojini hisobga olib, huquqiy munosabatlarga ta'sir o'tkazadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda hokimiyat sohibi sifatidagi davlat ishtirokining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu – davlatning o'zi bevosita ishtirok etadigan munosabat doirasini o'zi belgilashidir.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat ishtirokining yana bir xususiyati davlatning fuqarolik huquqining boshqa subyektlari o'rtasidagi munosabat harakatiga ta'siridir. Bunda davlat huquq subyektlarining o'zaro munosabatlarini cheklashi, to'xtatib qo'yishi yoki umuman tugatishi mumkin.

Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ushbu munosabatdagi boshqa shaxslar bilan ishtiroki teng ravishda ko'riladi. Bu esa, o'z navbatida fuqarolik huquqidagi barcha subyektlarga nisbatan shaxs atamasini qo'llash imkonini beradi.

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. TDYuL., 2006. – B.139.

Ma'lumki, shaxs deganda, subyektiv huquqlarga va yuridik majburiyatlarga ega fuqarolar va tashkilotlar tushuniladi. Ushbu qoidadan kelib chiqib, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etish mobaynida davlatning ham subyektiv (garchi davlat obyektiv huquqlar ijodkori hisoblansa-da, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda barcha subyektlar kabi subyektiv huquq sohibidir) huquqlarga va yuridik majburiyatlarga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlash joiz.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlatning subyektivlik maqomi «shaxs» atamasi bilan nomlanishi bevosita fuqarolik huquqining barcha subyektlari uchun xos bo'lgan umumiylikdan kelib chiqishini hisobga olgan holda, davlatni fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi «alohida shaxs» deb nomlash zarur bo'ladi. Qolaversa, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlatga nisbatan «alohida shaxs» atamasining qo'llanilishi davlatning hokimiyat vakolatlari, suverenitet sohibi ekanligi va boshqa qator o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi davlat immuniteti bu – davlatning o'z vakolatlarini o'zi qabul qilgan qonunchilik asosida amalga oshirishi, bunda fuqarolik-huquqiy munosabatdagi davlatning huquq va majburiyatlari faqatgina shu davlatning qonunchiligiga muvofiq belgilanishidir.

Davlat immunitet sohibi sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning qaysi turida ishtirok etishini ham faqat o'zi belgilaydi. Masalan, FKning 457-moddasida davlat o'z ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berish shartnomasida taraf sifatida ishtirok etishi belgilangan.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda immunitet davlatga nisbatan shunday holatni yuzaga keltiradiki, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etib, o'z majburiyatlarini bajarmagan davlat faqat o'z milliy qonunchiligi asosida javobgarlikka tortiladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlatga nisbatan vakolatlarni amalga oshirmaslik va hokimiyat vakolatlaridan foydalanmaslik talabi belgilangan bo'lsa-da, davlatning bu belgilari u bilan chambarchas bog'liqligi sababli fuqarolik-huquqiy munosabatlarga ham ta'sir etadi.

Yuqorida bayon etilganidek, nazariy jihatdan qaraganda, davlat ham «shaxs» (ya'ni, alohida shaxs) sifatida ishtirok etadi. Shuning uchun ham fuqarolik-huquqiy munosabatdagi davlatning (siyosiy boshqaruv va hokimiyat sohibi hisoblangan tashkilot) huquqiy maqomi shaxslar (odatda, yuridik shaxslar) huquqiy maqomi bilan bir xilda belgilanishi lozim. Bunday qoida fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi davlat ishtirokining boshqa subyektlar bilan tengligini, davlatning huquq va majburiyatlari doirasi aniqligini va boshqa holatlarning huquqiy asosini ta'minlagan bo'lardi.

Ba'zi xorijiy davlatlar qonunchiligida fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi davlat ishtiroki va huquqiy maqomi yuridik shaxslarning huquqiy maqomi (faqat fuqarolik-huquqiy munosabatlardagina, xolos) bilan bir xilda belgilangan. Masalan, Rossiya Federatsiyasida davlat va mahalliy hokimiyat organlarining fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtirokiga nisbatan fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlardagi yuridik shaxs ishtirokini belgilaydigan normalar qo'llaniladi, agar qonun yoki bu subyektlarning xususiyatlaridan o'zgacha ma'no anglashilmasa, degan qoida mustahkamlangan.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat ishtirokiga nisbatan yuridik shaxslar ishtirokiga oid me'yorlarning belgilanishi davlatning fuqarolik huquqi subyekti sifatidagi holatini aniqlashtiradi. Shu bilan birga, bunday qoidaning mustahkamlanishi davlatga nisbatan fuqarolik huquqiy javobgarlikni belgilashda, fuqarolik-huquqiy munosabatning boshqa ishtirokchilaridan huquqlarini amalga oshirilishini (davlat bilan bo'lgan munosabatlarda) kafolatlashda muhim o'rin tutadi.

Umumiy qoidaga ko'ra, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda har bir subyekt o'zining nomidan harakat qilishi lozim. Bu qoida fuqarolarga ham, yuridik shaxslarga ham taalluqlidir. Davlat ham fuqarolik muomalasida o'z nomidan qatnashadi. «Davlat» tushunchasi mavhum hisoblanganligi uchun ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat nomidan uning organlari ishtirok etishi zarur. Chunki keyinchalik yuzaga keladigan

majburiyatlarga nisbatan javobgarlikni belgilashda bu holat muhim hisoblanadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat nomidan ishtirok etishi mumkin bo'lgan subyektlar doirasi FK 79-moddasining ikkinchi qismida belgilangan. Unga ko'ra, fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarda davlat nomidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda ular maxsus vakil qilgan boshqa maxsus organlar ishtirok etadilar. Aynan qaysi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qaysi davlat organining ishtirok etishi shu organning funksiyasi, tuzilish maqsadi va faoliyat doirasidan kelib chiqib belgilanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtirokiga nisbatan yuridik shaxs haqidagi me'yorlar tatbiq etiladi. Bunda davlatga nisbatan yuridik shaxslar erkinligi vujudga kelishi qoidasidagi «erkning ifodalanishi» to'g'risidagi holatlarigina qo'llaniladi.

Shu o'rinda davlat va yuridik shaxslarning bir-biriga o'xshash tomonlarini ta'kidlab o'tish joiz. Davlat xuddi yuridik shaxslar kabi muayyan tashkilot bo'lib (FKning 39-moddasida yuridik shaxs tashkilot ekanligi ta'kidlangan), o'z ichki tuzilishiga va tashkiliy birligiga, boshqaruv organlariga, fuqarolik muomalasida o'z nomidan ishtirok etish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan obyektlardan xorijiy davlatlar, ularning yuridik va jismoniy shaxslari, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali hamkorlik o'rnatishga, bunday hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan jami amaliy harakatlarni ro'yobga chiqarish uchun foydalanadi.

Ma'lumki, davlatning siyosiy tashkilot sifatidagi asosiy ijtimoiy vazifasi jamiyatdagi mavjud subyektlarning, ya'ni turli guruhlar, millatlar va elatlar, kishilar o'rtasidagi jipslikni ta'minlashdan iborat. Shu ma'noda barcha huquqiy demokratik davlatlarda bo'lgani singari O'zbekiston Respublikasida ham O'zbekiston, uning xalqi nomidan FKning 214-moddasida aytilganidek: «Respublika mulki bo'lgan mol-mulknini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,

O'zbekiston Respublikasi Hukumati yoki ular maxsus vakil qilgan organlar (qonunda boshqacha hol belgilanmagan bo'lsa) tasarruf qiladilar». Amalda davlat nomidan yuqoridagi normadan kelib chiqib, turli vazirlik, davlat qo'mitalari, davlat tashkilotlari qatnashishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari va fuqarolarining huquq hamda manfaatlarini ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida bevosita o'zaro foydali aloqalarni o'rnatish maqsadida xorijiy davlatlarda, xalqaro tashkilotlar huzurida O'zbekiston Respublikasining savdo vakolatxonalari ta'sis etiladi. Bu vakolatxonalar o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, o'zlari to'g'risidagi Nizomga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hamda vakolatxona joylashgan davlatlar ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarga amal qiladi. Chet eldagi vakolatxonalar to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi o'z mulkini egallash, foydalanish va tasarruf etish yuzasidan fuqarolik huquqining mustaqil subyekti sifatida mamlakat ichida va xorijda chet davlatlar va boshqa subyektlar bilan bo'ladigan fuqarolik huquqiy munosabatlarda qatnashib, o'z nomidan harakat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aytilganidek, O'zbekiston-suveren demokratik respublika degan nom bilan mustaqil davlat bo'lib, o'zining milliy davlat va ma'muriy hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatni amalga oshiradi (1, 2-moddalar).

Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki uning suverenitet sohibi ekanligidan kelib chiqadi. Davlat suverenitet sohibi sifatida yagona va bo'linmasdir. Shunga binoan davlat fuqarolik huquqiy munosabatda yakka va yagona subyekt deb qaraladi.

Suverenitet mustaqil davlatning umumiy va ajralmas belgisi bo'lib, uning to'la huquqliligini hamda ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatga qaram emasligini anglatadi. Suveren davlat

o'z ichki va tashqi ishlarini boshqa davlatlarning huquqlarini, shuningdek, xalqaro huquq prinsiplari va normalarini buzmaganda holda, o'zi xohlaganicha hal qiladi.

**Davlat – oliy hokimiyat, suverenitet sohibi bo'lganligi tufayli fuqarolik huquqiy munosabat subyekt sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan:**

1. Davlat fuqarolik huquqiy munosabatlari subyekt sifatida fuqarolik huquqi subyektlari amal qiladigan qonunlarni o'zi belgilaydi.

2. Davlat organlari fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asosi bo'ladigan hujjatlar chiqarishi mumkin

3. Davlat immunitetdan foydalanadi, ya'ni davlat mulkidan haq undirishga davlat organlari rozi bo'lgandagina yo'l qo'yiladi.

4. Huquq va muomala layoqatini cheklash bo'yicha boshqa subyektlarga taalluqli bo'lgan qoidalar davlatga nisbatan tatbiq etilmaydi.

## **2-§. Davlat mamlakatning ichki muomalasida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning subyekt**

Davlat fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarda ularning boshqa ishtirokchilari bilan bab-baravar asoslarda ishtirok etadi. Davlatning ichki fuqarolik muomalasida ishtirok etishi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

**Davlatning mamlakat ichki muomalasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarida ishtiroki quyidagilarda namoyon bo'ladi:**

1. Davlat o'ziga qarashli mol-mulkka nisbatan mulkdor sifatida harakat qilganida;

2. Egasi bo'lmagan yoki egasi noma'lum bo'lgan ashyo egasiz hisoblanib, u sud qarori bilan davlat egaligiga o'kazilganida;

3. FK 193-moddasining ikkinchi qismiga binoan ashyoni topib olgan shaxs topilgan ashyoni mulk qilib olishdan bosh tortsa, ashyo davlat mulkiga o'tganda;



4. Har bir fuqaro vasiyat bo'yicha o'zining butun mulkini yoki uning bir qismini davlatga vasiyat qilib meros tariqasida qoldirishida;

5. O'zbekiston Respublikasi davlati huquq subyekti sifatida ba'zi fuqarolik huquqiy xarakterda bo'lgan kredit munosabatlarida, masalan, davlat zayomi obligatsiyalarini sotishida, qarz shartnomasida ishtirok etganida;

6. Tabiiy ofatlar, avariya, epidemiyalar, epizotiyalar yuz bergan taqdirda va favqulodda tushdagi boshqa vazifalarda mol-mulk jamiyat manfaatlarini ko'zlab, davlat hokimiyati organi qaroriga muvofiq mulkdordan unga mol-mulkning qiymatini to'lagan holda qonunchilikda belgilangan tartibda va shartlar asosida olib qo'yilishida (rekvizitsiya). Bunda rekvizitsiya o'tkazilishiga sabab bo'lgan vazifalarning amal qilishi to'xtaganidan keyin rekvizitsiya qilingan mol-mulkning sobiq egasi saqlanib qolgan mol-mulknini o'ziga qaytarib berishni talab qilishga haqli ekanligida (FKning 203-moddasi);

7. Mol-mulk musodara qilinganida, ya'ni qonunda nazarda tutilgan hollarda mol-mulk sudning hukmi (qarori)ga muvofiq jinoyat yoki o'zga huquqbuzarlik qilganlik uchun haq to'lamadan mulkdordan olib qo'yilishida (FKning 204-moddasi);

8. Davlat ba'zi hollarda mualliflikka oid huquqiy munosabatlarda, masalan, asarni nashr etish huquqini sotib olganida, ixtirochilik munosabatlarida ixtiroga bo'lgan patentni sotib olganida huquq subyekti sifatida ishtirok etishida. Bunday huquqiy munosabatlarda davlatning ishtirok etishi natijasida olingan daromadlar ham davlat byudjetiga o'tkaziladi. Shu bilan birga, davlat mablag'lari hisobiga yaratilgan intellektual mulk obyektiga nisbatan ham davlat mulk huquqini qo'lga kiritadi;

9. Davlat, shuningdek, konsessiya munosabatlarida ham qatnashishida unga ko'ra, davlat chet el firmasi xususiy shaxs bilan kelishib olingan shartlar asosida muayyan xo'jalik faoliyatini amalga oshirish; yer osti boyliklarini ishlab chiqish va foydali qazilmalarni kavlab olish, korxonalar qurish va ekspluatatsiya qilish hamda boshqa huquqlarni beradi;

10. Davlat chet mamlakatlarda ko'chmas mulkni sotib olishida va hokazolar.

Davlat o'zining fuqarolik-huquqiy majburiyatlari bo'yicha o'z mulki bo'lgan mablag'lari bilan javob beradi. Fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarda davlat nomidan, yuqorida aytganimizdek, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda ular maxsus vakil qilgan boshqa organlar ishtirok etadilar.

Mamlakat ichidagi fuqarolik huquqiy munosabatlarda, davlat nomidan aksariyat hollarda O'zbekiston Respublikasining tegishli vazirliklari va davlat qo'mitalari qatnashadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda, O'zbekiston Respublikasi davlati nomidan harakat qiluvchi organlar tizimida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy bank alohida mavqega ega.

**Davlat idoralarini fuqarolik huquqiy munosabatlardagi ishtiroki ikki xil ko'rinishda bo'ladi:**

1. Davlat nomidan ishtirok etish.

2. Davlat organi fuqarolik muomalasida o'z nomidan harakat qiladi.

Davlat ba'zi hollarda subyekt sifatida o'zining mansabdor shaxslari yoki organlari tomonidan yetkazilgan mulkiy zararni to'lashda javobgar bo'ladi.

Davlat organi yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi), shu jumladan, davlat organi tomonidan qonunchilikka muvofiq bo'lmagan hujjat chiqarilishi natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zarar davlat tomonidan to'lanishi kerak. (FKning 15-moddasi).

### **3-§. Davlat mamlakatning tashqi muomalasida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning subyeksi**

Davlat mamlakatning tashqi muomalasida ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarning mustaqil huquq subyeksi sifatida ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat maqomiga erishgach, chet el mamlakatlari bilan fuqarolik-huquqiy

munosabatlarda bevosita ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan obyektlardan xorijiy davlatlar, ularning yuridik va jismoniy shaxslari, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali hamkorlik o'rnatishda, bunday hamkorlikni rivojlantirishda barcha amaliy harakatlarni ro'yobga chiqarish uchun foydalanadi<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi davlat organi bo'lib, respublikaning barcha tashqi iqtisodiy aloqalarni koordinatsiya qiladi, tartibga soladi, nazorat qiladi va boshqaradi. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqari va xorijda Respublika nomidan barcha tashqi iqtisodiy masalalar bo'yicha uning manfaatlarini ko'zlab harakat qiladi va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi. Vazirlik o'zining faoliyatini bevosita O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rahbarligida amalga oshiradi. Vazirliklik yagona tashqi iqtisodiy siyosat yuritish va uni rejalashtirish strategiyasini shakllantirish uchun umumdavlat manfaatlarini ham tashqi bozorda ta'minlash, xorijiy mamlakatlar bilan bo'ladigan iqtisodiy, ilmiy, texnikaviy, savdo, sport, sayyohlik va boshqa munosabatlarni rivojlantirish, bu sohada boshqaruvni takomillashtirish va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni ta'minlash maqsadida tuzilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi o'zining butun faoliyatini O'zbekiston Respublikasining yagona iqtisodiy siyosatiga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi rahbarligida amalga oshiradi. Mintaqaviy boshqarmalar mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida mushtarak ish olib boradilar.

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov X.R. Fuqarolik huquqi muammolari. Darslik. – T., TDYuI. 2010. – B. 275.

<sup>2</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. TDYuI., 2006. – B. 141.

Vazirlik o'z tarmog'idagi xo'jalik hisobida ish olib borayotgan va boshqa tashqi iqtisodiy tashkilotlarning majburiyatlari bo'yicha bu tashqi iqtisodiy tashkilotlar esa, vazirlikning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi o'zining ish faoliyatida Tashqi Ishlar vazirligi, Markaziy bank bilan uzviy hamkorlik qiladi. Tashqi Ishlar vazirligi tizimida xalqaro shartnomalar bo'limi bo'lib, u respublika hukumatining barcha shartnomalarini ishlab chiqishda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan hamkorlik qiladi. Shuningdek, iqtisodiy aloqalarga tegishli shartnomalarni amalga oshirish uchun uning nusxalarini O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga yuboradi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vaziri respublika hukumatining vakolatiga muvofiq xorijiy mamlakatlar bilan, ularning yuridik va jismoniy shaxslari bilan tuziladigan xalqaro shartnomalarini imzolashi, xalqaro anjumanlarda uning nomidan vakil bo'lib ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari va fuqarolarining qonuniy huquq hamda manfaatlarini ta'minlash, tashqi iqtisodiy sohada bevosita o'zaro foydali aloqalarni o'rnatish maqsadida xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar huzurida O'zbekiston Respublikasining savdo yoki boshqa vakolatxonalarini ta'sis etiladi. Bu vakolatxonalar o'z faoliyatini olib borishda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, o'zlari to'g'risidagi Nizomga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hamda vakolatxona joylashgan davlatlar ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarga amal qiladi.

Davlat tomonidan tuzilgan yuridik shaxs davlatning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi. Qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari davlat o'zi tuzgan yuridik shaxsning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi (FKning 80-moddasi). Ushbu moddaning qoidalari davlat tuzgan shartnoma asosida yuridik shaxsning majburiyatlari bo'yicha o'z zimmasiga kafillik

olgan (kafolat bergan) yoki mazkur yuridik shaxs davlatning majburiyatlari bo'yicha o'z zimmasiga kafillik olgan (kafolat bergan) hollarga taalluqli emas.

O'zbekiston Respublikasi tashqi fuqarolik muomalasida ishtirok etishidagi o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ushbu muomalada bevosita davlatning o'zi yoki uning nomidan undan vakolat olgan organlar ishtirok etishlari mumkin.

### **Tayanch iboralar:**

Davlat, davlatning huquqiy maqomi, davlatning shaxsiy huquqlari, davlat organi, davlat nomidan ish olib boradigan davlat organlari, davlat tomonidan tuzilgan yuridik shaxs, davlatning mulk huquqi, davlatning ichki fuqarolik muomalasidagi ishtiroki, davlatning tashqi fuqarolik muomalasidagi ishtiroki.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Davlat shaxsiy huquqlarga ega bo'ladimi?
2. Davlat tushunchasiga ta'rif bering.
3. Fuqarolik huquqining subyektini sifatida davlatning huquqiy maqomi qanday?
4. Davlat nomidan fuqarolik huquqiy munosabatlarda qaysi organlar ishtirok etadi?
5. Davlat fuqarolik huquqiy munosabat subyektini sifatida qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
6. Davlat xavfsizligini ta'minlash deganda nimani tushunasiz?
7. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi o'zining ish faoliyatida qaysi davlat organlari bilan uzviy hamkorlik qiladi?
8. O'zbekiston Respublikasi o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan obyektlardan qanday asoslarda foydalanadi?
9. Davlat idoralarini fuqarolik huquqiy munosabatlardagi ishtiroki necha xil ko'rinishda bo'ladi?
10. Davlatning mamlakat ichki oborotidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarida ishtiroki nimalarda namoyon bo'ladi?

### 1-§. Fuqarolik huquqining obyektlari tushunchasi va turlari

Fuqarolik huquqiy munosabatlarning obyektlarini tartibga solishga bag'ishlangan huquqiy normalar majmuasi fuqarolik huquqining asosiy institutlaridan hisoblanadi<sup>1</sup>.

Fuqarolik huquqiy munosabatlarning obyekti deb huquq subyektlarining harakatlari nimaga qaratilgan bo'lsa, huquq va majburiyatlar nimani ustida kechayotgan bo'lsa, o'sha narsalarga aytiladi. Bunday obyektlarning turlari har xil va juda ham ko'p, ular kundalik ijtimoiy hayotning mazmunini tashkil qiladi, xususiyatlariga ko'ra, tegishli axloqiy va huquqiy qoidalar vositasida tartibga solinadi va himoya qilinadi.

Fuqarolik huquqining obyektlarini ikki turga, ya'ni moddiy va nomoddiy ne'matlarga bo'lish mumkin.

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan foydalanishi va tasarruf etilishi mumkin bo'lgan, erkin suratda olish, sotish huquqi va odob-axloq normalari bilan cheklanmagan yoki taqiqlanmagan har qanday moddiy narsalar va moddiy qiymatliklar, qadriyatlar boylik hisoblanib, fuqarolik huquqining obyekti bo'la oladi<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi FKning 81-moddasiga asosan fuqarolik huquqiy munosabatlarning obyektlarini ularning xususiyatlari, belgilari va tartibga solinish asoslari, shuningdek, ularni muomalada bo'lishi yoki bo'lmasligi hisobga olingan holda ikki xil toifaga, ya'ni moddiy va nomoddiy ne'matlarga ajratiladi.

#### **Amaldagi Fuqarolik kodeksida ular jumlasiga:**

- ashyolar;
- mol-mulklar;
- pullar va qimmatli qog'ozlar;
- ishlar va xizmatlar;

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov X.R. Fuqarolik huquqi muammolari. Darslik. – T, TDYuI. 2010. – B. 291.

<sup>2</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. – T., TDYuI. 2006. – B. 144.

- intellektual faoliyat natijalari;
- shaxsiy nomulkiy huquqlar kiradi.

## **2-§. Ashyolar fuqarolik huquqining obykti sifatida**

Fuqarolik huquqiy munosabatlarning obyektleri ichida ashyolar alohida o'rin egallaydi. Birinchidan, ashyolar eng ko'p tarqalgan, ikkinchidan, mulkiy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishida asosiy o'rinni egallagan obyektlardan iborat<sup>1</sup>.

Ashyolar muayyan moddiy qiymatga ega bo'lgan hamda iqtisodiy munosabatning predmeti bo'la oladigan narsalargina bo'lishi mumkin.

Ashyolar xalq farovonligi uchun, respublika fuqarolarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi. Fuqarolik huquqida ashyolar jonli ashyolar, masalan, uy hayvonlari, jonsiz ashyolar, masalan, uy-joylar, ishlab chiqarish qurollari, asbob-uskunalar, kiyim-kechaklar va boshqa narsalar insonlarning yashashi uchun muhim ahamiyatga egadir<sup>2</sup>.

Huquq subyektlarining muayyan ashyo to'g'risidagi, jumladan, ashyodan foydalanish tartibi va uni tasarruf etish usullari to'g'risidagi xatti-harakatlarini belgilaydigan huquq normalarining yig'indisiga ashyo haqidagi qoida deb aytiladi. Ashyolarning jamiyatdagi tayinlanishlariga qarab, ularning har qaysisi uchun turlicha huquqiy qoida, masalan, yerdan foydalanish qoidasi, korxonalaridan foydalanish, ularni tasarruf etish kabi qoidalar belgilanadi.

Fuqarolik huquqi nuqtai nazaridan ashyo deganda insonning muayyan ehtiyojlarini ta'minlaydigan va uning egaligida bo'lishi mumkin bo'lgan barcha moddiy ne'matlar tushuniladi.

Ashyolar borliqning moddiy ne'matlaridan iborat. Ular o'zlariga xos tabiiy xususiyatlari, alomatlari bilan fuqarolar, tashkilotlar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarga nisbatan turli qoidalarning qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham,

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov X.R. Fuqarolik huquqi muammolari. Darslik. – T., TDYuI. 2010. – B. 296.

<sup>2</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. – T., TDYuI. 2006. – B. 144.

ashyolarni yuridik jihatidan tasniflashda ko'proq ularning tabiiy xususiyatlariga e'tibor qaratiladi.

Fuqarolik huquqida ashyolar o'zlarining iqtisodiy tayinlanishlariga, shuningdek, huquq normalarida aks ettirilgan jismiy va boshqa xususiyatlarga qarab bir necha turga bo'linadi.

Ashyolarning muayyan xususiyatlari yuzasidan ham maxsus qoidalar belgilanishi mumkin. Masalan, o'zining xususiyatlari bo'yicha tevarak-atrofdagilar uchun xavf tug'diradigan ashyolar, ya'ni xavfli xossalarga ega ashyolar (portlovchi moddalar, qattiq ta'sir qiluvchi zahar kabilar) to'g'risida alohida qoidalar belgilangan (FKning 883-moddasi).

Bunday ashyolarni erkin olish-sotishga yo'l qo'yilmaydi. Muomalada bo'lishiga yo'l qo'yilmaydigan fuqarolik huquqlari obyektlarining turlari (muomaladan chiqarilgan obyektlar) qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lishi kerak (masalan, O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi Qonunining 19-moddasi 1-bandida ko'rsatilgan<sup>1</sup>).

Muayyan muomala ishtirokchilarigagina qarashli bo'la oladigan yoki muomalada bo'lishga maxsus ruxsatnoma bilan yo'l qo'yiladigan (muomalada harakatlanishi cheklangan obyektlar) fuqarolik huquqlari obyektlari turli qonunlarda ko'rsatilgan tartibda belgilanadi. Binobarin, qonun, birinchi navbatda, ashyolarni muomalada bo'lish xususiyatiga qarab farqlaydi. Fuqarolik muomalasidan chiqarilgan ashyolar fuqarolar va tashkilotlar egaligida bo'lishi mumkin emas.

Yuqorida ko'rsatilganidek, yer, yer osti boyliklari, suv va o'rmonlar davlatga xos mulk bo'lganligidan ular faqat foydalanishgagina berilishi mumkin. Fuqarolik muomalasidan chiqarilgan ashyolar fuqarolar va boshqa tashkilotlarga sotilishi mumkin emas. Bu ashyolar garovga qo'yilmaydi va kreditorlarning talablarini qondirish uchun ular hisobidan haq undirilmaydi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 1990-yil 31-oktyabridagi «Mulkchilik to'g'risida»gi 152–XII-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1990-yil, 31–33-son, 371-modda.



Agar fuqarolik muomalasidan chiqarilgan ashyo qonuniy asoslarga ko'ra fuqarolarning mulki bo'lib qolsa, ya'ni fuqarolarning tasarrufiga o'tsa, u holda fuqaro ushbu fuqarolik muomalasidan chiqarilgan ashyoni o'zidan begonalashtirish choralarini ko'rishi lozim. Masalan, general vafotidan so'ng uning o'g'liga, generalga sovg'a qilingan pistolet meros bo'lib o'tadi. Bunda o'g'li fuqarolik muomalasidan chiqarilgan ashyoni qonuniy asoslarga qo'lga kiritdi. Shundan so'ng u bu ashyo haqda tegishli harbiy bo'limga xabar beradi va vakolatli davlat organi pistoletning bahosini to'lab, uni merosxo'rdan sotib oladi<sup>1</sup>.

Fuqarolik muomalasidan chiqarilgan ashyolarga nisbatan mulk huquqi har doim davlatga tegishli bo'ladi.

Ba'zi ashyolar xalq xo'jaligi uchun bo'lgan ahamiyati, davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan yoxud boshqa asoslar bo'yicha faqat alohida ruxsat bo'yicha olinishi, sotilishi mumkin. Bunday narsa (ashyo)larning ro'yxati, shuningdek, ularga ruxsat berish tartibi maxsus qonunlar bilan belgilanadi. Maxsus ruxsatlar bo'yicha olinishi mumkin bo'lgan narsalar jumlasiga: qurollar va o'q-dorilar, portlovchi va radioaktiv moddalar, qattiq ta'sir qiladigan zaharlar, muhr va shtamplar kiradi.

Valyuta qimmatliklari: chet el valyutasi (banknotlar, qog'oz pullar, tanga-chaqalar); chet el valyutasi hisobida yozilgan to'lov hujjatlari (cheklar, veksellar, akkreditiv va boshqalar); bankning chet el valyutasiga sotib olinadigan va shunday valyutaga almashtirish huquqiga ega bo'lgan so'm hisobidagi to'lov hujjatlari (cheklar va boshqalar); har qanday shakl va holatdagi qimmatbaho metallar: oltin, kumush, platina guruhiga kiruvchi metallar (palladiy, iridiy, radiy, ruteniy va osmiy); xom va ishlangan shakldagi qimmatbaho tabiiy toshlar (olmos, gavhar, la'l, zumrad, saprif, marvarid va boshqalar) O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda va doiralardagina oldi-sotdi buyumi bo'lishi mumkin. Mazkur qimmatbaho metal va toshlardan yasalgan zargarlik va boshqa maishiy buyumlar hamda shunday buyumlarning siniq parchalari bundan mustasnodir.

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. – T, TDYuI. 2006. – B. 146.

Fuqarolik muomalasidan chiqarilmagan ashyolar doirasi nihoyatda keng bo'lib, ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

**Iste'mol qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan ashyolar.** Iste'mol qilinadigan ashyolar bir karra foydalanish natijasida butunlay yo'qqa chiqadigan yoki jiddiy ravishda o'zgaradigan narsalar (masalan, oziq-ovqat, xom-ashyo kabilar) dir. Iste'mol qilinmaydigan ashyolar birmuncha uzoq vaqt davomida o'zining sifatini saqlaydigan narsalar (masalan, binolar, uskunalar, transport vositalari kabilar)dir.

Bunday ashyolar, odatda, qayta-qayta foydalanishga mo'ljallangan bo'ladi. Qayta-qayta foydalanish davomida iste'mol qilinmaydigan ashyolarning yemirilishi ham asta-sekin kechadi.

**Xususiy va turga xos alomatlar bilan belgilanadigan ashyolar.** Xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar alohida faqat o'zlarigagina xos belgilari, noyob, ya'ni, o'ziga xos, yolg'iz sifatlari bo'lgan ashyolar hisoblanadi. O'zining belgilari bilan boshqa o'xshash ashyolardan ajralib turadigan narsalar, masalan, ma'lum ko'chadagi, ma'lum sonli uy-joy xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyo bo'la oladi.

Xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar jumlasiga noyob, ya'ni o'zi bir dona bo'lgan ashyolar ham kiradi. Xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar boshqa ashyolardan muayyan usulda belgi qo'yish yoki muhr bosish, raqam qo'yish bilan farqlanadi.

Turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar, son, o'lchov va og'irlik bilan ko'rsatiladigan narsalar hisoblanadi. Turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar boshqasi bilan almashtirsa bo'ladigan ashyolardir. Fuqarolik huquqida ashyolarning xususiy va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolarga bo'linishi katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, majburiyatlarni ijro etishda, burchning natura holidagi bajarilishida bunday bo'linishning o'rni beqiyos.

**Bo'linadigan va bo'linmaydigan ashyolar.** Bo'lish natijasida har qaysi qismi butunning xossalarini o'zida saqlab qoladigan va shu bilan birga o'zining xo'jalik ahamiyatini

yo'qotmaydigan ashyo bo'linadigan ashyo hisoblanadi. Masalan, bir qop un, bir qop shakar va shu kabilar.

Bo'linmaydigan ashyolar bo'lish natijasida qismlari dastlabki ashyoning xossalarini yo'qotadigan, uning xo'jalik ahamiyatini o'zgartiradigan ashyo bo'linmaydigan ashyo hisoblanadi (FKning 88-moddasi). Bo'linmaydigan ashyolarga shkaf, stol, televizor kabilar kiradi.

**Asosiy va mansub ashyolar.** Fuqarolik huquqida ashyolarning asosiy va mansub ashyolarga bo'linishi ham (FKning 90-moddasi) huquqiy ahamiyatga egadir. Mansub ashyo deb asosiy ashyoga xizmat qilishga tayinlangan va umumiy xo'jalik maqsadi jihatidan u bilan bog'liq bo'lgan narsalarga aytiladi. Masalan, asosiy ashyo qulf bo'lsa, unga mansub ashyo kalitdir.

Mansub ashyo, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilmagan bo'lsa, asosiy ashyoning taqdiriga bog'liq bo'ladi. Binobarin, asosiy ashyo to'g'risidagi shartlar mansub ashyoga ham doirdir. Masalan, birovning egaligiga yoki vaqtincha foydalanishiga asosiy ashyo o'tsa, mansub ashyo ham u bilan birga o'tadi. Ammo qonun yoki shartnomada boshqacha hollar ham belgilanishi mumkin, ya'ni asosiy ashyo birovga o'tkazilganda mansub ashyoning qoldirilishi to'g'risida alohida kelishuv ham bo'lishi mumkin.

Mansub ashyodan uning tarkibiy qismini ajratish kerak. Ashyodan uni zararlantirmay va qiymatini jiddiy ravishda tushirmay ajratilishi mumkin bo'lmagan har narsa ashyoning tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar, masalan, velosipedning nasosi mansub ashyo bo'lsa, avtomashinaning radiatori ashyoning tarkibiy qismi hisoblanadi.

**Murakkab ashyolar.** Agar turli xil ashyolar birikmaning mohiyati bilan belgilanadigan vazifasi bo'yicha foydalanish imkonini beradigan yaxlit bir butunni tashkil etsa, ular bitta ashyo (murakkab ashyo) hisoblanadi. Murakkab ashyo xususida tuzilgan bitim, agar shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, uning tarkibiy qismlariga taalluqli bo'ladi (FKning 91-moddasi).

Fuqarolik huquqi nuqtai nazaridan ashyo deganda, insonning muayyan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obykti sifatida muomalada qatnashuvchi tabiiy xususiyatlarga ega bo'lgan va inson tomonidan yaratilgan moddiy ne'matlarni tushunamiz<sup>1</sup>.

### **3-§. Mol-mulklar fuqarolik huquqining obykti sifatida**

Fuqarolik huquqining obykti sifatida mol-mulk deganda, ma'lum shaxsga (fuqaro yoki tashkilotga) egalik huquqi bilan tegishli ayrim ashyolar yoki ashyolarning yig'indisi nazarda tutiladi.

Mol-mulk tarkibiga majburiyat huquqi, mualliflik va ixtirochilikka oid mulkiy huquqlar, oila huquqi bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlardan kelib chiqadigan mulkiy talablar, masalalar, qarz berilishida olingan tilxatlar ham kiradi.

Mol-mulk atamasi cheklangan holda, tor ma'noda sharh qilingan taqdirda faqat ma'lum shaxsga tegishli mulkiy huquqlarining aktivinigina (mulkni talab qilish huquqlarinigina) o'z ichiga oladi. Agar «mol-mulk» atamasi keng ma'noda sharhlansa, shaxsning faqat huquqlarigina, ya'ni aktivinigina nazarda tutilmay, balki uning uchinchi shaxs oldida bo'lgan majburiyatlari, ya'ni passivi ham nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi FKning 83-moddasiga asosan, mol-mulk ko'chmas va ko'char mulkka bo'linadi.

Ko'chmas mulk yer uchastkalari va yer osti boyliklari, ko'p yillik dov-daraxtlardan iborat. Ko'chmas mol-mulk bilan bog'liq huquqlarni olish yoki begonalashtirish FKning 84-moddasida belgilangan davlat ro'yxatidan o'tkazish amalga oshiriladi. FK 83-moddasining uchinchi qismida qonunda boshqa mol-mulk ham ko'chmas mol-mulk qatoriga kiritilishi mumkin deb aytilgan. Ko'chmas mulk bilan bog'liq asosiy xususiyat shundaki, u yer bilan bog'liqdir. Bular qatoriga davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan yuk tashuvchi va yengil avtomobil

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov X.R. Fuqarolik huquqi muammolari. Darslik. – T, TDYuI. 2010. – B. 298.

transportlari, havo va dengiz kemalari, shuningdek, ichki suv kemalari va boshqalar kiradi.

Bir joydan ikkinchi joyga ko'chirilishi natijasida o'zining oldingi holatini saqlab qoladigan mol-mulklar ko'char mulklar jumlasiga kiradi. Qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari ko'char mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish talab etilmaydi.

#### **4-§. Pullar va qimmatli qog'ozlar – fuqarolik huquqining obykti sifatida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyundagi «O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida»gi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasiga, «O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining Asoslari to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasiga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 3-sentyabrdagi 952–XII-sonli qaroriga muvofiq 1994-yilning 1-iyulidan boshlab O'zbekiston Respublikasining hududida 1000 so'm pul kuponga bir «So'm» nisbati bilan O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi «So'm» muomalaga kiritildi.

Fuqarolik huquqining obykti sifatida pul, asosan, ikki shaklda, ya'ni naqd pul bilan va naqd pulsiz hisob-kitob qilish shakllarida tovarlarning muomalada bo'lishida, shuningdek, bevosita tovar bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

Fuqarolik huquqi nuqtai nazaridan pulning xususiyatlari va vazifasi quyidagicha ifodalaniishi mumkin<sup>1</sup>:

– pul qonunchilikka muvofiq iste'mol qilinadigan, turiga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolarning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan turlaridan biri hisoblanadi;

– pul ko'pchilik fuqarolik-huquqiy munosabatlarda (masalan: qarz, kredit, hadya va boshqa shartnomalar bo'yicha) mustaqil obyekt sifatida ishtirok etadi;

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov X.R. Fuqarolik huquqi muammolari. Darslik. – T, TDYuI. 2010. – B. 320.

– pul fuqarolik-huquqiy munosabatlarda (masalan: oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, kontraktatsiya va boshqa shartnomalar bo'yicha) teng qiymatga ega bo'lgan obyekt hisoblanadi;

– umumiy ekvivalent, ya'ni teng qiymatga ega bo'lgan obyekt sifatida har qanday ashyo bilan almashtirish, yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplash uchun ham qo'llaniladi;

– pul har qanday qonuniy qarzning qanday holatlar, asoslarda (masalan: muayyan majburiyatlar bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi tufayli) vujudga kelishidan qat'iy nazar, uni tuzish, to'lash, qoplash vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 94-moddasida ko'rsatilganidek, O'zbekiston Respublikasining pul birligi so'mdir.

So'm yozib qo'yilgan qiymati bo'yicha qabul qilinishi shart bo'lgan qonuniy to'lov vositasidir. To'lovlar naqd pul bilan va naqd pulsiz hisob-kitoblar tarzida amalga oshiriladi.

Pul – bu shunday maxsus tovar, u hamma boshqa tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi. Hamma tovarlar singari pul ham, qiymat ham iste'mol qiymatga ega. Shu ma'noda u boshqa oddiy tovarlardan farq qilmaydi.

Pul oldi-sotdida ishlatiladi. Pul yordamida tovarni xarid etish, pulga tovar ayirboshlash (P-T) yoki tovarni sotish, ya'ni tovarni pulga ayirboshlash (T-P) yuz beradi. Bu jarayonda pul vositachilik qiladi, u muomala vositasi vazifasini bajaradi. Pulning bu vazifasini faqat real pullar va ularning muomaladagi qiymat belgilari bajaradi. Pul hamma tovarga ayirboshlanganidan, hamma yerda qabul qilinadi. Agar pul bo'lmaganida, kerakli tovar topib olish uchun o'z tovarini boshqa tovarga, boshqasini va yana boshqasiga almashtirish ko'p marta yuz berib, nihoyat kerakli tovar uchraguncha davom etgan bo'lar edi. Pul bunday mushkulliklarni oson qildi. U kerakli tovarni tez topib, tanlab olish imkonini berganidan, ayirboshlashga ketgan vaqtni, binobarin, uning xarajatlarini tejab qoladi, oldi-sotdi bevosita tovar ayirboshlashga nisbatan yuqori samaraga ega bo'ladi.

Pul jahon puli vazifasini ham bajargan. XX asrning birinchi yarmiga qadar uning o'rnini sof oltin bajargan. Ya'ni, mamlakatlar o'rtasidagi hisob-kitoblar, tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlar bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga sof quyma shakldagi oltinni ko'chirish yo'li bilan amalga oshirilgan.

Pul – bu fuqarolik huquqining maxsus obyektini bo'lib, unga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 94-moddasi bag'ishlangan va u pulning huquq obyektini sifatida bir qancha umumiy qoidalari mujassamlashtirilganini bildiradi. Ushbu modda O'zbekiston Respublikasida pul birligi bo'lib so'm hisoblanishini va u O'zbekistonning barcha hududida unda ko'rsatilgan qiymatda qabul qilinishi shartligini belgilaydi. Pullarning huquqiy rejimi to'liq holda Fuqarolik kodeksining maxsus qismi huquqiy normalari va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Pul muomalasi to'g'risida»gi Qonuni va hokazo.

Qimmatli qog'ozlar – bu ularni chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlovchi dividend yoki foiz ko'rinishida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxsga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi hujjatlardir.

Qimmatli qog'ozlar Fuqarolik kodeksining 96-moddasida ko'rsatilganidek, mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlardir. Qimmatli qog'ozlar boshqa shaxsga berilishi bilan ular tomonidan tasdiqlanadigan hamma huquqlar ham o'sha shaxsga o'tadi. Qimmatli qog'ozlar – hujjatlar bo'lib, ular bu hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi. Qimmatli qog'ozlarning qiymati O'zbekiston Respublikasi miliy valyutasida ifodalanadi.

**Qimmatli qog'ozlar jumlasiga FK 96-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilganidek:**

- Obligatsiya;

- Veksel;
- Chek;
- Depozit va jamg'arma sertifikatlari;
- Bankning taqdim qiluvchiga pul beriladigan jamg'arma daftarchasi;
- Konosament;
- Aksiya;
- Qonunchilik bilan qimmatli qog'ozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar kiradi.

Aksiyalar, obligatsiyalar va xazina majburiyatlarida aks ettiriladigan rekvizitlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, depozit sertifikatlari va veksellarda aks ettiriladigan rekvizitlarni esa O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilaydi. Qimmatli qog'ozlar egasi nomi yozilgan va taqdim etuvchiga tegishli deb ko'rsatilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar muomalasi deganda, O'zbekiston Respublikasida ularni sotib olish va sotish, shuningdek, respublika qonunlarida nazarda tutilgan, qimmatli qog'ozlar egasi almashinuviga olib keladigan boshqa harakatlar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida (depozit sertifikatlari va veksellardan tashqari) muomalaga chiqarish va ularni ro'yxatdan o'tkazish qoidalarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tasdiqlaydi. Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda belgilangan tartibda ro'yxat raqamini olgan qimmatli qog'ozlarnigina O'zbekiston Respublikasi hududida chiqarilishi va muomalada bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan qimmatli qog'ozlarni chiqarish g'ayriqonuniy hisoblanadi. Bu ularni hamda mazkur qimmatli qog'ozlarni sotishdan tushgan pulning olib qo'yilishi va boy berilgan foyda qoplanishini hisobga olgan holda investorlarga qaytarib berilishiga sabab bo'ladi.

## **5-§. Nomoddiy ne'matlar tushunchasi va tarkibi**

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida birinchi marta fuqarolik huquqining obykti sifatida nomoddiy ne'matlarga bag'ishlangan alohida bob o'z aksini topdi. Amaldagi



qonunchilikka bu bobning kiritilish zarurati fuqarolik huquqining tartibga solish doirasi kengayganligi bilan bog'liqdir. Moddiy ko'rinishdagi ne'matlar (ashyolar) bilan bir qatorda, nomoddiy ne'matlar ham fuqarolik huquqining obyektini hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksida nomoddiy ne'matlar tushunchasi berilgan bo'lib, unga asosan fuqaroga tug'ilishdan yoki qonun bo'yicha tegishli bo'lgan shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, shaxsiy daxlsizligi, qadr-qimmatini va pok nomi, kasb-kor nufuzi, xususiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va ommaviy sirlari, erkin ko'chib yurish, turish va yashash joyini tanlash, mualliflik va boshqa shaxsiy mulkiy huquqlari nomoddiy ne'matlar hisoblanadi. Ular shaxsdan begonalashtirilmaydi yoki boshqacha tarzda boshqa birovga o'tkazilishi mumkin emas. Ayni vaqtda, qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda marhumga tegishli bo'lgan shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne'matlar boshqa shaxslar, shu jumladan, huquq egasining merosxo'rlari tomonidan amalga oshirilishi va himoya qilinishi mumkinligini ham qonun nazarda tutadi<sup>1</sup>.

FKning 8-bobi nomoddiy ne'matlarga bag'ishlangan. Nomoddiy ne'mat fuqarolik huquqi obyektlarini alohida guruhini tashkil etadi.

Nomoddiy ne'matlar deganda, qonun tomonidan tan olinadigan, muhofaza qilinadigan moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan hamda egasining shaxsidan ajratish mumkin bo'lmagan ne'matlar va erkinliklar tushuniladi.

**FKda nomoddiy ne'matlarning quyidagi turlari belgilab qo'yilgan:**

- 1) intellektual faoliyat natijalari (FKning 97-moddasi);
- 2) xizmat va tijorat siri (FKning 98-moddasi);
- 3) shaxsiy nomulkiy huquqlar (FKning 99-moddasi);

Nomoddiy ne'matlarning bir qismi, ya'ni intellektual faoliyat natijalari, xizmat, tijorat sirlari iqtisodiy mazmunga ega bo'lib, tovar shakliga kiradi va mulkiy muomalada mutlaq huquqlar obyektlari sifatida namoyon bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. – T., TDYuL. 2006. – B. 154.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar esa fuqarolik muomalasida o'ziga xos tarzda, tovar shakliga kirmagan va iqtisodiy mazmunga ega bo'lmagan holda namoyon bo'ladi.

Ba'zi adabiyotlarda ishlar va xizmatlarning ham moddiy ko'rinishda bo'lmagani sababli nomoddiy ne'matlar guruhiga kiritadilar. Nomoddiy ne'matlarning fuqarolik huquqi obyekt sifatidagi xususiyati shundan iboratki, bunda, birinchidan, buzilgan nomoddiy huquq mazmunidan, ikkinchidan, bunday buzilish oqibatlarini xarakteridan kelib chiqqan holda fuqarolik huquqlarining himoya qilish usullaridan foydalanadi.

Nomoddiy ne'matlarga nisbatan huquqlar buzilgan taqdirda ko'p hollarda huquq sohibiga moddiy emas, balki ma'naviy zarar yetadi. Ma'naviy zarar huquqi buzilganligi shaxsning jismoniy yoki ruhiy iztiroblar, qayg'u-alam, g'am-tashvish singari ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Qonunga asosan, agar fuqaroga tegishli boshqa nomoddiy ne'matlarga tajovuz qiluvchi harakatlar orqali ma'naviy zarar yetkazilsa, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda, sud huquqbuzar zimmasiga ko'rsatilgan zararni pul orqali (moddiy ko'rinishda) tovon to'lash bilan qoplashni yuklashi mumkin.

Ma'naviy zararni qoplash xarajatlarini belgilashda sud huquqbuzarning aybi darajasini va boshqa e'tiborga molik holatini hisobga oladi. Sud, shuningdek, zarar yetkazilgan shaxsning individual xususiyatlari bilan bog'liq jismoniy va axloqiy qiynoqlari (iztiroblari, ruhiy azoblari) darajasini ham hisobga olmag'i shart.

Nomoddiy ne'matga nisbatan huquqlarni himoya qilishda ko'p hollarda sud huquqni qayta tiklash yoki huquqbuzarliklarni to'xtatishni ta'minlovchi choralar ko'radi. Nomoddiy ne'matlar ichida shaxsning (yuridik shaxsning ham) sha'ni, qadr-qimmati va kasbkor nufuzi alohida o'rinni egallaydi. Ayni vaqtda nomoddiy ne'matlar shaxsiy huquqlar nomi bilan yuritiluvchi o'ziga xos huquqlar majmuini ham o'z ichiga oladi (masalan, nomga, yashash joyini tanlashga, yozishmalar daxlsizligi, ya'ni, sir saqlanishiga bo'lgan huquqlar va boshqalar).

FKning 99-moddasida nomoddiy ne'matlar huquq sohibiga yo tug'ilgandan boshlab tegishli bo'ladi (yashash huquqi, sog'-salomat bo'lishiga bo'lgan huquq, shaxs sha'ni, shaxsiy daxlsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, xususiy va oilaviy sirlarga bo'lgan huquq va h.k.) yoxud qonunga muvofiq huquq subyektiga tegishli bo'ladi (masalan, nomga bo'lgan huquq, erkin ko'chib yurish huquqi, yashash joyini tanlash huquqi va h.k.) deb ko'rsatilgan.

Nomoddiy ne'mat bilan bog'liq subyektiv huquq bo'yicha huquqiy munosabatlar mutlaq hisoblanadi, ya'ni barcha subyektlar unga rioya qilishlari, buzmasliklari lozim.

Nomoddiy ne'matlar shaxsni o'zidan begonalashtirilmaydi, biroq ularni amalga oshirish va himoya qilish uchinchi shaxslarga topshirilishi mumkin (masalan, yangi tug'ilgan chaqaloqqa ism qo'yish ota-onasi tomonidan amalga oshiriladi).

Nomoddiy ne'matning noashyoviy ekanligi, uning sohibi bo'lgan subyekt shaxsi bilan uzviy bog'liq ekanligi zaruriy elementlar hisoblanadi, biroq ba'zan ularning birortasi bo'lmasligi ham mumkin. Ushbu nomoddiy ne'mat sohibi shaxsidan ajratib bo'lmasligi sababli ushbu ne'matning mavjudligi uning sohibi shaxsini takrorlanmas qiladi, individuallashtiradi. Nomoddiy ne'mat uning sohiblari ijtimoiy mavqeyini xarakterlaydi, bu mavqening ajralmas belgisi hisoblanadi, ayni vaqtda o'zining butun mavjudligi davomida o'zgarishlarga duchor bo'lishi ham mumkin. Nomoddiy ne'matlarning amal qilish muddati cheklanmagan.

Ayni vaqtda, bu belgilar shartli xarakterga ega (masalan, intellektual mulk nomoddiy ne'mat sifatida qaralsa ham, fuqarolik muomalasida o'ziga xos tovar sifatida harakatda bo'lishi mumkin).

Yuqorida ko'rsatilganidek, nomoddiy ne'matlarga nisbatan shaxsiy huquqlarning vujudga kelishi o'ziga xos, ular yuridik fakt asosida emas, balki qonunda bevosita nazarda tutilgan hollardagina vujudga keladi, deb yozadi T. Fadeyeva<sup>1</sup>. Uning

---

<sup>1</sup> Гражданское право. Ч.1. – М.: Проспект. 1996. – 301 с.

fikricha, haqiqatan ham FKning 99-moddasiga asosan, shaxsiy nomulkiy huquqlar huquq sohibiga yo tug'ilgandan boshlab, yoki qonunga muvofiq tegishli bo'ladi. Biroq tug'ilishning o'zi yuridik fakt. Bundan tashqari, har qanday shaxsiy huquqning vujudga kelishi muayyan yuridik faktsiz mumkin emas, faqat bunday yuridik faktlar bilan shaxsiy huquqlar o'rtasidagi bog'lovchi vazifasini qonun bajaradi.

Nomoddiy ne'matlar – fuqaro tug'ilganidan boshlab yoki qonunga muvofiq, tegishli bo'lgan, undan begonalashtirib bo'lmaydigan o'ziga xos xislatlari (hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr qimmati, nomi, daxlsizligi va hokazo) ga bo'lgan shaxsiy nomulkiy hamda fuqaroga va yuridik shaxsga tegishli bo'lgan va ularning roziligisiz uchinchi shaxsga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydigan shaxsiy nomulkiy ne'matlardir(mualliflik huquqi, firma nomi, ishchanlik obro'si, tovar va xizmatlar belgilari va hokazolar)<sup>1</sup>.

## **6-§. Intellektual faoliyat natijalari, xizmat va tijorat siri fuqarolik huquqining obyekt sifatida**

Aql-idrok va zakovat kishilik jamiyatining boyligi va uning kamol topishi uchun zarur bo'lgan nomoddiy ne'matlar, ya'ni ma'naviy manbalardan iborat.

Fuqarolik huquqining obyekt sifatida intellektual faoliyat natijalari, xizmat va tijorat siri nomoddiy ne'matlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ma'lumki, insonning intellektual faoliyati mahsullari, ularni yaratish jarayoni va o'z xususiyatlari bo'yicha odatdagi ashyolardan farq qiladi. Shuning uchun ular intellektual mulk obyektlari jumlasiga kiradi va fuqarolik-huquqiy munosabatlarida o'ziga xos obyekt sifatida qaraladi.

Intellektual faoliyat ijodiy faoliyat hisoblanadi. Bu ko'p hollarda aqliy mehnat kishilari – yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar, injener-texnik xodim va boshqalar faoliyatining mahsullaridir.

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov X.R. Fuqarolik huquqi muammolari. Darslik. – T., TDYuI. 2010. – B. 376.

## **Bu mahsullar fuqarolik qonunlari bilan qo'riqlanishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi kerak:**

- haqiqatda ijod mahsuli bo'lishi, ya'ni original bo'lishi;
- betakror bo'lishi;
- biron bir obyektiv shaklda ifoda etilishi<sup>1</sup>.

Huquq fanida bu mahsullarning ko'pchiligi g'oyaviy-nomoddiy ko'rinishda bo'lishi qayd etiladi. Shu sababli ham ularga nisbatan odatdagi ashyolarga, moddiy obyektga nisbatan qo'llaniladigan huquq me'yorlarini qo'llab bo'lmaydi.

## **O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari intellektual faoliyatning quyidagi natijalarini farqlaydi:**

- ixtiro, foydali model, sanoat namunalari;
- seleksiya yutuqlari;
- mualliflik va turdosh huquqlar obyektlari – fan, adabiyot, san'at asarlari, audivizual asarlar, radio eshittirishlar va televizion ko'rsatuvlar, asarlar ijrolari, EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumot bazalari;
- integral mikrosxemalar topologiyalari.

Insonning ijodiy tafakkuri bu obyektlar doirasini tinmay kengaytirib bormoqda.

Umumiy qoida bo'yicha yuridik shaxsning individuallashtirish vositalari, jismoniy va yuridik shaxslarning mahsulot va xizmatlari ham intellektual faoliyat natijalariga tenglashtiriladi (FK 97-moddasining birinchi qismi).

Individuallashtirish vositalari (firma nomi, tovar va xizmat belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomi) turdosh mahsulot va xizmatlarni boshqalaridan farqlash, ularni bir-birlari bilan chalkashtirib yubormaslikka xizmat qiladi.

FKning 97-moddasiga asosan intellektual faoliyat natijalari va ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalariga nisbatan fuqaroning yoki yuridik shaxsning mutlaq huquqi e'tirof etiladi, tan olinadi. Buning ma'nosi shundaki, mutlaq huquq egasi intellektual faoliyat natijalari va individuallashtirish vositalaridan foydalanish va tasarruf etishda faqat o'zigagina

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. – T., TDYuI. 2006. – B. 156.

tegishli bo'lgan huquq egasidir. U uchinchi shaxslarga bu obyektlardan foydalanishga ruxsat berishi va taqiqlab qo'yishga o'zigina haqli (yuridik shaxsning firma nomi bundan mustasno bo'lib, uchinchi shaxslarga foydalanish uchun berilishi mumkin emas).

Intellectual faoliyat natijalarini yaratish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish va huquqiy muhofaza qilishda vujudga keladigan munosabatlar FKning tegishli normalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida»gi, «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida»gi, «Mualliflik va turdosh huquqlari to'g'risida»gi qonunlar bilan tartibga solinadi. Subyektlarni individuallashtirish vositalaridan foydalanish masalalari O'zbekiston Respublikasining «Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida»gi Qonunda belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi FKning 98-moddasiga asosan, xizmat va tijorat sirlari ham nomoddiy ne'matlar tarkibiga kiradi. Oshkor etilishi O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan fan, texnika, ishlab chiqarish va boshqaruv sohasiga doir ma'lumotlar xizmat sirini tashkil etadi. Korxonaning tijorat siri deganda, korxonaning ishlab chiqarish, texnologiya axboroti, boshqaruvi, rejalashtirilishi, moliyalashtirilishi, moliyasi va boshqa faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hamda e'lon qilish (oshkor bo'lib qolishi) uning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, davlat siri bo'lmagan ma'lumotlar tushuniladi.

**Xizmat va tijorat sirlari fuqarolik huquqi obyekt sifatida himoya qilinishi uchun quyidagi shartlar mavjud bo'lishi lozim:**

birinchidan, xizmat yoki tijorat siri bo'lgan ma'lumotlar uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli haqiqiy yoki nisbiy tijorat qiymatiga ega bo'lishi kerak;

ikkinchidan, bu ma'lumotlardan uchinchi shaxslarning xabardor bo'lishga, bahramand bo'lishga qonuniy asoslari bo'lmasligi talab qilinadi;

uchinchidan, sir hisoblangan axborot (ma'lumot) egasi uning maxfiyligini saqlashga doir choralarni ko'rgan bo'lishi zarur.

Ushbu shartlardan birortasi mavjud bo'lmasa, xizmat yoki tijorat sirlaridan boshqalarni xabardor bo'lib foydalanganliklari uchun sir egasidan ruxsatsiz fuqarolik huquqiy tartibda javobgarlikka tortilishi uchun asos bo'la olmaydi.

Tijorat sirlari egasi ulardan o'z faoliyatida foydalanishi, shuningdek, boshqalarga foydalanish uchun litsenziya shartnomasi asosida ruxsat berishga, sotishga, boshqacha usullardan tasarruf etishga haqli.

Xizmat va tijorat siri (nou-xauni) yuridik yoki jismoniy shaxsning faoliyati bilan bog'liq muayyan xususiyatlarini ifodalovchi va ularga tegishli shaxsiy ma'lumotlardan iborat deyish mumkin. Chunki bunday ma'lumotlar yuridik shaxsning nomi, fuqaroning shaxsi bilan bevosita bog'liq ma'lumotlar hisoblanadi.

Tijorat yoki xizmat siridan iborat bo'lgan ma'lumotlar va ahborotlarning oshkor etilishi, boshqa shaxsga yetkazilishi yoki tarqatib yuborilishi ma'muriy va fuqarolik huquqiy javobgarlikni qo'llashga, shuningdek, bunday noqonuniy harakatlar natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga olib keladi<sup>1</sup>.

Xizmat va tijorat siri ahamiyatga ega bo'lgan axborot va ma'lumotlar fuqarolik – huquqiy munosabatlarning obyekt sifatida yuridik shaxs va fuqarolarning shaxsiy nomoddiy huquqlaridan hisoblanadi.

## **7-§. Ishlar va xizmatlar – fuqarolik huquqining obyekt sifatida**

Bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar ham fuqarolik huquqining obyektlari bo'lishi mumkin. Ma'lumki, fuqarolar va tashkilotlar o'zlariga qonun yoki o'zaro tuzilgan shartnomalar bo'yicha yuklatilgan xizmatlarni yoxud ishlarni amalga oshiradilar. Masalan, pudrat shartnomasiga muvofiq,

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov X.R. Fuqarolik huquqi muammolari. Darslik. – T., TDYuI. 2010. – B. 397.

xilma-xil kiyimlar, uy-ro'zg'or ashyolari va boshqa narsalarni tayyorlaydilar, ta'mirlaydilar. qurilishga oid pudrat shartnomasiga binoan turar joy qurilishi va boshqa qurilish ishlari amalga oshiriladi. Pudrat shartnomasi bo'yicha shaxslarning mehnat natijalari tovarni topshirish yoki xizmat ko'rsatish emas, muayyan ishni bajarishga qaratilgan bo'ladi. Pudrat shartnomasi orqali bir necha turdagi ishlar bajariladi. Pudrat shartnomasiga maishiy xizmat, muayyan obyektни qurish va ta'mirlash, loyihalash va rejalashtirish, ilmiy-tekshirish, tajriba konstruktorlik va tajriba ishlari kiradi.

Omonat shartnomasi bo'yicha mulklar omonat saqlanadi. Topshiriq shartnomasi yuzasidan fuqaro va tashkilotlarning turli topshiriqlari amalga oshiriladi. Vositachilik shartnomasi xizmat ko'rsatishga oid shartnomalar tizimiga mansub hisoblanadi va bunda vositachi komitent ko'rsatmalariga muvofiq o'z nomidan, lekin komitent hisobidan bir yoki bir necha bitimlarni tuzadi. Xizmat ko'rsatishning bu turida vositachi tomonidan uchinchi shaxs uchun huquqiy oqibat tug'diradigan yuridik harakat sodir etiladi. Vositachilik yordamida mol-mulknı pullı realizatsiya qilishga doir kelishuvlar amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, u savdo vositachiligi munosabatini rasmiylashtiradi. Professional savdo vositachisi (vositachi) ishtirokchi sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) va sotib oluvchi (iste'mol qiluvchi) likdan va yana kontragentlarnı topish ular bilan tuzilgan kelishuvlarnı rasmiylashtirish va bajarishdan ham ozod etadi. Masalan, xalqaro savdo munosabatlarida ishlab chiqaruvchilar (eksporter) yoki iste'mol qiluvchilar (importer) xalqaro kontragentlar bilan oldi-sotdi ishlarida xalqaro bozorda vositachi ishtirokida ish ko'radilar.

Ishlarning natijasi moddiy ko'rinishda bo'ladi. Xizmat ko'rsatish tufayli, masalan, repititorlik xizmati tufayli ilm-ma'rifat o'quvchiga singdiriladi, sayyohlik xizmati tufayli sayyohlarga tegishli xizmat ko'rsatiladi. Xizmatlarning natijasi odatda, g'oyaviy, nomoddiy ko'rinishda bo'ladi.



## 8-§. Nomulkiy huquqlar tushunchasi va belgilari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VII bobida, FKning 99-moddasida shaxsiy huquqlar haqida qoidalar mavjud. Boshqa qonunlarda (masalan, Jinoyat kodeksi, Oila kodeksi va h.k.) ham shaxsiy huquqlarni himoya qilish, ulardan foydalanish masalalari o'z aksini topgan.

Ayrim mualliflar inson huquqlari – shaxs huquqiy maqomini belgilashning muhim va ajralmas tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatib, bu huquqiy maqom turlicha ekanligini e'tirof etishadi. Ularning fikricha, shaxsning umumiy huquqiy maqomi bilan birga, uning tarmoq, tarmoqlararo va maxsus huquqiy maqomlari ham mavjud hamda ular o'rtasida o'zaro bog'lanish borligini esdan chiqarmaslik shart<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VII bobida o'z ifodasini topgan shaxsiy huquqlar ham o'z mazmuniga ko'ra, yuqoridagi nuqtai-nazarga mosdir. Albatta, Konstitutsiyada mujassamlangan shaxsiy huquqlar mazmunini o'z talqiniga ko'ra FKda nazarda tutilgan shaxsiy huquqlardan g'oyat keng bo'lib hisoblanadi. Bu shaxsiy huquqlar bir vaqtning o'zida turli huquq tarmoqlari orqali himoya qilinadi.

Adabiyotlarda nomoddiy ne'matlarning va nomulkiy huquqlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi fikrlarda umumiylik ko'proq ekanini ta'kidlash lozim. Ularda shaxsiy nomulkiy ne'matlarning quyidagi xususiyatlari ko'rsatib o'tiladi:

– ular fuqarolarning turli ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan;

– ular bevosita pulda baholanishi mumkin emas;

– ular shaxsdan ajralmaydi (bunday ne'matlarni sotish, hadya qilish, meros qilib qoldirish va boshqacha tarzda shaxsdan ajratish mumkin emas);

– ular umumiy qoidagi ko'ra, fuqaroning tug'ilishi bilan boshlanib, o'limi bilan tugaydi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Теория государство и право. – М.: Юрист. 1997. – 173 с.

<sup>2</sup> Ярошенко Н.Б. Жизнь и здоровье под охраной закона. – М.: Юр лит. 1990. – С. 11.

Shaxsiy nomulkiy huquqlarning vujudga kelishi, ularni amalga oshirish va himoya qilish bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga solish Fuqarolik kodeksi bilan bir qatorda, boshqa qonunchilik hujjatlari bilan ham amalga oshiriladi.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar nafaqat fuqarolik huquqi, balki boshqa huquq sohaslarining ham o'ziga xos obyekti hisoblanadi. Jumladan: konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, oila huquqi, jinoyat huquqi va boshqa shu kabi huquq tarmoq normalari ham shaxsiy huquqlarni o'ziga xos tarzda muhofaza qiladi<sup>1</sup>.

Shaxsiy huquqlarning nomoddiy xarakteri iqtisodiy mazmundan mahrum holda yuzaga keladi. Bu shuni bildiradiki, shaxsiy nomulkiy huquqlar baholanishi mumkin emas, ular uchun tekinlik xosdir, ularning amalga oshirilishi boshqa shaxslarning teng qiymatdagi mulkiy majburiyatlarini nazarda tutmaydi. Nomulkiy ne'matlar obyekti bu – shaxsdan ajratib bo'lmaydigan nomoddiy (ruhiy) ne'matlar: nom, sha'n, qadr-qimmat, sog'liq, shaxsiy hayot siri va boshqalardir.

Ixtiro, foydali model, sanoat namunalari tegishli huquqiy munosabatlar obyekti deb tan olinishi uchun yana aqliy faoliyat natijalarini baholay oladigan mutasaddi organning qarori ham kerak.

Qonunlar bir qator hollarda ba'zi nomulkiy huquqlar yoki shu huquqlar mazmuniga kiruvchi ba'zi vakolatlarni boshqaga o'tkazishni (berishni) ko'zda tutadi. Jumladan, tovar belgisiga bo'lgan huquq, yuridik shaxs qayta tashkil etilishi sababli boshqa yuridik shaxsga o'tishi mumkin. Ba'zi shaxsiy nomulkiy huquqlar meros bo'yicha beriladi (nashr qilish huquqi, asarni qayta ishlab chiqish va tarqatish, patent olish huquqi).

Ba'zi nomulkiy huquqlar meros sifatida o'tmasa ham, biroq huquqqa ega bo'lgan shaxsning vafotidan keyin uchinchi shaxs tomonidan himoyalanaadi. FKning 1054-moddasi «Asarning daxlsizligiga bo'lgan huquq»da, jumladan, shunday deyiladi: Muallifning vafotidan keyin asarning daxlsizligini himoya qilish

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov X.R. Fuqarolik huquqi muammolari. Darslik. – T., TDYuI. 2010. – B. 400.

vasiyatnomada ko'rsatilgan shaxs tomonidan bunday ko'rsatma bo'lmagan taqdirda esa, muallifning merosxo'rlari, shuningdek, qonunga muvofiq, mualliflik huquqlarini himoya qilish majburiyati yuklatilgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Fuqaro vafot etgan oila a'zosining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish to'g'risida da'vo bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Agar muallif va (yoki) oluvchi adresat vafot etgan hollarda xatlar, kundaliklar, yozishmalar, maqolalar va ko'rsatilgan hujjatlar marhumning xotini (eri) va bolalarining roziligi bilan chop etilishi mumkin. Shunday qilib, ba'zi subyektiv nomulkiy huquqlarning nafaqat o'zi, balki uning mazmunini tashkil qiluvchi ba'zi qismlari ham vorislarga o'tishi mumkin. Shaxsiy nomulkiy huquqning keyingi belgisi – ularning vujudga kelishi va bekor bo'lishidagi o'ziga xoslikdir. Nomulkiy huquqlar ba'zi yuridik fakt sifatidagi voqealar boshlanganda, yuridik xatti-harakatlar natijasida vakolatli organlarning hujjatlari asosida vujudga kelishi (yoki bekor bo'lishi) mumkin<sup>1</sup>.

Hodisalarga odamlarning erkiga bog'liq bo'lmagan yuzaga keladigan vaziyatlar kiradi (tug'ilish, ma'lum yoshga kirish va boshqalar). Demak, inson tug'ilishi bilan ism, sog'liq, sog'lom atrof muhit, shaxsiy qiyofaga doir subyektiv huquqqa ega bo'ladi.

Yuridik harakatlar ma'lum huquqiy oqibatlarni yuzaga keltirish maqsadidan qat'i nazar bajarilgan, lekin shu bilan birga ular qonun kuchi bilan vujudga keladigan fuqarolik huquqi subyektining qonuniy harakati sifatida xarakterlanadi (masalan, ilmiy asar yaratish (harakati) mualliflik huquqini keltirib chiqaradi).

Yuridik hujjat deganda, huquqiy natijalarga erishishga yo'naltirilgan vakolatli davlat organining qonuniy harakati tushuniladi. Masalan, tovar belgisiga bo'lgan huquq uni vakolatli davlat organida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab yuzaga keladi.

Alohida nomulkiy huquqlar bitim tuzilishi bilan yuzaga keladi (masalan, advokatlik siri huquqi-topshiriqnoma yoki haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasidan yuzaga keladi).

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. – T, TDYuI. 2006. – B. 163.

Ko'pgina shaxsiy nomulkiy huquqlar uning egasi vafot etishi bilan to'xtaydi, masalan, mualliflik nomi huquqi, yashash joyining daxlsizligi va boshqalar. Ba'zi huquqlar uchun yuridik harakatning to'xtashi ma'lum muddatning o'tishiga bog'liqdir. Masalan, adabiy asarni chop etish, qayta ishlash va tarqatish huquqi muallifning o'limidan 50 yilgacha meros bo'yicha o'tishi hamda muomalada harakat qilishi mumkin.

Shaxsiy nomulkiy huquqlarning muhim belgilaridan biri shaxsning individualligi, yakkaligidir. Shaxsiy nomulkiy huquqlar instituti bir subyekt huquqidan ikkinchisini ajratish imkonini beradi, ularning o'ziga xosligini va, shubhasiz, alohidaligini, individualligini ham himoya qiladi, har bir subyekt o'ziga xos nomulkiy huquqlar majmuiga ega, bular ham uni jamiyatdan ajratib turishga imkon beradi, biroq har qanday holda ham nomulkiy huquqlar alohida-alohida bo'lganda, individual holatda ustunlikka ega bo'ladi.

Fuqarolik huquqi fanida shaxsiy nomulkiy huquqlarni turkumlashtirish asoslariga turli mezonlar qo'yilayotgani ham tabiiy.

**Shaxsiy nomulkiy huquqlarning muayyan maqsadini yo'nalishlar bo'yicha quyidagi turlarga bo'lish mumkin:**

1) shaxsiy individuallashtirishga qaratilgan shaxsiy nomulkiy huquqlar: nomga bo'lgan huquq (yuridik shaxsning nomlanishga bo'lgan huquqi), sha'n, qadr-qimmat, ishbilarmonlik obro'yiga bo'lgan huquqlar;

2) shaxsning jismoniy daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan shaxsiy nomulkiy huquqlar (yashash, erkinlik, istiqomat joyi, turar-joyga bo'lgan huquqlar);

3) shaxsning ichki dunyosi va uning manfaatlari daxlsizligiga qaratilgan shaxsiy huquqlar (shaxsiy va oilaviy sirlar, xususiy ishlarga aralashmaslik, sha'n va qadr-qimmat)<sup>1</sup>.

Ushbu keltirilgan mezonlar shaxsiy nomulkiy huquqlar mazmunini yaxshiroq anglab yetishga va tegishli darajada himoya qilishga imkon beradi.

---

<sup>1</sup> Гражданское право. М., 1996. – С. 302.

## **9-§. Sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilish**

Sha'n, qadr-qimmat har bir shaxsning chambarchas ma'naviy boyligi hisoblanadi. Har bir inson o'zining jamiyatda egallagan mavqeyidan qat'i nazar, o'z holicha, o'ziga xos bo'lgan sha'n va qadr-qimmatga ega. U o'zicha o'z sha'n va qadr-qimmatini saqlashga va unga dog' tushirilgan taqdirda, har qanday yo'l bilan o'zini muhofaza qilishga, ya'ni sha'n va qadr-qimmatini tiklashga harakat qiladi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida «Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish huquqiga ega» ekanligi mustahkamlangan. Shuningdek, FKning 100-moddasiga binoan fuqaro yoki tashkilot o'z sha'niga dog' tushiradigan va qadr-qimmatini, ishbilarmonlik obro'sini pastga uradigan ma'lumotlar, agar ana shu ma'lumotlarni tarqatuvchi shaxs ularning haqiqat ekanligini isbot qila olmasa, sud orqali rad qilinishini talab etishga haqlidir. Bunda qonun shaxsiy huquqlarni himoya qilishda shaxsning jamiyatda o'z mehnati bilan tutgan o'rni, topgan obro'sini nazarda tutadi.

Sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'siga tajovuz qilingan taqdirda, ko'p hollarda, huquq sohibiga moddiy emas, balki ma'naviy zarar yetadi. Ma'naviy zarar huquqi buzilgan shaxsning jismoniy yoki ruhiy iztiroblari, qayg'u-alam, g'am-tashvish singari ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Qonunga asosan, agar fuqaroga uning shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzuvchi yoxud unga tegishli boshqa nomoddiy ne'matlarga tajovuz qiluvchi harakatlar orqali ma'naviy zarar yetkazilsa, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda sud huquqbuzar zimmasiga ko'rsatilgan zararni pul orqali (moddiy ko'rinishda) tovon to'lash bilan qoplashni yuklashi mumkin.

Ma'naviy zararni qoplash xarajatlarini belgilashda sud huquqbuzarning aybi darajasini va boshqa e'tiborga molik

---

<sup>1</sup> Batafsil qarang: Rahmonqulov X.R. Fuqarolik huquqi muammolari. Darslik. – T., TDYuI. 2010. – B. 410.

holatini hisobga oladi. Sud, shuningdek, zarar yetkazilgan shaxsni individual xususiyatlari bilan bog'liq jismoniy va axloqiy qiynoqlari (iztiroblari, ruhiy azoblari) darajasini ham hisobga olmog'i shart.

Sha'n, qadr-qimmatni himoya qilishda, ko'p hollarda, sud huquqni qayta tiklash yoxud huquqbuzarliklarni to'xtatishni ta'minlovchi choralar ko'radi. Sha'n fuqaroning muayyan darajada tasdiqlanishi, uning ijtimoiy holatidir. Qadr-qimmat esa mazkur holatning sohibi ongida aks ettirilishi, ya'ni jamiyat tomonidan taqdirlanishiga ko'ra, shaxsning o'z-o'ziga bergan bahosidir. Bu masala O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 6-moddasida aytilganidek, mehnat sohasida o'zini kamsitilgan deb hisoblagan shaxs kamsitishni bartaraf etish hamda o'ziga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni to'lash to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

Ishchanlik obro'si jismoniy yoki yuridik shaxsning fuqarolik muomalasida ishtirok etganidagi insofli yoki insofsiz harakat qilishini bildiradi. Biron-bir fuqaroning yoki tashkilotning nomiga, sha'niga dog' tushirishga, badnom qilishga, qadr-qimmatini pastga uradigan ma'lumotlarni tarqatishga qonun yo'l qo'ymaydi. Bunday hollarda huquqlari buzilgan shaxslarning manfaatlari, jinoyat qonunchiligi normalari (O'zbekiston Respublikasi JKning 139–140-moddalari) qo'riqlanishi yoki qo'riqlanmasligidan qat'i nazar, fuqarolik qonunchiligi bilan himoya qilinadi (FKning 100-moddasi).

Har qanday salbiy ma'lumotlar sha'n va qadr-qimmatni, ishchanlik obro'sini pastga uradigan yoki unga dog' tushiradigan ma'lumotlar hisoblanmaydi.

**Fuqarolik qonunida nazarda tutilgan ma'lumotlar:**

- birinchidan, birovning sha'niga dog' tushiradigan yoki qadr-qimmatini ishchanlik obro'sini pastga uradigan bo'lishi;
- ikkinchidan, bu ma'lumotlarning tarqatilgan bo'lishi;
- uchinchidan, mazkur ma'lumotlar haqiqatga to'g'ri kelmaydigan bo'lishi kerak<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. – T, TDYuI. 2006. – B. 169.

Shaxslarning obro'siga dog' tushiradigan ma'lumotlar deganda, qonun turmush doiralariga, jamiyatimiz axloq tamoyillariga bo'lgan munosabatlarning salbiy baholanishi tushuniladi. Ma'lumotlar konkret faktlarga baho berishdan yoki shaxsning xulqini, xatti-harakatini baholashdan iborat bo'lishi mumkin. Bunday ishlar bo'yicha javobgar taraf faktlarning haqiqatda bo'lganligini isbotlasagina yoki keltirilgan baho va tavsif dalillariga to'g'ri kelishini isbotlasagina, da'vogar oldida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Agar javobgar da'vogar shaxsni tavsiflovchi dalillarning bo'lganligini isbotlay olmasa yoki sud javobgar bergan bahosi bilan kelishmasa, uni javobgarlikka tortishi mumkin.

Agar fuqaroning sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida tarqatilgan bo'lsa, ayni shu ommaviy axborot vositalarida raddiya berilishi lozim (FK 100-moddasining uchinchi qismi).

Agar, bunday ma'lumotlar tashkilotdan olingan hujjatda uchrasa, bunday hujjat almashtirilishi yoki chaqirib olinishi lozim (FK 100-moddasining to'rtinchi qismi).

Boshqa harakatlarda raddiya berish tartibi sud tomonidan begilanadi, lekin u obro'ga putur yetkazuvchi ma'lumotlar tarqatish usuliga va xarakteriga muvofiq bo'lishi shart.

Obro'ga putur yetkazuvchi ma'lumotlarni tarqatgan shaxs bunday ma'lumotlarni rad etish bilan birga ularning tarqatilishi natijasida yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlarni ham to'lashi lozim.

Umumiy qoidaga ko'ra, fuqaroning ishchanlik obro'sini himoya qilish to'g'risidagi qoidalar yuridik shaxsning ishchanlik obro'sini himoya etishga nisbatan ham tegishli yo'sinda tatbiq etiladi (FK 100-moddasining to'qqizinchi qismi).

Bozor munosabatlari sharoitida fuqarolar va yuridik shaxslarning sha'ni, obro'si, qadr-qimmati, shuningdek, ishchanlik faoliyati obro'sini tiklash, ijtimoiy munosabatlarda ularning faoliyatiga odilona baho berish, ayniqsa, katta hayotiy ahamiyatga ega.

## **10-§. Fuqaroning ismga bo'lgan huquqi va uni huquqiy himoya qilish**

Fuqaroning ismi deganda uning ismi, ota ismi va nasabi ham nazarda tutiladi. Har bir shaxs o'zining kim ekanligini o'z nomi bilan isbotlaydi va shu bilan o'z nomiga ega bo'lgan boshqa shaxslardan ajralib turadi. Nom olish, ya'ni nasab, ism va ota ismini olish, nomni o'zgartirish maxsus qonunlar bilan, jumladan, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish tartibi to'g'risidagi qoidalar bilan tartibga solinadi.

FKning 19-moddasida fuqaroning ismi bilan bog'liq qator normalar belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, agar qonundan yoki milliy odatdan boshqacha tartib kelib chiqmasa, fuqaro o'z familiyasi va nomidan, shuningdek, otasining ismi bilan huquq va burchlarga ega bo'ladi hamda ularni amalga oshiradi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda fuqaro taxallusdan foydalanishi mumkin.

Fuqaro fuqarolik muomalasida yashirin tarzda harakat qilishga faqat qonunda yo'l qo'yilgan hollarda yo'l qo'yiladi (masalan, mamlakatimizda muallif o'z asarini nomini ko'rsatmasdan, anonim tarzda nashr etishga haqli, tijorat banklarida xorijiy valyutalar ko'rinishida omonatlar qo'yishga haqli).

Fuqaro qonunda belgilangan tartibda o'z ismini o'zgartirishga haqli. Fuqaroning o'z ismini o'zgartirishi avvalgi ismi bilan olgan huquq va burchlarini bekor qilish yoki o'zgartirish uchun asos bo'lmaydi.

Fuqaro o'z ismini o'zgartirganligi haqida qarzdorlari va kreditorlariga xabar berishi uchun zarur choralarni ko'rishi shart va u mazkur shaxslarda fuqaroning ismi o'zgarganligi haqida ma'lumot yo'qligi tufayli kelib chiqishi mumkin oqibatlar xavfini o'z zimmasiga oladi.

Ismni o'zgartirgan fuqaro o'zining avvalgi ismiga rasmiylashtirilgan hujjatlarga o'z hisobidan tegishli o'zgartirishlar kiritilishini talab qilishga haqli. Masalan, shaxs nikohga kirishi munosabati bilan eri (xotini) familiyasini olishi uning avvalgi



hujjatlari (diplomi, omonat daftarchasi, xizmat guvohnomasi va shu kabilar)ni ham tegishli ravishda o'zgartirish berish haqida tegishli idoralardan talab qilish huquqini beradi. Biroq bu o'zgartirishlarni amalga oshirish xarajatlari manfaatdor shaxs zimmasiga tushadi.

Ayrim hollarda, subyektlarni, (masalan, tergovda, sudda ayblanuvchi, sudlanuvchi sifatida qatnashayotgan shaxs, bankrotlik bo'yicha ish qo'zg'atilgan yakka tadbirkor yoki tadbirkorlik subyekti muassisi bo'lgan jismoniy shaxsni) muayyan vaqtinchalik belgilangan muddatda o'z ismini o'zgartirish haqidagi murojaati rad etilishi mumkin.

Fuqaro tug'ilgan vaqtida olgan ismini, shuningdek, o'zgartirilgan ismini fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish uchun belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishi kerak.

Boshqa shaxs ismidan foydalanib huquq va burchlarga ega bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'z ismi bilan yashash huquqiga e'tiroz bildirilayotgan yoki ismidan qonunsiz foydalanilayotganligi munosabati bilan manfaatlari buzilayotgan shaxs manfaatlarini buzuvchidan bunday harakatlarga chek qo'yishni, raddiya berishni talab qilishi mumkin. Agar manfaat qasddan buzilayotgan bo'lsa, jabrlangan shaxs qo'shimcha sur'atda zararni qoplashni talab qilishi mumkin. Zararni qoplash uchun manfaati buzilgan shaxsning daromadini berish talab qilinishi mumkin. Manfaat qasddan buzilganida jabrlanuvchi ma'naviy zararining qoplanishini ham talab qilishga haqli. Masalan, bir shaxs o'zini mashhur san'atkorlardan birining nomi bilan ko'rsatib, chekka qishloqlarda konsertlar beradi. Bundan xabar topgan san'atkor uning nomidan foydalangan shaxsga nisbatan FKning 20-moddasida belgilangan tartibda va asoslarda da'vo qilishga haqli<sup>1</sup>.

Ism yoki shaxsiy sha'n egasi bo'lmagan, lekin oilaviy mavqeyiga ko'ra bundan manfaatdor bo'lgan shaxs ham FK 20-moddasining ikkinchi qismiga asosan o'zganing ismidan g'ayriqonuniy foydalanayotgan shaxsdan bu harakatlarga chek

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. – T., TDYuI. 2006. 171–172-betlar.

qo'yishni va raddiya berish haqidagi talablarni qo'yishi mumkin. Bu shaxs boshqa shaxsning o'limidan keyin ham uning ismini va sha'nini himoya qilishga qaratilgan talablarning bajarilishiga harakat qilishi mumkin. Ismini va sha'nini buzish tufayli keltirilgan zararni qoplash talabi o'limdan keyin tan olinadi.

Shunday qilib, nomga bo'lgan huquq obyektiv huquqdan iborat. Qonun boshqa shaxsning nomi ostida huquqlar va majburiyatlarga ega bo'lishni to'g'ridan-to'g'ri taqiqlaydi.

Fuqarolik huquqida nomga bo'lgan huquq fuqaroning yoki yuridik shaxsning mulkiy huquq bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy nomulkiy huquqi sifatida fuqaroning yoki yuridik shaxsning o'z nomi ostida huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirish imkoniyatidan iborat.

### **Tayanch iboralar:**

Fuqarolik huquqining obyekti, moddiy ne'matlar, nomoddiy ne'matlar, ashyolar, mol-mulklar, qimmatli qog'ozlar, ishlar, xizmatlar, intellektual faoliyat natijalari, xizmat va tijorat siri, shaxsiy nomulkiy huquqlar.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Fuqarolik huquqining obyektlariga ta'rif bering.
2. Fuqarolik huquqi obyektlarining qanday turlarini bilasiz?
3. Fuqarolik muomalasidan chiqarilgan ashyolarga nimalar kiradi?
4. Ashyolarning qanday turlarini bilasiz?
5. Murakkab ashyolarning mohiyatini tushuntirib bering.
6. Fuqarolik muomalasida cheklangan ashyolarni sanab bering.
7. Fuqarolik huquqining obyekti sifatida ishlar va xizmatlarga misol keltiring.
8. Nomulkiy huquqlarning qanday turlarini bilasiz?
9. Xizmat va tijorat sirlari fuqarolik huquqining obyekti sifatida himoya qilinishi uchun qanday shartlar mavjud bo'lishi kerak?
10. Nomoddiy ne'matlar deganda nimani tushunasiz?

## 1-§. Bitimlar tushunchasi va turlari

Bitimlar jismoniy va yuridik shaxslarning ongli, aniq maqsadga qaratilgan, erk-irodasi asosidagi xatti-harakatlari bo'lib, ularni amalga oshirish orqali ular muayyan huquqiy oqibatlarga erishishga intiladilar<sup>1</sup>.

Bitimlar deb fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlarga aytiladi (FKning 101-moddasi).

Har qanday bitim shaxslarning erki-irodasi bilan bog'liq bo'lib, muayyan huquqiy oqibat tug'dirishga qaratiladi. Bitimda fuqaro va tashkilotlarning ma'lum moddiy hamda madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan e'klari ifodalanadi.

Bitim shaxslarning erki bilan bog'liq bo'lgan ularning irodasidan kelib chiqadigan harakat bo'lganligi tufayli bitimda ifodalangan erk izhor qilinishi, ya'ni boshqa shaxslarga bildirilishi lozim.

Bitim tuzish natijasida muayyan huquqiy oqibat tug'dirish uchun bitim tuzuvchi shaxslar bitimda o'z e'klarini ifodalashdan tashqari muayyan harakatni qilishlari lozim bo'ladi. Bu harakat shart qilingan ishni bajarishga, ma'lum mulkni topshirishga yoki ma'lum pulni to'lashga qaratilgan bo'lishi mumkin<sup>2</sup>.

Fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan holatlar sifatida yuridik fakt tarkibiga kiradigan bitimlar boshqa yuridik faktlardan farq qiladi. Masalan, yuridik fakt hisoblangan hodisa shaxslarning erkidan tashqari vujudga kelsa, bitimlar faqat shaxslarning erki bilangina tuziladi.

**Bitimlar tushunchasi uchun quyidagi shartlar muhimdir:**

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov X.R. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild. – T., 2010. – B. 292.

<sup>2</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., 2006. – B. 158.

a) bitim tuzuvchi shaxs fuqarolik huquqining subyekti hisoblanadi;

b) muayyan bitimni tuzuvchi shaxsda bu bitimni tuzish erki bo'lishi va bu erk ma'lum huquqiy oqibatlar tug'dirishga qaratilgan bo'lishi lozim;

v) shaxsning erki muayyan yuridik fakt hisoblangan harakatda o'zining tashqi ifodasini topishi, ya'ni ma'lum shaklda izhor qilingan bo'lishi kerak.

### **Fuqarolik huquqi fanida bitimlar o'zlarining belgilari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:**

1. Bitim tuzuvchilarning eklari ifoda etilishiga qarab bitimlar bir tomonlama, ikki tomonlama, ko'p tomonlama bitimlarga bo'linadi.

Bir tomonlama bitimda faqat bir tomonning erki ifodalanadi, huquq va majburiyat faqat bir tomonning irodasi bo'yicha vujudga keladi, o'zgaradi yoki bekor bo'ladi. Bir tomonlama bitimlarga misol qilib vasiyat, merosdan voz kechish, ishonch qog'ozi berish, vakolat olmasdan vakillik qilgan shaxsning harakatlarini vakolat beruvchi ma'qullashini ko'rsatsa bo'ladi. Bir tomonlama bitim uni tuzgan shaxs uchun majburiyatlar keltirib chiqaradi.

Ikki tomonlama bitimlar har ikki tomonning erkiga muvofiq tuziladi. Bunday bitimlar shartnomalardir. Ikki tomonlama bitimga misol qilib oldi-sotdi, mulk ijarasi, sug'urta va boshqa shartnomalarni ko'rsatsa bo'ladi<sup>1</sup>.

Ikki taraflama bitim faqat o'z huquqiy maqsadlarini ko'zlovchi ikki tarafning erk izhori mavjud holatlarda huquqiy natijani vujudga keltiradi<sup>2</sup>.

Ko'p tomonlama bitimlar uch va undan ortiq shaxslarning eklari ifodalanib tuziladi. Ko'p tomonlama bitimlarga misol qilib, ta'sis shartnomasi va oddiy shirkat (birgalikdagi faoliyat) shartnomasini ko'rsatsa bo'ladi. Ko'p tomonlama bitimlar ham ikki tomonlama bitimlar singari o'zaro kelishuv, ya'ni

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., 2006. – B. 159.

<sup>2</sup> Batafsil qarang: Rahmonqulov. X. R. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild. – T., 2010. – B. 299.

shartnomadir. Har qanday shartnoma bitim hisoblansa ham, har qanday bitim shartnoma bo'la olmaydi. Aksariyat bitimlar shartnoma hisoblanishi mumkin.

2. Bitimlar muqobil ijroning bo'lish-bo'lmasligiga qarab haq baravariga va tekinga tuziladigan bitimlarga bo'linadi.

Haq baravariga tuziladigan bitimlar bo'yicha tomonlardan har biri qarshi tomon foydasiga muayyan bir mulkni topshirish, pul to'lash, ishni bajarish, biror xizmat ko'rsatish singari harakatlarni qilish majburiyatini oladi. Haq baravariga tuziladigan bitimlarga qarshi (muqobil) ijro nazarda tutiladigan bitimlar oldi-sotdi, ayirboshlash, pudrat, sug'urta kabi shartnomalardir, chunki ularda tomonlardan har biri qarshi tomon foydasiga birona harakat qiladi. Masalan, sotuvchi pul evaziga ma'lum mulkni topshiradi.

Tekin, ya'ni haq to'lanmay tuziladigan bitimlar asosida tomonlardan biri ikkinchi tomon foydasiga biron-bir harakat qilish majburiyatini oladi. Bu yerda qarshi (muqobil) ijro yo'q. Masalan, hadya, foizsiz qarz, mulkdan tekin foydalanish (ssuda) to'g'risidagi shartnomalarni ko'rsatish mumkin.

3. Bitimlar qay paytdan e'tiboran tuzilgan deb hisoblanishini aniqlash maqsadlarida konsensual va real bitimlarga bo'linadi.

Konsensual bitim deb huquq va majburiyatlarni o'zaro kelishish va bunday kelishuvni lozim tartibda rasmiylashtirish paytida vujudga keltiradigan bitimga aytiladi. Mulk ijarasi, mahsulot yetkazib berish, pudrat, kontraktatsiya singari shartnomalar konsensual bitim hisoblanadi.

Real bitim deb o'zaro kelishuvga muvofiq, ashyolar yoki pulni topshirish paytida huquq va majburiyatni vujudga keltiradigan bitimga aytiladi. Real bitimlarga misol qilib, qarz, omonat saqlash, yuk tashish shartnomalarini ko'rsatsa bo'ladi.

4. Bundan tashqari, bitimlar kazual va abstrakt bitimlarga bo'linadi. Har qanday bitim huquqiy asosga – subyektlar erishishni ko'zlayotgan huquqiy maqsadga ega. Shu sababli kazual bitimda undan qanday maqsad ko'zda tutilayotgani, ya'ni nima sababdan tuzilayotgani ko'rinib turadi.

Abstrakt bitimlar go'yoki bitim asosidan uzilib qolgan huquq va majburiyatlarni vujudga keltiruvchi bitimlardir.

5. Bitim ishtirokchilarining o'zaro munosabatlariga xos alohida xususiyatlariga ko'ra bitimlarni fidutsiar va fidutsiar bo'lmagan turlarga bo'lish mumkin<sup>1</sup>.

## **2-§. Bitimlarning muddatlari va shartli bitimlar**

Huquq subyektlari tomonidan tuziladigan bitimlar muayyan muddatlarda ijro etiladi va bekor bo'ladi.

Agar bitimda huquq va majburiyatlarning vujudga kelishi yoki bekor bo'lish vaqti ko'rsatilgan bo'lsa, bitimlar muddatli hisoblanadi.

### **Bitimlarda muddatlar quyidagicha:**

- a) ma'lum kun, oy, yil bilan (masalan, 2012-yil 15-noyabr);
- b) ma'lum vaqtning o'tishi bilan (masalan, bir yarim yildan keyin o'tishini ko'rsatish);
- v) ma'lum bir voqea yuz berishi bilan belgilanadi.

Agar bitimda uning ijro etilish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, bunday bitim muddatsiz hisoblanadi. FKning 242-moddasida ko'rsatilganidek, agar majburiyatni bajarish muddati ko'rsatilmagan yoki talab qilib olish payti belgilab qo'yilmagan bo'lsa, kreditor har qachon ijroni talab qilishga, qarzdor esa ijroni har qachon amalga oshirishga haqli bo'ladi. Majburiyatni darhol bajarish vazifasi qonun, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab yetti kunlik muddat ichida bajarishi shart.

Shartli bitim deb taraflar o'rtasida tuziladigan bitimning amalga oshirilishi yoki bekor bo'lishi biron-bir shartga bog'lab qo'yilishiga aytiladi.

### **Shartli bitimlar ikki xil ko'rinishda bo'ladi:**

- a) sharti kechiktirilgan;
- b) bekor bo'lish sharti bilan tuziladigan bitimlardir.

FKning 104-moddasining birinchi qismida aytilganidek, agar taraflar huquq va burchlarning kelib chiqishining yuz berishi yoki

---

<sup>1</sup> Batafsil qarang: Rahmonqulov X.R. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild. – T., 2010. 301–302-betlar.

bermasligi noma'lum bo'lgan holatga bog'liq qilib qo'ysalar, bitim sharti kechiktirish sharti bilan tuzilgan hisoblanadi. Aytaylik, uy egasi turar joyni ijaraga berilishini o'g'lining ma'lum vaqtga boshqa shaharga o'qishga ketishi sharti bilan bitim tuzadi, agar o'g'li boshqa shaharga ketmasa, bunda taraflar o'rtasida hech qanday huquq ham, majburiyat ham vujudga kelmaydi<sup>1</sup>.

FKning 104-moddasining ikkinchi qismi bekor bo'lish sharti bilan tuzilgan bitimni ta'kidlaydi. Unda ko'rsatilishicha, agar tarafning huquq va burchlarning bekor bo'lishining yuz berishi yoki bermasligi noma'lum holatga bog'liq qilib qo'ysalar, bunday bitim bekor bo'lish sharti bilan tuzilgan bitim hisoblanadi. Masalan, turar joyni ijaraga beruvchi fuqaro muayyan bir hol sodir bo'lganda, aytaylik o'g'lining chet eldan o'qishdan qaytishi bilan, uyni bo'shatib berishni shart qilib, ijara shartnomasi tuzgan bo'lsa, o'g'li qaytishi bilan ijara shartnomasi bekor bo'ladi. Shartli ravishda majburiyat olgan shaxs shartga bog'liq bo'lgan huquqni yomonlashtirish yoki yo'q qilishga qaratilgan harakatlarni qilmasligi kerak.

Agar shartning yuz berishiga ushbu shartning yuz berishidan manfaatdor bo'lgan taraf insofsizlik bilan yordamlashgan bo'lsa, bu shart sodir bo'lmagan hisoblanadi (FK 104-moddasining to'rtinchi qismi). Masalan, mol-mulklarini sug'urta qildirgan shaxs sug'urta summasini olish maqsadida mol-mulkka qasddan o't qo'yib yondirsa, bu holda sug'urta summasi to'lanmaydi.

### **3-§. Bitim shakllari**

Bitim tuzishda erkni ifodalash usuliga bitim shakli deb aytiladi. Bitimlar og'zaki va yozma (oddiy yoki notarial tasdiqlangan) shaklda tuziladi (FK 105-moddasining birinchi qismi).

FKning 106-moddasiga binoan, qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida yozma tasdiqlangan shakl belgilab qo'yilmagan, jumladan, u tuzilayotgan vaqtning o'zidayoq bajariladigan bitim og'zaki tuzilishi mumkin. Shaxsning xatti-harakatidan uning

---

<sup>1</sup> Batafsil qarang: Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., 2006. – B. 160.

bitim tuzishga bo'lgan xohish-irodasi bilinib turgan holda ham bunday bitim tuzilgan hisoblanadi.

Jeton, patta yoki odatda qabul qilingan boshqa belgi berish bilan tasdiqlangan bitim, agar qonunchilikda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, og'zaki shaklda tuzilgan bitim hisoblanadi.

Yozma shaklda tuzilgan shartnoma bajarishga qaratilgan bitimlar, agar qonunchilik va shartnomaga zid bo'lmasa, taraflarning kelishuviga muvofiq og'zaki tuzilishi mumkin.

Qonunda indamasdan, sukut saqlash orqali ham bitim tuzilishi mumkinligi nazarda tutiladi. Bu holda xalqimizning qadimdan mavjud «sukut-rozilik alomati» qoidasi amal qiladi. Biroq bunday usulda bitim tuzishga faqat cheklangan hollardagina yo'l qo'yiladi. FKning 105-moddasiga asosan sukut saqlash qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan hollarda bitim tuzishga bo'lgan xohish-irodaning ifodasi hisoblanadi.

Yuqorida aytilganidek, shaxsning xulq-atvori, xatti-harakatlaridan bitim tuzishga bo'lgan xohish-irodasi bilinib turgan hollarda ham bunday bitim tuzilgan hisoblanadi. Bu usulda tuzilgan bitimlarning nomi lotincha «konklyudo» so'zidan olingan bo'lib, «tuzaman» degan ma'noni anglatadi. Konklyudent harakatlar shunday harakatlarki, ular og'zaki shaklda ham, yozma shaklda ham ifoda etilmagan bo'lsa-da, shaxsning niyati, maqsadi haqida o'z-o'zidan guvohlik berib turadi.

### **Yozma shaklda tuziladigan bitimlar ikki turga:**

- a) oddiy yozma;
- b) notarial idoralarda, shuningdek, qonun bilan nazarda tutilgan hollarda, boshqa organlarda tasdiqlanadigan bitimlarga bo'linadi.

Oddiy yozma bitim bitimning shartlarini o'z ichiga olgan va taraflar (yoki bir taraf) tomonidan imzolangan hujjatga aytiladi.

### **Bitimlar quyidagi hollarda oddiy yozma shaklda tuziladi:**

1) yuridik shaxslarning o'zaro va fuqarolar bilan tuziladigan bitimlari;

2) fuqarolar o'rtasidagi belgilangan eng kam oylik ish haqining o'n baravaridan ortiq bo'lmagan summadagi bitimlar,



qonunda belgilangan hollarda esa bitim summasidan qat'i nazar boshqa bitimlar.

Yozma bitim uni tuzuvchilar yoki ularning vakillari tomonidan imzolanishi kerak. Agar fuqaro jismoniy kamchiligi, kasalligi yoki boshqa biron sabab tufayli bitimni imzolay olmasa, bu holda uning topshirig'iga binoan boshqa fuqaro imzolashi mumkin. Bu fuqaroning imzosi bitim tuzuvchi ishlab yoki o'qib turgan tashkiloti va yashash joyidagi uy boshqarmasi yoki u davolanayotgan muassasaning ma'muriyati yoxud notarial idora tomonidan tasdiqlanishi lozim. Bunday hollarda bitim tuzgan shaxsning o'zi qanday sabab bilan bitimni imzolay olmaganligi, albatta, ko'rsatilishi kerak.

Tashkilotlar tomonidan tuziladigan yozma bitimlarda mazkur tashkilot rahbarining imzosi va muhri bo'lishi lozim. Ba'zi yuridik shaxslar tomonidan tuziladigan bitimlarda ikkita imzo: tashkilot rahbari va boshqa mansabdor shaxs, odatda, bosh buxgalter yoki buxgalterning imzosi bo'ladi. Xatlar, telegrammalar, telefonogrammalar, teletaypogrammalar, fakslar yoki subyektlarni va ular xohish-irodasi mazmunini belgilaydigan boshqa hujjatlarni o'zaro ayirboshlash, agar qonunda yoki taraflarning kelishuvida boshqacha hol belgilanmagan bo'lsa, yozma shaklda tuzilgan bitimga tenglashtiriladi.

Ba'zi hollarda yozma tuzilgan bitim qo'shimcha talabga ham javob berishi lozim (muayyan shakldagi tuzilishi, muhr bilan tasdiqlanishi va h.k.).

Yozma shaklda tuzilgan bitimni bajargan taraf ikkinchi tarafdin ijroni tasdiqlovchi hujjat talab qilishga haqli. Bu qoida og'zaki tadbirkorlik bitimiga nisbatan ham joriy qilinadi.

Qonun bilan talab etilgan bitimning oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi, biroq nizo kelib chiqqan taqdirda, taraflarni bitimning tuzilganligini, mazmunini yoki bajarilganligini guvohlarning ko'rsatuvlari bilan tasdiqlash huquqidan mahrum qiladi (FKning 109-moddasi).

Oddiy yozma shaklga rioya qilmasdan tuzilgan bitim qonun yoki taraflarning kelishuviga bevosita zid bo'lmasa, o'z-o'zicha haqiqiy bo'lib sanalsa ham, nizo chiqqan taqdirda bitimning

tuzilganligini va uning mazmunini guvohlarning ko'rsatmalari bilan isbotlab bo'lmaydi.

Notarial guvohlantirilgan bitim deb belgilangan shaklda notariat xati bo'lgan, notarius tomonidan imzolangan va gerbli muhr bosilgan yozma hujjatga aytiladi. Notarial shakldagi bitim uni tuzuvchilar yoki vakillari tomonidan notarius huzurida imzolanadi.

Bitimlarni notarial tartibda tasdiqlash faqat qonunda ko'rsatilgan yoki taraflardan biri talab qilgan hollardagina majburiydir. Jumladan, uy-joylarning oldi-sotdisi, garovga qo'yish shartnomalari va boshqa ba'zi shartnomalar, shuningdek, mulkni vasiyat qilish to'g'risidagi bitim (vasiyatnoma) notarial tartibda tasdiqlanishini talab qiladi.

**Bitimlarning oddiy yozma va notarial tasdiqlangan shaklda tuzilishi ba'zi muhim asoslar bo'yicha belgilangan, jumladan:**

**birinchidan**, bitimning yozma shakli bitim tuzilganligi faktini bir tomonning bayonotiga yoki guvohlarning ko'rsatmalariga qaraganda asosliroq isbotlaydigan dalil bo'la oladi;

**ikkinchidan**, yozma shakl og'zaki shakldan ko'ra bitimning haqiqiy mazmunini aniqlashga yaxshiroq yordam beradi va zarur hollarda uni tegishli davlat organlari tomonidan tekshirilishini yengillashtiradi. Shu nuqtai nazardan bitimning insofsiz ishtirokchilari tomonidan ba'zi hollarda yo'l qo'yiladigan suiiste'molchiliklarga qarshi ma'lum darajada garov bo'lib xizmat qiladi;

**uchinchidan**, bitimning yozma shakli taraflar uchun majburiy bo'lishi yuridik faktlarni hujjatlashtirish va taraflarning faoliyatlari ustidan nazorat olib borish imkoniyatini beradi;

**to'rtinchidan**, bitimlarning yozma shaklda rasmiylashtirilishi fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini muayyan tartibga, o'z erklarini aniq ifoda etishga va bitim bilan nazarda tutilgan shartlarni puxta bajarishga o'rgatadi.

Qonun ba'zi hollarda bitimlarning yozma yoki notarial shaklda rasmiylashtirilishidan tashqari, tegishli davlat muassasalarida qayd etilishini (ro'yxatdan o'tkazilishini) talab qiladi. Masalan,

yer uchastkalari va boshqa ko'chmas mol-mulk bilan bog'liq bitimlar (boshqa shaxsga berish, ipoteka, uzoq muddatli ijara, merosni qabul qilib olish va boshqalar) davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak (FKning 111-moddasi).

Qonun bo'yicha talab qilinadigan shaklga rioya qilmaslik oqibatida qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan taqdirdagina bitimning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi. Jumladan, bitimning notarial shakliga yoki uni davlat ro'yxatidan o'tkazish talabiga rioya qilmaslik bitimning haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi. Bunday bitim o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi (FK 112-moddasining birinchi qismi). Bunday hollarda bitim tuzgan taraflar har bir bitimga binoan olingan hamma narsani qaytarishga, buning imkoniyati bo'lmaganda, agar haqiqiy bo'lmagan bitimning boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilmagan bo'lsa, uning qiymatini pul bilan to'lashga majbur bo'ladi.

Agar taraflardan biri notarial tasdiqlash talab qilinadigan bitimni to'la yoki qisman bajargan bo'lsa, ikkinchi taraf esa bitimni notarial rasmiylashtirishdan bosh tortsa, sud bitimni bajargan tarafning talabi bo'yicha uni haqiqiy hisoblashga haqlidir. Bu holda bitimni keyinchalik notarial rasmiylashtirish talab qilinmaydi (FK 112-moddasining ikkinchi qismi).

Agar davlat ro'yxatidan o'tkazish talab qilinadigan bitim kerakli shaklda tuzilgan bo'lib, ammo taraflardan biri uni ro'yxatdan o'tkazishdan bosh tortsa, sud boshqa tarafning talabi bilan bitimni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror chiqarishga haqli. Bunday hollarda bitim sud qaroriga muvofiq ro'yxatdan o'tkaziladi (FK 112-moddasining uchinchi qismi).

#### **4-§. Birja bitimlari**

Birja – oldindan belgilangan joy va muayyan vaqtda, belgilangan qoidalar asosida birja savdolarini tashkil etuvchi yuridik shaxs hisoblangan korxonadir.

Bitimlar orasida birja bitimlari o'ziga xos xususiyatga ega. Birja bitimi birja tomonidan ro'yxatga olingan, birja savdosining birjada qayd etilgan natijasi bo'yicha tuzilgan birja tovariga doir oldi-sotdi shartnomasidir.

**O'zbekiston Respublikasining «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi Qonunining 16-moddasida birjalarda tuziladigan tovarlarning oldi-sotdi bitimlari ko'rsatilgan bo'lib, ular quyidagilardir:**

– birja tovarlarining ularni kechiktirmasdan yetkazib berish sharti bilan tuziladigan oldi-sotdi bitimlari (spot);

– birja tovarlarining ularni kechiktirib yetkazib berish sharti bilan tuziladigan oldi-sotdi bitimlari (forvardlar);

– birja tovarini yetkazib berishni (yetkazib berish fyuchersi) yoki birja tovarini yetkazib bermagan holda bitim taraflari o'rtasida pul hisob-kitoblari amalga oshirilishini (hisob-kitob fyuchersi) nazarda tutadigan, kelgusida bajarish majburiyati bilan tuziladigan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) oldi-sotdi bitimlari (fyucherslar);

– birja tovarlarini yoki hosila moliyaviy vositalarni (derivativlarni) kelgusida sotib olish yoxud sotish huquqi bilan tuziladigan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) oldi-sotdi bitimlari (opsionlar);

– valyutalarni bir vaqtda olish-sotishga doir bitimlar bo'yicha hisob-kitoblarni muayyan muddat o'tgach, avvaldan belgilangan valyuta kursi bo'yicha amalga oshirish sharti bilan tuziladigan valyutalarni bir vaqtda olish-sotishga doir bitimlar (valyuta svoplari);

– qimmatli qog'ozlarni muayyan muddat o'tgach, avvaldan belgilangan narx bo'yicha qayta sotib olish sharti bilan tuziladigan qimmatli qog'ozlarga doir oldi-sotdi bitimlari (repo) tuzilishi mumkin.

Birjada qonunchilikka muvofiq boshqa birja bitimlari ham tuzilishi mumkin<sup>1</sup>.

Qonunda ko'zda tutilgan birja bitimlarini ularning ijro muddatiga ko'ra ikki turga bo'lish mumkin.

Birinchi turdagi bitim tuzilgan vaqtning o'zidayoq topshiriladigan tovar yoki mulk huquqini beruvchi hujjat shu vaqtning

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 12-sentyabrdagi «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-375-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil, 38-son, 481-modda.

o'zidayoq deb aytilsa-da, oldi-sotdi jarayoni o'tgunicha ma'lum bir vaqtni talab etadi.

Ikkinchi turdagi bitimlarga forvard, fyuchers, opsiyon bitimlar kiradi. Forvard bitimlar, ya'ni muddatli bitimlar fond va tovar birjalarida qo'llaniladigan, kelgusida tovarni yetkazib berish yoki qimmatli qog'ozni sotishni nazarda tutuvchi bitimdir. Bu bitimning ham asosiy xususiyatlaridan biri ko'zda tutilgan harakatni ma'lum vaqt o'tganidan keyin sodir qilish hisoblanadi. Uning yana bir xususiyati sotib oluvchi mavjud tovarni ko'rib yoki tovarni o'zini ko'rmasdan turib bitim tuzadi, bunda kelgusida ishlab chiqarilishi mo'ljallanayotgan tovar ko'zda tutiladi.

Fyuchers bitimlari oldi-sotdi bitimlaridan biri bo'lib, bu bitimlar bo'yicha tovarlar, xomashyolar, yarim fabrikat tayyor mahsulotlar yoki qimmatbaho qog'ozlarni shu bitimda ko'rsatilgan bahoda faqat ma'lum bir vaqt o'tganidan keyin sotiladi. Ya'ni, fyuchers bitimlari-tovar yoki fond birjasida bajariladigan muddatli bitimdir. Bu bitimning o'ziga xos tomoni shundaki, bunda tuzilgan bitimda ko'rsatilgan bahodan bitimni ijro qilish vaqtida bozor bahosi o'rtasidagi fakt tufayli qo'shimcha daromad olish yoki buning aksi bo'lishi mumkin.

Opsiyon bitimlar (lotincha «optio» – tanlash) bir necha harakat yoki qarordan birini tanlashni anglatadi. Opsiyon bitimlarda alternativ majburiyatlar paydo bo'lib, huquqiy jihatdan teng bo'lgan harakatlardan birini tanlash imkoniyati, ya'ni o'z majburiyatini bajarish yoki ularni bajarmaslik mumkin bo'ladi. Bunga misol qilib shartnomada bir tomonga shartnomada ko'zda tutilgan muddatning xohlagan kunda (amerikacha opsiyon) tovarni yoki qimmatbaho qog'ozni talab qilish, yoki bo'lmasa, o'zining bu huquqidan voz kechish huquqi berilishini ko'rsatish mumkin.

Birja bitimini ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish birja savdolari natijalari bo'yicha yozma yoki elektron shaklda amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlarga doir birja bitimlarini yozma ravishda rasmiylashtirish talab qilinmaydi.

Birja bitimlari notarial tartibda tasdiqlanmaydi, amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasnodir.

## **Yuqoridagilardan ko'rinadiki, birja bitimlari umumiy oldi-sotdi bitimlardan quyidagi holatlar bo'yicha farq qiladi:**

birinchidan, birja bitimlari faqat birja savdosi jarayonida tuziladi;

ikkinchidan, bitimning obyeksi bo'lgan tovar yoki qimmatli qog'ozni birja savdosiga qo'yish uchun, albatta, birja tomonidan ijozat berilgan bo'lishi lozim (Birja savdosiga qo'yiladigan tovar yoki qimmatli qog'oz birja axborotnomasiga (ro'yxatiga) kiritiladi. Buni «listing» deb ham yuritiladi). Bundan maqsad birja bitimlari subyektlarini har xil firibgarlik yoki mansabni suiiste'mol qilishlardan saqlashdir;

uchinchidan, birja bitimlari faqat birja a'zolari tomonidan dilerlar, market-meykerlar va brokerlar tomonidan tuziladi;

to'rtinchidan, birja bitimlari birjalarda ro'yxatdan o'tkaziladi va ular notarial tasdiqlanishni talab etmaydi (qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari);

beshinchidan, birjada tuzilgan forvard, fyuchers va opsion bitimlarning ijrosi va uning ijro qilinmaganligidan yetkazilgan zararni undirish bo'yicha shu birja kafolat berishi lozim.

Shuningdek, birja bitimining mazmuni (tovarning nomi, miqdori, narxi, bitim tuzilgan sana va vaqt hamda uni tuzgan birja a'zolarining nomi bundan mustasno) oshkor qilinishi mumkin emas. Birja bitimining mazmuniga doir ma'lumot sudlarga, qo'zg'atilgan jinoyat ishi mavjud bo'lgan taqdirda esa, surishtiruv va tergov organlariga taqdim etiladi.

## **Birjalar tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun quyidagilar orqali shart-sharoitlar yaratadi:**

- kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- agar birja bitimi shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa, birja tovarlarini yetkazib berishni nazorat qilishni va hisobga olishni amalga oshirish;

- pul mablag'larini va birja tovarlarini oldindan deponentga qo'yishni nazarda tutuvchi mexanizmlarni belgilash;

– birja savdosi qoidalarga va birja bitimlari bo'yicha majburiyatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Birja bankrot deb topilgan taqdirda, birja a'zolarining va ular mijozlarining birja hisobvaraqlaridagi mol-mulki tugatish massasiga kiritilmaydi hamda birja a'zolariga va ularning mijozlariga ularning birja bitimi bo'yicha majburiyatlari bajarilganidan keyin qaytarilishi lozim.

Birjaning majburiyatlari bo'yicha undiruvni birja a'zolarining va ular mijozlarining mol-mulkiga qaratishga yo'l qo'yilmaydi.

Birja a'zolarining mablag'lari yetarli bo'lmagan taqdirda, birja bitimi bo'yicha majburiyatlarni bajarish tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash fondining pulli va qaytarib berish asosida birja a'zolariga taqdim etiladigan mablag'lari orqali ta'minlanishi mumkin.

Birjalar tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun, qonunchilikka muvofiq, boshqa shart-sharoitlarni ham yaratishi mumkin.

Bitim bilan bog'liq nizolar oldin birjalar hakamlik komissiyasida hal etiladi, qarordan rozi bo'lmagan tomon hakamlik sudiga murojaat etishga haqli.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, birja bitimlari fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan umumiy bitimlardan bir muncha farq qiladi. Chunki birja savdosi va unda tuzilayotgan bitimlar bozor iqtisodiyotining yangi institutlaridan biri bo'lib, bizning hayotimizga chuqurroq ildiz otib borayotgan hozirgi sharoitda bu shartnomalar har bir fuqaro uchun tanish va yanada tushunarli bo'lgan bo'lar edi.

## **5-§. Bitimning haqiqiy sanalish shartlari**

**Bitimlar haqiqiy sanalishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi lozim:**

**birinchidan**, bitimlarning mazmuni qonunga va qonun asosida chiqarilgan aktlarga, umuminsoniy qoidalarga muvofiq bo'lishi;

**ikkinchidan**, bitimlarni tuzuvchi shaxslar muomala layoqatiga ega bo'lishlari;

**uchinchidan**, bitimlar ko'rinish uchungina tuzilmay, balki chindan ham yuridik oqibat tug'dirish maqsadida tuzilgan bo'lishi;

**to'rtinchidan**, notarial guvohlantirishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan bitimlar haqiqiy sanalmasligi xavfi ostida qonun bilan talab qilingan shaklda rasmiylashtirilishi kerak.

Shuningdek, xo'jalik shartnomalarini xo'jalik yurituvchi subyektlar yuridik xizmati (yoki advokati)ning imzosisiz tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Ayni vaqtda, qonunchilikda belgilangan eng kam ish haqi miqdori ikki yuz baravaridan ortiq summadagi shartnomalar yuridik xizmati (yoki advokati)ning yozma xulosasidan keyingina tuziladi.

Yuqorida ko'rsatilgan talablarga rioya qilinmay tuzilgan bitimlar tuzilgan paytdan e'tiboran o'z-o'zidan haqiqiy sanalmaydi. Bunday bitimlar mutlaq haqiqiy sanalmaydigan bitimlar deb atalib, hech qanday huquq va majburiyatlarni vujudga keltirmaydi.

Mutlaq haqiqiy sanalmaydigan bitimlar jumlasiga qonun talablariga muvofiq bo'lmagan (FKning 116-moddasi), O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda tuzilgan (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 175-moddasi), o'n to'rt yoshga to'lmagan shaxs tomonidan tuzilgan (FKning 117-moddasi), qalbaki va ko'zbo'yamachilik uchun tuzilgan bitimlar (FKning 124-moddasi) o'z-o'zidan haqiqiy sanalmaydi.

Haqiqiy sanalmaydigan bitim yuzasidan ijroni, mulk topshirilishini yoki pul to'lanishini talab qilish mumkin emas.

Bitim butunlay haqiqiy sanalmaganidek, ba'zi hollarda uning ayrim qismi haqiqiy bo'lmasligi mumkin. Bitimning muhim qismi, ya'ni uning narsasini, yuridik tabiatini yoki maqsadini va boshqa muhim shartlarini ko'rsatuvchi bandlari haqiqiy bo'lmaganida, bitim butunlay yuridik kuchga ega bo'lmaydi. Masalan, fuqaroning o'ziga uy-joy qurish uchun berilgan yer uchastkasini sotishi to'g'risida tuzgan bitimi butunlay haqiqiy sanalmaydi.



Bitimning muhim bo'lmagan qismlarining, ya'ni bitimning yuqorida ko'rsatilgan ahamiyatga ega bo'lmagan bandlari qonunga muvofiq kelmagan taqdirda, uning qolgan, qonunga xilof bo'lmagan qismlari haqiqiy sanaladi. Bu haqda FKning 128-moddasida bitimning bir qismi haqiqiy sanalmasligi bitimga bu haqiqiy sanalmagan qism qo'shilmasa ham, u tuzilgan bo'lar edi, deb taxmin qilish mumkin bo'lsa, uning boshqa qismlarining haqiqiy sanalmasligi sabab bo'lmaydi, deb ko'rsatilgan.

Haqiqiy bo'lmagan bitim, bu to'g'rida da'voning qilinish-qilinmasligidan qat'i nazar, tuzilgan paytdanoq o'z-o'zidan mutlaqo haqiqiy emas deb taniladi. Agar butunlay bitim sud yoki xo'jalik sudi muhokamasida bo'lsa, faqat uning haqiqiy emasligi ta'kidlanadi va unga binoan qonunda ko'rsatilgan oqibatlarining tatbiq etilishi lozimligi ko'rsatiladi.

**Yuqorida ko'rsatilgan o'z-o'zidan haqiqiy sanalmaydigan bitimlardan tashqari nizoli bitimlar ham bo'ladi. Bunday bitimlarning sodir bo'lmasligi uchun:**

**birinchidan,** bitimni tuzuvchi shaxs o'z tomonidan tuzilayotgan bitimning xarakterini va huquqiy oqibatlarini aniq, ravshan bilishi;

**ikkinchidan,** bitim tuzuvchi shaxsning erki o'zi tomonidan, boshqa birovlarining ta'siridan tashqari holda ifodalanishi;

**uchinchidan,** bitim tuzuvchi shaxsning erki yetarli darajada yetuk, mukammal bo'lishi kerak.

Yuqorida ko'rsatilgan talablarga rioya qilmaslik tuzilgan bitim tuzilishi paytida haqiqiy sanalsa ham, keyinchalik bunday bitimlar to'g'risida nizo qo'zg'atilishi mumkin. Bunday bitimlar tuzilganidan so'ng tarablarga nisbatan muayyan huquq va majburiyatlar da'vo qo'zg'atilgani holda u haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Nizoli bitimlar jumlasiga o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomonidan tuzilgan (FKning 121-moddasi) yanglishish ta'sirida tuzilgan (FKning 122-moddasi), aldash, zo'rlik, qo'rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishuvi yoki

og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida tuzilgan (FKning 123-moddasi), muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan tuzilgan (FKning 120-moddasi), yuridik shaxs huquqiy layoqatidan tashqariga chiqadigan bitimlar (FKning 125-moddasi) kiradi.

Bunday nizoli bitimlar to'g'risida da'voni jabrlangan shaxsning o'zi, prokuror yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlab sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan davlat organlari, jamoa xo'jaligi, kooperativ va boshqa jamoat tashkilotlari hamda ayrim fuqarolar qo'zg'ata oladilar.

Haqiqiy emas deb topilgan bitim u tuzilgan paytdan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi. Bitimning mazmunidan uning faqat kelajak vaqt uchun bekor qilinishi mumkinligi anglashilsa, haqiqiy emas deb topilgan bitim kelajak vaqt uchun harakatdan to'xtaydi (FKning 127-moddasi).

## **6-§. O'z-o'zidan haqiqiy sanalmaydigan bitim turlari va ularning huquqiy oqibatlari**

Qonunchilik talablariga muvofiq kelmaydigan, shuningdek, huquq-tartibot yoxud axloq yoki odob asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim, FKning 116-moddasida ko'rsatilganidek, o'z-o'zidan haqiqiy emasdir.

Qonun talablariga muvofiq bo'lmagan bitim haqiqiy sanalmagani holda, bunday bitim bo'yicha taraflarning har biri ikkinchi tarafga bitimga binoan olingan hamma narsani qaytarishga, olingan narsaning o'zini qaytarib berish imkoniyati bo'lmagan holda esa, agar haqiqiy bo'lmagan bitimning boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilmagan bo'lsa, uning qiymatini pul bilan to'lashga majburdir. O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof maqsadlarda tuzilgan bitim haqiqiy sanalmaydi. G'araz, yomon niyat bilan atayin davlat va jamiyat manfaatlariga xilof maqsadlarda tuzilgan bitimga qonunni jiddiy ravishda buzish deb qaraladi. Binobarin, bunday bitimlarni tuzuvchilar uchun huquq normalarida qattiq mulkiy mas'uliyat belgilanadi hamda bu bitim mutlaqo haqiqiy sanalmaydi.

**Bitim atayin davlat va jamiyat manfaatlariga xilof maqsadlarda tuzilganligi sababli haqiqiy sanalmagani holda, quyidagicha huquqiy oqibatlarni vujudga keltiradi:**

1) bitim tuzuvchilarning har qaysisida ham g'araz niyat bo'lsa, har ikki taraf tomonidan bajarilgan bitim yuzasidan olingan hamma narsalar undirilib, davlat daromadiga o'tkaziladi;

2) bitim faqat bir taraf tomonidan bajarilganida esa, ikkinchi tarafdin uning olgan hamma narsasi va uning evaziga birinchi tarafga to'lashi lozim bo'lgan narsalari undirilib, davlat daromadiga o'tkaziladi;

3) bitimlar tuzishda bir tarafdangina g'araz bo'lgan taqdirda, uning bitim bo'yicha olgan hamma narsasi ikkinchi tarafga qaytarib berilishi lozim, ikkinchi taraf olgan yoki bitimning ijrosi evaziga olishi lozim bo'lgan narsalar undirilib, davlat daromadiga o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 175-moddasida O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Haqiqiy sanalmaydigan bitim jumlasida qalbaki va ko'z bo'yash uchun tuzilgan bitimlar ham bo'lishi mumkin.

Qalbaki bitim, ya'ni taraflarning kelishuvi bo'yicha yuridik oqibatlar tug'dirmaslik niyati bilan faqat ko'rinish uchungina tuzilgan bitim haqiqiy sanalmaydi (FKning 124-moddasi).

Ko'z bo'yamachilik uchun tuzilgan bitim deb boshqa bir bitimni yashirish maqsadida tuzilgan bitimga aytiladi. Agar bitim boshqa bir bitimni yashirmoq uchun tuzilgan bo'lsa, bu holda taraflar tomonidan haqiqatda nazarda tutilgan bitimga oid qoidalar qo'llaniladi. Ko'zbo'yamachilik uchun tuzilgan bitim barcha hollarda haqiqiy sanalmaydi. Bunday bitim bilan yashirilgan bitim, qonun talablariga javob berish-bermasligiga qarab, yo haqiqiy bo'ladi yoki haqiqiy emas deb topiladi.

Agar ko'zbo'yamachilik uchun tuzilgan bitim qonunga xilof bo'lsa ham, jamiyat va davlat manfaatlariga qarshi qaratilgan bo'lsa, har ikki tarafning bitim yuzasidan olganlari bir-biriga qaytariladi. Ammo bitim jamiyat va davlat manfaatlariga xilof

maqsadlarda tuzilgan bo'lsa, har ikki tarafning olgan narsasi davlat daromadiga o'tkaziladi.

Muomalaga layoqatsiz shaxslar tomonidan tuzilgan bitimlar to'g'risida shuni aytish kerakki, bitimning haqiqiy sanalishi uchun uni tuzuvchi shaxslar muomalaga layoqatli bo'lishlari kerak.

Muomalaga layoqatsiz fuqarolar, masalan, ruhiy kasallar yoki o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalar uchun bitimlarni ularning qonuniy vakillari: ota-onalar, farzandlikka oluvchilar yoki vasiylari tuzadilar.

O'n to'rt yoshga to'lmaganligi, shuningdek, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli muomalaga layoqatsiz deb tanilgan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimlar haqiqiy sanalmaydi, taraflarning har qaysisi bitim yuzasidan olgan narsalarining hammasini ikkinchi tarafga qaytarishga majbur, olingan narsani natura baravarida qaytarishi mumkin bo'lmasa, uning qiymatini pul bilan to'lashga majbur.

Muomalaga layoqatli taraf, bundan tashqari, agar ikkinchi tarafning muomalaga layoqatsizligini bilgan bo'lsa yoki bilishi lozim bo'lgan bo'lsa, uning bitim tufayli qilgan xarajatlarini, mulkining yo'qolishi yoki zararlanishidan kelgan ziyonlarni shu voyaga yetmagan shaxsga to'lashga majbur.

Yosh bolalar tuzilish vaqtidayoq ijro etiladigan maishiy bitimlar, masalan, qalam, daftar, umuman o'zlari uchun zarur bo'lgan narsalarni olish bo'yicha bitim tuzishlari mumkin.

## **7-§. Nizoli bitimlarning turlari va ularning haqiqiy sanalmasligi oqibatlari**

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan o'smirlar qisman muomala layoqatiga ega bo'lsalarda, bitimlarni ota-onalari, farzandlikka olganlar yoki homiylari roziligi bilan tuzadilar. Ammo ularning kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va o'zlari uchun zararli bo'lmagan maishiy bitimlarni mustaqil ravishda tuzishlari mumkin. O'smir tomonidan tuzilgan bitim (agar bu bitim uning ota-onalari yoki farzandlikka olgan yoxud homiylari roziligidan tashqari tuzilgan bo'lsa) ota-onalarining yoki farzandlikka

olganlarning yoxud homiylarining da'vosiga binoan sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Demak, bunday bitimlar umuman haqiqiy sanalsa-da, ular to'g'risida nizo qo'zg'atilishi va bitim tuzuvchilarning qonuniy vakillari tomonidan qo'zg'atilgan da'volarga binoan sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday holda, mazkur bitim bo'yicha taraflarning har qaysisi bitim yuzasidan olgan narsalarining hammasini ikkinchi tarafga qaytarishga, olingan narsani natura baravarida qaytarish mumkin bo'lmasa, uning qiymatini pul bilan to'latishga majbur. Muomalaga layoqatli taraf, bundan tashqari, agar ikkinchi tarafning muomalaga layoqatsizligini bilgan bo'lsa, yoki bilishi lozim bo'lgan bo'lsa, uning bitim tufayli qilgan xarajatlarini mulkning yo'qolishi yoki zararlanishidan kelgan ziyonlarni shu voyaga yetmagan shaxsga to'lashga majbur.

Spirтли ichimliklarni yoki gilyohvand vositalarini suiiste'mol qilish oqibatida muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan homiysining roziligisiz tuzilgan bitimni sud haqiqiy emas deb topishi mumkin (FKning 120-moddasi).

O'z harakatlarining ahamiyatini tushunishga yoki ularni boshqarishga qobiliyati bo'lmagan fuqaro tomonidan tuzilgan bitim deb muomalaga layoqatli bo'lsa-da, bitim tuzish paytidan qandaydir ta'sirlar ostida (masalan, gipnoz, psixotropik dori) o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni idora qila olmaydigan holatda bo'lgan shaxs tomonidan tuzilgan bitimga aytiladi. Bunday bitim sud tomonidan ham haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan ikki holdan birinchisida da'volar muomalaga layoqati cheklangan fuqaro tomonidan uning homiysi qo'zg'atsa, ikkinchi holda, ya'ni bitim muomalaga layoqatli shaxs tomonidan tuzilgan holda, uning o'zi tomonidan qo'zg'atilishi mumkin. Agar bunday bitimlar haqiqiy emas deb topilsa, taraflarning har qaysisi bitim yuzasidan olingan barcha narsalarini ikkinchi tarafga qaytarishga, agar olingan narsani natura baravarida qaytarish mumkin bo'lmasa, uning qiymatini to'lashga majbur bo'ladi.

Bundan tashqari, bitim tuzish paytida o'z harakatlarining ahamiyatini tushunmagan yoki ularni idora eta olmagan tarafga ikkinchi taraf, agar o'zi bilan bitim tuzgan fuqaroning shunday holatda bo'lganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lsa, uning bitim yuzasidan qilgan xarajatlarini, mulkning yo'qolishi yoki zararlanishi sababli ko'rgan ziyonlarni to'lashi lozim.

Jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan yanglishish ta'siri ostida tuzilgan bitim yanglishish ta'sirida harakat qilgan tarafning da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Jiddiy yanglishish ta'sirida bo'lib bitim tuzishda, bunday bitim tuzuvchi shaxs, bitimning narsasi, xususan, bu narsaning sifati to'g'risida, bitim tuzuvchi kontragentning (qarshi tarafning) shaxsi haqida xato tasavvurda bo'ladi.

Agar jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan yanglishish ta'sirida tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilsa, taraflardan biri ikkinchi tarafga bitim yuzasidan olgan barcha narsalarini qaytarishga, olingan narsani natura baravarida qaytarish mumkin bo'lmaganida esa, uning qiymatini to'lashga majbur. Bundan tashqari, o'z da'vosiga ko'ra bitim haqiqiy emas deb topilgan taraf, yanglishish ikkinchi tarafning aybi bilan yuz berganligini isbotlay olsa, ikkinchi tarafdin o'ziga yetkazilgan haqiqiy zararni to'lashni talab qilishga haqli. Agar bu hol isbotlanmasa, o'z da'vosiga ko'ra bitim haqiqiy emas deb topilgan taraf ikkinchi tarafning talabi bilan, basharti, hatto yanglishishi tarafga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra yuz bergan bo'lsa ham, yetkazilgan haqiqiy zararni unga to'lashi shart (FKning 122-moddasi).

Aldash, zo'rlash, qo'rqitish ta'siri ostida yoki bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda yoxud fuqaro uchun og'ir holatlarning yuz berishi oqibatida tuzilgan bitim jabrlanuvchining da'vosi bo'yicha haqiqiy sanalmasligi mumkin.

Aldash ta'siri ostida bitim tuzilishida bitim tuzuvchi ikkinchi tomonni atayin yomon niyat bilan yanglishtiradi. Bu holda aldanuvchi tomon bitimning narsasi yoki uning shartlari to'g'risida xato tasavvur qiladi. Uy-joylarni egalikka berish haqidagi qaror va unga asosan egalik huquqi to'g'risida berilgan

order bitimlarni haqiqiy emas deb topish uchun fuqarolik qonunchiligida belgilangan asoslarda sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Qoʻrqitish taʼsiri ostida bitim tuzilishida jabrlangan shaxs oʻziga yoki yaqin kishilariga biror mulkiy yoki shaxsiy zarar yetkazilishidan qoʻrqib, bitim tuzishga majbur boʻladi.

Zoʻrluk deb boshqa shaxsning erki shu shaxsni bitim tuzishga majbur qilish maqsadida uning oʻziga yoki yaqin kishilariga jismoniy azob yetkazishdan iborat boʻlgan gʻayriqonuniy taʼsirot tushuniladi.

Bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishuvi tufayli bitim tuzilsa, vakilning yoki u bilan bitim tuzuvchining manfaatlari nazarda tutilib, vakil qilinuvchining zarariga qaratilgan harakat qilinadi.

Ogʻir holatlarning vujudga kelishi tufayli tuzilgan bitimda taraflar biri qattiq muhtojlik taʼsirida harakat qiladi va oʻzi uchun zarari ochiqdan-ochiq koʻrinib turgan bitimni tuzadi.

Aldash, zoʻrluk, qoʻrqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi taʼsirida tuzilgan bitim, shuningdek, ogʻir holatlar yuz berishi tufayli tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilsa, bu holat ikkinchi taraf bitim yuzasidan olgan narsasini jabrlanuvchiga qaytarishi, olingan narsani natura baravarida qaytarishi mumkin boʻlmaganida esa, uning qiymatini toʻlashi lozim. Bitim yuzasidan jabrlanuvchining ikkinchi tarafdin asossiz olingan mulki davlat daromadiga oʻtkaziladi. Bundan tashqari, ikkinchi taraf bitimning haqiqiy emas deb topilishi tufayli vujudga kelgan xarajatlarning, yoʻqolgan mol-mulk va yetkazilgan zararni jabrlanuvchiga toʻlashi shart (FKning 123-moddasi).

FKning 125-moddasiga asosan, yuridik shaxs tomonidan uning taʼsis hujjatlarida (taʼsis shartnomasi, ustavi) aniq chegaralab qoʻyilgan maqsadlarga zid holda tuzilgan yoki tegishli faoliyat bilan shugʻullanishga litsenziyasi boʻlmagan yuridik shaxs tomonidan tuzilgan bitim uning muassisi (ishtirokchisi) yoki vakolatli davlat organining daʼvosi boʻyicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

## **Tayanch iboralar:**

Bitim, bir tomonlama bitim, ikki tomonlama bitim, ko'p tomonlama bitim, forvard bitimlar, opsiyon bitimlar, fyuchers bitimlar, fidutsiar bitimlar, elektron bitimlar, konsensual bitimlar, real bitimlar, birja bitimlari, o'z-o'zidan haqiqiy sanalmaydigan bitim, nizoli bitim.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Bitimlarning qanday turlarini bilasiz?
2. Birja bitimlarini sanab bering.
3. Shartli bitimlarga ta'rif bering.
4. Elektron bitimlarni tushintirib bering.
5. Nizoli bitimlarga misol keltiring.
6. Opsion bitimlarga misol keltiring.
7. Forvard bitimlarga ta'rif bering.
8. Qo'rqitish ta'siri ostida tuzilgan bitimlarga misol keltiring.
9. Haqiqiy sanalmaydigan bitimlarning qanday turlarini bilasiz?
10. Mutlaq haqiqiy sanalmaydigan bitimlar jumlasiga qanday bitimlar kiradi?




### 1-§. Vakillik tushunchasi

Hozirgi kunda vakillik institutini amaliyotda qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratishga ehtiyoj sezilmoqda. Ma'lumki, vakillik instituti fuqarolik huquqining yaxshi o'rganilmagan bo'limlaridan biri hisoblanadi. Vakillik – vakilni vakolat beruvchi shaxs bilan bog'laydigan huquqiy munosabatdir. Vakillikning maqsadi vakil tomonidan bitimni, ya'ni qonuniy yuridik harakatni amalga oshirish hisoblanadi.

XIX–XX asrlarda huquqiy munosabatlarning murakkablashuvi natijasida vakillik instituti juda yaxshi rivojlangan<sup>1</sup>.

Vakillikning mohiyati shundan iboratki, unga asosanib tuzilgan bitimlar faqat vakolat beruvchi uchungina muayyan huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi. Vakilning shaxsan o'zi esa, bitimlar yuzasidan hech qanday huquq va majburiyatlar olmaydi. Kishining shaxsi bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan bitimlarni vakil orqali tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, nikoh shartnomasiga kirishish, alimentlarni undirish yoki to'lash bilan bog'liq majburiyatlar<sup>2</sup>.



<sup>1</sup> Batafsil qarang: X. Rahmankulov. Гражданское право. Учебник – Т., 2010. ТДЮИ. – С. 438.

<sup>2</sup> Batafsil qarang: I.B. Zokirov Fuqarolik huquqi. Darslik. – Т., TDYuI. 2009. – В. 173.

Vakillik orqali huquq layoqatini amalga oshirish, ya'ni huquqlar olish va majburiyatlarni bajarish mumkin bo'lmaganligi sababli vakillarning xizmatiga fuqarolar ham, yuridik shaxslar ham muhtoj bo'ladilar. Jumladan, fuqaro o'ziga qarashli uy-joyni vakil orqali boshqarish yoki sotishi, tashkilotlar esa, vakillar orqali bir-birlari bilan turli shartnomalar tuzishlari mumkin.

Muomalaga layoqatli fuqarolargina vakil bo'lishlari, vakillik qilishlari mumkin. Istisno sifatida ayrim hollarda o'n olti yoshga to'lib, pasport olgan fuqaro ham vakil bo'lishi mumkin. Fuqarolarning faqat bir-birlari uchungina emas, ba'zi hollarda tashkilotlar uchun ham vakil bo'lishlariga qonun yo'l qo'yadi. Masalan, savdo va ta'minot bo'limlarining agentlari, mahsulot tayyorlovchi vakil va boshqa xodimlar tashkilotlarning vakillari sifatida ish bajaradilar.

Yuridik shaxs faqat o'z ustavida nazarda tutilgan hollarda yoki o'z faoliyatining xarakteriga muvofiq bo'lgandagina fuqarolarning vakil yoki boshqa yuridik shaxs vakili sifatida harakat qilishi mumkin.

Tashkilotlarning mulkiy huquqlarini, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini qo'riqlash maqsadida qonun kimlarning vakil sifatida harakat qila olmasligini belgilaydi. Jumladan, tashkilotning bosh buxgalteriga o'zi ishlab turgan tashkilot uchun bankdan va moliya organlaridan naqd pul, shuningdek, boshqa tovar, moddiy boyliklar olishiga yo'l qo'yilmaydi. Savdo korxonalari va boshqa tashkilotlar o'zlaridan olingan vakolatnomalar yuzasidan hisobot bermagan mansabdor shaxslarni tovar va boshqa ashyolarni olishi uchun vakil qila olmaydi.

Sudda voyaga yetmagan shaxslar, vasiylik va homiylik ostidagi shaxslar fuqarolarning vakillari sifatida qatnasha olmaydilar. Sudyalar, tergovchilar, prokurorlar qonuniy vakil sifatida (ota-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiyilar), shuningdek, tegishli sud yoki prokuraturaning vakili sifatida qatnashish hollaridan tashqari, sudda vakil bo'la olmaydilar (FPKning 51-moddasi). Vakolat beruvchi har qanday shaxs muomalaga layoqatli va muomalaga layoqatsiz fuqarolar ham, shuningdek, yuridik shaxslar ham bo'lishi mumkin.

## 2-§. Vakolat va uning turlari

Vakolat deb vakilning boshqa shaxs nomidan muayyan yuridik harakatlar qilishiga va shu bilan u uchun huquqiy oqibatlarini vujudga keltirishga qaratilgan huquq tushuniladi. Vakilning vakolatlari qonunga, sud qaroriga, vakil qilingan davlat organlarining hujjatiga yoki ishonchnomaga asoslangan bo'lishi mumkin.

Vakil o'z vakolatini vakolat beruvchining manfaatlarini ko'zlabgina amalga oshirishga majbur. Binobarin, vakil o'ziga vakolat bergan shaxs nomidan, shaxsan o'ziga nisbatan ham, u ayni bir vaqtda vakili bo'lgan boshqa shaxsga nisbatan ham bitimlar tuzishi mumkin emas (tijorat vakilligi bo'lgan hollar bundan mustasno) (FK 129-moddasining uchinchi qismi).

Agar shaxs nomidan oshkora harakat qilish uchun hech qanday vakolat bo'lmasa yoki vakolatli bo'lsa ham, uning doirasidan chetga chiqilgan bo'lsa-bu holda tuzilgan bitimlar bo'yicha kim nomidan harakat qilgan bo'lsa, mazkur shaxs uchun huquq va majburiyatlar vujudga kelmaydi.

FKning 132-moddasida ko'rsatilganidek, boshqa shaxs nomidan tuzilgan yoki vakolatlardan tashqari chiqib tuzilgan bitim, vakolat bergan shaxs keyinchalik ma'qullangan taqdirdagina, uning uchun huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi. Bitim tuzishga vakolat bergan shaxs bitimning ijroga qabul qilinganligidan guvohlik beruvchi harakatlar qilgan holda ham bunday bitim ma'qullangan hisoblanadi.

Vakil qiluvchi tomonidan bitimning kelgusida ma'qullanishi u tuzilgan vaqtdan e'tiboran haqiqiy deb hisoblashga huquq beradi.


Bitimlar tuzishda vakil o'z erki bilan harakat qiladi. Bu holda u o'ziga berilgan vakolatning hajmiga, amaldagi huquqiy normalarning qoidalariga, vakil qiluvchining bergan ko'rsatmalariga asoslanib ish tutadi. Bitim tuzilishida vakilning erki ham vakolat doirasida ifodalanganligi sababli vakilning jiddiy ravishda yanglishishi, aldanish, qo'rqitilish yoki zo'rlik

ta'sirida tuzilgan bitim sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Vakil komissionerdan farq qiladi. Agar vakil bitim tuzishda boshqa shaxs nomidan harakat qilsa, komissioner boshqa bir shaxs komitent topshirig'i bo'yicha va uning hisobiga harakat qilsa ham bitimni o'z nomidan tuzadi.

Vakil vakil qiluvchi tomonidan yuridik harakatlar qilish, vakil qiluvchi uchun muayyan fuqarolik huquqlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish niyatidan bo'lganligini o'zi bilan bitim tuzuvchi shaxslarga ochiq ravshan bildirishi lozim. Vakilning bunday niyatda bo'lganligini vakil harakat qilib turgan vaziyatning o'zidan ham ko'rinib turishi mumkin. Masalan, chakana savdo korxonasidagi sotuvchi, kassir va boshqalarning harakatlarini, ularning muayyan bir tashkilot vakillari bo'lishlarini bildiradi.

Vakil bilan vakolat beruvchi o'rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlardan vakilning yuridik harakatlari tufayli, jumladan, u tomonidan tuzilgan bitim tufayli, vakolat beruvchi bilan uchunchi shaxslar o'rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatni ajratish kerak. Agar vakil bilan vakolat beruvchi o'rtasidagi munosabat (ichki munosabat) shartnomaga, masalan, topshiriq yoki mehnat shartnomasiga asoslangan yoxud boshqa turdagi yuridik faktlarga, jumladan: tug'ilganlik, vasiylik, farzandlikka olish faktlariga asoslangan vakolat beruvchi bilan uchunchi shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabat (tashqi



munosabat) vakilning uchinchi shaxs bilan tuzgan bitimi asosida vujudga keladi.

Vakolat qanday asoslardan vujudga kelishiga qarab, vakillik ikki turga: qonun bo'yicha vakillik va shartnoma bo'yicha, ya'ni majburiy va ixtiyoriy vakillikka bo'linadi.

Vakillik va uning vakolati normativ akt bilan belgilangan holda, bunday vakillik muomalaga layoqatsiz shaxslar: yosh bolalar, ruhiy kasallar, aqli zaiflarning huquq va manfaatlari qo'riqlanishini ta'minlashga qaratiladi. Sud organlarida vakillik qilish to'g'risidagi qoidalar tegishli qonunlar bilan belgilanadi.

Ota-onalar, farzandlikka oluvchilar va vasiylar FKning 131-moddasida belgilanganidek, qonuniy vakillar hisoblanadilar.

Shartnomali, ya'ni ixtiyoriy vakillikda vakil va uning vakolati vakil qiluvchining erki bilan belgilanadi. Bunday vakillikda vakil va uning vakolati vakil qiluvchi tomonidan ko'rsatiladi.

Shartnoma bo'yicha vakillikda mehnat shartnomasiga binoan tashkilot nomidan berilgan vakolatnomaga asosan harakat qiluvchi xizmatchi, masalan, tashkilotlarning yurist maslahatchilari, ta'minot vakillari va boshqalar vakil bo'lib hisoblanadilar.

Topshiriq shartnomasiga binoan berilgan vakolatnomaga asosan harakat qiluvchi shaxslar ham shartnoma bo'yicha vakil bo'la oladi. Korxonaharbari korxonanomidan boshqa subyektlar bilan munosabatlarga kirishganda maxsus yozma vakolatnomasiz ish yuritishga haqli.

### **3-§. Ishonchnoma**

O'zbekiston Respublikasi FKning 134-moddasiga asosan ishonchnoma deb bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun beriladigan yozma vakolatga aytiladi. Ishonchli vakil o'ziga ishonchnoma bilan berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi. Ishonchnomaning berilishi vakil uchun vakolat belgilashga qaratilgan bir tomonlama bitim sifatida ko'riladi. Ishonchnoma topshiriq shartnomasi, mehnat shartnomasi, ekspeditsiya shartnomasi va boshqa shartnomalar asosida beriladi.

Yuridik shaxs nomidan, shuningdek, yuridik shaxsga ham ishonchnoma faqat yuridik shaxsning ustavida (nizomida) ko'rsatilgan faoliyat maqsadlariga zid bo'lmagan bitimlarni tuzish uchungina berilishi mumkin (FK 134-moddasining ikkinchi qismi).

Ishonchnoma bir shaxs, shuningdek, bir necha shaxslar nomidan bir yoki bir necha shaxslar nomiga ham berilishi mumkin. Jumladan, uy-joy qurish kooperativining vakili kooperativ a'zolarining barchasi tomonidan yoki umumiy majlisning vakolatiga binoan bir necha shaxs tomonidan imzolangan ishonchnoma olishi mumkin.

Ishonchnoma vakilining uchinchi shaxslar bilan huquqiy munosabatlarda bo'lishi uchun tayinlanadi. Ishonchnomaning mazmunidan uning qanday vakolatlarga ega ekanligi, qanday yuridik harakatlar qilishga haqli bo'lishi ko'rinib turadi. Binobarin, vakil ishonchnomada ko'rsatilgan vakolat doirasida harakat qilib, uchinchi shaxslar bilan shartnoma tuzgan bo'lsa, vakil qiluvchi bu shartnomani bajarishdan bosh torta olmaydi.

Ishonchnoma umumiy va maxsus turlarga bo'linadi.

Umumiy ishonchnomada har xil bitimlar va boshqa yuridik harakatlar qilish, masalan, yuridik va jismoniy shaxslarning filiallarini idora etish yoki fuqaroga qarashli mulkni boshqarish uchun berilgan vakolat ko'rsatiladi.

Maxsus ishonchnoma bir turdagi bitimlarni qilish, masalan, jamoa xo'jaliklari va ularning a'zolaridan qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid qilish bo'yicha bitimlar tuzish uchun vakolat belgilanadi. Faqat biron-bir bitimnigina tuzish, masalan, sotib olib ajratib qo'yilgan tovarni olish uchun berilgan ishonchnoma birgalikdagi maxsus ishonchnoma hisoblanadi. Ishonchnomada uning qachon berilganligi ko'rsatilishi lozim, aks holda u haqiqiy sanalmaydi. Ishonchnoma ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin. Agar ishonchnomada muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, u berilgan kundan boshlab bir yil mobaynida o'z kuchini saqlaydi. Berilgan kuni ko'rsatilmagan ishonchnoma haqiqiy emas (FKning 139-moddasi).

Tashkilotlar tomonidan tovarlar va boshqa moddiy boyliklar olish uchun beriladigan ishonchnomalarda ularni amalda bo'lish muddati, albatta, ko'rsatilishi kerak.

Notarial shaklni talab qiluvchi bitimlarni tuzish yoxud yuridik shaxslarga nisbatan harakatlarni amalga oshirish uchun berilgan ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak, FKning 136, 137, 138-moddalarida nazarda tutilgan hollar va qonunchilik bilan ishonchnomaning o'zgacha shakli belgilab qo'yilgan boshqa hollar bundan mustasno. (FK 135-moddasining ikkinchi qismi).

Ishonchnomalarni notarial idoralardan tashqari boshqa tashkilotlar tomonidan tasdiqlanishi FKning 136–137-moddalari bilan belgilanadi. Jumladan, xat-xabarlar, shu jumladan, pul va posilkalar olish uchun beriladigan vakolatnoma, ish haqi hamda mehnat munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa to'lovlarni, muallif va ixtirochilarga beriladigan haqlarni, pensiyalar, yordam pullari va stipendiyalar, shuningdek, xalq banklaridan tegishli summalarni olish uchun beriladigan ishonchnoma fuqarolar yashab turgan joydagi o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan, ishlab turgan yoki o'qib turgan tashkilot tomonidan, turar joydagi uyga xizmat ko'rsatuvchi uy-joydan foydalanish tashkiloti tomonidan, davolanib turgan joyida esa – davolanish muassasasining ma'muriyati tomonidan, harbiy xizmatchi tomonidan ishonchnoma berilganida tegishli harbiy qism qo'mondonligi tomonidan tasdiqlanishi mumkin. Ozodlikdan mahrum qilish yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarga beriladigan ishonchnoma tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxs nomidan beriladigan ishonchnoma rahbar tomonidan imzolanib, unga ushbu yuridik shaxsning muhri bosiladi.

Davlat mulkiga asoslangan yuridik shaxs nomidan pul va boshqa mulkiy boyliklarni olish yoki topshirishi uchun beriladigan ishonchnoma ushbu yuridik shaxsning bosh buxgalteri tomonidan ham imzolanishi kerak. Bankda operatsiyalarni amalga oshirishga ishonchnoma berish tartibi va uning shakli qonunchilik bilan belgilab qo'yiladi (FKning 138-moddasi).

Vakillik shaxsiy ishonchga bog'liq bo'lganligi tufayli vakolat olgan shaxs qanday harakatlarni qilishga vakil qilingan bo'lsa, ularni shaxsan o'zi bajarilishi lozim. Vakil olgan vakolati yuzasidan bu harakatlarni bajarishni faqat ishonchnomada ko'rsatilgan hollarda yoki vakolat beruvchining manfaatlarini qo'riqlash uchun ma'lum bir sharoitlar tufayli biron-birovga topshirishga majbur bo'lsagina boshqa shaxsga topshirishga haqli. Vakolatning vakil tomonidan boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkinligi nazarda tutilgan ishonchnomada notarial idora tomonidan tasdiqlanishi lozim.

**Ishonchnoma FKning 141-moddasida ko'rsatilganidek, quyidagi hollarda bekor bo'ladi:**

1. Muddat tugashi;
2. Ishonchnoma beruvchi tomonidan bekor qilinishi;
3. Vakolat olgan shaxsning vakillikdan bosh tortishi;
4. Nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxsning bekor bo'lishi;
5. Nomiga ishonchnoma bergan yuridik shaxsning bekor bo'lishi, ishonchnoma beruvchi fuqaroning o'limi;
6. Muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan deb topilishi yoki bedarak yo'qolgan deb topilishi;
7. Ishonchnoma olgan shaxsning o'lishi, uni muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yo'qolgan deb topilishi bilan.

Ishonchnoma beruvchi xohlagan paytida uni bekor qila oladi, ishonchnoma oluvchi ham undan bosh torta oladi.

Nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxsning tugashi tufayli ishonchnoma bekor qilingan holda, bunday vazifa vakolat beruvchining huquqini oluvchi shaxslarga ham yuklatiladi. Vakolat beruvchining vafot etishi tufayli ishonchnoma bekor qilingan holda esa bu vazifa uning vorislariga yuklatiladi.

Ishonchnoma bergan shaxs uning bekor qilinganligi to'g'risida ishonchnoma bergan shaxsni, shuningdek, ishonchnoma yo'naltirilgan uchinchi shaxslarni ham xabardor qilishi kerak. Nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxs bekor bo'lgan, ishonchnoma bergan fuqaro vafot etgan, muomalaga layoqatsiz



deb topilgan singari holatlarda ishonchnoma bekor bo'lgani haqida xabardor qilish ishonchnoma bergan shaxs huquqi qabul qilib oluvchilar zimmasiga yuklanadi<sup>1</sup>.

Ishonchnoma bekor qilinganidan so'ng vakolat olgan shaxs tomonidan qilingan harakatlar to'g'risida FKning 142–144-moddalarida mulkning yo'qolishi yoki zararlanishi sababli ko'rilgan ziyonlarni jabrlanuvchiga to'laydi. Ishonchnomaning bekor qilinganligi bilgungiga yoki bilishi lozim bo'lguniga qadar ishonchnoma bergan shaxs tomonidan uchinchi shaxslarga nisbatan qilingan harakatlar ishonchnoma beruvchi uchun yoki uning huquqlarini oluvchilar uchun o'z kuchini saqlab qoladi.

Ishonchnoma olgan shaxs tomonidan uning ishonchnoma bekor qilingan yoki tugatilganini bilganidan yoki bilishi lozim bo'lgan vaqtdan so'ng qilingan harakatlar vakolatnoma beruvchi uchun huquq va majburiyat tug'dirmaydi. Ishonchnomaning amal qilishi bekor bo'lganidan keyin ishonchnoma olgan shaxs yoki uning merosxo'rlari (huquqiy vorislari) darhol ishonchnomani qaytarib berishlari lozim.

Ishonchnomaning bekor qilinishi bilan bu ishonchnoma yuzasidan boshqa shaxslarga topshirilgan vakolat ham o'z kuchini yo'qotadi.

### **Tayanch iboralar:**

Vakillik, vakil, vakolat, vakolat beruvchi, qonuniy vakillik, shartnomali vakillik, ixtiyoriy vakillik, majburiy vakillik, ishonchnoma, yuridik shaxs nomidan beriladigan ishonchnoma, ishonchnomani bekor qilish.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Vakillik deb nimaga aytiladi?
2. Vakolatsiz vakillik deganda nimani tushunasiz?
3. Tijorat vakilligiga ta'rif bering.

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., 2006. – B. 178.

4. Ishonchnomaning qanday shakllarini bilasiz?
5. Ishonchnoma qanday hollarda bekor bo'ladi?
6. Kimlar qonuniy vakil bo'lishlari mumkin?
7. Yuridik shaxs nomidan beriladigan ishonchnoma qanday tasdiqlanadi?
8. Tashkilotlar tomonidan tovarlar va boshqa moddiy boyliklar olish uchun beriladigan ishonchnomalarda nimalar ko'rsatilishi lozim?
9. Yuridik shaxs vakil bo'lishi mumkinmi?
10. Sudda fuqarolarning vakillari sifatida kimlar qatnasha olmaydilar?

## 1-§. Muddatlar tushunchasi

Mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishda muddat FK va boshqa qonunlar, boshqa huquqiy hujjatlar, bitimlar yoki sud fuqarolik huquqlari va majburiyatlarining yuzaga kelishi, o'zgarishi va tugatilishini bog'laydigan yuridik faktlardan biri sifatida muhim o'rin tutadi<sup>1</sup>.

Fuqarolik huquqida – aniq belgilangan vaqtga muddat deb aytiladi. Muddatning o'tishi yuridik fakt hisoblanadi, chunki uning o'tkazib yuborilishi natijasida, qonunda nazarda tutilgan hollarda, muayyan huquqiy oqibatlar vujudga keladi, biron-bir huquq va majburiyat olinadi, o'zgartiriladi yoki yo'qotiladi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlarda muddatlarning to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida tatbiq etilishi bu munosabatlarda qatnashuvchilarning huquqlarini qo'riqlashda, qonunchilikni ta'minlashda, tashkilotlar o'rtasida munosabatlarda esa xo'jalik hisobini mustahkamlashda, korxonalarining normal ishlashida, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishda, muhimi, shartnoma intizomiga amal qilishda katta rol o'ynaydi.

Fuqarolik huquqida uchraydigan juda ko'plab muddatlar bir necha asoslarga ko'ra turlarga bo'linadi. Muddatlar muddatning kim tomonidan tayinlanishiga ko'ra, huquqiy oqibatiga ko'ra, aniqlanish tavsifiga ko'ra va boshqa bir qator asoslarga ko'ra turlarga bo'linadi.

**Ko'pchilik olimlarning fikricha, muddatlar qaysi huquq subyekti tomonidan tayinlanishiga ko'ra, quyidagilarga bo'linadi:**

1. Qonuniy muddatlar;
2. Shartnomali muddatlar;
3. Sud tomonidan belgilanadigan muddatlar.

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov H.R. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. I jild. – T.: «Vektor-Press» 2010. – B. 367.

Muddatlarning bunday asosga ko'ra bo'linishi muddatni vujudga keltiruvchi asos bilan tavsiflanadi. Muddatlarni vujudga keltiruvchi, ya'ni belgilovchi va o'zgartiruvchi holatlar tegishli hujjatlarda ifodalanadi (Masalan, qonun, shartnoma yoki sudning hal qiluv qarorida).

**Qonuniy muddatlar.** Qonunlarda va boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilanadigan fuqarolik huquq va burchlarini vujudga keltiradigan, o'zgartiradigan va bekor qilinadigan vaqt yoki davr oralig'i qonuniy muddatlar sifatida tushuniladi. Qonuniy muddatlar huquqiy munosabat ishtirokchilari tomonidan o'zgartirilishi, kamaytirilishi yoki uzaytirilishi mumkin emas. Fuqarolik qonunchiligida belgilanadigan deyarli barcha muddatlar imperativ (qat'iy) xarakterga egadir. Agar qonunning o'zida to'g'ridan-to'g'ri tarafdagi boshqacha holatlar belgilangan bo'lmasa, masalan, FKning 22-moddasiga muvofiq, fuqarolik muomala layoqati 18 yoshdan boshlanadi. Lekin, FK 16 yoshga to'lgan fuqaroni ham to'la muomalaga layoqatli deb topish hollarini mustahkamlaydi (FKning 28-moddasi).

**Shartnomali muddatlar.** Shartnoma ishtirokchilarining fuqarolik huquqining subyektivi sifatidagi eng muhim huquqlaridan biri shartnoma tuzish erkinligining mavjudligidir. **Ma'lumki, shartnomalar tuzish erkinligi tamoyili quyidagi uchta holat bilan ifodalanadi:**

- Shartnoma taraflarini erkin tanlash;
- Shartnoma predmetini, ya'ni nima to'g'risida shartnoma tuzilishini tanlash;
- Shartnoma shartlarini erkin tanlash.

Taraflar shartnoma tuzishda muddatni ana shu uch holatdan kelib chiqib belgilaydilar. Shartnomadagi muddatni belgilashda har bir taraf o'zining imkoniyati, xohish-irodasi va mavjud vaziyatga baho berishidan kelib chiqadi. Shartnoma muddatini belgilashda taraflar erkin bo'ladilar. Lekin qonunda mazkur shartnoma yuzasidan qat'iy muddatlar belgilangan bo'lsa, taraflar uni o'zgartira olmaydilar. Masalan, FKning 559-moddasiga muvofiq, prokat shartnomasi bir yil muddatga tuziladi. Ko'rinib turibdiki, taraflar bu holatda prokat shartnomasi muddatini bir yildan

ortiq qilib belgilay olmaydilar. Lekin prokat shartnomasini bir yildan kam muddatga, masalan, 6 oyga yoki 8 oyga tuzishlari mumkin. Qonun shartnoma muddati tugagandan so'ng ham taraflarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida taraflarning shartnoma yuzasidan huquqlariga doir muddatlarni belgilaydi. Masalan, manfaatdor shaxsning talabiga binoan sud yakka tadbirkor yoki yuridik shaxsning bankrotlik to'g'risidagi qonunchilik qoidalarini buzib, bankrot deb e'lon qilinishidan oldingi bir yil ichida tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq mablag'lar hisobidan qilingan hadya shartnomasini bekor qilishi mumkin.

Har qanday shartnomali muddatlar ham, agar ikkinchi taraf o'z majburiyatini bajarmasa birinchi tarafning talabi bilan sud tartibida o'zgartirilishi mumkin. Masalan, ijaraga oluvchi ijara haqini o'z vaqtida to'lamasa, ijaraga beruvchi shartnoma muddatini qisqartirishi yoki yangi muddat belgilashni talab qilishi mumkin.

**Sud tomonidan tayinlanadigan muddatlar.** Fuqarolik huquq va majburiyatlarini amalga oshirish, ularni muhofaza qilish, ishni bajarish, tovarni topshirish, pulni to'lash, xizmat ko'rsatish yuzasidan vujudga keladigan ishlarga nisbatan sudlar bir qator muddatlarni belgilaydi. Bu muddatlar qarzdorni muayyan harakatni qilish vaqtini belgilashga, taraflar o'rtasidagi nizoni bartaraf etishga doir bo'lishi mumkin. Masalan, sud ishni ko'rib chiqib, hal qiluv qarorida qarzdor bir oy muddat ichida o'z qarzini to'lashi lozimligini belgilaydi.

Sudlar tomonidan tayinlanadigan muddatlar, o'z navbatida, fuqarolik huquqiga oid (moddiy huquqiy) va protsessual muddatlarga bo'linadi. Protsessual muddatlar faqatgina ishni ko'rish bilan bog'liq holatlarga taalluqli bo'lsa, moddiy huquqiy muddatlar yuqorida ta'kidlanganidek, nizolashayotgan taraflarga muayyan majburiyatlar yuklaydi. Masalan, fuqaroning sha'ni va qadr-qimmatini, obro'siga putur yetkazilganida, sud ommaviy axborot vositalarida bu ma'lumotlar noto'g'riligi haqidagi xabarni berish muddati (FKning 100-moddasi) ni belgilashi mumkin.

## **2-§. Muddatlar o'tishining boshlanishi va tamom bo'lishi**

Muddat o'tishining boshlanishi vaqtini aniqlash katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, muddat tamom bo'lish vaqtini to'g'ri aniqlab olish imkonini beradi. Bu esa yuridik fakt, ya'ni ma'lum huquq va majburiyatni vujudga keltiradigan yoki bekor qiladigan holatlar bilan bog'liq .

Muddatning tamom bo'lishini aniqlash to'g'risida shuni aytish kerakki, yillab hisoblanadigan muddat, shu muddatning oxirgi yili, tegishli oyi va kunida tamom bo'ladi. Muddatning boshlanishiga to'g'ri kelgan e'tiborga olinmaganligi sababli muddatning boshlanishi va tamom bo'lish kunlari tegishlicha qo'shiladi.

Oylab hisoblanadigan muddat, shu muddat oxirgi oyining tegishli kunida, agar oylab hisoblanadigan muddatning tamom bo'lishi tegishli kuni bo'lmagan oyga to'g'ri kelib qolsa, bu holda muddat shu oyning oxirgi kunida tugaydi. Ba'zi muddatlar yarim yil yoki yarim oy qilib ham belgilanishi mumkin. Bunda hisoblash tartibi quyidagicha belgilanadi: yarim yil qilib belgilangan muddatga oylab hisoblanadigan muddatlarga doir qoidalar qo'llanib, yarim oy qilib belgilangan muddat esa kunlab hisoblanadigan muddat qatorida ko'rib, o'n besh kunga baravar bo'ladi (FK 147-moddasining beshinchi qismi).

Haftalar bilan o'lchanadigan muddat shu muddatning oxirgi haftasidagi tegishli kunda tugaydi (FK 147-moddasining yettinchi qismi).

Agar muddatning oxirgi kuni ish kuni bo'lmagan kunga to'g'ri kelib qolsa, muddatning tamom bo'lishi bundan keyingi ish kuni hisoblanadi.

Muddatning tamom bo'lishini belgilash to'g'risida yana shuni aytish kerakki, agar hujjatlarda oxirgi muddat, masalan, «5-martgacha» deb yozilgan bo'lsa, 5-mart kuni hisobga o'tmaydi, agar «5-martda» deb yozilgan bo'lsa, bu kun hisobga olinadi.

Muddatning oxirgi kunida harakat qilish tartibi FKning 148-moddasida ko'rsatilgan. Bu qonunda aytilishicha, agar

muddat biron-bir harakatni amalga oshirish uchun tayinlangan bo'lsa, bu harakat muddatning oxirgi soat yigirma to'rtga qadar bajarilishi mumkin. Masalan, qarzdor shartnomada qarzini qaytaradigan kun 5-mart deb belgilangan bo'lsa, olingan qarz shu 5-mart soat yigirma to'rtgacha to'lansa, qarzdor majburiyatini o'z vaqtida bajargan bo'ladi.

Agar majburiyatni bajarishga qaratilgan harakat tashkilotda qilinishi lozim bo'lsa, muddat shu tashkilotlarda belgilanadigan qoidalar bo'yicha tegishli operatsiyalar (ishlar) tamom bo'ladigan oxirgi soatda tugaydi.

Tegishli tashkilotlarga yuboriladigan barcha yozma hujjat (ariza, bildirish)lar muddatning oxirgi kuni soat yigirma to'rtga qadar aloqa bo'limiga yoki telegrafga topshirilgan bo'lsa, muddat o'tmagan hisoblanadi. Bu qoida umumiy xarakterga ega bo'lib, sud, iqtisodiy sud, prokuratura va boshqa tashkilot hamda muassasalarga nisbatan ham qo'llaniladi. Masalan, fuqaro o'z da'vo arizasini muddat tamom bo'ladigan kun soat yigirma to'rtga qadar aloqa bo'limiga topshirgan bo'lsa, da'vo muddati o'tmagan hisoblanadi. Bu qoida yana tashkilotlar o'rtasida tuziladigan yetkazib berish, yuk tashish singari shartnomalar yuzasidan bo'ladigan da'vo, talab va shikoyatlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

### **3-§. Da'vo muddatlari tushunchasi**

Huquqni himoya qilish va uni amalga oshirishda vaqtning ahamiyati shundan iboratki, u faktik holatlarni keltirib chiqaradi, faktlarni huquqqa (talab qilish huquqiga) aylantiradi, huquqni vujudga keltiradi, o'zgartiradi hamda bekor qiladi. Vaqt shaxslarga huquq beradi, ba'zilaridan esa huquqni olib qo'yadi yoki huquqning harakatini to'xtatadi.

**Da'vo muddati** deb shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'ladigan muddatga aytiladi. Har qanday fuqarolik da'vosining ikki tomoni bor:

**birinchidan**, moddiy-huquqiy tomoni, bunda, avvalo, da'vogarning javobgarga nisbatan muayyan nizoli moddiy-

huquqiy talabi bo'lishi, masalan, biron-bir ashyoning topshirilishi, pul to'lanishi, xizmat ko'rsatilishi, zararning qoplanishi xususida talab qilinadi;

**ikkinchidan**, protsessual huquqiy tomoni – bunda taraflar o'rtasida kelib chiqqan nizoning mazmunan hal qilinishi va buzilgan yoki nizoli huquqning qo'riqlanishi to'g'risida sudga iltimos bilan murojaat qilinadi. FKning 10-moddasida ko'rsatilganidek, fuqarolik huquqlari protsessual qonunlar va shartnomada belgilab qo'yilganidek, ishlar qaysi sudga taalluqli bo'lishiga qarab, sud, iqtisodiy sud yoki hakamluk sudlari tomonidan himoya qilinadi. Binobarin, huquqlari buzilgan shaxs (fuqaro yoki tashkilot)lar yuqorida ko'rsatilgan sud, iqtisodiy sud yoki hakamluk sudlariga da'vo arizasi berib, buzilgan huquqlarining himoya qilinishi to'g'risida da'vo qo'zg'atishlari mumkin.

Da'vo muddati subyektiv huquq va majburiyatlarini himoya etishi uchun shaxsga beriladigan so'nggi imkoniyat. Bu vaqt oraliq'ida shaxs o'z huquqlarining amalga oshirilishini talab qilmasa, ularni yo'qotadi.

Buzilgan huquqni himoya qilish talabi da'vo muddatining o'tganligidan qat'i nazar, sudda ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi (FKning 153-moddasi).

Agar da'vo arizasi qonun bilan belgilangan muddat davomida berilgan bo'lsa, sud, iqtisodiy sud yoki hakamluk sudi tomoni da'vo ishini ko'rib, ishning mazmuni bo'yicha da'voni qondirish yoki qondirmaslik to'g'risida qaror chiqaradi. Agar da'vo arizasi qonun bilan belgilangan muddatni o'tkazib berilgan bo'lsa, sud, iqtisodiy sud yoki hakamluk sudi muddatning o'tkazilish sababini muhokama qiladi, agar da'vo muddati uzrsiz sabablar bilan o'tkazilganligi aniqlansa, o'tkazilgan muddat tiklanishi va ishning mazmuni bo'yicha qaror chiqarilishi mumkin.

Mulkiy munosabatlarni tartibga solishda da'vo muddatlari qonun bilan belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Da'vo muddatining belgilanishi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni mustahkamlashga, qarzning undirilishi, majburiyatning bajarilishi to'g'risidagi talablar o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashga, tashkilotlar o'rtasidagi hisob-kitoblar qilinishini



tezlatishga, shartnoma va moliya intizomiga rioya etilishini ta'minlashga, xo'jalik hisobini mustahkamlashga yordam beradi. Da'vo muddatlarining belgilanishi fuqarolar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni mustahkamlash uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, da'voni belgilangan muddatda to'g'ri hal qilish uchun fuqarolik ishi yuzasidan dalillar to'plash va ularni chuqur tekshirish lozim. Ammo nizoli huquqiy munosabat vujudga kelgan paytdan boshlab, uzoq muddat o'tgan bo'lsa, dalillarni to'plash ancha qiyinlashadi. Chunki ishning sudda ko'rilish vaqtida ba'zi guvohlarning bo'lmasligi (ko'chib ketgan, vafot etgan bo'lishi), ba'zilari esa bo'lgan voqealarni, faktlarni unutgan bo'lishlari yoki bu faktlarni buzib tasvirlashlari, ish to'g'ri hal qilinishi uchun zarur xarajatlar yo'qotilgan bo'lishi mumkin va hokazo. Agar da'vo muddati qonun bilan belgilanmagan bo'lsa, bitim tuzgan yoki birovning biron-bir huquqini buzgan shaxs doimo uzoq vaqt davomida, o'ziga nisbatan boshqa shaxs tomonidan da'vo qilinishi xavfi ostida bo'lar edi.

Da'vo muddati yuridik faktlarning bir turi bo'lib, yuridik oqibat tug'diradi<sup>1</sup>. Aynan da'vo muddatining o'tishi yoki uning mavjudligi fuqarolik huquq va majburiyatlarini vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor bo'lishiga olib keladi. «Da'vo muddati» iborasidagi «muddat» atamasi fuqarolik-huquqiy munosabatga nisbatan shunday ma'noni anglatadiki, bunda qaysidir munosabat, holat, voqea sodir bo'lgan vaqt fuqarolik huquq va majburiyatlarida o'z ifodasini topishi lozim hisoblanadi.

O'zining fuqarolik huquqlarini buzilgan deb hisoblagan fuqaro yoki yuridik shaxslar ushbu huquqlarni himoya qilish maqsadida sudlarga murojaat qiladilar.

**Huquqshunos olim O.S. Ioffe sudlarga da'vo bilan murojaat qilish uchun quyidagi holatlar mavjud bo'lishi lozim deb hisoblaydi:**

---

<sup>1</sup> Новицкий И.Б. Сделки. Исковая давность. – М.: Юрид.лит. 1954. – С. 137.

– da'vo qo'zg'atayotgan shaxs yoki nomidan da'vo qo'zg'atilyotgan shaxs protsessual huquq layoqatiga ega bo'lishi, ya'ni protsessda mustaqil taraf sifatida ishtirok eta olishi lozim;

– da'vo qo'zg'atish orqali boshlanadigan ish sudlarga taalluqli bo'lishi talab etiladi;

– da'vo qaratilyotgan shaxs fuqarolik huquqining subyekti bo'lishi va da'vogar kabi protsessual huquq layoqatiga ega bo'lishi lozim.

Ushbu holatlarning barchasi mavjud bo'lganda, sudlarga buzilgan huquqlarni tiklash va himoya qilish maqsadida murojaat qilish mumkin.

Huquqi buzilgan shaxs da'vo qo'zg'ata turib, nafaqat bu da'vo sud tomonidan qabul qilinishini, shu bilan birga ish sudda ko'rib chiqilishini talab qilishi mumkin. Zero, da'vo qo'zg'atishdan asosiy maqsad ham buzilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilish hisoblanadi.

**Bunday himoyaga erishish va ish sud tomonidan ko'rib chiqilishi uchun fuqarolik huquqi nuqtai nazaridan quyidagi holatlar talab etiladi:**

a) da'vo qo'zg'atayotgan shaxs tegishli subyektiv huquqlar sohibi bo'lishi;

b) uning subyektiv huquqlari buzilishi yoki unga putur yetkazilishi;

v) bunday buzilish da'vo bo'yicha javobgar sifatida ishga jalb etilgan shaxs tomonidan amalga oshirilishi.

Ushbu holatlar mavjud bo'lganda, nafaqat sudga murojaat etish, balki buzilgan fuqarolik huquqlari uchun sud himoyasining belgilanishiga erishish mumkin. Buzilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilish maqsadida da'vo qo'zg'atish va ushbu huquqlarning himoyasiga erishish ikki ma'nodagi huquq orqali ifodalanadi.

Da'vo bilan murojaat qilish huquqi – da'vogarning protsessual ma'nodagi huquqi bo'lsa, buzilgan huquqqa nisbatan da'vo orqali himoyaning amalga oshirilishi da'voga nisbatan moddiy huquq hisoblanadi.

Protsessual ma'nodagi da'vo qilish huquqi u yoki bu muddatning o'tishiga bog'liq bo'lmaydi.

Umumiy qoidaga muvofiq, buzilgan huquqni himoya qilish talabi da'vo muddatining o'tganligidan qat'iy nazar sudda ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi (FKning 153-moddasi). Aksincha, moddiy ma'nodagi da'vo qilish huquqi faqatgina qonunda belgilab qo'yilgan muddat oralig'ida amalga oshirilishi kerak bo'ladi. Ushbu muddatning o'tishi esa, buzilgan fuqarolik huquqi uchun da'vo qilish orqali himoyaga erishib bo'lmasligiga olib keladi.

Odatda, da'voga bo'lgan huquq manfaatdor shaxsning javobgar bilan bo'lgan moddiy-huquqiy nizosini shaxsning buzilgan yoki to'sqinlik qilinayotgan huquqini yoxud qonun bilan qo'riqlanayotgan manfaatlarini ko'rib chiqish va hal qilish to'g'risida sudga murojaat qilishning qonun bilan ta'minlangan imkoniyatidir. Ushbu qoidaga muvofiq, protsessual ma'nodagi da'vo qilish huquqi – bu shaxsning suddan vujudga kelgan nizoni ko'rib chiqish va hal qilishini talab qilish huquqidir.

**V.P. Gribanovning ta'kidlashicha, himoyaga bo'lgan huquq o'zining protsessual shakli jihatidan o'zida kamida uchta asosiy imkoniyatlarni ifodalaydi:**

**birinchidan,** huquq egasining buzilgan yoki putur yetkazilgan huquqni yoxud qonuniy manfaatlarini himoya qilish talabi bilan vakolatli davlat organiga yoki jamoat organiga da'vo yoki qonunchilikda ko'zda tutilgan o'zga shaklda murojaat qilish imkoniyati;

**ikkinchidan,** himoya qilish talabini ko'rib chiqish jarayonida ushbu himoya shakliga nisbatan qonunchilikda belgilangan barcha huquq va kafolatlardan foydalanish imkoniyati;

**uchinchidan,** ushbu ish bo'yicha sudga da'vo bilan murojaat qilgan shaxsning nazarida noto'g'ri bo'lgan tegishli organning qarori ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilish, protest keltirilishini talab qilish imkoniyati.

Qonunchilikda buzilgan huquqni himoya qilishning moddiy va protsessual imkoniyatlarining belgilanishi fuqarolik huquqlarini amalga oshirishning va subyektiv huquqlar buzilmasligining kafolati hisoblanadi.

Moddiy ma'nodagi da'vo qilish huquqi da'vogarning sud orqali o'z talabini qondirish huquqidir. Da'vo muddatining o'tkazib yuborilishi aynan da'vogarning o'z talabini qondirish imkoniyatidan mahrum etadi va sudning da'voni rad etish haqida qaror chiqarish uchun asos bo'ladi.

Da'vo muddatlarida belgilangan vaqt davrlari taraflar tomonidan o'zgartirilishi mumkin emas. Odatda, da'vo muddatlari imperativ xarakterga ega bo'ladi, taraflar ularni o'z istak-xohishlari asosida uzaytirishga yoki qisqartirishga haqli bo'lmaydilar. Shu bilan birga huquqiy munosabat ishtirokchilari da'vo muddatining boshlanish paytini, uning qancha vaqtgacha davom etishini qonunda belgilangan muddatdan ko'p yoki kam qilib belgilashlari mumkin emas. FKning 152-moddasiga binoan, da'vo muddatlari va ularni hisoblash tartibi taraflarning kelishuvi bilan o'zgartirilmaydi. Bunday o'zgartirish qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Umumiy qoidaga ko'ra, da'vo muddati sud tomonidan faqat nizodagi tarafning sud qaror chiqargunicha bergan arizasiga muvofiq qo'llaniladi. Bu qoida shunday ma'noni anglatadiki, agar javobgar sudga da'vo muddati o'tib ketganligini bildirmasa, sud da'vogar va javobgar o'rtasidagi nizoni mazmunan ko'rib chiqish va hal qiluv qarori chiqarishi lozim. Bunda da'vo muddatining o'tib ketganlik holati ahamiyatga ega bo'lmaydi. Ushbu holatda taraflar o'zaro bitim tuzish paytida, ular o'rtasidagi bitim yoki shartnomaga nisbatan da'vo muddati joriy qilinmasligi to'g'risida kelishuvga erishsalar, bunday kelishuv o'z-o'zidan haqiqiy sanalmaydi.

Da'vo muddati instituti fuqarolik-huquqiy munosabatlar uchun katta ahamiyatga ega. Da'vo muddatining mavjud bo'lishi fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini amalga oshirishda alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, subyektning o'ziga tegishli huquqlarini amalga oshirish uchun qonunchilikda muayyan vaqt oralig'ining belgilanishi, shaxsning o'z huquq va majburiyatlariga befarq qaramasligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, da'vo muddati subyektiv fuqarolik huquq va majburiyatlarini himoya etishi uchun shaxsga beriladigan so'nggi imkoniyat bo'lib, bu vaqt

oralig'ida shaxs o'z huquqlarini amalga oshirilishini talab qilmasa, shu huquqlarga nisbatan subyektiv huquqlarini yo'qotadi. O'z huquq va manfaatlari himoyasini so'rashi yoki talab qilishi uchun subyektga muayyan muddatning belgilanishi yana shu bilan tavsiflanadiki, bunda shaxslar o'rtasidagi fuqarolik huquqiy munosabatni (tovar topshirilganligi, pul to'langanligi, ish bajarilganligi, xizmat ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi hujjatlar vaqt o'tishi bilan yo'qotilishi, bo'lib o'tgan voqea kishilar xotirasidan ko'tarilishi mumkin bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, da'vogar shaxsning o'z talablarini isbotlab berishini qiyinlashtirishiga olib keladi. Shuningdek, da'vo muddati nafaqat fuqarolar bilan fuqarolar o'rtasidagi fuqarolik huquqiy munosabatlar uchun ahamiyatli, balki yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlarda ham huquq va majburiyatni amalga oshirish uchun muayyan vaqt davrlarining belgilanishi o'ringa ega bo'ladi. Agar fuqaroning belgilangan vaqt oralig'ida o'z huquqlarini amalga oshirishni talab qilishi uning subyektiv huquqi bo'lsa hamda o'z xohishiga ko'ra amalga oshirishi yoki amalga oshirmasligi mumkin bo'lsa, yuridik shaxslarning da'vo muddati amal qilib turgan paytda o'z huquqlarini amalga oshirishni talab etmasliklari mumkin emas. Chunki yuridik shaxslarning o'z huquqlarini amalga oshirishni talab etmasliklari bir qator qonunbuzarliklarni vujudga keltirishi mumkin. Garchi bozor iqtisodiyoti sharoitida, yuridik shaxslarning faoliyati ancha erkinlashgan bo'lsa-da, ularning o'z huquqlarini amalga oshirishni talab etmasliklari vakolatli davlat organlari tomonidan nazorat etiladi va bu holatga yo'l qo'yilmaydi.

**Bunday tartib ancha asosli bo'lib, buning quyidagi sabablari mavjud:**

**birinchidan,** huquqni amalga oshirishni talab etmaslik, o'z huquqini amalga oshirmagan yuridik shaxs uchun zarar bo'lishi bilan birga, davlat byudjeti uchun ham ziyondir. Bunday holatda huquqni talab etmagan yuridik shaxs o'z-o'zidan ravshanki foyda ko'rmaydi va buning oqibatida foyda ko'rganda to'lashi lozim bo'lgan soliqni ham to'lamaydi;

**ikkinchidan,** huquqni talab etmaslik va buning natijasida huquqlarning yo'qotilishi yuridik shaxs rahbarlarining shaxsiy

manfaatlari uchun xizmat qilishi mumkin. Ya'ni, bunda qarzdor taraf bilan kelishib (qonunga zid kelishuv), da'vo muddatini uzrsiz sabablarga ko'ra o'tkazib yuborib, buning evaziga keyinchalik muayyan miqdorda moddiy manfaatdorlik ko'rish;

**uchinchidan**, da'vo muddati mobaynida yuridik shaxs o'z huquqini talab etmasligi uning faoliyati va buxgalteriya hisobotlari uchun noqonuniy fakt hisoblanadi.

Umuman olganda, ma'lum vaqt davrlarining o'tishi bilan belgilanadigan muddatlar har doim ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarda alohida o'rin tutadi. Bunday muddatlarning belgilanishi huquq subyektlarining o'z huquqlari doirasida harakatlanishi mumkin bo'lgan vaqt oralig'ini ifodalaydi.

Muayyan vaqt davrlari bilan belgilanadigan muddatlar shaxslarning tegishli munosabatga oid hayotiy tajribalari bilan bog'liq bo'ladi. Vujudga kelayotgan holatlarni kuzatib borish shundan dalolat beradiki, huquqni amal qilishidan manfaatdor bo'lgan shaxs, ko'pchilik holatlarda, da'vo qo'zg'atishni uzoq vaqtgacha cho'zib yurmaydi<sup>1</sup>. Bunda odatiy holat sifatida shaxs o'z huquqlariga nisbatan qat'iy ishonchi va bu huquqlar buzilganda, tezda ularni tiklash uchun sudga murojaat qilish kuzatiladi. Ushbu holatdan shunday xulosa qilish mumkinki, agar buzilgan huquq tegishli bo'lgan shaxsda uzoq vaqt davomida huquq buzilishi hech qanday aks ta'sir ko'rsatmasa, agar o'z huquqini buzilgan deb hisoblashi lozim bo'lgan shaxs huquqni himoya qilishni so'rab sudga murojaat qilmasa, bu shaxsning mazkur huquqi umuman vujudga kelmagan yoki qachondir mavjud bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik bekor qilingan deb hisoblash mumkin.

Vaqt davrlari bilan belgilanadigan muddatlarining fuqarolik-huquqiy munosabatlarga tatbiq etilishi fuqarolik-huquqiy munosabatlar izchilligini va shaxslarning o'z huquqlariga nisbatan ishonchini oshiradi. Ko'rinib turibdiki, vaqt davrlari, hech shubhasiz, huquqni amalga oshirishni cheklaydi. Bunda muddatdagi vaqt davrlari qanchalik qisqa bo'lsa, huquqqa

---

<sup>1</sup> Новицкий И.Б. Римское право. Учебник. – М., Кнорус, 2011. – С. 61.

nisbatan cheklov shunchalik yaqqol seziladi, muddat uzoqroq bo'lsa, aksinchadir. Mulkiy munosabatlarning to'la amalga oshishi nuqtai nazaridan muddatlar qisqa bo'lmasligi, huquqiy munosabatdagi noaniqliklarni bartaraf etish nuqtai nazaridan esa muddatlar qisqaroq bo'lishi kerak.

Darhaqiqat, huquqni amalga oshirishga nisbatan muddatlarning belgilanishi, huquqlarni cheklaydi va ularning amal qilishini muayyan vaqt davrlari bilan belgilab qo'yadi. Lekin bunday cheklov har doim ham huquqiy munosabatdagi ishtirokchilar manfaatlarini ko'zlab belgilanadi. Bunda kreditordan o'z huquqiga beparvo bo'lmasligi talab etilsa, qarzdor muayyan vaqtgacha talab bajarishga tayyor turishi ifodalanadi.

Da'vo muddati institutining maqsadi kimnidir jazolash yoki kim uchundir noqulaylik vujudga keltirish hisoblanmaydi. Bu institutning maqsadi va vazifasi huquqiy munosabatlarni buzmasdan, ular ko'lamiga ta'sir etmasdan huquqiy munosabatlardagi noaniqliklarni bartaraf etishdir. Da'vo muddatining mavjudligi subyektning o'z huquqlarini amalga oshirishga va majburiyatlarni bajarishga befarq bo'lmasligini ta'minlaydi.

Fuqarolik huquqida da'vo muddatlarining ahamiyatini yana shu holat bilan belgilash mumkinki, ular sudlarga vujudga kelgan huquqiy munosabatdagi aniq holatni aniqlashda katta yordam beradi. Agar da'vo muddatlari (belgilangan vaqt, masalan, uch yil) mavjud bo'lmasa hamda shaxs 10 yoki 15 yildan so'ng ham o'z huquqini talab etsa (qonunda belgilangan da'vo muddatlari joriy etilmaydigan huquqlar bundan mustasno), ushbu holatda haqiqatni aniqlash qiyin bo'lishi yoki umuman amalga oshmasligi mumkin.

**Da'vo muddati institutining bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar jumlasiga:**

- taraflarga o'zaro kelishuv asosida da'vo muddatlari belgilangan holatda o'zgartirish huquqi berilmaganligi;
- da'vo muddati bilan belgilangan vaqt davrlarini o'zgartirish mumkin emasligi;
- da'vo muddatini qisqartirish yoki uzaytirish mumkin emasligi va hokazolar kiradi.

Shu o'rinda da'vo muddatlari bilan fuqarolik huquqlarini amalga oshirishning boshqa muddatlari o'rtasidagi farq to'g'risida to'xtalib o'tish ham maqsadga muvofiq.

### **Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qo'llaniladigan:**

- kafolat muddatlari;
- e'tiroz muddatlari;
- yaroqlilik muddatlari;
- xizmat muddatlari va shu kabi boshqa muddatlar ularning barchasi uchun xos bo'lgan bitta umumiy jihat bilan da'vo muddatlari bilan farq qiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan bu muddatlarning barchasi ham fuqarolik huquqlarining amal qilish muddatlari hisoblanadi. Da'vo muddati esa, huquq va manfaatlar himoyasi uchun belgilangan vaqt davri sifatida e'tirof etiladi.

Agar fuqarolik huquqlarining amal qilish muddatlari (kafolat muddati, yaroqlilik muddati, e'tiroz muddati va h.k.)da muddatning o'tkazib yuborilishi huquqni amalga oshirish imkoniyatining yo'qotilishiga olib kelsa, da'vo muddatining o'tkazib yuborilishi subyektiv huquq va majburiyatlarning qonuniy himoya etish imkoniyatining yo'qotilishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, da'vo muddatlari va boshqa muddatlardan o'zining imperativ xarakterga egaligi bilan ham farq qilishini ta'kidlash joiz.

Agar fuqarolik huquqlarining amal qilish muddatlari taraflarning kelishuv bilan belgilanishi hamda taraflar uni o'zaro kelishib o'zgartirishlari mumkin bo'lsa, da'vo muddatlarini taraflar o'zgartirishlariga yo'l qo'yilmaydi va taraflar da'vo muddati talablarini o'zlari kirishayotgan munosabatga tatbiq etilmasligini ham belgilash huquqiga ega bo'lmaydilar.

Da'vo muddati fuqarolik huquqining deyarli barcha institutlarida uchraydi. Da'vo muddatlari nafaqat fuqarolik huquqi sohasi uchun, balki iqtisodiy huquq, tadbirkorlik huquqi, mehnat huquqi, moliya huquqi, qishloq xo'jalik huquqi kabi ko'plab huquq sohalarida ham tatbiq etiladi.

Umumiy qoidaga ko'ra, da'vo muddatlari fuqarolik-huquqiy munosabatlarda mol-mulk bilan bog'liq deyarli barcha munosabatlarda tatbiq etiladi. Da'vo muddatlari fuqarolar bilan



fuqarolar o'rtasidagi, hamda yuridik shaxslar bilan yuridik shaxslar o'rtasidagi mulkiy munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlarni himoya qilishda keng qo'llaniladi.

Tadbirkorlik sohasidagi fuqarolik-huquqiy xarakterdagi muddatlarning qo'llanilishi, tadbirkorlik faoliyatini muvofiqlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ayniqsa, tadbirkorlik faoliyati subyekting o'z huquqlarini amalga oshirish, majburiyatlarni bajarish va shartnoma shartlarini ijro etishda muddatlarning o'rni beqiyos hisoblanadi. Zero, tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy rivojlanish jihatidan tavakkalchilik asosida ish olib boradi va muddatlar ana shu tavakkalchilik xavfining salbiy oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, da'vo muddati, davlat organlari o'rtasidagi o'zaro fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ham mavjud bo'ladi. Biroq ushbu holatlarda da'vo muddatini qo'llash mulkiy huquqlarni aniqlash, da'vo qilish orqali buzilgan huquqlarni tiklash juda qiyin kechadi. Zero, davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar deyarli barcha holatlarda fuqarolik-huquqiy me'yorlar bilan emas, ma'muriy-huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadi.

#### **4-§. Da'vo muddatining turlari**

Fuqarolik huquqida uchraydigan muddatlar bir necha asoslarga ko'ra turlarga bo'linadi. Huquqiy oqibatiga ko'ra muddatlar huquqni vujudga keltiruvchi, huquqni o'zgartiruvchi va huquqni bekor qiluvchi muddatlarga bo'linadi.

**Huquqni vujudga keltiruvchi muddatlar** – bunday muddatlarning o'tishi natijasida fuqarolik huquqlari vujudga keladi. Bunda huquqning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi ahamiyatga ega emas. Masalan, oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq, tovarga nisbatan mulk huquqi sotuvchiga tovar topshirilishi muddati natijasida vujudga keladi (FKning 389-moddasi) yoki fuqaroning belgilangan yoshga to'lishi (18 yoshga yetishi) uning o'zi uchun o'z harakatlari bilan huquq va majburiyatlarni vujudga keltirish va ularni amalga oshirish huquqini vujudga keltiradi (FKning 22-moddasi).

Fuqarolik huquqida huquqni vujudga keltiruvchi muddatlar ko'plab uchraydi. Ushbu muddatlar uchun xos bo'lgan muhim jihatlari, ularning oqibatida fuqarolar yoki yuridik shaxslarda faqatgina muayyan huquq yuzaga kelishi lozim.

**Huquqni o'zgartiruvchi muddatlar** – o'tishining boshlanishi yoki o'tib ketishi fuqarolik huquq va burchlarini o'zgarishiga olib keladi. Huquqni o'zgartiruvchi muddatlar, o'z tabiatiga ko'ra, shartnomaviy munosabatlarda keng qo'llaniladi va, odatda, bunday muddatlarning o'tishi natijasida shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari u yoki bu darajada o'zgaradi.

**Huquqni bekor qiluvchi muddatlarning** ro'y berishi fuqarolik huquq va majburiyatlarining bekor bo'lishiga olib keladi. Masalan, umumiy mulkdagi ulushni sotishda, agar qolgan mulkdorlar imtiyozli sotib olish huquqidan voz kechsalar yoki bu huquqni xabar qilingan kundan e'tiboran ko'chmas mulkka nisbatan bir oy davomida, boshqa mol-mulkka nisbatan esa o'n kun davomida amalga oshirmasalar, ular imtiyozli sotib olish huquqini yo'qotadilar va mulkdor o'z mulkini istagan shaxsga sotish huquqiga ega bo'ladi (FKning 224-moddasi).

Bunday muddatlarning o'tishi oqibatida fuqarolik huquqlari bekor bo'lishi qonunchilikda to'g'ridan-to'g'ri belgilab qo'yilishi mumkin.

Huquqni bekor qiluvchi muddatlar muayyan munosabat ishtirokchilarining faqatgina shu munosabatlarga doir huquqlari yoki majburiyatlarini bekor qiladi.

**Muddatlar o'zlarining aniqlanish tavsifiga ko'ra:**

- imperativ muddatlar;
- dispozitiv muddatlar;
- mutloq aniq muddatlar;
- qisman aniq muddatlar;
- noaniq muddatlar;
- umumiy muddatlar;
- maxsus muddatlarga bo'linadi.

## 5-§. Da'vo muddatining o'ta boshlashi

Da'vo muddatini to'g'ri hisoblash uchun uning qay vaqtda tugashini belgilash zarur. Da'vo muddatining tugashi da'vo qilish huquqi vujudga kelgan kundan boshlanadi (FKning 154-moddasi). Bunday huquq, ya'ni da'vo muddati shaxs o'zining huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan o'ta boshlaydi.

Da'volarning turlariga qarab, da'vo muddati o'tishining boshlanish payti bir xil bo'lmaydi, jumladan, bajarish muddati ko'rsatilgan majburiyatlar bo'yicha da'vo muddatining o'tishi uchun shu ko'rsatilgan bajarish muddatining oxirgi kundan keyingi kundan boshlanadi. Masalan, fuqaro boshqa bировga 2020-yil 20-mayda to'lash sharti bilan qarz bergan bo'lsa, da'vo muddatining o'tishi shu yil 21-may soat 00-u 01 daqiqadan boshlanadi.

Bajarish muddati ko'rsatilmagan majburiyatlar bo'yicha da'vo muddatining o'tishi majburiyatlarning vujudga kelgan paytidan boshlanadi. Bировga zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha da'vo muddatining o'tishi jabrlangan shaxsning o'ziga zarar yetkazilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan e'tiboran boshlanadi.

Ba'zi da'volar bo'yicha da'vo muddati o'tishining boshlanishi to'g'risida maxsus qoidalar belgilangan. Jumladan, yuk tashish shartnomasi yuzasidan yuk tashuvchiga nisbatan da'vo qilish uchun belgilangan ikki oylik muddatning o'tishi e'tiroz bildiruvchi tomonidan javob olingan yoki javob berish uchun belgilangan muddatning o'tgan kundan boshlanadi.

Sifati lozim darajada bo'lmagan mahsulotlar yetkazib berishdan kelib chiqadigan da'volar uchun belgilangan da'vo muddatining o'tishi yetkazib berilgan mahsulotdagi kamchiliklar sotib oluvchi tomonidan tegishli tartibda belgilangan kundan boshlanadi.

## **6-§. Da'vo muddati o'tishining to'xtatilishi, uzilishi va da'vo muddatining tiklanishi**

Da'vo muddatining o'tishi qoida bo'yicha uzluksiz davom etadi. Ammo ba'zi hollarda da'vo muddati davom etib turganda, da'vo qilish uchun obyektiv halaqit beradigan birona holat sodir bo'lishi mumkin. Bunday da'vo muddatining o'tishini to'xtatadigan holatlar qonunda (FKning 156-moddasi) belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

**birinchidan**, da'vo qilish uchun muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan favqulodda hodisa (yengib bo'lmas kuch) to'sqinlik qilsa, masalan, toshqin, zilzila singari hodisalar yuz bersa;

**ikkinchidan**, majburiyatlarni bajarishni kechiktirish (moratoriy) to'g'risida Hukumat qarori bo'lsa;

**uchinchidan**, agar da'vogar yoki javobgar harbiy holatda o'tkazilgan qurolli kuchlar, chegara qo'shinlari va ichki qo'shinlar tarkibida bo'lsa;

**to'rtinchidan**, agar muomalaga layoqatsiz shaxsning qonuniy vakillari bo'lmasa;

**beshinchidan**, tegishli munosabatlarni tartibga soluvchi qonun yoki boshqa huquqiy hujjatlarning amal qilishi to'xtatilgan bo'lsa.

Da'vo muddatining o'tishi yuqorida ko'rsatilgan holatlar da'vo muddatining oxirgi olti oyida, bu muddat olti oydan kam bo'lsa, da'vo muddatida vujudga kelgan yoki davom etib turgan bo'lsa, muddatning o'tishi to'xtatiladi.

Muddatning to'xtatib turilishiga asos bo'lgan holat barham topgan kundan boshlab da'vo muddatining o'tishi davom etadi, bunda muddatning qolgan qismi olti oygacha, da'vo muddati olti oydan kam bo'lsa, da'vo muddatiga qadar uzaytiriladi (FKning 156-moddasi).

Da'vo muddatining o'tishi yuqorida ko'rsatilgan umumiy asoslardan tashqari yana maxsus asoslar bo'lgan taqdirda ham to'xtatib turilishi mumkin. Bunday maxsus asoslar qonunlarda nazarda tutiladi.

Da'vo muddati o'tishining uzilishi da'vo muddati o'tishining to'xtatilishidan farq qiladi. Agar da'vo muddatining o'tishi to'xtaganda muddat yangidan hisoblanmasa, da'vo muddatining o'tishi uzilgan holda, da'vo muddati uzilgunga qadar vaqt yangi muddatga qo'shilmaydi va da'vo muddatining o'tishi uzilganidan so'ng yangidan hisoblanadi.

Da'vo muddatining o'tishi ikki holda: birinchidan, belgilangan tartibda da'vo qo'zg'atilishi bilan, ikkinchidan, majbur shaxs qarzni tan olganligini ko'rsatuvchi harakatlarni qilishi bilan uziladi (FKning 157-moddasi).

**Da'vo muddatining tiklanishi.** Agar sud, iqtisodiy sud yoki hakamlik sudi da'vo muddatining o'tkazib yuborilishi sababini uzrli deb topsa, buzilgan huquq himoya qilinishi lozim bo'ladi. Bu holda o'tkazilgan da'vo muddati tiklanadi va taraflar o'rtasidagi nizo mazmunan ko'rib hal qilinadi.

Da'vo muddatining o'tkazilishi sabablarini qanday hollarda uzrli deb topish to'g'risida qonun muayyan holatlarni ko'rsatmaydi, binobarin, da'vo muddatini o'tkazib yuborish sabablarini tekshirish va uzrli yoki uzrsiz deb topish huquqi sudga, iqtisodiy sud yoki hakamlik sudiga beriladi. Sud, iqtisodiy sud yoki hakamlik sudi har safar konkret ishning holatlarini e'tiborga olib, o'tkazilgan da'vo muddatini uzrli yoki uzrsiz deb topishi mumkin.

Ba'zi hollarda fuqarolar va tashkilotlar o'zlariga bog'liq bo'lmagan sabablar bilan qonunda belgilangan muddat davomida da'volarni qo'zg'ata olmasliklari mumkin. Masalan, fuqaro kasalligi, keksaligi yoxud voyaga yetmaganligi, uzoq muddat davomida xizmat safarida bo'lganligi sababli yoki javobgarning qayerda bo'lishi noma'lum bo'lgan va boshqa ba'zi hollarda o'tkazilgan da'vo muddatlari sud tomonidan uzrli deb topilishi mumkin.

Tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan da'vo muddatlari ham ba'zi hollarda sud yoki iqtisodiy sud tomonidan uzrli deb topilishi mumkin. Jumladan, tashkilotlar o'z mansabdor shaxslarining aybli harakatlari, nazoratchi organlarining noto'g'ri bergan buyruqlari, sud yoki iqtisodiy sudning xato harakatlari tufayli

da'vo muddati o'tkazib yuborilgan va boshqa ba'zi hollarda da'vo muddatining o'tkazilishi uzrli sabab deb topilishi va ish mazmunan hal qilinishi mumkin.

Da'vo muddatining to'xtatilishi, uzilishi va tiklanishi to'g'risidagi qoidalar, agar qonun bilan boshqacha hol belgilanmagan bo'lsa, maxsus da'vo muddatlari ham joriy qilinadi (FK 151-moddasining ikkinchi qismi).

### **7-§. Da'vo muddati o'tishining oqibatlari**

Da'vo qo'zg'atilgunga qadar, da'vo muddatining o'tishi da'voni rad qilish uchun asos bo'ladi. Binobarin, da'vogar o'z huquqini majburiy ravishda amalga oshirish imkoniyatini yo'qotadi.

Yuqorida ko'rsatilgan da'vo muddati o'tishining asosiy oqibatini belgilaydigan qoidadan tashqari, qonunda shu yuridik fakt bilan bog'liq bo'lgan boshqa qoidalar ham belgilanadi. Jumladan, asosiy talab bo'yicha da'vo muddati o'tishi bilan qo'shimcha talablar: **neustoyka, garov, kafolat** va boshqalar bo'yicha da'vo muddati ham o'tgan hisoblanadi (FKning 162-moddasi).

Ba'zi hollarda qarzdor o'z majburiyati da'vo muddati o'tgandan so'ng ham bajarishi hollari yuz berishi mumkin. Bunday hollarda avval majbur shaxs o'z tomonidan bajarilganligi, to'langan summaning qaytarilishi to'g'risidagi talabni qo'ya olmaydi.

Fuqarolik kodeksida qarzdor da'vo muddati o'tganidan keyin majburiyatini bajargan holda, garchi ijro etish paytida da'vo muddatining o'tib ketganligi bilan yoki bilishi lozim bo'lganligidan qat'i nazar bajargan narsasini qaytarishni talab qilishga haqli emasdir, deb ko'rsatiladi (FKning 161-moddasi).

### **8-§. Da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar**

Buzilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilish uchun ko'pchilik hollarda da'vo muddati belgilanadi. **Lekin da'vo muddati quyidagilarga tatbiq qilinmaydi:**

– shaxsiy nomulkiy huquqlarni va boshqa nomoddiy boyliklarni himoya qilish haqidagi talablarga, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

– omonatchilarning o'z omonatlarini berish to'g'risida bankka qo'yadigan talablariga;

– fuqaroning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'lash haqidagi talablariga;

– jinoyat tufayli yetkazilgan zararni to'lash haqidagi talablarga;

– mulkdorning yoki boshqa egalik qiluvchining o'z huquqini har qanday buzilishlarni, shu jumladan, egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan buzishlarni bartaraf etish haqidagi talablarga;

– mamlakat mustaqilligi e'lon qilinishidan oldin uning chegaralaridan tashqariga olib chiqib ketilgan tarixiy, madaniy va ilmiy-badiiy qiymatga ega bo'lgan mol-mulknini hamda qimmatbaho obyektlarni qaytarib berish haqidagi talablarga;

– qonunda belgilangan hollarda boshqa talablarga (FKning 163-moddasi).

Ba'zi mualliflar yuqoridagi holatlardan tashqari da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar qatoriga mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'naviy zararni undirish haqidagi talablarni kiritishni taklif etadi<sup>1</sup>.

Tabiiyki, bu talablar fuqaro va shaxslar, shuningdek, davlatimizning real huquqlaridan kelib chiqadi. Bu normalarning kiritilishi fuqarolik huquqiy munosabatlar tengligi munosabatlari, normal munosabatlar ekanligining yana bir bor tasdig'idir. Ushbu talablar bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining joriy qonunlarida ham nazarda tutilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida»gi qonunida tarixiy, madaniy va ilmiy-badiiy qiymatga ega bo'lgan mol-mulklarni mamlakatimizga qaytarish bilan bog'liq birmuncha normalar belgilangan.

---

<sup>1</sup> Mamasiddiqov M.M. Mehnatga oid nizoli ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari. O'quv qo'llanma – Toshkent: TDYuI, 2004. – 42-b.

## **Tayanch iboralar:**

Muddat, qonuniy muddatlar, shartnomali muddatlar, sud tomonidan belgilanadigan muddatlar, da'vo muddati, imperativ muddatlar, dispozitiv muddatlar, mutloq aniq muddatlar, qisman aniq muddatlar, noaniq muddatlar, umumiy muddatlar, maxsus muddatlar.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Muddatlarning qanday turlarini bilasiz?
2. Talab qo'yish muddatlari qaysi hujjatlarda belgilangan?
3. Da'vo muddatiga ta'rif bering.
4. Da'vo muddati qachon qo'llaniladi?
5. Da'vo muddati qaysi talablarga joriy qilinmaydi?
6. Imperativ muddatlarga misol keltiring.
7. Da'vo muddatining o'tishi qanday oqibatlariga olib keladi?
8. Da'vo muddati o'tishining to'xtatilishi deganda nima tushuniladi?
9. Maxsus muddatlarga ta'rif bering.
10. Umumiy muddatlar deb nimaga aytiladi?



### 1-§. Mulk huquqi tushunchasi va tamoyillari

Mamlakatimizda bozor munosabatlari qaror topganidan so'ng hayotimizda bir qator yangi fuqarolik-huquqiy munosabatlar vujudga keldiki, bu holat ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechib, erkin iqtisodiy munosabatlar amal qilishini ta'minladi. Bu esa, o'z navbatida, mulkiy munosabatlar tizimida bir qator yangi qoidalar vujudga kelishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, bozor munosabatlari qonuniyatlari hisoblangan talab va taklif, raqobat qonuniyatlari bilan hamohang bo'lgan mulk shakllarining tengligi, mulkning daxlsizligi, har kimning mulkdor bo'lishga haqliligi, mulkdorning o'z mulkidan o'z xohish va manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi kabi tamoyillarning huquqiy jihatdan kafolatlanganligi xususiy mulkchilik va tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochib berdi.

Jamiyatning iqtisodiy negizi – mavjud mulkchilik munosabatlariga asoslanadi. Shu sababli, mulk nafaqat yuridik mazmunga, balki iqtisodiy ma'noga ham ega. Kishilar mehnati bilan yaratilgan yoki tabiat tomonidan insonlarga o'ziga xos tarzda «taqdim etilgan» boyliklar har doim mulk bo'lib kelgan. Mulk egasi bo'lish yoki bo'lmasligiga qarab, kishilarning jamiyatdagi mavqeyi, aniqrog'i ijtimoiy-iqtisodiy maqomi vujudga keladi.

Mulkchilik – insonning boyligi bo'lmish ashyo, buyum yoki boshqa narsaga nisbatan egalik his-tuyg'usi bilan bog'liq munosabat, yoki ana shu boylik, ne'mat xususida kishilar o'rtasida vujudga kelgan munosabatdir. Kishilar buyumlarni, ne'matlarni o'ziniki qilib olgandagina o'zlashtirishlari mumkin, chunki jamiyatda o'zganiki bo'lgan ne'matlarni o'zlashtirib bo'lmaydi. Mulk sohibi o'z mulkiga mustaqil tayanib ish ko'radi. Mulksiz o'zganing mulkini ijaraga oluvchi yoki mulkdorga yollanib ishlovchi shaxs mustaqil emas. Ne'matlar ikki yo'sinda: ishlab chiqarish resurslari, ya'ni vositalari va ishlab chiqarish natijalari sifatida o'zlashtiriladi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkchilik munosabatlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shaxsni mulkdan begonalashuviga asoslangan ijtimoiy alohida imtiyozli mavqega barham berildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan mamlakatimiz iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi mustahkamlab qo'yildi.

Tabiat boyliklari va kishi mehnati natijalari shaxslar tomonidan ayrim-ayrim holda o'zlashtirilmay, balki birgalashib va o'zaro hamkorlik bilan o'zlashtiriladi. Binobarin, mulk tabiat narsalarini o'zlashtirishda kishilar va ularning jamoalari o'rtasida bo'lgan munosabatni, ya'ni ijtimoiy munosabatni, ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini bildiradi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'lishicha, mulk ishlab chiqarishning zarur sharti va ishlab chiqarilgan boyliklarning o'zlashtirilishi natijasi hisoblanadi.

Mulk ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni egallash, foydalanish va ularni tasarruf etish sohasida bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarning majmui sifatida ham ta'riflanishi mumkin.

Mulk huquqi shaxslar tomonidan tabiat boyliklarini, ashyolarini o'zlashtirishda bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan va mustahkamlaydigan huquqiy normalar tizimidir.

Mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir.

### **Mulk huquqining tamoyillariga quyidagilar kiradi:**

1. O'zbekiston Respublikasida mulk daxlsiz, mukldorning mulkiy huquqi qonun bilan kafolatlanadi va mulkdor bu huquqlardan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mahrum etilishi mumkin.

2. Iqtisodiyot samarali amal qilishiga va xalq farovonligining o'sishiga yordam beradigan har qanday shakldagi mulkchilik bo'lishiga ruxsat beriladi.

3. Mulkchilikning hamma shakllari himoya qilinishi qonun bilan kafolatlanadi va ularning teng rivojlanishiga sharoit yaratib beriladi.

4. Mulkdor o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday xatti-harakatlarni o'z xohishiga ko'ra sodir etishga haqli.

5. Mulkiy huquqning amalga oshirilishi atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va davlat huquqlarini buzmasligi hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga putur yetkazmasligi shart.

6. Har kim mulkdor bo'lishga haqli.

## **2-§. Mulk huquqining mazmuni**

Mulk huquqi obyektiv va subyektiv ma'nodagi mulk huquqiga bo'linadi.

Obyektiv ma'nodagi mulk huquqi deganda, tabiat ashyolarini ijtimoiy o'zlashtirishning mavjud zahiralarini, usullarini belgilash, tartibga solish va mustahkamlash uchun xalq manfaatlarini ko'zlab belgilangan tadbirlarni ifodalovchi huquq normalari yig'indisi nazarda tutiladi. Jumladan, mulk to'g'risidagi umumiy qoidalar obyektiv huquq normalari hisoblanadi.

Subyektiv ma'nodagi mulk huquqi deb ayrim shaxslar, ya'ni huquq subyektlarining (davlat, yuridik shaxslar va fuqarolarning) obyektiv huquq normalari asosida kelib chiqadigan mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqlariga aytiladi.


Mulkni o'z xohishiga ko'ra va o'z manfaatini ko'zlab egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, mulk huquqini har qanday buzilishlardan bartaraf etishni talab qilish huquqi tushunchalari mulk huquqining mazmunini tashkil etadi. Subyektiv mulk huquqining mazmunini tashkil etadigan elementlar mulk egasiga qonun bilan belgilangan doiralarda beriladi.

O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi qonunida belgilanishicha, mulkdor o'ziga tegishli mol-mulkka

o'z ixtiyoriga ko'ra egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Shu ma'noda mulkdor o'z mulkiga bo'lgan huquqlarini ixtiyoriy ravishda o'z xohishiga ko'ra amalga oshiradi. Mulkdorning o'z xohishi deganda, uning o'z erki, irodasi bilan o'zining manfaatlarini ko'zlab, birovning (uchinchi shaxslarning) tazyiqsiz, zo'rlashsiz harakat qilishi nazarda tutiladi. Agar mulkdorga nisbatan bunday holatda zo'rlik, tazyiq ko'rsatilgan bo'lsa, qonun mulkdorning xohish-irodasini erkin amalga oshirishni kafolatlaydi va muhofaza qiladi. Ayni vaqtda mulkdorning o'z xohishiga ko'ra ish tutishi qonun, insof va adolat doirasida amalga oshirilishi lozim.

Mulkdor mulkiy huquqini o'z xohishiga ko'ra amalga oshirishda uning manfaati yotadi. Bu manfaat bevosita uning o'ziga, yaqinlariga yoki boshqalarga taalluqli bo'lishi mumkin. Masalan, ota-ona voyaga yetmagan farzandi nomiga bankka omonat pul mablag'i qo'yganda ham, garchi bunda uchinchi shaxsning manfaati ko'zlanganday bo'lsa ham, aslida mulkdorning harakati zahirida ota-ona sifatidagi burchi yotadi. Mulkdorning o'zi xohishiga ko'ra yoki manfaatiga zid ravishda mulkiy bitimlar tuzishiga majbur qilishi, umumiy qoida bo'yicha bunday bitimlar haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi.

Yuqorida aytganimizdek, mulk huquqi uch element – mulkka egalik qilish, mulkdan foydalanish va mulkni tasarruf etish huquqidan iborat.



Mulknii egallash huquqi mulknii qo'lda yoki unga nisbatan o'z huquqlarini amalga oshirishga imkon beruvchi biron joyda saqlab turishdir. Mulknii qonunga muvofiq ravishda o'z qo'lida yoki o'z erki, irodasi ta'siri ostida saqlab turgan shaxs mulknii egallash huquqiga ega. Bunday huquq, avvalo, mulk egasiga tegishli bo'ladi. ya'ni, mulknii egallash huquqi qonun yoki shartnomaga asosan boshqa shaxsda ham bo'lishi mumkin. Masalan, mulk shartnoma bo'yicha ijaraga qo'yilishida, vaqtincha tekin foydalanish uchun topshirilishida, omonat qo'yilishida yoki ma'muriy dalolatnomalarga binoan vaqtincha saqlash uchun biron tashkilot yoki fuqarolarga o'tkazilishida egalik huquqi mulk egasi hisoblanmagan shaxsda ham bo'lishi mumkin.

Mulknii qonun talablariga muvofiq qo'lda saqlab turishga qonuniy egallash deb aytilsa, qonuniy asoslar bo'lmay turib bironlarga qarashli mulknii egallash, masalan, bironning o'g'irlatgan yoki yo'qotgan mulkini qo'lda saqlashga qonunsiz egallash deb aytiladi.

Mulkdan foydalanish huquqi-mulkning foydali xususiyatlarini o'zlashtirish, mulkdan iqtisodiy ma'noda foydalanishdir. Mulkdan qonunga muvofiq ravishda foydalanuvchi shaxs shu mulkdan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Mulkdan foydalanish huquqi shu mulknii egallash huquqi bilan chambarchas bog'liqdir. Mulknii egallamay, qo'lda saqlamay turib undan foydalanib ham bo'lmaydi. Mulkdan ishlab chiqarishda yoki kundalik hayotda foydalanishda bu mulk butunlay iste'mol qilinadi yoki birmuncha vaqt davomida asta-sekin eskiradi.

Agar bironning mulkidan foydalanish qonun yoki shartnoma bilan belgilangan asoslar bo'lmay turib foydalanilsa, bunda foydalanish qonunsiz foydalanish hisoblanadi. Masalan, o'g'irlangan yoki yo'qotilgan mulkdan foydalanish.

Mulknii tasarruf etish huquqi mulkning yuridik taqdirini belgilash, ya'ni mulk yuzasidan boshqa shaxslar bilan bo'ladigan huquqiy munosabatni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan huquqdir.

Mulk egasi tasarruf etish huquqiga binoan mulk yuzasidan xilma-xil bitimlar, shartnomalar, jumladan, ashyoni sotish, hadya qilish, ijaraga qo'yish to'g'risida shartnomalar tuza oladi. Agar ashyo butunlay keraksiz bo'lib qolsa, mulk egasi bunday

ashyoni tashlab yuborishi, o'zidan biron-bir usul bilan soqit qilishi mumkin. Bu huquq mulkdorga o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan, mol-mulkdan garov narsasi sifatida foydalanishi yoki unga boshqacha yo'llar bilan vazifa yuklash, uni begonalashtirish yoki mol-mulkni boshqacha usul bilan tasarruf etishga imkon beradi. Bu huquqning qo'ldan ketishi bilan mulkka nisbatan bo'lgan egalik huquqi ham qo'ldan ketadi. Masalan, mulkni omonatga qo'yishda ashyoni egallash huquqi, ijaraga qo'yishda ashyoni egallash va undan foydalanish huquqi bировga o'tsa, ashyoning sotilishi yoki hadya qilinishida esa subyektiv mulk huquqining har uch elementi egallash, foydalanish va tasarruf etish huquqlari ham butunlay boshqa shaxsga o'tadi.

Ayrim hollarda, jumladan, mulkni yo'qotish, o'g'irlatish hollarida mulk egasi o'z mulkini egallash, foydalanish va uni tasarruf etish imkoniyatidan mahrum bo'lsa ham, egalik huquqini qonunda belgilangan hollarda va muddatlarda o'zi saqlab turadi. Fuqaroga tegishli mulk o'g'irlatilganida, uning kimning qo'lida bo'lishi aniqlanganidan so'ng, qonun bilan belgilangan uch yillik da'vo muddati davomida talab qilib olinishi mumkin. Aks holda mulkka nisbatan bo'lgan egalik huquqi yo'qoladi. Mulk egalari o'zlariga tegishli mulk huquqidan g'ayriqonuniy maqsadlarda, bironing zarariga foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Mulkdor huquqlarining, vakolatlari chegarasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasiga asosan mulkdor o'z huquqlarini amalga oshirishda ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

**Bu konstitutsiyaviy norma FKning 172-moddasida batafsil talqin qilingan. Ushbu moddaga asosan mulk huquqini amalga oshirish shartlari quyidagilardan iborat:**

1. Mulkdorning o'z huquqlarini amalga oshirishi boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart;

2. Qonunlarda nazarda tutilgan hollarda, shartlarda va doirada mulkdor boshqa shaxslar uning mol-mulkidan cheklangan

tarzda foydalanishiga yo'l qo'yishga majbur (masalan, ko'chmas mulk-er uchastkasi egasi qo'shni yer uchastkasining egasidan zarur hollarda, boshqa yer uchastkalarining egalaridan ham o'zganing yer uchastkasidan cheklangan holda foydalanish (servitut) huquqini berishni talab qilishga haqli. Odatda, servitut piyodalar va transport yo'li, elektr, aloqa, gaz yoki suv quvurlari o'tkazish uchun zarur bo'lishi mumkin. Yer uchastkasida servitut belgilanishi yer egasini mulk huquqidan aslo mahrum qilmaydi. Servitutdan foydalanuvchi bilan yer uchastkasi egasi o'rtasida servitut haqida bitim tuzilib, u ko'chmas mulkka oid bitimlar kabi ro'yxatdan o'tkaziladi. Servitut belgilangan uchastkaning egasi agar qonunda boshqa tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, servitut kimning foydasini ko'zlab belgilangan bo'lsa, o'sha shaxsdan uchastkadan foydalanganlik uchun mutanosib haq talab qilishga haqlidir (FKning 173-moddasi);

3. Mulkdor o'zining ustunlik mavqeyini suiiste'mol qilishga, boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini kamsitadigan o'zga harakatlarni qilishga haqli emas;

4. Mulkdor o'z huquqini amalga oshirganda fuqarolarning sog'lig'iga va atrof-muhitga zarar yetkazishning oldini olish choralarini ko'rishga majbur.

Mulk huquqining mazmunida nafaqat mulkdorning huquqlari, balki mol-mulkni saqlab turish burchi ham yotadi. FKning 174-moddasiga asosan, o'ziga qarashli mol-mulkni saqlash, agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mulk egasining zimmasida bo'ladi. Agar mulkdor bu majburiyatni bajarmasa, ba'zi hollarda uning mulkiy huquqlari chegaralab qo'yilishi yoki mol-mulk undan olib qo'yilishi haqida da'vo oldindan ogohlantirmasdan ham qo'zg'atilishi mumkin.

### **3-§. Mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo'lish asoslari**

Mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo'lish asoslari deganda, mulk huquqining olinishi yoki yo'qotilishi bilan bog'liq

bo'lgan yuridik faktlar nazarda tutiladi. Mulk huquqining olinishi asoslarida jamiyatning iqtisodiy tizimi o'z ifodasini topadi.

Mulk huquqining olinishi: dastlabki va hosila asoslariga bo'linadi. Mulk huquqining vujudga kelishini bildiradigan dastlabki asoslar bo'yicha mulkka nisbatan egalik huquqi ilgari hech kimga tegishli bo'lmagan mulkka nisbatan yoki avvalgi mulk egasining huquqi bilan bog'liq bo'lmagan holda vujudga keladi.

**Mulk huquqining dastlabki asosda vujudga kelishi:**

- tabiat ne'matlarini o'zlashtirish;
- ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish natijasida;
- yangi ashyolarni vujudga keltirishda;
- egasiz mulkning sud qarori bilan davlat ixtiyoriga olinishi;
- egasi bo'lmagan mulkka yoki egasi bo'lsa ham xo'jaliksiz bilan saqlanayotgan mulkka, egalari tomonidan belgilangan muddatlarda talab qilib olinmagan mulklarga, shu jumladan topilgan ashyolar, xazinalar (boshqa usulda yashirilgan narsalar) topilishi hollarida yuz beradi.

Mulk huquqining vujudga kelishida egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddat o'ziga xosdir. Mulkdor bo'lmagan, lekin ko'chmas mol-mulkka o'n besh yil davomida yoki boshqa mol-mulkka besh yil davomida o'ziniki kabi halol, oshkora va uzluksiz egalik qilgan shaxs bu mol-mulkka nisbatan mulk huquqini oladi, ya'ni to'la ma'noda mulkdor huquqlariga ega bo'ladi (FKning 187-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 29-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksini amalga kiritish tartibi to'g'risida»gi qarorida belgilanishicha, ushbu 187-moddaning qoidalari mulkka egalik qilish 1997-yilning 1-martiga (ya'ni, yangi FK amalga kiritilgunga) qadar boshlangan va kodeks amalga kiritilayotgan vaqtda davom etayotgan hollarga ham tatbiq etiladi. Demak, ushbu holat bo'yicha FK normasi orqaga qaytish kuchiga ega bo'ladi.

Mulk huquqi vujudga kelishining dastlabki asoslaridan yana biri hamma yig'ib olishi mumkin bo'lgan ashyolarni



mulkka aylantirishdir. FKning 189-moddasida ko'rsatilishicha, qonunchilikda yovvoyi mevalar, yong'oq, zamburug'lar, rezavor mevalar hamda o'simlik, hayvonot dunyosi va jonsiz tabiatning hamma olishi mumkin bo'lgan boshqa obyektlarini yig'ish yo'li bilan fuqarolar mulkiga aylantirish tartibi va shartlari belgilab qo'yilishi mumkin. Bunday tartibda mulk huquqi o'rmonlardan qo'ziqorin, mevalar terish, dashtu tog'lardan dorivor giyohlar to'plash, daryo va ko'llardan baliq ovlash orqali vujudga kelishi mumkin. Biroq ma'lumki, ushbu mulk obyektlari o'sgan mavjud hudud xususiy mulk huquqi asosida boshqaga tegishli bo'lmasligi lozim. Mulk obyektlarining ba'zilarini ovlash uchun vakolatli davlat organida ruxsat (litsenziya) olingan bo'lishi talab etiladi. Ayni vaqtda, baliq va boshqa jonivorlarni ovlash ovga ruxsat berilgan mavsumdagina yo'l qo'yiladi, aks holda ovlangan jonivorlar musodara qilinib, ov qurollari olib qo'yilishi va ularga nisbatan tegishli jazo choralari qo'llanilishi mumkin.

Egasiz ashyoga nisbatan mulk huquqi ham dastlabki asosda vujudga keladi. Egasi bo'lmagan yoki egasi noma'lum ashyo egasiz ashyo hisoblanadi. Egasiz ko'char ashyolarga nisbatan egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida qo'lga kiritilishi mumkin. Bunday ashyo tegishli davlat organi yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi arizasiga muvofiq ko'chmas mol-mulkni davlat ro'yxatiga oluvchi organda hisobga olinib, uch yil o'tgach tegishli davlat organi talabi asosida sud tomonidan davlatga o'tkazilishi mumkin.

FKning 192-moddasida topilmaga nisbatan mulkiy huquqlarning vujudga kelishi xususiyatlari belgilangan. Unda ko'rsatilishicha, yo'qolgan ashyoni topib olgan shaxs bu haqda uni yo'qotgan shaxsni yoki ashyo egasini yoxud uni olish huquqiga ega bo'lgan o'zga ma'lum shaxslardan birortasini darhol habardor etishi hamda topilgan ashyoni shu shaxsga qaytarishi shart. Basharti, ashyo binoda yoki transportda topilgan bo'lsa, u shu binoning yoki transport vositasining egasi bo'lmish shaxsga topshirilmog'i lozim. Topilma topshirilgan shaxs ashyoni topib olgan shaxsning huquqlarini qo'lga kiritadi va uning majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi. Basharti, topilgan ashyo qaytarilishini talab qilish huquqiga

ega bo'lgan shaxs noma'lum bo'lsa yoki uning manzili bo'lmasa, ashyoni topib olgan shaxs topilma to'g'risida militsiyaga, tegishli davlat organlariga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga ma'lum qilishi shart.

FKning 193-moddasiga asosan olti oy mobaynida topilmaning egasi aniqlanmasa, ashyoni topib olgan shaxs unga egalik huquqini qo'lga kiritadi (agar u bu huquqdan voz kechsa, topilma davlat mulkiga o'tadi).

FKning 196-moddasida xazinaga nisbatan mulk huquqini vujudga kelishi xususiyatlari belgilab qo'yilgan. Xazina deb egasini aniqlash mumkin bo'lmagan yoki u qonunga binoan huquqlarini yo'qotgan, yerga ko'milgan yoki boshqacha usulda yashirilgan pul yoki qimmatbaho buyumlarga aytiladi. Yashirib qo'yilgan mol-mulk (yer uchastkasi, imorat va sh.k.) mulkdori bo'lgan shaxsga va xazinani topgan shaxs mulkiga agar ular o'rtasidagi kelishuvga muvofiq, boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, teng ulushlarda tegishli bo'ladi.

Xazina u yashirib qo'yilgan yer uchastkasi yoki boshqa mol-mulk egasining mulkdorining roziligisiz qazishma ishlarini olib borgan yoki boylik qidirgan shaxs tomonidan topilgan taqdirda, bu xazina u topilgan yer uchastkasining yoki boshqa mol-mulkning egasiga topshirilishi shart. Tarix va madaniyat yodgorliklari jumlasiga kiradigan ashyolardan iborat xazina topilgan taqdirda, ular davlat ixtiyoriga o'tadi. Biroq xazina topilgan yer uchastkasi egasi va xazinani topgan shaxs xazina qiymatining ellik foizi miqdorida mukofot olishga haqli.

Xazina topish uchun qazishma va qidiruv ishlarini olib borish mehnat yoki xizmat vazifalariga kiradigan shaxslar (masalan, arxeologlar, geologlar) ga nisbatan yuqoridagi qoidalar qo'llanilmaydi (FK 196-moddasining beshinchi qismi).

Mulkka nisbatan egalik huquqini vujudga keltiruvchi hosila usuli deganda, muayyan shaxs tomonidan mulk huquqining olinishi dastlabki mulk egasining huquqiga bog'liq bo'lgan usul nazarda tutiladi. Bu usulda mulk huquqining ma'lum ashyoga nisbatan paydo bo'lishi yoki bu ashyoga nisbatan mulk huquqining ilgari ma'lum shaxsga tegishli bo'lishi bilan

bog'liqdir. Shu ma'noda mulk huquqining boshqa shaxsga o'tishi haqida so'z yuritiladi. Binobarin, hosila usuli bo'yicha mulk huquqi vujudga kelganda bu mulkka nisbatan bo'lgan huquqni bir shaxsdan ikkinchi shaxsga ko'chirilishi to'g'risida so'z boradi. Masalan, oldi-sotdi shartnomasi tuzilishi yo'li bilan o'zlariga tegishli ashyoga nisbatan egalik huquqi bir shaxsda, ya'ni sotib oluvchida paydo bo'ladi.

Mulk huquqining hosila usulida vujudga kelishiga misol qilib oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash, qarz shartnomalari, shuningdek, qonun va vasiyat bo'yicha meros olish, davlat mulkini xususiy lashtirish orqali olinishini ko'rsatsa bo'ladi.

Fuqarolik kodeksining 185-moddasida ko'rsatilganidek, shartnoma asosida mol-mulk oluvchida mulk huquqi, agar qonunchilik yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ashyo topshirilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Agar ashyoni birovga o'tkazish to'g'risidagi shartnoma notarial guvohlantirilishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lsa, egalik huquqi bunday shartnoma notarial guvohlantirilgan yoki ro'yxatdan o'tkazilgan paytidan e'tiboran vujudga keladi.

Qonunda uy-joy (kvartira) ga mulk huquqining vujudga kelishi belgilangan tartibda ajratib berilgan yer uchastkasida ko'rilayotgan yangi uy-joyga mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga kelishi belgilangan.

Bir yoki bir necha shaxslar tomonidan qurilayotgan uy-joy qurilish tamom bo'lguncha va ro'yxatdan o'tkazilguncha mahalliy hokimiyat organlarining ruxsatisiz boshqa shaxsga berilishi mumkin emas. Davlatga qarashli uy-joy (kvartira) ga mulk huquqi qonunchilikda nazarda tutilgan xususiy lashtirish tartibida vujudga keladi.

Kooperativ uy-joyga, kvartiraga, garajga, chorboqqa va boshqa binolarga mulk huquqi kooperativ a'zosi pay badallarini batamom to'lab bo'lgandan keyin vujudga keladi (FKning 210-moddasi). Ba'zi ashyolarga nisbatan esa egalik huquqi ashyo topshirilishidan so'ng yoki ashyoning qiymati to'la yoki qisman to'langandan so'ng vujudga kelishi belgilanishi mumkin.

Xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyolar bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tkazilgan holda, agar bunday o'tkazish tegishli organlardan ro'yxatdan o'tkazilishi shart bo'lsa, ashyoga nisbatan egalik huquqi shartnomaning qayd qilinishi paytidan e'tiboran vujudga keladi.

Mulkka nisbatan egalik huquqining o'tish payti qonunda muqarrar belgilanishi birovga o'tkazilayotgan ashyolarning tasodifan nobud bo'lishi yoki buzilishi xavf-xatari, ya'ni buning natijasida kelgan zarar kimning zimmasida bo'lishligini belgilash ham katta ahamiyatga egadir.

FKning 175-moddasida belgilangan qoida bo'yicha mol-mulkning tasodifan nobud bo'lishi yoki buzilishi xavfi, agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kelgan zarar mulk egasining zimmasida bo'ladi.

Agar ashyolarni birovga o'tkazuvchi shaxs topshirishni yoki oluvchi ularni qabul qilishni kechiktirsa, ashyolarning tasodifan nobud bo'lishi yoki buzilishi xavf-xatari kechiktirgan tarafdagi bo'ladi. Masalan, sotib oluvchi qurilish materiallarini qabul qilishni kechiktirsa, ashyolarning tasodifan nobud bo'lishi yoki buzilishidan kelgan zararni o'z zimmasiga oladi.

**Mulk huquqining bekor bo'lish usullariga quyidagilar kiradi:**

- 1) mulkdorning o'z erki-irodasi bo'yicha mulk huquqini bekor bo'lishi (masalan, mol-mulkni sotish, hadya qilish va h.k.);
- 2) mol-mulkni tugatish va hisobdan chiqarish (yo'q qilib tashlash) yoki nobud bo'lishi natijasida mulk huquqining bekor bo'lishi;
- 3) mulkdorning erki, irodasidan tashqari mol-mulkning olib qo'yilishi orqali mulk huquqining bekor bo'lishi.

Mol-mulkni mulkdordan olib qo'yishga qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda mulkdorning majburiyatlari bo'yicha undiruv ana shu mol-mulkka qaratilgan taqdirda, shuningdek, natsionalizatsiya qilish, rekvizitsiya va musodara qilish tartibida yo'l qo'yiladi (FKning 199-moddasi).

Agar qonunga asosan shaxsga tegishli bo'la olmaydigan mol-mulk uning mulki bo'lib qolsa, ushbu mol-mulkka nisbatan mulk

huquqi sud tartibida bekor qilinib, olib qo'yilgan mol-mulkning qiymati shaxsga to'lanadi (FK 199-moddasining ikkinchi qismi).

Ashyolarga nisbatan egalik huquqi ba'zi hollarda mulk egasining erkidan tashqari ham bekor bo'lishi mumkin. Masalan, ashyolar tabiiy ofatlar, yong'in, suv toshqini, zilzila natijasida tasodifan nobud bo'lishida mulk huquqi mulk egasining erkiga bog'liq bo'lmagan holda bekor bo'ladi. Ba'zi hollarda, jumladan, qarzni qoplash uchun ijro varaqasi bo'yicha haq undirilishida yoki mol-mulkning musodara qilinishida egalik huquqi mulk egasining erkiga bog'liq bo'lmagan holda bekor bo'lishi mumkin.

#### **4-§. Mulk shakllari**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida ta'kidlanganidek, «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatidan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidir...» Konstitutsiyada «xilma-xil shakllardagi mulk», «barcha mulk shakllari himoya qilinishi» to'g'risida aytilishiga qaramay, bugungi kunda mulk shakllarining ro'yxati xususiy mulk va ommaviy mulk bilan chegaralanib qoladi. Mulk shakllari tushunchasi ayni paytda na Konstitutsiyada na FKda tushintirib berilmaydi.

Mulk va mulk huquqi shakllari har doim ham fuqarolik huquqi fanida uzoq bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Zero, mulk shakllari hamma davrlarda ham ikki xil ma'noda talqin etilgan. Birinchidan, iqtisodiy ma'nodagi mulk shakllari, ikkinchidan, yuridik ma'nodagi mulk shakllari.

Iqtisodiy ma'nodagi mulk shakllari deyilganda, moddiy ne'matlarni o'zlashtirish usullarining yig'indisi tushuniladi. Bunday usullar yakka tartibda yoki jamoat bo'lib yoxud davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Yuridik ma'nodagi mulk shakli – moddiy ne'matlarni muayyan subyektlarga tegishli bo'lishini (biriktirib qo'yishni)

mustahkamlovchi va tegishli mulkning huquqi rejimini belgilovchi huquqiy me'yorlar yig'indisidan iborat.

Umumiy qoidaga ko'ra, iqtisodiy ma'noda mulk aynan kimga yoki kimlarga foyda keltirishiga qarab shakllarga bo'linsa (masalan, 1990-yil 31-oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi qonuni aynan shu nuqtai nazardan mulkni shakllarga bo'lgan), yuridik ma'noda esa mulk moddiy ne'matlarning huquq subyektlariga tegishli bo'lishiga, ya'ni ashyoga nisbatan tasarruf etish elementining tegishliligiga ko'ra shakllarga ajratiladi. Lekin mulkning shakllarga bo'linishi xususida fuqarolik huquqida yakdil qarashlar mavjud emas.

Ba'zi bir olimlarning fikricha, «mulk shakli» iborasi huquqiy mezon emas, aksincha iqtisodiy mezonidir. Bu holat birinchidan, mulk shakllari iqtisodiy mezon sifatida nafaqat mulk huquqi shaklida huquqiy ahamiyat kasb etadi, balki boshqa shaklda ham ahamiyatlidir; ikkinchidan, iqtisodiy va huquqiy munosabatlardagi mulk subyektlari har doim bir xil emasligi bilan ifodalanadi. Shunday ekan, iqtisodiy ma'noda mulkning bir necha shakli bo'lishi mumkin, yuridik ma'noda esa faqat bitta mulk huquqi mavjud.

Ushbu fikrga qo'shilgan holda, shuni ta'kidlash joizki, darhaqiqat, mavjud ashyoga yoki mol-mulkka bitta mulk huquqi shakli mavjud, ya'ni mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish bilan bog'liq huquqlar majmui – mulk huquqining yagona shaklini tashkil etadi. Biroq mulkning yagona shakli mavjud bo'lsa-da, mulk huquqi tegishli bo'lgan subyektlar turli-tumandir. Bular fuqarolik huquqining subyektlari hisoblangan fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat (FK 2-moddasining ikkinchi qismi) bo'lib, ana shu subyektlarga tegishli mol-mulklar shartli ravishda xususiy mulk va ommaviy mulk shakllariga bo'lingan.

**O'zbekiston Respublikasi FKning 167-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasida mulkchilikning quyidagi shakllari mavjud:**

1. Xususiy mulk;
2. Ommaviy mulk.

Davlat mulk shakllarini rivojlantirish uchun zarur huquqlarning tengligini ta'minlaydi va uning himoya qilinishini

kafolatlaydi. Mulk shakllarini bunday turkumlashtirish uchun mulk subyekti maqomi va mol-mulk rejimining uzviy birligi asosiy mezon hisoblanadi<sup>1</sup>.

**O'z navbatida, xususiy mulk quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:**

- Yakka shaxsga tegishli mulk (fuqarolar mulki);
- Nodavlat yuridik shaxslar mulki;
- Ommaviy mulkga quyidagilar kiradi:
- O'zbekiston Respublikasi mulki;
- Ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulki (munitsipal mulk).

### **Tayanch iboralar:**

Mulk, mulk huquqi, xususiy mulk huquqi, ommaviy mulk huquqi, umumiy mulk huquqi, fuqarolar mulki, yuridik shaxslar mulki, O'zbekiston Respublikasi mulki, munitsipal mulk, natsionalizatsiya, rekvizitsiya, musodara, mulkka egalik qilish huquqi, mulkdan foydalanish huquqi, mulkni tasarruf etish huquqi.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Mulk huquqi deganda nima tushuniladi?
2. Mulk huquqini obyektlariga misol keltiring.
3. Mulk huquqini amalga oshirishning chegarasi nimalardan iborat?
4. Mol-mulkni saqlash mas'uliyati kimga yuklatilgan?
5. Mulk huquqining vujudga kelish asoslari qanday?
6. Natsionalizatsiya qaysi hollarda amalga oshiriladi?
7. Rekvizitsiya tushunchasiga ta'rif bering?
8. Mol-mulkni musodara qilish deganda nima tushuniladi?
9. Iqtisodiy ma'nodagi mulk shakli deganda nimani tushunasiz?
10. Yuridik ma'nodagi mulk shakli deganda nimani tushunasiz?

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi., – T., TDYuI. 2009. – B. 393.

### 1-§. Xususiy mulk tushunchasi va uning ahamiyati

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, O'zbekiston kuchli huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishni, bozor munosabatlari orqali mustahkam moddiy zaminni shakllantirishni va haqiqiy mulkdorlar sinfini vujudga keltirishni maqsad qilib qo'ydi. Shubhasiz, «bozor munosabatlariga o'tishning asosiy sharti ko'p ukladli iqtisodiyotni va raqobatlashish muhitini shakllantirishning huquqiy tashkiliy shart-sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat»<sup>1</sup> edi. Shu sababli iqtisodiy islohotlarni birinchi bosqichining g'oyat muhim vazifasi davlat mulki monopolizmini tugatish va mulkni xususiylashtirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirishdan iborat bo'ldi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining joriy etilishi tufayli fuqarolarimizning ongi tafakkuri va dunyoqarashi keskin o'zgardi. »Ko'pchilikka ayonki, 90-yillarning boshlarida aksariyat odamlar bizda ham kimningdir xususiy zavodi yoki fermasi u yoqda tursin, kichkina do'koni bo'lishi mumkinligini ham tasavvur eta olmas, tasavvur etgan taqdirda ham o'ziga qabul qila olmas edi. Chunki hamma narsa davlat mulki bo'lgan eski tuzumda xususiy mulkka ega bo'lish, tadbirkorlik va kichik biznes bilan shug'ullanish bizga begona bo'lgan tushunchalar sifatida baholanar edi. Bugungi kunda esa xususiy mulk tushunchasiga nisbatan munosabat qanday o'zgarib, u hayotimizdan qanchalar chuqur joy olib borayotganiga barchamiz guvohmiz va bu holat hech kimni hayron qoldirmaydi»<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkdan mahrum etilishi mumkin» deb ko'rsatilgan.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida., – T., O'zbekiston. 1995. – B. 45.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., «Ma'naviyat» 2009. 69–70-betlar.



Xususiy mulkning Asosiy qonunda mustahkamlanishi, uning bozor iqtisodiy munosabatlarida huquqiy tartibga solinishini belgilaydi hamda uni boshqa mulk shakllari bilan teng sharoitlarda himoya qilinishini kafolatlaydi. Xususiy mulk bozor munosabatlarining tarkib topishi va rivojlanishida, uning uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishda, bu munosabatlarda qatnashuvchi taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilashda, ularning xatti-harakatlarini tartibga solishda hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan huquqiy kafolatlar va choralarni belgilashda o'ziga xos muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi FKning 207-moddasiga asosan xususiy mulk huquqi shaxsning qonunchilikka muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir. Ya'ni u meros tariqasida, ishlab chiqarishda o'z mehnati bilan shaxsan ishtirok etish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, bitimlar tuzish, yollanma mehnatdan foydalanish tartibida hamda qonunda taqiqlab qo'yilmagan boshqa asoslarda olgan huquqidir.

Xususiy mulk huquqi bilan bog'liq muhim qoida shuki, xususiy mulk bo'lgan mol-mulk miqdor va qiymat jihatdan cheklanmaydi. Mulkchilik munosabatlari azaldan insonlar hayoti bilan bog'liq bo'lib, u hozirgi kunga qadar har bir kishini qiziqtirib kelgan. Bu munosabatlarda mulk tushunchasi, uning shakllari va turlari to'g'risida fikrlar rivojlanib bordi. Xususiy mulk-bu xususiy shaxslarga tegishli mulk bo'lib, mulkdor o'z mulkiga xususiy tarzda egalik qiladi, undan foydalanadi va tasarruf etadi.

Amaldagi qonunchilikka asosan, xususiy mulk xususiy shaxslarga tegishli bo'lgan, har xil asoslarda o'zlashtiriladigan mol-mulklardir. Xususiy mulk huquqi shaxsning qonunchilikka muvofiq qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilishi, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir.

Xususiy mulk bo'lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi.

Xususiy mulk daxlsiz va davlat himoyasidadir.

Davlat xususiy mulkning but saqlanishini ta'minlash va uning ko'paytirilishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratadi.

Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina o'z mol-mulkidan mahrum etilishi mumkin.

Ba'zi bir sivilist olimlarning fikricha, xususiy mulk huquqi – bu daromad olish maqsadida o'z mol-mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish huquqidan iboratdir. Boshqa sivilist olimlar esa xususiy mulk – bu ishlab chiqarish vositalarining xususiy shaxslarga tegishli bo'lishidir deb ko'rsatishadi.

Xususiy mulk huquqi deb xususiy shaxsning (mulk egasining) ishlab chiqarish jarayonida bevosita va yollanma mehnatni qo'llashda ishtirok etishi hamda boshqa asoslarda vujudga keladigan mol-mulk munosabatlarini tartibga soladigan va mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig'indisiga aytiladi.

Bu xususiy mulk huquqining obyektiv ma'nosini beradi. Ushbu ta'rif xususiy mulk bilan bog'liq bo'lgan hamma munosabatlarni o'z ichiga qamrab olib, ularni huquq normalarida mujassamlanganini belgilab beradi.

Xususiy mulk huquqi subyektlari turli-tuman va keng doirada bo'lsa ham ularni birlashtiruvchi belgi mulkning vujudga kelishi, undan foydalanish, boshqarish, tasarruf etish, uning natijalaridan bahramand bo'lishda jismoniy shaxs (xususiy shaxs)ning u yoki bu darajada ishtirok etishi, ishtirok etganida ham ommaviy mulkdagi kabi fuqaro (davlatga mansub shaxs) yoki maxsus vakolatli mansabdor shaxs sifatida emas, balki mulkdor shaxs sifatida ishtirok etishidir. Bunday ishtirok etish bevosita (masalan, fuqarolarga tegishli mol-mulk bo'yicha mulkdor vakolatlarini amalga oshirishda) yoki bilvosita (masalan, yuridik shaxsni ta'sis etuvchisi yoki yuridik shaxs mol-mulkidan bahramand bo'luvchi subyekti sifatidagi huquqlarni amalga oshirishda) namoyon bo'ladi. Har ikkala ko'rinishda ham xususiy shaxsga ma'lum mulkiy huquqlar tegishli bo'ladi va u bu huquqlarni o'ziga xos tarzda ro'yobga chiqaradi.

Respublikamizda 2012–2014-yillarda xususiy mulk mavqeyini oshirish va uni himoya qilish, ishbilarmonlik muhiti va biznes yuritish sharoitlarini yanada yaxshilashga qaratilgan O'zbekiston

Respublikasining o'n beshdan ortiq qonuni, jumladan, «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida», «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida (yangi tahrirda)», «Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida», «Raqobat to'g'risida», «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida» va boshqa qonunlar qabul qilindi<sup>1</sup>.

## **2-§. Xususiy mulk huquqi subyektlari**

Xususiy mulk huquqining subyektlari fuqarolar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va davlatga qarashli bo'lmagan boshqa yuridik shaxslardir (FKning 208-moddasi).

Xususiy mulk huquqi fuqarolar va nodavlat yuridik shaxslar mulki ko'rinishida uchraydi. Fuqaro mulki xususiy mulkning o'ziga xos ko'inishi bo'lib, mulkning boshqa turlariga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

Birinchidan, mulkdor har doim konkret shaxs bo'ladi;

Ikkinchidan, mulkdor mulkka nisbatan eng yaqin bo'ladi va unga ta'sir qilishda qator ustunliklarga ega;

Uchinchidan, bunday mol-mulk tashmachilik, o'g'rilik, xo'jasizlikning qurboni bo'lish ehtimolidan uzoqdir.

Boshqacha aytganda, xususiy mulkning bu turini fuqarolarga yakka tartibda tegishli bo'lgan mol-mulk ma'nosida tushunish mumkin. Bu mulkning eng asosiy belgilari mol-mulkka nisbatan mulkdor yakka shaxs, ya'ni fuqaro ekanligi va u mol-mulkka nisbatan o'z huquqlarini xususiy tarzda amalga oshirishga haqli ekanligidir. Xususiy tarzda amalga oshirish deyilganda, mulk sohibi bo'lgan shaxsning boshqa har qanday shaxslardan ruxsat olmay, o'z xohishiga ko'ra mulkiy huquqlarni e'tirof etishi yollanma mehnatni qo'llash asosida foyda olish maqsadini

---

<sup>1</sup> Batafsil qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4725-conli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-yil, 20-son, 251-modd.

ko'zlab ishlab chiqarish vositalariga, korxonalarga egalik qilish imkoniyatlariga yo'l ochdi. Ayni vaqtda xususiy mulk huquqini fuqarolarning o'ziga yakka tartibda tegishli mol-mulkka nisbatan erki va irodasini amalga oshirishda mutlaq xohishni ro'yobga chiqarish ma'nosida tushunmaslik lozim. Xususiy mulk egasi o'z huquqlarini amalga oshirishda atrof-muhitga zarar yetkazmasligi va boshqa shaxslarning manfaatlarini buzmasligi lozim.

Yuqorida ta'kidlanganidek, barcha mulk turlari ichida faqat fuqarolar mulkida mulkdor o'z mulkiga eng yaqin turadi. Qachonki mulkdor aniq va muayyan bo'lsa, o'z mol-mulkiga bevosita tez va oson ta'sir ko'rsatishga, nazorat qilishga imkon tug'iladi, bunday mol-mulk esa xo'jasiz qolmaydi. Aksincha, mulkdorning doimiy nazorati, boshqaruvi, g'amxo'rliqi ostida ko'payib, rivojlanib boradi. Fuqarolar mulki sifatidagi bunday xususiy mulk bozor munosabatlari tizimida tadbirkorlik faoliyatining moddiy negizi mo'l-ko'lchilik va farovonlik manbai sifatida o'ziga xos mavqega ega bo'ladi. Shu bilan birga, mulkdorning o'z mulkiga yaqin turishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zgarib turuvchi talab va taklifga tez moslashish imkonini beradi.

Fuqarolarga qarashli mol-mulk oila mulki ko'rinishida ham bo'lishi mumkin. Oila-kishilarni bir-birlari bilan qon-qarindoshlik yoki nikoh asosida birgalikda yashab, umumiy xo'jalik yurituvchi uyushmasidir. Oilaviy mulkning tarkibiga quyidagilar kiradi: er-xotinning birgalikdagi mulki;

oila a'zolarining har biriga shaxsan tegishli bo'lgan mulk, shu jumladan nikohgacha bo'lgan mulk; oilaviy umumiy mulk-oila mulki oila a'zolarining umumiy kelishuvi asosida boshqariladi.

Umumiy qoidaga ko'ra oila yuridik shaxs emas, biroq oila zahirida dehqon xo'jaligi tashkil etilsa, u yuridik shaxs huquqidan foydalanadi.

Xususiy mulk huquqining ikkinchi ko'rinishi – nodavlat yuridik shaxslarning mulk huquqidir.

Nodavlat, ya'ni davlatga qarashli bo'lmagan yuridik shaxslar mulkining iqtisodiy mazmuni tashkiliy jihatdan uyushgan kishilar guruhiga moddiy ne'matlarning tegishli ekanligida ifodalanadi. Ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda yuridik shaxslar mulki

shu jamoa a'zosi hisoblangan shaxslarning umumiy hissali mulki deb ko'rsatiladi. Bu noto'g'ri. Mazkur mulkning subyekti faqat yuridik shaxs hisoblanadi.

**Yuridik shaxslar mulkida umumiy mulkdagi kabi ko'p subyektlilik emas, balki bir subyektlilik mavjud. Yuridik shaxslar mulkining quyidagi turlari mavjud:**

- diniy tashkilotlarning mulki;
- jamoat fondlari mulki;
- mahalla mulki;
- kooperativ mulk;
- uy-joy mulkdorlarining shirkatlari mulki;
- xo'jalik shirkatlari mulki;
- xo'jalik jamiyatlari mulki;
- xususiy korxonalarining mulki;
- fermer xo'jaliklarining mulki.

### **3-§. Xususiy mulk huquqi obyektlari**

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish borasida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar samarasi o'laroq, xususiy mulk huquqi subyektlari safiga xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari va davlatga qarashli bo'lmagan boshqa yuridik shaxslarning ham qo'shilganligi ushbu tarmoqni ommaviylashtirish, uning ko'lami va samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etdi.

Xususiy mulk huquqi subyektlari turli-tuman va keng doirada bo'lsa ham ularni birlashtiruvchi belgi mulkning vujudga kelishi, undan foydalanish, boshqarish, tasarruf etish, uning natijalaridan bahramand bo'lishda jismoniy shaxsning u yoki bu darajada ishtirok etishi, ishtirok etganda ham ommaviy mulkdagi kabi fuqaro (davlatga mansub shaxs) yoki maxsus vakolatli mansabdor shaxs sifatida emas, balki mulkdor shaxs sifatida ishtirok etishidir.

Shu nuqtai-nazardan qaraganda, obyeksiz huquq bo'lmaganidek, jismoniy va yuridik shaxslarning xususiy mulk huquqi ham muayyan obyeksiz mavjud bo'lishi mumkin emas.

Bu borada ham sivilist olimlar o'rtasida bir qator tortishuv va bahs-munozaralar mavjud.

Ba'zi olimlar xususiy mulk huquqi obyektlarini keng ma'noda tushunish kerakligini ta'kidlasalar, ayrimlari buni tor doirada talqin etishga harakat qilishadi<sup>1</sup>. Masalan, avvalgi Grajdanlik kodeksida mulk huquqining obyektlari bilan bog'liq munosabatlarni atigi 5 modda tartibga solgan bo'lib, unda ko'rsatilgan obyektlar «faqat alohida ruxsatlar bilan olinishi» yoki «belgilangan tartib va doiralardagina oldi-sotdi buyumi bo'lishi» mumkinligi haqida qoidalar nazarda tutilgan edi. Oldi-sotdi muomalasidan cheklangan ashyolar, buyumlar xususiy mulk huquqi objekti bo'lishi mumkin emas edi.

Agar xususiy mulk huquqi tarixiga nazar tashlasak, fuqarolarni xususiy mulk huquqining obyektlariga dastlab bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib bo'ladigan mol-mulklar kiritilgan edi. Keyinchalik xususiy mulk huquqining rivojlanishi bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib bo'lmaydigan (ko'chmas) mulkni ham fuqarolarni xususiy egaligida bo'lishligini belgiladi. Bu davrda xususiy mulk huquqining obyektlariga hatto huquqi cheklangan fuqarolar ham kiritilgan edi. Bu esa xususiy mulkning salbiy xususiyati bo'lib, u o'sha paytda mavjud davrning siyosiy-iqtisodiy shart-sharoitlari bilan belgilangan.

Jamiyat hayoti o'zgarishi bilan xususiy mulk huquqining obyektlari ham tez sur'atda kengayib borgan. XIX asrning oxiri – XX asr boshlariga kelib deyarli u barcha fuqarolik huquqi obyektlarini qamrab oldi.

Umuman aytganda, dunyo hamjamiyati hayotiga zamonaviy bozor munosabatlarining kirib kelishi, fuqarolarda mol-mulkka nisbatan munosabatning tubdan o'zgarishi, qolaversa, jamiyat va davlatda manfaatdorlik hissining kuchayib borishi bilan ham xususiy mulk huquqini erkinlashtirish, uning obyektlari va subyektlariga keng yo'l ochib berishni talab etdi. Bu har qaysi rivojlangan yoki rivojlanayotgan davlatlar tajribasida uchraydigan qonuniyatdir.

---

<sup>1</sup> Суханов Е.А. Лекции о праве собственности. – М: Юр. лит-ра, 1991. Ст. 141.

Fuqarolik huquqi, shu jumladan xususiy mulk obyektlari deganda jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini ifoda etuvchi, ular manfaatiga xizmat qiluvchi qonun bilan taqiqlanmagan yoki cheklanmagan har qanday moddiy va nomoddiy ne'matlarga aytiladi.

Xususiy mulk huquqi obyektlari doirasi nihoyatda keng va xilma-xildir. Ularning barchasini yagona huquqiy maqomga keltirish mumkin emas. Biroq bu obyektlar doirasini belgilashni hozirgidek tarqoq holdagi me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solish maqsadga muvofiq emas.

Umumiy qoidaga ko'ra, qonunda taqiqlanmagan va cheklanmagan har qanday mol-mulk xususiy mulk obyekti bo'lishi mumkin. Xususiy mulk obyektlari orasida jismoniy va yuridik shaxslarning yer uchastkalari, dala hovlilari, transport vositalari hamda boshqa ashyolari alohida o'rin tutadi.

Yerning xususiy mulk huquqining obyekti bo'lishi yoki bo'lmasligi ham olimlarning ko'plab tortishuv va bahsmunozaralariga sabab bo'lgan. Xususan, ba'zi olimlar «yerga nisbatan xususiy mulk huquqini tasarruf etish huquqsiz joriy etishni taklif etsalar»<sup>1</sup>, boshqalar esa ma'lum muddat o'tgandan so'ng yerni sotish huquqi berilishini yoki hech bir cheklovlarisiz joriy etilishi lozimligini bildirishadi<sup>2</sup>.

Mamlakatimiz qonunchiligi bilan esa yerning huquqiy maqomi qat'iy ravishda belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga muvofiq yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Yer umumdavlat mulkining obyekti bo'lganligi bois boshqa ashyolarga nisbatan unga egalik qilish va undan foydalanish huquqi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

---

<sup>1</sup> Рахметов Е.Ш. Право собственности в условиях перехода к рыночной экономике. // Правоведение. 1991. – № 3. – С. 107.

<sup>2</sup> Крассов О.И. Право частной собственности в США. // Государство и право. 1993. №2. – С. 97–105.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, keyingi yillarda xususiy mulk huquqi obyekt bo'lishi mumkin bo'lgan obyektlar turlari ko'payib bormoqda. Bu holat bir tomondan bozor munosabatlarining rivojlanib borishi natijasida, ilgari xususiy mulk bo'lishi mumkin bo'lmagan obyektlarning vakolatli davlat organining qarori bilan xususiy mulk obyektiga aylantirilishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan fan va texnikaning rivojlanib borishi bilan bog'liqdir. Mazkur holatlar xususiy mulkni himoya qilishga nisbatan bir qator yangi qoidalarni tatbiq etishni talab etadi.

### **Tayanch iboralar:**

Xususiy mulk huquqi, xususiy mulk huquqining vujudga kelishi, xususiy mulk huquqi obyektlari, xususiy mulk huquqi subyektlari, diniy tashkilotlarning mulki, jamoat fondlari mulki, mahalla mulki, kooperativ mulk, uy-joy mulkdorlarining shirkatlari mulki, xo'jalik shirkatlari mulki, xo'jalik jamiyatlari mulki, xususiy korxonalarining mulki, fermer xo'jaliklarining mulki.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Xususiy mulk huquqi tushunchasiga ta'rif bering.
2. Xususiy mulk huquqi subyektlarini sanab bering.
3. Mahalla mulki qanday mablag'lar hisobidan shakllanadi?
4. Xususiy korxonalar mulki deganda qanday mulk tushuniladi?
5. Xususiy mulk huquqi obyektlarini sanab bering.
6. Mahalla mulkiga ta'rif bering.
7. Kooperativ mulk nima?
8. Ijara korxonasining mulkiga misol keltiring.
9. Xo'jalik shirkati va jamiyati mulkining mohiyatini tushuntirib bering.
10. Diniy tashkilotlarning mulki tushunchasini izohlang.



### 1-§. Ommaviy mulk huquqi tushunchasi va turlari

Davlatning mavjud bo'lishi va o'zining funktsiya hamda vazifalarini amalga oshirishining zaruriy shartlaridan biri – bu davlatning muayyan miqdorda mol-mulkining bo'lishi hisoblanadi. Bu holat har qanday jamiyat uchun xosdir. Fuqarolik huquqining boshqa subyektlari kabi davlat ham muayyan mol-mulk egasi hisoblanganligi uchun fuqarolik huquqining to'laqonli subyekti sifatida e'tirof etiladi.

Respublikamizdagi tub o'zgarishlar va islohotlar samarasi o'laroq hozirgi sharoitda davlat mol-mulkining qisqartirilishi davlat mulk huquqini o'rganishga bo'lgan e'tiborni hamda jamiyatda va ijtimoiy turmushdagi davlat mulkining ahamiyatini kamaytirmadi, aksincha, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat mol-mulkining tushunchasi, huquqiy maqomi, davlat mulkining obyektlari va subyektlari masalalarini yangicha talqin etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai-nazardan davlat mulk huquqi masalasini tadqiq etishda ushbu mulk shaklining zaruriyati haqida fikr yuritish joiz.

Ma'lumki, jamiyatdagi mavjud moddiy ne'matlarning to'g'ri taqsimlangan – taqsimlanmaganligiga qarab, jamiyat va davlatning iqtisodiy rivojlanishi belgilanadi. Bu hol mamlakatning ravnaqida, aholi turmushining farovonligini oshirishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Zero, har qanday davlat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun ijtimoiy munosabatlar subyektlari o'rtasida moddiy ne'matlarning qay darajada bo'linganligi eng muhim omil sanaladi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ham, garchi ularda xo'jalikni markazlashtirilgan boshqaruvidan voz kechilganligi umume'tirof etilgan qoida hisoblansa-da, davlat mulkining mamlakatning asosiy ishlab chiqarish fondlaridagi ulushi katta hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa, transport va aloqa, atom energetikasi, harbiy-sanoat sohalarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Davlatda muayyan darajadagi mol-mulkning mavjud bo'lishi bir qator omillar bilan bog'liqdir. Jumladan, I.B. Zokirov davlat mulki zarurligining obyektiv sabablarini quyidagilardan iborat deb hisoblaydi:

1. Davlat organlari faoliyatini tashkil etish;
2. Davlat xavfsizligi va mudofaa uchun;
3. Ilm-fan va madaniyatni ta'minlash;
4. Kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoya qilish;
5. Tabiiy ofatlarga va favqulodda holatlarga qarshi kurash va oqibatlarini bartaraf etish;

6. Ba'zi tarmoqlarda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish (masalan, atom, yonilg'i energiyasi va sh.k.)

Huquqshunos olim Yu.K. Tolstoyning fikriga ko'ra, davlatning mulki sifatida ishlab chiqarish, ijtimoiy-madaniy va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan obyektlarning katta qismi saqlanib qolishini quyidagi ikki omil bilan izohlash mumkin:

**Birinchi**dan, keyinchalik nimalar bo'lishini oldindan bilib bo'lmaydigan dunyoda har bir davlat o'z xavfsizligini o'ylashi kerak. Bu nafaqat harbiy sohada, balki texnogen, ekologik, sanitariya-epidemiologiya, ishlab chiqarish, oziq-ovqat sohasidagi xavfsizlikdir.

**Ikkinchi**dan, davlat keng miqyosdagi ijtimoiy funksiyalarni ham bajaradiki, bu vazifalarni bajarishda yetarli darajada, moddiy-texnikaviy va moliyaviy baza bo'lishi zarur.

Davlat mulki nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va aholining ehtiyojlarini qondirish uchun, balki davlat va uning organlarining mavjud bo'lishi hamda ularning o'z vazifalarini amalga oshirishlari uchun zarurdir<sup>1</sup>.

Davlat mol-mulkingining mavjudligi shu davlatda yashovchi fuqarolarning umumiy manfaatlarini amalga oshirish, xalq erkirodasini bajarish bilan bog'liq bo'ladi. Zero, «davlat» – deb ataluvchi murakkab tuzilma bajaradigan va amalga oshirishi

---

<sup>1</sup> Рахманкулов Х.Р. Законодательные источники гражданского право Республики Узбекистан и задача его совершенствование. Конференция материаллари. – Т., ТДЮИ. 2004. – Б. 10.

lozim bo'lgan vazifa va harakatlar shunchalik serqirradi, ularni o'zgacha ifodalash noto'g'ri bo'lur edi.

Adabiyotlarda ta'kidlanishicha bu fikrlardan mamlakatda mavjud bo'lgan barcha mol-mulk davlat qo'lida bo'lishi zarur ekan, – degan fikrga kelish kerak emas<sup>1</sup>. Chunki, sobiq Ittifoq tuzumi davrida o'tgan 70 yillik tajriba shuni ko'rsatdiki, mulkni haddan tashqari markazlashtirish va jamiyatning barcha muammolarini davlat zimmasiga yuklash hamda davlatning nimalarga qodirligini chetdan kuzatib turish oxir-oqibat iqtisodiy tanazzulga olib keldi. Zero, «qayta qurish»gacha bo'lgan davrda davlatning qo'lida mavjud moddiy ne'matlarning 90 foizidan ko'prog'ining to'planib qolishi iqtisodiy munosabatlarning turg'unlashuviga sabab bo'lganligi achchiq haqiqatdir. Bundan tashqari mulkning davlat ixtiyorida markazlashuvi xo'jasizlikka, uning talon-taroj qilinishiga, ko'paytirish o'rniga o'zlashtirishga uchradi. Bu holatlar mulkni davlat qo'lida bunday darajada (sobiq Ittifoqda bo'lgani kabi) to'planishining iqtisodiyot uchun, kishilarning mulkka bo'lgan munosabatlari uchun salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, iqtisodiy rivojlanishning to'xtab qolishiga, turg'un bo'lishiga ham olib keldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq Respublikamizda mulk islohoti o'tkazish zaruriyati yuzaga keldi. Bu islohotning asosiy maqsadlaridan biri – davlatning qo'lida to'planib qolgan mol-mulk (umummilliy boyliklarni yoxud jamiyatga tegishli moddiy ne'matlarning deyarli hammasi hisoblangan mol-mulk)ni ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy munosabatlarning boshqa subyektlari o'rtasida qayta taqsimlash edi. Zero, davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini shakllantirishda muhim o'rin tutishi kerak ekanligi ayni haqiqatdir.

Ana shu maqsadda dastlab 1990-yil 31-oktyabrda «Mulkchilik to'g'risida»gi, 1991-yil 19-noyabrda «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Agar «Mulkchilik to'g'risida»gi Qonunda mulkning xususiy mulk,

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B., Oqyulov O. va boshqalar. Mulk huquqi., – T., TDYul. 2006. – B. 126.

shirkat (jamoat) mulki, ma'muriy-hududiy tuzilmalarning mulkidan (kommunal mulkdan) iborat davlat mulki, boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslarining mulki kabi shakllari ko'rsatilishi orqali mulkni davlat tasarrufidan chiqarishning huquqiy zamini yaratilgan bo'lsa, «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonunda bu jarayonning huquqiy asoslari, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni amalga oshirishning usul va vositalari mustahkamlandi.

Ushbu qonunga muvofiq, davlat tasarrufidan chiqarish davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo'jalik shirkatlari va jamiyatlariga, davlatga qarashli mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

Xususiylashtirish – jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning ommaviy mulk obyektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishdir.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish nafaqat bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan ikkinchisiga o'tganda kuzatiladi, balki doimiy ravishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan jarayon hisoblanadi. Hozirgi kunda mulkni xususiylashtirish nafaqat sobiq Ittifoq Respublikalarida, balki iqtisodiy jihatdan rivojlangan va rivojlanayotgan Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya, Filippin singari mamlakatlarda ham amalga oshirilmoqda. Bu hol, ayniqsa, iqtisodiyotda davlat sektorining salmog'i ancha yuqori bo'lgan mamlakatlarda bozor munosabatlarini rivojlantirishga xos tabiiy jarayondir. Davlat iqtisodiyotining ko'pincha iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lgan, biroq butun mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydigan ayrim sektorlarini, ayrim korxonalarni qo'llab-quvvatlashi hamda ularni saqlab turish va mablag' bilan ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga olishi kerak. Ular iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, barqaror ishlay boshlagach, xususiy mulk qilib beriladi.

Darhaqiqat, davlat mulkini xususiylashtirish orqali mulkchilik munosabatlaridagi monopoliyaga barham berish va iqtisodiyotda ko'p ukladli sog'lom raqobatga asoslangan ishlab

chiqarishni yo'lga qo'yishga erishish eng asosiy vazifalardan biri edi. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga yondashuvning muhim xususiyati—uni dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iboratligidadir.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning dastlabki bosqichida davlatga tegishli bo'lgan uy-joylar shu uylarda ijarada turuvchilarga xususiylashtirilib berildi hamda mayda maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini savdoga qo'yildi.

Garchi hozirgi kunda xususiylashtirishning uchinchi bosqichi davom etayotgan bo'lsa-da, mazkur munosabatlarni takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Bu holat, ayniqsa, xususiylashtirish jarayonida xorijiy investorlarning ishtiroki masalasida yaqqol sezilmoqda. Fikrimizcha, shu munosabat bilan xususiylashtirishda ishtirok etish istagidagi xorijiy investorlarga imtiyoz va kafolatlar berish, shu bilan birga, xususiylashtirishni amalga oshirayotgan davlat organlarining bu boradagi huquqlari va vakolatlari aniq ko'rsatilishi zarur.

Amaldagi qonunchilikda va yuridik adabiyotlarda «davlat mulk huquqi» tushunchasi iborasi uchramaydi. Davlat mulkini tadqiq etgan deyarli barcha yuridik adabiyotlarda davlat mulkining zaruriyati, davlat mulkining subyektlari va obyektlari hamda boshqa holatlar yoritilsa-da, aynan davlat mulk huquqi tushunchasi bayon etilmaydi.

FKning 164-moddasiga muvofiq, mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iborat.

Davlat mulk huquqi qonunchilik asosida davlatga qarashli bo'lgan mol-mulkka davlat organlarining va davlat tomonidan tuzilgan yuridik shaxslarning aniq yo'naltirilgan va oldindan belgilab qo'yilgan maqsadni ko'zlab egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi hamda davlat mulk huquqini kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iborat.

Davlat mulki ham boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 53-moddasining ikkinchi qismi). Davlat mulkining himoyalanganligini uning boshqa mulk shakllari kabi bir xil huquqiy maqomga ega ekanligida ko'rish mumkin. Zero, davlat mulkdor sifatida o'z mulkining daxlsizligini o'ziga qarshi turgan barcha subyektlarning mulk huquqini buzishdan o'zlarini saqlashlarini talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

Umumiy qoidaga ko'ra, har qanday mulk shaklining huquqiy maqomi mazkur mulkning obyekti va subyekti orqali ifodalanadi. Davlat mulk huquqining maqomi ham davlat mulk huquqining subyektlari va obyektlari orqali aniqlanadi.

Davlat mulkining mulkdori, ya'ni subyekti umume'tirof etilgan qoidaga ko'ra, shu davlatning xalqi hisoblanadi, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi mulkining mulkdori ham Respublika xalqidir. Zero, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai sifatida o'zining ushbu huquqini (ya'ni, mulk huquqini) davlat hokimiyatiga beradi va u orqali amalga oshiradi. Bu holat davlatning mulkdorga tegishli barcha vakolatlar egallash, foydalanish va tasarruf etishga ega bo'lishini hamda davlat bu vakolatlardan omma manfaatlari yo'lida foydalanishi lozimligini ifodalaydi.

Sobiq Ittifoq davrida davlat mulkining bitta va yagona mulkdori davlat hisoblanardi. Zero, davlat mulki bo'linmas va yagona fond (jamg'arma) ni tashkil etar va bu fondning yagona mulkdori ham davlat hisoblanardi. Garchi davlat mulkini boshqarishni amalga oshiruvchi maxsus organlar mavjud bo'lsa-da, sobiq Ittifoq davridagi mulkning bu darajada markazlashuvi va mulkdorning bunday ko'rinishda mavhumlashtirilishi mulkka nisbatan mutlaqo noto'g'ri yondashuv edi. Zero, davlat mulkining xo'jasizlikka uchrashiga va talon-taroj bo'lishiga aynan shu omillar sabab bo'ldi. To'g'ri, davlat mulki har doim yagona va bo'linmas fond (byudjet, davlat zaxirasi, davlatning asosiy va aylanma mablag'larining majmui) ga birlashtirilgan (hozirgi kunda O'zbekistonda ham shunday) va bunday birlashuv o'zini oqlagan.

Davlat mulkini tasarruf etishda yuqorida sanab o'tilgan davlat organlari qonunchilikda belgilab qo'yilgan o'z vakolatlari doirasida faoliyat yuritadilar. Ma'lumki, fuqarolik huquqining obyektlari muomalada bo'lishiga ko'ra: fuqarolik muomalasidan chiqarilgan obyektlar, muomalada bo'lishi cheklangan obyektlar va fuqarolik muomalasidagi obyektlarga bo'linadi. Lekin obyektlarning bunday harakat asosida subyektga tegishli bo'lishi holati davlatga taalluqli bo'lmaydi. Obyektning muomalada erkin harakatda bo'lishi yoki uning harakati cheklanganligi yoxud harakatdan chiqarilganligidan qat'iy nazar, davlat mulki bo'ladi.

Buni quyidagicha asoslash mumkin:

**birinchidan**, fuqarolik huquqi obyektlarining muomalada bo'lishi, cheklanishi yoki muomaladan chiqarilishini davlat va uning organlari belgilaydi;

**ikkinchidan**, obyektlarning muomalada bo'lishi davlat tomonidan muayyan maqsadlarda (umumxalq manfaatlarini ko'zlab) cheklab qo'yiladi yoki muomaladan chiqariladi. Masalan, o'qotar qurollar, portlovchi moddalarning erkin fuqarolik muomalasidan chiqarilishi aholining va fuqarolarning xavfsizligini o'ylab amalga oshirilgan bo'lsa, ov miltig'ining harakati cheklanishi (tegishli ruxsatnoma asosida harakatda bo'lishi) bunday ashyoga egalik qilishdan oldin maxsus xavfsizlik choralarini o'rgatish va obyektidan qanday foydalanish lozimligi mulkdorga tushuntirish uchun amalga oshiriladi;

**uchinchidan**, davlat tabiat tomonidan bunyod etilgan yoki inson mehnati bilan yaratilgan har qanday moddiy ne'matlar (ashyolar) ning yagona va yakka mulkdori sifatida ularning jamiyatdagi kishilar o'rtasidagi taqsimoti va harakatlanishini nazorat qiladi;

**to'rtinchidan**, fuqarolik muomalasidan qat'iy nazar, obyektning davlat mulki bo'lish holati davlatning xalq hokimiyatini amalga oshiruvchi subyektliligi bilan xarakterlanadi.

Ushbu qoidalar faqatgina Respublika mulki obyektlariga taalluqlidir. Umumiy qoidaga ko'ra, davlat mulki Respublika mulki va ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan iborat bo'ladi. Lekin ko'pchilikning tasavvurida davlat mulki deganda, odatda,

Respublika mulki tushuniladi. Zero, davlat mulki xususiy mulkka qaraganda ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi hamda davlat mulki obyektlarining doirasi aynan ijtimoiylik asosida aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasi va FKning 214-moddasiga muvofiq, yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar, davlat hokimiyati va boshqaruvi respublika organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan madaniy va tarixiy boyliklar, respublika byudjetining mablag'lari, oltin zaxirasi, davlatning valyuta fondi va boshqa fondlari respublika mulkidir, shuningdek, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, o'quv, ilmiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, intellektual faoliyat natijalari, basharti bular byudjet yoki davlatning o'zga mablag'lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan bo'lsa, boshqa mol-mulk respublika mulki bo'lishi mumkin.

Sivilist olim Sh.M. Asyanovning ta'kidlashicha, davlat mulki obyektlari bo'lib mamlakat milliy boyligining asosini tashkil etuvchi obyektlar e'tirof etiladi. Darhaqiqat, davlat mulki obyektlari aynan ularning milliy boylik ekanligi bilan ifodalanadi. Barcha makon va zamonlarda, har qanday davlat mulkining birlamchi va asosiy obyekti shu davlatga tegishli hududni tashkil etadigan yer maydoni, tabiiy boyliklar, turli ma'danlar va qimmatbaho toshlarni qazib olish bilan shug'ullanadigan konlar, shu davlat hududidan oqib o'tuvchi daryolar, o'simlik va hayvonot dunyosi, bir so'z bilan aytganda, tabiiy boyliklar hisoblangan. Garchi Oktyabr to'ntarishidan ilgari O'zbekiston Respublikasi hududida ham yer, yer osti boyliklariga nisbatan xususiy mulk mavjud bo'lgan bo'lsa-da, bunday yerlar va yer osti boyliklari judda kam miqdorda edi. Oktyabr to'ntarishidan keyin sobiq Ittifoq Hukumatining qarorlari bilan boshqa mulklar qatori yer va yer osti boyliklari natsioanalizatsiya qilinishi oqibatida tabiiy resurslarga nisbatan ham davlat mulki joriy etildi va hozirga qadar bu obyektlarga nisbatan davlat mulk huquqi saqlanib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga binoan yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi



hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir. Amaldagi Yer kodeksining 16-moddasiga muvofiq esa, yer davlat mulki – umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi hamda oldi-sotdi qilinmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya etilmaydi, garovga qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan hollar bundan mustasno. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Yer kodeksi yerga nisbatan davlatning mutloq mulk huquqini o'rnatadi hamda fuqarolar va yuridik shaxslarga esa yerga nisbatan ashyoviy huquqlarni belgilaydi. Shu o'rinda fuqarolar va yuridik shaxslarning yerga nisbatan Yer kodeksida belgilangan bir bahsli jihat haqida to'xtalib o'tish zarur. Yer kodeksining 17-moddasida fuqarolar va yuridik shaxslarning yer uchastkasiga nisbatan mulkiy huquqlari bayon etilgan bo'lib, «mulk huquqi» asosida yer uchastkasiga egalik qiladilar, – deb bayon etilgan.

Fuqarolik kodeksida ta'kidlanishicha Respublika mulki va ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulk) iborat bo'lgan davlat mulki ommaviy mulkdir.

### **O'zbekiston Respublikasida ommaviy (davlat) mulkning quyidagi turlari mavjud:**

#### **a) O'zbekiston Respublikasi mulki:**

– davlatga mutlaq mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk: yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar;

– davlat hokimiyati va boshqaruvi respublika organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan madaniy va tarixiy boyliklar, respublika byudjetining mablag'lari, oltin zahirasi, davlatning valyuta fondi va boshqa fondlari respublika mulkidir, shuningdek, boshqa mulkiy komplekslar, o'quv, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, intellektual faoliyat natijalari, basharti bular byudjet yoki davlatning o'zga mablag'lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan bo'lsa, boshqa mol-mulkni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Respublika Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Hukumati yoki ular maxsus

vakil qilgan organlar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tasarruf qiladilar (FKning 214-moddasi).

Respublika mulki bo'lgan mol-mulk davlat yuridik shaxslariga xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida birlashtirib qo'yilishi mumkin.

Respublika mulki respublika byudjetiga tushadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlardan, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan asoslarga muvofiq boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi.

### **b) Ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulki:**

Davlat hokimiyati mahalliy organlarining mol-mulki, mahalliy byudjet mablag'lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo'jalik, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek boshqa mol-mulk munitsipal mulk bo'ladi.

Munitsipal mol-mulkni qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat hokimiyati mahalliy organlari yoki ular vakil qilgan organlar tasarruf etadilar.

Munitsipal mulk bo'lgan mol-mulk yuridik shaxslarga xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida birlashtirib qo'yilishi mumkin.

Munitsipal mulk mahalliy byudjetga tushadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlardan, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarga muvofiq boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi.

## **2-§. Ommaviy mulkning zarurati va manbalari**

Ommaviy mulk, ya'ni davlat mulk huquqi qonunchilik asosida davlatga qarashli bo'lgan mol-mulkka davlat organlarining va davlat tomonidan tuzilgan yuridik shaxslarning aniq yo'naltirilgan, oldindan belgilab qo'yilgan maqsadni ko'zlab egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi hamda davlat mulk huquqini kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iborat<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B., Oqyulov O. va boshqalar. Mulk huquqi., – T., TDYuI. 2006. – B. 129.

## **Davlat mulki mulkning mustaqil shakli hisoblanadi. Davlat mulki zarurligining obyektiv sabablari quyidagilarda namoyon bo'ladi:**

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatini tashkil etish;
- huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatini tashkil etish;
- davlat xavfsizligi va mudofaa ehtiyojlari;
- ilm-fan va madaniyatni ta'minlash;
- kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoya qilish;
- tabiiy ofatlarga va favqulodda holatlarga qarshi kurash va uning oqibatlarini bartaraf etish;
- ba'zi tarmoqlarda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish (masalan, atom, yonilg'i energiyasi kabi).

Davlat mol-mulki quyidagi manbalardan shakllanadi:

- soliqlar;
- mahalliy yig'imlardan;
- ishlab chiqarish faoliyatidan olingan daromaddan;
- kreditlar va zayomlardan;
- davlat mulkini xususiyashtirishdan tushgan daromadlardan;
- natsionalizatsiyadan;
- rekvizitsiyadan;
- musodaradan;
- topilmalardan;
- xazinalardan;
- egasiz ashyodan;
- turli shartnomalardan;
- xorijiy mamlakatlarda ko'chmas mulk sotib olishdan va hokazo.

### **3-§. Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish**

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, iqtisodiyotning bozor shaklini tanlashi bilan sobiq totalitar tuzum davridagi iqtisodiyotni ma'muriy vositalar orqali boshqarish, fuqarolik

muomalasida davlat gegemonligidan voz kechishga asoslangan iqtisodiy-huquqiy rivojlanish yo'lini belgilab oldi. Bunda, ayniqsa, mulkiy islohotlarni o'tkazish va mulkchilikka nisbatan bozor iqtisodiyotiga xos bo'lmagan munosabatlarni tubdan o'zgartirish, moddiy ne'matlar taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish va iqtisodiy muomala subyektlarining mulkiy mustaqilligini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimizda amalga oshirilgan dastlabki mulkiy islohotlar zamirida iqtisodiy munosabatlardagi davlatning mulkdorlik mavqeyini o'zgartirish va mulkdorlar qatlamini shakllantirish yotar edi. Shu munosabat bilan amalga oshirilgan dastlabki mulkiy islohotlar davlatga tegishli mol-mulklarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishga qaratilgan bo'lib, bu sohadagi ilk qadam davlatga tegishli turar joylarni ushbu turar joylarda istiqomat qilayotgan fuqarolarga imtiyozli shartlar asosida xususiylashtirib berish bo'ldi.

Albatta, mazkur jarayonni o'tkazish va uni huquqiy tartibga solish asosi sifatida fuqarolik-huquqiy vositalar muhim o'rin tutdi. Binobarin, xususiylashtirish nafaqat mazkur faoliyatni amalga oshirishga vakolatli davlat organining xususiylashtirish to'g'risidagi ma'muriy-huquqiy hujjati, balki haq to'lashga asoslangan yoki tekinga mulk qilib berish sharti bilan davlat orderi berish yo'li orqali amalga oshirilgan.

Mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilandi. Iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichining g'oyat muhim vazifasi davlat mulki monopolizmini tugatish va bu mulkni xususiylashtirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirishdan iborat edi<sup>1</sup>.

E'tirof etish lozimki, xususiylashtirishning dastlabki davrlarida uy-joylarni xususiy mulkka aylantirish ommaviy va stixiyali tarzda kechgan. Bunda asos sifatida fuqaroning muayyan turar joyda ro'yxatdan o'tganligi muhim ahamiyat kasb etgan. Garchi, o'tgan yillar mobaynida davlatga tegishli turar joylarning

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T: O'zbekiston 1995. – 46-b.

katta qismi xususiylashtirilgan bo'lsa-da, bugungi kunda ham bu jarayon davom etayotganligi mazkur huquqiy munosabatni tartibga solishning izchil, samarali mexanizmini ishlab chiqish zaruratini ko'rsatadi. Zero statistik ma'lumotlarga qaraganda hozirgi kunga qadar davlat uy-joy fondining 90 foizidan ko'prog'i xususiylashtirib bo'lingan<sup>1</sup>.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish ko'pgina bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda, shu jumladan MDH va O'zbekiston Respublikasida o'tkazilayotgan jarayonlardan biridir.

Hozirgi paytda keng ko'lamda xususiylashtirish jarayoni amalga oshirilmoqda, ya'ni davlat mulki jismoniy va yuridik shaxslarning xususiy mulkiga o'tkazilmoqda. Buning natijasida ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchilar bilan uyg'unlashib, mulk bozor munosabatlarida o'zining haqiqiy mazmunini kasb etmoqda.

Har qanday islohotlarni kafolatli amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri – ularning huquqiy negizini yaratishdan boshlanadi. Iqtisodiy islohotlar qonunchilik asosida amalga oshirilgandagina ular muayyan natija beradi va orqaga chekinish yuz bermaydi. Shuning uchun ham islohotlarning huquqiy negizini yaratish bir qancha muhim yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi. Mazkur yo'nalishlardan biri mulkdorlikka asos soladigan qonunlar majmuini yaratishga qaratilgan edi. Shu bilan birga, insonlarning mulkka bo'lgan munosabatlarini o'zgartirmasdan turib ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmasligi ham ayon edi.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning asosiy mohiyati jamiyatdagi mulkni haqiqiy mulkdorlar qo'liga topshirishdan iborat. Bunda mulkdor o'z mulkini asrab avaylashga, uni o'zgalar tomonidan talon taroj etilishiga yo'l qo'ymaydi va, eng asosiysi, undan daromad olish maqsadida foydalana oladi.

**1991-yil 19-noyabrda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida maxsus qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning qabul qilinishiga quyidagilar obyektiv sabab bo'ldi:**

---

<sup>1</sup> <http://www.gki.uz>

1. Totalitar tuzumda shaxsning mulkdan begonalashuvi oqibatlarini tugatish;

2. Davlat mulkining tarkibiy markazlashuvining haddan ortishi, undan samarali foydalanish, boshqarish va nazorat qilishni ta'minlay olmaganligi;

3. Davlat mulkiga nisbatan tashmachilik va xo'jasizlikka barham berish;

4. Bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish mulkning davlat qo'lida haddan ortiq markazlashuviga zid ekanligi.

Davlat tasarrufidan chiqarish deyilganda, davlat korxonalari va tashkilotlarini jamoa ijara korxonalariga, aksiyadorlik jamiyatlariga, davlatga qarashli bo'lmagan boshqa korxonalar, tashkilotlarga aylantirilishi tushuniladi.

Xususiylashtirish deyilganda esa, fuqarolar va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarni davlat mulki obyektlarini yoki davlat aksiyalarini davlatdan sotib olishi tushuniladi.

Davlat organlari xususiylashtirish subyekti bo'la olmaydi. Xususiylashtirish obyektlarini davlat byudjeti tomonidan sotib olishga yo'l qo'yilmaydi. Xususiylashtirish jarayoni mobaynida ko'p hollarda nizoli binolar xususida kelishmovchiliklar va tizim bo'limlarining aksiyadorlik jamiyatlari tarkibidan chiqarishlari bilan bog'liq bo'lgan nizolar kelib chiqmoqda.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, ayrim korxonalar va idoralar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish masalalariga oid qarorlariga yetarlicha e'tibor berilmayotgan hollar uchrab turadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish uchun ariza berish va uni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik Nizomning 11-bandiga ko'ra, bunday ariza berilgan paytdan boshlab va ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, bu mulkka egalik qilish, undan foydalanish va boshqarish huquqini boshqa mulkdorga o'tkazilgan paytga qadar ma'muriy boshqarish organlari korxonani qayta tuzishi, tugatilishi, shtat jadvali tuzilishini o'zgartirishi va xodimlarni ishdan bo'shatishi mumkin emas.

Davlat uy-joy fondidagi turar joyni xususiylashtirishni amalga oshirishda fuqarolarning va mulkdorlarning huquqini himoya qilish munosabati bilan vujudga kelgan nizolar O'zbekiston Respublikasi FPK va «Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonunning 26-moddasiga muvofiq sudlarga taalluqlidir.

Har bir soha faoliyatining o'ziga xos tamoyillari bo'lganidek, xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishning ham tamoyillari mavjud. Mazkur tamoyillar O'zbekiston Respublikasining «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida o'z mujassamini topgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish shakllarini mehnat jamoasining manfaatlarini hisobga olgan holda aniqlash;

- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish vaqtida mulkni pulli va pulsiz topshirishni qo'shib olib borish;

- pulsiz va pulli xususiylashtiriladigan mulkdan ulush olishda fuqarolarning huquqlari tengligi;

- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish sharoitida barcha fuqarolar ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlash;

- oshkoralik davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tadbirlarini amalga oshirish ustidan davlat va jamoat nazoratini yo'lga qo'yish;

- monopoliyaga qarshi qonunlar talablariga rioya etish<sup>1</sup>.

#### **4-§. Davlat korxonasi, muassasalari va davlat ijara korxonasining mol-mulki**

Fuqarolik huquqi subyektlari o'zlarining zarur ehtiyojlarini qondirish jarayonida turli mol-mulklardan foydalanishadi. Biroq ushbu foydalanilayotgan mol-mulklar ularga har doim ham tegishli bo'lavermaydi, ayrimlari mulk huquqi asosida tegishli bo'lsa, ayrimlari ashyoviy huquq asosida, yana ayrimlari esa majburiyat huquqi asosida tegishli bo'ladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 19-noyabrdagi «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi 425–XII-son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, 1-son, 43-modda.

Davlat mulki bo'lgan va davlat korxonasiga birlashtirib qo'yilgan mol-mulk to'la xo'jalik yuritish huquqi asosida ushbu davlat xo'jaligiga tegishli bo'ladi. Korxonaga o'z mol-mulki bilan to'la xo'jalik yuritish huquqini amalga oshirar ekan, shu mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Unga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday harakatlarni sodir etishga haqli.

Davlat mulki bo'lgan va mulkdor tomonidan davlat byudjetida turuvchi davlat muassasasiga, tashkilotiga birlashtirib qo'yilgan mol-mulk operativ boshqaruvda bo'ladi. Davlat muassasasi, tashkiloti o'z majburiyatlari yuzasidan o'z tasarrufidagi mablag'lari bilan javob beradi. Davlat muassasasining, tashkilotining mablag'i yetarli bo'lmagan taqdirda uning majburiyatlari bo'yicha tegishli mulkning egasi javobgar bo'ladi.

Ijara davlat mulkini foydalanishning o'ziga xos shakli bo'lib, ashyoviy huquqlar tizimiga mansub huquqlardan hisoblanadi. Bunda davlat mulkini idora qiluvchi organ mehnat jamoasi davlat mulkini ijaraga beradi. Bunday ashyoviy huquqning subyekti ijara korxonasi mehnat jamoasi hisoblanadi va u ijara mulkiy shartnomada belgilab qo'yilgan huquqlar doirasida boshqariladi.

Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish sharoitida mulk ijarasi bilan bog'liq munosabatlar tobora rivojlanib, uning ko'lami yanada kengayib bormoqda<sup>1</sup>.

Lekin ijara bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida kelib chiqadigan butunlay yangi huquqiy munosabat emas. Ijara mamlakatimizda ilgari ham mavjud bo'lgan va u tegishli qonun-qoidalar bilan tartibga solingan.

Bu huquqiy hujjatlarda yuqorida zikr etilgan hujjatlardan farqli o'laroq, ijara obyektlari, ijara subyektlari, ijara haqi, ijara sharoitida mulkning holati, ijara muddatlari, ijara shartnomasi va uning shartlari, ichki xo'jalik ijarasi, yakka tartibdagi va guruhiy ijara, shuningdek, shartnoma bo'yicha javobgarlik masalalari aniq va to'la ko'rsatib berildi. Xususan, faqat mulk egalari gina ijaraga beruvchilar hisoblanishi e'tirof etildi. Masalan, «Ijara to'g'risidagi qonun asoslari»ning 4-moddasiga ko'ra, mulkning ijaraga berish

---

<sup>1</sup> Boboqulov S.B. Ijara huquqi. – T., «Ilm-Ziyo». 2009. – B. 34.



huquqi mulk egasiga tegishli bo'lib, yerni ijaraga topshirish xalq deputatlari Kengashlari tomonidan amalga oshiriladi<sup>1</sup>.

Umuman, bu qisqa vaqt ichida ijara munosabatlari rivojlandi, ularni tartibga soluvchi huquqiy normalar mavjud tuzumning siyosati doirasida shakllandi.

Ijara huquqiy asoslari rivojlanishining ushbu bosqichi – to Sobiq Ittifoqning inqirozga yuz tutishi, sotsialistik tuzumning batamom parchalanib ketguniga qadar davom etdi<sup>2</sup>.

Huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish O'zbekiston Respublikasida izchil huquqiy islohotlarni amalga oshirishni taqozo etdi. Mustaqillik Deklaratsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Qonuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi yaxlit qonunchilik tizimini shakllantirish uchun haqiqiy sharoit yaratib berdi.

Jamiyat taraqqiyotida mulkning muhim o'rin tutishligi sababli, qonunchiligimizda mulk huquqiga, uning xilma-xil shakllariga, shuningdek, ularni amalga oshirish uslublariga va vositalariga alohida e'tibor qaratildi<sup>3</sup>.

Bozor munosabatlari sharoitida ijaraning huquqiy asoslarini takomillashtirish jarayoniga mulkiy munosabatlardagi, mulk huquqida ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu o'zgarishlar, ayniqsa, 1990-yil 31-oktyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Mulchilik to'g'risida»gi, 1991-yil 19-noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi, 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Tadbirkorlik to'g'risida»gi va ularga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar to'g'risidagi qonunlarda<sup>4</sup>, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36, 53-moddalarida nazarda tutilgan asosiy qoidalarda o'z ifodasini topdi. Yuqoridagi qonunlar asosida ijara munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar ishlab chiqildi.

---

<sup>1</sup> Ro'ziev R.J. Mulk ijarasi shartnomasi. – T., «Universitet». 2005. – B. 16.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

<sup>3</sup> O'sha manba. – B. 17.

<sup>4</sup> Hozirda o'z kuchini yo'qotgan.

Respublikamizda ijara munosabatlarini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 19-noyabrdagi «Ijara to'g'risida»gi Qonuni hamda 1997-yil 1-martdan boshlab amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi alohida o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, to shu kungacha bo'lgan davr mobaynida, ijara munosabatlari to'g'risidagi qonunlarni va boshqa me'yoriy hujjatlarni, shuningdek, bu yo'nalishdagi ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, hozirgi kunda ijara qonunchiligining huquqiy asoslari shakllandi va o'zining ma'lum darajadagi rivojlanish bosqichini bosib o'tdi. Bir so'z bilan aytganda, Respublikamizda ijara huquqiy munosabatlarining butun bir tizimi yaratildi.

### **Tayanch iboralar:**

Ommaviy mulk, davlat mulki, davlat korxonasi mulki, davlat ijara korxonasining mol-mulki, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, davlat uy-joy fondi, xususiylashtirish subyektlari.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Ommaviy mulkning qanday turlarini bilasiz?
2. Davlat mulki zarurligining obyektiv sabablarini sanab bering.
3. Davlat korxonasining mulki deganda qanday mulk tushuniladi?
4. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish deganda nimani tushunasiz?
5. Davlat organlari xususiylashtirish subyekti bo'lishi mumkinmi?
6. Davlat uy-joy fondi nima?
7. Davlat uy-joy fondidagi turar joyni xususiylashtirishni amalga oshirishda fuqarolarning va mulkdorlarning huquqini himoya qilish qaysi qonunchilik bilan amalga oshiriladi?
8. Davlat mol-mulki qaysi manbalardan shakllanadi?
9. O'zbekiston Respublikasi mulki qaysi mulklardan iborat?
10. Ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulkini mohiyatini tushuntirib bering.

### 1-§. Umumiy mulk huquqi tushunchasi va turlari

Fuqarolik kodeksining 216-moddasida aytilganidek, ikki yoki undan ortiq shaxsning egaligida bo'lgan mol-mulk ularga umumiy mulk huquqi asosida tegishli bo'ladi. Ushbu normaning mohiyatidan, umumiy mulk huquqi deb bir necha shaxslarning muayyan obyektlarga nisbatan bo'lgan mulkiy huquqlarga aytiladi.

Umumiy mulk huquqining obyektini ma'lum ashyo yoki ashyolarning to'plami tashkil etishi mumkin. Masalan, ikki yoki bir necha shaxsning birgalikda qurgan yoki sotib olgan imorati, ikki yoki bir necha jamoa xo'jaligi birgalikda qurgan g'isht zavodi kabi boshqa obyektlar bo'lishi mumkin. Umumiy mulk huquqining subyektlari ikki yoki bir necha shaxs (fuqaro yoki tashkilot)lar bo'lishi mumkin<sup>1</sup>.

Umumiy mulk huquqining subyektlari bir necha shaxsdan iborat bo'lganligi tufayli sheriklarning har qaysisi bunday mulkni o'z holicha tasarruf qila olmaydi, balki o'ziga qarashli obyektlarni birgalikda, o'zaro kelishuv asosida egallaydi, ulardan foydalanadi va tasarruf qiladi.

**Umumiy mulk huquqi quyidagi asoslardan vujudga keladi:**

– **birinchidan**, oddiy shirkat shartnomasidan, masalan, bir necha fuqaroning birgalashib uy-joy qurishidan yoki bir necha jamoa xo'jaligining birgalashib elektr stansiyasi qurishidan;

– **ikkinchidan**, bir necha fuqaroning muayyan umumiy mulkka ega bo'lish uchun mablag' va mehnatlarini qo'shishlaridan, masalan, umumiy oilaviy mulk;

– **uchinchidan**, bir necha shaxslarning qonun yoki vasiyat bo'yicha meros olishlaridan<sup>2</sup>.

Umumiy mulk huquqi aksariyat hollarda oddiy shirkat (birgalikdagi faoliyat) shartnomasi asosida, umumiy xo'jalik

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B., Oqyulov O. va boshqalar. Mulk huquqi., – T., TDYuI. 2006. – B. 216.

<sup>2</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi., – T., TDYuI. 2006. – B. 247.

maqsadlariga erishish uchun, jamoa xo'jaliklari, korxonalar yoki boshqa tashkilotlar qurish va ekspluatatsiya qilish, suv xo'jaligi inshootlari, maktablar, turar-joy binolari va shu kabilarni qurish uchun birgalikda harakat qilishlarida, buning uchun pul hamda boshqa mulk yoxud mehnatlarini birlashtirishlarida vujudga keladi. Fuqarolar ham o'zlarining shaxsiy-maishiy ehtiyojlarini qondirish uchun pul, mulk va mehnatlarini birlashtirib, masalan, uy-joy qurish uchun birgalikda shartnoma tuzib, umumiy mulk huquqini oladilar.

Umumiy mulk huquqi instituti, umumiy mulk haqidagi huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 216–227-moddalarida batafsil bayon etilgan.

FKning 216-moddasida ko'rsatilganidek, umumiy mulk ikki turga:

**birinchidan**, mol-mulk mulkdorlardan har birining mulk huquqidagi ulushi aniqlab qo'yilgan ulushli mulk;

**ikkinchidan**, ulushlari aniqlab qo'yilmagan birgalikdagi mulkka bo'linadi. Bular o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagichadir:

Taqsimlanadigan umumiy mulkning har bir ishtirokchisi ashyoda aniq belgilangan hissaga ega bo'ladi. Masalan, yarmiga, uchdan biriga va hokazo.

Taqsimlanmaydigan birgalikdagi umumiy mulk esa, hissalariga taqsimlanadigan mulkdan ulushlarga ajralmasligi bilan farq qiladi. Bunday umumiy mulk hamma ishtirokchilar o'rtasida, ularning umumiy roziligi bilan va tenglik asosida egallanadi, foydalaniladi va tasarruf etiladi.

Ulushli mulk subyektlari fuqaro ham, tashkilot ham bo'lishi mumkin.

Umumiy birgalikdagi mulk huquqida subyektlar o'z ulushlarini mustaqil tasarruf qila olmaydi, chunki, birinchidan, ularning har birining ulushi umuman belgilanmagan bo'ladi; ikkinchidan, oilaviy munosabatda bo'lgan umumiy mulk egasi oiladan chiqqanda, uni boshqa bir ikkinchi shaxs bilan almashtirib bo'lmaydi. Ulushli mulk ulushlarga ajralmaydigan umumiy mulkdan vujudga kelishi asoslari va tartibi bilan ham farq qiladi.

Ulushli mulk tashkilotlar va fuqarolarning bitimlar tuzishi asosida, qonun bilan nazarda tutilgan asoslarda, Jumladan qonun va vasiyat bo'yicha meros olishda, mulkning musodara qilinishida va boshqa ba'zi hollarda vujudga kelishi mumkin. Jamoa xo'jaligi oila a'zolarining jamoa xo'jaligida mehnat qilib topgan va xonadon mulkiga qo'shgan daromadlari yordamchi xo'jalikdan, chorva mollari asrashdan kelgan daromadlari xonadon a'zolarining umumiy mulk huquqini vujudga keltiradi. Kasbkor, hunarmand, umuman yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar oilasining topgan pul yoki boshqa buyumlari ham shu xonadon a'zolarining umumiy mulkini vujudga keltiradi.

## **2-§. Umumiy ulushli mulkni egallash, foydalanish va uni tasarruf etish**

Umumiy ulushli mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etishda sherik egalarning huquqlari ikki turga: barcha umumiy mulkka nisbatan, umumiy mulkdagi ulushga nisbatan bo'lgan huquqlarga bo'linadi. Binobarin, umumiy ulushli mulk egalarning har qaysisi o'z ulushini mustaqil tasarruf etish huquqiga ega bo'lsa ham, jumladan o'z ulushini agar qonun yoki ustav (nizom)da boshqacha hol belgilanmagan bo'lsa, o'zga shaxsga o'tkazish huquqiga ega bo'lsa ham, umumiy mulkni sheriklarining roziligidan tashqari tasarruf qila olmaydi.

Umumiy ulushli mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish davomida bunday mulkning egalari o'rtasida bo'lgan nizolar umumiy mulk ishtirokchilarining har qaysisining da'vosi bo'yicha sud tomonidan hal qilinadi.

Umumiy ulushli mulk egalari o'z ixtiyorida bo'lgan mulkni hammalarining roziligi bilan egallaydilar, undan foydalanadilar va tasarruf etadilar. Agar umumiy sherik mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish tartibi to'g'risida o'zaro kelisha olmasalar, bunday masala sherik egalarning har qaysisi da'vosi bo'yicha sud tomonidan hal qilinadi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B., Oqyulov O. va boshqalar. Mulk huquqi., – T., TDYuI. 2006. – B. 218.

Umumiy ulushli mulkning har qaysi egasi umumiy mulk yuzasidan bo'lgan soliq, yig'im va boshqa to'lovlarni to'lashda, shuningdek, uni boshqarish va saqlash xarajatlarida o'z hissasiga yarasha qatnashishga majbur<sup>1</sup>.

Umumiy mulkni saqlash yoki umumiy majburiyatni bajarish yuzasidan xarajatlar qilgan boshqa sheriklaridan o'zining qilgan chiqimlarini har birining hissasiga muvofiq qoplanishini talab qilish huquqiga egadir.

FKning 221-moddasida aytilganidek, uni boshqarish va saqlash xarajatlarida o'z hissasiga yarasha qatnashishga majbur.

FKning 218-moddasida aytilganidek, umumiy ulushli mulkning har qaysi egasi o'z ulushini boshqa shaxsga o'tkazishga haqli. Bunda ulushni haq baravariga ham, tekinga ham birovga o'tkazish nazarda tutiladi. Umumiy mulkning sheriklari tashkilot bo'lgan taqdirda, ular o'z ulushlarini birovga haq baravariga o'tkazadi, ko'pincha uni sotadi. Fuqarolar esa, o'z ulushlarini haq baravariga ham, tekinga ham birovga o'tkazishi jumladan, sotishi, hadya etishi, shuningdek, vasiyat qilib qoldirishi mumkin.

Ulushli mulkdagi umumiy mol-mulkka egalik qilish va undan foydalanish uning barcha ishtirokchilari kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi. Bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda, ulushli mulkdagi umumiy mol-mulkka egalik qilish va undan foydalanish sud tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Mulkdorlardan biri o'z ulushini boshqa shaxsga sotgan vaqtda qolgan mulkdorlar sotilayotgan ulushni u sotilayotgan narxda va boshqa teng shartlarda sotib olishda imtiyozli huquqqa egadir. Kim oshdi savdosi orqali sotish hollari bundan mustasno (FKning 224-moddasi).

Umumiy mulkdagi ulushni sotuvchi o'z ulushini o'zga shaxsga sotish niyati haqida boshqa mulkdorga yozma ravishda ma'lum qilib, ulushning narxini va uni sotishning boshqa shartlarini ko'rsatishi shart. Agar qolgan mulkdorlar imtiyozli sotib olish huquqini amalga oshirishdan voz kechsalar yoki

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi., – T., TDYuI. 2006. – B. 249.

bu huquqni xabar qilingan kundan e'tiboran ko'chmas mulkka nisbatan bir oy davomida boshqa mol-mulkka nisbatan esa o'n kun davomida amalga oshirmasalar, sotuvchi o'z ulushini har qanday shaxsga sotishga haqli bo'ladi.

Davlat, kooperativ yoki boshqa yuridik shaxs uy-joyga nisbatan bo'lgan umumiy mulk huquqidagi o'z ulushini sotgan taqdirda uy-joyning ana shu ulushni sotib olishda imtiyozli huquq uyning shu qismida yashovchi shaxslarga beriladi, ular sotib olishni xohlamaganlari yoki bu huquqni amalga oshirmaganlarida esa ulushni sotib olish huquqi umumiy mulkning qolgan sheriklariga o'tadi.

Agar ulush sheriklarning imtiyozli huquqlari buzilib sotilsa, umumiy ulushli mulkning boshqa sherigi sotib oluvchining huquq va majburiyatlari o'ziga o'tkazilishi to'g'risida da'vo qo'zg'atib, sudga murojaat qilishi mumkin. Ammo bu huquq va majburiyat mulkni olib-sotishda belgilangan narxini hamda sotib olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni to'lash sharti bilangina unga o'tkazilishi mumkin.

Agar mulk oluvchi ulushni sotib olish to'g'risida rozilik bergan bo'lsa-yu, lekin u notarial idoraga kelishdan bosh tortsa, notarius sotuvchining tanlashi bo'yicha boshqa shaxs bilan shartnomani rasmiylashtirish huquqiga ega.

Umumiy mulk bo'lgan uydan tegishli ulush soqit qilinishida, masalan, sotilishida, uyga bo'lgan ulushlar real (natura shaklida) ko'rsatilmay, balki arifmetik ulushlarda belgilanadi. Ammo shu bilan birga sotuvchi foydalanish uchun qaysi kvartira yoki xonaning o'tishini ko'rsatishi mumkin. Agar umumiy ulushli mulk bo'lgan turar joy ishtirokchilari o'rtasida uyning ayrim xonalaridan foydalanish to'g'risida oldindan kelishilgan bo'lsa, bunday kelishish ham notarius tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

Ulush sheriklarning imtiyozli huquqlari buzib sotilgani holda umumiy ulushli mulkka bo'lgan boshqa sherigi sotib oluvchining huquq va majburiyatlari o'ziga o'tkazilishi to'g'risida da'vo qo'zg'atib, sudga murojaat qilishi mumkinligi to'g'risida qoidalar keng ma'noda joriy qilinmaydi, Jumladan, turar-joyni hadya va vasiyat qilish hollarida qo'llanilmaydi.

### **3-§. Umumiy mulkdan ulush ajratish va uni taqsimlash**

Ulushli mulkdagi mol-mulk ishtirokchilar o'rtasida ularning kelishuviga muvofiq taqsimlanishi mumkin. FKning 223-moddasida ko'rsatilganidek, umumiy ulushli mulk ishtirokchisi o'z ulushini umumiy mol-mulkdan berishni talab qilishga haqlidir. Uning bu huquqi umumiy mulkdagi ulushni tasarruf etishga bo'lgan huquqidan kelib chiqadi.

Ulushni ajratishning asosiy usuli, mulkning xo'jalik tayinlanishiga zarar yetkazmaslik sharti bilan undan asl holda ulush ajratishdan ishtirokchilar o'zaro kelisha olmasalar sud yoki nizoni hal qiluvchi organ umumiy mulkdan qanday ashyolar asl holda ajratilishini, masalan, sheriklik asosida olingan hosilning qanday taqsimlanishini belgilaydi.

Umumiy mulkdan uning xo'jalik tayinlanishiga zarar yetkazmasdan ajratish mumkin bo'lmaganda, ulush ajratib oluvchi ega rozi bo'lgani holda, ulushning miqdoriga yarasha pul baravarida haq olishi mumkin. Agar pul baravarida uning to'lash imkoniyati bo'lmasa, umumiy mulk sotilib, uning summasi sheriklar orasida taqsimlanadi.

Uy-joyga nisbatan bo'lgan umumiy ulushli mulk egalari o'zlariga tegishli ulushlarga yarasha uy-joyni taqsimlashga haqli bo'lib, buning natijasida ularning har biriga uy-joyning alohida qismi (kvartira yoki ajratilgan xona) biriktirib qo'yilishi mumkin<sup>1</sup>.

Fuqarolarning umumiy ulushli yoki birgalikda egaligida bo'lgan xususiylashtirilgan turar-joylarni bo'lish haqidagi masalalar sud amaliyotida turlicha hal etilishi holatlari uchraydi. FKning 223-moddasiga muvofiq, umumiy ulushli mulk egasining har biri umumiy mulkdan o'z ulushini ajratib berishni talab qilishga haqli.

Agar ulushni ajratish usuli to'g'risida sheriklar o'zaro kelisha olmagan bo'lsalar, mulk har qaysi sherikning da'vosi bo'yicha sud tomonidan taqsimlanadi. Amalda shunday hollar uchraydiki, umumiy mulkdan ulush ajratish haqidagi qonunning qoidalari xususiylashtirilgan turar-joylarga tatbiq qilinishi mumkin emas

---

<sup>1</sup> Zokirov I. B., Oqyulov O. va boshqalar. *Mulk huquqi.*, – T., TDYuI. 2006. – B. 220.



va bunday turar-joylarni taqsimlashda Uy-joy kodeksi normalari tatbiq qilinishi lozim.

FK 233-moddasining ikkinchi qismiga binoan, turar-joy uning sheriklarini umumiy mulki bo'lgan kvartira, uy (uyning bir qismi)dagi ulushlariga muvofiq taqsimlanishi lozim.

Birgalikdagi umumiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan turar-joylar ham shunday tartibda taqsimlanishi kerak.

Ammo bunday taqsimlash mazkur aholi yashaydigan joyning rejalashtirish loyahasiga zid bo'lmasligi kerak. Uy-joyni taqsimlash to'g'risidagi bitim notarial tartibda taqsimlanishi va tuman (shahar) hokimligi idoralarida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Ba'zi hollarda umumiy mulkdan tegishli ulush mulk egaligidan birining qarzini qoplash uchun uning kreditori talabi bo'yicha ham ajratilishi mumkin.

#### **4-§. Er-xotinlar o'rtasidagi mulk huquqi**

Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Oila qurilishi, ya'ni nikoh tuzilishi bilan er va xotinlar o'rtasida mulk huquqi vujudga keladi.

Oila qonunchiligida er-xotinning nikoh davrida orttirgan mulklari – ularning birgalikdagi umumiy mulki bo'lishi ko'rsatilgan. Bunda u yoki bu mulkning kim tomonidan sotib olinganligi, kimning nomiga rasmiylashtirilganligi, er yo xotindan birortasining qancha maosh olishi yoki butunlay olmasligining mutlaqo ahamiyati yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 23-moddasiga asosan er va xotinning nikoh davomida orttirilgan mol-mulklari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Er-xotinning tadbirkorlik faoliyatiga qo'shgan mablag'lar va undan kelgan daromadlar, agar er-xotin o'rtasidagi shartnoma bilan o'zgacha tartib belgilangan bo'lmasa, ulardan har birining mulki bo'ladi.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mulklari jumlasiga ularning har birining mehnat faoliyatidan, tadbirkorlikdan va intellektual faoliyat natijalaridan orttirilgan daromadlar, pensiyalar, nafaqalar, shuningdek, ularning umumiy daromadlari hisobiga olingan ko'char va ko'chmas mulklar, qimmatli qog'ozlar, paylar, omonatlar er yoki xotindan birining nomiga rasmiylashtirilganligidan qat'i nazar er-xotinning umumiy mulkiga kiradi.

Er va xotin o'rtasidagi umumiy mulk huquqining taqdiri nikohning bekor qilinishi bilan o'zgarishi mumkin. Bu holda dastlab er va xotinning nikoh tuzganliklariga qadar o'zlariga tegishli bo'lgan mulklari, shuningdek, nikoh davomida hadya yoki meros tariqasida olgan mulklari har birining o'z mulki qilib ajratilishi va ular o'rtasidagi umumiy mulkka qo'shilmaligi kerak.

Er-xotinning majburiyatlari ularning qanday asoslardan kelib chiqqaniga qarab umumiy mulk hisobidan bajarilishi mumkin. Agar majburiyat er va xotinning umumiy xo'jalik yoki oila manfaatlarini ko'zlab qilgan harakatlaridan kelib chiqqan bo'lsa, qarz so'zsiz umumiy mulkdan undiriladi.

Majburiyat er yoki xotinning shaxsiy qarzlaridan kelib chiqqan bo'lsa, majburiyat qarzlari o'z shaxsiy mulkidan yoki unga tegishli umumiy mulk ulushidan undiriladi. Agar er-xotinning umumiy mulki jinoyat hisobiga jamg'arilgani yoki ko'paytirilganligi sud hukmi bilan isbot qilinsa, jinoyat tufayli keltirilgan hamma mulk hisobidan undiriladi.

Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishda, avvalo er-xotinning har biriga tegishli bo'lgan xususiy mulk belgilab olinadi. Keyinchalik esa umumiy mulkdan qaysilari er-xotindan qaysi biriga tegishli ekanligi aniqlanadi. Shunday hollarda, ular o'rtasida mulk teng hissada bo'linsa, er-xotindan bittasiga qimmatli boshqasiga tegishli bo'lgan mulkdan oshiqroq ashyo berilsa, ikkinchi tomonga farqi doirasida tegishli pul summasi berilishi lozim. Qonun sudni masalani bunday asosda hal qilishga majbur etmaydi. Pul summasini undirib berish masalasini ko'rayotganda sud ishning aniq sharoitiga qarab (er-xotin har birining moddiy va boshqa oilaviy holatlarini inobatga olib) hal qiladi. Bunday holatda er-xotindan bittasiga birgalikdagi umumiy

mulk tarkibiga kirgan uyning qismi uchun pul to'lash belgilansa, u egallagan xonani bo'shatib berishi lozim.<sup>1</sup>

Yuqorida bayon qilingan er va xotinning umumiy mulki haqidagi qoidalar FHDYoda qayd etilgan nikohda turuvchi shaxslarga nisbatan tatbiq qilinadi. FHDYoda ro'yxatdan o'tmay birga turuvchilarga Oila kodeksida bayon qilingan yuqoridagi qoidalar tatbiq etilmaydi. Ular o'rtasidagi umumiy munosabatga Fuqarolik kodeksining umumiy mulk huquqi to'g'risidagi normalari qo'llaniladi.

## **5-§. Dehqon va fermer xo'jaligining mulk huquqi**

Dehqon va fermer xo'jaligining mol-mulki umumiy birgalikdagi mulk ko'rinishlaridan biridir. Qonunga asosan dehqon va fermer xo'jaligining mol-mulki uning a'zolariga agar ular o'rtasidagi shartnoma bilan boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, ulushli yoki birgalikdagi umumiy mulk huquqi asosida tegishli bo'ladi. Bu mol-mulk o'z tarkibiga turar-joy, xo'jalik binolari, sug'orish inshootlari, ekinlar, chorva mollari, parrandalar, texnika va uskunalar, transport vositalari, qishloq xo'jalik ashyolari va hokazolarni oladi.

Xo'jalik yetishtirgan hosil, mahsulot va boshqa daromadlar xo'jalik a'zolarining umumiy mol-mulki hisoblanadi va o'zaro kelishuv asosida foydalaniladi. Bunday mol-mulkni tasarruf etish bo'yicha bitimlar xo'jalik rahbari yoxud u vakolat bergan xo'jalik a'zosi tomonidan tuziladi.

Dehqon va fermer xo'jaligi haqidagi qonunlarga asosan dehqon va fermer xo'jaliklari yuridik shaxs huquqiga ega.

Dehqon va fermer xo'jaliklarining bir yoki bir necha a'zosi uning tarkibidan chiqqan taqdirda, birgalikdagi umumiy mulk asl holida taqsimlanmaydi, balki tegishli ulush pul mablag'lari bilan to'lanadi. Bundan asosiy maqsad mavjud dehqon va fermer xo'jaliklarining parchalanib yo'q bo'lib ketishiga yoxud zaiflashib qolishiga yo'l qo'ymaslikdir. Xuddi shu sababli yangi dehqon va fermer xo'jaligi tashkil etish maqsadida ajralib chiqayotgan

---

<sup>1</sup> Otaxo'jaev F.M. O'zbekiston Respublikasining Oila huquqi. – T., 2005. – B. 118–119.

a'zolar dehqon xo'jaligining umumiy mulkdagi o'z ulushlarini asl hoida olishga haqli. Biroq bunda mol-mulknı taqsimlash dehqon va fermer xo'jaligi faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan asosiy ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilmaydigan tarzda amalga oshirilishi kerak.

Dehqon va fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi umumiy mol-mulkdagi ulushlari, agar ular o'rtasida kelishuvga muvofiq boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, ularning barchasi uchun teng hajmda deb hisoblanadi.

Dehqon (fermer) xo'jaligi tugatilgan taqdirda barcha kreditorlarning talablari qondirilgandan keyin qolgan mol-mulk, mulk huquqi asosida dehqon va fermer xo'jaligi a'zolariga tegishli bo'ladi hamda qonunda yoki shartnomada belgilangan tartibda taqsimlanadi.

### **Tayanch iboralar:**

Umumiy mulk, birgalikdagi mulk, ulushli mulk, birgalikdagi mol-mulknı taqsimlash, birgalikdagi mol-mulkdan ulush ajratish, imtiyozli sotib olish huquqi, er-xotinlar o'rtasidagi mulk huquqi, dehqon xo'jaligining mol-mulki, fermer xo'jaligining mol-mulki

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Umumiy mulk tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari nimalardan iborat?
2. Umumiy mulk huquqi institutiga ta'rif bering.
3. Umumiy mulknı turlarini sanab bering.
4. Umumiy mulkdan ulush ajratishga misol keltiring.
5. Birgalikdagi umumiy mulk deganda nimani tushunasiz?
6. Ulushli mulkdagi ulush qanday aniqlanadi?
7. Umumiy mulk huquqidagi ulushning shartnoma bo'yicha oluvchiga o'tish payti qachondan boshlanadi?
8. Undiruvni umumiy mol-mulkdagi ulushga qaratish deganda nima tushuniladi?
9. Imtiyozli sotib olish huquqi tushunchasiga izoh bering.
10. Birgalikdagi mulk bo'lgan mol-mulknı taqsimlash va undan ulush ajratish qanday amalga oshiriladi?

### 1-§. Ashyoviy huquq tushunchasi va turlari

Rim huquqi ildizlariga ega kontinental huquq tizimi tamoyillariga muvofiq, ashyoga nisbatan faqatgina bitta huquq «mulk huquqi» mavjud, boshqa huquqlar esa, to'liq huquqlar hisoblanmaydi, bular «boshqa ashyoviy huquqlar»dir. Ashyoviy huquqlarning qonunchilik modeli quyidagi elementlardan tashkil topadi.

**Birinchidan**, mulk tegishliligining bu shakli (mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar) va ularning tizimi (ashyoviy huquqlar turlari va ashyoviy huquqlar klassifikatsiyasi (turlarga bo'linishi));

**Ikkinchidan**, ashyoviy huquq subyektining obyektga bevosita ta'siri bo'yicha huquqdorligining mazmuni;

**Uchinchidan**, ashyoviy huquq obyektlarining huquqiy tartibi;

**To'rtinchidan**, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning vujudga kelish va bekor bo'lish asoslari hamda usullari;

**Beshinchidan**, ashyoviy huquqlarni himoya qilish fuqarolik-huquqiy usullari va ularning kafolatlari.

Ushbu elementlarga taalluqli FK normalari boblar bo'yicha quyidagi tuzilishni hosil qiladi: umumiy qoidalar, xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi, mulk huquqini vujudga kelish va bekor bo'lishi, xususiy mulk, ommaviy mulk, umumiy mulk, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni himoya qilish.

Ashyoviy huquq institutining umumiy qurilishi va ashyoviy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning tahlili mamlakatimizda ashyoviy huquqlar to'g'risidagi qonun normalariga nisbatan bir qator salbiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi.

**Birinchidan**, FKning 2-bo'limi ma'muriy qoidalar ta'sirini kamaytira olmagan. Buning natijasida ashyoviy huquqlar ommaviy huquq ta'sirdan yetarli darajada himoyalanmagan.

**Ikkinchidan**, mazkur bobning 12 moddasidan faqatgina bittasi, 165-modda haqiqatan ham umumiy me'yorlarni ifodalaydi. Bu o'rinda ashyoviy huquqlar to'g'risidagi umumiy qoidalarga yaqqol misol Yaponiya Grajdanklik kodeksi bo'lib, undagi ashyoviy huquqlar haqidagi umumiy qoidalar bobi haqiqatan ham barcha ashyoviy huquqlar uchun xos bo'lgan umumiy qoidalarni mustahkamlaydi

**Uchinchidan**, FKning 165-moddasidagi ashyoviy huquq turlari boshqa qonunlarga havola etilgan namunaviy turlari bo'lib, hali ashyoviy huquqlarning qat'iy belgilari o'rnatilmagan.

Ashyoviy huquqlarning mavjud ro'yxati ashyoviy huquqlarning kontenental huquq oilasiga mansubligini xarakterlaydi, garchi turli milliy huquq tizimlarida bir xil bo'lmas-da.

**To'rtinchidan**, ashyoviy huquq normalari juda noqulay joylashgan. Ya'ni, ashyoviy huquqlar tizimida servitutlar umumiy qoidalarda ifodalangan bo'lsa, xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi mulk huquqiga oid bo'lgan bobda, garov majburiyat huquqi bobida uy-joy va tabiiy resurslarga nisbatan ashyoviy huquqlar esa, FKdan tashqarida (o'zga qonunlarga havola qilish orqali) ifodalanganki, bu holat ashyoviy huquqlar qurilishini buzadi.

**Beshinchidan**, FKda ashyoviy huquqlar subyekt (fuqarolar, unitar korxonalar)ni yoki obyekt (yer uchastkasi, uy-joy) ni ko'rsatish orqali ifodalanadiki, bu xalqaro yuridik esperanto (tilshunoslik) ni tashkil etuvchi sivilistikaning an'anaviy atama (uzus, uzufukt, emfitevzis, xabitatsio, superfitsiy)larga xos bo'lmagan jumlar orqali bayon etilishiga sabab bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ashyoviy huquqlar deganda ashyoviy huquqlar tizimini, ular subyektlarining vakolatlari mazmunini va obyektlarning huquqiy tartibi (rejimi)ni, ularning vujudga kelish va bekor bo'lish asoslarini, shuningdek, ashyoviy huquqlarni himoya qilish usullari va kafolatlarini mustahkamlovchi normalar yig'indisi tushuniladi.

**Subyektiv ma'nodagi ashyoviy huquqlar.** Odatda, mulk ikki xildagi munosabat orqali ifodalanadi:

**birinchidan**, vakolatli shaxs bilan obyekt o'rtasidagi bog'liqlik;

**ikkinchidan**, vakolatli shaxs hamda o'zga shaxs o'rtasidagi bog'liqlik.

Tovar muomalasida bu bog'liqlik shaxsning obyektga bevosita huquqi ma'nosida tushuniladi, yoxud bevosita huquqiy bog'lanishda bo'lgan shaxsga nisbatan talab qilish huquqidir.

Agar birinchi holatda shaxsning huquqi obyektga bog'liq holda amalga oshirilsa, ikkinchi holatda, shaxsning o'ziga bog'liq bo'lgan obyektga nisbatan shaxsiy majburiyati asosida amalga oshiriladigan harakatlari natijasida mavjud bo'ladi. Bunday bo'linishning huquqiy oqibati shunda ko'rinadiki, birinchi vaziyatda subyektning huquqi barchaga va har kimga qarshi qaratilgan va barcha hamda har kim uchun ahamiyatli (erga omnes); huquq predmeti obyektning o'zida ifodalanar ekan, da'vo orqali himoya, birinchi navbatda, obyektga nisbatan huquqni tiklashga qaratiladi. Ikkinchi vaziyatda esa, huquq faqatgina bajarilishi huquq predmetini tashkil etadigan harakatni amalga oshirish majburiyatini bergan muayyan subyektga qaratiladi. Shuning uchun ham bu yerda da'vo orqali himoya qilish qarzdorda bo'ladi hamda agar majburiyat ijro etilmaganda, so'z zararni undirish to'g'risida bo'ladi.

Huquqiy munosabatlarning ikki turini ifodalovchi Birling Konvensiyasining bunday uyg'unlashuvi birinchi holatda huquq predmeti sifatida obyektning o'zida ifodalansa, ikkinchi holatda esa, majburiyat obyektga qaratilgan bo'ladiki, bu huquqni mutlaq va nisbiyga ajratish imkonini beradi.

Ashyoviy huquqiy munosabatlar, odatda, obyektiv munosabatlar sifatida xarakterlanadi, ya'ni: barcha uchinchi shaxslar mutloq huquqni buzishdan tiyilishlari lozim. Ushbu qoida asosida ko'pchilik sivilistlar mutloq huquqning belgilaridan kelib chiqib, ashoviy huquq tushunchasini berishga harakat qiladilar.

Bunda shu holatni hisobga olish lozimki, birinchidan, huquqiy munosabatni mutloq va nisbiy turlarga bo'linishga shartli xarakterga egaligi munosabati bilan amaliyotda har doim ham

qo'llab-quvvatlanmaydi. Zero, nisbiy huquqiy munosabatlarda vakolatli shaxsning huquqlarni buzishdan tiyilish majburiyati nafaqat u bilan shaxsiy munosabatlar asosida bog'langan muayyan kontragent zimmasida balki, har qanday uchinchi shaxs zimmasida ham bo'ladi. Ikkinchidan, ashyoviy huquqlarga nisbatan mutloq huquqlar kengroq mezon hisoblanadi. Shu bilan birga, hamma ashyoviy huquqlar ham mutloqlik kasb etmaydi (masalan, zakalat).

Subyektiv ashyoviy huquqlarning yuqorida ko'rsatilgan ikki tomoni (ashyoga ko'rsatiladigan ta'sirning bevositaligi va uchinchi shaxslarning bunday harakatlarni amalga oshira olmasliklari) ashyoviy huquqlar xarakteristikasi uchun yetarli emas. Ashyoviy huquq va majburiyat huquqining cheklanganligi, ularning o'zganing mulkiga nisbatan amalga oshirilishida umumlashadi. Shu munosabat bilan FKning 165-moddasida ko'rsatilgan belgilar yetarli bo'lmaydi. Shu bilan birga, bunday taqsimlanish kontinental huquqda shunisi bilan ahamiyatliki, bunday taqsimlanish fuqarolik huquqining tegishli institutlarini ajratilishi munosabati bilan aniqlash imkonini vujudga keltiradi. Xususan, FK 2-moddasining birinchi qismi fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarni ko'rsata turib, ashyoviy huquqlar va majburiyat huquqlarini bir-biridan ajratadi va qarama-qarshi qo'yadiki, FKning 2 va 3-bo'limlari shu asosda nomlanadi.

Shunday qilib, subyektiv ma'nodagi ashyoviy huquq deganda, vakolatli (huquqdor) shaxsning manfaatlarini uning xo'jalik hokimiyati ostida bo'lgan o'z ashyosiga bevosita ta'sir etish yo'li bilan va boshqa shaxslarning bunday ta'sir etishini cheklash asosida qondirish tushuniladi.

Agar subyektning obyektga munosabatini anglatuvchi bevosita ta'sir ashyoviy munosabatlarning moddiy tomonini ko'rsatsa, mol-mulkning xo'jalik muomalasidagi o'rnini belgilovchi, boshqa shaxslarning bunday ta'sirdan mahrum etilganligi shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy tizimini ko'rsatadi.

Ashyoviy huquqlarni ajratish maqsadida sivilistikada ularning quyidagi belgilari sanab o'tiladi:



Individual belgilangan (xususiy alomatli) ashyoga bevosita yo'naltirilganlik, qat'iy belgilangan yuridik mazmun va vujudga kelish usullari, muddatsizlik xarakteri, davomiylik huquqi, ashyoviy-huquqiy talablarni imtiyozli qondirish, raqobatda ustunlikka ega bo'lish huquqi, himoyaning ashyoviy huquqiy usullari, shuningdek, ularning mutloq huquq sifatidagi boshqa o'ziga xos belgilari<sup>11</sup>.

Hozirgi zamon tadqiqotchilari tomonidan ashyoviy huquqlarni ushbu «o'ziga xos» belgilarini doimiy tahlil qilish natijasida, ularning har biri shartlilik kasb etishi aniqlangan. Ya'ni, milliy qonunchilikda yuqorida sanab ko'rsatilgan ashyoviy belgilar mavjud bo'lmagan holda ashyoviy huquqqa ega shaxslar hamda majburiyat belgilari zimmasida bo'lmagan, lekin majburiyat huquqiga ega shaxslarning huquqiy holati ifodalangan. Bu holatlar adabiyotlarda majburiyat huquqi va ashyoviy-huquqiy unsurlarning o'zaro kirishish an'analari sifatida va aralash ashyoviy – majburiyat huquqining vujudga kelishi sifatida qayd etiladi

Shu bilan birga bunday ilmiy-tadqiqot kuzatishlari ashyoviy huquqiy va majburiyat huquqiy institutlar chegarasini buzmasligi kerak. Agar qonun bunga yo'l qo'ygan bo'lsa-da.

Bunda gap milliy qonunchilikning u yoki bu subyektiv huquqqa barchaga qarshi turish xususiyati (mulk bilan ketma-ket turuvchi imtiyozli ashyoviy huquq)ni beradimi yoki yo'qmi, hamda bunday huquqning huquqiy–ashyoviy tabiatini tan olishning yuridik oqibati nimada ekanligidadir. Zero, ashyoviy huquqlarning bahssiz belgilari mavjud bo'lsa-da, inchunun ashyoviy huquqlarning mutloq himoyasi to'g'risidagi me'yorlarni qo'llashda yagona asos kontinental huquq tizimi uchun xos bo'lgan ularning qonun bilan qat'iy belgilangan (yopiq) ro'yxatidir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi FK 165-moddasi ashyoviy huquqlarning taxminiy ro'yxatini mustahkamlaydi hamda shu

---

<sup>11</sup> Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. Общие положения. – М.: Статут. 1997. – С. 222–237; Ефимова Л.Г. Указ. соч. С. 35–44; Вещные права в Республике Казахстан. – С.7–25, 164–171.

asosda «mulk huquqi bilan bir qatorda, xususan quyidagilar ashyoviy huquqlar hisoblanadi iborasining belgilanishi bu normaning yopiq qonun emasligini ko'rsatadi. Ya'ni,

Birinchidan, ashyoviy huquqlarning yuridik mazmuni va vujudga kelish usulining qat'iy belgilanganligini to'liq inkor etadi hamda Kodeksda ashyoviy huquqlarning standart tarzda ifodalanishi ashyoviy huquqlarni taraflar erkin ravishda tuzadigan majburiyat huquqidan farqlashi lozim.

Ikkinchidan, amaliyotda huquq ashyoviy va majburiyat turlariga bo'linmaydi.

Ashyoviy huquqlarning majburiyat huquqidan farqlari mutloq himoya vositasi sifatida ashyoni majburiy topshirishni qo'llash imkoniyatini belgilamaydi. Farq shundaki, mulkka nisbatan vakolatli barcha shaxslarga huquq qay darajada qarshi qo'yilishi mumkinligi bilan belgilanadi. Huquqning ashyoviy ekanligini tan olish, e'tirof etishning yuridik kuchi – bu huquqning mulkdorga qarshi qo'yilganligi bilan o'lchanmaydi. Chunki, majburiyat huquqi ham mutloq himoyadan foydalanishi mumkin (FKning 331-moddasi). Huquqning bunday ta'siri majburiyat huquqi va vaqt bo'yicha amal qiluvchi bir turdagi huquqlarda imtiyozli himoya ko'rinishida namoyon bo'ladi.

**Ashyoviy huquq turlari.** Fuqarolik kodeksi ashyoviy huquq jumlasiga quyidagilarni kiritadi: mulk huquqi, xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi, meros qilib qoldirilgan yer uchastkasiga egalik qilish, yer uchastkasidan umrbod egalik qilish va foydalanish huquqi, servitutlar (FKning 164–165-moddalari). Bu ro'yxat «xususan» atamasiga binoan ifodalangan, shuningdek, FKning 2-bo'limida ifodalangan yana qanday huquqlar ashyoviy huquqlar tarkibiga kiradi degan savol tug'iladi.

FKning 165-moddasida «qat'iy» ifodalangan ashyoviy huquqlarga «taxminiy» quyidagi huquqlarni keltirish mumkin: daromad keltiradigan faoliyatni amalga oshirishdan keladigan foydani mustaqil tasarruf etishni ta'sis etish huquqi (FK 180-moddasining ikkinchi qismi), ipoteka va zakalat ko'rinishidagi garov (FKning 265-moddasi), ushlab qolish (290-modda), mulkdor oila a'zolarining huquqlari, shuningdek, uy-joydan foydalanib,

mulkdor bilan birga doimiy yashovchi fuqarolarning huquqlari (1998-yil 24-dekabrda Uy-joy kodeksining 32-moddasi) va uy-joy kvartirani umrbod ta'minlash sharti bilan berish shartnomasi bo'yicha (FKning 530–534-moddalari) yoxud merosdan voz kechish asosida (Uy-joy kodeksining 121–123-moddalari), sotib olish sharti bilan ijara huquqi (FKning 556-moddasi, 541-modda va Uy-joy kodeksining 89-moddasi, kooperativ a'zosining kooperativdagi kvartirani sotib olishgacha bo'lgan huquqi (Uy-joy kodeksining 100–101-moddalari), shuningdek, muddatli boshqaruv (FKning 187-moddasi). O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, ashyoviy huquqlarning taxminiy ro'yxati bahslidir.

Sivilistikada garov va ijaraning turlarining ashyoviy huquqlarga taaluqliligi xususida ko'plab tortishuvlar mavjud.

Amalda barcha mashhur ashyoviy huquq klassifikatsiyalari mulk huquqi egalik bilan bir xil darajada uning chegarasidan tashqarida bo'lishidan kelib chiqadi. Lekin ularning barisi mukammal emas, huquq subyektlari (davlat, unitar korxonalar, fuqarolar) va obyekt turlari (yer, uy-joy) ga nisbatan qat'iy qaramlikka yo'l qo'yadi. Shu bilan birga, ashyoviy huquq mazmuni huquqni belgilovchi ushbu parametr yoki kriteriyalarga eng kam asoslanishi kerak.

Mulk huquqining o'zinikiga nisbatan, boshqa ashyoviy huquqlarning begona mulkka nisbatan, amalga oshirishning shubhasiz fakti sivilistlarning ashyoviy huquqlar turining bo'linishi va mulk huquqining ularning tizimida markaziy figura deb hisoblashga doir kam uchraydigan yakdillikni ta'minladi. Bunday birlamchi dixotomiyaga o'z xayrixohligini qonun chiqaruvchi ham FKning 2-bo'limida bildirdi, shuningdek, bir vaqtning o'zida mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquq bitta obyektga nisbatan birlashishi mumkin emasligiga nisbatan ham munosabat bildirgan. Tasnifning birinchi bosqichini bo'linish kriteriysi shaxsning mulkka munosabati bo'lgan juftlik hosil qiladi:

- mulk huquqi;
- boshqa ashyoviy huquqlar;

ikkinchi bosqichda mulk huquqi, mulkdorning ashyoga bo'lgan cheklangan huquqlari mavjud yoki yo'qligiga qarab;

– to‘liq;

– yuklangan huquqlarga bo‘linadi.

Boshqa ashyoviy huquqlar mulk huquqi bilan raqobatlashadi va unga hamrohlik qiladi yoki qarshi turadi, ya‘ni mulk huquqiga nisbatan pozitiv yoki negativ huquqlarni hosil qiladi.

uchinchi bosqichda pozitiv huquqlar (ashyodan foydalanish huquqlari), begona mulkga ta‘sir darajasi va ulardan keladigan hosil yoki daromadning taqdiriga qarab quyidagilarga bo‘linadi:

– servitut huquqlari – ularga servitutlar (FK, 173-m.), mulkdor oilasi a‘zolari va ular bilan doimiy yashovchi fuqarolarning turar joydan foydalanish huquqi (Uy-joy kodeksi, 32-m.); turar joyni begonalashtirish shartnomasiga ko‘ra turar joydan umrbod foydalanish huquqi, umrbod ta‘minlash sharti bilan (FK, 530-534-m.) yoki meros qoldirish orqali undan voz kechish (Uy-joy kodeksi, 121–123-m.). – foydalanish huquqlari, ular o‘z ichiga xo‘jalik yuritish va operativ boshqaruv huquqlari (FKning 176–181-m), yerdan meros qoldirish huquqi bilan doimiy foydalanish, doimiy foydalanish va yer uchastkasidan foydalanish huquqlari (Yer kodeksi, 19, 20-m), muassasaning daromad keltiruvchi faoliyatini amalga oshirib, olingan foydani mustaqil tasarruf etish huquqi (FK, 180-m).

Negativ huquqlar (ashyoni qaytarib olish huquqlari), o‘zganing mulkiga nisbatan real hokimiyat o‘rnatishga yoki undan kompensatsion boylik olishga qaratilganligiga qarab, quyidagilarga bo‘linadi:

– egallash huquqi, unga muddatli egalik (FKning 187-moddasi), keyinchalik sotib olish bilan ijara huquqi (FK 556-m, Uy-joy Kodeksining 41, 89-m), shirkat a‘zosining sotib olishgacha shirkat kvartirasiga bo‘lgan huquqi (Uy-joy Kodeksining 99-m).

– garov huquqi, u zakalat, ipoteka shaklidagi garovga qo‘yish huquqlari (FKning 265-m) va ushlab qolishdan (FKning 290-m) iborat.

## 2-§. Xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi

Fuqarolik huquqlarini amalga oshirishda har bir huquq sohibi o'ziga tegishli huquqlarga o'z xohish irodasiga ko'ra asoslanadi. Bu esa, o'z navbatida, subyektiv huquq bilan bog'liq barcha masalalar, shu jumladan, ularning amalga oshirish hajmi va usullari, shuningdek, subyektiv huquqdan voz kechish, huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish, huquq sohibining erkiga ko'ra hal etilishini bildiradi<sup>1</sup>.

Davlat mulk huquqini amalga oshirish ham davlat va uning vakolatli organlarining subyektiv fuqarolik huquqlari bo'lib, ular ham FKning 9-moddasiga muvofiq fuqarolar va yuridik shaxslar kabi o'zlariga tegishli bo'lgan fuqarolik huquqlarini, shu jumladan, ularni himoya qilish huquqini o'z xohishlariga ko'ra tasarruf etadilar. Shunday ekan, davlat ixtiyoridaagi mol-mulknini boshqarish, ulardan foydalanish va mulk huquqini amalga oshirish bilan bog'liq boshqa harakatlarning sodir etilishida turli-tuman mulk egasi hisoblangan va bir qancha organlar orqali o'z faoliyatini yuritadigan davlatning vakolatlari nimalardan iborat bo'ladi? – degan savol tug'iladi. Zero, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida davlat mulkini amalga oshirish masalasi jiddiy ahamiyat kasb etadi. Bunday jiddiylik quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Davlat mulk obyektlarining xilma-xilligi ularga nisbatan mulk huquqini amalga oshirishda turli usul va vositalar qo'llashni talab etadi. Masalan, tabiiy resurslarga nisbatan o'zgacha, (masalan, davlatning bevosita o'zi tomonidan yoki uchinchi shaxslarga konsessiya berish orqali<sup>2</sup>) usullar orqali mulk huquqi amalga oshirilsa, davlat muassasalarida operativ boshqaruv va h.k;

---

<sup>1</sup> Гражданское право: Учеб.: В 3т. Т.1. – 6-е изд., перераб. Г 75 и доп./ Н.Д. Егоров, И.В. Елисеев и др.; Отв. Ред. А.П. Сергеев, Ю.К. Толстой. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект. 2003. – 315 с

<sup>2</sup> Хамроев С. О'zbekistonda tabiiy boyliklardan foydalanish shartnomalari (konsessiya)ning huquqiy tartibga solinishi. – Т.: NPO Vostok. 1999. 3–24-b.

2. Muayyan mol-mulkni boshqarishda va o'ziga birlashtirilgan mulkka nisbatan mulk huquqini amalga oshirishda har bir davlat organi o'z faoliyatining yo'nalshidan kelib chiqib, turli vakolatlarga ega bo'ladi. Bu esa davlat mulk huquqini amalga oshirishning murakkab jarayon ekanligidan dalolat beradi;

3. Xalq va jamiyat manfaatlari davlat mulk huquqini amalga oshirishda ustuvor, eng muhim va birlashtiruvchi vazifa hisoblanadi. Har qanday holatda ham davlat va u vakolat bergan boshqa shaxslar davlat mulk huquqini xalq va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib amalga oshirishlari lozim bo'ladi;

4. Davlat mulk huquqini amalga oshirish usul va vositalari fuqarolik-huquqiy ahamiyat kasb etishi bilan birga, ma'muriy-huquqiy ahamiyatga ham ega bo'ladi. Zero, davlat hamma vaqt hokimiyat organi sifatida muayyan tartib va qoidalarga asosan faoliyat yuritadi;

5. Davlatning fuqarolik huquqida o'ziga xos subyekt ekanligini hisobga olgan holda, mulk huquqini amalga oshirishda ham o'ziga xosliklarga ega, degan xulosaga kelish mumkin va bu o'ziga xoslik davlat o'z mulk huquqini amalga oshirish jarayonida kuzatiladi;

6. Davlat o'ziga tegishli mulk huquqini sof subyektiv huquq sifatida amalga oshira olmaydi. Chunki davlat obyektiv normalar yaratuvchisi sifatida subyektiv huquqni to'liq va bevosita amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

Ushbu holatlardan kelib chiqib, mulk huquqini amalga oshirishda davlat mulkdor shaxs kabi o'ziga tegishli mol-mulkni bevosita o'zi (davlat hokimiyati organlari, munitsipal organlar) va o'zi tashkil etgan yuridik shaxslari orqali boshqarishini ta'kidlab o'tish joiz.

Birinchi holatda (ya'ni, davlatning mulk huquqi bevosita amalga oshirilganda) davlat organlari davlatning yuridik shaxslarga birlashtirilmagan mol-mulkiga nisbatan egallash, foydalanish va tasarruf etish huquqlarini amalga oshirsalar, ikkinchi holatda, davlat tomonidan tashkil etilgan yuridik shaxslar o'zlariga muayyan maqsadni amalga oshirish uchun birlashtirilgan mol-mulkka nisbatan davlat mulk huquqini bevosita

amalga oshiradilar. Bunda ushbu yuridik shaxslar bir vaqtning o'zida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o'z nomidan ishtirok etishini hisobga olib, qaysi vaqtda ular davlat mulk huquqini, qaysi vaqtda esa o'zlarining mulk huquqini amalga oshirishlarini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Hozirgi kunda davlat mulk huquqi davlat mulki birlashtirib qo'yilgan yuridik shaxslar (davlat tomonidan tashkil etilgan, erkin fuqarolik-huquqiy munosabatlarning mustaqil ishtirokchisi bo'ladigan subyekt) va davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Zero, FK 214-moddasining uchinchi qismiga muvofiq Respublika mulki bo'lgan davlat mol-mulki davlat yuridik shaxslariga xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida birlashtirib qo'yilishi mumkin.

Shu munosabat bilan amaliyotda davlat mulk huquqini amalga oshirishning ikki asosiy shakli mavjud bo'lib, ular xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqidir.

Umuman olganda, xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi sobiq sovet huquqidagi davlat mulkini boshqarishning o'ziga xos shakli sifatida vujudga kelgan. Zero, sobiq Ittifoq davridagi mulkiy munosabatlarning davlat mulki bilan chambarchas bog'liqligi, markazlashgan boshqaruv va ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan davlatda mulkni boshqarishning o'zga maqbul usulini tanlashning imkoni ham mavjud edi.

Operativ boshqarish huquqi fuqarolik-huquqiy va ma'muriy-huquqiy unsurlarni o'zida qamrab olgan aralash xarakterli huquqdir<sup>1</sup>.

Operativ boshqarish huquqi ashyoviy huquqlar tizimiga kirmaydi. Bu huquq mulkdor davlatning o'z organlari mol-mulkini birlashtirib, uni boshqarish, undan foydalanish tartibi va shartlarini belgilovchi huquqdir. Operativ boshqarish huquqi mutlaq huquq hisoblanmaydi.

Operativ boshqarish huquqida davlat korxonasi va muassasasiga birlashtirilgan mol-mulkini boshqarishga nisbatan

---

<sup>1</sup> Толстой Ю.К. Основы гражданского-правового законодательства -- М.: 1964, 59-63-с.

har qanday farmoyish faqatgina mulkdorning roziligi bilan amalga oshiriladi, bunday mol-mulkning ortiqcha qismi yoki foydalanilmayotgan qismi mulkdor tomonidan olib qo'yilishi mumkin. Bunda davlat o'ziga tegishli korxonalar yoki muassasaga birlashtirilgan mol-mulkka nisbatan to'liq ashyoviy huquqlarni saqlab qoladi, bunga qo'shimcha ravishda majburiyatlari yuzasidan mol-mulk bilan javobgarlikni ham o'zi tashkil qilgan yuridik shaxslarga yuklaydi<sup>1</sup>.

Ushbu fikrlarning har biri turli nuqtai nazardan bildirilgan bo'lib, muayyan ma'noda to'g'ri hisoblanadi. Lekin ularning barchasi operativ boshqarish huquqini davlat mulk huquqini amalga oshirish usuli sifatida emas, davlat organlari, muassasalari va korxonalarining mulkiy huquqi sifatida tushuntirishga harakat qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 178-moddasiga muvofiq, davlat korxonasi, shuningdek, muassasasi o'zlariga birlashtirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan qonunda belgilab qo'yilgan doirada, o'z faoliyatining maqsadlariga, mulkdorning topshiriqlariga hamda mol-mulkning vazifasiga muvofiq holda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlarini amalga oshiradilar. Aynan ana shu amalga oshiriladigan huquqlar davlatga tegishlidir. Davlat o'ziga tegishli mol-mulkni va unga nisbatan mulkiy (ashyoviy) huquqlarni o'z organiga yoki o'zi tashkil etgan yuridik shaxsga topshirar ekan, ularni amalga oshirishga nisbatan bir qator talablarni belgilaydi.

### **Bunday talablar jumlasiga:**

- qonunda belgilab qo'yilgan doirada harakat qilish;
- o'z faoliyatining maqsadlariga ko'ra mulkiy huquqlarni amalga oshirish;
- mulkdor (davlat) ning topshiriqlariga amal qilish;
- mol-mulkning vazifasini hisobga olgan holda, unga nisbatan huquqlarni amalga oshirish.

---

<sup>1</sup> Арипджанов У.А. Право собственности в системе внешних прав. Автореф. Дисс. к.ю.н. – Т.: 2000. – С. 22.



Davlat mulk huquqini amalga oshirishda qonunda belgilangan doira-davlat yuridik shaxslarining davlat mulk huquqini amalga oshirish yuzasidan ularga berilgan huquq va majburiyatlar hajmiga asoslaniladi. Bunday huquq va majburiyatlar yuridik shaxs (davlat korxonasi va davlat muassasasi) ning Ustavi yoki Nizomida belgilanadi. Ustav yoki Nizom mulkdor (davlat) tomonidan tayyorlanadi va davlatning vakolatli organi (Adliya vazirligi) tomonidan ro'yxatga olinadi. Davlat korxonasi va davlat muassasasi davlat mulk huquqini amalga oshirishda ana shu huquq va majburiyatlar doirasida harakat qilishlari kerak.

Agar operativ boshqarish huquqi berilgan davlat korxonasi yoki muassasasi davlat mulk huquqini amalga oshirishda o'z vakolatlari doirasidan chetga chiqsa, u holda mulkdor o'z mulkiy huquqlarini amalga oshirish huquqini o'z zimmasiga olishi mumkin.

Ma'lumki, davlat korxonasi va muassasasiga mulk muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladi. Har qanday hollarda ham operativ boshqarish huquqidan foydalanayotgan davlat yuridik shaxslari mulkdan o'zlarining faoliyat maqsadlari yo'lida foydalanishlari va mulkiy huquqning boshqa elementlarini amalga oshirishlari lozim.

Agar ta'sis hujjatlariga muvofiq muassasaga daromad keltiradigan faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilgan bo'lsa, bunday faoliyatdan olingan daromadlar bu daromadlar hisobidan sotib olingan mol-mulk muassasaning mustaqil tasarrufiga o'tadi va alohida balansda hisobga olib boriladi (masalan, davlatga qarashli oliy o'quv yurti kafedrasini tomonidan shartnoma asosida tadqiqotlar o'tkazilib, ishlab topilgan mablag'lar xuddi shunday tartibda tasarruf qilinadi).

Operativ boshqarish orqali davlat mulk huquqini amalga oshirayotgan davlat korxonasi yoki muassasasi mulkdorning, ya'ni davlatning topshiriqlarini bajarishi lozim. Zero, mulkdor – davlat bu holatda fuqarolik huquqining boshqa mustaqil subyektini bilan emas, o'zining mol-mulki asosida faoliyat yuritayotgan va davlatning mulk huquqini amalga oshirayotgan subyekt va qolaversa, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o'z mulki hisoblangan korxonasi, muassasasi yuzasidan har qanday qonuniy

topshiriqni berishga haqli. Bunda davlat o'z mol-mulkiga nisbatan mulkiy huquqning istalgani yuzasidan topshiriq bera oladi. Aynan davlatning ana shunday topshirig'i uning o'z mulk huquqini bevosita amalga oshirish hisoblanadi. Zero, mulkdor o'z mol-mulkingning yagona xo'jayini va o'z ashyosining mulkdori sifatida o'z xohish – irodasi asosida mulk huquqini amalga oshiradi.

FKning 179-moddasiga muvofiq davlat korxonasi o'ziga birlashtirib qo'yilgan mol-mulkni mulkdorning roziligi bilangina boshqa shaxsga berishga yoki uni boshqacha usulda tasarruf etishga haqli. Ko'rinib turibdiki, operativ boshqarish huquqi mulkdorning o'z mulk huquqini to'liq ravishda o'z korxonasiga topshirish holati emas.

Agar operativ boshqarish huquqi asosida o'tishi lozim bo'lgan ashyoviy huquqlarning nisbatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mulkni egallash huquqi davlat korxonasi yoki muassasasiga to'liq o'tkazilishini, foydalanish huquqi ham egalik huquqi kabi to'liq o'tkazilsa-da, bu huquqning amalga oshirilishi mulkdor tomonidan nazorat etilishini (FK 178-moddasining ikkinchi qismi), tasarruf etish huquqi esa to'liq mulkdorning o'zida saqlanib qolishini ko'rish mumkin. FKning 180-moddasiga muvofiq, muassasa o'ziga birlashtirib qo'yilgan mol-mulkni boshqa shaxsga berishga yoki o'zgacha usul bilan tasarruf etishga haqli emas.

Garchi FK 178-moddasining birinchi qismi davlat korxonasi va muassasasi bir necha shartlar asosida mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqini amalga oshirishni bayon etsa-da, bu shartlar asosida ustuvor o'rinni mulkdorning topshirig'i egallaydi. Qolaversa, 178-moddada belgilangan barcha shartlar davlat korxonasi va muassasasining operativ boshqarish huquqi asosida oladigan ashyoviy huquqlariga nisbatan cheklov hisoblanadi.

Davlat korxonasi va muassasasiga birlashtirilgan mol-mulkning vazifasi uning xo'jalik faoliyatida tayinlanish maqsadi bilan aniqlanadi. Masalan, Oliy ta'lim muassasasida stol-stullar talabalar dars jarayonida o'tirishlari uchun foydalaniladi yoki

kompyuter vazifasi davlat korxonasi yoki muassasasining o'z faoliyatini amalga oshirishda xizmat qilish hisoblanadi.

Umumiy qoidaga ko'ra, operativ boshqarish huquqi davlat korxonalari (FKning 72-moddasi) va muassasalariga beriladi. Bular jumlasiga, madaniy, ma'rifiy, oqartuv, ta'lim, maorif, boshqaruv sohasida faoliyat yuritadigan davlat muassasalari va tashkilotlari kiradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, operativ boshqarish huquqi sobiq sovet huquqining davlat mulkini boshqarishdagi o'ziga xos usuli sifatida vujudga kelgan va asosan sotsialistik prinsiplar (xususiy mulkka yo'l qo'yilmasligi, rejali boshqaruv, ma'muriy-buyruqbozlik, hududli ixtisoslashuv va boshqalar) ga tayangan holda amalda bo'lgan.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida talab va taklif, raqobat asosida shakllanadigan munosabatlarda operativ boshqarish huquqining amalda bo'lishi ancha bahsli masaladir.

Operativ boshqarish huquqi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hali korxonalarining asosiy qismi davlat mulki bo'lgan paytda kiritilgan<sup>1</sup>. Bunday korxonalar mulkdor bo'lmaganligi sababli, davlat mulkini ashyoviy huquqlarga (FKning 165-moddasi) muvofiq egallardi, foydalanardi va tasarruf etardilar. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi qabul qilinganidan so'ng o'tgan davr mobaynida ko'plab davlat korxonalari xususiylashtirildi. Bu jarayon hozirgi kunda ham jadal davom etmoqda.

Xo'jalik yuritish huquqi ham operativ boshqarish huquqi kabi davlat mulk huquqini amalga oshirish usuli hisoblanadi. Ma'lumki, xo'jalik yuritish huquqi operativ boshqarish huquqiga qaraganda ancha keyin paydo bo'lgan. Agar operativ boshqarish huquqi o'tgan asrning 40-yillarida nazariy jihatdan vujudga kelib, amaliyotda 60-yillarda qo'llanila boshlangan bo'lsa, xo'jalik yuritish huquqi 80-yillarning o'rtalaridan (ungacha to'la operativ boshqarish huquqi) amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda.

---

<sup>1</sup> Рахманкулов Х. Р. Гражданское право. Учебник. – Т., ТГЮИ, 2010. – С. 521.

Xo'jalik yuritish huquqi 1963-yilgi O'zbekiston SSRning Grajdanklik kodeksida o'z ifodasini topmagan. Davlat mulkini amalga oshirishning bu usuli sobiq Ittifoqdagi qonunosti hujjatlari bilan tartibga solingan.

Shu o'rinda davlat mulk huquqini amalga oshirishning usullari hisoblangan xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqining o'xshash va farqli jihatlari to'g'risida to'xtalib o'tish lozim.

### **Ushbu huquqlarning o'zaro o'xshash jihatlari quyidagilarda ko'rinadi:**

- xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi sof ma'nodagi mulk huquqi emas, balki davlat mulk huquqini amalga oshirish shaklidir;

- ikkala holatda ham davlat o'zining mulkiy huquqlari tarkibiga kiruvchi huquqlarning ma'lum bir qismini beradi;

- xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqlari mulkiy huquqning cheklanishi bilan bog'liq;

- mulk huquqining asosiy elementi-tasarruf etish elementi har doim mulkdorda qoladi.

Xo'jalik yuritish huquqi operativ boshqarish huquqdan farqli tomonlari quyidagilarda nomoyon bo'ladi:

- xo'jalik yuritish huquqi operativ boshqarish huquqidan farqli ravishda, odatda, davlatning tijoratchi yuridik shaxslariga beriladigan huquqdir. Masalan, davlat unitar korxonasi tijorat tashkilotidir (FKning 70-moddasi);

- xo'jalik yuritish huquqiga ega subyekt operativ boshqarish huquqiga ega shaxsga qaraganda davlat mulkini boshqarishda kengroq huquq va imtiyozga ega bo'ladi;

- xo'jalik yuritish huquqi asosida faoliyat yuritayotgan unitar korxonada davlat muassasasidan farq qilib, o'zining xo'jalik yuritishida bo'lgan mol-mulkni ishlatishdan kelgan foydaning bir qismini olish huquqiga ega(FK 177-moddasining ikkinchi qismi);

- xo'jalik yuritish huquqi asosida faoliyat yuritayotgan korxonada muassasadan farq qilib, o'z majburiyatlari yuzasidan mustaqil javobgar bo'ladi(FK 177-moddasining uchinchi qismi).

FKning 176-moddasiga muvofiq xo'jalik yuritish huquqi asosida ixtiyorida mol-mulk bo'lgan unitar korxonalar bu mol-mulkka ushbu Kodeksda belgilangan doirada egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.

Xo'jalik yuritish huquqining subyektlari (korxonalar) o'z ixtiyoridagi mol-mulkka nisbatan mulk egasi huquqlariga ega emaslar, lekin ular mulk egasi tuzgan tartib bo'yicha, ushbu mol-mulkdan faqat o'zlarining emas, balki mulk egasining ham manfaatlarini ko'zlab egallaydilar, undan foydalanadilar va uni tasarruf etadilar.

Xo'jalik yuritish huquqiga korxonalar o'z faoliyatini ommaviy shakldagi, ya'ni davlat va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish idoralariga tegishli mulk asosida amalga oshiradilar. Darhaqiqat, xo'jalik yuritish huquqi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining 1990-yil 31-oktabrdagi «Mulkchilik to'g'risida»gi Qonuni 10-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq, mahallada istiqomat qiluvchi aholi mulkining subyektidir. O'zi saylab qo'ygan organlar mahalla mulkini to'la xo'jalik yuritish asosida egallaydi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.

Garchi FK xo'jalik yuritish huquqi faqat davlat unitar korxonasiga tegishli, degan normani belgilamasa-da, amaliyotda mulkdorning mulk huquqini amalga oshirish usuli sifatida xo'jalik yuritish huquqi faqat davlat unitar korxonalariga nisbatan qo'llaniladi.

Ma'lumki, xo'jalik yuritish huquqi sobiq sovet huquqining mahsuli hisoblanadi va o'sha davrlarda faqat davlat mulkiga nisbatan ishlab chiqarilgan mulk huquqini amalga oshirish usuli sifatida tatbiq etilgan. Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan vujudga kelgan turli mulk shakllarida mulkdor o'z mulkiy huquqlarini amalga oshirishning boshqa o'zi uchun ko'proq foydali usullarini tanlaydi (masalan, ijara, ishonchli boshqarish, ishonchnoma va h.k.). Shu sababli xo'jalik yuritish huquqi hali-hanuz davlat mulkini amalga oshirish usuli sifatida faqat davlat korxonalariga tatbiq etilmoqda.

Ma'lumki, xo'jalik yuritish huquqi asosida birlashtirilgan mulkiy huquqlar turli ko'rinishda bo'ladi. Xo'jalik yuritish huquqida mulkiy huquqlar o'z mazmuniga ko'ra ikki qismdan iborat bo'ladi:

a) xo'jalik yuritish huquqi asosida korxonalar birlashtirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdorning huquqlari;

b) xo'jalik yuritish huquqi asosida o'ziga mol-mulk birlashtirilgan korxonalar bu mol-mulkka nisbatan huquq va majburiyatlarni amalga oshirishga haqli. Ya'ni, korxonalar qarashli mol-mulknini mustaqil tasarruf etadi.

FKning 177-moddasiga muvofiq, xo'jalik yuritishida bo'lgan mol-mulknining egasi qonunga muvofiq korxonalar tashkil etish, uning faoliyat sohasini va maqsadlarini aniqlash, uni qayta tashkil etish va tugatish masalasini hal qiladi, korxonalar direktori (rahbari) ni tayinlaydi, korxonalar qarashli mol-mulkdan belgilangan maqsadlarda foydalanilishi va uni saqlanishini nazorat qiladi, korxonalar xo'jalik yuritishida bo'lgan mol-mulknini ishlatishdan kelgan foydaning bir qismini oladi.

Mulkdorning ushbu huquqlari ayni vaqtda xo'jalik yuritish korxonalarining majburiyatlari hamdir. Shu munosabat bilan unitar korxonalar xo'jalik yuritish huquqi asosida o'ziga qarashli bo'lgan ko'chmas mulknini mulkdorning roziligisiz sotishga, ijaraga berishga, garovga qo'yishga, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining ustav fondiga hissa sifatida torshirishga yoki bu mol-mulknini boshqacha usulda tasarruf etishga haqli emas. Lekin operativ boshqarish huquqidan farq qilib, xo'jalik yuritish huquqida korxonalar o'ziga qarashli mol-mulknini mustaqil tasarruf etish huquqiga ega bo'ladi.

Xo'jalik yuritish huquqi o'z mohiyatiga ko'ra, ushbu huquq egasiga nisbatan bir necha talablar qo'yadi. Garchi xo'jalik yuritish huquqining sohibi mulkdorning roziligisiz korxonalar qarashli bo'lgan ko'chmas mulknini sotishga, ijaraga berishga, garovga qo'yishga, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining ustav fondiga hissa sifatida topshirishga yoki bu mol-mulknini boshqacha usulda tasarruf etishga haqli bo'lmasa-da, qonun yoki o'ziga me'yoriy hujjatlarda taqiqlanmagan hollarda

korxonaga tegishli ko'char mol-mulklarni mustaqil tasarruf etishga haqli bo'ladi.

Mulkdor xo'jalik yuritish huquqi bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar majburiyatlari uchun javobgar bo'lmaydi (FK 48-moddasining uchinchi qismi bundan mustasno).

Ma'lumki, unitar korxonalar xo'jalik yuritish huquqi asosida faoliyat yuritadigan subyektlarning tipik namunasi hisoblanadi. Xo'jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxonalar mulkdorning yoki u vakil qilgan organning qaroriga muvofiq tashkil etiladi va bunday unitar korxonalar o'z mol-mulklarining bir qismini xo'jalik yuritish uchun belgilangan tartibda topshirish yo'li bilan yuridik shaxs bo'lgan unitar korxonalar (sho'ba korxonalar) tashkil etishi mumkin. Bu holatda sho'ba korxonalarida unga berilgan mulkka nisbatan ikkilamchi xo'jalik yuritish huquqi vujudga keladi. Lekin ularning bir-biriga nisbatan javobgarligiga nisbatan FKning 48-moddasi qismi talablari qo'llaniladi.

Umuman olganda, davlat mulk huquqini amalga oshirishning bu shakli davlat mol-mulki asosida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxs va organlar mulklarining huquqiy maqomini belgilab beradi.

### **3-§. Meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi**

Meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga egalik qilish huquqi – bu ashyoviy huquqning bir turi bo'lib, fuqaroning belgilangan o'lchamdagi va qonunda nazarda tutilgan hollarda ehtiyojlarni qondirish maqsadida yer uchastkasiga nisbatan bevosita egalik qilish huquqidir.

Bunday ashyoviy huquq turi fuqarolarga ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun (dehqon xo'jaligi, bog'dorchilik, chorvachilik, milliy xalq hunarmandchiligi), shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun (turar joy, dala hovli qurish va ta'mirlash uchun) noxo'jalik faoliyat yuritish uchun berilishi va turar joyni meros sifatida qabul qilish bilan vujudga keladi. Meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqining obyekti beriladigan maqsadlardan kelib chiqib, o'lchami qonun

bilan tartibga solinadigan yer uchastkasi hisoblanadi. Meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqning subyekti-jismoniy shaxslardir. Shuni aytish kerakki, dehqon xo'jaligiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan tomorqa, yer uchastkalari xususiylashtirilishi va oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash obyekti bo'lishi mumkin emas. Ammo bu huquq kredit olish uchun garovga qo'yilishi mumkin.

#### **4-§. Yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi**

Yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va foydalanish huquqi qonunda yuridik shaxslarga berilib, u ham ashyoviy huquqlarning alohida turi sifatida ko'riladi. Yer kodeksining 17-moddasiga ko'ra, yuridik shaxslar yer uchastkasidan doimiy egalik qilish va foydalanish, muddatli, vaqtincha foydalanish, ijaraga olish huquqiga egadirlar. Bunday holatda yerdan foydalanish huquqi shartnomadan kelib chiqadi hamda mutloq himoya qilinadi. Bunda subyekt yuridik shaxslar bo'lib, obyekti konkret belgilangan yer uchastkasidir. Ushbu kodeksga ko'ra, yer uchastkasi ijara shartnomasi asosida muddatli, haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun quyidagilarga berilishi mumkin:

– O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga va yuridik shaxslariga;

– chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalariga, xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga.

Bunday ashyoviy huquq turida yer foydalanuvchilarga qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, diniy tashkilotlar, mudofaa ehtiyojlari uchun berilishi mumkin. Ular bunda belgilangan yer uchastkasida mustaqil xo'jalik yuritish huquqiga ega bo'lishadi, shuningdek, yetishtirilgan hosildan tushgan daromadlarni erkin realizatsiya qilish huquqiga ega bo'ladilar. Yer uchastkalari ellik yilgacha bo'lgan, lekin o'n yildan kam bo'lmagan muddatga ijaraga beriladi.



## 5-§. Servitut huquqi

Servitut haqida soʻz yuritganda, uning dastlabki vujudga kelishi Rim huquqi bilan bogʻliq hodisa ekanligini taʼkidlash lozim. Maʼlumki, Rim jamiyatida xoʻjalik hayotining keskin rivojlanib borishi, ijtimoiy va xoʻjalik munosabatlarining murakkablashishi va huquqiy madaniyatning oshib borishi Rim fuqarolik huquqining barcha institutlarini yanada rivojlanishiga va takomillashishiga olib keldi<sup>1</sup>. Shu sababli Rim huquqida mulk huquqi bilan bir qatorda subyektlari ashyo bilan toʻgʻridan toʻgʻri munosabatda boʻladigan va ayrim holatlarda boshqa uchinchi shaxslarni inkor etish imkoniyatiga ega maxsus ashyoviy huquqlar ham tan olingan va amalda boʻlgan.

Mulk huquqidan farqli oʻlaroq, maxsus ashyoviy huquqlarning predmeti mulk yoki ashyo emas, uning alohida vazifasi oʻzganing mulkidan cheklangan tarzda bevosita va toʻgʻridan toʻgʻri foydalanish hisoblanadi. Bu vazifadan hatto mulkdorning oʻzi ham (servitut huquqining obykti sifatida) foydalana olmasligi yoki aksincha, oʻzida mulkdor vakolatlaridan birining predmetini ifodalashi mumkin boʻlgan. Bunday holatda mulkdor mulk huquqini cheklayotgan maxsus ashyoviy huquq tugatilib, mulk huquqi toʻla shaklda tiklanmaguncha oʻz huquqlarida cheklanib qolaveradi.

Ashyoviy huquqni mulk huquqi bilan solishtirish sivilistkada maxsus ashyoviy huquqlarni cheklangan yoki qisman cheklangan ashyoviy huquq sifatida talqin qilinishining tarqalishiga oʻz taʼsirini oʻtkazdi. Ularning oʻziga xos xususiyati shundaki, mazkur cheklangan ashyoviy huquq mulkiy huquq bilan raqobatlasha olmaydi. Lekin shu bilan birgalikda boshqa shaxsning aynan shu mulkka yoki ashyoga egalik huquqi borligini nazarda tutadi.

Servitut huquqiga boʻlgan ehtiyojning zarurligi asosan xususiy mulk huquqining vujudga kelishi bilan ifodalanadi. Yanada aniqroq qilib aytadigan boʻlsak, ayrim yer maydonlari har doim ham undan foydalanishdagi zarur xususiyatlarga

---

<sup>1</sup> Новицкий И.Б. Римское право. Учебник. КноРус. – М., 2011. – С. 132.

ega bo'lavermaydi. Masalan, muayyan yer maydonida suv bo'lmaganligi sababli qo'shni yerdan ariq kovlab suv o'tkazishga ehtiyoj tug'iladi. Shuning uchun ham shu yerdan xo'jalikning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida qo'shni yer maydonidan qisman foydalanish huquqiga ega bo'lishga erishish kabi muammolari paydo bo'la boshlagan. Bunday muammolar yer jamoa mulki hisoblangan davrda osongina hal qilingan<sup>1</sup>.

Ammo xususiy yer mulkchiligi vujudga kelishi bilan yer-ning mulkdori qo'shni yerning egasiga yordam ko'rsatish majburiyatidan ozod bo'ladi. Shu tariqa o'zganing yer mulkidan servitut asosida foydalanish huquqini o'rnatishga zarurat paydo bo'la boshlagan. Servitutning mazmuni birovning mulkidan ma'lum maqsadlarda foydalanish huquqi yoki o'z mulkidan boshqalarning cheklangan tarzda foydalanishga imkon berishdan iborat.

Bir qator mutaxassislar, masalan, Z.I. Puxan va M.P. Aki-movskayalar cheklangan ashyoviy huquqlarni nazariy jihatdan mulkiy xususiyatlariga ko'ra uch guruhga ajratishadi:

- servitutlar;
- uzoq muddatli yer ijarasi shartnomasi;
- garov shartnomasi.

Ye.A. Suxanov esa cheklangan ashyoviy huquqlarni umumiy vazifalariga ko'ra quyidagicha tasniflashni taklif qiladi, mulkdorning mulkini boshqarish sifatida yuridik shaxslarning ashyoviy huquqlari, servitutga xos huquq (iste'mol maqsadlariga ko'ra mulkdan cheklangan tarzda foydalanish qanday bo'lsa, xo'jalik maqsadlariga ko'ra ham xuddi shunday) va yer mulkidan foydalanishga taalluqli bo'lgan ashyoviy huquqlar.

Uzoq muddatli yer ijarasi shartnomasi ikki turga emfitevzis (yunoncha «emphiteuzis» – «o'rnatmoq» degan ma'noni anglatadi) va superfitsiyga ajratiladi. Bu ikkala huquq uzoq muddatli yer ijarasi shartnomasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur huquqlarning servitut bilan o'xshash tomonlari shundaki, emfitevzis ham, superfitsiy ham o'zganing mulkidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi hisoblanadi. Ularning servitudan

---

<sup>1</sup> Новицкий И.Б. Римское право. – М., 2011. Кнорус. 2011. – С. 134.

ajralib turadigan xususiyatlari esa har ikkalasidagi huquqiy vakolatlar hajmining kengligi va muddati bilan belgilanadi. Yerga nisbatan shu ikkala huquqlardan birining o'rnatilishi aynan shu yerga o'rnatilgan mulk huquqining nomigagina saqlanib qolishini anglatadi.

Emfitevzis nihoyatda keng hajmga ega bo'lgan huquq bo'lib, ijaraga beruvchi o'z mulkini boshqarish huquqida jiddiy darajada cheklanadigan alohida umrbod ijaraviy ashyo huquqi hisoblanadi. Emfitevzis nizoli vaziyatlarda vindikadion da'vo usuli va pretor interdiktleri bilan himoya qilingan. Ijaraga olingan yerga jiddiy darajada zarar yetkazilishi, uch yil davomida ijara haqi to'lanmasligi va emfitevzis barham topgandan keyingina u yerga nisbatan mulk huquqi to'liq qayta tiklangan.

Servitut va uzufrukt o'rtasidagi farq haqida fransuz sivilist olimi Morandyer shunday yozadi: «Uzufrukt muayyan shaxs foydasiga xizmat qilib, shu asosda aynan shu shaxsni ko'char va ko'chmas mulkdan foydalanish va mulklardan hosil undirish vakolatini beradigan ashyoviy huquqdir. Servitut esa, muddati cheklangan ko'chmas mulkdan foydalanish sharoitiga ko'ra turli mazmunga ega bo'lgan shunga o'xshash boshqa mulkdan foydalanadigan va uning manfaatini ko'zlab o'rnatiladigan ashyoviy huquqlar hisoblanadi»<sup>1</sup>.

Ko'chmas mulk egasi qo'shni yer uchastkasining egasidan, zarur hollarda esa boshqa yer uchastkasining egasidan ham o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut) huquqini berishni talab qilishga haqli.

O'zganing yer uchastkasidan piyoda va transportda o'ta olishni ta'minlash, elektr uzatkich, aloqa va quvur liniyalarini o'tkazish, ulardan foydalanish, suv bilan ta'minlash uchun, shuningdek, ko'chmas mulk egasining ehtiyojlarini servitut belgilanmay turib ta'minlashi mumkin bo'lmagan boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun servitut belgilanishi mumkin. Yer uchastkasida servitut belgilanishi yer uchastkasi egasining ushbu

---

<sup>1</sup> Гражданское право: учебник В 2 т. / Отв.ред. Е.А.Суханов. Т.1. – Москва 1993. Жюлио Де Морандьер. Гражданское право Франции. Т. 1. – М.: ИЛ. 1958.

uchastkaga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlaridan mahrum etmaydi.

Servitut belgilanishini talab qilayotgan shaxs bilan o'zga yer uchastkasining egasi o'rtasidagi bitimga ko'ra, servitut belgilanadi va u ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Servitutni belgilash xususida kelisha olinmasa, bahs servitutni talab qilayotgan shaxsning da'vosi bo'yicha sud tomonidan hal qilinadi. Fuqarolarning servitut huquqlari tijorat maqsadlaridan holi bo'lganligi uchun keng mulkiy huquqlarni talab qilmaydi. Shuningdek, garov ham ashyoviy huquq turi hisoblanadi. Uning narsasi har qanday mol-mulk, shuningdek, ashyolar va mulkiy huquqlar bo'lishi mumkin. Muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan talabnomalar, xususan, hayoti va sog'ligiga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablar, alimentlar to'g'risidagi talablar hamda boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan boshqa talablar bundan mustasnodir. Garov turlariga ipoteka, ya'ni ko'chmas mulkni garovga qo'yish hamda zakalat kiradi.

### **Tayanch iboralar:**

Ashyoviy huquq, xo'jalik yuritish huquqi, operativ boshqarish huquqi, servitut huquqi, emfitevzis, superfitsiy, meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga egalik qilish huquqi, yer uchastkasiga doimiy egalik qilish huquqi, yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqi.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi nima?
2. Servitut huquqiga ta'rif bering.
3. Meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga egalik qilish huquqi qanday huquqlar turkumiga kiradi?
4. Garov ham ashyoviy huquq turlariga kiradimi?
5. Servitut qanday belgilanadi?
6. Servitut va uzufukt o'rtasida qanday farq mavjud?

7. Emfitevzis qanday usullar bilan himoya qilingan?
8. Cheklangan ashyoviy huquqlarni nazariy jihatdan necha guruhga bo'lish mumkin?
9. Servitutning mazmuni nimalardan iborat?
10. Xo'jalik yuritish huquqi o'z mohiyatiga ko'ra ushbu huquq egasiga nisbatan qanday talablar qo'yadi?

# **XIX bob. MULK HUQUQINI HIMOYA QILISHNING FUQAROLIK HUQUQIY USULLARI**

## **1-§. Mulk huquqini himoya qilish usullari**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi mulkchilik munosabatlarining yangi bir bosqichini boshlab berdi. Mazkur Qonunning eng muhim jihatlaridan biri shuki, u xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni tizimli ravishda o'zida aks ettiradi.

Ta'kidlash kerakki, ushbu qonun AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya kabi jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari tajribasi o'rganilib, xalqaro huquqning umumiy tamoyil va normalari inobatga olingan holda tayyorlandi va qabul qilindi. Qonunning 1-bob 7-moddasiga muvofiq, mulkdorning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarida mulkdor huquqlarining ustuvorligi prinsipi amal qiladi va xususiy mulk huquqini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar mulkdor foydasiga talqin etilishi belgilab qo'yildi. Shu o'rinda yangi qonunda xususiy mulk daxlsizligi, miqdori va qiymatining cheklanishiga yo'l qo'yilmasligi, mulkdorlarning teng huquqliligi, xususiy mulk huquqining muddatsizligi, mol-mulkni xususiylashtirish natijalarini qayta ko'rib chiqish va bekor qilishga yo'l qo'yilmasligi, xususiy mulk huquqini amalga oshirishda davlat organlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy aralashuvi hamda xususiy mulkni olib qo'yishga qaratilgan harakatlarga yo'l qo'yilmasligi, buzilgan mulk huquqining tiklanishi kabi masalalarning aniq mexanizmlari ko'rsatib berilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»<sup>1</sup>gi Qonunining 8-moddasiga asosan xususiy mulk huquqini himoya qilish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- xususiy mulk huquqini tan olish;
- xususiy mulk huquqi buzilishidan oldingi holatni tiklash va xususiy mulk huquqini buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish;
- bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash;
- davlat organining va boshqa organning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;
- xususiy mulk huquqini mulkdorning o'zi himoya qilishi;
- burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;
- zararning o'rnini qoplash;
- neustoyka undirish;
- ma'naviy ziyonni qoplash;
- xususiy mulk huquqi munosabatlarini tartibga solishda qonunchilik barqarorligini ta'minlash;
- davlat organining va boshqa organning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid bo'lgan hujjatining sud tomonidan qo'llanilmasligi;
- mol-mulkning ayrim turlariga bo'lgan xususiy mulk huquqining vujudga kelganligini, o'zgarganligini va bekor qilinganligini davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Xususiy mulk huquqini himoya qilish qonunga muvofiq boshqa usullar bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

«Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning 3-bobi mulkdorlar huquqlarining kafolatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda undiruvni mol-mulkka qaratish yo'li bilan mol-mulk olib qo'yilayotganda

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 24-sentyabrdagi «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi O'RBQ-336-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-yil, 39-son, 446-modda.

mulkdor huquqlarining kafolatlari, mulkdorning mol-mulki natsionalizatsiya, musodara va rekvizitsiya qilinayotganda uning huquqlari kafolatlari, qonunga muvofiq o'ziga tegishli bo'lolmaydigan mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi bekor qilinganda mulkdor huquqlarining kafolatlari, mulk huquqi mulkdorning mol-mulkini bevosita olib qo'yishga qaratilmagan holda bekor qilinganda uning huquqlari kafolatlari, mol-mulknini boshqa shaxsning qonunga xilof egaligidan talab qilib olish, mulkdorning huquqlarini egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan huquqbuzarliklardan himoya qilish, xususiy mulk huquqining qonunga muvofiq bekor bo'lishi oqibatlarini, xususiy mulk munosabatlarini tartibga soluvchi qonun hujjati qabul qilingandagi kafolatlar, mol-mulknini xususiylashtirish natijalarining qayta ko'rib chiqilishi va bekor qilinishiga yo'l qo'yilmasligi, O'zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning mulk huquqi kafolatlari belgilab qo'yilgan.

Respublikamizda xususiy mulk huquqini doimiy rivojlantirib himoya qilib borish va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, shuningdek, uning huquqiy maqomini mustahkamlash, mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini ta'minlash nafaqat iqtisodiy islohotlarning zaruriy sharti, balki mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, siyosiy demokratik va ijtimoiy institutlar barqarorligining ham zaruriy shartidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida belgilangan xususiy mulkning daxlsizligi ham, mulkdorga tegishli bo'lgan mol-mulkka nisbatan huquqlarning har qanday buzilishi va u bilan bog'liq manfaatlarga har qanday putur yetkazilishining taqiqlanishini hamda xususiy mulk huquqi u kimga tegishli bo'lishidan qat'i nazar faqatgina qonunchilikda nazarda tutilgan hollardagi bekor qilinishi mumkinligi qoidasi ham xususiy mulk daxlsizligining mazmunini ifodalaydi.

Mulkning daxlsizligi mulkdorga qarshi turgan barcha subyektlarning uning mulk huquqini buzishdan o'zlarini saqlashlaridan iboratdir. Mulkdor qonun yo'l qo'ygan asoslarda, doirada o'z mol-mulkiga o'zi egalik qiladi, o'zi foydalanadi va



o'zi tasarruf etadi. Bu mulkdorning konstitutsiyaviy huquqidir. Unga tashqi tomondan tazyiq o'tkazishga, uning ichki ishlariga aralashishga, mol-mulkn olib qo'yishga hech kim haqli emas. Hattoki mulkdorning o'z huquqini amalga oshirishdan voz kechishi ham uning mulk huquqini bekor qilmaydi<sup>1</sup>.

Mulkning daxlsizligi deganda, mulkdorga tegishli mol-mulkn qonuniy asoslarsiz va sud qarorisiz hech kim olib qo'yishga, mulk huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qilishga haqli emasligiga va mulkdorning hamma vaqt ham mol-mulikka nisbatan xo'jalik hukmronligi amalda bo'lishiga aytiladi<sup>2</sup>.

Mulkning daxlsizligi xususiy mulkda ham ommaviy mulkda ham mulkdorning o'ziga tegishli mol-mulkn faqat o'zining manfaatlari yo'lida, mol-mulkning o'zboshimchalik bilan olib qo'yilishi yoki undan foydalanishning o'zboshimchalik bilan cheklanishidan xavfsiramagan holda foydalanishning ta'minlanganligini, hamda shunga doir choralarning belgilanganligini bildiradi<sup>3</sup>.

Mulkning daxlsizligi mulk huquqining vujudga kelishi, amalga oshirilishi va bekor bo'lishining shunday mexanizmlarini tanlashni nazarda tutadiki, ular yordamida, birinchidan, boshqa mulkdorlar manfaatlarining daxlsizligi ta'minlanadi, ikkinchidan, agar mulk huquqi buzilgan bo'lsa, uni tiklash mustahkamlanadi<sup>4</sup>.

Zero, fuqarolik huquqi normalari xususiy mulkka nisbatan har kim tomonidan, shu jumladan davlat va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan bo'ladigan tazyiqlardan himoya qiladi<sup>5</sup>.

---

<sup>1</sup> Zokirov I., Baratov M. Mulk nima? Muldor kim? – T.: TDYuI. 2003. – 11–12-b.

<sup>2</sup> Muxammadiyev A.A. Bozor munosabatlari sharoitida fuqarolik huquqi tamoyillarining amal qilish. Avtoref.diss...yu.f.n. – T.: 2006. – B. 10.

<sup>3</sup> Гражданское право: В 2-х т. Т.1. Учебник. Отв. ред. Е.А. Суханов (Автор этой главы Е.А. Суханов). – М.: БЕК.1998. – С. 39.

<sup>4</sup> Гражданское право. Часть первая. Под ред. Т.И. Илларионова, Б.М. Гонгало, В.А. Плетнева (автор этой главы Т.И. Илларионова). – М.: Норма-Инфра.1998. – С. 28.

<sup>5</sup> Гражданское право. Т.1. Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. – М.: Проспект. 2003. – 29–30-с.

FKning 164-moddasida mulk huquqi, xususan, xususiy mulkni himoya qilishga qaratilgan eng muhim qoidalar belgilangan. Mazkur normaga muvofiq, mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilishi, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir. Mazkur normadagi «o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir» jumlasini xususiy mulk huquqini bevosita himoya qilishni nazarda tutuvchi chora hisoblanadi.

Bu vaziyatda mulkdor mutloq huquq sohibi sifatida o'zining mulkiy huquqini buzmaslikni istalgan shaxsdan talab qila oladi va bunda mulkdorning o'z huquqini talab qilish doirasi shaxslarga nisbatan cheklanmagan bo'ladi.

Mulk huquqini himoya qilishda fuqarolik huquqining normalari muhim rol o'ynaydi. Fuqarolik huquqi yo'li bilan mulk huquqini himoya qilishning asosiy usullari:

– **birinchidan**, mulkni bironing qonunsiz egallashidan talab qilib olish (vindikatsion da'volar);

– **ikkinchidan**, mulkdan foydalanishda mulk egasiga qilingan to'sqinliklarni bartaraf etish (negator da'volar);

– **uchinchidan**, mulk huquqini buzishga qaratilgan g'ayriqonuniy bitimlar (shartnomalar) ni haqiqiy emas deb topish to'g'risida qarorlar chiqarish bilan qo'riqlash;

– **to'rtinchidan**, asossiz olingan mulkni qaytarish yo'li bilan qo'riqlash.

Mulk huquqini himoya qilishning yuqorida ko'rsatilgan usullaridan birinchi va ikkinchisi ashyoviy huquq normalariga asoslanib qilinadigan da'volar bo'lsa, uchinchisi va to'rtinchisi usullari majburiyat huquqi normalariga asoslanib qilinadigan da'volar hisoblanadi.

Ashyoviy huquqqa asoslangan da'volar – ashyoning (mulkning) asl holida qaytarilishiga yoki mulkdan foydalanishda qilinayotgan to'sqinliklarni yo'qotishga qaratiladi.

Majburiyat huquqiga asoslangan da'volar esa bitimda (shartnomada) ishtirok etuvchi mulk egasining (kreditorning) manfaatini qo'riqlashda g'ayriqonuniy ravishda tuzilgan shartnoma yuzasidan olingan narsani mulk egasiga qaytarishga, zarar ko'rgan shaxsning (jabrlangan shaxsning) zararlarini to'latishga, asossiz olingan narsalarni qaytarish yoki uning qiymatini qaytarishga qaratiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi FKning 233-moddasida mulkdorning huquqi qonuniy ravishda to'xtatilgan taqdirda uning manfaatlarini himoya qilish kafolatlari belgilab qo'yilgan. Ayni vaqtda qonunda mulkdor huquqini buzuvchi hujjatlarning qabul qilinishi huquqiy oqibatlari ham o'z ifodasini topgan. Binobarin, yuqoridagi asoslar mulk huquqini himoya qilishning o'ziga xos mustaqil turi sifatida qaralishi mumkin. Bunday holatlarda mulkdor huquqining buzilishi davlat idorasi tomonidan normativ yoki huquqni qo'llovchi hujjat qabul qilinishi orqali ro'y beradi. Bunda mulk huquqining bekor bo'lishi qonuniy asoslarga ega bo'lishi yoxud g'ayriqonuniy bo'lishi mumkin. Lekin har ikkala holatda ham mulkdorning qonuniy manfaatlari kafolatlanadi.

«Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunining 13-moddasiga asosan xususiy mulkka tajovuz qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Qonunga xilof ravishda xususiy mulk huquqini cheklashga va (yoki) undan mahrum qilishga bevosita yoki bilvosita qaratilgan harakatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Nomaqbulligi oldindan ma'lum bo'lgan shartlarni mulkdorga majburan qabul qildirish, shu jumladan, undan mol-mulkni, moliyaviy mablag'larni yoki boshqa mulkiy huquqlarni topshirishni asossiz ravishda talab qilish taqiqlanadi.

Mulkdorning xo'jalik faoliyatiga pirovard natijada uning mol-mulki tortib olinishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan yoxud mulkdorni o'z mulkiga bo'lgan huquqidan voz kechishga majbur qiladigan qonunga xilof ravishdagi aralashuv taqiqlanadi.

Xususiy mulkka tajovuz qilish qonunga binoan ta'qib qilinadi»<sup>1</sup>.

Davlat boshqaruv idorasi yoki davlat hokimiyati mahalliy idorasi tomonidan qonunga xilof bo'lgan hujjatning qabul qilinishi natijasida mulkdorning mulkiy huquqlari buzilgan taqdirda, bunday hujjat mulkdorning da'vosiga ko'ra sud tomonidan haqiqiy emas deb topiladi. Mazkur hujjatni qabul qilgan davlat organi o'z ixtiyoridagi mablag' hisobidan mulkdorga yetkazilgan zararlarni to'lashi lozim.

Xulosa qilib aytganda, «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi ushbu qonunning qabul qilinishi iqtisodiyotda xususiy mulkning muomalada bo'lishi uchun samarali va qulay sharoitlar yaratadi, tadbirkorlik tashabbuskorligi va mehnatdan manfaatdorlikni rag'batlantiradi, mulkdorning o'z farovonligini oshirish yo'lidagi tadbirkorlik faoliyatini kafolatlaydi, bu esa, o'z navbatida, jamiyat va davlatning istiqbolida jadal taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

## **2-§. Vindikatsion da'volar**

Mulkdorga qarashli mulk biron-bir shaxs (fuqaro yoki yuridik shaxs) ning qonunsiz egaligida bo'lsa, mulkdor o'z mulkini asl holatida qaytarish haqida sudda bu shaxsga nisbatan da'vo qo'zg'atishga haqli. FKning 228-moddasiga asosan, mulkdor o'z mol-mulkini boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olishga haqlidir. Fuqarolik huquqi nazariyasida bunday da'volarga vindikatsion da'volar deyiladi.

Vindikatsion da'vo mulkni insofsiz egallovchilarga nisbatan ham qilinishi mumkin. Insofsiz egallovchi deb mulkning o'ziga g'ayriqonuniy yo'l bilan o'tishini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan egallovchiga aytiladi. Insofli egallovchi deganda, mulkning o'ziga g'ayriqonuniy yo'l bilan o'tganini bilmagan va bilishi mumkin bo'lmagan egallovchi tushuniladi.

---

<sup>1</sup> Qarang: O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 24-sentyabrdagi «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi O'RBQ-336-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-yil, 39-son, 446-modda.

FKning 229-moddasida ko'rsatilganidek, agar mol-mulk uni boshqa shaxsga berish huquqiga ega bo'lmagan shaxsdan haq to'lab olingan bo'lsa, oluvchi uni bilmagan va bilishi mumkin bo'lmagan (insofli egallovchi) bo'lsa, mol-mulk mulkdor tomonidan yoki egalik qilish uchun mulkdor bergan shaxs tomonidan yo'qotilib qo'yilgan yoxud mulkdordan yoki u mol-mulkni bergan shaxsdan o'g'irlangan yo bo'lmasa ularning ixtiyoridan tashqari boshqacha yo'l bilan ularning egaligidan chiqib ketgan bo'lsa, bu mol-mulkni olgan shaxslar talab qilib olishga haqli.

FKning mazkur 229-moddasidagi umumiy qoidada ba'zi istisnolar ham nazarda tutilgan, jumladan, agar mulk sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda sotilgan bo'lsa, mol-mulkni yuqorida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha talab qilib olishga yo'l qo'yilmaydi; agar mol-mulk uni boshqa shaxsga berish huquqiga ega bo'lmagan shaxsdan haq to'lamasdan olingan bo'lsa, mulkdor mol-mulkni barcha hollarda ham talab qilib olishga haqli. Pul, shuningdek, taqdim etuvchiga deb yozilgan qimmatli qog'ozlar insofli egallovchidan talab qilib olinishi mumkin emas.

**O'zlarining g'ayriqonuniy ravishda boshqa shaxsga o'tkazilgan mulklarni talab qilib olishda mulkdor bir vaqtning o'zida quyidagilarni talab qilishga haqli:**

– **birinchidan**, insofsiz egallovchidan, masalan sotib oluvchidan mulkni egallagan vaqti mobaynida olgan yoki olinishi lozim bo'lgan hamma daromadlarning qaytarilishi yoki to'lanishi;

– **ikkinchidan**, insofli egallovchidan esa-uning mulkni egallashi g'ayriqonuniy ekanligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan paytdan boshlab yoki mulkning qaytarilishi to'g'risida mulk egasining da'vosi bo'yicha chaqiruv qog'ozi olgan paytdan boshlab olgan yoki chaqirib olishi lozim bo'lgan hamma daromadlarning qaytarilishini yoki to'lanishini talab qilishga haqli (FKning 230-moddasi).

O'z navbatida, insofli egallovchi ham, insofsiz egallovchi ham mol-mulkdan qancha vaqt davomida olingan daromad mulkdorga qaytarilishi kerak bo'lsa, shuncha vaqt davomida

mol-mulikka qilingan zarur xarajatlarni to'lashni mulkdordan talab qilishga haqli.

Qonunda mulk uchun sarflangan narsalarni, agar ashyodan uni buzmasdan ajratib olish mumkin bo'lsa, insofli egallovchi o'zida qoldirishda haqli ekanligi ko'rsatilgan. Agar mulkdan ajratib olish mumkin bo'lmasa, insofli egallovchi mulkning ko'payishi uchun sarf qilingan xarajatlarning o'ziga to'lanishini talab qilishga haqli.

**Fuqarolik kodeksida mulk huquqini himoya qilishning kuchaytirilishini ta'minlovchi qator muhim qoidalar belgilangan bo'lib, ular jumlasiga quyidagilar kiradi:**

– **birinchidan**, mulk egasi mulkni o'zi yo'qotgan yoki o'zi o'g'irlatgan hollarda insofli egallovchidan talab qilib olishdan tashqari yana mulk uning ixtiyoridan tashqari, egaligidan (qo'lidan) ketgan taqdirda ham talab qilib olish;

– **ikkinchidan**, mulk birovga ishonib topshirib qo'yilganda uning ixtiyoridan tashqari qo'lidan chiqib ketgan bo'lsa ham, bu mulkni insofli ravishda oluvchidan talab qilib olish;

– **uchinchidan**, agar mulk birovga topshirish huquqiga ega bo'lmagan shaxsdan bepul olingan bo'lsa, u vaqtda mulk egasi barcha hollarda o'z mulkini talab qilib olish huquqiga ega bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, vindikatsion da'vo-birovning qonunsiz egaligidan bo'lgan ashyoni qaytarib olish haqidagi mulk egasining da'vosidir. Vindikatsion da'voni boshqa turdagi da'volardan ajratib turadigan asosiy belgilari: da'volashuvchi taraflar da'vo asosi va da'vo narsasi, shuningdek, uning maqsadidir.

Ashyoga nisbatan mulk huquqiga ega bo'lgan lekin ashyosi qo'lida bo'lmagan shaxs vindikatsion da'vo bo'yicha da'vogar bo'ladi. Vindikatsion da'voni qilishga ayrim mulk egasigina haqli bo'lmay, ulushlari bo'lgan mulkdorlarning har qaysisi ham da'vo qilishga haqli. Bundan tashqari mulkni qonun va shartnomaga binoan egallab (saqlab) turgan shaxslar ham vindikatsion da'vo bo'yicha da'vogar bo'ladilar. Egalik huquqi vindikatsion da'voni

qilishga asos bo'ladi. Mulkdor mulk huquqi asosida o'ziga tegishli ashyoga bo'lgan subyektiv huquqi bilan bu mulkni egallash (qo'lida saqlash), undan foydalanish, uni tasarruf etish imkoniyatidan mahrum bo'lganida bu huquqlarning o'ziga qaytarilishini talab qila oladi.

Vindikatsion da'voning maqsadi-buzilgan mulkiy huquqni tiklashdan, ashyoni bevosita mulk egasi ixtiyoriga qaytarishdan iboratdir.

Vindikatsion da'voning predmeti (narsasi) turiga xos alomatlari (son, og'irlik, o'lchov) bilan belgilanadigan, shuningdek, individual (xususiy) alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar bo'lishi mumkin.

Vindikatsion da'vo bo'yicha faqat individual ashyolar emas balki boshqa barcha mulklar asl holatda qonunsiz egallovchidan talab qilib olinishi mumkin.

Mulk egasiga unga qarashli ashyo o'rniga uning qiymatini to'lash, barcha hollarda ham mulk egasining manfaatlarini ta'minlay olmaydi. Binobarin, mazkur masalani hal qilishda jismoniy yoki individual alomatli mulklarni egallovchidan majburiy tarzda olib berish huquqining sudlarga berilishi majburiyatlarning turmushda real ijro etilishini, shuningdek, mulkiy huquqning yanada to'laroq himoya qilinishini ta'minlashga qaratiladi.

Vindikatsion da'vo huquqini buzish faktidan kelib chiqsa ham, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan da'vo hisoblanmaydi. Vindikatsion da'voga binoan ashyo asl holatda qaytarilishini talab qilinsa, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatda esa, ashyo o'rniga uning qiymati tilab qilinishi mumkin.

Agar ishni hal qilishda shartnomaga oid javobgarlik belgilash uchun asoslar bo'lsa, bu vaqtda da'vo shartnoma majburiyatlari to'g'risidagi normalarning qoidasi bo'yicha hal qilinadi. Binobarin, vindikatsion da'vo ashyoviy huquqiy da'vo sifatida ko'rilganligi tufayli shartnoma yuzasidan qilinadigan da'vo bilan aralashtirib yubormasligi lozim. Masalan, ashyoni qaytarish haqidagi da'vo shartnoma majburiyatlarini, jumladan, ijara yoki omonat shartnomalari yuzasidan mulk egasi ashyoni asl holida qaytarish to'g'risida da'vo qilganida, ashyoni qaytarib olish haqidagi talab

shu shartnomani tartibga soladigan huquqiy normalar asosida qanoatlantiriladi. Demak, bunday hollarda mulk egasi shartnoma da'vosi o'rniga vindikatsion da'vo qilishga haqli bo'lmaydi.

Mulkni egallash qonuniy va qonunsiz bo'lishi mumkin. Mulkni huquq normalari yoki shartnomaga asoslangan holda egallash qonuniy egallash hisoblanadi. Bunda mulk ijozat etilgan (qonun yoki boshqa huquqiy akt bilan yo'l qo'yilgan) usul bilan qo'lga kiritiladi.

Qonunsiz egallash deb ashyoni yetarli huquqiy asoslarga ega bo'lmay turib qo'lda saqlab turishga aytiladi. Qonunsiz egallovchi deb o'zboshimchalik bilan egallab oluvchi, yoki topib olingan narsani o'zlashtiruvchi, shuningdek, ashyoni egasidan qonun yoki shartnoma asosida olmaydigan shaxsga aytiladi. Mulk qonun yo'l qo'ymaydigan usul bilan sotib olinganda, qo'lga kiritilganda ham uni egallash uchun huquqiy asos bo'lmasa, bunday egallash ham qonunsiz egallash bo'ladi. Faqat qonunsiz egallovchi, ya'ni da'vo qo'zg'atilgan vaqtda nizoli mulk qonunsiz egaligida bo'lgan shaxsgina hisoblanishi mumkin.

### **3-§. Negator da'volar**

Mulkiy huquqning buzilishi ayrim hollarda ashyoni egallash huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. «Ashyo mulk egasining ixtiyorida, egaligida bo'lgan bir vaqtda mazkur ashyoni biron-bir shaxsning harakati to'sqinlik qilish oqibatida foydalanish qiynalishi yoki umuman foydalanishga imkon bo'lmay qolishi mumkin. Masalan, fuqaro A.ning qarzi uchun fuqaro B.ning mulki noto'g'ri xatlanganida fuqaro B. ning mulkining ro'yxatdan chiqarilishini va shu bilan o'z mulkidan foydalanishga qilishgan to'sqinlikning bartaraf qilinishini talab qila oladi.<sup>1</sup>

Mulk egalaringning mulkni egallash va undan foydalanish huquqini buzish, garchi bu egalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmasa ham, yo'qotish haqidagi talablarni huquq nazariyasida negator da'volar deb aytiladi. FKning 231-moddasida

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2009. – B. 454–455.



mulkdor o'z huquqlarining har qanday buzilishini, garchi bu buzilish egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasa ham, bartaraf etishni talab qila olishi ko'rsatilgan. Mazkur da'voning narsasi mulk egasining bunday xalaqitni (to'sqinlikni) yo'q qilish haqidagi talabi hisoblanadi. U mulk egasiga mulkidan foydalanishda, o'z huquqini amalga oshirishda to'sqinlik qiladi.

Sudda negator da'voni mulk egasigagina emas, balki ashyoni qonuniy asoslar bo'yicha, masalan, qonun yoki shartnomaga asosan egallovchi shaxs ham qo'zg'atishga haqli. Bunday qonuniy egallovchilar o'zlarining talablarini FKning 231-moddasi asosida emas, balki mulkni egallashning qonuniyligini belgilovchi huquq normalari (FKning 232-moddasi) asosida qo'ya oladilar. Masalan, mulkiy ijaraga oluvchi ya'ni mulk egasi bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha ashyodan vaqtincha foydalanuvchi shaxs bu mulkni egallash va undan foydalanish huquqi buzilganida har kimga, shu jumladan, mulk egasiga nisbatan ham da'vo qo'zg'atishga haqli. FKning 232-moddasida aytilishicha, garchi mulkdor bo'lmasa ham, qonun yoxud shartnomada nazarda tutilgan boshqa asosga mol-mulkka egalik qilayotgan shaxs ham FKning 228-231-moddalarida nazarda tutilgan huquqlariga, ya'ni vindikatsion va negator da'volar qo'zg'atish huquqiga ega bo'ladi.

Sud amaliyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda negator da'vo deb atalgan da'vo bilan sudga kamdan kam murojaat qilinadi. Ammo bundan mulk egalarining huquqlarini buzishdan ma'lum darajada himoya qiluvchi mazkur huquq normasi o'z ahamiyatini yo'qotadi, degan xulosa mutlaqo kelib chiqmaydi. Amalda bironing mulkiy huquqini buzishga uringan har qanday shaxsni tartibga chaqirib turuvchi bunday normalarning bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

#### **4-§. Mulkiy huquqni fuqarolik huquqi normalari bilan himoya qilishning boshqa usullari**

Mulkiy huquqni himoya qilish bilan bog'liq bo'lmagan masalalarni o'rganishda mulk egalarining mulkiy huquqlarini himoya qiluvchi majburiyat huquqiga oid vositalar ham muhim

ahamiyatga ega. Mulk huquqini himoya qilishning bunday majburiy-huquqiy usullari ikki ko'rinishda:

- shartnomali munosabatlar;
- shartnomadan tashqari munosabatlarda bo'ladi.

Shartnomali munosabatlarda mulkiy huquqning himoya qilinishi to'g'risida shuni aytish kerakki, tuziladigan xilma-xil shartnomalar aksariyat hollarda qonunga, shartnoma shartlariga rioya qilinib to'g'ri va insofli ravishda bajariladi. Ammo ba'zi hollarda shartnomaning ayrim intizomsiz ishtirokchilari shartnoma yuzasidan olgan o'z majburiyatlarini butunlay bajarmasliklari yoki lozim darajada bajarmasliklari hollari ham uchraydi. Bunday paytlarda tabiiy buzilgan mulkiy huquqlarni tiklash hamda shuning o'zi bilan mulkiy huquqlarni har tomonlama va to'la himoya qilish masalasi qo'yiladi.

Shartnomali munosabatlarda mulkiy huquqlarni buzish quyidagicha ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- qonunchilikning tartiblariga muvofiq kelmaydigan tartiblardagi bitim, shuningdek, huquq tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim o'z-o'zidan haqiqiy emas va u FKning 116-moddasiga binoan haqiqiy sanalmaydi hamda har ikki tarafning yoki bir tarafning bunday shartnoma yuzasidan olgan daromadlari davlat daromadlariga o'tkaziladi;

- muomalaga layoqatsiz shaxslar (yosh bolalar, ruhiy kasallar) bilan bitim tuzilishi natijasida mazkur shaxslar mulkiy zarar ko'rsalar, qonun (FKning 117-119-moddalari) tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topishi bilan birga buzilgan mulkiy huquqning tiklanishi lozimligini ham ko'rsatadi. Masalan, 13 yashar bola o'ziga hadya qilingan uyali telefonini ota-onasining ruxsatisiz birovga sotsa, shartnoma haqiqiy sanalmasligi va bunday shartnomaning tuzilishi natijasida voyaga yetmagan shaxs mulkiy zarar ko'rgan bo'lsa, zarar haqi undirilishi mumkin;

- jiddiy yanglishish, aldanish, zo'rlik qilinishi ta'sirida tuzilgan bitimlar (shartnomalar) sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday bitimlar tuzilishi natijasida buzilgan

mulkiy huquqlar ham qonun (FKning 122-123-moddalari) bo'yicha himoya qilinadi;

– ayrim shartnomalar masalan, oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, kontraktatsiya, ijara, pudrat, yuk tashish va boshqa qator shartnomalar bo'yicha olingan majburiyatlar butunlay yoki lozim darajada bajarmasligi natijasida tashkilotlar yoki ayrim fuqarolar mulkiy zarar ko'rishlari mumkin. Bunday hollarda ham qonun (bunday shartnomalar)ning har qaysisini buzish oqibatlarini to'g'risida huquqiy normalar buzilgan huquqlarni himoya qilishni nazarda tutadi.

Shartnomalardan tashqari bo'ladigan majburiyat munosabatlarida mulkiy huquqlarning himoya qilinishiga kelsak, ba'zi hollarda majburiyat munosabatlari yuqorida aytilgandek, o'zaro kelishuv asosida tuzilgan shartnomalardan kelib chiqmay bevosita qonun bilan ham belgilanishi mumkin. Bunday hollarda tashkilotlar va fuqarolar qonunga asosan o'zaro majburiyat munosabatlarida bo'ladi va huquq subyektlari (yuridik shaxslar va fuqarolar) bir-birlariga nisbatan muayyan majburiyatlar oladi.

Agar qonun bilan belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik natijasida mulkiy zarar ko'rilsa – buzilgan mulkiy huquqlarni himoya qilish masalasi vujudga keladi<sup>1</sup>.

Shartnomalardan tashqari bo'ladigan majburiyat munosabatlarida mulkiy huquqning buzilishi asosan quyidagi hollarda uchrashi mumkin:

– ba'zi hollarda ayrim shaxslar (yuridik shaxslar yoxud fuqarolar)ning mulkiga qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan zarar yetkazishi tufayli mulkiy huquqlar buziladi. Bunday hollarda qonun buzilgan huquqlarning tiklanishi, mulkiy huquqlarning har tomonlama va to'la himoya qilishni belgilaydi;

– amalda birovdan topshiriq olmay, uning manfaatlarini ko'zlab, ba'zi xarajatlar qilish hollari ham bo'lishi, masalan, bironing to'satdan kasal bo'lib qolgan bolasini shifoxonaga taksi mashinasida olib borib joylashtirishda ma'lum xarajat qilinishi mumkin;

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2009. – B. 457.

– xatolik bilan birovning mulki olingan yoki tejalgan bo'lsa, ya'ni birovning mulkini olib qolish yoki tejash uchun qonun yoki shartnoma bilan belgilangan asoslar bo'lmasa olingan yoki tejalgan mulk egasiga qaytarilishi lozimligi qonunda belgilanadi.

Qonun normalari yana boshqa hollarda ham shartnomalardan tashqari vujudga keladigan majburiyatlarda mulkiy huquqlarning himoya qilinishini belgilaydi.

### **Tayanch iboralar:**

Mulk huquqini fuqarolik-huquqiy himoya qilish usullari, vindikatsion da'volar, negator da'volar, mulkiy huquqlarni buzish, shartnomali munosabatlarda mulkiy huquqlarni buzish, xususiy mulk huquqini tan olish, mulkiy huquqlarning himoya qilinishi.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Mulkni himoya qilishning ahamiyati nimalardan iborat?
2. Mulk huquqini fuqarolik-huquqiy usullari bilan himoya qilinishi deganda nimalarni tushunasiz?
3. Mulk huquqining kafolatlari nimalardan iborat?
4. Vindikatsion da'vo deb qanday da'voga aytiladi?
5. Negator da'volarga misol keltiring.
6. Vindikatsion da'voning maqsadini tushuntirib bering.
7. Sudda negator da'voni kimlar qo'zg'atish huquqiga ega?
8. Mulk huquqini himoya qilishning majburiy-huquqiy usullarini sanab bering.
9. Shartnomali munosabatlarda mulkiy huquqlarni buzish qanday ko'rinishlarda namoyon bo'ladi?
10. Shartnomalardan tashqari bo'ladigan majburiyat munosabatlarida mulkiy huquqning buzilishi qaysi hollarda uchraydi?

# **XX bob. MAJBURIYAT HUQUQI TUSHUNCHASI VA MAZMUNI**

## **1-§. Majburiyat huquqi tushunchasi**

Majburiyat huquqi jamiyatimizda mulkiy munosabatlarning eng muhim va keng sohasini o'zining fuqarolik-huquqiy xarakteridagi qoidalari bilan tartibga soladi. U tashkilotlar bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni ham, jumladan, fuqarolarga xilma-xil tovarlar, oziq-ovqat mahsulotlarini sotishda, ularga turli xil xizmatlar ko'rsatish, uy-joylar berish va boshqa hollarda vujudga keladigan munosabatlarni ham tartibga soladi.

Fuqarolik huquqida majburiyat deb shunday fuqarolik huquqiy munosabatga aytiladiki, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatlarni amalga oshirishga, jumladan: mol-mulknini topshirish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi; kreditor esa, qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi (FK, 234-modda).

Majburiyat keng ma'noda huquq subyektlari hisoblangan shaxslar (tashkilotlar va fuqarolar) o'rtasida bo'ladigan fuqarolik-huquqiy xarakterdagi munosabatlarni bildiradi.

Majburiyat tushunchasi huquqning boshqa sohalarida ham, jumladan, ma'muriy huquq, oila huquqi, mehnat huquqi sohalarida ham beriladi. «Majburiyat» atamasi boshqa ma'nolarda ham ishlatiladi, masalan, majburiyat deb faqat muayyan bir harakatni qilishga, jumladan, ijara haqini to'lashga, sotib olingan narsaning qiymatini to'lashga qaratilgan burchga ham aytiladi<sup>1</sup>.

Majburiyat subyektlari va obyektlari uning muhim elementlari hisoblanadi.

Majburiyat subyektlari muayyan huquqlarga ega bo'lgan va zimmasiga majburiyat olgan shaxslardir. Har bir majburiyatda,

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2009. – B. 460.

albatta, ikki taraf ishtirok etadi. Muayyan bir harakatning qilinishini yoki muayyan harakatni qilishdan saqlanishni talab etishga haqli bo'lgan taraf-kreditor deb ataladi. Muayyan harakatni qilishga yoki harakat qilishdan saqlanishga majbur bo'lgan taraf esa qarzdor deb ataladi.

Majburiyatda ishtirok etuvchi kreditorning huquqi nisbiy huquq bo'ladi, chunki kreditor faqat ma'lum shaxs yoki shaxslarga (bir qarzdor yoki bir necha qarzdorlarga) nisbatan talab qo'yish huquqiga ega.

Majburiyatda kreditorning talab qilish huquqi va shunga yarasha qarzdorning burchi nimaga qaratilgan bo'lsa, shuning o'zi majburiyat obyekti hisoblanadi. Jumladan, huquq va burchlar biron-bir ashyoni olishga, topshirishga, muayyan pul summasini to'lashga, biron-bir ishning bajarilishiga qaratilgan huquqiy harakatlardan iborat bo'lishi mumkin.

Majburiyatlar majburiyat huquqi tushunchasini keltirib chiqaradi. Majburiyat huquqi mulk topshirish, ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatish yoki pul to'lash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan fuqarolik huquqiy normalar yig'indisidir. Jamiyatdagi majburiyatga oid huquqiy munosabatlar fuqarolar va tashkilotlarning xilma-xil ehtiyojlarini qondirish, ta'minlash maqsadlarida o'rnatiladi. Majburiyatlar to'g'risidagi normalar mulkning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishini, ishlab chiqarish va maishiy xizmat ko'rsatish korxonolari orqali xilma-xil xizmatlar ko'rsatilishini tartibga soladi. Majburiyatlar vositasida mulk va mulkiy huquqlar qo'riqlanishi ta'minlanadi, fuqaroning sog'lig'iga zarar yetkazilganda, fuqaro o'ldirilganida ko'rilgan zararlar qoplanadi va hokazo.

Majburiyat huquqi fuqarolar bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni ham, jumladan, bozorlarda oziq-ovqat mahsulotlarini olishda, uy-joy sotib olish va boshqa hollarda bo'ladigan o'zaro munosabatlarni ham tartibga soladi. U tashkilot va fuqarolarga yetkazilgan mulkiy zararining to'lanishini, shuningdek, qonun yoki shartnomalar bilan belgilangan asoslar bo'lmay turib olingan narsalarning qaytarilishini ta'minlaydigan huquqlarni ham o'z ichiga oladi.

Majburiyat huquqi fuqarolik huquqi kabi pandekt tizimiga asosan qurilgan bo'lib, u umumiy va maxsus qismdan iborat<sup>1</sup>, ya'ni majburiyatlar to'g'risidagi umumiy qoidalar va majburiyatlarning ayrim turlariga oid maxsus qoidalar.

Majburiyat huquqining umumiy qismida (FKning 234–385-moddalari) majburiyatlarning kelib chiqishi va bajarilishi, majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash, talab qilish huquqini birovga o'tkazish va qarzni ko'chirish, majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik, majburiyatlarning bekor qilinishi asoslari, majburiyat munosabatlarini vujudga keltiruvchi asosiy huquqiy vosita hisoblangan shartnomalar va ularni tuzish, o'zgartirish hamda bekor qilish tartibi kabi masalalar belgilanadi.

Majburiyatlarning ayrim turlariga bag'ishlangan FK normalari majburiyat huquqi tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar nihoyatda ko'p va xilma xil bo'lganligi tufayli kodeksda salmoqli o'rinni egallaydi.

**Majburiyat huquqining maxsus qismi normalari mazmuni va hajmi bo'yicha teng bo'lmagan:**

- shartnomali majburiyat institutlariga;
- shartnomasiz majburiyat institutlariga bo'lingan.

**Shartnomali majburiyatlarga oid huquqiy institutlarga:**

- oldi-sotdi;
- mahsulot yetkazib berish;
- qarz;
- kontraktatsiya;
- pudrat;
- mulk ijarasi;
- lizing;
- uy-joy ijarasi;
- yuk va yo'lovchilar tashish;
- franshizing;
- sug'urta kabi bir qator shartnomalar asosida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalarga taalluqlidir.

---

<sup>1</sup> Рахманкулов Х. Обязательственное право. – Т., ТГЮИ. 2005. – С. 17.

## **Shartnomadan tashqari majburiyatlarga oid institutlarga:**

- zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar;
- asossiz bo'lyik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar kiradi.

Majburiyat mazmuni deganda, kreditorning qarzdor tomonidan muayyan harakatlar qilinishini (yoki qilinmasligini) talab etishga bo'lgan huquqi va qarzdorni shunga yarasha bo'lgan burchi tushuniladi. Qarzdor tomonidan qilinishi lozim bo'lgan harakatlar har xil ashyoni egasiga topshirish, ashyolarni foydalanish uchun topshirish, ma'lum summa pulni to'lash, biron-bir ishni bajarish yoki xizmat ko'rsatish, qarzdor tomonidan bitimning tuzilishini ta'minlash, birovga yetkazilgan zararni to'lash, asossiz orttirilgan bo'lyikni o'z egasiga qaytarish to'g'risida bo'lishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan majburiyat obyektlaridan ko'rinishicha, majburiyatning mazmuni asosan mulkiy xarakterdagi huquq va burchlardan iborat bo'lsa-da, huquq subyektlarini o'zaro mulkiy xarakterda bo'lmagan majburiyatlar ham belgilashlari mumkin.

## **2-§. Majburiyatlarning turlari**

Fuqarolik huquqida qo'llaniladigan mezon va tasniflarga asosan, majburiyatlar o'zining mazmuni, obyektlari va subyektlariga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

**1. Bir tomonlama, ikki tomonlama va ko'p tomonlama majburiyatlar.** Majburiyatda qatnashuvchilarning birida faqat talab qilish huquqi (yoki huquqlari), ikkinchi tomonda esa, faqat majburiyat (majburiyatlar) bo'lsa, bunday majburiyatlar bir tomonlama majburiyatlar hisoblanadi.

Huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning har qaysisi ham huquq, ham majburiyatga ega bo'lsa, bunday majburiyatlar ikki tomonlama majburiyat hisoblanadi. Ikki tomonlama majburiyatlarga oldi-sotdi, ijara, pudrat kabi shartnomalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.



Bundan tashqari hozirgi kunda ko'p tomonlama majburiyatlar ham mavjud. Jumladan, ko'p tomonlama majburiyatlarga ta'sis shartnomasi, oddiy shirkat shartnomasi va boshqa shartnomalarni misol qilib ko'rsatish mumkin

**2. Ijobiy mazmunli majburiyatlar va salbiy mazmunli majburiyatlar.** Agar majburiyat yuzasidan qarzdor muayyan bir harakatni qilishga burchli bo'lib, kreditor aynan shunday harakatning qilinishini talab qilishga haqli bo'lsa, bunday majburiyat ijobiy mazmunli majburiyat hisoblanadi. Huquqiy munosabatning ko'pchiligida ijobiy mazmunli majburiyatlar yotadi. Masalan: oldi-sotdi, mulkni ijaraga berish, maishiy xizmat ko'rsatish sohasida olinadigan majburiyatlar-ijobiy mazmunli majburiyatlardir.

Agar majburiyat bo'yicha qarzdor muayyan harakatni qilishdan saqlanishga burchli, kreditor harakat qilishdan saqlanishini talab etish huquqiga ega bo'lsa-bunday majburiyat salbiy mazmunli majburiyat hisoblanadi. Masalan, nashriyot shartnomasi bo'yicha muallif shartnoma kuchda bo'lgan davrda o'z asarini boshqa nashriyotga topshirishdan saqlanish majburiyatini olsa, nashriyot muallifning boshqa nashriyot bilan shartnoma tuzishdan saqlanishini talab etish huquqini oladi.

**3. Muayyan harakatni bajarishga qaratilgan va muqobil majburiyatlar.** Agar huquqiy munosabat bo'yicha kreditor qarzdordan muayyan bir harakat qilinishini, masalan, ma'lum ishning bajarilishini, biron-bir ashyoning topshirilishini yoki ma'lum summa pul to'lanishini talab qilish huquqiga ega bo'lsa, bunday majburiyat muayyan harakatni bajarishga qaratilgan majburiyat hisoblanadi. Agar huquqiy munosabatda kreditorning talabi bo'yicha qarzdor bir necha harakatlardan birini bajarishga majbur bo'lsa, bunday majburiyat muqobil majburiyat sanaladi. Muqobil majburiyat bo'yicha huquqiy munosabatda bir necha harakat ko'rsatilgan bo'lsa ham, majburiyatning mazmunini qarzdorning faqat birgina majburiyati va kreditorning shu majburiyatning bajarilishini talab qilishga bo'lgan huquqi tashkil etadi. Huquqiy munosabatda nazarda

tutilgan harakatlardan birining bajarilishi bilan majburiyat ijro etilgan hisoblanadi. Muqobil majburiyatning bajarilishi to'g'risidagi qoida FKning 250-moddasida berilgan. Mazkur moddada ko'rsatilishicha, agar qarzdor ikki yoki bir necha harakatlardan birini bajarishga majbur bo'lsa, qonun, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, tanlash huquqi qarzdor ixtiyorida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining bir qator qonunchilik hujjatlarida qanday majburiyatning bajarilishi lozimligini tanlash huquqi kreditorga berilganligi ko'rsatiladi. Jumladan, ularda sotilgan ashyoning sifati lozim darajada bo'lmaganda, sotib oluvchi o'z xohishi bilan ana shu ashyoni boshqa sifatli ashyoga almashtirish yoki xarid bahosini tegishli darajada kamaytirishni yoxud sotuvchining shu ashyodagi kamchiliklarni haq olmay tuzatib berishini yoki shu kamchilikni tuzatish uchun oluvchining qilgan xarajatlarini to'lashni yo bo'lmasa shartnomani bekor qilib, o'ziga yetkazilgan zararining to'lanishini talab qilishga haqli bo'ladi, deb ko'rsatiladi. Bu qoida bo'yicha qarzdor sifatidagi sotuvchi tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan harakatlardan birini tanlash huquqi kreditorga, ya'ni sotib oluvchiga beriladi.

**4. Asosiy va qo'shimcha majburiyatlar.** Fuqarolik huquqida asosiy va qo'shimcha majburiyatlar mavjud bo'lib, ular ba'zi bir adabiyotlarda qaram yoki aksessor majburiyatlar deb ataladi. Qo'shimcha majburiyatlar doimo asosiy majburiyatlar bilan bog'liq bo'ladi hamda uning taqdiri asosiy majburiyatga bog'liq bo'ladi. Asosiy majburiyat bekor bo'lishi bilan qo'shimcha majburiyat ham bekor bo'ladi<sup>1</sup>.

**5. Shaxsiy xarakterga ega bo'lgan majburiyatlar va shaxsiy xarakterga ega bo'lmagan majburiyatlar.** Ba'zi majburiyatlar huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning har qaysisi yoki birining shaxsi bilan qat'iy bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, topshiriq shartnomasi bo'yicha vujudga keladigan majburiyat vakilning (topshiriqni bajaruvchining)

---

<sup>1</sup> Рахманкулов Х. Обязательственное право. – Т., ТГЮИ. 2005. – С. 23.

ishonchli shaxs bo'lishiga qarab belgilanadi. Bunday shaxsiy xarakterga ega bo'lgan majburiyatlarning bajarilishini, agar qonun yoki shartnomada boshqacha hol belgilanmagan bo'lsa, boshqa shaxsga o'tkazilishiga yo'l qo'ymaydi, kreditor ham boshqa shaxs bilan almashinishi mumkin emas. Bunday majburiyatlar, odatda, qarzdor yoki kreditorning vafot etishi bilan bekor bo'ladi.

Aksariyat huquqiy munosabatlarda majburiyatning kim tomonidan bajarilishi ahamiyatga ega bo'lmaydi. Masalan, qarz shartnomasi bo'yicha majburiyat fuqaro A. tomonidan ham yoki uning uchun fuqaro S. tomonidan ham bajarilishi mumkin. Bunday shaxsiy xarakterga ega bo'lmagan majburiyatlar bo'yicha kreditor ham, qarzdor ham boshqa shaxs bilan almashinishiga yo'l qo'yiladi. Bunday majburiyatlar bo'yicha kreditor yoki qarzdorning vafot etishi majburiyatning bekor qilinishi uchun asos bo'lmaydi.

Majburiyatda sanksiya masalasiga kelsak, fuqarolik huquqi normalariga muvofiq, qo'llaniladigan majburlash choralari ko'pincha huquq buzilishida, majburiyatlarni bajarmaslik yoki tegishli darajada bajarmaslik uchun qo'llaniladi. Sanksiya fuqarolik huquqiy munosabatida ishtirok etayotgan taraflar o'z zimmalaridagi majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganlarida huquq normalariga muvofiq qo'llaniladigan majburlash chorasidir. Buzilgan majburiyatlar yuzasidan qo'llaniladigan sanksiyalar har xil. Majburiy chora sifatida qo'llaniladigan sanksiyalar umumiy xarakterga ega bo'lishi hamda maxsus, ya'ni aniq bir huquqiy munosabatdan yuzaga kelgan harakatlarga nisbatan qo'llaniladigan bo'lishi mumkin.

Umumiy xarakterdagi sanksiyalar majburiyatning bajarilishini kechiktirish, biror ashyoni topshirish majburiyatini bajarmaslik uchun qo'llaniladi. Maxsus sanksiyalarga misol qilib, sotilgan ashyolarning sifati tegishli darajada bo'lmasligi uchun sotuvchining javobgarligini ko'rsatish mumkin. Sanksiya majburiyatlarda ishtirok etuvchi va o'z zimmalaridagi majburiyatlarni bajarmagan taraf-kreditor va qarzdorga nisbatan qo'llaniladi.

Majburiyatlarni buzganlik uchun qo'llaniladigan sanksiyalar quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin:

1. Ixtiyoriy bajarilmagan burchni majburiy ijro ettirish.
2. Shartnomada ko'rsatilgan majburiyat bajarilmaganda uni bir tomonlama bekor qilish.
3. Majburiyatning ijro etilish tartibini o'zgartirish.
4. Tuzuk taraf zimmasida bo'lgan majburiyatlar hajmini kamaytirishga qaratilgan sanksiyalar.
5. Notuzuk tarafning zimmasida bo'lgan majburiyatlar hajmini oshirish.
6. Mulkiy javobgarlik choralari sifatida ko'riladigan sanksiyalar.

### **3-§. Majburiyatlarning vujudga kelish asoslari**

Majburiyatlarning vujudga kelishi uchun alohida yuridik faktlar yoki yuridik harakatlar, masalan, ayrim mahsulotlarni eksport yoki import qilish uchun xorijiy yoki mamlakatdagi kontragent bilan shartnoma tuzishdan tashqari, tegishli ruxsatnoma olinishi ham talab etiladi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi FKning 234-moddasi majburiyatni yuzaga keltiruvchi faqat ikkita asosni sanab o'tadi, bulardan shartnoma va zarar yetkazish aniq ko'rsatilib, keyin esa FKda ko'rsatilgan boshqa asoslarga havola qilinadi.

Ma'lumki FKning deyarli barcha me'yoriari shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni tartibga solishga qaratilgan. Bu huquqiy normalar vositasida tartibga solinadigan majburiyatlar jumlasiga mulkni boshqa shaxsning egaligiga topshirish (oldi-sotdi, ayirboshlash, hadya shartnomalari)dan, mulkni operativ boshqarish huquqini o'tkazish (mahsulot yetkazib berish shartnomasi)dan, foydalanish huquqini o'tkazish (mulk ijarasi va uy-joy ijarasi, tekin foydalanish to'g'risidagi shartnomalar) dan, biror ishni bajarish yoki xizmat ko'rsatish (pudrat, yuk tashish, topshiriq, vositachilik, sug'urta, transport ekspeditsiyasi shartnomalari)dan va boshqa shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar kiradi. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida turli

tadbirkorlik subyektlari o'rtasida tuziladigan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar alohida ahamiyatga egadir<sup>1</sup>.

Davlat organlarining qonunda fuqarolik huquq va majburiyatlari vujudga kelishining asosi sifatida nazarda tutilgan hujjatlari ham majburiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday hujjatlar turli ko'rinishlarda davlat buyurtmasi yoki ma'muriy hujjatlar shaklida bo'lishi mumkin.

Yuridik adabiyotlarda majburiyatlarning vujudga kelish asoslarini kengaytirgan holda tushuntirishga harakat qilinadi va ularni muayyan yuridik faktlar, yuridik faktning bir turi bo'lgan shartnomalar, bir tomonlama bitimlar, davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining hujjatlari, sud qarori, g'ayriqonuniy harakatlar (delikt va asossiz boylik ortirish), yuridik harakatlar masalan, topilmani qaytarish (FKning 192-moddasi) yoki topilgan xazinani topshirish (FKning 196-moddasi) yoxud shaxsga yoki uning mol-mulkiga zarar yetishining oldini olish uchun uning topshirig'isiz qilingan harakat (FKning 826-moddasi) va boshqalarga bo'linadi<sup>2</sup>.

Fuqarolik huquqiy majburiyat sudlar tomonidan chiqarilgan hujjatlar (hal qiluv qarorlari, ajrimlar, hukmlar) asosida ham vujudga kelishi mumkin.

Qonun yo'l qo'ygan asoslarda mol-mulkning mulk sifatida olinishi natijasida ham (masalan, egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddat hosil bo'lganligi sababli) majburiyat kelib chiqishi mumkin. Bir tomonlama bitimlar ham fuqarolik huquqiy majburiyatlarni keltirib chiqaruvchi yuridik faktlar jumlasiga kiradi. Bunday bitimga muvofiq, shaxsning erki ikkinchi bir shaxsga huquq va majburiyat keltirib chiqaradi.

Yaratilgan ixtiro va foydali model, buyumlarning sanoat namunalari, fan, adabiyot hamda san'at asarlari qonun talablariga javob berishi kerak. Tegishli qonunlardagi normalarga muvofiq, bu yaratilgan narsalar uni yaratgan shaxs bilan

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2009. – B. 469.

<sup>2</sup> Rahmonqulov H. Majburiyat huquqi. – Toshkent: TDYuI, 2005. – 25–31-b.

o'zga shaxslar, shuningdek, tegishli davlat tashkilotlari o'rtasida majburiyatlarning kelib chiqishiga asos bo'ladi.

FKning 234-moddasida ko'rsatilganidek, fuqaroga yoki tashkilotga ziyon yetkazish ham muayyan majburiyatlar tug'diradi. Bunday majburiyatlar, odatda, shartlashilmagan majburiyatlar deb ataladi.

Majburiyatlar qonunlarda belgilanganidek, hech bir asoslarsiz boshqa shaxsning mol-mulkini egallab olishi yoki tejab qolishidan kelib chiqadi. Asossiz olingan yoki tejab qolingan mol-mulk jabrlanuvchiga asl holida qaytarilishi lozim, agar buning imkoniyati bo'lmasa, mol-mulk qo'lga kiritilishi paytidagi haqiqiy qiymatini to'lash, agar qo'lga kirituvchi orttirilgan boylikning asossizligini bilganidan keyin darhol uning qiymatini to'lamagan bo'lsa, mol-mulk qiymatining keyingi o'zgarishi tufayli ko'rilgan zararni to'lash majburiyati vujudga keladi.

Boshqa shaxslarning ishlarini topshiriqsiz bajarganlik uchun kelib chiqadigan majburiyatlar to'g'risidagi qoidalar ham qonunlarda mavjud. Qonunlarda ko'rsatilishicha, boshqa shaxs manfaatlarini ko'zlab topshiriq olmay harakat qilgan shaxs, shu munosabat bilan qilgan zarur xarajatlarning, shuningdek, boshqa haqiqiy zararining to'lanishini talab qilishga haqli. Agar manfaatdor shaxs topshiriq olmay harakat qilgan shaxsning ishini ma'qullasa, bunday hollarda fuqarolik kodeksining shartnoma to'g'risidagi qoidalari qo'llaniladi va majburiyatlarning kelib chiqishiga asos bo'ladi.

Fuqarolik huquqiy majburiyatlar tanlov e'lon qilishdan ham kelib chiqishi mumkin. Mukofot to'lashni oshkora va'da qilish ommaviy tanlov e'lon qilishdan kelib chiqadigan majburiyatlarda muayyan ishni eng yaxshi bajarganlik yoki boshqa natijalarga erishganlik pul mukofoti to'lash yoki boshqa mukofot berish to'g'risida ommaviy tanlov e'lon qilgan shaxs tanlovni o'tkazish shartlariga muvofiq, uning g'olibi deb topilgan shaxsga shartlashilgan mukofotni to'lashi lozim.

Majburiyatga oid huquqiy munosabatlar hodisalardan ham kelib chiqadi. Masalan: tabiiy hodisalar, yong'in yoki zilzila natijasida ijaraga topshirilgan mulkning zararlanishi tufayli

sug'urta organiga nisbatan kelib chiqadigan majburiyatlarni ko'rsatish mumkin. Majburiyatlar qonunda ko'rsatilgan hollarda boshqa asoslardan ham kelib chiqishi mumkin.

### **Tayanch iboralar:**

Majburiyat, majburiyat huquqi, majburiyat elementlari, shartnomali majburiyatlar, shaxsiy xarakterga ega bo'lgan majburiyatlar, shaxsiy xarakterga ega bo'lmagan majburiyatlar, ijobiy mazmunli majburiyatlar, salbiy mazmunli majburiyatlar, muqobil majburiyatlar, majburiyatda sanksiya.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Majburiyat va majburiyat huquqi tushunchalarining farqi nimalardan iborat?
2. Majburiyat munosabatlarining muhim elementlarini sanab bering.
3. Shartnomali majburiyatlar jumlasiga qaysi huquqiy institutlar kiradi?
4. Majburiyatlar nimalarga asosan farqlanadi?
5. Ijobiy mazmunli majburiyatlarga misol keltiring.
6. Shaxsiy xarakterga ega bo'lgan majburiyatlarni tushintirib bering.
7. Majburiyatda sanksiya nima?
8. Majburiyatlarni buzganlik uchun qo'llaniladigan sanksiyalar necha guruhga bo'linadi?
9. Majburiyatlar tanlov e'lon qilishdan kelib chiqadimi?
10. Majburiyatlarni buzganlik uchun qo'llaniladigan sanksiyalar necha guruhga bo'linadi?

## 1-§. Majburiyatda qatnashuvchi taraflar

Majburiyat huquqiy munosabatlar nisbiy xarakterga ega bo'lib, unda asosan ikki taraf ishtirok etadi. Majburiyatda qatnashuvchi taraflarning biri kreditor, ikkinchisi – qarzdor deb ataladi. Majburiyatda qarzdor va kreditor bo'lib ishtirok etuvchilar fuqarolik huquq va majburiyatlarga ega bo'la oladigan shaxslar bo'lishlari kerak. Majburiyatga oid munosabatlarda kreditor va qarzdor sifatida fuqarolar, yuridik shaxslar, shuningdek, ba'zi hollarda O'zbekiston Respublikasi ham subyekt sifatida ishtirok etishi mumkin.

Fuqarolik huquqida aksariyat majburiyatlarda qatnashuvchi shaxslar bir vaqtning o'zida ham kreditor, ham qarzdor bo'lib hisoblanadi. Masalan, oldi-sotdi shartnomasida sotuvchi sotilgan narsani topshirish yuzasidan qarzdor, uning summasini talab qilib olish yuzasidan kreditor hisoblanadi va, aksincha, sotib oluvchi narsani talab qilib olish yuzasidan kreditor, uning summasini to'lash yuzasidan qarzdor hisoblanadi. Binobarin, majburiyatda ishtirok etayotgan taraflarda, ya'ni kreditor va qarzdorda ham talab qilish huquqi, ham majburiyat bo'lsa, bunday majburiyatlar murakkab majburiyatlar deb ham yuritiladi.

Odatda, har bir majburiyatda ikki taraf kreditor va qarzdor qatnashadi. Ammo ba'zi hollarda majburiyatda kreditor yoki qarzdor tarafida yoxud har ikki tarafda ham bir necha shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Bunday majburiyatlar ko'p shaxsli majburiyatlar hisoblanadi. Masalan, bir mulk ikki shaxs tomonidan sotib olinganida – sotuvchi huzurida uning summasini to'lash yuzasidan qarzdor tomonidan ikki shaxs qatnashadi<sup>1</sup>.

Majburiyatda ko'pchilik bo'lib qatnashuvchi shaxslar aktiv, passiv va aralash ishtirokchilarga ajratilishi mumkin<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2009. – B. 473.

<sup>2</sup> Рахманкулов Х.Р. Обязательственное право. Учебник . – Т., ТГЮИ.2005. – С. 31.



Majburiyatda ko'pchilik bo'lib kreditor tarafida qatnashuvchi shaxslar-aktiv ishtirokchilar deb, qarzdor tarafida qatnashuvchi shaxslar esa passiv ishtirokchilar deb ataladi. Agar majburiyatda qatnashuvchi shaxslar ikki tarafda ham ko'pchilik bo'lib ishtirok etsa, aralash ishtirokchilar deb ataladi.

Ko'p shaxslar ishtirok etgan majburiyatlar ulushli va sherik majburiyatlarga bo'linadi. Ulushli majburiyatlarda qatnashuvchi kreditorlarning har biri qarzdordan tegishli ulushining bajarilishini talab qilish huquqiga ega bo'lsa, ulushli qarzdorlardan har biri o'ziga tegishli ulushni bajarishga majbur bo'ladi.

Fuqarolik kodeksining 251-moddasida ko'rsatilganidek, agar ulushli majburiyatda bir necha kreditor yoki bir necha qarzdor ishtirok etsa, basharti, qonundan yoki shartnomadan boshqacha tartib anglashilmasa, u holda har bir kreditor majburiyatni boshqalar bilan teng ulushlarda talab qilishga haqli, har bir qarzdor esa bu talabni bajarishi shart.

Ulushli majburiyatga ikki fuqaro tomonidan ulushlarga bo'linib qurilgan uy-joyning sotilishida sotuvchilardan har biri o'z ulushiga nisbatan tegishli haqni talab qilish yuzasidan kreditor bo'lishini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Yuridik shaxslar o'rtasida ham ulushli majburiyatlar vujudga kelishi mumkin. Jumladan, bir necha tashkilot birgalashib uy-joy qurganida, tashkilotlarning har biri o'z ulushiga yarasha uy-joyni boshqarish va undan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

Ulushli majburiyatlarda faol ishtirokchi bo'lgan kreditorlardan har bir qarzdordan faqat o'ziga tegishli ulushnigina talab qilish huquqiga ega bo'lsa, qarzdorlardan har biri o'ziga tegishli ulushda majburiyatni bajarishga majbur bo'ladi.

Kreditorlardan biriga majburiyatning qarzdorlardan biri tomonidan o'z ulushiga yarasha bajarishi ulushli majburiyatni butunlay bekor qilmaydi. Bunday majburiyat to boshqa kreditorlarning talablari qondirilguncha yoki boshqa qarzdorlar o'z ulushlariga yarasha majburiyatlarini bajarguncha saqlanib qoladi.

Kreditorlar va qarzdorlar ko'pchilik bo'lgan taqdirda kreditorlardan har biri qarzdordan qarzni boshqalar bilan

teng ulushda talab qilishga haqli va qarzdorlarning har biri esa boshqalar bilan teng ulushda majburiyatini bajarishga majbur bo'ladi. Sheriklik majburiyatlariga asosan, kreditor majburiyatning to'la hajmda bajarilishini, sherik qarzdorlarning har qaysisidan majburiyatning butunlay bajarilishini talab qilishga haqli.

Yuqorida berilgan ta'rifga ko'ra, sheriklik majburiyatlarida qatnashuvchilar sifatida qarzdor bitta, kreditorlar bir necha bo'lishi yoki bir necha kreditor va bir necha qarzdor bo'lishi mumkin. Sheriklik asosida majburiyat olganlar – sherik qarzdorlar bo'lsa, sheriklik asosida talab qilish huquqiga ega bo'lganlar sherik kreditorlar deb ataladi. Sheriklik majburiyatining mazmunini sheriklik majburiyati va sheriklikka oid talab qilish huquqlari tashkil etadi. Masalan, bir necha shaxs tomonidan bir kishiga yoki tashkilotga ziyon yetkazilganida, qonun bo'yicha sheriklik majburiyati belgilanadi. Bir necha vorislarga qarashli, ulushli va bo'linmagan uy-joy bir fuqaro tomonidan sotib olinganda sheriklikka asoslangan talab qilish huquqi vujudga keladi. Sheriklik majburiyatida kreditorlarning talablari yoki qarzdorlarning majburiyatlari ulushlarga bo'linmaydi. Ammo kreditorlardan biri yoki bir nechta qarzning qisman bajarilishini talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Sheriklik (solidaritet) asosida belgilanadigan majburiyatga ko'ra, qarzdorlardan biri tomonidan majburiyat bajarilmaganida, uning uchun boshqa sherik qarzdorlar javobgar bo'lishadi va aksincha sherik qarzdorlar bajarmagan majburiyatning bajarilishini bunday qarzdorlarning biridagina talab qilish ham mumkin.

FKning 252-moddasida ko'rsatilganidek, qarzdorlarning sheriklik majburiyati belgilanganida kreditor majburiyatning qarzdorlarning barchasidan birgalikda, shuningdek, har qaysisidan ayrim-ayrim holda to'la yoki qisman bajarilishini talab qilishga haqlidir. Sherik qarzdorlarning biridan to'la qanoat hosil qilmagan kreditor ololmagan narsasini boshqa sherik qarzdorlardan talab qilishga haqli. Sherik qarzdorlar to majburiyat to'la bajarilgunga qadar qarzdor bo'lib qolaveradi. Sherik qarzdorlarning har biri kreditorning talablariga qarshi

e'tirozlarini bildira oladi. Jumladan, qarzning ilgari to'liq yoki qisman to'langanligini ko'rsatishlari mumkin. Ammo sheriklik majburiyati bo'lgani holda, qarzdor kreditorning talablariga qarshi boshqa qarzdorlarning kreditorga nisbatan bo'lgan, mazkur qarzdor ishtirok etmagan, munosabatlarga asoslangan e'tirozlarini qo'ya olmaydi (FKning 253-moddasi).

Sheriklik majburiyatining qarzdorlardan biri tomonidan to'la bajarilishi boshqa qarzdorlarni kreditorga nisbatan majburiyatni bajarishdan ozod qiladi. Sheriklik majburiyatini bajargan qarzdor, qonun yoki shartnomalarda boshqacha tartib belgilab qo'yilmagan bo'lsa, majburiyatni bajargan qarzdor o'z ulushini chegirib tashlab, boshqa qarzdorlarga teng ulushlarda regress talab qo'yish huquqiga ega bo'ladi. Majburiyatini bajargan qarzdorga to'lanmagan haq bu va boshqa qarzdorlar zimmasiga teng ulushlarda tushadi (FKning 254-moddasi).

Agar sheriklik majburiyatida kreditorlar bir necha bo'lsa, u holda sherik talablari vujudga keladi va sherik kreditorlarning har qaysisi qarzdorga nisbatan to'la hajmda talab qo'yishga haqli bo'ladi. Bunday sheriklik talablariga faol sheriklik deyiladi. Sheriklik talablariga binoan, qonun yoki shartnomada boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, qarzdor kreditorlarning biriga majburiyatni to'la hajmda bajarishi mumkin, kreditor esa qabul qilib olishga majbur. Sherik kreditorlardan har biri ham qarzdordan majburiyatning to'la hajmda bajarilishini talab qilishga haqli. Bunday talab qo'yilganda, qarzdor ana shu kreditorlardan biriga nisbatan bajarishdan ozod qiladi (FK 255-moddasining uchinchi qismi).

Sheriklik talablari ko'pincha birgalikdagi faoliyatdan, sherik mualliflikdan va boshqa ba'zi huquqiy munosabatlardan kelib chiqishi mumkin. Sherik kreditorlardan har biri harakati bilan boshqa kreditorning manfaatiga ziyon yetkazmasligi kerak. Jumladan, sherik kreditorlardan birining qilgan harakati qarzdorlardan birini majburiyatning muayyan qismini bajarishdan ozod qilishga qaratilgan bo'lsa ham, bu qarzdor sherik kreditorlar huzurida majburiyatni to'la bajarishdan ozod bo'lmaydi. Qarzdor sherik kreditorlarning biri tomonidan qo'yilgan talabga qarshi

o'zining boshqa sherik kreditorlar bilan bo'lgan, mazkur kreditor ishtirok etmagan munosabatlarga asoslangan e'tirozini qo'ya olmaydi. Masalan, pudrat shartnomasi bo'yicha pudratchi bir necha jamoa xo'jaligining buyurtmasiga binoan stadion qurishi kerak bo'lib, keyinchalik shu jamoa xo'jaliklarining biridan buyurtmani kechiktirib bajarishga muhlat olgan bo'lsa, qolgan jamoa xo'jaliklarining buyurtmasini o'z vaqtida bajarishi uchun qo'ygan talabiga kechiktirib bajarish uchun olgan muhlatini qarshi qo'ya olmaydi.

Majburiyatning qarzdor tomon sherik kreditorlaridan birining to'la hajmda bajarilishi, uni boshqa kreditorlarga nisbatan bajarishdan ozod qiladi. Qarzdordan majburiyatning ijrosini qabul qilib olgan sherik kreditor, basharti ular o'rtasidagi munosabatlardan boshqacha tartib anglashilmasa, boshqa kreditorlarga tegishli bo'lgan ulushlarni to'lashi shart (FK, 255-modda).

Aralash sheriklik majburiyatlarda bir vaqtning o'zida bir necha kreditor va qarzdor shaxs ishtirok etadi. Bunday majburiyatlarni bajarish tartibiga faol va sust sheriklik majburiyatlarini bajarish deyiladi. Masalan, shaxsiy mulk huquqi asosida uy-joyga ega bo'lgan bir necha fuqaro ta'mirlovchi brigada bilan pudrat shartnomasi tuzgan bo'lsa, ulardan har biri majburiyatning to'la hajmda bajarilishini brigadaning har qaysi a'zosidan talab qilishga haqli.

Tashkilotlar yuridik shaxs sifatida mustaqil mulkiy javobgarlikka ega bo'lib, xo'jalik hisobi asosida ish olib borganliklari sababli har qaysi tashkilot majburiyatini bajarmaganligi uchun o'zicha alohida javobgar bo'ladi. Lekin ayrim hollarda aralash sheriklik majburiyati asosida ham javobgarlik belgilanishi mumkin. Masalan, turli tashkilotlarga qarashli avtomashinadan bir necha fuqaroga ziyon yetkazilsa, birgalikdagi aralash sherik javobgarlik belgilanishi mumkin.

Qo'shimcha (subsidiar) majburiyatlar faqat qarzdorlar tarafida vujudga keladi. Majburiyat asosiy qarzdor tomonidan bajarilmaganida, kreditor uning bajarilishini qo'shimcha qarzdordan talab qilishga haqli. Subsidiar javobgarlik asoslari

FKning 329-moddasida nazarda tutilgan. Bunga asosan, qonunchilik yoki majburiyat shartlariga muvofiq, asosiy qarzdor bo'lgan boshqa shaxsning javobgarligiga qo'shimcha ravishda bo'lgan (subsidiar javobgarlik) shaxsga talablar qo'yishdan oldin kreditor asosiy qarzdorga talab qo'yishi kerak. Agar asosiy qarzdor kreditorning talabini qondirishdan bosh tortsa yoki kreditor undan qo'yilgan talabga oqilona muddatda javob olmagan bo'lsa, bu talab subsidiar javobgar bo'lgan shaxsga qo'yilishi mumkin. Kreditor asosiy qarzdorga bo'lgan o'z talabini qondirilishni subsidiar javobgar shaxsdan talab qilishga haqli emas, basharti bu talab asosiy qarzdorga muqobil talabni hisobga o'tkazish yoki mablag'larni asosiy qarzdordan nizosiz undirib olish yo'li bilan qondirilishi mumkin bo'lsa, subsidiar javobgar shaxs o'ziga kreditor tomonidan qo'yilgan talabni qondirilishdan oldin bu haqda asosiy qarzdorni ogohlantirish, bordi-yu, bunday shaxsga nisbatan da'vo qo'zg'atilgan bo'lsa, asosiy qarzdorni ishda qatnashishga jalb qilish kerak. Aks holda, asosiy qarzdor o'zining kreditorga qarshi e'tirozlarini subsidiar javobgar shaxsning regress talabiga qarshi qo'yish huquqiga ega.

Sheriklik majburiyati bo'yicha boshqalar uchun majburiyatni bajargan qarzdor regress (qaytarma) da'vo huquqiga ega bo'lsa, qo'shimcha majburiyatni uchinchi shaxsga nisbatan bajargan qarzdor, agar qonun yoki shartnomalarda boshqacha hol belgilanmagan bo'lsa, shu bajarilgan narsani qaytarib olish huquqiga ega bo'lmaydi. Masalan: ota-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar, voyaga yetmagan bolalarning harakati natijasida yetkazilgan zararni uchinchi shaxsga to'laganlarida mazkur haqni qaytarib olish huquqiga ega emaslar.

Qo'shimcha majburiyat qonun yoki shartnomalarda ko'rsatilgan taqdirdagina vujudga keladi. Jumladan, qonunda aytilishicha, o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan o'smir tomonidan yetkazilgan ziyon uchun ularning ota-onalari, vasiy va homiylari qo'shimcha javobgardirlar.

## 2-§. Majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishi

Kreditorning o'zgarishi majburiyatga oid huquqiy munosabatlarda muayyan subyektlar o'rtasida vujudga keladi. Majburiyatni bajarishda ishtirok etayotgan taraflar o'rinlarini boshqa shaxs bilan almashinishlariga qonun bo'yicha yo'l qo'yiladi. Majburiyatda qatnashuvchi kreditor ham, qarzdor ham boshqa shaxslar bilan almashinishlari mumkin.

Kreditorning almashinishi deb, majburiyatda ishtirok etayotgan kreditor o'z o'rnini boshqa shaxs bilan almashinishiga aytiladi. Kreditorning talab qilish huquqini boshqa shaxsga o'tkazilishiga, agar bu qonun yoki shartnomaga zid bo'lmasa yoki talab kreditorning shaxsi bilan bog'liq bo'lmasa, yo'l qo'yiladi. Agar talab kreditorning shaxsi bilan chambarchas bog'langan bo'lsa masalan, FKning 314-moddasida ko'rsatilganidek, alimentlar va hayotga yoki sog'liqqa yetkazilgan zararni to'lash to'g'risidagi talablarning boshqa shaxsga o'tishiga yo'l qo'yilmaydi. Ba'zi hollarda talab qilish huquqini o'tkazishga shartnoma bo'yicha ham yo'l qo'yilmaydi. Masalan, umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga bergan shaxs o'zining talab qilish huquqini boshqa shaxsga o'tkaza olmaydi. FKning 318-moddasida ko'rsatilishicha, kreditorning majburiyat bo'yicha huquqlari boshqa shaxsga quyidagi hollarda o'tadi:

1. Kreditor huquqlaridagi universal huquqiy vorislik natijasida;

2. Kreditor huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi sudning qaroriga muvofiq;

3. Qarzdorning majburiyati ushbu majburiyat bo'yicha qarzdor bo'lmagan kafil yoki garovga qo'yuvchi tomonidan bajarilishi oqibatida;

4. Sug'urta holati boshlanishi uchun javobgar bo'lgan qarzdorga nisbatan kreditor huquqlarining sug'urta qiluvchiga o'tishi natijasida;

5. Qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Talab qilish huquqini boshqa shaxsga o'tkazgan kreditor bu huquqni tasdiqlaydigan hujjatlarni ham ana shu shaxsga

topshirishga majbur. Jumladan, kreditor qarzdordan tilxat olgan bo'lsa, mazkur hujjatga talab qilish huquqining o'tkazilganligini yozib, uni yangi kreditorga topshirishi lozim. Dastlabki kreditor yangi kreditor oldida unga o'tkazilgan talabning qarzdor tomonidan bajarilmaganligi uchun javob bermaydi, dastlabki kreditor yangi kreditor oldida qarzdor uchun o'z zimmasiga kafolatini olgan hollar bundan mustasno (FK, 321-modda).

Kreditorning huquqlari boshqa shaxsga o'tishi uchun, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, qarzdorning roziligi talab qilinmaydi. Agar qarzdor kreditorning huquqlari boshqa shaxsga o'tganligi haqida yozma ravishda xabardor qilinmagan bo'lsa, yangi kreditor shu tufayli kelib chiqqan o'zi uchun noqulay oqibatlar xavfini o'z zimmasiga oladi. Mazkur holda majburiyatning dastlabki kreditorga nisbatan bajarilishi tegishli kreditorga nisbatan bajarish deb hisoblanadi (FK, 313-modda).

Ba'zi hollarda normativ hujjatlarning o'zida ham talab qilish huquqini umumiy qoida sifatida o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi, masalan, temir yo'l ustavining 172-moddasida temir yo'l korxonasi talab, shikoyat yoki da'vo qo'zg'atish huquqini boshqa tashkilotga yoki fuqaroga o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi ko'rsatilishi bilan birga, qanday hollarda bu qoidadan istisnolar bo'lishi ham aytilgan. Qarzdor majburiyat bo'yicha huquqlar yangi kreditorga o'tganligi haqida ogohlantirish olgan paytda dastlabki kreditorga qarshi e'tirozlarni yangi kreditorning talabiga qarshi qo'ya oladi (FK, 317-modda). Masalan, majburiyatning qisman bajarilganligini yoki qarz hujjatida ko'rsatilgan summaning olinmaganligini ko'rsatib, o'z e'tirozlarini yangi kreditor talabiga qarshi qo'yish huquqiga ega.

Qarzdorning almashinishiga kelsak, majburiyatda qatnashayotgan qarzdor ham o'z o'rnini boshqa shaxs bilan almashish huquqiga ega. Qarzdor almashgani tufayli yangi qarzdor majburiyatli bo'lib qolishiga – qarzning (majburiyatning) ko'chirilishi deyiladi.

Qarzdorning o'z qarzini boshqa shaxsga o'tkazishiga faqat kreditorning roziligi bilan yo'l qo'yiladi (FK, 322-modda).

Qarzdor uchun qaysi kreditorga nisbatan majburiyatni bajarishning farqi yo'q bo'lsa ham kreditor uchun kim yangi qarzdor bo'lishining ahamiyati bor. Avvalo, kreditorning yangi qarzdorning mulkiy holati, ish qobiliyati hamda majburiyatni bajarishga qodir bo'lish-bo'lmasligi qiziqtiradi. Agar, masalan, yuqori malakali usta ishni bajarishni o'z shogirdiga topshirmoqchi bo'lsa, kreditor ish manfaatlarini ko'zlab bunga rozi bo'lmasligi ham mumkin. Dastlabki qarzdor boshqa shaxsga majburiyatini o'tkazganida kreditorga nisbatan majburiyatni bajarishdan butunlay ozod bo'ladi. Uning barcha majburiyati yangi qarzdor zimmasiga o'tadi. Kreditor bilan dastlabki qarzdor o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan barcha e'tirozlarni yangi qarzdor kreditorning talabiga qarshi qo'ya oladi, jumladan, yangi qarzdor ham dastlabki qarzdor kabi majburiyatning qisman bajarilganligini yoki qarzning qisman to'langanligini yoxud hujjatda ko'rsatilganga qaraganda kamroq summada olinganligini aytib, e'tirozlarini bildira oladi. Kreditor yangi qarzdordan majburiyatni to'la hajmda bajarishni talab qila oladi, chunki majburiyatni ko'chirishda uning mazmuni o'zgarmaydi. Masalan, qarz shartnomasida qarzdor almasha, kreditor yangi qarzdordan to'la hajmda to'lanishini talab qila oladi.

Agar kafil yoki garovga qo'yuvchi yangi qarzdor uchun javobgar bo'lishiga rozilik bermasa, kafillik yoki uchinchi shaxs tomonidan berilgan garov qarzning boshqa shaxsga ko'chirilishi bilan bekor bo'ladi. Qarzni (majburiyatni) ko'chirish, ko'pincha, fuqarolarning o'zaro munosabatlarida qo'llaniladi. Ammo majburiyat qarzdorning shaxsi bilan bog'liq bo'lsa, qarzni ko'chirish mumkin emas.

Yozma shaklda tuzilgan bitimga asoslangan talab qilish huquqini o'tkazish va qarzni (majburiyatni) ko'chirish oddiy yozma shaklda qilinishi lozim. Agar bitim notarial tasdiqlangan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lsa, u holda ushbu tegishli shaklga rioya qilingan holda amalga oshiriladi. FKning 323-moddasida qarzni ham, majburiyat bo'yicha, ijroni ham bir paytda boshqa shaxsga o'tkazish qoidalari nazarda tutilgan. Bunga asosan qarzdorni qarzni to'lash majburiyatidan ozod



qilmagan holda qarzni yoki uning bir qismini boshqa shaxsga o'tkazishga ruxsat beriladi. Bu holda har ikkala qarzdor majburiyatning bajarilishi uchun sherik (solidar) javobgar bo'ladi. Qarzdorning uchinchi shaxs bilan shartnomasi asosida uchinchi shaxs majburiyatining bajarilishi bo'yicha kreditor oldida emas, balki faqat qarzdor oldida burchli bo'ladi.

### **3-§. Regress majburiyat**

Fuqarolik huquqida regress tushunchasi, qaytarish degan ma'noni, ya'ni birov uchun to'langan pulni qaytarish to'g'risidagi talabni bildiradi. Qaytarma majburiyat sheriklik va qo'shimcha majburiyatlarni bajarishdan kelib chiqadi. Sherik qarzdorlardan biri kreditorga nisbatan majburiyatni to'la hajmda bajarib, keyinchalik ular uchun to'langan summani, qilingan ish xarajatlarini qolgan qarzdorlardan qaytarma talab asosida qoplata oladi.

Qaytarma (regress) majburiyat deb, bir taraf ikkinchi taraf uchun uchinchi shaxs oldida bajargan majburiyatni qaytarish to'g'risida talab qila olish huquqiga aytiladi. Regress (qaytarma) talabda ham boshqa majburiyatlar singari ikki taraf ishtirok etadi. X. Rahmonkulovning fikricha, kreditor regrediyent qarzdor regressat deb nomlanadi.<sup>1</sup> Masalan, qarz shartnomasiga asosan qarzdorlardan biri qarzni to'la hajmda to'lasa, qarz majburiyati bekor bo'ladi. Lekin boshqa qarzdorlar uchun qarzni to'lagan qarzdor ulardan tegishli summani undirish uchun qaytarma talab qila oladi<sup>2</sup>.

Agar majburiyatni to'la hajmda bajargan qarzdor bu to'g'rida boshqa sherik qarzdorlarini ogohlantirmasa, sherik qarzdorlar majburiyatni bajarmagan bo'lsa, zarar ko'rgan qarzdor qolgan qarzdorlarga nisbatan qaytarma da'vo qo'zg'ata olmaydi. U faqat kreditorga nisbatangina uning asossiz olganini qaytarishi to'g'risida da'vo qila oladi. Qaytarma talab uchinchi shaxsga nisbatan qilingan xarajatning umumiy miqdoridan oshmasligi kerak.

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov H. Majburiyat huquqi. – Toshkent: TDYuI, 2005. – 46-b.

<sup>2</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2009. – B. 482.

Qaytarma majburiyat xo'jalik tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarda ko'proq tarqalgan. Jumladan, mahsulot yetkazib beruvchi tashkilotdan sotib oluvchi tashkilotga mahsulot sifatsiz bo'lgani uchun jarima to'laganida – bunday sanksiyaga (jarima) tortilishi mahsulot tayyorlovchi tashkilotning shartnoma shartlarini buzganligi sababli vujudga kelganligi ko'rsatilib, keyinchalik bu jarima summasining o'ziga qaytarilishi to'g'risida mahsulot tayyorlovchi tashkilotga qaytarma da'vo qo'zg'ata oladi.

Bir so'z bilan aytganda, qaytarma da'vo tashkilotlar o'rtasida har bir xo'jalik yurituvchi subyektning o'z majburiyatiga nisbatan javobgarligini va mas'uliyatini oshiradi hamda u muayyan ahamiyatga ega bo'ladi.

### **Tayanch iboralar:**

Majburiyatda qatnashuvchi taraflar, majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishi, regres majburiyat, regrediyent, regressat, aktiv ishtirokchilar, passiv ishtirokchilar, aralash ishtirokchilar.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Ulushli majburiyatlar deb nimaga aytiladi?
2. Majburiyatda qatnashuvchi taraflar nima deb aytiladi?
3. Aralash sheriklik tushunchasiga ta'rif bering.
4. Kreditorning majburiyat bo'yicha huquqlari qaysi hollarda boshqa shaxslarga o'tadi?
5. Qaytarma majburiyat deb qanday majburiyatga aytiladi?
6. Kreditorning almashinishi deb nimaga aytiladi?
7. Qaysi hollarda qarzni ko'chirish mumkin emas?
8. Regrediyent nima?
9. Talab qilish huquqini o'tkazishga qaysi hollarda yo'l qo'yilmaydi?
10. Majburiyatda shaxslarning o'zgarishiga qaysi hollarda ruxsat beriladi?

### 1-§. Majburiyatlarni bajarish tushunchasi

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi shartnomaviy aloqalarni mustahkamlash majburiyatlarning bajarilishida muhim o'ringa ega bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi majburiyatlarning o'z vaqtida va lozim darajada bajarilishi, iqtisodiy kontragentlar o'rtasidagi ishonchni oshirishi bilan birga, mamlakatdagi iqtisodiy-huquqiy aloqalarning davomiyligi va mustahkamligini ta'minlaydi.

Majburiyatlarni bajarish deb, qarzdor tomonidan kreditor talabiga muvofiq muayyan bir harakatning qilinishi yoki harakatdan saqlanish tushuniladi. Qarzdorning majburiyatni bajarishi kreditorga ashyoni topshirish, ma'lum ishni bajarish, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash, asossiz olingan mulkni qaytarish kabilardan iborat<sup>1</sup>.

Davlat, yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan olingan majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishi xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirish mulkiy munosabatlarni mustahkamlash, jamiyatning tobora o'sib borayotgan moddiy va madaniy talablarini qondirishda katta rol o'ynaydi.

Majburiyatning bajarilishi bir tomonlama bitim sanaladi, zero, mohiyatan bu ijro harakati mavjud bo'lgan majburiyatlarni kreditorning yoki uchinchi shaxsning (agar majburiyat shartlarida shu narsa nazarda tutilgan bo'lsa) foydasiga bajarishga qaratilgandir<sup>2</sup>.

FKning 236-moddasi qoidalarida majburiyatni ijro etishning muhim taomili, ya'ni majburiyatni lozim darajada bajarish o'z ifodasini topgan. Shuningdek, majburiyatni bajarish mezonlari

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2009. – B. 484.

<sup>2</sup> Rahmonqulov H.R. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. I jild. – T.: «Vektor-Press» 2010. – B. 589.

ham o'rnatilganki, ijro ularga mos bo'lishi shart. Avvalo, majburiyatning bajarilishi majburiyat shartlariga va qonunchilik talablariga muvofiq bo'lishi shart.

Agar qonunchilikda qandaydir talab ko'zda tutilgan bo'lsa-yu, bu talabni taraflar shartnomaga kiritmagan bo'lsa ham, mazkur talab majburiyatlar mazmunini tashkil etadi va taraflar uchun majburiydir. Masalan, mahsulot yetkazib berish shartnomasi, xizmat ko'rsatish, ishlar bajarish to'g'risidagi shartnomalarning taraflari uchun mahsulotning, xizmatlarning iste'molchilarning hayoti va salomatligi, atrof muhit va sh.k. xavfsizligiga oid turli davlat standartlari talablari majburiy hisoblanadi.

Majburiyatlar FKning 236-moddasida aytilganidek, majburiyat shartlariga va qonunchilik talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmagan taqdirda esa ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak. Bunda taraflarning har biri o'z majburiyatlarini ancha tejamli bajarish, ikkinchi tomonga uning o'z majburiyatlarini bajarishda har tomonlama yordam ko'rsatishi lozim<sup>1</sup>.

Majburiyatlar davlat hujjatlari va shartnomalardan kelib chiqqan bo'lsa, ularda ko'rsatilgan talab va shartlarga muvofiq bajarilishi kerak. Agar davlat hujjatlarida majburiyatni bajarish sharti ko'rsatilmagan bo'lsa, majburiyatlar o'zaro kelishib qo'yiladigan talablarga muvofiq, lozim darajada bajarilishi zarur. Majburiyatni bajarishda har ikki tomon xo'jalik aloqalarining rivojlanishini ko'zlab, tejamlilik bilan va o'zaro hamkorlikda zarur harakatlarni qilishlari talab etiladi.

Majburiyatlarni bajarish bir qator tamoyillarga asoslanadi. Ular majburiyatlarni tegishli darajada bajarish, kelishilgan va maqbul usulda bajarish, majburiyatni tegishli shaxs uchun bajarish, aniq bajarish, tejamlilik va o'zaro hamkorlikda bajarish kabilardir. Majburiyatlarni tegishli darajada bajarish deganda, majburiyatlar qo'yilgan talablarga to'liq javob beradigan darajada, bekami ko'st va belgilangan muddatda bajarilishi

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – T., TDYuI. 2009. – B. 485.

nazarda tutiladi. Huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi shaxslar o'z majburiyatlarining lozim darajada bajarilishidan babbaravar manfaatdor bo'lishlari, bir-birlariga ko'maklashishlari faraz qilinadi. Majburiyatlarning lozim darajada bajarilishi jamiyat manfaati hamda uning tobora o'sib borayotgan moddiy va madaniy talablarini qondirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Bozor munosabatlari sharoitida majburiyatlarni tegishli ravishda bajarilishidan nafaqat majburiyat o'z foydasiga bajarilayotgan subyekt, balki oxir-oqibatda jamiyatning har bir a'zosi manfaatdor bo'ladi. Chunki barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan o'z majburiyatini lozim darajada bajarmasligi boshqa subyektlar uchun ham, garchi ular bevosita bunda kreditor sifatida qatnashmasalarda, salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Majburiyatlarni tegishli ravishda bajarish ularni qonunchilikka, shartnoma shartlariga, ish muomalasi odatlariga, odatda qo'yiladigan talablarga muvofiq ravishda shartnoma narsasining sifati, miqdori, hajmi bo'yicha o'z vaqtida bajarilishini anglatadi.

Majburiyatlarni bajarishning yana bir tamoyili bu majburiyatlar kelishilgan va taraflar uchun maqbul usulda bajarilishidan iborat. Majburiyatni bajarish usuli, agar bu usul majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa va qonun bilan belgilab qo'yilgan bo'lmasa, shartnomada ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Ushbu tamoyil mazmuniga ko'ra, o'z navbatida, majburiyatlarning real bajarilishi, uni bajarishda tejimli usullardan foydalanish, majburiyat bajarilishida taraflarning hamkorlik qilish haqidagi qoidalarini anglatadi. Bu qoidalarni ham shartli ravishda, garchi qonunda bevosita sanab o'tilmagan bo'lsa-da, majburiyatlarni bajarish tamoyillari sifatida qarash mumkin. Majburiyatlarning aniq bajarilishi shartnomada ko'rsatilgan harakatning aynan o'zi bajarilishining, topshirilishi lozim bo'lgan narsaning (mahsulotning) asl holatida topshirilishini bildiradi.

Majburiyatning qarzdor aybi bilan kechiktirilishi yoki lozim darajada bajarilmasligi hollarini nazarda tutib, belgilangan neustoyka (jarima, penya)ning ham majburiyatning lozim darajada bajarilmasligi natijasida kelib chiqqan zararining

undirilishi majburiyatni asl hoida bajarishdan qarzdorni ozod qilmaydi.

Qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari, majburiyatni bajarishda bir tomonlama bosh tortish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi (FK, 237-modda). Ammo bu qoida yuqorida aytilganidek, qonunda nazarda tutilgan ayrim hollarda ba'zi majburiyatlar uchun qo'llanilmaydi. Jumladan, topshiriq shartnomasi bo'yicha topshiriq beruvchi bergan topshirig'ini har vaqt bekor qila oladi, topshiriq olgan shaxs xohlagan vaqtida topshiriqni bajarishdan bosh torta oladi. Temir yo'l va boshqa turdagi transport vositasida yo'lovchilar tashish munosabatida ham yo'lovchi talabi bilan shartnoma har qachon bekor qilinishi mumkin.

Majburiyatlarni bajarishda tejamlilik qoidasiga muvofiq majburiyatni bajarishda taraflar kam xarajat bilan ko'p foyda keltirishga qaratilgan harakatlarni qilishlari lozim. Bu qoida kreditor va qarzdorga majburiyatni bajarish jarayonida eng qulay hamda eng foydali usuldan foydalanish lozimligini belgilaydi. Jumladan, pudrat shartnomasi bo'yicha pudratchi ishni buyurtmachi materialidan bajarishda materialni tejamlilik bilan sarflashi va u noto'g'ri ishlatilishi uchun javobgar bo'lishi belgilangan. Yuk tashish shartnomasiga asosan, yuk tashuvchi yukni eng qisqa yo'ldan tashishi ko'rsatilgan.

Majburiyatlarni bajarishda o'zaro hamkorlik tamoyiliga binoan har ikki tomon majburiyatni bajarishda bir-birlariga zarur bo'lgan yordamni ko'rsatishlari lozim. Jumladan, kreditor majburiyatning bajarilishini talab qilish huquqiga ega bo'lishi bilan birga qarzdorning o'z majburiyatini bajarishda unga yordam berishga, ko'maklashishga ham majbur. Masalan, kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq qishloq xo'jalik mahsulotlarining davlat yo'li bilan xarid qilinishida tayyorlovchi (mahsulot qabul qiluvchi) tashkilotlar qishloq xo'jalik korxonalariga mahsulotlar yetishtirishda, mahsulotni tashishni tashkil qilishda yordam ko'rsatishi zarur.

Majburiyatlarni tegishli shaxs uchun bajarish tamoyili FKning 240-moddasida o'z ifodasini topgan. Bunga asosan

tarafning kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lsa va ish muomalasi odatlaridan yoki majburiyatni bajarish chog'ida ijroni kreditorning o'zi yoki bu ish uchun u vakolat bergan shaxs qabul qilayotganligini isbotlashni talab qilishga haqli bo'ladi va bunday talabni qo'ymaganlik oqibatlari xavfi uning zimmasida bo'ladi.

## **2-§. Majburiyatlarni bajaruvchi subyektlar**

Majburiyatni o'z nomidan ijro etuvchi va ijroni qabul qilib oluvchilar majburiyat ijrosining subyektini hisoblanadilar. Ijro subyektlari majburiyat subyektlariga hamma vaqt ham o'xshamasligi mumkin. Majburiyat subyektlari barcha hollarda qarzdor va kreditor bo'ladi. Ijro subyektlari esa ayrim hollarda qarzdor uchun majburiyatni bajaruvchi boshqa biron shaxs bo'lishi, kreditor uchun ijroni qabul qiluvchi uchinchi bir shaxs bo'lishi ham mumkin.

Ammo ba'zi hollarda majburiyat kreditor uchun uning ko'rsatmasiga binoan boshqa shaxsga ham ijro etilishi mumkin. Masalan, mahsulot oluvchi ulgurji savdo bazasi manziliga kelishi lozim bo'lgan mahsulot (tovar)ning bevosita savdo korxonalariga yuborilishi to'g'risida mahsulot yetkazuvchi bilan kelishishi mumkin.

Qarzni depozitga qo'yish yo'li bilan majburiyatning bajarilishi to'g'risida FKning 249-moddasida aytilganki, majburiyat bajarilishi lozim bo'lgan joyda kreditor yoki ijroni qabul qilib olish uchun u vakil qilgan shaxs bo'lmasa yoki vakil rozi bo'lmasa: majburiyat bo'yicha kim kreditor ekanligi xususida aniqlik yo'qligi ko'rinib turgan bo'lsa, xususan, bu haqda kreditor bilan boshqa shaxslar o'rtasida nizo chiqqanligi munosabati bilan kreditorning ijroni qabul qilishdan bo'yin tovlashi yoki uning tomonidan boshqacha yo'l bilan kechiktirilishi munosabati bilan amalga oshiriladi.

Pul summasini yoki qimmatli qog'ozlarni notarius yoxud sudning depozitga qo'yishi, majburiyatni bajarishi hisoblanadi. Depozitga pul yoki qimmatli qog'ozlar qo'ygan notarius

yoxud sud kreditorni bundan xabardor qiladi. Notarial idoraning depozitga qarzni qo'yish yo'li bilan majburiyatning bajarilishiga oid munosabatlar O'zbekiston Respublikasining «Notariat to'g'risida»gi qonuni bilan tartibga solinadi. Mazkur qonunning 74-moddasida aytilishicha, pul summalari va qimmatli qog'ozlar depozitga qo'yilganligi haqida notarius kreditorga xabar qiladi va uning talabi bo'yicha unga tegishli bo'lgan pul summalari va qimmatli qog'ozlarni topshiradi.

Majburiyatning bajarilishi FKning 241-moddasida ko'rsatilganidek, uchinchi shaxs zimmasiga ham yuklatilishi mumkin. Qonunda aytilishicha, agar qonunchilikda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, shuningdek, uchinchi shaxs taraflardan biri bilan tegishli shartnoma orqali bog'liq bo'lsa, shartnomadan kelib chiqqan majburiyatning bajarilishi uchinchi shaxs zimmasiga yuklatilishi mumkin.

**Majburiyatning bajarilishini uchinchi shaxs zimmasiga yuklash uchun quyidagi asoslar bo'lishi kerak:**

1. Belgilangan qoidalarda nazarda tutilgan bo'lishi;
2. Ma'muriy jihatdan bo'ysunish holati bo'lishi;
3. Majburiyatning bajarilishi uchinchi shaxs zimmasiga yuklanishi shartnoma bilan belgilangan bo'lishi kerak.

Bu holatlarda uchinchi shaxsning majburiyatni qabul qilishga roziligini olish zarur, shuningdek, taraflar o'rtasidagi shartnomada tegishli qoida aks etgan bo'lishi, yoxud uchinchi shaxsda yoki taraflardan birida tegishli shartnoma mavjud bo'lishi, yo bo'lmasa qonun hujjatida mazkur majburiyatni uchinchi shaxs zimmasiga o'tkazilishini ko'zda tutuvchi qoida bo'lishi talab etiladi. Aytish kerakki, majburiyatlarni uchinchi shaxsga yuklash fuqarolik muomalasida, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatiga tatbiqan va avvalo subkontragentlik munosabatlarida keng tarqalgan. Mazkur moddaning qoidalari ko'p hollarda tranzit orqali yetkazib berishda (ta'minotchi tovarlarni xaridorga yetkazib berilishini o'zining ta'minotchisiga, ya'ni tovar ishlab chiqaruvchiga topshiradi), subpudrat (yordamchi pudrat) holatlarida (pudratchining topshirig'i bo'yicha subpudratchi ijroni bevosita buyurtmachiga o'tkazadi), subijarada (subijarachi



(ikkilamchi ijarachi) ijarachining topshirig'iga binoan ijara haqini bevosita ijaraga beruvchiga topshiradi), subkomissiyada (subkomissioner sotib olingan tovarni komissioner bergan topshiriq asosida bevosita komitentga o'tkazib beradi) va h.k. tez-tez tatbiq etiladi.

Agar majburiyatni qarzdorning shaxsan o'zi ijro etishga majburligi qonunchilik, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, kreditor qarzdor uchun uchinchi shaxs tomonidan taklif qilingan ijroni qabul qilishi shart. «Majburiyatning mohiyatidan» degan iboraning va qarzdorning shaxsan o'zi ijro etishi to'g'risidagi shartlarni kiritilganligi ijroning o'tkazilishi majburiyat predmetini tashkil etuvchi xatti-harakatlarning xususiyatiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Qarzdor, masalan, majburiyat ijodiy xususiyatga ega bo'lgan holatda (rassom, rejissyor, yozuvchi kabilar bilan shartnoma), uni uchinchi shaxsga o'tkazib bera olmaydi. Qarzdor majburiyatni shaxsan ijro etishi qonunchilikda shart qilib qo'yilgan holatga O'zbekiston Respublikasi FKning 884-moddasida keltirilgan omonatning uchinchi shaxsga topshirilishi buni yuk topshiruvchining manfaatlari zarur qilib qo'ygan va omonat saqlovchi uning roziligini olish imkoniyatidan mahrum bo'lgan holatlardan boshqa barcha holatda taqiqlanishi misol bo'la oladi<sup>1</sup>.

Tabiiyki, qarzdorning majburiyatlarni bajarmaganlik uchun kreditor oldidagi javobgarligi masalasi, majburiyat uchinchi shaxsga o'tkazib berilishiga qaramay, saqlanib qoladi. O'zbekiston Respublikasi FKning 241-moddasining uchinchi qismiga muvofiq, majburiyatning bajarilmaganligi uchun, basharti qonunchilikda yoki shartnomada uchinchi shaxsning javobgar bo'lishi nazarda tutilgan bo'lmasa, shartnomadagi taraf javobgar bo'ladi.

### **3-§. Majburiyatni bajarish predmeti**

Moddiy narsalar (ashyolar, pullar), shuningdek, ijodiy mehnat natijalari (yaratilgan asarlar), umuman nimaning barpo etilishi

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov H.R. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. I jild. – T.: «Vektor-Press» 2010. – B. 595–596.

yoki topshirilishi to'g'risida majburiyat belgilansa, u bajarish predmeti bo'ladi. Faqat u fuqarolik muomalasidan chiqarilmagan ashyolar bo'lishi kerak. Masalan, kreditorga majburiyat bo'yicha muayyan bir ashyoni, jumladan, o'ziga xos belgilari bo'lgan narsani topshirish lozim.

Aytaylik, majburiyat predmeti jismiy alomatlari, jumladan, son, og'irlik yoki o'lchov bilan belgilanadigan bo'lsa, qarzdor tomonidan shu xildagi son, og'irlik yoki o'lchov bilan belgilanadigan ashyo topshirilishi kerak.

Pul majburiyatida u so'mlar bilan chet el valyutasidagi muayyan summadagi ekvivalent (teng) bo'lgan summadagi yoki shartli pul birliklari (Yevro, «maxsus qarz olish huquqlari» va hokazolar) bilan to'lanishi lozimligi nazarda tutilishi mumkin. Bunday hollarda, odatda, hisob-kitoblar to'lov kunidagi rasmiy kurs bo'yicha belgilanadi. Pul to'g'risidagi majburiyatlarni chet el valyutasida ifodalash hamda to'lashga faqat O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi.

Pul majburiyatlari bo'yicha talablarni qondirish navbati haqida to'xtalib, shuni eslatish kerakki, to'lov amalga oshirilayotganda mablag'lar yetarli bo'lmasa (FKning 248-moddasi), sudlar shundan kelib chiqishlari lozimki, asosiy qarz summalaridan oldin to'lanishi lozim bo'lgan foizlarni, pul majburiyatlari bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'laridan foydalanganlik uchun foizlar, shu jumladan, qarz, kredit, avans, oldindan haq to'lash va hokazolardan foydalanganlik uchun foizlar va boshqalarni tushunishlari lozim, deb tavsiya beradi O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining qarori.

**Muqobil va fakultativ majburiyatlar.** Qarzdor ikki yoki bir necha harakatlardan birini qilishga majbur bo'lishi (FKning 250-moddasi) muqobil majburiyat hisoblanadi. Jumladan, ikki fuqaro o'rtasidagi oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sotuvchi oluvchiga o'zida bo'lgan bir narxdagi ikki narsadan birini, masalan, yo televizor yoki muzlatgichni sotish to'g'risidagi kelishishlari mumkin. Bunda shartnoma predmeti ikki ashyo bo'lib ko'riladi. Bu ashyolardan birini tanlab olish bilan

majburiyatni bajarish huquqi qonun, shartnoma yoki majburiyat mazmunidan boshqacha hol anglashilmasa, qarzdorga beriladi.

Fakultativ majburiyat deb, asosan, qarzdor muayyan bir harakatni qilishga majbur bo'lib, shu bilan birga mazkur majburiyatda nazarda tutilgan harakat o'rniga boshqa bir harakatni qilish huquqini o'zida saqlab qolishga aytiladi. Jumladan, shartnomada televizorning sotilishi ko'rsatiladi, ammo shu bilan birga sotuvchi televizor o'rniga muzlatgichni sotish huquqini o'ziga belgilab qo'yadi.

Majburiyatlarning muqobil va fakultativ majburiyatlarga bo'linib bajarilishining ma'lum huquqiy oqibatlari bor. Jumladan, muqobil majburiyatda ko'rsatilgan ashyolardan biri tasodifan nobud bo'lsa, o'rniga ikkinchisi topshiriladi, Demak, bunday holda majburiyat bekor bo'lmaydi. Ammo fakultativ majburiyatda ko'rsatilgan asosiy narsa tasodifan qarzdorning aybi bilan bog'liq bo'lmagan holda nobud bo'lsa, bunday majburiyat bajarish mumkin bo'lmaganligi tufayli bekor bo'ladi.

#### **4-§. Majburiyatni bajarish muddati, joyi va usuli**

Majburiyatni bajarish muddati qonun bilan yoki taraflarning o'zaro kelishuvi bilan yoxud sud qarori bilan belgilanishi mumkin. Majburiyatni bajarish muddati kalendar sana bilan yoki muayyan vaqtda, masalan, uch oy ichida bajarilishini ko'rsatish bilan yoxud biron hodisaning vujudga kelishi, jumladan, paxta hosilning yig'ishtirib olinishi vaqti bilan ko'rsatilishi mumkin. Muddatlar umumiy va juz'iy, asosiy va maxsus, boshlang'ich va oxirgi muddatlarga bo'linishi mumkin.

Umumiy muddat – barcha majburiyatning butunlay bajarilishi muddati bo'lsa, juz'iy muddat – majburiyatning qonun yoki shartnomada nazarda tutilgan qismlarga bo'linib, qisman bajarilishidir. Bunday muddatlar asosiy muddatlar hisoblanadi, chunki bu muddatlar taraflarning asosiy majburiyatlarini bajarishlari uchun belgilanadi,

Maxsus muddatlar biron-bir qo'shimcha, maxsus harakatlarni bajarish, jumladan, qonun yoki shartnomada nazarda tutilgan

hollarda zarur hujjatlarni topshirish, mahsulotda bo'lgan kamchiliklar to'g'risida dalolatnomalar tuzish uchun belgilangan muddatlardir.

Ba'zi majburiyatlarda, masalan, pudrat shartnomasida ishni boshlash muddati boshlang'ich muddat va ishni tamomlash muddati oxirgi muddat qilib ko'rsatilishi mumkin. Muddatlarni hisoblashga oid qoidalar FKning 145–148-moddalarida ko'rsatilgan. Bajarish muddati belgilanmagan majburiyatlar ham uchraydi. Ba'zi hollarda o'zaro shartnoma tuzishda majburiyatni bajarish muddatini belgilamasliklari yoki majburiyatning kreditor yoki qarzdor talab qilgan zahoti bajarilishi kerakligini belgilashlari mumkin.

Agar majburiyatni bajarish muddati ko'rsatilmagan yoki talab qilib olish payti bilan belgilanib qo'yilmagan bo'lsa, kreditor majburiyatda ijroni talab qilishga, qarzdor esa ijroni har qachon amalga oshirishga haqli bo'ladi. Majburiyatni darhol bajarish vazifasi qonun, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab yetti kunlik muddat ichida bajarishi shart (FK, 242-modda). Muddat ko'rsatilmay belgilangan majburiyatlarga omonat saqlash majburiyatini ko'rsatish mumkin. Taraflardan birining talabi bo'yicha omonat shartnomasi har qachon bekor qilinishi va ashyoni omonatga qo'ygan shaxs har qachon uning qaytarilishini talab qilishga, omonat saqlovchi esa darhol qaytarishga majbur bo'ladi.

Agar ashyolar talab qilib olinguncha yoki muddat ko'rsatilmay saqlash uchun topshirilgan bo'lsa, omonat saqlovchi har qachon shartnomadan bosh torta oladi, ammo bu holda u omonat topshirgan shaxsga mulkni qayta qabul qilish uchun mazkur sharoitlarda yetarli muddat berishga majbur. Qonun ba'zi hollarda kreditorga ham ijroni qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish uchun muhlat olish mumkinligini belgilaydi. Jumladan, agar mulk ijarasi shartnomasi muddati ko'rsatilmay tuzilgan bo'lsa, bu holda u noma'lum muddatga tuzilgan sanaladi va har ikki taraf xohlagan vaqtda shartnomani bekor qila oladilar. Bu holda shartnomani bekor qilmoqchi bo'lgan taraf ikkinchi tarafni

bir oy oldin ko'chmas mulk ijarasida esa uch oy ilgari yozma ogohlantirilishi lozim deb ko'rsatiladi.

Majburiyatlar muddatidan ilgari ham bajarilishi mumkin. Majburiyatning bajarilish vaqti kreditor uchun har xil ahamiyatga ega bo'ladi. Jumladan, kreditor omonatga qo'yilgan narsani muddatidan ilgari o'ziga qaytarilishini istamasligi, qarz shartnomasi bo'yicha esa berilgan qarzning muddatidan avval qaytarilishiga qarshi bo'lmasligi mumkin. Agar qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa yoxud majburiyatlarning mohiyatidan yoinki ish muomalasi odatlaridan yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablardan anglashilsa, qarzdor majburiyatni muddatidan ilgari bajarishga haqli, kreditor esa ijroni muddatidan ilgari qabul qilishi shart (FK, 243-modda).

Fuqarolik huquqida majburiyatlarning lozim darajada bajarilishining eng muhim shartlaridan biri uni bajarish joyi hisoblanadi. Amalda shartnomaviy majburiyatlarni bajarish joyi shartnomaning o'zida ko'rsatiladi. FKning 246-moddasiga asosan agar majburiyatni bajarish joyi qonunchilik yoki shartnoma bilan belgilab qo'yilgan bo'lmasa va majburiyatning mohiyatidan yoxud ish muomalasi odatlaridan yoinki odatda qo'yiladigan talablardan kelib chiqmasa, ijro quyidagi joylarda amalga oshirilishi kerak:

1. Ko'chmas mol-mulkni topshirish majburiyatlari bo'yicha – mol-mulk turgan joyda. Mazkur bandning qoidasi ko'p jihatdan majburiyatning mohiyatidan kelib chiqadi. Masalan, agar majburiyat predmeti uy yoki shu uy ijarasidan iborat bo'lsa, tabiiyki, majburiyatning bajarilishi uy joylashgan joyda amalga oshiriladi;

2. Tashishni nazarda tutadigan tovar yoki boshqa mol-mulkni topshirish majburiyatlar bo'yicha tovarni kreditorga yetkazib berish uchun uni birinchi tashuvchiga topshirish joyida;

3. Qarzdorning tovarni yoki boshqa mol-mulkni topshirish yuzasidan o'zga majburiyatlari bo'yicha mol-mulkni tayyorlash va saqlash joyida, basharti majburiyatning kelib chiqish paytida bu joy kreditorga ma'lum bo'lgan bo'lsa;

4. Pul majburiyati bo'yicha – majburiyat vujudga kelgan paytda kreditor yashagan joyda, agar kreditor yuridik shaxs

bo'lsa uning majburiyat vujudga kelgan paytda joylashgan yerida, agar kreditor majburiyatni bajarish vaqtigacha o'z yashash joyini yoki joylashgan yerini o'zgartirgan bo'lsa va bu haqda qarzdorni xabardor qilgan bo'lsa, ijro bilan bog'liq hamma xarajatlarni kreditor hisobidan qilgan holda, uning yangi yashash joyida yoki joylashgan yerida.

Agar kreditor fuqarolarga xizmat ko'rsatuvchi, ish bajaruvchi fuqaro bo'lsa, u bilan hisob-kitoblar ish bajarilgan, xizmat ko'rsatilgan yerda amalga oshiriladi. Bu narsa majburiyatning mohiyatidan kelib chiqadi. Fuqaroning yuridik shaxslar bilan o'zaro munosabatida esa, pul mablag'lari uning bankdagi hisob raqamiga o'tkazib beriladi, yoki naqd pulda, ana shunday hisob-kitoblar uchun belgilangan qoidalar va cheklovlarga rioya etgan holda amalga oshirilishi mumkin.

5. Boshqa barcha majburiyatlar bo'yicha – qarzdorning yashash joyida, agar qarzdor yuridik shaxs bo'lsa, uning joylashgan yerida.

Majburiyatni ijro etish usuli – bu majburiyat tuzilgan shartnomaning shartlari yoki huquq normalari bilan belgilangan tartibda ijro etilishidir.

Ba'zi majburiyatlar o'zining mazmuniga ko'ra birdaniga va batamom ijro etiladi. Jumladan, xususiy alomatlar bilan belgilanadigan ashyoni, masalan, sotilgan televizorni topshirish majburiyati bir vaqtda va batamom ijro etiladi. Boshqa bir xil majburiyatlar, aksincha, qismlarga bo'linib, bir qancha vaqt davomida ijro etilishi mumkin. Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga berishda moddiy ta'minot unga bir necha yillar davomida beriladi, ya'ni majburiyat qismlariga bo'linib, bir qancha vaqt davomida bajariladi. Aksariyat majburiyat, masalan, tashkilotlarga sotilgan mahsulot (tovar) larni yetkazib berish va buning uchun haq to'lash majburiyatlari birdaniga, qismlarga bo'lib-bo'lib ham bajarilishi mumkin.

Ba'zi hollarda majburiyatning qismlarga bo'linib ijro etilishi kreditor uchun noqulay bo'lishi mumkin. Masalan, qish faslida sotiladigan kiyimlarni bir necha chorakka bo'lib, bahor va yoz fasllarida yetkazib berilishi xo'jalik hisobida ish ko'ruvchi

savdo tashkilotini qanoatlantirmasligi mumkin. Bunday hollarda boshqacha tartib qonunchilikda, shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa yoki ish muomalasi odatlaridan yoxud majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, kreditor majburiyatning qismlarga bo'lib bajarilishini qabul qilmaslikka haqli (FK, 239-moddasi). Bunday ijroni kreditor qabul qilmasa, qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarmagan yoki butunlay bajarmagan hisoblanadi.

Ba'zi hollarda ikki tomonlama majburiyatlarda kimning eng avval o'z majburiyatini ijro etishi lozimligi ma'lum bo'ladi. Masalan, vositachilik shartnomasi bo'yicha vositachi avval o'z majburiyatini bajaradi, narsani sotadi, keyin xizmat haqini oladi; chakana savdo magazinida oluvchi tovarning qiymatini avval to'laydi, keyin molni oladi va h.k.

Agar taraflardan biri o'z majburiyatini avval bajarishi noma'lum bo'lganda, agar qonun, shartnoma yoki majburiyat mohiyatidan boshqacha hol kelib chiqmasa, shartnoma yuzasidan olingan o'zaro majburiyatlar bir vaqtda bajarilishi lozim bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan qoida dispozitiv xarakterda bo'lganligi tufayli majburiyatning avvalo kim tomonidan bajarilishi, masalan, sotilgan narsaning topshirilishi yoki pulning to'lanishi o'zaro kelishuv bo'yicha ham belgilanishi mumkin.

### **Tayanch iboralar:**

Majburiyatlarni bajarish, majburiyatlarni bajaruvchi subyektlar, majburiyatni bajarish predmeti, majburiyatning bajarilishini uchinchi shaxs zimmasiga yuklash, majburiyatni bajarish muddati, majburiyatni bajarish joyi, majburiyatni bajarish usuli,

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Sherikli, hissali va qo'shimcha majburiyatlarni bir-biridan farqi nimalardan iborat?
2. Davlat, yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan olingan majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishi nimalarga ta'sir qiladi?
3. Majburiyatda qatnashuvchi shaxslarning ko'pchilik bo'lishi qonunda nazarda tutilganmi?

4. Majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishiga yo'l qo'yiladimi?
5. Kreditor huquqlarining boshqa shaxsga o'tish asoslari va tartibi qanday?
6. Boshqa shaxsga o'tadigan kreditor huquqlarining hajmi deganda nimalar nazarda tutiladi?
7. Talabda boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartlari va shakli qanday?
8. Qarzni va ijroni boshqa shaxsga o'tkazish nimalarda namoyon bo'ladi?
9. Majburiyatni bajarish muddati tushunchasiga izoh bering.
10. Majburiyatni bajarish predmeti nima?



## **XXIII bob. MAJBURIYATLARNING BAJARILISHINI TA'MINLASH USULLARI**

### **1-§. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash tushunchasi**

Majburiyatning bajarilishini ta'minlash deb, qarzdor tomonidan olingan va uning zimmasida bo'lgan vazifani bajarishga majbur qiladigan choraga aytiladi.

Majburiyatlarning bajarilishi har xil usullar bilan ta'minlanadi. Mazkur usullar yo qonun bilan belgilanishi yoki shartnomaga asoslangan bo'lishi mumkin. Fuqarolik qonunchiligida majburiyatning bajarilishini ta'minlash neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat hamda qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ta'minlanishi mumkin (FK, 259-modda).

Ushbu usullardan hech qaysisi o'zicha mustaqil ravishda qo'llanilmaydi. Bularning hammasi biron-bir majburiyatning mavjud bo'lishini ko'rsatib, mazkur majburiyatning bajarish maqsadlarini ko'zlab belgilanadi. Bunda shartnoma bo'yicha belgilangan majburiyat – asosiy majburiyat bo'lib, uning bajarilishini ta'minlash usuli esa – qo'shimcha majburiyat hisoblanadi. Jumladan, mahsulot yetkazib berish yoki pudrat shartnomasidan kelib chiqadigan asosiy majburiyatning amalga oshirilishini ta'minlaydigan qo'shimcha majburiyat hisoblanadi.

Ba'zi majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maxsus qonunlarda nazarda tutilmagan bo'lsa, bunday majburiyat munosabatlarini ta'minlash fuqarolik kodeksida berilgan umumiy qoidalar bilan tartibga solinadi. Shu bilan birga, muayyan majburiyatning bajarilishini ta'minlash usullari bir vaqtning o'zida qonun bilan ham, shartnoma bilan ham belgilanishi mumkin. Masalan, neustoyka va garov bir vaqtning o'zida shartnoma bilan ham, qonun bilan ham nazarda tutilishi mumkin. Boshqa usullar esa, jumladan, zakalat faqat kelishuv bo'yichagina belgilanadi. Fuqarolik huquqining mazkur instituti majburiyatlarni qarzdor tomonidan bajarilmasligi natijasida

kreditorga kelishi mumkin bo'lgan zarar oqibatlarining oldini olishga qaratiladi. Ammo mazkur usullarning har qaysisi bilan ko'rsatilgan maqsadga erishish har xil bo'ladi.

Neustoyka va zakalat qarzdor tomonidan majburiyatning asl holatida bajarilishini ta'minlaydi va majburiyat ijro etilmagan holda qarzdorga muayyan javobgarlik belgilanishini ko'rsatadi. Neustoyka va zakalat ba'zi hollarda majburiyatning bajarilmasligi tufayli yetkazilgan zararining kreditor tomonidan undirilishini yengillashtiradi. Qarzdor tomonidan mulkning garovga qo'yilishi asosiy majburiyat u tomonidan real bajarilishini muayyan darajada ta'minlaydi va mazkur majburiyatning bajarilmasligi tufayli vujudga kelgan kreditor talablarini qondirishga ko'proq imkoniyat beradi.

Uchinchi shaxs tomonidan belgilangan garov, kafolat va kafillik majburiyatning bajarilmagani holda zararining qoplanishi, foizlarning yoki neustoykalarining to'lanishi to'g'risida kreditor tomonidan qo'yilgan talablarning qondirilishini ta'minlaydi.

Majburiyatning bajarilishi mazkur majburiyat yuzasidan kreditor bo'lgan shaxs bilan majburiyatning amalga oshirilishini ta'minlagan uchinchi shaxs o'rtasida majburiyatga oid huquqiy munosabatni va asosiy majburiyatga nisbatan bo'lgan qo'shimcha huquqiy munosabatni vujudga keltiradi. Mazkur majburiyatning qo'shimcha xarakterda bo'lishi qator huquqiy masalalarda ko'riladi.

FKning 259-moddasida ko'rsatilganidek, majburiyatning bajarilishini ta'minlash to'g'risidagi kelishuvning haqiqiy emasligi ushbu majburiyatning (asosiy majburiyatning) haqiqiy emasligiga olib kelmaydi. Biroq asosiy majburiyatning haqiqiy emasligi uning bajarilishini ta'minlaydigan majburiyatning haqiqiy emasligiga olib keladi.

## **2-§. Neustoyka**

Neustoyka – majburiyatlarni ta'minlashning keng tarqalgan usulidir. Neustoykaning ma'nosi, majburiyatlarni bajar-maslik yoki lozim darajada bajarmasligi mavjudligi holatida

keltirilgan zararlarning miqdori, shuningdek, bajarish muddatini kechiktirish hollari, to'lanishi lozim bo'lgan muayyan pul summasiga mutanosib ravishda qarzdor tomonidan to'lashdan iborat. Shartnoma majburiyatlarini ta'minlash maqsadida neustoykaning keng qo'llanilishi, birinchi navbatda, qarzdor tomonidan majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmasligi oqibatida vujudga kelgan kreditor talofatlarining o'rnini to'ldirishning qulay vositasi ekanligi bilan izohlanadi.

Neustoyka qonunchilik yoki shartnoma bilan belgilangan qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasidir (FK, 260-modda). Neustoyka jarima va penya shaklida bo'ladi.

Majburiyatning bajarilishini ta'minlash usullari sifatida ko'rilgan jarima bilan penya o'rtasida hech qanday muhim farq yo'q. Ular faqat hisoblash usullari jihatidagina bir-biridan farq qiladi. Penya majburiyatning bajarilishi kechiktirilganda qo'llaniladi va muayyan vaqt masalan, o'n, yigirma, o'ttiz kun davomida hisoblanadi. Penya majburiyatning bajarilishi kechiktirilganida kechiktirishning barcha muddati davomida hisoblanib bajarilmagan summasi yuzasidan belgilangan foizlar bilan undiriladi. Majburiyatning bajarilishini kechiktirish vaqti oshib borgan sari penya summasining ham o'sib borishi majburiyatni mumkin qadar tezroq bajarishga qarzdorni majbur qiladi.

Agar penya muayyan kunlar, masalan, o'ttiz kun davomida hisoblansa, mazkur kunlar o'tgandan so'ng uning hisoblanishi to'xtatiladi. Odatda, keyinchalik kreditorga qarzdordan birdaniga 2 foizdan 5 foizgacha neustoyka olish huquqi paydo bo'ladi. Tor ma'nodagi neustoyka majburiyatni butunlay bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, shu jumladan, shartnoma majburiyatlarining ijrosini kechiktirganlik uchun undiriladi va yetkazib berilmagan mahsulotning yoki pudrat shartnomasi bo'yicha bajarilmagan ishlar summasidan hamda shu kabi boshqa summalariga nisbatan foiz bilan, masalan, 2, 3, 4, 5 foiz miqdorida neustoyka olinadi. Neustoykaning xususiyati shundaki, u majburiyatning bajarilishi buzilishida

har qaysi fakt uchun undiriladi va uning miqdori majburiyat kechiktirilishining qanchalik uzoqroq bo'lish bo'lmasligidan qat'i nazar belgilanadi. Fuqarolik qonunchiligi neustoykaning ikki huquqiy asosini: qonun va shartnomadan kelib chiqishini belgilaydi.

Qonuniy neustoyka deganda, majburiyatlarning muayyan turlari uchun qonun bilan maxsus belgilangan neustoyka tushuniladi. Bu holda qonun neustoykaning miqdori, uning undirilish tartibi va shartlarini belgilaydi. Qonun bilan belgilanadigan neustoyka uchun shu narsa xarakterliki, uni to'lash taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan yoki tutilmaganligidan qat'i nazar kreditor qonunda belgilangan neustoyka (qonuniy neustoyka) ni to'lashni talab qilishga haqli. Qonuniy neustoykaning miqdori, agar qonun taqiqlamasa, taraflarning kelishuvi bilan ko'paytirilishi mumkin (FK, 263-modda).

Qonunda nazarda tutilgan neustoykani undirishdan taraflar bosh torta olmaydilar, uning miqdorini ham kamaytira olmaydilar. Agar shartnomada bunday shartlar ko'rsatilgan bo'lsa, ular haqiqiy sanalmaydi. Qonuniy neustoyka xo'jalik tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarda ancha ko'p qo'llaniladi va maxsus normativ hujjatlarda nazarda tutiladi. Xususan, taraflar tomonidan o'z majburiyatlarini buzganliklari uchun jarima shaklidagi neustoykaning ko'p miqdorda va har xil hollarda olinishi transport qonunchiligida va ustavlarida nazarda tutiladi.

Shartnomali neustoyka taraflarning o'zaro kelishuvi bo'yicha belgilanadi. Bunday neustoyka asosiy majburiyatning neustoyka bilan ta'minlanishi yoki ta'minlanmasligi to'g'risidagi masala, uning miqdori, undirish tartibi va shartlari faqat taraflarning o'zlari tomonidangina belgilanadi. Masalan, ikkita xo'jalik subyekti bir-biriga qurilish uchun g'isht yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzganlarida majburiyatni buzganlik uchun neustoykaning to'lanishini ko'rsatishlari mumkin. Ba'zi hollarda shartnomaga neustoyka undirish to'g'risidagi shartning qo'shilishi zarurligi qonun yoki shartnoma bilan belgilanishi mumkin. Bunday holda neustoykaning miqdori va undirilish shartlari, odatda, mazkur qonunda belgilanadi. Ammo bunday

neustoykani qonun bilan belgilangan neustoyka deb hisoblash mumkin emas, chunki taraflar neustoyka to'g'risidagi shartnomani shartnomaga kiritmaganliklari sababli majburiyat bajarilmagani uchun neustoyka to'lashga majbur bo'lmaydi.

FKning 262-moddasida ko'rsatilganidek, neustoyka (jarima, penya) to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilishi kerak. Bunday kelishuv maxsus shartnoma yoki asosiy shartnomaga qo'shimcha kelishuv shakllarida rasmiylashtirilishi mumkin. Kelishuvning yozma shaklda bo'lishiga rioya qilmaslik neustoyka (jarima, penya) to'g'risidagi kelishuvning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi.

### **Amaldagi fuqarolik qonunchiligiga asosan neustoyka quyidagi turlarga bo'linadi:**

- hisobga o'tkaziladigan neustoyka;
- jarimali neustoyka;
- alohida neustoyka;
- muqobil neustoyka.

Hisobga o'tkaziladigan neustoyka FKning 325-moddasida ko'rsatilganidek, agar majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka belgilangan bo'lsa, zararining neustoyka bilan qoplanmagan qismi to'lanadi. Bunday neustoyka ko'pincha tashkilotlar o'rtasida tuziladigan, masalan, mahsulot yetkazib berish, qurilish pudrati shartnomalarida qo'llaniladi.

Jarimali neustoyka kreditorga qarzdordan neustoykaning o'zini, shuningdek, neustoykadan tashqari zararni ham to'la hajmda undirish huquqini beradi. FKning 325-moddasida nazarda tutilgan bunday neustoyka shunday xususiyatga egaki, u qarzdorga butunlay bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun belgilanganidan boshqa turdagi neustoykalarga nisbatan qo'shimcha javobgarlik belgilaydi. Neustoykaning shunday tarzda qo'shilib, ya'ni neustoykaning ham, zararining ham qo'shilishi va bir vaqtda undirilishi majburiyatni bajaruvchi qarzdorga kuchli ta'sir etish chorasi bo'lib ko'riladi. Masalan, mahsulot oluvchiga sifatsiz yoki but bo'lmagan mahsulot yetkazib berilgan hollarida mahsulot

yetkazuvchining neustoyka (jarima) to'lash, bunday mahsulot yetkazib berish natijasida ko'rilgan zararni (neustoykani bu hisobga kiritmasdan) undan undirib olish bunga misol bo'la oladi.

Alohida neustoyka shu bilan xarakterlanadiki, bunda FKning 325-moddasida ko'rsatilganidek, kreditorga zararni undirmasdan, balki neustoykani undirib olish huquqi beriladi. Majburiyatning bajarilishini kechiktirganlik uchun undiriladigan alohida neustoyka-penya shaklida belgilanadi. Masalan, kvartira haqining to'lanishi yoki boshqacha pul to'lovlari kechiktirilganda, odatda, alohida neustoyka undiriladi. Bunday neustoyka jarima shaklida transport korxonalari faoliyatidan shartnomaviy reja majburiyatlarining buzilganligi uchun ham undirilishi mumkin.

Muqobil neustoyka yuqorida ko'rsatib o'tilgan neustoykalardan shu bilan farq qiladiki, bunda kreditorga qarzdordan belgilangan neustoyka (jarima, penya) ni undirish yoki majburiyatning bajarilmasligi tufayli ko'rilgan zararlarni undirish huquqi beriladi. Neustoykaning bunday turi rag'batlantirish ahamiyatiga ega bo'lishidan tashqari yana avvaldan summada belgilanishi mumkin bo'lgan zararni qoplash imkoniyatini ham beradi. Shuning uchun bunday neustoyka ba'zi hollarda baholanadigan neustoyka deb ham ataladi. Muqobil neustoyka kreditorning ko'rgan zararlarini qoplashga qaratilgan. Agar neustoyka kreditorga yetkazilgan zararining miqdoridan oshib ketgan bo'lsa, kreditor neustoykani undirishdan bosh tortishga va ko'rgan zararlarining to'lanishini talab qilishga haqli. Bu holda kreditor qarzdorning o'z majburiyatini bajarmasligi tufayli qanday zarar ko'rganligini isbotlashga majbur bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi mazkur neustoyka kamdan-kam tatbiq etiladi. Majburiyatlarni buzganlik uchun, jumladan, sifatsiz mahsulot yoki tovar yetkazib berganlik uchun mahsulot yetkazuvchilardan neustoykani undirish mahsulot oluvchining huquqigina bo'lib qolmay, balki uning davlat oldidagi majburiyati ham hisoblanadi. Neustoykani undirishdan asosiy maqsad majburiyatning bajarilishini ta'minlashdir. FKning 261-moddasida ko'rsatilganidek, neustoyka faqat pul bilan

belgilanadi. Neustoyka miqdori yo qonun bilan yoki shartnoma bilan belgilangan bo'lishi lozim. Odatda, neustoyka bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyat summasiga nisbatan foiz bilan yoki qat'iy summa bilan belgilanadi.

Penya deb ataladigan neustoyka quyidagicha ta'riflanishi mumkin:

**birinchidan**, penya, odatda, majburiyatning o'z vaqtida bajarilmasligi hollariga tatbiq etiladi va majburiyatning belgilangan muddatda bajarilishini ta'minlashga qaratiladi;

**ikkinchidan**, penya qat'iy miqdorda belgilanmay, bajarilishi kechiktirilgan majburiyat summasiga nisbatan foiz bilan belgilanadi;

**uchinchidan**, penya, odatda, uzoq muddat davom etadigan neustoyka sifatida ko'riladi, ya'ni penya bir qancha muddat davomida, masalan o'n kun yoki bir oy davomida majburiyatning kechiktirilgan har bir kuni uchun hisoblanadi.

Neustoykaning tatbiq etilishi taraflar o'rtasida shartnoma tuzilishida, u to'g'risida ko'rsatmalar bo'lish-bo'lmasligidan qat'i nazar belgilanadi. Agar neustoyka to'g'risidagi qonun uning miqdorini o'zgartirish huquqini taraflarga bermagan bo'lsa, tuziladigan shartnomalarda neustoykaning qonunda nazarda tutilgan miqdorini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolik kodeksida aytilganidek, qarzdor majburiyatni butunlay bajarmaganida yoki lozim darajada bajarmaganida neustoyka to'lashga majbur bo'ladi. Shu tartibda FKning 261-moddasida nazarda tutilgan neustoyka har qanday majburiyatning ijro etilishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Neustoyka qarzdor tomonidan majburiyatning bajarilishini ta'minlaydi. Ammo amalda, ko'pchilik hollarda neustoyka majburiyatda qatnashuvchi ikkinchi taraf kreditor majburiyatlarining ham bajarilishini ta'minlaydigan usul sifatida foydalaniladi. Jumladan, kreditor majburiyatning bajarilishini qabul qilmaganida neustoyka to'lashga majbur qilinishi mumkin. Qabul qilish topshirish joyiga yetkazib keltirilgan mahsulotni qabul qilish asossiz rad etilganda, tayyorlovchi xo'jalikka uni

yetkazib kelish xarajatlarini qoplaydi. Neustoyka to'g'risidagi o'zaro kelishuv asosiy majburiyat shakli summasi, neustoyka summasidan, shuningdek, boshqa biron-bir shartlardan qat'i nazar, yozma shaklda rasmiylashtirilishi lozim. Neustoyka to'g'risidagi kelishuvning yozma shakli bitimlar va shartnomalarning yozma shakllariga nisbatan qo'yiladigan umumiy talablarga ya'ni, FKning 105-moddalarida ko'rsatilgan talablarga javob berishi lozim.

Neustoyka to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilmasa, bunday kelishuv haqiqiy sanalmaydi va neustoykaning undirilishi mumkin bo'lmaydi. FKning 325-moddasida neustoyka bilan majburiyatning butunlay bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi tufayli ko'rilgan zararining neustoyka bilan qoplanmagan qismi to'lanish to'g'risida umumiy qoida beriladi. Mazkur qoida neustoyka bilan ta'minlangan majburiyatlarning har qanday buzilishlarida qo'llanilishi lozim. Ammo qonun yoki shartnomada ko'rsatilgan alohida hollar bundan mustasno.

FKning 325-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan qoida FKning boshqa normalarida ham, shuningdek, ayrim majburiyatlarni tartibga soladigan boshqa me'yoriy hujjatlarda ham keltiriladi. Ushbu qoida neustoyka bilan ta'minlangan majburiyatning qarzdor tomonidan buzilishi tufayli zarar ko'rilishi hollariga taalluqlidir. Masalan, avtomobil transporti bilan yuk tashishda mazkur yuk kechiktirib yetkazilgan hollarda; ko'rilgan zararlar, kechiktirilgan zararlar kechiktirilganlik uchun yuk tashuvchidan jarimaning olinish-olinmasligidan qat'i nazar undiriladi. Mazkur moddada ko'rsatilishicha, agar majburiyatning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi uchun neustoyka belgilangan bo'lsa, zarar neustoyka (jarima, penya) bilan qoplanmagan qismi hajmida to'latib olinadi.

Qonun yoki shartnomada quyidagi hollar, ya'ni zararni undirmasdan, balki faqat neustoykani undirib olish, neustoyka bilan bir qatorda zararni ham to'la undirib olish, kreditorning xohishi bilan yoki neustoykani yoki zararni undirib olish nazarda tutilishi mumkin.



O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksida nazarda tutilgan jarimalar alohida neustoyka xarakterida ko'riladi, chunki mazkur kodeksda taraflar bir-biriga nisbatan olgan majburiyatlarini bajarmaganlarida Ustavning tegishli moddalarida nazarda tutilgan doiralardagina moddiy javobgarlikka tortilishlari belgilanadi. Jarima va neustoyka mahsulot yetkazib berish bo'yicha bo'ladigan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usuli sifatida keng qo'llaniladi. FKning 326-moddasida ko'rsatilganidek, agar to'lanishi lozim bo'lgan neustoyka kreditorning majburiyatini buzish oqibatida nomutanosibligi ko'rinib tursa, sud neustoykani kamaytirishga haqli. Bunda qarzdor majburiyatni qay darajada bajarganligi, majburiyatda ishtirok etayotgan taraflarning mulkiy ahvoli, shuningdek, kreditorning e'tiborga olinishi lozim bo'lgan manfaatlari hisobga olinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining Plenumi qarori bu qoidani amaliyotda qo'llashda sudlar quyidagilarga e'tibor berishlari lozimligini belgilaydi: agar talab qilingan neustoykaning miqdori asosiy qarz miqdoridan oshib ketmagan taqdirda, sud tomonidan zarar hajmini aniqlamasdan talab qilingan summada undirilishi mumkin. Agarda neustoykaning summasi asosiy qarz summasidan ortiq bo'lsa, sud da'vogardan zararining asosli ravishda zarar va neustoykaga mutanosibligini aniqlash uchun asoslantirilgan hisobni talab qilishi lozim. Ular mutanosib bo'lmaganida, sud, sud amaliyotidan kelib chiqib, qarzdor tomonidan majburiyatlarning bajarilish darajasini, majburiyatlarda qatnashuvchi taraflarning mulkiy holatini, shuningdek, kreditorning manfaatlarini hisobga olib, neustoykaning miqdorini asosiy qarz miqdorigacha kamaytirishga haqlidir. Agar neustoyka asosiy qarz summasidan oshib ketmasa-da, lekin uning qarzdor tomonidan to'lanishi uning faoliyatini yomon oqibatlarga, hatto iqtisodiy jihatdan nochor ahvolga olib kelishi aniq bo'lgan holatda neustoyka kamaytirilishi mumkin. Bunday holatda neustoykaning eng kam miqdori Fuqarolik kodeksining 327-moddasida ko'rsatilgan foizlar miqdoridan kam bo'lmasligi lozim.

Fuqarolarning ishtiroki bilan bo'ladigan munosabatlarda neustoykaning miqdorini kamaytirish uchun zarur shart neustoykaning kreditor ko'rgan zararlarga nisbatan ancha ko'p bo'lishidir. FKning 326-moddasi birinchi qismida keltirilgan boshqa holatlar esa, faqat neustoykaning miqdorini kamaytirish to'g'risidagi talabni rad qilish yoki kamaytirilishi lozim bo'lgan summaning miqdorini belgilash uchungina ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Mazkur qoida sudlarga har qanday holda ham neustoykani kamaytirish maqsadga muvofiq bo'lish-bo'lmasligi to'g'risidagi masalani hal qilishni topshiradi. Shu bilan birga, neustoyka faqat ayrim hollardagina kamaytirilishi mumkinligini ko'rsatib o'tadi. FK 326-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatib o'tilganidek, neustoykaning miqdori sud tomonidan kamaytirilishi mumkin. Bunda sud qarzdor va kreditor manfaatlarini hisobga olishi lozim. Neustoykaning miqdori kreditorning ko'rgan zararlari miqdori bilan taqqoslaganida, qarzdor bo'lgan tashkilotning majburiyatni bajara olish, aybliligi darajasi e'tiborga olingandagina sud neustoykaning miqdorini kamaytirishga haqli. Neustoyka yoki zararni to'lagan qarzdorning o'z majburiyatini asl holda bajarish burchi FKning 330-moddasida ko'rsatilgan.

Mazkur moddada aytilishicha, majburiyatning bajarilishi kechiktirilganligi yoki lozim darajada bajarilmasligi hollarini nazarda tutib, belgilangan neustoyka (jarima, penya) ni hamda majburiyatning lozim darajada bajarilmasligi natijasida kelgan zararni to'lash majburiyatini asl holda bajarishdan qarzdorni ozod qilmaydi.

Ayni paytda, kreditor majburiyat ijrosi kechikkanligi sababli o'zi uchun uning ahamiyati qolmagan bo'lsa, u ijroni qabul qilishdan bosh tortishi va zararni to'lashni talab qilishi mumkin (FK 337-moddasining ikkinchi qismi). Basharti, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, majburiyat bajarilmagan taqdirda zararni qoplash va uning bajarilmaganligi uchun neustoyka to'lash qarzdorni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qiladi (FK 330-moddasining ikkinchi qismi).

### 3-§. Garov

Kishilik jamiyatida mulkiy munosabatlar shakllangan vaqtlardan boshlab qarzdorlar tomonidan olingan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Jumladan, garovdan majburiyatni ta'minlash usuli sifatida antik davrdan boshlab foydalanilgan hamda uning turli usul va ko'rinishlarda qo'llash odat bo'lgan. Islom huquqida garovga alohida e'tibor berilganligini, garov ko'char va ko'chmas mulk, ayrim hollarda faqat narsa emas, balki shaxsan qarzdor va uning oila a'zolaridan iborat bo'lishi mumkinligini ta'kidlangan<sup>1</sup>.

Garov qadimdan insoniyat «kashf etgan» majburiyatlarning ta'minlash usuli ekan, u turli davrlarda turlicha nomlarda talqin etilgan. Garov so'zi barcha elat va millatlar tilida turlicha talqinda insoniyat taraqqiyoti davomida qo'llangan. Masalan, garov so'zi o'tmishda rahn deb aytilgan va bu so'z qadimiy qo'lyozmalarda yozilgan. «Rahn»ning ma'nosi qarz oluvchining qarz beruvchiga ishonchi uchun berilgan ashyosi, ya'ni garovga berilgan mulki deb tushunilgan

Qadimiy qo'lyozmalar guvohlik berishicha, rahn (garov) – qarzga olganda ishonch uchun qarz beruvchiga qo'yilgan narsaning nomi. Misol uchun, shariat qonunlariga qisqacha sharh berilgan «Muxtasar»da qayd etilishicha: «Shariatda ustundagi bir haq barobariga shariat qoshinda bohosi bo'lg'on molni haqini o'tib ishonch uchun berishi mumkin bo'lg'on kishining olishi mumkin bo'lg'on kishiga saqlab turishiga berib turmog'i. Agar rahnga qo'yilgan narsadan qo'yuvchi haqini to'lamagan taqdirda rahnni sotub olishi mumkin bo'lur. Ya'ni, garovga qo'yilgan narsa qarz barobarina turarliq bo'lur. Rahn faqat qarz uchun qo'yilmaydi, boshqa ko'p muomalalarda ham ishonch uchun qo'yiladi, bizning diyorda «garov» deyilur»<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov H. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. – Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997. – B. 27.

<sup>2</sup> Muxtasar. Shariat qonunlariga qisqacha sharh. Nashrga tayyorlovchilar R. Zohid, A. Dehqon. – Toshkent: «Cho'lpon», 1994.

Rahn faqat qarz uchun qo'yilmasdan, balki garovga daxli bo'lmagan turli munosabatlarda ishonch uchun qo'yilgani sababli garov deyilgan. Demak, garov so'zini ajdodlarimiz ishlatishgan, u qarz olish va qarz berish munosabatlarini o'rnatishda ishonchni ta'minlovchi vosita sifatida namoyon bo'lgan.

Qadimiy Yevropa xalqlari garovdan foydalanishgani tarixiy qo'lyozmalarda o'z tasdig'ini topgan. «Garov huquqi Rim fuqarolik huquqidan ham avval ma'lum edi. Umumiy qoidaga ko'ra garov huquqi o'zgalar mulkiga nisbatan bo'lgan huquqning o'ziga xos namoyon bo'lishi hisoblanib, uning asosiy vazifasi majburiyatlarning ijrosini ta'minlash hisoblanar edi. qarzdor ma'lum bir ashyoni majburiyat ijrosini ta'minlovchi vosita sifatida garovga qo'ygan va majburiyat ijro etilmagan taqdirda, qarz beruvchi o'sha ashyoga nisbatan majburiyat bo'yicha o'z talabini qanoatlantirish uchun undirish huquqiga (ashyo qarzdorni mol-mulki sifatida qolganligi yoki undan begonalashganidan qat'iy nazar) yoxud o'sha ashyodan o'z talablarini boshqalarning talablariga nisbatan imtiyozli, ustuvor qanoatlantirish huquqiga garov.huquqi deb e'tirof etilgan»<sup>1</sup>.

Rim sivilistlari tomonidan garov huquqi u yoki bu asosiy majburiyatdan kelib chiquvchi hosila, ikkilamchi (aksessor) majburiyat deb avval boshdanoq uning o'rnini aniq belgilaganlar. Ya'ni, asosiy majburiyat mavjud bo'lganligi uchun, garov huquqi ham mavjud bo'ladi deb hisoblangan.

Garov mulkiy munosabatlarda eng ko'p qo'llaniladigan, turli xil bitimlar bo'yicha vujudga keladigan majburiyatlarning bekami-ko'st bajarilishini ta'minlashga, kreditorning iqtisodiy manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishga qaratilgan muhim fuqarolik-huquqiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqini majburiyatni ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi. Garovga ko'ra qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan taqdirda, kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo'yicha garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan

---

<sup>1</sup> Новицкий И.Б. Римское право. – М.: Кнорус, 2011. – С. 112.

o'z talabi ushbu mol-mulk egasi bo'lgan shaxs (garovga qo'yuvchi)ning boshqa kreditorlariga qaraganda imtiyozli sur'atda qanoatlantirilishiga (agar qonunda boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa) haqli bo'ladi<sup>1</sup>.

Garov tufayli garov bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha kreditor (garovga oluvchi) qarzdor tomonidan bu majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan ushbu mol-mulk egasi bo'lgan shaxs (garovga qo'yuvchi)ning boshqa kreditorlariga nisbatan o'z talabini imtiyozli qanoatlantirishga haqli bo'ladi<sup>2</sup>.

Garov bozor munosabatlariga o'tish sharoitida majburiyatlarni ta'minlashning eng samarali usuli bo'lib, pul qadrsizlanishi, ishlab chiqarish darajasining tushib ketishi, to'lovga qobiliyatsizlik kabi salbiy holatlar ta'siridan holi hisoblanadi<sup>3</sup>.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 264-moddasida ko'rsatilganidek, bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi. Garov tufayli garov bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha kreditor (garovga oluvchi) qarzdor tomonidan bu majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan ushbu mol-mulk egasi bo'lgan shaxs (garovga qo'yuvchi) ning boshqa kreditorlariga nisbatan o'z talabini imtiyozli qanoatlantirilishiga haqli bo'ladi.

FKning 264-moddasida ko'rsatilgan subyektiv huquq garov huquqi bo'lib, mulkni garovga bergan shaxs – **garovga qo'yuvchi** va mulkni olgan shaxs esa – **garovga oluvchi** deb ataladi. Mulkni garovga qo'yuvchi shaxs qarzdorning o'zi ham, shuningdek, uchinchi bir shaxs ham bo'lishi mumkin.

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov H. Majburiyat huquqi. – T.: TDYuI, 2005. – B. 89.

<sup>2</sup> Zokirov I. Fuqarolik huquqi. I-qism.- Toshkent: TDYuI, 2006. – 305 b.

<sup>3</sup> Исмоилов Н.М. О некоторых проблемах цивилистической науки и законотворческой практики Материалы международной научно-практической конференции на тему «Актуальные проблемы и тенденции развития гражданского законодательства». – Т.: ТДЮИ, 2005. – 185 с.

FKning 266-moddasida ko'rsatilganidek, garovga qo'yuvchi garovga qo'yilayotgan mulkning egasi bo'lishi lozim. Basharti, qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mulkdorning roziligisiz ashyoviy huquqni garovga qo'yishga yo'l qo'yiladi.

Garovning mohiyati shundaki, majburiyat qarzdor tomonidan ijro etilmaganida, kreditor o'zining talabini garovga qo'yilgan mulk hisobidan, birinchi navbatda, qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kreditorning talablari qondirilgandan so'nggina garovga qo'yilgan mulkni sotishdan hosil qilingan summadan qolganini boshqa kreditorlarning talablarini qondirish uchun sarflanishi mumkin.

Garov narsasi har qanday mol-mulk, ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) bo'lishi mumkin, ammo bundan FKning 267-moddasida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Garov to'g'risida»gi Qonunida nazarda tutilgan ashyolar bundan mustasnodir. Muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan talablar, xususan, hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash haqidagi talablar, alimentlar haqidagi talablar hamda boshqa shaxsga berish qonun bilan man etilgan boshqa talablar garov narsasi bo'la olmaydi. Tarixiy, madaniy yoki o'zgacha qimmatbaholigi tufayli yoxud davlat xavfsizligi nuqtai-nazaridan garov qo'llanilishi mumkin bo'lmagan obyektlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladi. Undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan fuqarolarning ayrim turdagi mol-mulkini garovga qo'yish qonunchilikda belgilangan tartibda man etilishi yoki tiklanishi mumkin. Odatda, faqat kreditorning haqiqiy talabigina garov bilan ta'minlanishi mumkin. Demak, agar shartnoma haqiqiy emas deb topilsa, u holda garov to'g'risidagi shartnoma ham haqiqiy sanalmaydi.

Agar qonun yoki shartnomada boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, garov talabi ta'minlanish paytida qanday bo'lsa, shu hajmda, jumladan, foizlarni, ijroni kechiktirib yuborish natijasida yetkazilgan zararining to'lanishini, neustoykani, shuningdek, undirish xarajatlarining to'lanishini ta'minlaydi.

Asosiy majburiyat yuzasidan kreditor bo'lgan shaxs talab qilish huquqini boshqa shaxsga topshirsa, u holda FKning 315-moddasida ko'rsatilganidek, garov huquqi ham yangi kreditorga o'tadi. Garovga qo'yilgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqi yoki xo'jalik yuritish huquqi mulkni garovga bergan shaxsdan boshqa shaxsga o'tganida ham garov huquqi o'z kuchini saqlab qoladi. Binobarin, garov saqlovchi shaxs – kreditor garovga qo'yilgan mulkning egasi yoki uni boshqaruvchi subyekt boshqa shaxs bo'lganida ham o'z huquqini garovga qo'yilgan mulk hisobidan undirishga haqli. Masalan, bankdan qarzdor bo'lgan fuqaro olingan ssuda hisobiga qurilgan uy-joyni sotsa, bank uy-joyni garovga olgan shaxs sifatida mazkur uy-joy hisobidan o'z haqini yangi egadan ham undirib olishi mumkin.

Garov huquqi shartnoma yoki qonunga binoan vujudga keladi. Garov huquqi qonunda faqat normativ hujjatda maxsus ko'rsatma bo'lganidagina vujudga keladi. Ko'pchilik hollarda, majburiyat biron-bir mulkni garovga qo'yish to'g'risida shartnoma tuzish yo'li bilan ta'minlanadi. FKning 265-moddasiga asosan garovning quyidagi turlari mavjud:

- a) zakalat
- b) ipoteka
- v) mulkiy huquqlarni garovga olish.

FKning 269-moddasiga asosan, agar shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga qo'yilgan mol-mulk garovga qo'yuvchida qoladi. Ipoteka belgilangan mol-mulk, shuningdek, garovga qo'yilgan muomaladagi tovar ham garovga oluvchiga topshirilmaydi.

Garov narsasi garovga oluvchi tomonidan qulflangan va muhrlangan holda garovga qo'yuvchida qoldirilishi mumkin. Garov narsasi garovga qo'yilganligini bildiruvchi belgilar qo'yilgan holda garovga qo'yuvchida qoldirilgan garov – qat'iy garov hisoblanadi. Qimmatli qog'oz bilan tasdiqlangan mulkiy huquq garovga qo'yilganida, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garovga oluvchida yoki notarius depozitiga topshiriladi (FK, 269-modda).

Garovga qo'yilgan mulk, uy-joylardan boshqalari, agar qonun yoki shartnoma bilan boshqacha hol belgilanmagan bo'lsa, garovga oluvchi ixtiyoriga berib qo'yiladi.

Taraflarning o'zaro kelishuvlari bo'yicha, garovga qo'yilgan mulk qarzdorning o'zida ham qoldirilishi mumkin. Ba'zi hollarda garovga qo'yilgan mulkni qarzdor ixtiyorida qoldirish qonunda nazarda tutilgan bo'ladi. Masalan, muomalada bo'lgan tovarlarning garovga olinishida yoki ishlanishda bo'lgan mahsulotlarning garovga qo'yilishida garov narsasi bo'lgan mulk qarzdorning o'zida qoldiriladi. Garovning ba'zi turlari bo'yicha ashyolarni garovga beruvchi qo'lida qoldirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, ashyolarni lombardda garovga qo'yishda ashyolar, albatta, lombard ixtiyorida bo'ladi.

Garovga oluvchilar garovga qo'yilgan mulkni tegishli ravishda saqlashga majbur. Garovga oluvchi garovga qo'yilgan mulkning yo'qolishi yoki buzilishi o'zining aybi bilan bo'lmaganligini isbotlamasa – o'ziga topshirilgan mulkning saqlanmaganligi uchun javobgar bo'ladi.

Agar qonun yoki shartnoma bilan boshqacha hol belgilanmagan bo'lsa, garovga oluvchi garovga qo'yilgan mulkdan foydalanishga haqli emas. Agar garovga olingan mulkni saqlab turgan shaxs, ya'ni mulkni garovga oluvchi uni yo'qotsa yoki uning qo'lidan o'g'irlab ketilgan bo'lsa yoki boshqa yo'l bilan uning ixtiyoridan tashqariga chiqib ketgan holda garovga olgan shaxs garov narsasini har qanday egallovchidan, shu jumladan, egasidan ham talab qilib olishga haqli bo'ladi.

Agar ashyo garovga shaxsning egallashidan uning ixtiyori bo'yicha qo'lidan ketgan bo'lsa, bu holda u mazkur mulkni insofli egallovchidan talab qilib ololmaydi.

Agar garovga olgan shaxs qo'lida qoldirilgan mulk boshqa bir shaxsga tekinga o'tkazilgan, masalan, hadya qilingan yoki meros tariqasida o'tgan bo'lsa, garov narsasini saqlovchi, ya'ni mulkni garovga olgan shaxs mazkur garov narsasini insofli egallovchidan talab qilib olishga haqli.

Qonunda garov narsasiga nisbatan garovga oluvchi va garovga qo'yuvchi huquqlari aniq chegaralab qo'yilgan. Shu



jumladan, garovga oluvchining huquqlari joriy qilinadigan mol-mulk FKning 272-moddasida belgilab qo'yilgan. Butun korxonaga yoki boshqa mulkiy kompleks ipotekasida garov huquqi ipoteka tarkibiga kiruvchi mol-mulkning hammasiga, shu jumladan, talab qilish huquqi va mutlaq huquqlarga, shu bilan bir qatorda ipoteka davrida olingan huquqlarga ham (agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa) joriy etiladi.

Yer uchastkasining o'zini ipotekaga qo'yishda garov talabi garovga qo'yuvchining ushbu uchastkasida joylashgan yoki qurayotgan binolari va inshootlariga qaratilmaydi. Mabodo keyinchalik yer uchastkasiga nisbatan haq undirish garov talabi asosida qaratiladigan bo'lsa, unda joylashgan binolardan o'z o'rnida foydalanish uchun zarur bo'lgan servitut (cheklangan tarzda foydalanish) huquqi garovga qo'yuvchida saqlanib qoladi.

Agar shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa yoki garovning mohiyatidan anglashilmasa, garovga qo'yuvchi garov narsasidan uning vazifasiga ko'ra foydalanishga, shu jumladan undan hosil va daromadlar olishga haqli (FK, 277-modda).

Shuningdek, garovga qo'yuvchi garovga oluvchining roziligi bilan garov narsasini boshqa shaxsga berishga, uni ijaraga yoki bepul foydalanishga topshirishga yoki boshqa usulda tasarruf etishga haqli. Garovga oluvchi o'ziga topshirilgan garov narsasidan shartnomada u garovga bu haqda muntazam hisobot berib turadi. Shartnomaga muvofiq, garovga oluvchi zimmasiga asosiy majburiyatni bajarish maqsadida yoki garovga qo'yuvchining manfaatini ko'zlab, garov narsasidan hosil va daromadlar olish burchi yuklanishi mumkin.

Garovga qo'yilgan mol-mulkni saqlash va asrash majburiyati garov narsasi kimda saqlanayotganligiga bog'liq bo'ladi. Garov narsasi ipoteka bo'lgan holda u yo'qolish va shikastlanish xavfidan sug'urta qilinishi ham lozim bo'ladi. FKning 274-moddasiga asosan, garovga qo'yilgan mol-mulk to'la qiymati bo'yicha, bordi-yu, bu qiymat garov bilan

ta'minlangan talabning miqdoridan oshib ketsa, bu talab miqdoridan kam bo'lmagan summaga garovga qo'yuvchi hisobidan sug'urtalanishi lozim.

Garovga oluvchi va garovga qo'yuvchi ikkinchi tarafdagi garovga qo'yilgan mol-mulkning mavjudligini, miqdorini, holatini va uni saqlash sharoitlarini hujjatlar asosida amalda tekshirishga haqli. Garovga oluvchi tomonidan saqlanayotgan garov narsasi garovga qo'yilgan mol-mulkning yo'qolishi yoki shikastlanish xavfini tug'diradigan darajada qo'pol suratda buzilganida, garovga qo'yuvchi garovni muddatidan oldin bekor qilishni talab qilishga haqli.

Agar garov to'g'risidagi shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga qo'yuvchi qo'yilgan mol-mulkning tasodifan nobud bo'lishi yoki tasodifan shikastlanishi xavfini o'z zimmasiga oladi.

Agar garovga oluvchida garov narsasi saqlanayotgan bo'lsa, u holda garov narsasini butunlay yoki qisman yo'qolishi yoxud shikastlanishi uchun javob beradi (agar bunda u aybdor emasligini isbot qilib bera olmasa). Garov bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha qarzdor bo'lgan garovga qo'yuvchi garov narsasining yo'qolishi yoki shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni to'lash to'g'risidagi talabni garov bilan ta'minlangan majburiyatlarni qoplash uchun hisobga oldirishga haqli. Garov narsasini almashtirishga, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga oluvchining roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Garovga qo'yish garov haqidagi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Shartnomada garov narsasi, uning bahosi, mohiyati, miqdori va garov bilan ta'minlanadigan majburiyatning bajarilish muddati ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Unda garovga qo'yilgan mol-mulk taraflarning qaysi birida ekanligi ham ko'rsatilishi kerak. Garov shartnomasi yozma ravishda tuzilishi lozim. Ipoteka haqidagi shartnoma, shuningdek, notarial tasdiqlanishi kerak bo'lgan shartnomaga muvofiq olinadigan majburiyatlarni ta'minlash yuzasidan ko'char mol-mulkni yoki mol-mulkka bo'lgan huquqlarni garovga qo'yish to'g'risidagi shartnoma notarial tasdiqlanishi shart. Bundan tashqari, garov

shartnomasi qiymatiga qarab tegishli adliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Garov shartnomasi shakli, uni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi talablarga rioya qilinmay tuzilganda mutlaqo haqiqiy hisoblanmaydi.

FK 278-moddasining birinchi qismida ko'rsatilganidek, garovga oluvchi o'z ixtiyorida bo'lgan yoki bo'lishi lozim bo'lgan garovga qo'yilgan mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egallashidan talab qilib olishga haqli (FKning 228, 229, 230, 232-moddalari).

Garov bilan ta'minlangan majburiyat qarzdor tomonidan bajarilganda, garovga qo'yilgan mulk sudning, xo'jalik sudining qaroriga asosan sotiladi va tushgan summa hisobidan, birinchi navbatda, boshqa shaxslardan oldin kreditorning talablari qondiriladi. Garovga qo'yilgan mulk davlat va kooperativ do'kon orqali sotiladi. Garovga qo'yilgan uy-joylar esa – sud ijrochilari tomonidan ochiq savdo bilan sotiladi.

Agar garovga qo'yilgan mulkni sotishdan tushgan summa mulkni garovga olgan shaxs (kreditor)ning talablarini qondirish uchun yetarli bo'lmasa, u holda kreditor, agar qonun yoki shartnomada boshqacha ko'rsatmalar bo'lmasa, yetishmagan summani qarzdorning boshqa mulki hisobidan olishga haqli bo'ladi. Kreditorning o'z haqini qarzdorning boshqa mulkidan olishga bo'lgan huquqi garov huquqidan emas, asosiy majburiyatdan kelib chiqadi. Bu holda qarzdorning boshqa mulki hisobidan o'z haqini undirishda boshqa shaxslarga nisbatan ustunlik huquqiga ega bo'lmaydi.

Mulkni garovga olgan shaxsning o'z talablarini garovga qo'yilgan mulk hisobidan undirishda ustunlik huquqiga ega bo'lishligi ba'zi hollarda cheklanishi mumkin. Jumladan, FKning 26, 56-moddalariga muvofiq, garovga olgan shaxs talablarning qondirilishiga qadar garovga qo'yilgan mulkni sotish natijasida tushgan summadan alimentlarning undirilishi, xodimlarning mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablari, o'zgalarning hayotiga yoki sog'ligiga zarar yetkazish, shuningdek, mualliflik shartnomalari bo'yicha mukofot to'lash to'g'risidagi talablar birinchi navbatda qondirilishi lozim.

Garov huquqi uy-joylarga nisbatan shartnomaning davlat ro'yxatidan o'tkazilishi paytidan, boshqa mulkka nisbatan esa, bu mulkni garovga oluvchiga topshirilishi paytidan, agar u qonun yoki shartnoma bo'yicha topshirilishi lozim bo'lmasa, shartnomaning tuzilish paytidan e'tiboran vujudga keladi.

Garov huquqining bekor bo'lishi hollari FKning 283-moddasida ko'rsatiladi. Unda garov huquqi quyidagi hollarda:

- garov bilan ta'minlangan majburiyat bekor bo'lganda;
- garovga qo'yilgan ashyo nobud bo'lganida yoki garovga qo'yilgan huquq bekor bo'lganida;
- garovga qo'yuvchi garov narsasini almashtirmasa;
- garovga oluvchi garovga qo'yilgan mol-mulkning yo'qolish yoki shikastlanish xavfini tug'diradigan darajada qo'pol suratda buzishlarda garovga qo'yilgan mol-mulk kim oshdi savdosida sotilgan yoxud sotish mumkin bo'lmagan taqdirda bekor bo'ladi.

Garovning bir necha turlari mavjud, jumladan, ipoteka garovi banklar tomonidan turli maqsadlar uchun qarzlar berishda, fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurish uchun qarz berilishida, lombardlar tomonidan fuqarolarga qarz berilishida qo'llaniladi. Banklar tomonidan tashkilotlarga har xil maqsadlar uchun beriladigan qarzlar mazkur tashkilotlarning tovarlari va boshqa moddiy boyliklarning to'la garovga qo'yilishi bilan ta'minlanadi. Bank tomonidan garov baravariga kreditlarning berilishi xo'jalik subyektlarining ham, banklarning ham manfaatlariga javob beradi.

Tovarlar va boshqa moddiy boyliklar garovga qo'yilishida ularga garovga beruvchi – savdo korxonasi, garovga qo'yilgan ashyolarning qiymati tegishlicha bankka to'langan yoki sotilgan mollar boshqa mollar bilan almashtirilgan holda garovga qo'yilgan ashyolarni sotishga haqli.

Ashyolarni garovga beruvchi ishlab chiqarish korxonasi o'zining ishlab chiqarishda xom ashyo materiallari va yarim tayyor mahsulotlarni ishlatishga, qaytadan ishlashga haqli bo'lsa ham, bankning garov huquqi barcha ashyolarga nisbatan belgilanadi.

Mahsulotlarni garovga oluvchiga bankka garovga qo'yilgan mollarning mavjud bo'lishini va saqlanishini tekshirib turish huquqi beriladi. Kredit olgan qarzdor tashkilot o'z majburiyatlarini bajarmaganida bank o'z buyrug'i bilan garovga qo'yilgan mollarni sotishga haqli. Bankka garovga qo'yilgan tovarlarni sotishdan hosil qilingan mablag' bankning garov bilan ta'minlangan qarzini qoplashga sarflanadi. Yakka tartibda va kooperativ uy-joy qurilishi uchun bank tomonidan uzoq muddatli kreditlar berilishida imoratlarning garovga qo'yilishi maxsus qoidalar bilan tartibga solinadi. Bunda uy-joy qurish uchun banklar tomonidan fuqarolarga beriladigan kreditlar notarial idoralar orqali imoratlarning garovga qo'yilishi yo'li bilan ta'minlanadi.

Bankka garovga qo'yilgan imoratlar to kreditlar bus-butun to'lanmaguncha sotilishi yoki boshqa usulda birovga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. Uy-joy qurish uchun fuqaroga qarz berishda bank tegishli notarial idorani xabardor qiladi va unga qancha qarz, qancha vaqtga berilganini ko'rsatadi. Notarial idora bankning xabarnomasini olganidan so'ng mazkur hujjatga taqiq to'g'risida belgi qo'yib, birinchi nusxasini ro'yxatdan o'tkazish uchun mahalliy davlat hokimiyati organiga yuboradi, ikkinchi nusxasi esa notarial idorada saqlanadi.

Notarial idorada imoratga taqiq belgisi qo'yilishi bino egasining imorat to'g'risida tasarruf qilish huquqini cheklaydi. Garovga qo'yuvchi to' o'zi olgan kreditni to'la miqdorda to'lab bankning ijozatini olmay turib, kredit hisobiga ko'rilgan imoratni sotishga yoki boshqa usulda birovga o'tkazishga haqli emas.

Garovga qo'yiladigan ashyolar o'zaro kelishuv bo'yicha baholanadi. Ashyolarning bunday baholanishi garovga qo'yilgan ashyoning nobud bo'lishi yoki buzilishi hollarida nizo chiqqan taqdirda zarur bo'ladi. Garovga oluvchi (kreditor) ning talablarini qondirish uchun undiruvni qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatlarni o'zi javobgar bo'lgan holatlarda bajarmagan yoki tegishli darajada bajarmagan taqdirda garov narsasiga qaratishi mumkin.

Agar garov bilan ta'minlangan majburiyatning qarzdor tomonidan buzilishi juda arziyas bo'lsa va shu tufayli garovga oluvchining talablarining miqdori garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatiga mutlaqo mos kelmasa, undiruvni garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratishni rad etish mumkin (FK, 279-modda.) Garovga oluvchi (kreditor) ning talablari garovga qo'yilgan ko'chmas mol-mulk qiymatidan sudning qaroriga muvofiq undiriladi. Agar bunda notarial tasdiqlangan kelishuv mavjud bo'lsa, sudning qarorisiz undirish amalga oshiriladi. Biroq bunday kelishuv tufayli huquqlari buzilgan shaxs kelishuvni haqiqiy emas deb topish haqida sudga da'vo bilan murojaat qilishga haqli.

Agar garovga qo'yuvchining garovga oluvchi bilan kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga oluvchining talablari garovga qo'yilgan ko'char mol-mulk hisobidan sud qaroriga muvofiq qondiriladi. Undiruv garov narsasiga quyidagi hollarda faqat sudning qaroriga muvofiq qaratilishi mumkin:

1. Garov to'g'risida shartnoma tuzish uchun boshqa shaxs yoki organning roziligi yoxud ruxsati talab qilinganida (masalan, ashyoviy huquq garovga qo'yilganida mulkdorning roziligi talab qilinishi hollarida);

2. Garov narsasi jamiyat uchun tarixiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy ahamiyatga ega mol-mulk bo'lsa;

3. Garovga qo'yuvchi yo'qolgan bo'lsa va uning turgan joyini aniqlash mumkin bo'lmasa.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, majburiyat bo'yicha haq undirish garov narsasiga qaratilgan hollarda uni sotish, qonunchilikda belgilangan tartibda kim oshdi savdosida sotish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Agar garovga qo'yilgan mol-mulkni sotishdan tushgan summa garovga oluvchining talabini qoplashga yetarli bo'lmasa, u qonunda yoki shartnomada boshqacha ko'rsatma bo'lmaganida yetishmayotgan summani umumiy asoslarda va tartibda qarzdorning boshqa mol-mulkidan olish huquqiga ega. Agar sotuvdan tushgan summa garovga oluvchining garov bilan

ta'minlangan talabidan oshib ketsa, farq garovga qo'yuvchiga qaytarib beriladi.

Qarzdor yoki uchinchi shaxs bo'lgan garovga qo'yuvchi garov narsasi sotilguncha, xohlagan vaqtda garov bilan ta'minlangan majburiyatni yoki uning ijrosini kechiktirib yuborilgan qismini bajarib, undiruvni unga qaratishga va uni sotishga barham berishi mumkin. Bu huquqni cheklaydigan kelishuv o'z-o'zidan haqiqiy emasdir (FK, 281-modda).

Mol-mulkning garovga qo'yilishi:

– birinchidan, mol-mulkning doimo mavjud bo'lishi va saqlanishini ta'minlaydi;

– ikkinchidan, kreditor boshqa shaxslarga, ya'ni qarzlarning boshqa kreditorlariga nisbatan ustunlik bilan o'z talablarini qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi;

– uchinchidan, mol-mulkning qarzdor uchun uchinchi shaxs tomonidan garovga qo'yilishi qarzdorga bo'lgan talablarning qondirilishi uchun qo'shimcha manba hisoblanadi. Ashyoni garovga olgan kreditor talablarining qondirilishi aniq ta'minlanishi bilan garovning belgilanishi qarzdorni o'z majburiyatini ijro etishga majbur qiladi.

Qonunga ko'ra, har qanday majburiyat ham garov bilan ta'minlanishi mumkin. Amalda garov, asosan, qarz majburiyatlarining ijro etilishini ta'minlash usuli sifatida tatbiq etiladi.

**Ashyolarning lombardda garovga qo'yilishi.** Lombardlar fuqarolardan shaxsiy iste'molga mo'ljallangan ko'char mol-mulkni qisqa muddatli kreditlarni ta'minlash uchun garovga qabul qilish orqali tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi hamda muayyan ma'noda pulga ehtiyoji bo'lgan shaxslarni kreditlab ijtimoiy himoya funksiyasini bajaradi.

Ma'lumki, «Lombard» atamasi Italiyadagi viloyat nomidan olingan bo'lib, dastlab fuqarolardan shaxsiy iste'molga mo'ljallangan ashyolar evaziga qarz berish faoliyati aynan shu joyda vujudga kelganligi adabiyotlarda ta'kidlanadi. Ushbu faoliyat (lombard faoliyati) ning mohiyati shundaki, bunda o'ziga xos moliyaviy muassasa hisoblangan lombard kredit berish

evaziga foizlar asosida foyda ko'radi va ayni paytda berilgan pul evaziga uning miqdoriga teng bo'lgan ashyolarni garovga olib qoladi. Bu holat esa lombardlarning bir vaqtning o'zida bankning funksiyalarini bajarayotganligini anglatadi. Bundan tashqari, lombardlar garov saqlovchilik faoliyatini ham yuritadi va kreditor sifatida majburiyat ijrosini eng ishonchli vosita orqali ta'minlab, majburiyat bajarilmaganda qisqa muddatlarda undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish huquqiga ega bo'ladi.

Ayni paytda lombard nafaqat garov evaziga kredit berish funksiyasini, balki fuqarolarning shaxsiy iste'molga mo'ljallangan ashyolarini saqlab turish xizmatini ham ko'rsatmoqda. Zero, bozor munosabatlari sharoitida mol-mulkni saqlash va asrash vazifasi mulk huquqini himoya qilishda, xususiyl mulkdorlar manfaatlarini amalga oshirishda va mavjud mol-mulklarning nobud bo'lishining oldini olishda muhim o'rin tutadi. Jamiyatda mol-mulklar va moddiy ne'matlarning qonun normalari orqali himoyalanganligidan tashqari, ularni amalda saqlab turish, turli tashqi ta'sirlardan asrash va mol-mulkning mavjudligi, shikastlanmasligini ta'minlash iqtisodiy yuksalishning zaruriyl shartlaridan biri hisoblanadi.

Fuqarolik kodeksining 289-moddasida aytilganidek, fuqarolardan shaxsiyl iste'molga mo'ljallangan ko'char mol-mulkni qisqa muddatli kreditlar berish uchun garovga qabul qilishga ixtisoslashgan tashkilotlar, ya'ni litsenziyasi bo'lgan lombardlar tomonidan tadbirkorlik faoliyati sifatida amalga oshirilishi mumkin.

Lombardda ashyolarni garovga qo'yish haqidagi shart-noma, lombard tomonidan garov pattasi berish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

FK 289-moddasining to'rtinchi qismida ko'rsatilganidek, lombard garovga qabul qilingan ashyolarni garovga qabul qilish paytida shunga o'xshash va shunday sifatli ashyolarning narxlariga mos bahodagi to'liq summasida o'z hisobidan garovga qo'yuvchi foydasiga sug'urtalashi shart. Lombard garovga qo'yilgan ashyolardan foydalanishga va ularni tasarruf



etishga haqli emas. Lombard ashyolarning yo'qolishi yoki shikastlanishi yengib bo'lmas kuch oqibatida yuz berganligini isbotlay olmasa, garovga qo'yilgan ashyolarning yo'qolganligi yoki shikastlanganligi uchun javobgar bo'ladi.

Agar lombardda ashyolar garovi bilan ta'minlangan kredit summasi belgilangan muddatda qaytarib berilmagan taqdirda, lombard notariusning ijro yozuvi asosida imtiyozli bir oylik muddat o'tganidan keyin garovga qo'yilgan mol-mulkni sotish uchun belgilab qo'yilgan tartibda (ushbu Kodeksning 281-moddasi) ushbu mol-mulkni sotishga haqli. Shundan keyin hatto garovga qo'yilgan mol-mulkni sotishdan tushgan summa talablarni to'liq qanoatlantirish uchun yetarli bo'lmasa ham, lombardning garovga qo'yuvchiga (qarzdorga) talablari bekor bo'ladi. (FK, 289-modda, yettinchi qism).

Lombardlar tomonidan fuqarolarning ashyolarini garovga olib kredit berish qoidalari qonunchilik bilan belgilanadi.

Lombardda ashyolarni garovga qo'yish to'g'risidagi shart-nomaning garovga qo'yuvchining huquqlarini ushbu Kodeks yoki boshqa qonunlar bilan unga beriladigan huquqlarga qaraganda cheklab qo'yadigan shartlari o'z-o'zidan haqiqiy emas. (FK, 289-modda, sakkizinchi va to'qqizinchi qismlar).

#### **4-§. Qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish**

Ushlab qolish deganda, kreditor tomonidan qarzdorga unga tegishli bo'lgan, yoki unga yoki u ko'rsatgan shaxsga topshirilishi lozim bo'lgan ashyoni, qarzdor o'z majburiyatlarini bajarmaguncha bermasligi tushuniladi. Masalan, maishiy texnikani ta'mirlash bo'yicha usta u ta'mirlagan televizorni, televizor egasi ta'mirlash bo'yicha xizmat haqini to'lamaguncha ushlab turishi mumkin.

Bu jihatdan qaraganda, ushlab qolish garovga o'xshashdir. Ularning o'xshashligi, ikkala holda ham majburiyat bajarilishini ta'minlashning narsasi ashyo ekanligidan iborat. Ushlab qolish yoki garovdan foydalanuvchi kreditor majburiyat bajarilishini ta'minlash ashyosini o'zida qoldiradi.

Ushlab qolishga qarzdorning o'z majburiyatlarini bajarmaslik holatida vujudga keladigan o'zganing ashyosiga nisbatan kreditorning huquqi sifatida qarash mumkin. Agar kreditor ushbu huquqdan foydalansa, uning harakatlarini bir tomonlama bitim sifatida tan olish mumkin, bunda kreditorning harakatlari tufayli bitimlar uchun xos bo'lgan fuqarolik huquqlari va burchlari vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasi FKning 259-moddasida majburiyat-larning bajarilishini ta'minlash usullari tizimida qarzdorning mol-mulkini ushlab qolishi ham nazarda tutiladi. Bu usullarni qo'llash asoslari FKning 290-moddasida belgilab berilgan. Bunga asosan, qarzdorga yoki qarzdor ko'rsatgan shaxsga topshirilishi lozim bo'lgan ashyoni saqlayotgan kreditor ushbu ashyo haqini yoki u bilan bog'liq chiqimlar va boshqa zararni kreditorga to'lash majburiyatlari qarzdor tomonidan muddatida bajarilmagan taqdirda unga tegishli majburiyat bajarilgunga qadar ushlab qolishga haqli. Garchi ashyoning haqini to'lash uning chiqimlarini va boshqa zararni to'lash bilan bog'liq bo'lmasa-da, biroq taraflari tadbirkor sifatida ish ko'rayotgan majburiyatdan kelib chiqqan talablar ham ashyoni ushlab qolish bilan ta'minlanishi mumkin.

Ashyo kreditor egaligiga o'tganidan keyin unga bo'lgan huquqlar uchinchi shaxs tomonidan olinganligiga qaramasdan, kreditor o'z qo'lidagi bu ashyoni ushlab qolishi mumkin.

Ushlab qolish o'z mohiyatiga ko'ra garovga o'xshaydi. Biroq ayni vaqtda, u qator o'ziga xosliklarga ham ega.

**Birinchi**dan, ushlab qolishda ashyo faqat kreditor ixtiyorida bo'ladi, garov narsasi esa qarzdorda ham, uchinchi shaxsda ham saqlanishi mumkin.

**Ikkinchi**dan, ushlab qolinayotgan ashyo kreditor ixtiyoriga turli asoslar bo'yicha o'tgan bo'lishi mumkin. Garov narsasi esa har doim qarzdor yoki uchinchi shaxs (garovga qo'yuvchi) irodasi bilan shartnoma asosidagina vujudga keladi va hokazo.

Ashyoni ushlab turgan kreditorning talablari uning qiymatidan garov bilan ta'minlangan talablarni qondirish uchun nazarda tutilgan hajmda va tartibda qanoatlantiriladi.

Binobarin, ushlab qolingani mol-mulk yoki pul mablagʻlari hajmi qarzdorning qarzi hajmidan koʻp boʻlsa, u holda kreditor ortiqcha qismini qaytarishi lozim. Agar ushlab turilgan mol-mulk yoki pul mablagʻlari qarzdor qarz hajmiga teng boʻlsa, FKning 343–345-moddalarida koʻrsatilgan talablarga rioya qilingan holda majburiyat hisobga oʻtkazish orqali bekor boʻlishi mumkin. Qarzdor tomonidan majburiyat ijro etilgan hollarda kreditor ushlab qolingani mol-mulkni qarzdorga yoki uchinchi shaxsga qaytarishi shart.

## 5-§. Kafillik

Kafillik – qarzdor majburiyatlarining bajarilishi uchun uchinchi shaxs – kafil javobgar boʻladigan huquqiy munosabatdir. Mazkur holatda «javobgar boʻladi» degan ibora faqat mulkiy javobgarlikni nazarda tutadi va u qarzdor oʻz majburiyatlarini bajarmaganligi oqibatida kafilda javobgarlikni vujudga keltiradi. Boshqacha qilib aytganda, agar qarzdor oʻz majburiyatlarini bajarmasa yoki toʻliq bajarmasa, kafil qarzdorning majburiyatlarini bajarishga majbur boʻladi.

Kafillik majburiyatlar bajarilishini taʼminlashning alohida turi boʻlib, u kafillik toʻgʻrisidagi shartnoma asosida vujudga keladi. Kafillik shartnomasiga asosan, bir taraf kafil, boshqa shaxs oʻz majburiyatlarini toʻla yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni oʻz zimmasiga oladi (FK, 292-modda, birinchi qism).

Kafil qarzdor uchun mulkiy javobgarlikni olganligini toʻgʻridan-toʻgʻri aniq bildirishi lozim. Majburiyatning bajarilishini taʼminlash usuli sifatida koʻriladigan kafillikning mohiyati shundaki, kreditor asosiy majburiyat bajarilmagan holda, oʻz talablarini faqat asosiy qarzdorgagina qoʻymay, balki kafilga nisbatan ham qoʻya oladi.

Kafillik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim. Bu holda taraflar kafillik toʻgʻrisida alohida yozma shartnoma tuzishlari shart boʻlmaydi. Kafillik belgilanishida kafil asosiy qarzdor tomonidan beriladigan tilxatda qarzdor tomonidan

majburiyatning lozim darajada bajarilishi javobgarlikni o'z zimmasiga olganligini ko'rsatib belgi qo'ysa yoki qarzdorning muayyan majburiyat yuzasidan kafil bo'lishini kreditor nomiga yozgan xatida bildirsa ham, kifoya. Kafillik haqidagi shartnomaning yozma shaklda tuzilishi lozimligi to'g'risidagi qonun bilan belgilangan talablarga rioya qilmaslik – kafillik shartnomasining haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi. Kafillik asosiy majburiyatga qo'shimcha xarakterda bo'lishi shundan iboratki, kafillik bilan faqat asosiy talabgina ta'minlanishi mumkin. Agar asosiy shartnoma uning shakliga rioya qilinmaganligi sababli yoki shartnomada ishtirok etuvchi taraflarning muomalaga layoqatsiz bo'lishi tufayli va boshqa shu kabi sabablar bo'yicha haqiqiy emas deb topilsa, mazkur shartnomaga qo'shimcha hisoblangan kafillik shartnomasi ham o'zining yuridik kuchini yo'qotadi. Kafilning javobgarligi hajmi asosiy majburiyat yuzasidan qarzdorning javobgarligidan oshiq bo'lishi mumkin emas. Qarzdor qanday hajmda javobgar bo'lsa, kafil ham shu hajmda javobgar bo'ladi. Xususan, kafillik shartnomasi bilan boshqacha hol belgilanmagan bo'lsa, foizlarning, zararlarining, neustoykaning to'lanishi uchun ham javobgar bo'ladi. Qarzdor uchun majburiyatni bajargan kafil mazkur majburiyat yuzasidan bo'lgan barcha huquqlarni oladi. FKning 295-moddasida ko'rsatilganidek, majburiyatni bajargan kafilga shu majburiyat yuzasidan kreditorga tegishli bo'lgan barcha huquqlar o'tadi. Kafil majburiyatni bajarganidan keyingi kreditor qarzdorga bo'lgan talabni tasdiqlovchi hujjatlarni kafilga topshirish va bu talabni ta'minlaydigan huquqlarni berishi shart. Qarzdor kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, kafil va qarzdor kreditor oldida solidar javob beradilar (FK, 293-modda).

FKda ko'rsatilgan yuqoridagi qoida dispozitiv xarakterda bo'lgani, ya'ni, o'zgartirilishi, to'lg'azilishi mumkin bo'lgani sababli taraflar o'zaro kelishib, kafilning boshqacha hajmda javobgar bo'lishini, masalan, asosiy qarzdorga qo'shimcha javobgar bo'lishini belgilashlari mumkin. Bu holda kafil majburiyatning bajarilishi yuzasidan qarzdordan hech narsa

undirish mumkin bo'lmagani holdagina qarzdor uchun javobgar bo'ladi.

FK 293-moddasining uchinchi qismida aytilganidek, birgalashib kafil bo'lgan shaxslar, agar kafillik shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, kreditor oldida solidar javob beradilar.

Agar kreditor kafilga nisbatan da'vo qo'zg'atsa, u holda kafil qarzdorlarni ishda ishtirok etish uchun jalb qilishga majbur. Shuning o'zi bilan u qarzdorga o'zining manfaatlarini himoya qilish imkoniyatini bergan bo'ladi. Agar kafil ishda ishtirok etishga jalb qilmasa, qarzdor o'zining kreditoriga qarshi qo'yishi mumkin bo'lgan barcha e'tirozlarini, ya'ni FKning 294-moddasida ko'rsatilgan e'tirozlarini kafilning unga qilgan talabiga qarshi qo'yishga haqli. FKning 294-moddasida ko'rsatilganidek, kafil kreditorning talabiga qarshi qarzdorning o'zi tomonidan ko'rsatilishi mumkin bo'lgan barcha e'tirozlarni qo'yishga haqli. Kafil bunday e'tirozlarga bo'lgan huquqini, garchi qarzdor o'zi bu huquqdan voz kechsa ham yoki o'z majburiyatiga iqror bo'lsa ham yo'qotmaydi.

Agar bir necha kafil qarzdor uchun kafillik bergan bo'lsa, keyinchalik qarzdor uchun qarzlarni to'laganlari holda har qaysisi o'zlari tomonidan to'langan summa miqdorida qarzdorga nisbatan o'z talablarini qo'ya oladi. FKning 296-moddasida ko'rsatilganidek, kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajargan qarzdor bu haqda kafilni darhol xabardor qilishi shart. Aks holda, o'z navbatida majburiyatni bajargan kafil asossiz olingan narsani kreditordan undirib olishi yoki qarzdorga regress talab qo'yishga haqli. Regress talab qo'yilgan taqdirda, qarzdor asossiz olingan narsanigina kreditordan undirib olishga haqli.

Kafillik shartnomasi quyidagi hollarda bekor bo'ladi:

– kafillik bilan ta'minlangan asosiy majburiyat bekor bo'lganda;

– kafilning roziligisiz majburiyatda uning javobgarligi oshishi yoki uning uchun boshqa noqulay oqibatlar yuz berishiga olib keladigan tarzda majburiyat shartlari o'zgartirilganda;

– kafillik bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha qarz boshqa shaxsga o'tkazilganda, agar kafil yangi qarzdor uchun javobgar bo'lishi haqida kreditorga rozilik bergan bo'lmasa;

– majburiyatni bajarish muddati kelganida kreditor qarzdor yoki kafil taklif qilgan tegishli ijroni qabul qilishdan bosh tortganda;

– shartnomada belgilangan kafillik muddati o'tganda;

– agar shartnomada kafillik muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, kreditor majburiyatni bajarish muddati yetgan kundan boshlab bir yil davomida kafilga da'vo qo'zgatmasa;

– agar asosiy majburiyatni bajarish muddati ko'rsatilmagan va belgilanishi mumkin bo'lmagan yoki talab qilib olish payti bilan belgilangan bo'lsa, kreditor kafillik shartnomasi tuzilgan kundan boshlab bir yil mobaynida kafilga nisbatan da'vo qo'zg'atmagan taqdirda (FKning 298-moddasi).

## **6-§. Kafolat**

Kafolat – majburiyatlar bajarilishini ta'minlashning usullaridan biridir. U o'z xususiyatlariga ko'ra kreditorning manfaatlarini yanada to'laroq himoya qiladi. Fuqarolik huquqida ko'pincha majburiyatlar bajarilishini ta'minlashning mazkur turi bank kafolati deb ataladi, chunki kafil sifatida faqat bank yoki boshqa kredit muassasasi chiqishi mumkin.

Kafolatga binoan bank, boshqa kredit muassasasi yoki sug'urta tashkiloti (kafil) boshqa shaxs (prinsipal) ning iltimosiga ko'ra kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida prinsipalga yozma majburiyat beradi (FK, 299-modda).

Kafolatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bunda har doim kafil sifatida bank, boshqa kredit muassasasi yoxud sug'urta tashkiloti qatnashadi. Ko'p hollarda kafil prinsipalga xizmat ko'rsatuvchi tashkilot hisoblanadi. Shu sababli ham kafil prinsipalning bankda saqlayotgan pul mablag'lari hisobidan uning kreditorlari oldidagi majburiyatini bajaradi. Biroq qonun

buni shart qilib qo'ymaydi, shu sababli ham kafil sifatida har qanday kredit muassasasi yoki kredit tashkiloti bo'lishi mumkin. Kafolatning asosiy mohiyati shundaki, u orqali prinsipalning benefitsiar oldidagi o'z majburiyatini (asosiy majburiyatni) tegishli darajada bajarilishi ta'minlanadi. Kafolat haq baravariga tuziladi. Kafolat bergan bank (kredit muassasasi, sug'urta tashkiloti) ga prinsipal tegishli miqdorda haq to'laydi. Kafolat asosiy majburiyatdan (ya'ni prinsipalning benefitsiar oldidagi majburiyatidan) garchi kafolatda ushbu majburiyatga havola qilinsa-da, mustaqil hisoblanadi.

Kafolat mohiyatini tushunish uchun, uning uchta turdagi qonuniy munosabatlarni keltirib chiqarishini e'tiborga olish lozim. Birinchidan, asosiy majburiyatni keltirib chiqargan prinsipal bilan benefitsiar orasidagi munosabatlar. Ikkinchidan, kafil bilan prinsipal orasidagi munosabatlar. Uchinchidan, kafil bilan benefitsiar orasidagi munosabatlar. Sanab o'tilgan huquqiy munosabatlar kafolat deb ataluvchi yagona huquqiy konstruksiyani tashkil qiladi va ular o'zaro bir-biri bilan bog'langan.

Majburiyatlar bajarilishini ta'minlash uchun kreditor qarzdordan kafolatlarni talab qiladi va buning uchun uchinchi shaxs – kafil bilan huquqiy munosabat vujudga keladi, bunda u kreditorga muayyan summani to'lash majburiyatini zimmasiga oladi.

Agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, u kafil tomonidan chaqirib olinishi mumkin emas. Kafolat bo'yicha benefitsiarga tegishli bo'lgan kafilga talab qo'yish huquqi agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin emas.

Agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lmasa, u berilgan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Benefitsiarning kafolat bo'yicha pul summasini to'lash haqidagi talabi kafolatda ko'rsatilgan hujjatlarni ilova qilgan holda kafilga yozma ravishda taqdim etilishi lozim. Talabda yoki unga ilovada benefitsiar prinsipalni ta'minlash uchun kafolat berilgan asosiy majburiyatni buzishi nimadan iboratligini ko'rsatishi kerak.

Kafil benefitsiarning talablarini olganidan so'ng bu haqda darhol prinsipalni xabardor qilishi va unga talabning nusxasini barcha tegishli hujjatlar bilan topshirishi kerak. Kafil benefitsiarning talabini ilova qilingan hujjatlar bilan birga kafolatda ko'rsatilgan muddatda bu talab hamda unga ilova qilingan hujjatlar kafolat shartlariga mos kelishi yoki kelmasligini aniqlash uchun oqilona jonkuyarlik ko'rsatishi kerak.

Agar benefitsiarning talabi yoki unga ilova qilingan hujjatlar kafolat shartlariga mos kelmasa yoxud kafilga kafolatda belgilab qo'yilgan muddat tamom bo'lganidan keyin taqdim etilgan bo'lsa, kafil benefitsiarning talabini qondirishni rad etadi va hu haqda uni darhol xabardor qiladi.

Agar benefitsiarning talabi qondirilganga qadar kafolat bilan ta'minlangan asosiy majburiyat batamom yoki uning tegishli qismi bajarilganligi yoxud boshqa asoslarga ko'ra bekor bo'lganligi yoki haqiqiy emas deb topilganligi kafilga ma'lum bo'lib qolsa, u bu haqida darhol benefitsiarga va prinsipalga xabar berishi shart.

Odatda, kafilning benefitsiar oldidagi mas'uliyati kafolatda nazarda tutilgan summani to'lash bilan chegaralanadi. Biroq kafil kafolat bo'yicha majburiyatni bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kafolatda nazarda tutilgan summani to'latish bilan chegaralanmay, yetkazilgan zararlarni ham undirib olishga haqli.

Kafilning kafolat bo'yicha benefitsiar oldidagi majburiyati quyidagi hollarda bekor bo'ladi:

1. Kafolat berilgan summa benefitsiarga to'lanishi bilan;
2. Kafolatda belgilangan muddat tamom bo'lishi bilan;
3. Benefitsiar kafolat bo'yicha o'z huquqlaridan voz kechishi va uni kafilga qaytarib berish oqibatida;
4. Benefitsiar kafilni uning majburiyatlaridan ozod qilish haqidagi yozma ariza berish yo'li bilan kafolat bo'yicha o'z huquqlaridan voz kechishi oqibatida.

Kafolatning yuqoridagi 1, 2, 4-bandlarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha bekor qilinishi kafilga kafolat qaytarib berilgan yoki berilmaganligiga bog'liq bo'lmaydi. Kafolat bekor bo'lganligidan



xabar topgan kafil darhol bu haqda prinsipalni xabardor qilishi kerak<sup>1</sup>. Kafilning prinsipaldan kafolat bo'yicha benefitsiarga to'langan summalarni regress tartibida to'lashni talab qilish huquqi kafilning prinsipal bilan bajarish yuzasidan kafolat berilgan kelishuvida belgilab qo'yiladi.

Agar kafilning prinsipal bilan kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, kafil benefitsiarni kafolat shartlariga muvofiq tarzda yoki kafilning benefitsiar oldidagi majburiyatni buzganligi uchun to'langan summalarni qoplashni prinsipaldan talab qilishga haqli emas (FK, 310-modda).

Bunda kafil va prinsipal orasidagi kelishuv bilan, ko'rsatilgan vaziyatlardan qat'iy nazar, xarajatlarni qoplashga bo'lgan huquq nazarda tutilishi mumkin.

## 7-§. Zakalat

Zakalat – majburiyatlar bajarilishini ta'minlashning usullaridan biridir. Majburiyatlarni ta'minlashning boshqa turlaridan farqli ravishda, zakalat shartnoma tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini ta'minlash yuzasidan beriladigan pul summasidir.

Shartnoma tuzayotgan taraflardan biri shartnoma tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini ta'minlash yuzasidan beradigan pul summasi zakalat hisoblanadi. Zakalat to'g'risidagi kelishuv zakalatning summasidan qat'i nazar, yozma ravishda tuzilishi kerak. (FK, 311-modda).

Shunday qilib, zakalat bir vaqtning o'zida uchta funksiyani bajaradi:

**birinchidan**, zakalat berilib tuzilgan shartnoma haqiqatan tuzilganligini isbotlovchi dalil hisoblanadi;

**ikkinchidan**, shartnoma bo'yicha amalga oshiriladigan to'lovlarning bir qismi hisoblanadi;

**uchinchidan**, shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishini ta'minlaydi.

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov X.R. va boshqalar. Tadbirkorlik huquqi. Darslik. – T., Konsauditinform 2002. – B. 479.

Zakatning vazifasi shundaki, zakat bergan taraf shartnoma yuzasidan olgan o'z majburiyatlarini bajarmaganida, bergan zakatni yo'qotadi. Agar zakat bergan taraf shartnomadan voz kechgan bo'lsa, bu holda u bergan zakatning qaytarib berilishini talab qila olmaydi. Agar zakat olgan taraf o'z majburiyatlarini bajarmasa, u ikkinchi tarafga zakat summasini ikki baravar miqdorida to'lashga majbur. Ba'zi hollarda zakat uni bergan tarafga bir miqdorda qaytarilishi lozim. Jumladan, agar majburiyatni, taraflardan hech qaysisining aybi bilan bog'liq bo'lmagan holda bajarilmasa, o'zaro kelishuv bo'yicha beriladigan zakat qaytariladi.

Agar ijro etilgan shartnoma keyinchalik haqiqiy emas deb topilsa va buning natijasida har ikki taraf ham avvalgi hollariga keltirilishi lozim bo'lsa yoki zakat bergan taraf shartnoma yuzasidan amalga oshirilgan barcha summani o'ziga qaytarilishini talab qilishga haqli bo'lsa-yu, ammo ikkinchi taraf bunday huquqqa ega bo'lmasa – zakat, yuqorida ko'rsatilganidek, aslicha bir karra miqdorda qaytarilishi lozim bo'ladi,

FKning 312-moddasi uchinchi qismida ko'rsatilganidek, shartnomaning bajarilmasligi uchun javobgar bo'lgan taraf agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, zakat summasini hisobga olgan holda ikkinchi tarafga zararlarni to'lashi shart.

Agar zakat summasi zarar summasidan birmuncha ko'proq bo'lsa, u holda faqat zakatgina undiriladi. Agar majburiyatni bajarmaslik natijasida ko'rilgan zarar zakat summasidan ortiq bo'lsa, u holda zakat summasi ham, zararlarni qoplash uchun yetishmagan summa ham undiriladi. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usuli sifatida ko'riladigan zakat fuqarolar o'rtasidagi munosabatda ham, shuningdek, fuqarolar bilan yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlarda ham qo'llanilishi mumkin. Zakat avansdan farq qilishi kerak. Zakat bilan avansning bir-biriga o'xshash tomoni shundaki, bularning har ikkisi ham kelajakda to'lanadigan summalar hisobidan taraflardan biri tomonidan ikkinchisiga avvaldan to'lanib qo'yilgan pul summasi bo'lib ko'riladi. Ammo avans zakatdan farq qilib, majburiyatning bajarilishini ta'minlamay,

balki shartnoma yuzasidan taraflardan birining ikkinchisiga tegishli bo'lgan summani mazkur ikkinchi tarafning faoliyatini pul bilan ta'minlash maqsadida avvaldan berilgan pul summasi hisoblanadi. Taraflardan biri tomonidan ikkinchisiga berilgan avans muayyan ishlarni bajarish uchun zarur xarajatlarni qilish imkoniyatini beradi. Kelajakda to'lanadigan summalar hisobiga avvaldan berilgan pul mablag'lari yoki boshqa moddiy boyliklar shartnomaning tuzilganligini isbotlash va uning bajarilishini ta'minlash maqsadlarida berilgan holdagina zakalat hisoblanadi.

Agar bu ikki belgidan hech qaysisi bo'lmasa, berilgan summani avans qatorida hisoblash lozim bo'ladi. Ikkinchi taraf tomonidan majburiyat ijro etilmagani holda avans bergan taraf qancha summada avans bergan bo'lsa, uning shu miqdorda qaytarilishini talab qilishga haqli.

### **Tayanch iboralar:**

Majburiyatni ta'minlash, neustoyka, qonuniy neustoyka, shartnomali neustoyka, hisobga o'tkaziladigan neustoyka, jarimali neustoyka, alohida neustoyka, muqobil neustoyka, garov, ipoteka, kafillik, kafolat, ushlab qolish, zakalat, penya, avans.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash tushunchasiga ta'rif bering.
2. Avans bilan penya o'rtasidagi farqni tushuntirib bering.
3. Neustoykaning qanday shakllarini bilasiz?
4. Garov tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari nimalardan iborat?
5. Navbatdagi garovga misol keltiring.
6. Muomaladagi tovarlar garovi nima?
7. Kafilning javobgarligi nimalardan iborat?
8. Kafilning xizmatlariga haq to'lash qanday amalga oshiriladi?
9. Kafolat qaysi vaqtdan boshlab kuchga kiradi?
10. Kafolatning bekor bo'lishi qanday huquqiy oqibatlarga olib keladi?

## **XXIV bob. MAJBURIYATLARNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK**

### **1-§. Majburiyatlarning buzilishi va fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasi**

Majburiyatni buzganlik uchun javobgarlikning sharti bo'lib qarzdorning aybi, ya'ni qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli buzishi hisoblanadi. Ayblilik faqat fuqarolar emas, balki yuridik shaxslar javobgarligining ham sharti hisoblanadi. Yuridik shaxslar, masalan, xodimlari tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida yetkazilgan zarar uchun javob beradi. Qarzdorning qasddan harakati uning tomonidan o'z xatti-harakatining noxush oqibatlarini anglagan holda atayin huquqbuzarlikka yo'l qo'yishida ifodalanadi. Ehtiyotsizlik shaklidagi aybdorlik huquqbuzar o'z xatti-harakatining noxush oqibatlarini oldindan ko'ra bilmagan bo'lsa-da, ana shunday oqibatlar kelib chiqishi mumkinligini hisobga olishi lozim bo'lgan va bunday oqibatlarning oldini olish chora-tadbirlarini ko'rmagan yoxud unga yo'l qo'ygan holatlarda vujudga keladi.

Shu bilan birga, qarzdorning aybi bo'lmagan holda – qonunda yoki shartnomada javobgarlikning boshqa asoslari nazarda tutilgan holatlarda ham javobgarlik vujudga kelishi mumkin<sup>1</sup>.

Majburiyat yuzasidan qarzdor bo'lgan shaxs uni butunlay bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi majburiyatni bajarish yuzasidan belgilangan huquq normalariga rioya qilmasligi huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik hisoblanib, bu hol majburiyat buzilganligidan dalolat beradi. Ya'ni, majburiyat yuzasidan qarzdor shaxs kreditorning subyektiv huquqini buzgan hisoblanadi. Jumladan, sifatsiz mahsulot (tovar) yetkazib berishda mahsulot sotuvchi tashkilot – qarzdor sifatida huquq normasini ya'ni, FKning tegishli moddasida ko'rsatilgan qoidani buzish bilan birga, mahsulot oluvchi korxonaning, ya'ni

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov H.R. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. I jild. – T.: «Vektor-Press» 2010. – B. 725.

kreditor tashkilot qarzdor tashkilotdan shartnomaga muvofiq sifatli mahsulot (tovar)ning o'ziga topshirilishini talab qila oladi.

Yuqorida aytilganidek, qarzdorning harakatsizligi ham huquqqa xilof hisoblanishi mumkin. Bunday harakatsizlik qarzdorning shunday xatti-harakatidan iborat bo'lib ko'rinadiki, bunda qarzdor o'zi amalga oshirishi lozim bo'lgan harakatni qilmaydi. Masalan, uy-joy ijarasi shartnomasi bo'yicha tashkilotning uyida yashovchi fuqaro belgilangan ijara haqini to'lamasligi bilan Uy-joy kodeksining 69-moddasida belgilangan qoidani buzadi. Shu bilan birga, shartnomaga muvofiq tarzda qarzdordan kvartira haqining o'z vaqtida to'lanishini talab qilish huquqiga ega bo'lgan tashkilotning – ijaraga beruvchining, ya'ni kreditorning subyektiv huquqi ham buziladi.

Bozor munosabatlari sharoitlarida qarzdorning tadbirkorlik qoidalariga zid kelgan harakatlari yoki harakatsizligi, beparvoligi huquq normasini to'g'ridan-to'g'ri buzish bilan bog'liq bo'lmasa ham, huquqqa xilof hisoblanishi mumkin.

Qarzdorning huquqqa xilof xatti-harakati huquq normalariga rioya qilmaslikni bildirganligi tufayli, jumladan, qarzdor tomonidan olingan majburiyatning butunlay bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi va shu bilan shartnoma intizomining buzilishi – qonunchilikni buzish deb yuritiladi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik qarzdor tomonidan majburiyatning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi hollarini nazarda tutib, qonun yoki shartnomada belgilangan sanksiyalar qo'llaniladi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik majburiyatni bajarmagan qarzdor zimmasiga zararlarni, neustoykani kreditor foydasiga to'lash vazifasini yuklashdan iboratdir. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasi majburiyatdagi sanksiya tushunchasidan birmuncha torroq ma'noda tushuniladi, chunki bunda qarzdorning javobgarligi barcha hollarda faqat mulkiy javobgarlik hisoblanadi. Jumladan, birovga zarar yetkazish tufayli vujudga keladigan majburiyatlarda zarar yetkazuvchi jabrlangan shaxsga yetkazilgan zararining pul bilan hisoblangan miqdorini to'la ravishda to'laydi. Shartnoma bo'yicha olingan majburiyatlarning bajarilmasligi esa kreditorning ko'rgan

zararlarni to'latish uchun ham, qarzdordan neustoykaning undirilishi uchun ham asos bo'ladi.

Qarzdorning majburiyatni lozim darajada bajarmasligi, ya'ni, majburiyatni shartnoma yoki qonunda ko'rsatilgan shartlarga muvofiq ravishda bajarmasligi; masalan, mahsulotning sifati, topshirish muddati, shartnomaning bajarilish joyi kabi shartlar buzilishidan iboratdir. Majburiyat qarzdor tomonidan butunlay bajarilmasa, kreditor sud orqali majburiyatning majburiy tartibda bajarilishini, birinchi navbatda, albatta real ravishda bajarilishini, agar majburiyat lozim darajada bajarilmagan bo'lsa, uning qonun yoki shartnomada ko'rsatilgan shartlarga muvofiq bajarilishini talab qilishga haqli.

Yuqorida ko'rsatilgan har ikki holatda, ya'ni majburiyat butunlay bajarilmaganida ham, lozim darajada bajarilmaganida ham, ya'ni ayrim shartlari buzilganida ham kreditor qarzdordan qonun yoki shartnomada nazarda tutilgan mulkiy jarimalarning undirilishini, ya'ni o'zi ko'rgan zararlarning qoplanishini, neustoykalarining to'lanishini talab qila oladi. Shu bilan birga qarzdorni olgan majburiyatlarini bajarish uchun mumkin qadar ko'proq harakat qilishga majbur qiladi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning belgilanishi turli subyektlar o'rtasidagi munosabatlarda shartnoma intizomining mustahkamlanishiga yordam beradi. Binobarin, fuqarolik-huquqiy javobgarlik majburiyatlarning real va tegishli darajada bajarilishiga yordam berib, katta tarbiyaviy rol o'ynaydi.

Agar majburiyatni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida kreditorga zarar yetkazilgan bo'lsa, qarzdor bunday zararlarni to'lashga majbur bo'ladi. FKning 324-moddasida qarzdor majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to'lashi shart deb ko'rsatiladi. FK 14-moddasining ikkinchi qismida zarar tushunchasi normalangan. Bunga asosan, zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilinishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek, bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida, odatdagi

fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari boy berilgan foyda tushuniladi. Zarar deganda, qarzdor tomonidan majburiyatning butunlay ijro etilmasligi yoki lozim darajada ijro etilmasligi oqibatida kreditor tomonidan qilingan xarajatlar, mulkning yo'qotilishi yoki kamayishi tushuniladi.

Kreditorning mulkiy zarariga misol qilib, birinchidan, tashkilot tomonidan qilingan ishlarning sifatsiz bajarilishi sababli uni tuzatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni yoki shartnomada belgilanmagan muddatda qarzdor tomonidan yuborilgan, masalan, muddatidan oldin yuborilgan mahsulotni saqlash xarajatlaridan kelgan zararni yoxud kreditor tomonidan boshqa tashkilotlarga to'langan jarimalarni ko'rsatsa bo'ladi. Kiyim tikuvchi atelyening xizmatchisi tomonidan fuqaroga kostyum tikilishida u tomondan topshirilgan materiallarning noto'g'ri bichilishi natijasida ko'rgan zararni kreditor bo'lgan fuqaroning zararlariga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Ikkinchidan, zarar sifatida kreditor tomonidan olinishi mumkin bo'lgan, ammo qarzdor majburiyatni bajarmagani tufayli olinmay qolgan daromadlar ham misol bo'la oladi. Masalan, kreditor bo'lgan davlat korxonasi qarzdor tashkilotning xom ashyolarni o'z vaqtida yetkazib berilishini kechiktirmaganida, majburiyat o'z vaqtida bajarilgani holda olishi mumkin bo'lgan, ya'ni tayyor mahsulotni sotish natijasida olishi mumkin bo'lgan foydaning qarzdor o'z majburiyatini bajarmaganligi sababli olinmagan daromadlari kreditorning ko'rgan zarari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining Plenumi qarori ham mavjud zarar tarkibiga faqatgina tegishli shaxs tomonidan aniq yetkazilgan zararlarnigina emas, balki shaxsning buzilgan huquqini tiklashi uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlar ham kirishini belgilaydi. Ayni paytda, bunday xarajatlarning zaruriyligi va ularning taxminiy miqdori javobgarlik miqdorini belgilovchi tovar, ishdagi hamda xizmat ko'rsatishdagi kamchiliklarni bartaraf etishga ketadigan smeta sifatidagi va majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik darajasini belgilovchi shartnoma, asoslantirilgan hisob-kitob

kabi boshqa dalillar bilan tasdiqlangan bo'lishi ham kerak. Olinmay qolgan daromadning miqdori (boy berilgan foyda), agarda majburiyat bajarilgan bo'lganida, kreditor qilishi lozim bo'lgan oqilona xarajatlar hisobga olinib aniqlanadi.

Majburiyat huquqida zararining to'la ravishda to'lanish tamoyili belgilanadi. Shu bilan birga, fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarda sud zararining undirilishi tartibini belgilashda har ikki tomonning mulkiy ahvolini, xususan, qarzdorning mulkiy ahvolini e'tiborga olib, majburiyatning bajarilishini kechiktirishga yoki uni bo'lib-bo'lib bajarilishini belgilashga ham haqli. Bu to'g'risida Fuqarolik protsessual kodeksining tegishli moddasida qoida belgilangan. Unda alohida hollarda ish bo'yicha hal qiluv qarorini chiqargan sud yoki hal qiluv qarorini ijro etish joyidagi sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasi bo'yicha taraflarning mulkiy ahvoliga yoki boshqa holatlarga qarab, hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirishga yoki bo'lib-bo'lib ijro etishga, shuningdek, uni ijro etish usuli va tartibini o'zgartirishga haqli deb ko'rsatilgan.

FKning 332-moddasiga asosan, majburiyatning ayrim turlari bo'yicha hamda muayyan faoliyat turi bilan bog'liq majburiyatlar bo'yicha qonunda zararni to'la qoplashga bo'lgan huquq cheklab qo'yilishi mumkin (cheklangan javobgarlik). Masalan, yuk tashuvchi transport tashkiloti tashish uchun qabul qilgan mulkni yo'qotganda, yuzaga kelgan zararni yuk jo'natuvchiga yoki oluvchiga yo'qotilgan ashyo qiymati baravarida to'laydi. Agar yuk zararlantirilgan bo'lsa, u holda zararlangan yukning qiymati qanchaga kamaygan bo'lsa, shu summa miqdorida to'laydi. Holbuki, yuk yuboruvchi yoki yuk oluvchining zararlari faqat yo'qotilgan yukning qiymati yoki qiymatining kamayishi natijasida kelgan zarardangina iborat bo'lmay, yana yuklarni saqlash uchun kerakli ombor binolarini ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlardan, xodimlarning bekor turgan davrida ularga to'langan ish haqidan yuk tashuvchining aybi bilan materiallar va uskunalarning o'z vaqtida olinmasligi natijasida sodir bo'lgan boshqa zararlardan iborat bo'lishi mumkin edi. Ammo transport tashkilotlariga nisbatan cheklangan javobgarlik



belgilanganligi sababli keyingi zararlar e'tiborga olinmaydi. Cheklangan javobgarlik transport tashkilotlari va ba'zi boshqa tashkilotlar uchun ham belgilanishi mumkin. Jumladan, elektr quvvatini yetarli miqdorda yetkazib bera olmagan elektr stansiyasi faqat berilmagan elektr quvvati qiymati miqdorida javobgar bo'lishi mumkin. Tashkilotlar o'rtasidagi majburiyat munosabatlarida ko'proq tatbiq etiladigan mulkiy sanksiya – neustoykadir. Neustoykani undirish uchun faqat qarzdorning o'z majburiyatini bajarmaganligi ko'rsatilsa kifoya va bunday majburiyatning bajarilmasligi natijasida yetkazilgan konkret moddiy zarar miqdorini isbotlash talab qilinmaydi.

Agar muayyan majburiyat uchun belgilangan javobgarlik miqdori qonunda aniq ko'rsatilgan bo'lsa, bunday javobgarlikni cheklash to'g'risida o'zaro kelishishga yo'l qo'yilmaydi.

## **2-§. Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari**

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasi keng ma'noga ega. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik deganda, nafaqat majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik, balki fuqarolik huquqining boshqa institutlari tomonidan tartibga solinadigan munosabatlardagi huquqqa xilof xatti-harakat natijasida vujudga keladigan javobgarlik ham tushuniladi. Deyarli barcha holatlarda, garchi javobgarlik fuqarolik huquqining boshqa institutlari tomonidan tartibga solinadigan munosabatlardan kelib chiqqan hollarda ham, majburiyat va uni bajarmaslik bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, Fuqarolik kodeksining 228–230-moddalariga muvofiq, mulkdor o'zganing egaligiga noqonuniy o'tgan o'zining mol-mulkini, undan olingan daromadlarni qaytarishni talab qilishga haqli. Bunday talab qilish huquqi, o'z navbatida, noqonuniy egaga nisbatan ham majburiyat vujudga keltiradi hamda bunday majburiyatni bajarmaslik javobgarlikka olib keladi. Yoki FKning 37-moddasiga binoan, vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro qaytib kelganda, u har qanday shaxsdan o'zining mol-mulkini qaytarib berishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi va bu huquq

uchinchi shaxslarga nisbatan majburiyat vujudga keltiradi hamda majburiyatni bajarimaslik javobgarlik uchun asos bo'ladi<sup>1</sup>.

Qarzdor tomonidan majburiyatning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik hisoblanadi. Buning uchun umumiy qoida sifatida faqat muayyan asoslar mavjud bo'lgandagina qarzdorning, ya'ni majburiyatni buzgan shaxsning mulkiy javobgarlikka tortilishi belgilanadi.

Fuqarolik huquqida, odatda, majburiyatni buzganlik uchun qarzdorning yoki zarar yetkazuvchining javobgarlikka tortilishi uchun quyidagi to'rtta asos bo'lishi ko'rsatilgan:

**birinchidan**, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik;

**ikkinchidan**, zarar yetkazilishi;

**uchinchidan**, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik bilan sodir bo'lgan zarar o'rtasida sababiy bog'lanish;

**to'rtinchidan**, qarzdorning yoki zarar yetkazuvchining aybi mavjud bo'lishi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, shartnomadan yoxud boshqa bir tomonlama bitimdan kelib chiqadigan majburiyatlarda uning bajarilmasligi boshqa shaxsga g'ayriqonuniy ravishda zarar yetkazish barcha hollarda huquqqa xilof hisoblanadi. Mazkur hollarda qarzdor xatti-harakatining huquqqa xilof bo'lishini belgilashda qanday shartlar mavjud bo'lganida majburiyatni ijro etmaslik uchun fuqarolik huquqiy javobgarlikning belgilanishini aniqlash zarur bo'ladi. Zararlar hamma vaqt ham qarzdorning majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligidan kelib chiqavermaydi. Ba'zi hollarda majburiyatning bajarilmasligi natijasida yuqorida aytganimizdek, mulkiy zarar bo'lmasligi ham mumkin. Ammo aksariyat hollarda zarar javobgarlikni belgilash uchun zarur asos bo'ladi. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar ba'zi hollarda qonun yo'l qo'ygan harakatlar natijasida ham yetkazilishi mumkin. Masalan, davlat, jamiyat yoki ayrim fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda yetkazilgan zarar qonuniy, huquq yo'l qo'ygan harakat bo'lib hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Egamberdieva N. Fuqarolik huquqiy javobgarlikning asoslari va shakllari. Monografiya. – T., 2007. – B. 7.

Agar kreditorning talablari zararni undirishga qaratilgan bo'lsa, u holda, albatta, quyidagi asoslar: zararining bo'lishi, qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi bilan kreditorning ko'rgan zarari o'rtasida sababiy bog'lanishlar bo'lishi va nihoyat, qarzdorning aybi bo'lishi talab etiladi. Agar kreditorning talabi faqat neustoyka, penya, jarimani undirishga qaratilgan bo'lsa, qarzdor faqat aybi bo'lgandagina mulkiy javobgarlikka tortiladi. Qarzdorga mulkiy javobgarlikni belgilashdan oldin, ya'ni kreditorga yetkazilgan zararining undan undirilishidan oldin sud har bir aniq holatda, mazkur zararlar qarzdorning o'z majburiyatlarini buzishidan kelgan-kelmaganligini aniqlashi, ya'ni qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi bilan kreditorning ko'rgan zarari o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lib-bo'lmasligini aniqlashi lozim. Masalan, agar temir yo'l transporti korxonasi yuk oluvchiga zararlangan yukni yetkazib bersa, sud kreditorga bunday zararni kim yetkazganligini, mahsulot yuboruvchi tashkilotmi yoki temir yo'l korxonasi tomonidan yetkazilganligini, bunday zararining sifatsiz tovar yuboruvchi tashkilotning aybi, huquqqa xilof harakati bilan bo'lish-bo'lmaganligini yoki tashish uchun qabul qilingan yukning yo'lda saqlanishini ta'minlamagan temir yo'l korxonasining huquqqa xilof harakatlaridan bo'lgan-bo'lmaganligini aniqlashi lozim. FKning 324-moddasida ko'rsatilganidek, qarzdor majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to'lashi shart. Bunda shartnoma bilan belgilanadigan majburiyat munosabatlarida ham sababiy bog'lanish muammosini qo'yish va hal qilish zarurligi kelib chiqadi.

Yuridik adabiyotlarda sababiy bog'lanish to'g'risidagi masalani tahlil qilishda aksariyat mutaxassislar quyidagi ilmiy qoidalarga asoslanadilar:

– tabiatda va jamiyatda har bir hodisa faqat atrofdagi boshqa hodisalar bilan bog'liq holdagina olib qaralishi mumkin. Har bir hodisaning kelib chiqishi atrofdagi hodisalar bilan bog'liq bo'lishi, bir hodisaning kelib chiqishiga ikkinchisi, shu bilan birga, bir hodisaning o'zi boshqa birmuncha sabablar tufayli sodir bo'lishi mumkin;

– tabiat va jamiyatda sababiy bog‘lanish hodisalar o‘rtasidagi obyektiv ravishda mavjud bo‘lgan bog‘liqlikdan iborat. Bunday bog‘lanishlar kishilar tomonidan o‘rganilib, amaliyotda tekshiriladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan qoidalarga asoslanib, sud sababiy bog‘lanish to‘g‘risidagi masalani hal qilishda mazkur natijaning, ya‘ni, kreditor zararlari sodir bo‘lishida qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi tufayli bo‘lgan boshqa holatlar o‘rtasida qanday rol o‘ynaganligini e‘tiborga olishi, o‘zining mulohazasida – mazkur hodisaga subyektiv ravishda qilingan bahosidan emas, balki obyektiv ravishda mavjud bo‘lgan qonuniyatlarga amal qilishi, har bir konkret ishni hal qilishda barcha muhim holatlarni ajratib olishi lozim. Muayyan bir natijaga qator sabablarning oqibati bo‘lishi mumkinligi tufayli har qanday huquqqa xilof harakatsizlik, kreditorning zarar ko‘rishiga aloqasi bo‘lgan qarzdorning har qanday harakati ham huquqiy ahamiyatga ega, ya‘ni uning uchun javobgarlik tug‘diradigan harakat bo‘lish-bo‘lmazligi masalasini hal qilishda roli bor. Qachonki natija, ya‘ni kreditorga zarar yetkazilishi qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligidan bevosita vujudga kelganligi ma‘lum bo‘lsa ya‘ni, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sababiy bog‘lanish mavjud bo‘lsa, u holda masalaning hal etilishi uncha qiyinchilik tug‘dirmaydi,

Yuqorida yozilgan nazariy tushunchani quyidagicha izohlash o‘rinlidir. Masalan, mebel fabrikasiga qarashli yuk kirakash avtopark mashinasida tashilishida yong‘in bo‘lib, fabrikaga mulkiy zarar yetkaziladi. Da‘vo ishining sudda ko‘rilishida avtopark yong‘in bo‘lishida aybi yo‘qligini isbotlay olmadi. Binobarin, fabrikaning mashinadagi yong‘in natijasida ko‘rgan zararini to‘lashga avtopark majbur qilinadi. Mazkur holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri sababiy bog‘lanish mavjudligini ko‘ramiz. Chunki bunday holatda avtopark yo‘lga nosoz mashina chiqarganligi va shu bilan uning harakati beparvolikning bo‘lishi muayyan zararli oqibat sodir etilganligiga sabab bo‘ladi. Qarzdorning harakatlari muayyan zararli oqibatlarining sodir bo‘lishiga sabab bo‘lgan-bo‘lmaganligini belgilash uchun sud bunday holatlarning sababiy

bog'lanishiga ta'siri bo'lgan-bo'lmaganligini belgilashi kerak. Bunday maqsadda har xil dalillardan foydalanishga to'g'ri keladi. Jumladan, dalil to'plash uchun ekspertiza tayinlashga, masalan, yuk tashishdan kelib chiqadigan da'volar bo'yicha tovarni tekshirish ekspertizasi tayinlashga, bajarilgan ishlarning sifati to'g'risidagi da'volar bo'yicha texnikaviy ekspertizalar tayinlashga to'g'ri keladi. Qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi bilan sodir bo'lgan natija o'rtasidagi sababiy bog'lanish qarzdorning majburiyatni butunlay bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgarlikka tortilishiga obyektiv asos bo'ladi. Shu bilan birga, qonun javobgarlikning subyektiv asosini ham, ya'ni qarzdorning aybini ham nazarda tutadi.

Majburiyat bajarilmaganligi uchun qarzdorning javobgarligini belgilaydigan shart sifatida ko'riladigan ayb qonunda nazarda tutilgan. Jumladan, FKning 333-moddasida ko'rsatilganidek, qarzdor aybi bo'lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki uni lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, javob beradi. Agar majburiyat har ikki tarafning aybi bilan bajarilmagan bo'lsa, u holda sud qarzdorning javobgarligini tegishlicha kamaytiradi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, olingan majburiyatlarning tashkilotlar tomonidan ham, fuqarolar tomonidan ham lozim darajada bajarilishi uchun barcha moddiy shart-sharoitlar mavjud. Buning uchun qarzdordan o'z ijodiy qobiliyatlari va irodasining muayyan darajada kuchaytirilishi talab etiladi.

Majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish, majburiyatlarni bajarishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni yo'qotish uchun har ikki tarafning – qarzdor va kreditorning ham ma'lum darajada tashabbus ko'rsatishi, diqqat bilan ish qilishi, faol harakat qilishlari zarur. Barcha subyektlar o'z majburiyatlarini bajarishlari uchun o'zidagi mavjud ichki imkoniyatlarni qidirib topish va ulardan mumkin qadar to'liq foydalanish, ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtira

borib, mehnat unumdorligini oshirish, uskunalardan, xom ashyo va materiallardan samarali foydalanishda g'amxo'rlik qilishlari lozim.

Agar qarzdor o'z erkini, ijodiyotini, kuchini qasddan safarbar qilmaganligi yoki bunga beparvolik bilan qaraganligi natijasida majburiyat butunlay bajarilmasa yoki lozim darajada bajarilmasa, uning aybi bo'lmaganligi aniqlanadi va buning uchun u mulkiy javobgarlikka tortilishi lozim bo'ladi. Shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarga nisbatan ayb to'g'risida gapirar ekanmiz, ayb deb shaxsning majburiyatini bajarishga talab qilingan tarzda munosabatda bo'lmaganligi, qonun va axloq talablariga muvofiq rioya qilmaganligi va natijada majburiyatning butunlay bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi tushuniladi.

Fuqarolik huquqi fanida, ayb qasd yoki ehtiyotsizlik (beparvolik) shaklida ifodalanadi. Qasd shaklida ayb bo'lishida shaxs majburiyatni ongli ravishda, atayin bajarmaydi yoki lozim darajada bajarmaydi. Fuqarolik muomalasida majburiyatni bajarishga nisbatan bunday munosabatda bo'lish faqat ayrim hollardagina uchraydi. Umumiy qoida sifatida tashkilotlar va fuqarolar o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarishga vijdonan munosabatda bo'ladilar. Majburiyatlarning ayrim turlari bo'yicha qasd shaklida ayb qonunlarda bevosita nazarda tutiladi. Tashkilotlar tomonidan majburiyatlarning qasddan bajarilmasligi ularning fuqarolik-huquqiy (mulkiy) javobgarlikka tortilishiga, ba'zi hollarda mansabdor shaxslarning jinoiy javobgarlikka ham tortilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yuqorida aytganimizdek, majburiyatlarni bajarilmasligining navbatdagi shakli esa – beparvolikdir. Amaliyot bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xo'jalik sudlari tomonidan ko'rilgan ishlarning salmoqli foizi shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik yoki kechiktirishga oiddir. Shu ma'noda xo'jalik yurituvchi subyektlar mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirish, shartnomalarning o'z vaqtida tuzilishi va bajarilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan xo'jalik sudlari:

– xo‘jalik nizolarini ko‘rish jarayonida jinoyat alomatlari aniqlangan holatlarda xo‘jalik yurituvchi subyektlar mansabdor shaxslariga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atish;

– iqtisodiy huquqbuzarlikni sodir qilgan shaxslarga nisbatan ma‘muriy javobgarlik choralarini qo‘llash;

– xo‘jalik yurituvchi subyektlarga yetkazilgan mulkiy zararni aybdor mansabdor shaxslar hisobidan qoplash;

– pul mablag‘lari va boshqa mulkdan oqilona foydalanmaganlik, to‘lov intizomini buzganlik, shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik va korxonalarni bankrotlik darajasiga olib kelganlik uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarning rahbarlarini va boshqa xodimlarini egallab turgan lavozimidan ozod etishga qadar bo‘lgan intizomiy javobgarlikka tortish haqida tegishli organlarga taqdimnomalar kiritish vakolati berildi.

Beparvolikda qarzdor majburiyatni bajarishga intilmaydi, harakat qilmaydi, buning uchun barcha kuch va qobiliyatini yetarli darajada safarbar qilmaydi, ishni bajarishda e‘tiborsizlikka yo‘l qo‘yadi. Beparvolik shaklidagi ayb ham FKning tegishli moddalarida normalangan. Fuqarolik kodeksida qo‘pol ehtiyotsizlik oddiy ehtiyotsizlik, oddiy beparvolikdan farqlanadi. Qonun ba‘zi hollarda qarzdorga javobgarlik belgilash uchun oddiy ehtiyotsizlik (beparvolik) emas, balki qo‘pol ehtiyotsizlik bo‘lishini shart qilib qo‘yadi. Ehtiyotsizlikning qo‘pol ehtiyotsizlikdan farqi shundaki, olingan majburiyatlarni tegishli darajada bajarishda e‘tiborsizlikning turli darajada bo‘lishidir. Qo‘pol ehtiyotsizlik mavjud bo‘lganida qarzdor xatti-harakatidagi e‘tiborsizlik oddiy ehtiyotsizlikka nisbatan birmuncha qo‘pol bo‘lib ko‘rinadi yoki turmush va ishbilarmonlik qoidalari nuqtai nazaridan qarasaq, bunday qo‘pol ehtiyotsizlikka nisbatan qattiqroq; mas‘uliyat belgilanishi, jazo berilishi talab etiladi. Qarzdor qo‘pol ehtiyotsizlikka yo‘l qo‘yishi bilan fuqarolik muomalasida bo‘lgan talablarga atayin e‘tiborsizlik bilan qaraydi. Jumladan, omonatga olingan ashyolar havoning bulutli vaqtida ochiq joyda qoldirilishi tufayli yomg‘ir ta‘sirida zararlansa, bu holat ehtiyotsizlikka yo‘l qo‘yilgan deb hisoblanadi.

Fuqarolik huquqi fanida ehtiyotsizlik shaklidagi ayb sodir qilinganligini belgilash birmuncha murakkab hisoblanadi. Majburiyatni bajarishga qaratilgan munosabatlarga baho berishda qarzdorning individual xususiyatlariga ham qarash kerak. Jumladan, fuqaroning aqliy, jismoniy tomonidan yetarli darajada kamolotga yetmagani aniqlansa, bunday shaxsga nisbatan mulkiy javobgarlikni belgilamaslik masalasi qo'yiladi. Ba'zi hollarda mazkur sharoitlarda har bir kishi yoki xo'jalik korxonasi xizmatchisi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan g'amxo'rlik choralari ko'rilgan-ko'rilmaganligiga qarab baho berish masalasi turadi. Shartnoma yuzasidan olingan majburiyatlarni butunlay bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun qarzdorga mulkiy javobgarlik yuklash to'g'risidagi masalani hal qilishda uning tajribasizligi, ma'lum ishlarni bajarishga qobiliyatsizligiga qarab, ma'lum chekinishlarga yo'l qo'yish noto'g'ri bo'lur edi. Sudlarga fuqarolik-huquqiy xarakterdagi nizolarni hal qilishdagi barcha hollarda yuridik shaxslarning aybi to'g'risidagi masalani tekshirishga, tahlil qilishga to'g'ri keladi. Yuridik shaxsning aybi bo'lishi-bo'lmasligi to'g'risidagi masalani ko'rishda sud korxonasi, muassasa yoki tashkilot mazkur sharoitlarda majburiyatni bajarish uchun maksimal darajada barcha kuch va tashabbusni ko'rsatgan-ko'rsatmaganligini, buning uchun bozor munosabatlari sharoitida bo'lgan keng imkoniyatlardan foydalangan-foydalanmaganligini e'tiborga olish talab etiladi.

Agar yuridik shaxs majburiyatni bajarish uchun barcha zarur choralarni ko'rgan bo'lsa-yu, majburiyatni butunlay yoki qisman bajara olmasa, mas'uliyatni belgilash uchun talab etilgan subyektiv asos – ayb bo'lmaganligi sababli bunday tashkilot majburiyatni bajarmaganligi uchun mulkiy javobgarlikdan ozod qilinadi. Majburiyatni bajarmaslikda yuridik shaxsning aybi mazkur tashkilot organlari (vakillari) hisoblangan va o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida harakat qilgan ayrim shaxslarning aybi bilan ko'riladi. Tashkilotlarning aybi ular tomonidan berilgan vakolatlar doirasida harakat qiluvchi vakillarining, muayyan xizmat vazifalarini bajaruvchi



xodimlarining aybi bilan belgilanadi. Tashkilotlarning aybi yuridik harakatlarda, masalan, vakil tomonidan qonunga xilof bitimlar tuzilishida, shuningdek, faktik harakatlarida, jumladan, xodimlarning usta tomonidan noto'g'ri o'rgatilishi yoki ularning yetarli darajada malakali bo'lmasliklari tufayli sifatsiz mahsulotlar tayyorlanishida ham yuzaga kelishi mumkin. Yuridik shaxs shartnoma bo'yicha olingan majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun mulkiy jarima (sanksiya) ni to'laganidan so'ng o'zi tomonidan to'langan summalarni regress tartibida majburiyatni bajarmaganlikda yoki lozim darajada bajarmaganlikda aybdor bo'lgan xodimlardan to'la hajmda yoki qisman undirib olishi mumkin. Bunday hollarda muayyan xodimning shaxsiy javobgarligi to'g'risida so'z ketadi. Ularning javobgarligi fuqarolik huquqi normalari bilangina tartibga solinmay, balki mehnat huquqi, ma'muriy huquq va ba'zi hollarda jinoyat huquqi normalari bilan ham tartibga solinishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 202-moddasining birinchi qismi 6-bandiga asosan, xodim korxonada (muassasa, tashkilot) tijorat sirlarini oshkor etganligi uchun to'liq moddiy javobgar bo'ladi va buning natijasida yetkazilgan zararni to'lashi lozim.

Yuqorida aytganimizdek, fuqarolik ishlarini hal qilishda xo'jalik sudi shartnoma intizomini qo'pol tarzda buzishda aybdor bo'lgan shaxslarni shaxsiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi masalani tegishli organlar oldiga qo'yadi.

Kreditor qarzdorning harakatlari yoki harakatsizligi huquqqa xilof bo'lishligini, ya'ni u tomondan majburiyatning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi faktini va qarzdorning aybli harakati natijasida zarar ko'rganligini isbotlashi lozim. Qarzdor esa javobgarlikdan ozod bo'lishi uchun o'z harakatida ayb yo'qligini isbotlashi, ya'ni majburiyatni lozim darajada bajarish uchun barcha zarur choralarni ko'rganligini tasdiqlaydigan faktlarni keltirishi lozim.

Qarzdorning aybli deb faraz qilinishini qonun ba'zi holatlarni e'tiborga olib belgilaydi. Jumladan, jamiyatda majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun barcha shart-sharoitlar mavjudligi,

ularning bajarilmasligi esa, odatda, qarzdorning aybli harakati natijasida bo'lishligi, qarzdorning aybi bo'lmaganida uning dalillarni yetkazib keltirishi kreditorga qaraganda bir muncha yengil bo'lishligi e'tiborga olinadi. FKning 333-moddasi fuqarolik qonunchiligining asosiy tamoyillaridan birini, ya'ni qonun yoxud shartnomada nazarda tutilgan istisnolardan tashqari hollarda, majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlikni belgilashda huquqni buzuvchi harakatlarida ayb bo'lishi tamoyilini belgilaydi. Shartnomali majburiyatni buzishdagi ayb, shuningdek, shartnomasiz majburiyatlarda ham zarar yetkazuvchining aybi deganda, huquqqa xilof harakatni qiluvchi shaxsning qasdi yoki ehtiyotsizligi tushuniladi.

Ammo yuqorida ko'rsatilgan qoida bilan belgilangan ayb qarzdorda bo'lishligi faraz qilinadi. Binobarin, qarzdor o'ziga qo'yilgan aybni yo'qqa chiqarishga harakat qilishi va o'zining aybsizligini isbotlashi kerak. Qarzdor tomonidan majburiyatning qasddan buzilishi hollari sud amaliyotida kamdan-kam uchraydi. Ammo ba'zi hollarda majburiyatni qasddan buzish hollari ham uchrashi mumkin. Masalan, tashkilot o'zi tomonidan buyurtma qilingan mahsulotni qasddan qabul qilmaslik hollari, soxta bankrotlik holatlari bo'lishi mumkin. Majburiyatlarni buzishda yuridik shaxsning aybi tushunchasi ba'zi xususiyatlarga ega. Bunday ayb masalasini ko'rishda sud aybli bo'lgan tashkilotni muayyan bir butun tashkilot, ya'ni yuridik shaxs sifatida nazarda tutadi. Binobarin, agar majburiyat tashkilot xodimining aybi bilan bajarilmaganida, majburiyatni bajarmaslikda tashkilot aybli bo'lib ko'riladi. Ba'zi hollarda, sud tashkilotning majburiyatni bajarish uchun barcha imkoniyatlardan foydalangani holda majburiyat bajarilmay qolganida uni aybli emas deb topishi mumkin.

Aybning qasddan yoki ehtiyotsizlikdan kelib chiqishi, shuningdek, ehtiyotsizlik darajasi, umumiy qoida bo'yicha, qarzdorning fuqarolik javobgarligini belgilash uchun ahamiyatli emas, qaysi shaklda bo'lsa ham qarzdor o'z majburiyatini buzishda aybli bo'lsa, buning natijasida kelgan zararni, neustoykani to'lashga majbur bo'ladi. Ammo ba'zi hollarda

qonun majburiyatning qarzdor tomonidan faqat qasddan yoki qo'pol ehtiyotsizlik natijasida bajarilmagani uchungina javobgar bo'lishini belgilaydi. Bundan tashqari, qarzdor aybining shakli va darajasi majburiyat faqat qarzdorning aybli harakatlari bilangina emas, balki kreditor aybi bilan ham bog'liq bo'lgan hollarda va har ikki tarafning aybini qarzdorning javobgarligi hajmini belgilash uchun solishtirib ko'rish zarur bo'lgan hollarda ahamiyatga ega bo'ladi.

Qonunchilikda nazarda tutilganidek, umumiy qoidadan istisno sifatida qarzdorning ba'zi hollarda majburiyatlarni buzganligi uchun javobgarligini aybning bo'lish-bo'lmasligidan qat'i nazar belgilaydi. Bunday hollarda, birinchi navbatda, bironing aybi uchun javobgarlik belgilaydigan FKning 334-moddasida ko'rsatilgan hollar nazarda tutiladi. Bular jumlasiga majburiyatni o'z aybi bilan buzmay, qarzdorga nisbatan olgan majburiyatlarini buzgan shaxslarning uning boshqa qarzdorlari aybi bilan buzilgan majburiyatlar uchun javobgarlikni sud amaliyotida mahsulotlar tayyorlovchi bilan birga, mahsulot yetkazib berishga majbur bo'lgan tashkilotlarning aybli harakatlari natijasida, majburiyat buzilganida mahsulot yetkazib beruvchi tashkilotlarga yuklash hollari uchraydi. Shuningdek, mahsulot yoki tovar ishlab chiqaruvchi tashkilot ham mahsulotning sifati uning aybli harakatlaridan kelib chiqmay, balki unga xom ashyo, materiallar va boshqa narsalar yetkazib bergan tashkilotlarning aybli harakatlaridan kelib chiqqanida ham javobgar bo'ladi.

Agar qarzdor bu tashkilotlarning harakatlari uchun kreditor oldida javobgar bo'lmaganida, kreditor majburiyatlarning ular aybi bilan buzilganida, hech qanday chora ko'rmay qolgan bo'lar edi. qarzdor o'zini javobgarlikdan ozod qilish uchun ba'zi holatlarni, Jumladan, birinchidan, o'zining harakatlarida ayb yo'qligini; ikkinchidan, o'z majburiyatlarini buzgan uning qarzdorlari harakatlarida ham ayb yo'qligini isbotlashi lozim. Ba'zi hollar uchun qonun biron-bir tarafning harakatida aybning bo'lish-bo'lmasligidan qat'i nazar, javobgarlik belgilaydi. Bunday javobgarlikning belgilanishi to'g'risida shuni aytish

kerakki, odatda, qarzdorning javobgarligi uning harakatlarida ayb bo'lishida belgilanadi. Ammo ba'zi hollarda qonun istisno sifatida qarzdor tomonidan majburiyatlarning boshqa uchinchi shaxslar aybli harakati natijasida bajarilmagani uchun ham javobgar bo'lishini belgilaydi. Bunday javobgarlik to'g'risida FKning 334-moddasida ko'rsatilishicha, basharti qonunchilik yoki shartnomada bevosita ijrochi bo'lgan uchinchi shaxsning javobgarligi belgilab qo'yilmagan bo'lsa, zimmasiga majburiyatni bajarish vazifasi yuklatilgan uchinchi shaxslarning majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qarzdor javobgar bo'ladi.

Mazkur hollarda, qarzdorning javobgarligini belgilash uchun quyidagi shartlar, jumladan: qarzdor majburiyatini boshqa shaxslar bajarishlari lozim bo'lishi; bunday harakatlar uchinchi shaxslar uchun belgilangan qoidalar bilan yuklatilgan bo'lishi yoki bunday harakatlar ularning qarzdor bilan tuzilgan shartnomaga asosan bajarilgan bo'lishi yoki ma'muriy jihatdan bo'ysunishlik tufayli bajarilgan bo'lishi; mazkur shaxslarning aybi qasd yoki ehtiyotsizlik shaklida ko'rilgan bo'lishi lozim.

Amalda ushbu qoida yuklarning tranzit tartibida yuborilishida, qachonki, sotilgan tovarlar, bevosita oluvchining manziliga mahsulot tayyorlovchi tomonidan yuborilmay, balki uchinchi bir tashkilot orqali uning omboriga tushirilmay yuborilishida qo'llaniladi.

Agar kreditor uchinchi shaxsning aybi bilan mahsulotni kechiktirib olsa, mahsulot yuboruvchi tashkilot, ya'ni mahsulot tayyorlovchining topshirig'i bo'yicha tovarni yuboruvchi uchinchi tashkilot emas, balki qarzdorning bevosita o'zi, ya'ni mahsulot tayyorlovchi tashkilot javobgar bo'ladi.

Majburiyatni bajarmagan yoki uni lozim darajada bajarmaganligi uchun qarzdor, agar qonun yoki shartnomada boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, o'zining aybi bo'lish-bo'lmasligidan qat'iy nazar, mulkiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu holda mulkiy javobgarlikning belgilanishi xalq xo'jaligi manfaatlarini himoya qilish, fuqarolarning hayoti va sog'liqlarini himoya qilish maqsadlarini ko'zlaydi.

### 3-§. Qarzdorning zararni to'lash majburiyati

FKning 324-moddasida qarzdor majburiyatni butunlay bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to'lashi shartligi belgilangan. Qarzdorning majburiyatni bajarmasligi natijasida vujudga kelgan va to'lanishi lozim bo'lgan kreditorning xarajatlari deganda, kreditor tomonidan mazkur majburiyat yuzasidan qilingan xarajatlar va qarzdorning o'z vazifasini bajarmaganligi bilan bog'liq xarajatlar tushuniladi. Jumladan, mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan mahsulotning belgilangan muddatlarda yetkazib berilmasligi tufayli mahsulot oluvchi korxonaning faoliyat ko'rsatib turishi vaqtida qilingan xarajatlar to'lanishi lozim.

Majburiyatni bajarish yuzasidan topshirilgan mulk shartnoma shartlariga muvofiq kelmaganda va kreditor bunday hollarda mulkni qarzdorga qaytarish yoki majbur bo'lganida kreditor zararlarining undirilishidan qat'i nazar, mulk uchun to'langan pul summalarining o'ziga qaytarilishini talab qilish huquqiga ega.

Kreditor qarzdorning o'z vazifasini bajarganligi tufayli yo'qotgan mulkining qiymatini yoki mulkning zararlanishi natijasida uning qiymati kamayishidan kelgan summalarning to'lanishini talab qilishi mumkin. Ma'lumki, bozor munosabatlari sharoitida shartnomaviy narxlar amal qiladi. Uning asosiy xususiyati shundan iboratki, ba'zi hollarda majburiyat vujudga kelgan paytdagi narx bilan zararni undirish vaqtidagi baholar o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Qonunda ushbu holatlar ham ko'zda tutiladi. FK 324-moddasining ikkinchi qismi mazmuniga ko'ra, agar qonunchilik yoki shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, zararni aniqlashda majburiyat bajarilishi kerak bo'lgan joyda, qarzdor kreditorning talablarini ixtiyoriy qanoatlantirgan kunda, bordi-yu, talab ixtiyoriy qanoatlantirilmagan bo'lsa, da'vo qo'zg'atilgan kunda mavjud bo'lgan narxlar e'tiborga olinadi. Sud vaziyatga qarab, zararni to'lash haqidagi talabni qaror chiqarilgan kunda mavjud bo'lgan narxlarni e'tiborga olgan holda qanoatlantirishi mumkin.

Kreditor tomonidan olinmagan va to'lanilishi qarzdordan talab qilishga haqli bo'lgan daromadlar deganda, qarzdor o'z majburiyatini lozim darajada bajarmaganida kreditorning olishi mumkin bo'lgan daromadlar tushuniladi. Bu, ayniqsa, pul majburiyatini bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilashda yaqqol namoyon bo'ladi. FKning 337-moddasiga asosan boshqa shaxslarning pul mablag'larini g'ayriqonuniy ushlab qolish, ularni qaytarib berishdan bosh tortish, ularni to'lashni boshqacha tarzda kechiktirish yoxud boshqa shaxs hisobidan asossiz olish yoki jamg'arish natijasida ulardan foydalanganlik uchun ushbu mablag'lar summasiga foiz to'lanishi kerak.

Foizlar miqdori kreditor yashaydigan joyda, kreditor yuridik shaxs bo'lganida esa, uning joylashgan yerida pul majburiyati yoki uning tegishli qismi bajarilgan kunda mavjud bo'lgan bank foizining hisob stavkasi bilan belgilanadi. Qarz sud tartibida undirib olinganida, sud kreditorning talabini da'vo qo'zg'atilgan kundagi yoki qaror chiqarilgan kundagi bank foizining hisob stavkasiga qarab ko'ndirishi mumkin. Ushbu qoidalar qonunda yoki shartnomada boshqa foiz miqdori belgilanmagan bo'lsa qo'llaniladi. Kreditorning pul mablag'laridan qonunsiz foydalanish tufayli unga yetkazilgan zarar yuqorida ko'rsatilgan foizlar summasidan oshib ketsa, kreditor qarzdordan zararining bu summadan ortiqcha bo'lgan qismini to'lashni talab qilishga haqli. Zarar ko'rilganligini isbotlash va bunday zararining qarzdorning majburiyatni bajarmasligidan kelgan bo'lishini isbotlash, shuningdek, zararining miqdorini hisoblab ko'rsatish vazifasi zararining undirilishi to'g'risida talab qo'yadigan kreditorga yuklatiladi.

Qonunda kreditor qarzdordan yo'qotilgan ashyoning qiymatinigina talab qilishga haqli bo'lib, majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilmasligi natijasidan olinmay qolgan daromadlarni talab qilishga haqli bo'lmasligi hollari ham mavjud. Qonun ba'zi hollarda zararlarni to'lagan qarzdorning majburiyatni asl holda bajarish burchini ham belgilaydi. FKning 330-moddasiga asosan, basharti qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, majburiyat bajarilmagan taqdirda zararni

qoplash va uning bajarilmaganligi uchun neustoyka to'lash qarzdorni majburiyatni asl holda bajarishdan ozod qiladi. Xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyoni topshirish majburiyatini bajarmaslik oqibatlari FKning 331-moddasida normalangan.

Agar ashyoni oluvchilar egaligiga topshirish to'g'risida shartnoma tuzilmay, bu ashyoni kreditorga foydalanish uchun topshirish to'g'risida ikki yoki bir necha shartnoma ketma-ket tuzilgan bo'lsa, ashyoning kreditordan biriga topshirilishi, avval shartnoma tuzgan kreditorlarning huquqini yo'qqa chiqaradi. Agar ashyo kreditor bilan birdek huquqqa ega bo'lgan uchinchi shaxsga topshirilgan bo'lsa, bu huquq, bekor bo'ladi. Bunday holda avval shartnoma tuzgan kreditor ko'rgan zararlarining to'lanishi to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqli. Xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyoni egalikka o'tkazish yoki xo'jalik yuritishga, operativ boshqarishga yoxud foydalanish uchun topshirish to'g'risidagi ketma-ket tuzilgan ikki yoki bir necha shartnomalar bo'lgani holda, ashyoni ashyo kreditorlardan hech qaysisiga topshirilmagan bo'lsa, kreditorlardan qaysi biri foydasiga ilgari majburiyat vujudga kelgan bo'lsa, ya'ni ashyoni topshirish to'g'risida kim bilan avval shartnoma tuzilgan bo'lsa, shunisi ustunlik huquqiga ega bo'ladi.

Agar ishning vaziyatlari bo'yicha majburiyatlarning qachon vujudga kelganligi, ya'ni shartnoma kim bilan avval tuzilganligini belgilash mumkin bo'lmasa, ashyoning topshirilishi to'g'risida kim avval da'vo qo'zg'atgan bo'lsa, bu shaxs imtiyozga ega bo'ladi.

Muayyan ishni bajarish majburiyatini bajarmaslik oqibatlari 330-moddada belgilanganidek, majburiyatni real ravishda, aslicha bajarilishini ta'minlashga qaratiladi. FKning mazkur normasi qarzdor tomonidan majburiyatning bajarilmaganida shartnoma yuzasidan bajarilishi lozim bo'lgan ishni, birinchi navbatda, o'zi bajarishi yoki bajarishni boshqa shaxsga topshirishi va mazkur ishni bajarish uchun zarur xarajatlarning to'lanishini qarzdor zimmasiga qo'yish huquqini beradi.

Fuqarolik protsessual qonunlarda javobgarni muayyan harakatlar qilishga majbur etadigan da'volarning qilinishi va bu to'g'rida sud qarorining chiqarilishi nazarda tutiladi. Majburiyat

bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlarni bevosita qilishga majbur etish mumkin bo'lmaganligi tufayli qonun, agar javobgar qarorni belgilangan muddatda bajarmasa, da'vogar bu harakatlarni javobgar hisobidan o'zi bajarishga va shu munosabat bilan qilingan zarur xarajatlarni undan undirishga haqli ekanligi to'g'risida sud o'z qarorida ko'rsatishga haqli bo'ladi, deb ko'rsatma beradi. Agar qonun yoki shartnomada nazarda tutilmagan bo'lsa, majburiyatni bajarmagan qarzdor hisobiga ishning kreditor tomonidan bajarilishiga yoki u bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha boshqa shaxs tomonidan bajarilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Agar qarzdor, ya'ni javobgar tomonidan bajarilmagan faqat uning tomonidagina bajarilishi mumkin bo'lsa, bunday harakatlarni qilishga qarzdorni majbur etadigan qarorda sud qarori ijro etilishi muddati belgilanadi, agar sud qarori belgilangan muddatda ijro etilmasa, javobgarga qonunda ko'rsatilgan tartibda jarima solinishi mumkin. Ba'zi hollarda ishni ijro etish mumkin bo'lmaganida, kreditor majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilmasligi tufayli o'ziga yetkazilgan zararning to'lanishini talab qila oladi.

#### **4-§. Qarzdorning javobgarlikdan ozod qilinishi asoslari**

Qarzdorning majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uning aybisiz sodir bo'lganligi yoki bunday holat kreditorning aybi bilan bog'liq bo'lsa, umumiy qoida bo'yicha qarzdor javobgarlikdan ozod bo'ladi.

Qarzdor tomonidan majburiyatning aniq bajarilishiga to'sqinlik qilgan yuqorida ko'rsatilgan yuridik faktlardan birining bo'lishi-majburiyat bajarilishi mumkin bo'lmashligi tushunchasini bildiradi.

Oddiy tasodifiy holat – yuridik ma'noda majburiyatning qarzdor tomonidan uning va kreditorning aybi bo'lmay turib bajarilganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligini sodir qilgan holat hisoblanadi. Bunday holatlar uchinchi shaxslarning, Jumladan, boshqa shaxslarning harakatlari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, begona bir shaxsning harakatlari



natijasida qarzdor yo'qligida u tomondan oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha kreditorga topshirilishi lozim bo'lgan uyga o't tushib, yonib ketishini ko'rsatish mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikning ahamiyatini hisobga olgan holda tadbirkorlar uchun muhim kafolatni ko'zda tutadi. FK 333-moddasining uchinchi qismiga asosan, basharti, qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lmasa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni lozim darajada bajarishiga yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni, favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli imkon bo'lmaganligini isbotlay olmasa, javobgar bo'ladi. Qaytarish mumkin bo'lmagan kuch sifatida shu majburiyatda taraflar bo'lgan shaxs tomonidan, uning ixtiyoridagi barcha vositalar bilan oldini olish, qaytarish mumkin bo'lmagan favqulodda hodisa deb baholanadi. Qaytarish mumkin bo'lmagan kuch oddiy tasodifiy hol kabi majburiyatni bajarmaslikda yoki lozim darajada bajarmaganlikda taraflarning aybi bo'lmasligi va mazkur aniq holatlarda uni qaytarish mumkin bo'lmasligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, mazkur holat odatdan tashqari favqulodda sodir etilgan bo'lishi kerak. Amalda bunday holatlarda tabiiy ofat, masalan, suv toshqini, zilzila, kuchli bo'ron kabi tabiiy ofat hollari to'g'risida so'z yuritiladi. Sud qarorlarida majburiyatni butunlay bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan qarzdorni ozod qilishga asos bo'ladigan qaytarish mumkin bo'lmagan kuch holatlarini ko'rsatish kamdan-kam uchraydi.

Qaytarish mumkin bo'lmagan kuchni (zilzila, toshqin, yong'in kabilarni) nisbiy tushuncha deb bilib, bunday holatlarni asos qilib, javobgarlikdan ozod qilish-qilmaslik mazkur holatlarning qanday sharoitlarda, qanday joyda va davrda sodir bo'lganligi e'tiborga olinadi. Majburiyatni bajarishga to'sqinlik qilgan holat o'zining ichki, o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha qaytarish mumkin bo'lmagan kuch sifatida ko'rilmaydi, balki qator sharoit va muayyan holatlarning birgalikda kelishiga qarab belgilanadi. Qaytarib bo'lmaydigan kuch ta'siri natijasida zarar

yetkazilganligi isbotlanganda mulkiy javobgarlikdan ozod qilish mumkin. Shu bilan birga, ayrim hollarda qaytarib bo'lmaydigan kuch ta'sirida yetkazilgan zararning to'lanishi ham fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan. Jumladan, havo transportidan foydalanishda yo'lovchilarning ko'rgan zararlari O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksiga muvofiq, to'la ravishda to'lanadi.

Qaytarib bo'lmaydigan kuch tushunchasini aniqlash fuqarolik-huquqiy javobgarlik to'g'risidagi masalani to'g'ri hal qilish uchun zarur. Chunki qarzdor tasodifiy holat uchun javobgar bo'lganligi tufayli qaytarish mumkin bo'lmagan kuch mavjud bo'lganida, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

Yengib bo'lmaydigan kuch ta'sirida majburiyatni bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilish qarzdorda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotganida sodir bo'lsagina qo'llaniladi. Binobarin, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan majburiyatlarga nisbatan FK 333-moddasining uchinchi qismi normasi qo'llanilmaydi. Ayni vaqtda, shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatning bajarilmasligi qarzdorning shartnoma bo'yicha sheriklari tomonidan sodir etilib, bozorda majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning yo'qligi, qarzdorda pul mablag'lari bo'lmaganligi sababli ro'y bergan hollarda ular yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holati sifatida qaralmaydi va qarzdorni 333-moddaning uchinchi qismi bilan javobgarlikdan ozod etish uchun asos bo'lmaydi.

Kreditorning aybini aniqlash muhim ahamiyatga ega. FKning 335-moddasida aytilganidek, agar kreditor qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli majburiyatni bajarish mumkin bo'lmashligi yuz berishiga yoki bajarmaslik tufayli yetkazilgan zarar miqdorining ko'payishiga ko'maklashgan bo'lsa, shuningdek, kreditor majburiyatni bajarmaslikdan yetkazilgan zararni kamayish choralari qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli ko'rmagan bo'lsa, sud ishning holatlariga qarab to'lanadigan haq miqdorini kamaytirishga yoki kreditorga haq to'lashni batamom rad etishga haqli. FKning qoidasida majburiyatlarning qarzdor, shuningdek, kreditor xatti-harakatlari tufayli bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi

to'g'risida so'z boradi. Bunday hollarda qarzdorning javobgarligi hajmi ham kamaytirilishi mumkin.

Mazkur holda, sud har ikki tarafning aybi darajasini belgilashi va qarzdorning javobgarligi miqdorini tegishlicha kamaytirishi, kreditor ko'rgan zararlarni qisman to'lashga majbur qilishi, kreditorga to'lanishi lozim bo'lgan neustoyka summasini kamaytirishi lozim. Modomiki, majburiyatlarni bajarishda har ikki taraf o'zi uchun foydali tejimli samaraga erishishni ko'zlab harakat qilar ekan, kreditor o'z aybi bilan zarar kamayishi uchun choralar ko'rmasa, o'z majburiyatini bajarmagan hisoblanadi. Majburiyatni bajarmaslikdagi aybi keyinchalik majburiyatni lozim darajada bajara olmagan qarzdorning javobgar bo'lish darajasini belgilashda e'tiborga olinadi.

Majburiyatni bajarmaslikda har ikki taraf teng darajada aybli bo'lsa, ko'rilgan zarar taraflar o'rtasida bab-baravar taqsimlanishi zararining faqat yarminigina to'lashga majbur qilinadi. Zararning ikkinchi yarmi esa kreditorga to'lanmay qoladi. Ammo bunday javobgarlik barcha hollarda ham bir xil bo'lmaydi. Jumladan, sud qarorlarida har ikki tarafning aybini taqqoslab ko'rib, to'lanadigan zarar summasi birmuncha kamaytirilishi hollari ko'riladi. Ba'zi hollarda qarzdor majburiyatni bajarish uchun barcha choralarni ko'rsa ham kreditor o'zining harakatsizligi va beparvoligi bilan majburiyatning bajarilishiga to'sqinlik qiladi. Bunday holda sud qarzdorning majburiyatni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik javobgarligidan ozod qiladi.

## **5-§. Majburiyatning qarzdor va kreditor tomonidan kechiktirilishi oqibatlari**

FKning 337–339-moddalari majburiyatning bajarilishi qarzdor yoki kreditor tomonidan kechiktirilgani uchun javobgarlik to'g'risidagi masalani tartibga soladigan qoidalarni belgilaydi. Ijroning qarzdor tomonidan kechiktirilishi deb, majburiyatning u tomonidan belgilangan muddatda bajarilmasligi tushuniladi.

Qarzdor tomonidan majburiyatni kechiktirish sodir bo'lganida, u kreditor oldida quyidagilar uchun javob beradi:

– kechiktirish orqali yetkazilgan zarar uchun, bu holda majburiyatning o'zi amal qilishda davom etadi;

– kechiktirilgan davr ichida tasodifan majburiyatni bajarish mumkin bo'lmaydigan holat vujudga kelsa (FK 349-modda), bunda u kreditorga majburiyatni bajarmaslik sababli yetkazilgan zararni to'laydi (FK 324-modda).

Qarzdor tomonidan ijroni kechiktirishning boshqa bir oqibati shundaki, agar ana shu kechiktirish muddati ichida kreditor uchun majburiyatning bajarilishi ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa, u ijroni qabul qilishdan bosh tortishi mumkin. Kreditor bosh tortganidan so'ng zararni to'lab berishni talab qilishi mumkin (FK 324-modda). Umumiy qoidaga ko'ra, kreditor majburiyatning bajarilishi ahamiyatini yo'qotganligini isbotlashi shart emas, aks holda esa qarzdordan isbotlash talab etiladi. Ta'kidlash joizki, kreditor o'zining ijroni qabul qilishdan bosh tortish huquqidan ijroni qabul qilib olish amalga oshirilishidan avval foydalanishi mumkin, aks holda u ushbu huquqdan mahrum bo'ladi<sup>1</sup>.

Agar majburiyatning ijro etilishi kechiktirilgan davrda mazkur majburiyat qarzdorning aybidan qat'i nazar, ijro etilishi mumkin bo'lmasa ham, u o'z aybi bilan majburiyatni ijro etmaganida qanday javobgarlikka tortiladigan bo'lsa, unga nisbatan xuddi shunday javobgarlik belgilanadi. Bunday hollarda javobgarlikni belgilash uchun qarzdor tomonidan kechiktirilishi asos qilib olinadi. Chunki qarzdor sotilgan narsani yoki ijaraga berilgan ashyoni o'z vaqtida topshirganida edi, ashyo tasodifan nobud bo'lmagan bo'lur edi, deb faraz qilinadi.

Agar majburiyatning bajarilishi qarzdor tomonidan kechiktirilganligi tufayli uning keyinchalik bajarilishiga zarurat qolmagan bo'lsa, kreditor FK 337-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilganidek, ijroni qabul qilishdan bosh tortishga va zararni to'lashni talab qilishga haqli. Kreditorning kechiktirishi ham muhim huquqiy oqibatlar tug'diradi. Fuqarolik qonunchiligi yuqorida aytilganidek, majburiyatning bajarilishida qarzdorning ham, kreditorning ham manfaatlari bir bo'lishi zarurligini belgilaydi. Modomiki, taraflar majburiyatni bajarishda bir-biriga

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov H.R. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. I jild. – T.: «Vektor-Press» 2010. – B. 725.

ko'maklashishlari lozim ekan, kreditor o'zining xatti-harakati bilan majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilishiga to'sqinlik qilmasligi, ijroni kechiktirmasligi kerak.

Kreditorning kechiktirishi deganda, majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilishida to'sqinlik qilishga yoki bunday ijroning qiyinlashtirilishiga qaratilgan harakat tushuniladi. Bunday harakatning oqibati uchun kreditor mulkiy javobgar bo'lishi, ya'ni bunday harakatning mulkiy oqibati kreditorning zimmasiga qo'yilishi kerak. Kechiktirishning oqibatlari FKning 338-moddasida ko'rsatilgan. Bu moddada kreditorning shartnoma bo'yicha o'ziga tegishli narsani qabul qilishni kechiktirib yuborishi tufayli yetkazilgan zararni undirib olish huquqini berishi va keyinchalik majburiyatni ijro etish mumkin bo'lmay qolsa, uni javobgarlikdan ozod qilish, qarzdorning qasddan ish tutishi yoki qo'pol ehtiyotsizlik qilish hollari bundan mustasno ekanligi, pul majburiyati bo'yicha kreditor ijroni kechiktirib yuborgan vaqt uchun qarzdor foizlar to'lashga majbur emasligi ko'rsatilgan. Kreditorning kechiktirishi ikki turdagi xatti-harakatdan, birinchidan, kreditor o'ziga qarzdor tomonidan lozim darajadagi ijroni qabul qilmaslikdan, ikkinchidan, qarzdorning o'z majburiyatini bajarishga qadar kreditor tomonidan lozim bo'lgan harakatning u tomondan qilinmaganligidan iborat bo'lishi mumkin.

Kreditor majburiyatni kechiktirishda o'z aybi yoki o'ziga qarashli shaxslarning aybi yo'qligini isbotlay olmasa, majburiyatning kechiktirilishi natijasida qarzdorga yetkazilgan zararni to'lashga majbur bo'ladi, Jumladan, belgilangan muddatda olib ketilmagan mahsulotlarni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni to'lashi shart. Odatda, bunday hollarda neustoyka (penya, jarima) undiriladi.

Kreditorning kechiktirishi ko'pincha majburiyatning bajarmasligida aybli bo'lgan qarzdorning javobgarligi to'g'risida da'vo qo'zg'atilganda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki bunday hollarda kreditorning ayblilik darajasi e'tiborga olinib, qarzdorning javobgarligi darajasi birmuncha kamaytirilishi mumkin.

Agar kechiktirish kreditorning o'z aybi yoki qonunga yoxud kreditorning topshirig'iga binoan ijroni qabul qilish yuklatilgan shaxslarning qasdi yoki qo'pol ehtiyotsizligidan emasligini kreditor isbotlasa, u kechiktirish javobgarligidan ozod bo'ladi. Majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilishida u tomondan berilgan tilxat yoki hujjatini kreditor qarzdorga qaytarib berishdan bosh tortganda ham kreditor kechiktirgan hisoblanadi.

Yuqorida aytilganidek, kreditor majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilishida unga ko'maklashishga majbur. Agar u o'zining bunday majburiyatini bajarmasa, oqibatlari uchun ham javobgar bo'ladi. Kreditorning majburiyatni kechiktirish oqibatlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

**birinchidan**, majburiyatning kechiktirilishi natijasida qarzdorga yetkazilgan zararni to'laydi;

**ikkinchidan**, kreditorning kechiktirish vaqti uchun qarzdor pul majburiyatlari bo'yicha foizlar to'lamaydi;

**uchinchidan**, agar kreditor qarzdorga uning bergan tilxatini yoki boshqa qarz hujjatini qaytarishdan, yoxud tilxatda qarz hujjatining qaytarilishi mumkin bo'lmasligini ko'rsatishdan bosh tortsa, qarzdor ijro etishni to'xtatishga haqli.

Bajarish mumkin bo'lmasligi tushunchasi ham ma'lum ahamiyatga ega. Bajarish mumkin bo'lmasligi, yuqorida aytib o'tilganidek, majburiyatning real tarzda, ya'ni asl holatda bajarish mumkin bo'lmasligini bildiradi. Bajarish mumkin bo'lmasligi to'g'risidagi masala har bir muayyan holatda sud tomonidan mazkur ishning xususiyatlari e'tiborga olinib hal etiladi.

Qarzdordan majburiyatning real tarzda bajarilishini ba'zi hollarda va ba'zi asoslar bo'yicha talab qilish mumkin bo'lmaydi.

Bunga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Majburiyatning aslicha bajarilishi mumkin bo'lmasligi, ya'ni, majburiyat narsasi xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyo bo'lib, uni aslicha topshirish mumkin bo'lmagan holatlarning mavjudligi yoki biron-bir holatning sodir bo'lishi sababli qarzdor majburiyatini ma'lum bir joyda bajara olmasligi;

2. Majburiyatning huquqiy jihatdan bajarilishi mumkin bo'lmasligi, ya'ni ba'zi hollarda majburiyatning bajarilishi bunday

majburiyat vujudga kelgandan so'ng qabul qilingan qonunchilikka xilof keladigan bo'lsa, majburiyat bajarilmasligi mumkin.

3. Ba'zi hollarda majburiyatning real bajarilishi nihoyatda qiyin bo'lishi mumkin. Masalan, shartnoma bo'yicha biron-bir majburiyatni shaxsan bajarishga majbur qarzdorning qattiq betob bo'lib qolishini ko'rsatish mumkin.

4. Agar ashyolarning nobud bo'lishi qarzdorning mazkur ashyolarga beparvolik bilan, ehtiyotsizlik muomalasi tufayli bo'lsa, kreditorga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

### **Tayanch iboralar:**

Majburiyatning buzilishi, majburiyatlarni bajarmaslik, majburiyatlarni lozim darajada bajarmaslik, fuqroviiy-huquqiy javobgarlik, qarzdorning javobgarligi, subsidiar javobgarlik, javobgarlik hajmini cheklash, majburiyatning qarzdor tomonidan kechiktirilishi, yengib bo'lmaydigan kuch.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Majburiyatning buzilishi tushunchasiga ta'rif bering.
2. Majburiyatlarni bajarmaslik va lozim darajada bajarmaslik tushunchalariga izoh bering.
3. Majburiyatlarni buzganlik uchun qanday fuqarolik-huquqiy javobgarlik qo'llaniladi?
4. Majburiyatlar bo'yicha javobgarlik hajmini cheklash mumkinmi?
5. Fuqarolik huquqbuzarlik tarkibi nimalardan iborat?
6. Uchinchi shaxslarning harakatlari uchun qarzdorning javobgarligi qonunchilikda qanday hal etilgan?
7. Pul majburiyatini bajarmaganlik uchun qanday javobgarlik belgilangan?
8. Subsidiar javobgarlik nima?
9. Majburiyatning bajarilishi mumkin bo'lmasligi qarzdorni nimalardan ozod etmaydi?
10. Ijroning kechiktirib yuborilganligi uchun kreditorni javobgarlikdan ozod qilishga yo'l qo'yiladimi?

## **XXV bob. MAJBURIYATLARNING BEKOR BO'LISHI**

### **1-§. Majburiyatlarning bekor bo'lish tushunchasi**

Har qanday huquqiy munosabat kabi majburiyat ham muayyan asoslar, ya'ni muayyan yuridik faktlar mavjud bo'lgan vaqtda bekor bo'ladi. Majburiyatning bekor bo'lishi deganda vujudga kelgan yuridik fakt tufayli majburiyat ishtirokchilari huquq va burchlarining bekor bo'lishi tushuniladi<sup>1</sup>. Majburiyat fuqarolik kodeksida, boshqa qonunlarda yoki shartnomada nazarda tutilgan asoslarga ko'ra to'liq yoki qisman bekor bo'ladi. Majburiyatni tarafdardan birining talabi bilan bekor qilishga qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi (FK, 340-modda).

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, majburiyat quyidagi hollarda bekor bo'ladi:

1. Majburiyatning bajarilishi bilan;
2. Voz kechish haqini berish bilan;
3. Hisobga o'tkazish bilan;
4. Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish bilan;
5. Qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo'lib qolishi bilan;
6. Majburiyat yangilanishi bilan;
7. Qarzdor voz kechish bilan;
8. Bajarish mumkin bo'lmaganligi tufayli;
9. Davlat organi hujjati asosida;
10. Fuqaroning vafot etishi bilan;
11. Yuridik shaxs tugatilishi bilan.

### **2-§. Majburiyatlarning bajarilishi bilan bekor bo'lishi**

Majburiyat qoida tariqasida uning lozim darajada bajarilishi bilan bekor bo'ladi. Majburiyatlar bekor bo'lishining eng ko'p

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashr. – T.: TDYuL, 2009. 565-bet.



tarqalgan usullaridan biri majburiyatning tegishli ravishda ijro etilishidir. Majburiyatlarning bekor bo'lishi uchun bajarish tegishli ravishda amalga oshirilmasa, majburiyatni bekor qilmay, balki uni buzganlik uchun mulkiy javobgarlik belgilanadi, ba'zi hollarda majburiyatni real ravishda bajarish vazifasi ham saqlanib qoladi. Ayrim majburiyatlar tegishli ravishda bajarilishi bilan bekor bo'ladi, shu bilan birga, majburiyatni talab darajasida bajargan shaxsga shu shartnomani qayta tiklashda imtiyozli huquq beriladi. Masalan, biror mulkni ijaraga olgan shaxs o'z zimmasiga olgan majburiyatini, talab darajasida bajarsa, shu mulkni ijaraga olish uchun yangi shartnoma tuzishda boshqa shaxslarga nisbatan imtiyozli huquqqa ega bo'ladi. Kreditor ijroni qabul qila turib, qarzdorning talabi bo'yicha unga ijroning to'la yoki qisman qabul qilinganligi to'g'risida tilxat berishga majbur. Agar qarzdor majburiyatni tasdiqlash yuzasidan kreditorga qarz hujjati bergan bo'lsa, kreditor ijroni qabul qila turib bu hujjatni qaytarishi, agar uni qaytarish mumkin bo'lmasa, bu to'g'rida o'zi bergan tilxatda ko'rsatishi lozim. Tilxat qaytarilayotgan qarz hujjatiga ustxat yozish bilan ham almashtirilishi mumkin.

Majburiyatning bajarilganligini isbotlovchi boshqa hujjatlar ham bo'lishi mumkin. Sotilgan ashyolarni oluvchiga jo'natish uchun transport tashkilotiga topshirilishi yoki oluvchiga yuborish uchun aloqa bo'limiga berilishi to'g'risidagi hujjat shular sirasiga kiradi. Qarz hujjatining qarzdor qo'lida bo'lishi, boshqa bir hol isbotlanmaguncha, majburiyatning bekor bo'lganligini tasdiqlaydi. Kreditor tilxat berishdan, qarz hujjatini qaytarishdan yoki qaytarib berish imkoniyati yo'qligini tilxatda ko'rsatishdan bosh tortgan taqdirda, qarzdor ijroni to'xtatib turishga haqli bo'ladi. Bunday hollarda kreditor muddatni kechiktirgan hisoblanadi (FK, 258-modda).

Qarz hujjatining qaytarilishi yoki uni qaytarish mumkin bo'lmaganligi to'g'risidagi tilxat o'rniga berilgan hujjat ustiga ijroning qabul qilinganligi haqida yozib berishi majburiyatning ijro etilganligini isbotlash hujjatlaridan biri hisoblanadi. Qarz hujjati (tilxat) qarzdor tomonidan kreditorga beriladi. Bunday hujjat bilan ko'pincha maishiy pudrat shartnomalaridan kelib

chiqqan majburiyatlar guvohlantiriladi. Qarz hujjati kreditor qo'lida bo'lishi-majburiyatning mavjudligini isbotlovchi dalil hisoblanadi va unga majburiyatning bajarilishini talab qilish huquqini, masalan, qarz pulining to'lanishini, buyurtma qilingan narsaning berilishini talab qilish huquqini beradi Kreditor majburiyatning ijrosini qabul qila turib, qarzdorga qarz hujjatini qaytarishga majbur. Qarzdor esa majburiyatning bajarilganligini tasdiqlaydigan hujjatni o'ziga berilishini kreditoridan talab qilish huquqiga ega.

Ayrim hollarda, majburiyatning bajarilganligi to'g'risida kreditoridan alohida hujjat olmay, balki qarzdorning tilxati ustiga majburiyatning bajarilganligini, masalan, qarz pulining butunlay yoki qisman olinganligini yozish mumkin. O'z xarakteriga ko'ra qarz hujjati to' majburiyat tegishli suratda bajarilgunga qadar kreditorida bo'lishi kerak. Qarz hujjatining qarzdorga qaytarilishi majburiyatning bajarilganligini bildiradi. Shuning uchun qarz hujjatining qarzdor qo'lida bo'lishi boshqa bir hol isbotlanmaguncha, majburiyatning bajarilganligini va shu bilan uning bekor bo'lganligini tasdiqlaydi.

Basharti, kreditor yo'q bo'lsa yoki u ijroni qabul qilishdan bosh tortsa, yoxud boshqa sabablarga ko'ra qabul qilish muddatini o'tkazib yuborsa, shuningdek, muomala layoqatiga ega bo'lmasa yoki muomala layoqati cheklangan bo'lsa, ijroni qabul qilishga rozi bo'lgan vakil qog'ozni notarial idoraning depozitiga qo'yishi mumkin. Bunday hollarda pulni yoki qimmatli qog'ozni kreditor nomiga notarial idoraning depozitga qo'yish, majburiyatni lozim darajada bajarish bo'lib hisoblanadi.

Yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlarda majburiyatning bajarilishi tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Yuborilgan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'langan summani tasdiqlaydigan schyotlar yoki kvitansiyalar ana shunday hujjatlar hisoblanadi<sup>1</sup>. Ular tashkilotlar mablag'lari hisobidan pul to'lovlari va boshqa xarajatlarning to'g'ri sarflanganligini tasdiqlash hamda tegishli nazorat olib borish imkonini beradi.

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashr. – T.: TDYuU, 2009. 568-bet.

### **3-§. Voz kechish haqini berish va majburiyatlarning hisobga o'tkazish yo'li bilan bekor bo'lishi**

Majburiyatda ishtirok etuvchi taraflarning kelishuviga muvofiq majburiyat uni bajarish o'rniga voz kechish haqini berish (pul to'lash, mol-mulk berish va shu kabilar) bilan bekor qilinishi mumkin. Voz kechish haqining miqdori, muddatlari va uni berish tartibini taraflar belgilaydilar.

Hisobga o'tkazish – bu majburiyatni bekor qiladigan shunday usulki, buning vositasida muddati to'lgan yoki qisman muddati ko'rsatilmagan yoxud talab qilish payti bilan belgilangan muqobil o'xshash talab hisobga o'tkazilishi bilan majburiyat to'liq yoki qisman bekor bo'ladi (FKning 343-moddasi, jumladan, kim oshdi savdosida g'olib chiqqan shaxs bilan shartnoma tuzishda u to'lagan zakalat summasi tuzilgan shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishda hisobga o'tkaziladi).

Hisobga o'tkazish o'z-o'zicha avtomatik ravishda amalga oshirilmaydi. Fuqarolik huquqi nuqtai nazaridan hisobga o'tkazish bir tomonlama bitim bo'lib ko'ringani tufayli bunga bir tomonning hisoblashish to'g'risidagi arizasi kifoya qiladi.

Hisobga o'tkazish-majburiyatlarning bajarilishini osonlashtiradi, chunki bu usul taraflarni bir-birlariga pul to'lash bilan bo'lgan oshiqcha harakatlarni qilishdan ozod qiladi va har ikki kreditorning manfaatlarini yaxshi ta'minlaydi.

Muqobil (qarshi) talabni hisobga o'tkazish fuqarolar ishtirok etgan munosabatlarda ham, tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarda ham qo'llaniladi. Tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga muqobil (qarshi) talabni hisobga o'tkazish, bank orqali hisoblashish shaklida amalga oshiriladi. Bank tashkilotlar ixtiyoridagi pul mablag'larining aylanishini tezlatish maqsadida naqd pulsiz o'zaro hisoblashishni amalga oshiradi. Bank orqali hisobga o'tkazish FKning tegishli moddalaridan tashqari, vakolatli organlar tomonidan chiqarilgan maxsus hujjatlar bilan ham tartibga solinadi. Qonun muqobil (qarshi) talab hisobi yo'li bilan majburiyatlarning bekor bo'lishi uchun quyidagi uch talabni qo'yadi:

1. Majburiyatlar qaytarma bo'lishi, ya'ni kreditorlar bir-biriga nisbatan qarzdor bo'lishi kerak. Masalan, ijaraga oluvchi ijaraga beruvchiga ijara haqi uchun 600 ming so'm to'lashi kerak bo'lsa, ijaraga beruvchi undan 600 ming so'm qarz bo'lsa muqobil talab hisobidir;

2. Qarama-qarshi talab bir xilda, talab qilinadigan narsaning alomatlari ham shu turda bo'lishi kerak. Masalan, pulga pul, bug'doyga bug'doy kabi.

Agar qarama-qarshi talabning narsasi bir xilda bo'lmasa, o'zaro muqobil talabni hisobga o'tkazish mumkin emas. Masalan, bir tomon bir ashyo yuzasidan vindikatsion da'vo qo'zg'atsa, ikkinchi tomon esa shartnoma bo'yicha ko'rsatilgan xizmatni talab qilsa, bunday talablar o'zaro qarshi talabni hisobga o'tkazish yo'li bilan bekor bo'lmaydi, ya'ni muqobil (qarshi) talabni hisobga o'tkazish yo'li bilan hisoblashish mumkin emas bir xildagi qarama-qarshi talabni hisobga o'tkazishda ularni bajarish muddatlari to'lgan bo'lishi kerak.

Agar bajarish muddati ko'rsatilmagan yoki talab qilish payti bilan belgilangan bo'lsa, majburiyatni bajarishning hisoblanishi har qachon talab etilishi mumkin. Shuning uchun bunday talabni o'zaro hisobga o'tkazishda bajarish muddati ahamiyatsizdir. Biroq kreditor bajarish muddati to'lmagan talabini shu kreditordan talab qilish muddati to'lgan qarzdorning talabiga qarshi o'zaro hisobga o'tkazishga haqli emas.

Muqobil (qarshi) talablarni hisobga o'tkazishga qo'yilmaydigan holatlar amaldagi qonunchilikda belgilanganidek,

– da'vo muddati o'tgan talablarni (da'vo muddatining o'tib ketishi talab qilish huquqini yo'qotadi);

– fuqaroning sog'lig'iga shikast yetkazish yoki uning vafoti munosabati bilan yetkazilgan zararni to'lash to'g'risidagi talabini;

– alimentlar undirish haqidagi talabni;

– umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartirani) boshqa shaxsga topshirish talabini (mehnatga qobiliyatsiz shaxslarni moddiy jihatdan ta'minlash maqsadida bo'lganligi tufayli);

– qishloq xo'jalik mahsulotlari kontraktatsiya shartnomalari bo'yicha majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki

zarur darajada bajarilmaganligi uchun tomonlarning mulkiy javobgarligi;

– qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollardagi talabni hisobga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan taqdirda, qarzdor o'zining dastlabki kreditoriga muqobil talabni yangi kreditorning talabiga qarshi hisobga o'tkazishga haqli.

Agar talab qarzdor bu talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechilgani to'g'risidagi bildirishni olgan paytgacha mavjud bo'lgan asosga ko'ra vujudga kelgan bo'lsa va talab qilish muddati ana shu bildirish olinguncha kelgan bo'lsa yoki ushbu muddat ko'rsatilmagan yoxud talab qilish payti bilan belgilangan bo'lsa, hisobga olish amalga oshiriladi (FK, 345-modda).

#### **4-§. Majburiyatlar bekor bo'lishining ayrim turlari**

Majburiyatlarning bekor bo'lishini yuqorida keltirilgan turlaridan tashqari yana quyidagi turlari mavjud:

**1. Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish va qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo'lib qolganida majburiyatning bekor bo'lishi.** Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan taqdirda qarzdor o'zining dastlabki kreditoriga muqobil talabini yangi kreditorning talabiga qarshi hisobga o'tkazishga haqli. (FK, 345-modda).

Agar talab qarzdor bu talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechilgani to'g'risidagi bildirishni olgan paytgacha mavjud bo'lgan asosga ko'ra vujudga kelgan bo'lsa va talab qilish muddati ana shu bildirish olinguncha kelgan bo'lsa yoki ushbu muddat ko'rsatilmagan yoxud talab qilish payti bilan belgilangan bo'lsa, hisobga olish amalga oshiriladi.

Qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo'lib qolganida majburiyat bekor bo'ladi (FK, 346-modda). Ma'lumki, har qanday shaxs o'ziga o'zi ham qarzdor, ham kreditor bo'lishi mumkin emas. Bunday kreditor va qarzdorning bir shaxs bo'lib qolishi ko'pincha meros olishda uchraydi. Masalan, meros oluvchi shaxs o'z akasi yoki

otasiga qarzdor bo'lsa, keyinchalik meros ochilishi natijasida kreditorning (marhum aka yoki otaning) talab qilish huquqlarini o'ziga oladi. Qarzdor bilan kreditorning bir shaxs bo'lib qolishi fuqarolar o'rtasidagina emas, balki yuridik shaxslar o'rtasida ham yuz berishi mumkin. Odatda, yuridik shaxslar qayta tashkil bo'lishi yoki bir nechasi qo'shilishi tufayli (universal huquqiy vorislik) qarzdor va kreditor bo'lgan tashkilotlar bir yuridik shaxs bo'lib qolishi majburiyatni bekor qiladi. Agar bunda qo'shilish keyinchalik bekor bo'lsa, majburiyat yangidan paydo bo'ladi. Jumladan, bir-biriga qarzdor bo'lgan ikki xo'jalik qo'shila turib, keyinchalik yana ajralsalar avvalgi qarzdor xo'jaliklarning majburiyati yangidan paydo bo'ladi.

**2. Majburiyat yangilanishi bilan va qarzdorni qarzdan voz kechishi bo'yicha majburiyatning bekor bo'lishi.** Taraflarning kelishuviga muvofiq, majburiyatlarning bekor qilinishida bunday kelishuv bajarilmagan majburiyatlarni kelgusida bajarishdan ozod qilishga qaratilgan bo'ladi va har ikki taraf majburiyatni bajarishga hali kirishmagan vaqtda yoki majburiyatning bir qismi bajarilgan paytda yuz beradi. Taraflarning kelishuvlari turlicha mazmunda, jumladan, qarzni to'lashdan yoki biron-bir ishni bajarishdan ozod qilish to'g'risida bo'lishi mumkin. FKning 342-moddasiga asosan, taraflarning kelishuviga muvofiq, majburiyat uni bajarish o'rniga voz kechish haqini berish (pul to'lash, mol-mulk berish kabi) bilan bekor qilinishi mumkin. Voz kechish haqining miqdori, muddatlari va uni berish tartibini taraflar belgilaydilar.

Kreditorning qarzdan voz kechishi ham majburiyatning bekor bo'lishiga olib keladi. Bu bir taraflama bitim bo'lib, unda taraflarning kelishuvi ro'y bermaydi. Biroq bunda kreditorning qarzdan voz kechishi boshqa shaxslarning kreditor mol-mulkiga nisbatan huquqlarini buzmasa, majburiyat bekor bo'ladi (FK, 348-modda).

FKning 347-moddasida ko'rsatilganidek, taraflar o'z o'rtalaridagi dastlabki majburiyatni boshqa narsani yoki boshqacha ijro etish usulini nazarda tutuvchi yangi majburiyat bilan almashtirish (majburiyatni yangilash) haqida kelishib olsalar,

majburiyat bekor bo'ladi. Jumladan, biron-bir narsa nasiyaga olinganida, oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiqqan majburiyat taraflarning kelishuvi bilan qarz majburiyatiga aylantiriladi. Bunday holda taraflar o'rtasida qarz shartnomasi bilan tartibga solinadigan huquqiy munosabat kelib chiqadi.

Bir majburiyatning boshqa bir majburiyat bilan almashtirilishi uchun qator shartlar talab qilinadi. Bunda, birinchidan, taraflar o'rtasidagi bir majburiyatni bekor qilish uchun boshqa turdagi majburiyat bilan almashtirish haqidagi kelishuv bo'lishi; ikkinchidan, harakatda bo'lgan, haqiqiy majburiyatning bo'lishi (agar dastlabki majburiyat haqiqiy bo'lmasa yoki bekor qilingan bo'lsa, u holda majburiyatni boshqa bir majburiyat bilan almashtirish to'g'risida kelishuv ham bo'lishi mumkin emas); uchinchidan, yangi majburiyat haqiqiy bo'lishi va eski majburiyatdan biron-bir farqi bo'lishi kerak.

Taraflarning bir turdagi majburiyatni boshqa bir turdagi majburiyat bilan almashtirish to'g'risidagi kelishuvi shartnoma sifatida ko'rsatilganligi tufayli kelishuv ham shartnomalarni tuzishga oid umumiy qoidalarga muvofiq bo'lishi lozim.

Dastlabki majburiyatning yangi majburiyat bilan almash-tirilishida dastlabki majburiyatning bajarilishini ta'minlash uchun belgilangan kafolat, zakalat va boshqa usullar ham bekor bo'ladi.

Majburiyatlarning kelishuv yo'li bilan bekor qilinishi FKning 102-112-moddalariga rioya qilingan holda rasmiylashtirilishi lozim. Tashkilotlar o'rtasidagi majburiyatlarning kelishuvi faqat yozma shakldagina bekor qilinishi mumkin.

**3. Bajarish mumkin bo'lmaganligi tufayli majburiyatning bekor bo'lishi.** Fuqarolik huquqida majburiyatni bajarish mumkin bo'lmasligi deb shunday vaziyat tushuniladiki, bunda qarzdorga majburiyat mazmunini tashkil etgan harakatlarni bajarish imkoniyati bo'lmay qoladi. FKning 349-moddasida ko'rsatilishicha, agar taraflardan birontasi ham javob bermaydigan vaziyat tufayli majburiyatni bajarish mumkin bo'lmay qolsa, u bekor bo'ladi. Basharti, qarzdor majburiyatni kreditorning aybli harakatlari tufayli bajarishi mumkin bo'lmasa, kreditor o'zining aybli harakatlari tufayli bajarishi mumkin

bo'lmasa, kreditor o'zining majburiyat bo'yicha bajarganlarini qaytarib berishni talab qilishga haqli emas.

Bajarish mumkin bo'lmaslik tasodifiy holatlar tufayli bo'lishini bironing aybi bilan bog'liq bo'lishi holatidan ajratish kerak. Tasodifiy holat tufayli bajarish mumkin bo'lmasligi deb mazkur sharoitda, vaziyatda qaytara olmaydigan kuch, jumladan, suv toshqini zilzila, yong'in kabi tabiiy ofatlar tufayli bajarish mumkin bo'lmasligi tushuniladi.

Bajarishiing mumkin bo'lmay qolishi qarzdor aybi bilan bo'lgan deb hisoblash uchun bajarish imkoniyatini bermagan holatlar qarzdor qasddan yoki ehtiyotsizlikdan yo'l qo'ygan bo'lishi yoxud uning oldini olmagan bo'lishi kerak.

Agar bajarishga imkoniyat bermaydigan holatlar qarzdorning aybi bilan sodir etilgan bo'lsa, u holda qarzdor majburiyatni bajarishdan ozod bo'lmaydi, bunday holda majburiyat bekor bo'lmay o'z kuchida qolib, faqat uning mazmuni yuz bergan holatga qarab o'zgarishi mumkin. Qarzdorning o'z aybi bilan ijro etib bo'lmaydigan holat sodir qilingan bo'lsa, majburiyat bajarilmasligi uchun neustoyka yoki zararni to'lash burchidan ozod qilinmaydi, qonun majburiyatni bajarish mumkin bo'lmasligi faktlarini turlarga bo'lib ko'rsatmaydi. Majburiyatni bajarib bo'lmasligi faktlari o'z xarakteriga ko'ra bir necha turga, jumladan, jismiy, huquqiy va iqtisodiy faktlarga bo'linadi. Jismiy jihatdan bajarib bo'lmaslik deganda, bajarilishi lozim bo'lgan majburiyat narsasining nobud bo'lishi natijasida bajarish mumkin bo'lmasligi tushuniladi. Masalan, ijaraga berilayotgan binoning yong'in tufayli yaroqsiz bo'lib qolganligi sababli majburiyat narsasini berib bo'lmaydi.

Huquqiy jihatdan bajarib bo'lmaslik deganda, majburiyat mazmunini tashkil etgan harakatni qilishni vakolatli organ tomonidan chiqarilgan huquqiy hujjat bilan man qilinishi tushuniladi. Masalan, dori tayyorlash zavodi dori yetkazib berish majburiyatini olsa, lekin tayyorlangan dorining zararli xususiyati ma'lum bo'lib qolib, vakolatli organ fuqarolik muomalasidan chiqarish to'g'risida buyruq bersa, huquqiy asos bo'yicha bajarib bo'lmaydigan holat ro'y beradi.



Iqtisodiy jihatdan bajarib bo'lmalik shu bilan xarakterlanadiki, qarzdor majburiyatni bajarish jarayonida oshiqcha xarajatlar qilishi lozim bo'lsa, bunday xarajatlar tufayli xalq xo'jaligiga zarar yetkazilishi sababli bajarilmasligi mumkin.

Bundan tashqari, majburiyatni butunlay yoki qisman, shuningdek, muttasil va vaqtincha bajarib bo'lmalikni bir-biridan farq qilmoq kerak. Qisman ijro etib bo'lmalik, masalan, shartnomaga asosan topshiriladigan bir necha ashyoning biri yoki bir nechasining buzilishidan kelib chiqishi mumkin. Butunlay ijro etib bo'lmalik esa, topshirilishi lozim bo'lgan mulkning tasodifiy holat sababli iste'molga yaroqsiz bo'lib qolishi tushuniladi. Vaqtincha bajarib bo'lmalikka vakolatli organ tomonidan berilgan buyruqqa asosan majburiyat bajarilishi kechiktirilishini misol qilib ko'rsatish mumkin. Vaqtincha ijro etib bo'lmalikda majburiyat butunlay bekor qilinmay, balki bajarilishi vaqtincha to'xtatilib turiladi. Muttasil ijro etib bo'lmalikda biron tasodifiy holat tufayli majburiyatni hech qachon bajarish mumkin bo'lmaydi. Masalan, yong'in tufayli vayron bo'lgan muayyan binoni ijaraga berish majburiyati muttasil, hech qachon bajarilmasligi mumkin

**4. Majburiyatning davlat organi hujjati asosida bekor bo'lishi.** Fuqarolik kodeksining 350-moddasiga asosan, agar davlat organining hujjati chiqishi natijasida majburiyatni bajarish to'liq yoki qisman mumkin bo'lmay qolsa, majburiyat to'liq yoki uning tegishli qismi bekor bo'ladi. Masalan, O'zbekistondagi mis kombinati xorijdagi korxonaga mis yetkazib berish haqidagi shartnoma bo'yicha majburiyatga ega bo'lishi mumkin. Bordi-yu, O'zbekiston Respublikasi Hukumati xorijga mis eksport qilishni cheklash haqida qaror qabul qilguday bo'lsa, ushbu majburiyat bekor bo'ladi. Buning natijasida zarar ko'rgan taraflar FKning 12 va 15-moddalariga muvofiq, uni to'lashni talab qilishga haqlidirlar.

Davlat organining majburiyat bekor bo'lishiga asos bo'lgan hujjati belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topilganda, agar taraflarning kelishuvida yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha tartib kelib chiqmasa va majburiyatni bajarish kreditor uchun o'z ahamiyatini yuqotmagan bo'lsa, majburiyat tiklanadi.

**5. Fuqaroning vafot etishi bilan majburiyatning bekor bo'lishi.** Majburiyat ishtirokchisi bo'lgan fuqaro vafot etishi tufayli majburiyatlar barcha hollarda ham tugatilmaydi, chunki qonun bilan belgilangan ba'zi hollarda marhumning huquq va burchlari uning vorislariga o'tadi. Fuqaroning vafot etishi sababli majburiyatning bekor bo'lishi faqat majburiyat shaxsiy xususiyatga ega bo'lgan holatlarda yo'l qo'yiladi. Jumladan, merosni qabul qilgan voris meros qoldiruvchining qarzlari yuzasidan o'ziga o'tgan meros mulkining haqiqiy qiymati doirasida javobgar bo'ladi. Meros mulki vorislar bo'lmagani uchun davlatga o'tgan bo'lsa, davlat ham shu tartibda marhumning qarzlari uchun javob beradi.

Agar majburiyatni qarzdorning shaxsiy ishtirokisiz bajarish mumkin bo'lmasa yoki majburiyat boshqacha tarzda qarzdorning shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, qarzdor vafot etishi bilan bekor bo'ladi (FK, 351-modda). Jumladan, vakil vafot etsa, u tomondan olingan majburiyat ham bekor qilinadi, chunki vakillik shaxsiy ishonchga asoslanib belgilangan huquqiy munosabat hisoblanadi.

Agar majburiyatni bajarish shaxsan kreditor uchun mo'ljallangan yoki majburiyat boshqacha tarzda kreditorning shaxsi bilan bog'liq bo'lsa, kreditor vafot etishi bilan majburiyat bekor bo'ladi. Jumladan, sog'lig'iga shikast yetkazganligi tufayli zarar haqini olib turgan fuqaroning vafot etishi bilan unga nisbatan belgilangan majburiyatlar ham bekor bo'ladi va hokazo.

**6. Yuridik shaxsning tugatilishi bilan majburiyatning bekor bo'lishi.** (FKning, 352-moddasi). Yuridik shaxs bankrot bo'lgani sababli tugatilganda, uning majburiyatlari bekor bo'ladi. Ayrim majburiyatlar, masalan, yuridik shaxs fuqaroning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazgani uchun to'lovlar bo'yicha majburiyatda qarzdor bo'lsa, bekor bo'lmaydi. Bunda FKning 247-moddasiga va bankrotlik haqidagi qonunchilikka asosan tugatilayotgan yuridik shaxs mablag'lari kapitallashtirilib qo'yiladi va majburiyatning ijrosi boshqa shaxs zimmasiga yuklanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan usullar majburiyatni bekor qiladigan umumiy asoslar bo'lib, ba'zi hollarda majburiyatlar boshqa asoslarda ham bekor bo'lishi mumkin.

## **Tayanch iboralar:**

Majburiyatning bekor bo'lishi, majburiyatning bajarilishi bilan bekor bo'lishi, voz kechish haqi, hisobga o'tkazish, talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish, majburiyatning yangilanishi, qarzdin voz kechish, kreditor vafot etishi bilan majburiyatning bekor bo'lishi.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Majburiyat yangilanishi bilan uning bekor bo'lishi deganda nimani tushunasiz?

2. Qarzdin voz kechish bajarish mumkin bo'lmaganligi tufayli majburiyatning bekor bo'lishi tushunchasini tushuntirib bering.

3. Majburiyatning davlat organi hujjati asosida bekor bo'lishiga misol keltiring.

4. Fuqaro vafot etishi bilan majburiyatning bekor bo'lishi qanday huquqiy oqibatlarga olib keladi?

5. Yuridik shaxs tugatilishi bilan majburiyatning bekor bo'lishini mohiyatini ochib bering.

6. Majburiyatni bajarilganligini isbotlovchi qanday hujjatlarni bilasiz?

7. Hisobga o'tkazish deganda nimani tushunasiz?

8. Kreditorning qarzdin voz kechishi qanday huquqiy oqibatlarni vujudga keltiradi?

9. Dastlabki majburiyatni yangi majburiyat bilan almashtirishda nimalar bekor bo'ladi?

10. Majburiyatni qisman ijro etib bo'lmaslik deganda nimani tushunasiz?

## **XXVI bob. SHARTNOMA TO'G'RISIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR**

### **1-§. Shartnoma tushunchasi va uning ahamiyati**

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy vositalar ichida shartnomalar alohida o'rin egallaydi. Shartnomalar bir necha ming yillar davomida insoniyat tomonidan turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos moslashuvchan yuridik vositasi sifatida qo'llanib kelinmoqda.

Fuqarolik kodeksining 8-moddasi talabiga ko'ra, shartnomalar taraflar o'rtasida fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asoslaridan biridir. Shubhasiz, bugungi kunda shartnomalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Chunki shartnomalarda boshqa yuridik faktlarga qaraganda, taraflarning erki-irodasi to'la ifodalanadi.

Shartnomaga kirishuvchi shaxslar kim bilan, qachon shartnoma tuzishni u tufayli yetkazib berilishi lozim bo'lgan pul, tovar, ashyolarni qaysi muddatlarda, qanday transportlarda yetkazilishini, to'lov amaldagi qanday shakllarda bo'lishini mutlaqo o'zi mustaqil hal qiladilar. Ular shartnomalar tuzishda erkindirlar, shartnoma tuzishga majburlashga yo'l qo'yilmaydi.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, shartnomalar tuzishning erkinligi, undan taraflarning o'zaro manfaatdorligi, shartnomada shartnoma intizomining mustahkamligida ma'muriy buyruq-bozlikka asoslangan javobgarlikdan ko'ra, mulkiy javobgarlikning keng belgilanishi xo'jalik yurituvchi subyektlarni tabora ushbu huquqiy vositadan (shartnomadan) to'laroq foydalanishga jalb qilmoqda. Shartnomalarning ahamiyatini keng tushuntirish mumkin. Ammo ularning sarasi shartnomalar to'lov intizomini kuchaytiradi, taraflarning faoliyatini har tomonlama rag'batlantiradi, o'z navbatida, taraflarning mas'uliyatini oshiradi, xo'jalikning debitorlik va kreditorlik holatini yaxshilaydi, pirovardida taraflarning barqarorligini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida, jamiyatda tovarlar, xizmatlar va kapitallarning mo'l-ko'lligiga garovdir. Shu ma'noda, sohaning tezkor va ta'sirchan

huquqiy mexanizmini yaratish, shartnomalar tuzish va bajarishni ta'minlash maqsadida mamlakatimizda «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonun<sup>1</sup> qabul qilindi, shartnomalarni tuzish va bajarish monitoringi yuritilmoqda. Bular, o'z navbatida, tuzilgan shartnomalarni tezroq va realroq ishlashiga xizmat qilmoqda.

Shartnoma ikki yoki undan ortiq shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan o'zaro kelishuvdir.

### **Shartnoma atamasi uch ma'noda:**

- yuridik fakt;
- biron-bir yuridik faktga asoslangan moddiy yoki moddiy manfaatlar to'g'risidagi huquqiy munosabat;
- shaxslar (fuqarolar va tashkilotlar) nima to'g'risida o'zaro kelishsalar, shuni aks ettiruvchi, ifodalovchi hujjat ma'nosida ishlatiladi.

Bu yerda shartnoma o'zining birinchi ma'nosi – yuridik fakt sifatida ko'riladi va o'rganiladi. Unda yuridik faktlar mazmuni jihatidan ikki asosiy toifaga: yuridik hodisalar va harakatlarga bo'lingan edi. Yuridik harakatlar, o'z navbatida, huquq yo'l qo'ygan harakatlar sifatida bir tomonlama va ikki tomonlama bitimlar (shartnomalar) dan iboratligi ko'rsatilgan edi. Ikki tomonlama bitimlarning hammasi (oldi-sotdi, ijara, qarz va boshqalar) shartnoma hisoblanadi. Demak, shartnoma bitimning bir ko'rinishi hisoblanar ekan, unga nisbatan bitimga oid qoidalar, jumladan, FKning 9-bobidaga qoidalar tatbiq etiladi.

Shartnomadan kelib chiqqan majburiyatlarga, agar qonunlarda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, FKda belgilangan majburiyatlar haqidagi umumiy qoidalar (FKning 234–352-moddalari) qo'llaniladi.

Ikki va undan ortiq taraflar o'rtasida tuziladigan shartnomalarga ham agar bunday shartnomalar shartnomalarning

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi 670–I-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 9-son, 170-modda.

ko'p taraflamalik xususiyatiga zid bo'lmasa, shartnoma to'g'risidagi umumiy qoidalar qo'llaniladi. Shartnoma huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ammo shartnomaning harakati bu bilan cheklanmaydi.

Agar boshqa yuridik faktlar umumiy qoida bo'yicha huquqiy munosabatni vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish bilan tugallansa, shartnoma mazkur yuridik faktlardan farq qilib, huquqiy munosabatni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishdan tashqari, yana huquq normalari bilan belgilangan doiralarda huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning xatti-harakatlarini tartibga soladi, huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlarini belgilaydi.

Shartnoma bilan vujudga keltirilgan huquqiy munosabat davomida shartnoma taraflarning xatti-harakatlari qanchalik qonunga muvofiq bo'lgan-bo'lmaganligini ham tekshirish imkoniyatini beradi. Shartnoma tushunchasida asosiy belgi, asosiy shart taraflarning muayyan natijaga erishishga qaratilgan o'zaro kelishuvlaridir. Taraflarning har qaysisi tomonidan shartnoma bo'yicha olinadigan huquq va burchlar har xil bo'lsa ham, ular oqibatida yagona huquqiy natija beradi, masalan, biron-bir narsaga nisbatan egalik huquqi o'tkaziladi yoki biron-bir ashyodan foydalanish huquqi olinadi va hokazo.

Taraflarning kelishuvlari natijasida erishiladigan bevosita aniq natijani mazkur shartnoma tuzishda taraflarning o'z oldilariga qo'yilgan asosiy maqsaddan ajratish kerak. Masalan, metallurgiya zavodi mashinasozlik zavodi bilan muayyan miqdordagi, shart qilingan va markali po'latni yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzadi. Bu yerda taraflar o'zaro kelishuvlarining bevosita natijasi metallurgiya zavodi tomonidan mashinasozlik zavodiga shartnoma bilan belgilangan muddatlarda va muayyan shartlarga binoan ma'lum miqdorda po'lat yetkazib berish hisoblanadi. Shartnomaning maqsadi esa har ikki taraf uchun umumiy bo'lib, taraflarning har qaysisi shartnomaning barcha ko'rsatkichlarini bajarishdan, pirovardida foyda (daromad) olishdan iborat bo'ladi. Binobarin, har ikki

taraf ham shartnomani lozim darajada bajarishni o'zlarining burchlari deb biladilar.

Fuqarolik-huquqiy shartnoma, asosan, mulkiy munosabatlarni rasmiylashtirish uchun tuziladi. Ba'zi hollarda shartnoma shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlarni ham rasmiylashtiradi. Bu adabiyot, fan va san'at asarlarini yaratish sohasidagi ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan shartnomalar, Jumladan, nashriyot shartnomasi, sahna asari, kinossenariyalar va boshqa shartnomalar uchun xarakterlidir. Bunday shartnomalar taraflarning mulkiy huquqlari va burchlarini, jumladan, mualliflik haqi to'g'risidagi shartlarni, muddatlarni buzganlik uchun javobgarlikni belgilamay, balki shaxsiy-nomulkiy huquqlarni ham, masalan, muallif o'z asarida nomini ko'rsatib yoki anonim tarzda chiqarishi, asar matniga o'zgartirish kiritishga ruxsat berish-bermaslik singari nomulkiy huquqlarni ham belgilaydi.

## **2-§. Shartnomalarning turlari**

Shartnoma unda ishtirok etayotgan taraflar o'rtasida huquq va majburiyatlarning o'zaro taqsimlanishiga qarab bir tomonlama, ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalarga bo'linadi.

Bir tomonlama shartnomada ishtirok etayotgan taraflarning birida faqat huquq bo'lib, hech qanday majburiyat bo'lmaydi, ikkinchi tarafda esa faqat majburiyat bo'ladi. Masalan, qarz shartnomasida qarzdor olgan pul summasini o'z vaqtida qarz beruvchiga qarzga bergan pul summasini talab qilish huquqiga ega.

Ikki tomonlama shartnomada esa, har ikki taraf ham mustaqil huquq va majburiyatga ega bo'ladi. Bunday shartnomaga oldi-sotdi shartnomasini misol qilib keltirish mumkin. Bu shartnoma bo'yicha sotuvchi sotilgan ashyoning bahosini talab qilish huquqiga ega bo'lib, sotilgan ashyoni oluvchiga topshirishga majbur, oluvchi esa olayotgan ashyoning bahosini to'lashi zarur bo'lib, sotib olingan ashyoni talab qilib olishga haqli.

Fuqarolik muomalasida tuziladigan shartnomalarning ko'pchiligi ikki tomonlama, ya'ni yuqorida ko'rsatilgan oldi-sotdi

shartnomasidan tashqari mahsulot yetkazib berish, mulk ijarasi, pudrat va boshqa shartnomalardan iborat bo'ladi.

Ko'p tomonlama shartnomalar ham mavjud bo'lib, unda taraflar uch va undan ortiq bo'ladi. Bunday shartlarda bir paytning o'zida har bir tarafda muayyan huquq va majburiyatlar bo'lishi xarakterlidir. Masalan: oddiy shirkat, ta'sis shartnomalari va hokazolar.

Shartnomalar haq baravariga va tekinga tuziladigan shartnomalarga bo'linadi. Haq baravariga tuziladigan shartnomalar bir taraf topshirgan mulki, qilgan xizmati evaziga pul yoki mulk bilan haq oladi. Masalan, bir taraf vaqtinchalik foydalanish uchun mulkni ijaraga oluvchi undan foydalangani uchun ijara haqi to'lashga majbur bo'ladi. Bunday haq baravariga tuziladigan shartnomalarga oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, ayirboshlash, pudrat va boshqa ko'plab shartnomalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Agar qonunchilikda boshqacha qoida kelib chiqmasa, shartnomaning mazmuni mohiyatidan o'zgacha hol anglashilmasa, shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma deb hisoblanadi. Tekinga tuziladigan shartnomada esa bir taraf boshqa bir taraf foydasiga haq olmay, biron-bir mulkni topshirish, biron ishni bajarishi mumkin. Masalan, hadya shartnomasi bo'yicha mulk egasi o'z mulkini boshqa bir shaxsga tekinga beradi. Tekin foydalanish, foizsiz qarz shartnomalari ham bepul tuziladigan shartnomalarga kiradi.

Shartnomalar tuzilish paytiga va mazmuniga qarab konsensual va real shartnomalarga bo'linadi.

Konsensual shartnomalar huquq va majburiyatlar taraflarning kelishuvlari asosida qonun talab qilgan shaklda rasmiylashtirgan zahoti tuzilgan hisoblanadi. «Konsensual» so'zi lotincha «konsensus» so'zidan olingan bo'lib, «kelishuv» ma'nosini bildiradi. Konsensual shartnomaga misol qilib oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, pudrat, mulkni ijaraga berish kabi shartnomalarni ko'rsatsa bo'ladi. Fuqarolik huquqida aksariyat ko'pchilik shartnomalar konsensual shartnomalar guruhiga kiradi.



Real shartnomalar bo'yicha huquq va majburiyatlar taraflar o'zaro kelishgan va shartnoma narsasi ashyo yoki pul topshirilgan paytdan vujudga keladi. «Real» so'zi lotincha «res» so'zidan olingan bo'lib, «ashyo» ma'nosini bildiradi. Real shartnomaga misol qilib qarz, omonat, hadya, tekin foydalanish shartnomalarini ko'rsatish mumkin.

Uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar umumiy qoida bo'yicha shartnomadan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar shartnoma tuzishda qatnashgan taraflar uchun paydo bo'ladi. Ayrim hollarda shartnoma uchinchi shaxs foydasiga tuzilishi ham mumkin. Uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnomaga misol qilib sug'urta shartnomasini ko'rsatish mumkin. Uchinchi shaxs shartnomada alohida taraf hisoblanmaydi. Biroq FKning 362-moddasida ko'rsatilganidek, agar qonunchilikda yoki shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, uchinchi shaxs shartnoma bo'yicha o'z huquqidan foydalanish niyatini qarzdorga bildirgan paytdan boshlab taraflar o'zlari tuzgan shartnomani uchinchi shaxsning roziligisiz bekor qilishlari yoki o'zgartirishlari mumkin emas. Shartnoma tuzgan shaxs shartnomadan kelib chiqqan majburiyatning uchinchi shaxsga nisbatan bajarilishini shart qilgan bo'lsa, bu haqda shartnomada boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, majburiyatning bajarilishini shartnomani tuzgan shaxs ham, foydasiga majburiyatning bajarilishi ko'rsatilgan uchinchi shaxs ham talab qilishi mumkin.

Agar uchinchi shaxs o'ziga shartnoma bo'yicha berilgan huquqdan voz kechsa, shartnoma tuzgan shaxs, agar shartnomaning mazmuniga xilof kelmasa, bu huquqdan o'zi foydalanishi mumkin.

Shartnomalar, shuningdek, ommaviy shartnoma, qo'shilish shartnomasi va dastlabki shartnoma kabi turlarga ham bo'linadi.

Tashkilot tarafidan tuzilgan hamda uning bunday tashkilot o'z faoliyati xususiyatiga ko'ra o'ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirish shart bo'lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish sohasidagi vazifalarini (chakana savdo, jamoat transportida yo'lovchi tashish,

aloqa xizmati, elektr quvvati bilan ta'minlash, tibbiy xizmat, mehmonxona xizmati va boshqalarni) belgilab qo'yadigan shartnoma tuzishda bir shaxsni boshqa shaxsga nisbatan afzal ko'rishga haqli emas (qonunchilikda nazarda tutilgan hollardan tashqari).

Tovarlar, ishlar, xizmatlarning bahosi, shuningdek, ommaviy shartnomaning boshqa shartlari hamma iste'molchilar uchun bir xil qilib belgilanadi. Tashkilotning iste'molchiga tegishli tovarlarni berishi, xizmatlar ko'rsatishi, uning uchun tegishli ishlarini bajarish imkoniyati bo'la turib ommaviy shartnoma tuzishdan bosh tortishiga yo'l qo'yilmaydi. Tashkilot ommaviy shartnoma tuzishdan asossiz bosh tortganida xaridor (mijoz) uni sud orqali shartnoma tuzishga majbur qilish imkoniyatiga (FK, 358-modda) ega. Maishiy pudrat, yo'lovchi tashish, haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari ommaviy shartnomalardir.

Shartlarini taraflardan biri formulalar yoki boshqa standart shakllarda ta'riflagan hamda ikkinchi taraf faqat taklif qilingan shartnomaga butunlay qo'shilish yo'li bilan qabul qilishi mumkin bo'lgan shartnoma qo'shilish shartnomasi deyiladi. Bunday shartnomalarga misol qilib havo va temir yo'l transportida yuk va yo'lovchilar tashish shartnomalarini ko'rsatish mumkin. Odatda, bunday shartnomalar mazmuni hamma uchun deyarli bir xil bo'lib, oldindan belgilab qo'yiladi va binobarin, mijoz uning shartlarini boshqacha tuzishni taklif etish imkoniyatiga ega emas. Biroq qo'shilish shartnomasi mijozning o'z ixtiyori, erki va irodasi bilan shartnomaga qo'shilishini bildiradi. Bunday shartnomalarni aslo bir tomonlama bitim deb hisoblash mumkin emas. Qo'shilish shartnomasini bekor qilish yoki shartnomalarini o'zgartirish asoslari FKning 360-moddasida nazarda tutilgan.

Dastlabki shartnoma bo'yicha taraflar kelgusida mol-mulk berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish haqida dastlabki shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida shartnoma tuzish (asosiy shartnoma) majburiyatini oladilar.

Dastlabki shartnoma asosiy shartnoma uchun belgilangan shaklda, bordi-yu, asosiy shartnomaning shakli aniqlanmagan bo'lsa, yozma shaklda tuziladi. Dastlabki shartnomaning

shakli to'g'risidagi qoidalarga rioya qilmaslik uning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi. Dastlabki shartnomada asosiy shartnomaning narsasini, shuningdek, boshqa muhim shartlarini belgilab qo'yish imkonini beradigan shartlar bo'lishi kerak. Dastlabki shartnomada asosiy shartnomani tuzish muddati ko'rsatilgan bo'lishi lozim, agar ko'rsatilmagan bo'lsa, dastlabki shartnoma tuzilgan vaqtdan boshlab bir yil ichida tuzilishi shart (FK, 361-modda).

### **3-§. Shartnomaning mazmuni**

Shartnomaning mazmunini uning shartlari tashkil etadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, agar taraflar o'rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo'lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnoma shartlari muhim, odatdagi va tasodifiy shartlarga bo'linadi. Shartnomaning narsasi to'g'risidagi shartlar qonunchilikda bunday turdagi shartnomalar uchun muhim yoki zarur deb hisoblangan shartlar, shuningdek, taraflardan birining arizasiga ko'ra kelishib olinishi zarur bo'lgan hamma shartlar muhim shartlar hisoblanadi. Ba'zi shartnomalar uchun xos muhim bandlar qonun bilan belgilanadi. Jumladan, «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunning 10-moddasida, «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish; shuningdek, ularning bajarilish monitoringini olib borish tartibi to'g'risida»gi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-sentyabrdagi 383-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning II bandiga muvofiq, shartnomalarda quyidagilar ko'rsatiladi:

- shartnomaning predmeti;
- mahsulotning nomi;
- assortimenti;
- miqdori;
- sifati;
- narxi;

- shartnomaning umumiy summasi;
- tomonlarning huquq va majburiyatlari;
- mahsulotlarni yetkazib berish tartibi va shartlari;
- topshirish-qabul qilib olish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) punktlari va davrlari (muddatlari);
- idishga, markirovka qilishga, o'rash-joylashga qo'yiladigan talablar;
- hisob-kitoblar tartibi, shakli va muddatlari;
- tomonlarning to'lov, pochta va yuklab jo'natish rekvizitlari;
- shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi uchun tomonlarning mulkiy javobgarligi;
- nizolarni, fors-major holatlarni hal etish tartibi, tomonlarning rekvizitlari,
- shartnoma tuzilgan sana va joy.

Davlat ehtiyojlari uchun qishlok xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish yuzasidan tuziladigan kontraktatsiya shartnomalarida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan hamda xo'jaliklar ixtiyorida qoladigan mahsulotlarning sorti va miqdori ham ko'rsatiladi.

Odatdagi shartlar muayyan majburiyatga oid munosabatni tartibga soladigan dispozitiv normalar bilan belgilanadigan shartlar hisoblanadi. Bunday shartlar odatdagidek nazarda tutiladi. Masalan, mulk ijarasi shartnomasida mulkni mayda (joriy) ta'mirlash shart qilib ko'rsatilsa ham, ko'rsatilmasa ham bo'ladi, chunki bu shart to'g'risida qonunchilikda (dispozitiv xarakterdagi) ko'rsatma berilgan.

Tasodifiy shartlar umumiy huquq me'yorlari bilan tartibga solinmagan masalalar bo'yicha o'zaro kelishuv bo'lib ko'riladi, Jumladan, ijaraga olingan mulkni ta'mirlash muddati to'g'risidagi masala tasodifiy shartlardan biri hisoblanadi.

Shartnomada uning ayrim shartlari tegishli turdagi shartnomalar uchun ishlab chiqilgan namunaviy shartlar bilan belgilanishi nazarda tutilishi mumkin. Shartnomada namunaviy shartlarga havola qilinmagan hollarda bunday namunaviy shartlar taraflarning munosabatlariga ish muomalasi odatlari sifatida qo'llaniladi (FK, 359-modda).

#### 4-§. Shartnoma tuzish

Huquqiy munosabat taraflarining shartnomalarni tuzishda va tuziladigan shartnoma turini tanlashda erkin ekanligi qoidasi, birinchi navbatda, FKning 8-moddasida mustahkamlangan. Unga muvofiq, fuqarolik huquq va burchlari qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlardan, shuningdek, garchi qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa-da, lekin unga zid bo'lmagan shartnomalar va boshqa bitimlardan vujudga keladi. Shu sababli huquqiy munosabatga kirishayotgan taraflar shartnomalarning turlarini tanlashda va umuman shartnoma tuzish va shartnomaviy aloqalarga kirishish istagini bildirishda erkin hisoblanadilar.

Shartnomalar erkinligining mazmuni FKning 354-moddasida ifodalangan bo'lib, unga binoan, fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar.

Shartnomalar erkinligi tamoyilini quyidagi uchta holatni ajratib ko'rsatish orqali tushunish mumkin:

1) subyektning shartnoma bo'yicha o'z kontragenti, ya'ni shartnoma bo'yicha sherigini tanlash erkinligi;

2) shartnoma predmetini, ya'ni aynan qanday holat yuzasidan shartnoma tuzishni tanlash erkinligi;

3) shartnoma shartlarini tanlash erkinligi.

Ushbu uchta holatni amalga oshirishda subyektga hech qanday noqonuniy ta'sir o'tkazmaslik lozim bo'ladi<sup>1</sup>.

Shartnomalar erkinligi – bu qonunda to'g'ridan-to'g'ri mustahkamlangan fuqarolik huquqining boshlang'ich negizi bo'lib, u shartnoma munosabatlari subyektlari uchun shartnoma tuzish erkinligini, tuzilayotgan shartnoma turini tanlash erkinligini va uning shartlarini belgilash erkinligini o'rnatadi<sup>2</sup>.

Shartnoma erkinligi taraflarning shartnoma munosabatlariga kirishishiga doir haqiqiy istaklari va xohish-irodalari mavjud

---

<sup>1</sup> Zokirov I.B. Fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari haqida // «Fuqarolik qonunchiligining rivojlanishi va dolzarb muammolari» mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent: TDYuI, 2005. – B. 252.

<sup>2</sup> Тага А.Н. Принцип свободы договора в гражданском праве России. – Санкт-Петербург. Юридический центр Пресс. 2003. – С. 39.

bo'lishini taqozo etadi. Bunday xohish-iroda, birinchidan, shartnoma tuzishga doir harakatlarda, ikkinchidan, shartnoma shartlarini belgilashga doir harakatlarda, uchinchidan, shartnoma majburiyatlarini bajarishga doir harakatlarda namoyon bo'ladi<sup>1</sup>.

Shartnoma tuzishda shartnoma tuzish erkinligi shartnomaning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Shartnoma tuzish erkinligi bu fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z fuqarolik huquqlarini o'zlarining xohish-irodalariga va manfaatlariga muvofiq vujudga keltirish va amalga oshirish imkoniyatidir. Shartnomaning tuzilishi FKning 354-moddasida ko'rsatilganidek, agar taraflar o'rtasida shartnomaning barcha talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo'lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Shartnomaning umumiy tartibda tuzilishi ikki davr bilan belgilanadi.

Birinchi davr – shartnoma tuzishga taklif qilish davri bu oferta, shartnoma tuzishga taklif qiluvchi esa, offerent, deb ataladi.

Ikkinchi davr – shartnoma tuzish to'g'risidagi taklifni qabul qilish davri bu aksept, taklifni qabul qiluvchi akseptant deb aytiladi.

Shartnoma tuzishning umumiy tartibiga oid qoidalar FKning 364-381-moddalarida berilgan. Bu qoidalarda aytilishicha, agar shartnoma tuzish to'g'risidagi taklif (oferta) javob uchun muddat tayinlab qilingan bo'lsa, bu holda shartnoma ikkinchi taraf (akseptant) tomonidan taklifning qabul qilinganligi to'g'risidagi javob shu muddat ichida taklif qiluvchi (oferent) tomonidan olingan holdagina tuzilgan hisoblanadi. Oferta yo'llagan shaxs uning akseptini olgan paytdan shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnoma tuzilishi uchun taraflar o'zaro kelishuvining o'zigina kifoya emas. Bu kelishuv tegishli shaklda rasmiylashtirilgan bo'lishi shart. Shartnomalarning shakli FKning 366-moddasida belgilangan qoidalarga muvofiq bo'lishi shart. Unga asosan, agar qonunda muayyan turdagi shartnomalar uchun ma'lum bir shakl belgilab qo'yilmagan bo'lsa, shartnoma bitimlar tuzish uchun nazarda tutilgan har qanday shaklda tuzilishi mumkin.

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov H. Majburiyat huquqi (umumiy qism). Darslik. – T.: TDYuL. 2005 – B. 227.

Notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart bo'lgan shartnoma notarial tasdiqlangan yoki ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran, notarial tasdiqlanishi va ro'yxatdan o'tkazilishi zarur bo'lganda esa shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Agar taraflar shartnomani muayyan shaklda tuzishga kelishgan bo'lsalar, garchi qonunda bu turdagi shartnomalar uchun bunday shakl talab qilingan bo'lmasada, shartnoma belgilangan shaklga keltirilganidan keyin tuzilgan hisoblanadi.

Yozma shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo'li bilan, shuningdek, pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdin chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo'li bilan tuzilishi mumkin.

Shartnoma tuzish haqidagi taklif (oferta) akseptantga bildirilgunicha chaqirib olinishi mumkin. Biroq u akseptant tomonidan qabul qilib olingan bo'lsa, akseptlash uchun belgilangan muddat davomida chaqirib olinishi mumkin emas.

Oferta muayyan shaxsga ham, nomuayyan shaxslarga ham qaratilgan bo'lishi mumkin. Masalan, mahsulotni reklama qilish, o'z xizmatini taklif etib e'lon berish – nomuayyan shaxslar doirasida yo'llangan oferta hisoblanadi. Bunday ofertani, odatda, ommaviy oferta deb ham yuritiladi. Oferta yuborilgan shaxsning uni qabul qilganligi haqidagi javobi aksept hisoblanadi. Aksept to'liq va pisandasiz bo'lishi shart. Agar qonundan, ish muomalasi odatidan yoki taraflarning ish bo'yicha avvalgi munosabatlaridan boshqacha ma'no kelib chiqmasa, sukut saqlash aksept bo'lmaydi.

Agar shartnoma to'g'risidagi taklif (oferta) javob uchun muddat tayinlanmasdan, og'zaki ravishda qilingan bo'lsa, ikkinchi taraf (akseptant) bu taklifni qabul qilganligini darhol taklif qiluvchiga (oferentga) bildirgan holdagina shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Agar bunday taklif yozma ravishda qilingan bo'lsa, taklifni qabul qilganlik (aksept) to'g'risidagi javob uni olish uchun lozim bo'lgan normal vaqt davomida olingan taqdirdagina, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Agar shartnoma tuzishga rozi bo'lganlik to'g'risidagi kechiktirilib olingan javobdan uning o'z vaqtida yuborilganligi ma'lum bo'lsa, bu holda taklif qiluvchi shaxs (oferent javobning kechiktirilib olinganligi to'g'risida ikkinchi taraf (akseptant)ni darhol xabardor qilsagina javob kechiktirilgan hisoblanadi. Bu holda javob ayni paytda yangi taklif (oferta) hisoblanadi.

FKning 375-moddasida ko'rsatilganidek, ofertada taklif qilinganidan boshqacha shartlar asosida shartnoma tuzishga rozilik bildirish to'g'risidagi javob aksept hisoblanmaydi. Bunda javob akseptdan bosh tortish va ayni vaqtda yangi oferta hisoblanadi.

Odatda, shartnomada u tuzilgan joy ko'rsatib o'tilishi kerak. Agar shartnomada uning tuzilgan joyi ko'rsatilmagan bo'lsa, shartnoma oferta yo'llagan fuqaroning yashash joyida yoki yuridik shaxsning joylashgan yerida tuzilgan hisoblanadi (FK, 376-modda). Ayni paytda «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonunda belgilanishicha, kontraktatsiya shartnomalari qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtiruvchi joylashgan yerda tuziladi.

Yuqorida aytganimizdek, shartnomalar tuzishda taraflar erkindirlar. Binobarin, hech qaysi taraf shartnoma tuzishga majbur qilinmaydi. Biroq, ayrim hollarda majburiy shartnoma tuzilishi mumkin.

## **5-§. Shartnomani majburiy ravishda tuzish**

Ma'lumki, umumiy qoidaga ko'ra, shartnoma tuzishga majburlashga yo'l qo'yilmaydi. Bu umumiy qoidadan quyidagi holatlar istisno etiladi: Fuqarolik kodeksi yoki boshqa qonunda nazarda tutilgan bo'lsa yoxud majburiyat olingan bo'lsa<sup>1</sup>. FK 354-moddasining ikkinchi qismiga ko'ra, shartnoma tuzishga majbur qilishga yo'l qo'yilmaydi, shartnoma tuzish burchi ushbu Kodeksda, boshqa qonunda yoki olingan majburiyatda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. I jild. –T., «VEKTOR-RESS» 2010. – B. 782.



Xo'jalik yuritishning sotsialistik tizimi amal qilgan davrdagi qonunchilikka muvofiq, ko'pgina shartnomalarni tuzish majburiy hisoblangan. Davlat, kooperativ, jamoat tashkilotlari muayyan shartnomalarni tuzishlari shart edi. Bunday majburiyat, eng avvalo, reja topshiriqlar negizida yuzaga kelgan. Amaldagi fuqarolik qonunchiligida ham majburiy tartibda shartnoma tuzish nazarda tutilgan. Biroq avvalgi tizim qonunchiligi bilan hozirgi tizim qonunchiligi o'rtasida jiddiy farq bor. Majburiy tartibda shartnomalar tuzish qonunda belgilangan muayyan hollardagina sodir etilishi nazarda tutiladi<sup>1</sup>.

R. Kniper MDH davlatlari qonunchiligidagi majburiy tartibda shartnoma tuzishning ifodalanishi bo'yicha quyidagi fikrlarni bildiradi: FK shartnomalar erkinligi, shuningdek, shartnomalar tuzish erkinligini belgilash bilan birga asosli ravishda ushbu tamoyillarni cheklaydi va bunday cheklash birinchi navbatda ijtimoiy himoya va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. Ayni vaqtda ayrim davlatlar qonunchiligi: jumladan Gruziya va Moldova FKLari bozordagi ilg'or o'rinda bo'lgan korxonalariga va hayotiy muhim masalalarda shartnoma tuzishni majbur qilib belgilagan bo'lsa, MDHning boshqa davlatlari fuqarolik qonunchiligi MDHning modeli FK asosida majburiy tartibda shartnoma tuzish qoidalarini mustahkamlagan<sup>2</sup>.

Haqiqatdan ham, shartnomalar tuzish erkinligidan istisno sifatida belgilangan majburiy tartibda shartnoma tuzishning kiritilishi taraflardan biriga nisbatan yoki ikkalasiga nisbatan ham shartnoma tuzish majburligini belgilaydi. Shartnoma tuzish tartibining majburiyligi esa fuqarolik tashkiliy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi va bu munosabatlarning vujudga kelishi, ularning mazmuni va amalga oshirish shartlari FKda o'z ifodasini topgan.

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov H. Majburiyat huquqi (umumiy qism). Darslik. – T.: TDYuI. 2005 – B. 253.

<sup>2</sup> Книпер Р. Развитие гражданских кодексов в СНГ. / 10 лет Гражданскому кодексу Узбекистана опыт и перспективы развития. – Ташкент: KONSAUDITINFORM-NASHR, 2008. – С. 28.

Shartnoma tuzishning bunday tartibi qonun bo'yicha taraflardan biri uchun shartnoma tuzish majburiy bo'lganda, ya'ni majburiy shartnoma tuzilishi lozim bo'lganda qo'llaniladi<sup>1</sup>.

Majburiy tartibda shartnoma tuzishdagi tashkiliy-huquqiy munosabatlar, shartnoma loyihasini yuborish, uni qabul qilib olish va javob berish, shartnoma loyihasida ko'zda tutilgan shartlarni o'zgartirish tartibi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortish bilan bog'liq tashkiliy jarayonlar FKning 377-moddasida o'z ifodasini topgan. Mazkur moddaning birinchi qismiga binoan, ushbu Kodeksga yoki boshqa qonunlarga muvofiq, oferta (shartnoma loyihasi) yo'llagan taraf uchun shartnoma tuzish majburiy bo'lgan hollarda bu taraf oferta olingan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida boshqa tarafga aksept to'g'risida yoki akseptdan bosh tortishi to'g'risida yoxud ofertani boshqa shartlarda akseptlashi to'g'risida (shartnoma loyihasiga kelishmovchiliklar bayonnomasi) bildirish yo'llashi kerak.

Shartnoma tuzish oferta (shartnoma loyihasi) yo'llagan tomon uchun majburiy bo'lgan holatda, bu taraf o'ttiz kun ichida boshqa tarafga tegishli xabarnomani yuborishi shart. U quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

- aksept to'g'risidagi xabarnoma;
- akseptdan bosh tortish to'g'risidagi xabarnoma;
- aksept orqali ofertada taklif etilgan shartlardan boshqacha shartlar asosida tuzish talabini qo'yish. Biroq bunday xabarnoma FKning 375-moddasida keltirilgan qoidadan farqli o'laroq, aksept buzilganligini bildiradi. Bu holda shartnomaning imzolangan loyihasi bilan birga oferentga kelishmovchiliklar bayonnomasi ham qo'shib yuboriladi<sup>2</sup>.

Shu o'rinda FKning 375-moddasi va 377-moddasi qoidalari o'rtasida mantiqiy bog'liqlik mavjud emasligini aytib o'tish lozim. Chunki, FKning 375-moddasida «ofertada taklif qilinganidan boshqacha shartlar asosida shartnoma tuzishga rozilik bildirish

---

<sup>1</sup> Гражданское право. Т. 1. / Под.ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. – М.: Проспект, 2003. – С. 607.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. I jild. – Toshkent: «Vektor-Press» nashriyoti, 2010. – B. 782.

haqidagi javob aksept hisoblanmaydi. Bunday javob akseptdan bosh tortish va, ayni vaqtda, yangi oferta hisoblanadi» qoidasi belgilangan bo'lib, FKning 375-moddasida esa majburiy shartnoma tuzish bosqichi to'g'risidagi qoidalarni belgilaydigan 460-moddasi ikkinchi qismida kelishmovchiliklar bayonnomasi imzolangan shartnoma loyihasi bilan birga jo'natilishini nazarda tutadi va bunda taraflar ushbu loyihaga kiritilishi mumkin bo'lgan muayyan o'zgartirishlar bilan bog'liq tashkiliy masalani hal qiladilar. Qolaversa, FKning 375-moddasi odatdagi shartnoma tuzish bosqichiga oid qoidalarni nazarda tutadi, FKning 377-moddasi esa odatdagi shartnoma tuzish tartibidan istisno bo'lgan holat «majburiy tartibda shartnoma tuzish»ga nisbatan qoidalarni belgilaydi.

Ta'kidlash lozimki, majburiy tartibda shartnoma tuzish tashkiliy-huquqiy munosabatlar bo'lib, mulkiy tusga ega bo'lmaydi va bu munosabatlarning maqsadi kelajakda mulkiy tusdagi shartnomaviy aloqalarni yuzaga keltirish va shartnomani rasmiylashtirish hisoblanadi. Odatda, majburiy shartnoma tuzishning bunday tartibi barcha turdagi majburiy shartnomalar uchun qo'llanilmaydi va bunday tartib qo'llanilmaydigan majburiy shartnomalarda tashkiliy munosabatlar ham vujudga kelmaydi. Masalan, ommaviy shartnoma bo'lgan va doimiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sotuvchi bilan sotib oluvchi chakana oldi-sotdi shartnomasini tuzishda bunday tartibga muayyan ehtiyoj sezishmaydi. Chunki, chakana oldi-sotdi shartnomasini, garchi sotuvchi uchun tuzish majburiy bo'lsa-da, ko'pchilik vaziyatlarda tuzilishi bilan ijro etiladi va unda oferta yo'llash, akseptni o'ttiz kunlik muddat kutish va boshqa tashkiliy holatlar kuzatilmaydi. Shu sababli barcha turdagi «majburiy shartnomalar»ni majburiy tartibda shartnoma tuzish asosida rasmiylashtirilishi haqidagi va ularning majburiy tartibda tuziladigan shartnomalar jumlasiga kiritish ham noto'g'ri bo'lur edi. Chunki «majburiy tartibda shartnoma tuzish» va «majburiy shartnoma» bir-biridan farq qiluvchi huquqiy voqelik hisoblanadi va ularni bir-biridan alohida holda tahlil etish maqsadga muvofiq.

## **6-§. Kimoshdi savdosida shartnomalar tuzish**

Kim oshdi savdosida shartnomalarni tuzish alohida normalar bilan tartibga solinadi. Kim oshdi savdosini mulkning egasi yoki ixtisoslashgan tashkilot tomonidan o'tkaziladi. Bitta shaxs ishtirok etgan kim oshdi savdosi o'tkazilmagan hisoblanadi. Odatda, ko'pchilik taklif etilganlar ishtirok etib, kim oshdi savdosida g'olib chiqqan shaxs bilan shartnoma tuziladi. Kim oshdi savdosining shakli shu savdoni tashkil etgan shaxs tomonidan belgilanadi. Kim oshdi savdosi ikki usulda o'tkaziladi: auksion yoki tanlov. Ular ochiq yoki yopiq tarzda o'tkazilishi mumkin.

Kim oshdi savdosining davlat korxonalarini xususiylashtirish jarayonini ko'rib chiqsak.

Auksionni o'tkazish shaklini Davlat mulk qo'mitasi, uning hududiy boshqarmasi obyektini xususiylashtirish tadbirlari rejasida belgilaydi. Odatda, tugatilgan korxonalarining, kichik korxonalarining (200 dan kam kishi ishlaydigan) aktivlari, aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari sotilayotganda;

Odatda, o'rta va yirik korxonalar (200 dan ko'p kishi ishlaydigan), aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining paketlari sotilayotganda, yopiq tanlov asosida o'tkaziladi.

Ochiq auksion va tanlovda xohlagan shaxslar ishtirok etishlari mumkin bo'ladi, yopiq auksion va tanlovda esa aksincha, maxsus shu kim oshdi savdosiga taklif etilgan shaxslargina qatnasha oladilar.

Ochiq auksion quyidagi tartibda o'tkaziladi:

Auksionni sotuvchi tomonidan yollanadigan auksionchi o'tkazadi. Auksion auksionchining obyekt nomini e'lon qilishi, qisqacha ta'riflab berishi va dastlabki narxini aytishidan boshlanadi.

– auksionning ilk «qadami» dastlabki narxning 5 foizidan 15 foizigacha bo'lgan doirada boshlanadi. Kelishilgan doiradagi qadamni auksionchi belgilaydi, bu qadam auksionning butun davri bo'yicha saqlanib qoladi. Savdo jarayonida auksionchi narxni aytadi, xaridorlar esa obyektini shu narxda sotib olishga tayyor ekanliklarini chiptani ko'tarish bilan ma'lum qiladilar.

– savdo obyektining dastlabki narxi e'lon qilinadi. Navbatdagi narx e'lon qilingandan so'ng, auksionchi o'zining nazarida birinchi bo'lib ko'targan xaridor chiptasining nomerini aytadi. So'ngra auksionchi auksionning borishiga qarab navbatdagi narxni aytadi.

Obyektни ushbu narxga olishga tayyor xaridorlar bo'limganda, auksionchi bu narxni 3 marta takrorlaydi.

– navbatdagi narx 3 marta e'lon qilingandan keyin ham xaridorlardan hech kim chiptani ko'tarmasa, kim oshdi savdosi tugallanadi. Chipta nomeri auksionchi tomonidan eng oxirida aytilgan xaridor auksion g'olibi sanaladi.

Kim oshdi savdosi tugagach, auksionchi sotishga qo'yilgan obyekt sotilganligini e'lon qiladi, qanday narxda sotilganligini va g'olibning chipta nomerini aytadi.

– agar dastlabki narx 3 marta takrorlangandan so'ng ham xaridorlardan biron kishi chipta ko'tarmasa, auksion o'tmagan hisoblanadi va obyekt sotuvchiga qaytariladi.

Yopiq tanlov asosida auksion quyidagi tarzda o'tkaziladi:

– yopiq tenderni doimiy ishlaydigan tender (tanlov) komissiyasi o'tkazadi

– talabnomalarni qabul qilish muddati tugagach, tender komissiyasining qabul qilingan talabnomalar haqidagi bayon-nomasini tuzadi hamda u komissiya raisi va kotibi tomonidan imzolanadi.

Tenderda qatnashish uchun berilgan talabnomalarni yashirish, yakun chiqarayotganda, ularni hisobga olmaslik, amaldagi qonunchilikka muvofiq, ma'muriy javobgarlikka olib keladi.

Jarima tender komissiyasi raisiga solinadi, tender natijalari haqiqiy emas, deb topiladi. Qatnashchilarning narx haqidagi takliflari solingan konvertlarni ochish va yopiq tenderning uzil-kesil yakunlari talabnomalar qabul qilingan kundan boshlab 3 kundan kechikmasdan chiqariladi.

Yopiq tender muddati davomida jo'natilgan talabnomalargina hisobga olinadi. Eng yuqori narxni taklif etgan xaridor tanlov g'olibi hisoblanadi. Agar berilgan takliflar orasidan g'olibni

aniqlash qiyin bo'lsa, birinchi bo'lib yuborgan xaridor taklifi inobatga olinadi. Shunda ham aniqlash qiyin bo'lsa, qur'a tashlash orqali masalaga oydinlik kiritiladi.

Kim oshdi savdosini tashkillashtirgan shaxs ishtirokchilarni kamida 30 kun avval ogohlantirib, savdoning vaqti, joyi, o'tkazilish shakli, predmeti va uni o'tkazish tartibi, boshlang'ich narxi to'g'risida ma'lumot berilishi kerak. Kim oshdi shartnomasiga shartnoma tuzish huquqi qo'yilayotgan bo'lsa, bo'lajak kim oshdi savdosi to'g'risidagi xabarda bunga beriladigan muddat ko'rsatilishi kerak. Kim oshdi savdosining tashkilotchisi auksion o'tkazishdan xohlagan vaqtda, lekin u o'tkaziladigan kundan kamida 3 kun avval, tanlov o'tkaziladigan kundan kamida 30 kun oldin bosh tortishga haqli.

Agar mazkur qoidalarga zid ravishda bosh tortsa, kim oshdi savdosining ishtirokchilariga yetkazilgan haqiqiy zarar to'lanadi. Yopiq auksion va yopiq tanlov tashkilotchisi ishtirokchilarga xabar yuborilgandan so'ng necha kun o'tganligidan qat'i nazar bosh tortsa, ishtirokchilarga yetkazilgan real zarar to'lanishi shart bo'ladi. Kim oshdi savdosining qatnashchilari xabarda belgilangan miqdor va tartibda, muddatda zakalat to'laydilar. Mabodo, tanlov yoki auksion o'tkazilmasa, zakalat egalariga qaytarib beriladi.

Aksincha, kim oshdi savdosi o'tkazilsa, g'olibdan boshqa qatnashchilarga zakalat qaytarib beriladi. G'olib bo'lgan ishtirokchi to'lagan zakalati shartnoma majburiyatlarini qisman bajargan hisobiga o'tadi. Shu kuni g'olib chiqqan shaxs va kim oshdi savdosining tashkilotchi o'rtasida savdo natijalari to'g'risida bayonnoma imzolanadi Bu bayonnoma shartnoma kuchiga ega bo'lib, g'olib tomonidan shartnomani imzolashdan bosh tortilganda, zakalatni qaytarib olishdan mahrum bo'ladi va aksincha, tashkilotchi tomonidan bosh tortilganda, zakalat ikki baravar miqdorida, so'ngra unga yetkazilgan zararining zakalat pulidan ortiq bo'lgan qismini to'laydi.

Taraflar bu borada o'zaro kelisha olmasalar, quyidagi asoslar mavjud bo'lgandagina, sudga murojaat qilib, shartnomani o'zgartirishi yoki bekor qilishlari mumkin:

– shartnoma tuzish chog'ida bunday vaziyatning paydo bo'lishini bilmaganlarida;

– shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilishni talab qilayotgan shaxs yuzaga kelgan muammoni hal etib ko'rib, uddalay olmaganda;

– shartnoma shartlarini o'zgarishsiz qoldirgan taqdirda, taraflar olishi mumkin bo'lgan yoxud ko'zda tutilgan daromadlarni ololmay qolishlari;

– ish muomalasi odatlaridan yoki shartnomaning mohiyatidan vaziyatning o'zgarishi xavfiga manfaatdor taraf uchrashi kerakligi aniqlansa.

## **7-§. Ommaviy shartnoma**

Amaldagi fuqarolik kodeksining 358-moddasida «Tashkilot tomonidan tuzilgan hamda uning bunday tashkilot o'z faoliyati xususiyatiga ko'ra o'ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishi shart bo'lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish sohasidagi vazifalarini (chakana savdo, umumiy foydalanishdagi transportda yo'lovchi tashish, aloqa xizmati, energiya bilan ta'minlash, tibbiy xizmat, mehmonxona xizmati va sh.k.) belgilab qo'yadigan shartnoma ommaviy shartnoma deyiladi».

Tovarlar, ishlar va xizmatlarning bahosi, shuningdek ommaviy shartnomaning boshqa shartlari hamma iste'molchilar uchun bir xil qilib belgilanadi, qonunchilikda iste'molchilarning ayrim toifalari uchun imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yiladigan hollar bundan mustasno.

Tashkilotning iste'molchiga tegishli tovarlarni berish, xizmatlar ko'rsatish, uning uchun tegishli ishlarni bajarish imkoniyati bo'la turib, ommaviy shartnoma tuzishdan bosh tortishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tashkilot ommaviy shartnoma tuzishdan asossiz bosh tortganida FKning 377-moddasining oltinchi va yettinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalar qo'llaniladi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Hukumati ommaviy shartnomalarni tuzish va bajarishda taraflar uchun majburiy bo'lgan qoidalar (namunaviy shartnomalar, qoidalar va h.k.) chiqarishi mumkin.

Yuqoridagilardan shu narsa anglanadiki, mazkur shartnoma quyidagi hollarda o'zining ommaviy xususiyatiga ega hisoblanadi.

Birinchiidan, u faqat tijoratchi tashkilot tomonidan tuziladi.

Ikkinchiidan, mazkur tashkilotning tadbirkorlik faoliyati o'z xususiyatiga ko'ra ommaviy, ya'ni unga murojaat etgan har bir shaxsga nisbatan bo'lishi lozim. Masalan, chakana oldi-sotdi, umumiy foydalanishdagi transportda tashish, aloqa xizmati, meditsina xizmati, shuningdek, mehmonxona xizmatini ko'rsatib o'tish mumkin.

Fuqarolik kodeksida oldi-sotdi, prokat, maishiy pudrat, bank omonati shartnomasi (agar omonatchi fuqaro bo'lsa), shaxsiy sug'urta, umumiy foydalanishdagi tovar ombori tomonidan tuziladigan omborda omonat saqlash shartnomasi, transport tashkiloti yukxonasida saqlash shartnomasi ommaviy shartnoma, deb hisoblanishi ko'rsatib o'tilgan.

Ommaviy shartnomaning yana bir xususiyati mazkur shartnomaning maxsus subyekt tarkibiga egaligi: bir tomondan tijoratchi tashkilot qatnashsa, ikkinchi tarafda aksariyat holda fuqaro ishtirok etadi.

Ommaviy shartnomani tuzishda:

- 1) biron bir shaxsga afzallik berilishi mumkin emas;
- 2) barcha uchun tovar, ish va xizmat narxi bir xil bo'lishi kerak;
- 3) tashkilot tomonidan shartnoma tuzish rad etilishi mumkin emas;
- 4) asoslanmagan holda ommaviy shartnomani tuzishdan bosh tortilganda, mazkur tashkilotning majburiy ravishda shartnoma tuzishga va iste'molchi ko'rgan zararini qoplashni talab qilishi mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi Qonunining 7-moddasiga muvofiq, yo'lovchi tashish shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi va bunda yo'lovchi iste'molchi hisoblanadi<sup>1</sup>. Yo'lovchi tashuvchining xizmatidan foydalanuvchi shaxs sifatida iste'molchi maqomiga ega bo'lib,

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-apreldagi «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi 419-I-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1997-yil, 4-5-son, 124-modda.



umumiy foydalanishdagi transport xizmatidan foydalanganda, hamma vaqt ham shaxsiy maqsadlarda foydalanmasa-da, u iste'molchi sifatida harakat qiladi.

FKning 914-moddasiga ko'ra shaxsiy sug'urta shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblandi. Bunda jismoniy shaxs-sug'urtalanuvchi, o'zining hayoti va sog'ligini sug'urtalash huquqiga ega bo'ladi. Ushbu sug'urta turidan faqat jismoniy shaxs-inson foydalana oladi. Chunki faqat biologik shaxs bo'lmish insongina hayot kechiradi va sog'lig'iga qayg'uradi. Zero, shaxsiy sug'urta shartnomasida sug'urtalanuvchi ushbu xizmatdan foydalanuvchi iste'molchi maqomiga ega bo'ladi. Hozirgi kunda fuqarolar o'rtasida sug'urta munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi va sug'urtaga soliqning bir turi sifatida qarash oqibatida sug'urta shartnomalari va sug'urta xizmatiga kam murojaat etish holati kuzatilmoqda.

Amaldagi qonunchilik an'anaviy tarzda zaif taraf hisoblangan fuqaro – iste'molchi huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

Ommaviy shartnomaning huquqiy rejimi Fuqarolik kodeksi-ning 354-moddasida ko'rsatilgan «shartnoma erkinligi» tamoyiliga tayanuvchi umumiy qoidadan istisno holat hisoblanadi. Mazkur istisno holat fuqarolik huquqi negizida ommaviy huquqiy asoslar ham mavjud bo'lishi mumkinligini nazarda tutadi. «Ommaviy shartnoma» rejimi xususiy huquqiy negizni o'zida jamlagan va fuqarolik huquqini asosini tashkil etuvchi «shartnoma erkinligi» rejimiga qarama qarshi bo'lib hisoblanadi.

Fuqarolik huquqida xususiy ishlarga aralashishga yo'l qo'yilmasligi tamoyili amalda ba'zi hollarda «ommaviy manfaat» nuqtai nazaridan FKda istisno holatlar qo'llanadi. Masalan, FKning 333-moddasiga ko'ra majburiyatni qasddan buzganlik uchun javobgarlikni bartaraf qilish yoki cheklash to'g'risidagi avvaldan kelishilgan bitim, u tuzilgan paytdan boshlab haqiqiy emas, deb hisoblanadi. Bunday qoidaning belgilanishi huquqiy-tartibotni ta'minlash bilan ham bog'liq. Shunday bo'lsa-da, asosiy e'tibor zaif tomonni himoya qilish hisoblanadi.

## 8-§. Qo'shilish shartnomasi

Qo'shilish shartnomasining sharti hamisha shartnoma tuzishni taklif etayotgan shartnomaning bitta tarafidan avvaldan belgilab qo'yiladi. Bu shartlar formulyarlar yoki boshqa standart shakllarda ta'riflagan bo'lib, taklif etayotgan taraf qanday shartlar asosida shartnoma tuzmoqchi ekanligini aniq va bir ma'noda ifodalab berishi shart. Tipovoy va namunaviy shartnomalardan farqli o'laroq, bunday formulyarlar, boshqa standart shakllar davlat organlari tomonidan tasdiqlanishi talab etilmaydi.

Qo'shilish shartnomalari turli sohalarda keng tarqalgan. Bunday shartnomalarga misol tariqasida kommunal xizmatlardan foydalanish, aloqa, mehmonxonalar, transport xizmatlaridan foydalanish bitimlarini ko'rsatish mumkin.

Qo'shilish shartnomasining shartlari ikkinchi tarafdan yo to'lig'icha qabul qilinishi, yoki to'lig'icha rad etilishi mumkin, ya'ni unga nisbatan kelishmovchilik (e'tiroz) bayonnomasini tuzish yoxud e'tirozlarni boshqa shaklda izhor etib taqdim qilish mumkin emas. Taklif etilgan shartnomaga qo'shilish shartnomaning formulyarlar, boshqa standart shakllarda bayon etilgan barcha shartlarining qabul etilganligini bildiradi.

Shartnomaga qo'shilganlik uning shartlariga rozi bo'lgan taraf taklif etilgan shartnomani, formulyarni, boshqa standart shaklni imzolashi orqali bajargan konklyudent xatti-harakati (ya'ni tarafning huquqiy munosabatga kirishish to'g'risidagi xohish-irodasini og'zaki yoki yozma shaklda ifodalab emas, balki ana shunday maqsad mavjudligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin bo'lgan xatti-harakatlari bilan ifoda etish) orqali ifoda topadi.

FKning 360-moddasida qo'shilayotgan tarafning kimligiga bog'liq ravishda shartnomani bekor qilish yoki o'zgartirishni talab etishning turli imkoniyatlari belgilangan.

Agar bunday taraf jismoniy shaxs bo'lsa, yoki o'zining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan holda shartnoma tuzayotgan yuridik shaxs bo'lsa, ular shartnomaning bekor qilinishini yoki o'zgartirilishni quyidagi hollarda:

– agar qo‘shiluvchi tarafni odatda ana shunday turdagi shartnomalar asosida beriladigan huquqlardan mahrum etsa;

– ikkinchi tarafning majburiyatlarni buzganlik uchun formulyarni yoki boshqa standart shaklni tuzgan taraf javobgarligini istisno etsa yoki cheklasa (FKning 332-moddasi sharhiga qarang);

– shartnomada qo‘shilgan taraf uchun ochiqdan-ochiq og‘ir bo‘lgan boshqa shartlar mavjud bo‘lsa, talab etishlari mumkin.

Agar qo‘shilayotgan taraf jismoniy yoki yuridik shaxs bo‘lib, o‘zining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq ravishda shartnoma tuzayotgan bo‘lsa, ularning huquqlari birmuncha cheklangan. Ular shartnomani bekor qilishni yoki o‘zgartirishni shartnoma qanday shartlar asosida tuzilayotganligini bilmagan yoki bilishi lozim bo‘lmagan ekaligini isbotlagan taqdirda talab etishlari mumkin.

Ta’kidlash joizki, har qanday holda ham, har bir qo‘shilgan taraf agar shartnomaning shartlari qonunchilikka zid bo‘lsa, shartnomaning ayrim shartlarini yoki qo‘shilish shartnomasini butunlay haqiqiy emas deb e’tirof etilishini talab qilishga haqlidir<sup>1</sup>.

## **9-§. Dastlabki shartnoma**

Fuqarolik huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o‘zgarishi va bekor bo‘lishida yuridik faktlarning o‘ziga xos turi hisoblangan shartnomalar muhim o‘rin tutadi.

Dastlabki shartnoma tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi FKning 361-moddasida belgilangan bo‘lib, unga muvofiq, dastlabki shartnoma bo‘yicha taraflar kelgusida mol-mulk berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish haqida dastlabki shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida shartnoma tuzish (asosiy shartnoma) majburiyatini oladilar. Dastlabki shartnoma haqiqiy sanalishi uchun u asosiy shartnoma uchun belgilangan shaklda, bordi-yu, asosiy shartnomaning shakli aniqlanmagan bo‘lsa, yozma shaklda tuzilishi lozim.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. I jild. – Toshkent: «Vektor-Press» nashriyoti, 2010. – B. 760–761.

FKda dastlabki shartnomaga berilgan ta'rifdan anglashilishicha, dastlabki shartnoma agar asosiy shartnoma kelgusida mol-mulk berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutganda qo'llanilishini belgilash orqali uni qo'llash sohalarini cheklaydi. Boshqacha aytganda, dastlabki shartnoma faqat asosiy shartnoma majburiyat munosabatlarini vujudga keltirishga qaratilgan holda qo'llaniladi.

Umumiy qoidaga ko'ra, dastlabki shartnoma taraflarning muayyan shartnomaviy munosabatga kirishish istagi bor lekin shartnoma tuzishga tayyor bo'lmagan, biroq kelajakda shunday shartnoma tuzishdan manfaatdor bo'lgan sharoitdan kelib chiqadi. Shu munosabat bilan dastlabki shartnomani «vaziyat taqozosining natijasi» va «kontragentni yo'qotmaslik» hamda muayyan tovar (ish, xizmat) ni «qo'ldan chiqarmaslik» chorasi sifatida baholash mumkin.

Dastlabki shartnomalar yagona maqsadga qaratilganligi bilan o'zaro uzviy bog'liqdir. Ular ayni bir vaqtning o'zida vujudga kelmaydi va, shu bilan birga, birining paydo bo'lishi boshqasining paydo bo'lishiga bog'liq, ya'ni, dastlabki shartnoma asosiy shartnoma yuzaga kelishi uchun zamin bo'lib xizmat qiladi va o'z oldidagi vazifalarni bajarib bo'lganidan keyin o'zining amal qilishini to'xtatadi. Dastlabki shartnoma vositasida mulkiy tusga ega tashkiliy munosabatlar, asosiy shartnoma orqali esa, bevosita mulkiy munosabatlar tartibga solinadi<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, bugungi kunda dastlabki shartnoma bir qator fuqarolik huquqiy shartnomalarni tuzishda keng qo'llanilmoqda va asosiy shartnomadan oldin vujudga kelishi hamda huquq va majburiyatlarni belgilashi bilan ahamiyatlidir. Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish (sessiya), qarzni o'tkazish (delegatsiya), ko'chmas mulk garovi (ipoteka) da dastlabki shartnomalardan keng foydalanilmoqda.

Dastlabki shartnomani tuzishdan maqsad, kelgusida tuzilishi ko'zda tutilayotgan shartnoma (asosiy shartnoma) taraflari o'rtasidagi huquqiy munosabat (dastlabki majburiyat)ni

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov H. Majburiyat huquqi (umumiy qoidalar). – Toshkent: TDYuI, 2005. – 247 b.

belgilash zaruriyatidan, ya'ni asosiy shartnomani zudlik bilan tuzish imkoniyati mavjud emasligidan kelib chiqadi. Birinchi navbatda bu holat o'zining xarakteriga ko'ra real bo'lgan asosiy shartnomalar (renta, yuk tashish, qarz, omonat saqlash shartnomalari) ni tuzishdagi dastlabki shartnomalarga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, agar doimiy renta oluvchining qo'lida doimiy renta to'lovlari asosida renta to'lovchiga berilishi lozim bo'lgan mol-mulk mavjud bo'lmasa, biroq muayyan muddatdan so'ng u mazkur mol-mulkni qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'lganida, renta to'lovchi o'z manfaatlarini renta oluvchi bilan dastlabki doimiy renta shartnomasini tuzish yo'li bilan kafolatlashi va shu orqali uning muayyan mol-mulkni topshirish va doimiy renta shartnomasini tuzish bo'yicha xohish istagini rasmiylashtirib qo'yishi mumkin.

Shu bilan birga, dastlabki shartnomaning zaruriyati davlat ro'yxatidan o'tkazilishi talab qilinadigan asosiy shartnomalar uy-joylarni oldi-sotdisi (FKning 481-moddasi), ko'chmas mulkni hadya qilish (FK 504-moddaning to'rtinchi qismi), mulkiy majmua sifatida korxonani sotish yoki ijaraga berish (FKning 490, 580-moddalari), bino va inshootni bir yildan kam bo'lmagan muddatga ijaraga berish (574-moddaning uchinchi qismi) shartnomalari, davlat ro'yxatidan o'tkazish talab qilinadigan bitim bo'yicha talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish (FK 320-moddasining ikkinchi qismi) ni tuzishda ham namoyon bo'ladi.

Ko'rsatib o'tilgan holatlarda dastlabki shartnomaning tuzilishi fuqarolik muomalasining quyidagi talabidan kelib chiqadi: FK 366-moddasining ikkinchi qismiga ko'ra, notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart bo'lgan shartnoma notarial tasdiqlangan yoki ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran, notarial tasdiqlanishi va ro'yxatdan o'tkazilishi zarur bo'lganda esa – shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Mazkur turdagi shartnomalar asosida vujudga keladigan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun esa tegishli mol-mulkka nisbatan huquqni begilovchi hujjatni ko'rsatish talab etiladi, biroq bunday hujjatni har doim

ham taqdim etish imkoni bo'lmaydi (masalan, merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma meros ochilgan kundan e'tiboran olti oy o'tganidan keyin beriladi (FK 1146-moddasining ikkinchi qismi), qurilishi tugallanmagan bino ko'chmas mulk sifatida buyurtmachi mazkur bino rasmiylashtirilgandan so'nggina mulk huquqiga ega bo'ladi). Shu sababli davlat ro'yxatidan o'tkazilishi talab qilinadigan asosiy shartnomani tuzishning yagona kafolati bu darhol dastlabki shartnoma tuzish hisoblanadi.

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, konsensual xarakterga ega bo'lgan, biroq davlat ro'yxatidan o'tkazilishi talab qilinmaydigan shartnomalarni tuzishda ham dastlabki shartnomadan foydalanish qonunchilikda taqiqlanmagan. Biroq bu holatda tuzilishi lozim bo'lgan dastlabki shartnoma qonunchilikda belgilangan talablarga amal qilib tuzilishi lozim bo'ladi. Masalan, bunday turdagi dastlabki shartnomalarga O'zbekiston Respublikasining «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi qonunida keltirilgan forvard bitimlarni kiritish mumkin. Unga ko'ra, forvard bitimlar – real tovarni yetkazib berish muddati kechiktirilgan holdagi oldi-sotdi bitimlaridir. Bunday holda dastlabki shartnomaning predmeti bo'lib, kelgusida ishtirokchilar o'rtasida asosiy aktivni muayyan to'lov evaziga topshirish to'g'risidagi shartnoma tuzish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi FK 361-moddasining uchinchi qismiga ko'ra, dastlabki shartnomada asosiy shartnomaning narsasini, shuningdek, boshqa muhim shartlarini belgilab qo'yish imkonini beradigan shartlar bo'lishi kerak. Bu shartlarning hammasi forvard shartnomalari tuzilayotgan paytda kelishib olinishi mumkin. Birja yoki boshqa vositachi yordamida forvard shartnomasini tuzish bunday vaziyatni bartaraf etishni chora-tadbirlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bunda tomonlar bitim bo'yicha kafolat oladilar, chunki forvard shartnomalar bo'yicha birja savdosi qoidalari bitimlarning ushbu turi qat'iy sharhini beradigan va bitimni ikki xil ma'noda yoki uni garov sifatida sharhlash ehtimolligini istisno etuvchi bosh kelishuv deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, tomonlar birjaning hisob-kitob palatasiga shartnoma bajarilishini ta'minlash maqsadida ma'lum bir pul mablag'larini o'tkazishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, real shartnomalarni tuzishga qaratilgan dastlabki shartnoma buzilishi oqibatida vujudga kelgan zarar, konsensual xarakterdagi shartnomalarni tuzishga qaratilgan dastlabki shartnoma bo'yicha zararlarga qaraganda yuqoriroq bo'ladi.

Umumiy qoidaga ko'ra, dastlabki shartnoma ikki tomonlama tusga ega hisoblanadi. Biroq ayrim yuridik adabiyotlarda dastlabki shartnoma faqat bir tomonlama bo'lishi ko'rsatilgan bo'lsa<sup>1</sup>, ayrim adabiyotlarda dastlabki shartnoma mazmuniga ko'ra ikki tomonlama bo'lishi ham mumkinligi e'tirof etilgan<sup>2</sup>. Dastlabki shartnomaga FK 361-moddasining birinchi qismida berilgan ta'rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur shartnoma konsensual va tekinga tuziladigan shartnomalar jumlasiga kiradi. Binobarin, dastlabki shartnoma yuzasidan taraflarning asosiy shartnoma tuzish bo'yicha majburiyatlari shartnoma tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Shartnoma yuzasidan taraflar olgan majburiyatlari yuzasidan haq to'lash majburiyatini olmaydilar va bu o'rinda ularning majburiyatlari teng deb e'tirof etiladi.

Dastlabki shartnomaning predmetini taraflar kelgusida mol-mulk berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish haqida shartnoma (asosiy shartnoma) tuzish bo'yicha harakatlari tashkil qiladi.

FK 361-moddasining to'rtinchi qismiga ko'ra, dastlabki shartnomada taraflar qancha muddatda asosiy shartnomani tuzish majburiyatini olishi ko'rsatiladi.

Dastlabki shartnoma muddatini bir yil qilib belgilash FKdagi an'anaviy tusga ega bo'lgan holatdan kelib chiqadi. Binobarin, ishonchnomada ham muddat ko'rsatilmagan bo'lsa u berilgan kundan boshlab bir yil amal qilishi belgilangan (FKning 139-moddasi), prokat shartnomasining muddati ham bir yil bo'lishi ko'rsatilgan (FKning 559-moddasi). Albatta bu o'rinda

---

<sup>1</sup> Годэмэ Е. Общая теория обязательства// Учен. турды ВИЮН. Вып. 13. – М.: 1948. – 281 с.

<sup>2</sup> Новицкий И.Б., Лунц Л.А. Общее учение об обязательствах. – М.: Госюриздат. 1950. – 26 с.

tarafilar o'zaro kelishib dastlabki shartnomada uning amal qilishi bir yildan ko'p bo'lishi mumkinligini ham belgilashlari mumkin. Masalan, uy-joy qurilishini boshlagan yuridik shaxs fuqaro bilan dastlabki shartnoma tuzib, ikki yildan keyin uy-joy qurilishi yakunlanishi va shundan so'ng uy-joyi oldi-sotdi shartnomasi tuzilishi mumkinligini belgilab qo'yishi mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, dastlabki shartnomada tarafilar asosiy shartnomaning narsasi va boshqa muhim shartlarni belgilab olishlari lozim. Shu o'rinda tovar, ish yoki xizmatning bahosini belgilamaslik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligiga ham to'xtab o'tish lozim. FK 356-moddasining to'rtinchi qismiga ko'ra, haq to'lashni nazarda tutadigan shartnomada baho nazarda tutilmagan va shartnoma shartlari bo'yicha belgilanishi mumkin bo'lmagan hollarda shartnomani bajarganlik uchun o'xshash vaziyatlarda, odatda, shunday tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun olinadigan baho bo'yicha haq to'lanishi kerak. Ko'rinib turibdiki, dastlabki shartnomada tovar, ish yoki xizmatning bahosi belgilanmagan bo'lsa ham, u tuzilgan deb hisoblanadi va baho yuqoridagi qoida asosida aniqlanadi.

Dastlabki shartnomani tuzgan taraf uchun asosiy shartnomani tuzish majburiy hisoblanadi va uni tuzishdan bosh tortgan taqdirda, ikkinchi taraf uni shartnoma tuzishga majbur qilish talabi bilan sudga murojaat qilishga haqli. Shartnoma tuzishdan asossiz bo'yin tovlayotgan taraf shu tufayli yetkazilgan zararlarni boshqa tarafga to'lashi kerak.

Agar tarafilar asosiy shartnomani tuzishlari lozim bo'lgan muddatning oxirigacha u tuzilmasa yoki tarafilarning birontasi ham ikkinchi tarafga ana shunday shartnoma tuzish haqida taklif yubormasa, dastlabki shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bekor bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida dastlabki shartnomalarni tuzish sxemasi xorijiy davlatlar, jumladan, Germaniya, Fransiya va Angliya davlatlaridan deyarli farq qilmaydi.

Germaniya qonunchiligida dastlabki shartnomalar institutiga lozim darajada e'tibor qaratilmagan, ammo ayrim maxsus qonunchilik hujjatlarida dastlabki shartnomalar qo'llanilishi



e'tirof etilgan. Masalan; «Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida»gi qonunda dastlabki shartnomalar tuzishga yo'l qo'yilishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unga asosan ishtirokchilar kelajakda jamiyatni tashkil etish bo'yicha ta'sis shartnomasini tuzish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar.

Sud amaliyotida dastlabki shartnomalarga doir qoidalarni qo'llashda Federal sud taraflar tomonidan kelgusida asosiy shartnomani tuzish majburiyati olingan kelishuvni tushunadi.

Germaniya fuqarolik muomalasi amaliyotida dastlabki shartnomalar ikkiga ajratiladi; oddiy dastlabki shartnomalar yoki niyatlar to'g'risidagi shartnomalar, ammo ular taraflar o'rtasida majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi balki kelgusida dastlabki shartnomalarni tuzish maqsadini ko'zlaydi.

Fransiya fuqarolik huquqida ham dastlabki shartnomalarni tuzishga e'tibor berilgan. Fransuz sivilist olimi Jyulio de la Morandyer ta'kidlaganidek, agar bir taraf ikkinchi taraf oldida kelgusida shartnoma tuzish majburiyatini olsa, bu dastlabki shartnoma hisoblanadi<sup>1</sup>.

Fransiya qonunchiligi dastlabki shartnomalarni tuzishning turli shakllarini nazarda tutadi, masalan bu bir tomonlama shartnoma (bu yerda bir tomonda majburiyat bo'ladi) yoki ikki tomonlama dastlabki shartnoma (har ikki taraf bir biriga nisbatan shartnoma tuzitish majburiyatini oladi) bo'lishi mumkin.

Dastlabki shartnomalarning u yoki bu turini tuzish uchun Fransiya qonunchiligi aniq belgilangan talablarni qo'llashi mumkin. Masalan hadyani amalga oshirish uchun berilgan va'da notarial shaklda tasdiqlangan akt bo'lganda haqiqiy hisoblanadi.

Angliya fuqarolik huquqida tugallanmagan shartnomalar instituti mavjud. Bu toifadagi shartnomalarni dastlabki shartnomalar bilan tenglashtirib bo'lmaydi, chunki bu davlatning shartnoma huquqi kelajakda biror bir kelushuvga erishish xususidagi kelishuvni shartnoma sifatida e'tirof etmaydi. Ammo taraflar o'rtasida niyatlar yoki ahdnomalar yuzasidan shartnoma tuzish yoki tuzmaslik borasida nizo kelib chiqsa bunda sud qarori yoki pretsedent mavjudligiga e'tibor qaratiladi.

---

<sup>1</sup> Морандьер Ж. Гражданское право Франции. М., 1960. С. 218 – 220.

## **10-§. Uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar**

Uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar umumiy qoida bo'yicha shartnomadan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar shartnoma tuzishda qatnashgan taraflar uchun paydo bo'ladi. Ayrim hollarda, shartnoma uchinchi shaxs foydasiga qaratib ham tuzilishi mumkin. Uchinchi shaxs foydasiga qaratib tuzilgan shartnomaga misol qilib, sug'urta shartnomasini ko'rsatish mumkin. Uchinchi shaxs shartnomada alohida taraf bo'lib hisoblanmaydi. Biroq FKning 362-moddasida ko'rsatilganidek: «Taraflar qarzdor ijroni kreditorga emas, balki shartnomada ko'rsatilgan yoki ko'rsatilmagan, qarzdordan majburiyatni o'z foydasiga bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'lgan uchinchi shaxs foydasiga bajarishga majbur» – deb belgilab qo'yilgan shartnoma-uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnoma deyiladi.

Agar qonunchilikda yoki shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, uchinchi shaxs shartnoma bo'yicha o'z huquqlardan foydalanish niyatini qarzdorga bildirgan paytdan boshlab, taraflar o'zlari tuzgan shartnomani uchinchi shaxsning roziligisiz bekor qilishlari yoki o'zgartirishlari mumkin emas.

Qarzdor kreditorga qarshi qo'yishi mumkin bo'lgan e'tirozlarni shartnomada uchinchi shaxsning talablariga qarshi qo'yishga haqli.

Uchinchi shaxs shartnoma bo'yicha o'ziga berilgan huquqlardan foydalanishdan voz kechgan taqdirda, basharti qonunchilik va shartnomaga zid bo'lmasa, kreditor bu huquqdan foydalanishi mumkin.

Shartnoma tuzgan shaxs shartnomadan kelib chiqqan majburiyatning uchinchi shaxsga nisbatan bajarilishini shart qilgan bo'lsa, bu haqda shartnomada boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, majburiyatning bajarilishini shartnoma tuzgan shaxs ham, foydasiga majburiyatning bajarilishi ko'rsatilgan uchinchi shaxs ham talab qilishi mumkin. Agar uchinchi shaxs o'ziga shartnoma bo'yicha berilgan huquqdan voz kechsa, shartnoma

tuzgan shaxs, agar shartnomaning mazmuniga xilof kelmasa, bu huquqdan o'zi foydalanishi mumkin. Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasining mohiyati shundaki, u bo'yicha mijoz moliya agentidan mijozning mahsulot berish, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatishdan kelib chiqadigan talab huquqlarini xaridorga taqdim etish evaziga pul mablag'larini berishdan iborat. Masalan, tovar yetkazib beruvchi pul talabnomasiga ega bo'la turib, pul mablag'lari yo'qligi yoki yetishmasligi uchun qiyin ahvolga tushib qoladi. Pul mablag'lari muayyan mulkiy qiymatga ega bo'lib, bozor qiymatiga, so'mning xarid qobiliyatiga ham ega.

Moliya agenti (bank) kreditorga uchinchi shaxsning unga tegishli qarzini bu qarzdordan tegishli pul mablag'larini to'lash muddati yetib kelgan vaqtda undirib olish evaziga to'lashga tayyordir.

Kreditorning pul talablari moliya agentligining boshqa kreditor bilan tadbirkorlik bitimi predmeti bo'lishi ham mumkin, bunda kreditor mijoz vazifasini o'taydi. Moliya agenti bo'sh pul mablag'lariga ega bo'lib, kreditorga to'lov berib, tegishli moddiy mukofot oladi.

Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasi kreditor huquqlarining boshqa shaxsga o'tishi to'g'risidagi xo'jalik shartnomasi bilan ko'p jihatdan umumiy tomonlarga ega. FK 749-moddasining birinchi qismida pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasi bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafga shu mijozning uchinchi shaxsga (qarzdorga) tovarlar berishdan, uning ishlarini bajarishdan yoki unga xizmatlar ko'rsatishdan kelib chiqadigan pul talabnomasi hisobidan pul mablag'larini beradi yoki berish majburiyatini oladi, mijoz esa moliya agentiga ushbu pul talabnomasini beradi yoki berish majburiyatini oladi».

Ushbu ta'rifdan shunday xulosa chiqarish kerakki, pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga

moliyalash shartnomasi ikki tarafdin va haq evaziga amalga oshiriladi. U real ham (moliya agenti pul o'tkazadi yoki mijoz to'lov muddati yetib kelgan pul talabnomasidan voz kechadi), shuningdek, konsensual ham (agent pul mablag'larini o'tkazish majburiyatini oladi yoki mijoz to'lov muddati yetib kelgan talabnomadan voz kechish, ya'ni kelgusi qarzlarni olish huquqini o'tkazish majburiyatini oladi) bo'lishi mumkin.

Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasi shakli talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish shakli haqidagi qoidalar bilan (FK 320-modda) belgilanadi. U oddiy yozma yoki notarial shaklda tuzilgan bitimga asoslangan talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish shaklida amalga oshirilishi kerak. Davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qiladigan bitim bo'yicha talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish ushbu bitimning ro'yxatga olish uchun belgilab qo'yilgan tartibida ro'yxatga olinishi kerak. Orderli qimmatli qog'oz bo'yicha talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish ushbu qimmatli qog'ozga indossament (talab qilish huquqini o'tkazish yozuvi) yo'li bilan amalga oshiriladi.

Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasi mazmuni tomonlarning huquq va majburiyatlaridan iborat.

Moliya agentining asosiy majburiyatlari quyidagilardir:

a) shartnoma bahosi bo'lgan pul mablag'larini mijozga berish;  
b) shartnomada ko'zda tutilgan alohida hollarda mijoz operatsiyalarining buxgalterlik hisobini yuritish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni mijozdan qabul qilish;

v) mijozga voz kechish predmeti bo'lgan pul talabnomalari bilan bog'liq boshqa moliyaviy xizmatlar ko'rsatish.

Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasi bo'yicha qo'shimcha moliyaviy xizmatlar ko'rsatish, tomonlar o'rtasidagi munosabatlar kredit berish evaziga talabnomadan bir marta voz kechishdan iborat bo'lib qolmaydigan hollarda maqsadga muvofiqdir. Tomonlar shartnomada moliya agentining boshqa majburiyatlarini ham ko'zda tutishlari mumkin.

Mijozning asosiy majburiyatlari shartnoma predmeti bo'lgan pul talabnomasidan moliya agenti foydasiga voz kechishdan iboratdir. Mijoz boshqa shaxs foydasiga voz kechish predmeti bo'lgan pul talabnomasining haqiqiyliги uchun moliya agenti oldida javobgar bo'ladi (FK 752-moddasining birinchi qismi).

Berilayotgan talabnomaning haqiqiyliги ikkita shartga bog'liq:

1) Mijoz talabnomadan boshqa shaxs foydasiga voz kechish paytida pul talabnomasini berish huquqiga ega bo'lishi kerak;

2) Huquqni mijozga berish vaqtida qarzdor bu huquqni bajarmaslikka haqli bo'ladigan vaziyatlar unga ma'lum bo'lmasliги kerak (FK 752-moddasining ikkinchi qismi).

Moliya agenti o'z foydasiga voz kechish predmeti bo'lgan talabnomani ijroga taqdim etganda, qarzdor bu talabnomani bajarmaganliги yoki lozim darajada bajarmaganliги uchun mijoz javobgar bo'lmaydi. Uning vazifasi huquqiy talabnomani berishdan iborat. Agar shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, talabnomaning bajarilishi uchun mijoz kafolat bermaydi. Ko'rinib turibdiki, mijozning moliya agenti oldidagi javobgarliги talabnomadan boshqa shaxs foydasiga voz kechgan kreditorning javobgarliгiga o'xshash tartibda belgilanadi (FKning 321-modda).

Mijozdan pul talabnomasini olgan moliya agenti uning tezroq qondirilishidan manfaatdordir, u qarzdor muddatni cho'zish va boshqa imtiyozlar berilishiga rozi bo'lmasliги mumkin.

## **11-§. Tashkiliy shartnomalar**

Fuqarolik-huquqiy shartnomalar ikki turga, ya'ni mulkiy va tashkiliy shartnomalarga bo'linadi.

Tashkiliy shartnomalar fuqarolik huquqidagi shartnomalarning alohida turi bo'lib, o'z ichiga turli shartnomalarni oladi. Tashkiliy shartnomalar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra murakkab kelishuvdir. Tashkiliy shartnomalar asosiy mulk bilan bog'liq shartnomalarga yordamchi, qo'shimcha shartnoma deb ham e'tirof etiladi. Shu bilan bir qatorda, tashkiliy shartnomalar tijorat faoliyatida subyektlar o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy

munosabatlarda mustaqil funksiya bajarishiga asoslangan holda, mulk bilan bog'liq shartnomalardan alohida ko'rsatilishi mumkin.

Tashkiliy shartnomalarning mulk bilan bog'liq bo'lgan shartnomalardan ajratilishi lozimligi haqidagi fikrni birinchi bo'lib sivilist olim O.A. Krasavchikov ilgari surgan.

Mulkiy va tashkiliy shartnomalar o'rtasidagi farqlar ularning bir qator xususiyatlarida, jumladan, shartnoma predmeti va shartnoma ishtirokchilarining kelishilgan maqsadlarida namoyon bo'ladi. Tashkiliy shartnomalarning predmeti – subyektlar o'rtasida tuziluvchi bir martalik, alohida shartnomalarda ko'zda tutiluvchi ma'lum faoliyat bilan bog'liq bo'lgan umumiy shartlarni aniqlash bo'lishi mumkin. Yuridik shaxslarni, yuridik shaxslar uyushmalarini, masalan, holdinglarni tashkil etish haqidagi shartnomalar tashkiliy xarakterga ega.

Tashkiliy-huquqiy shartnomalar ikki yoki undan ortiq taraflarning kelajakda mulkiy majburiyatlar kelib chiqishini va majburlashni tartibga solishga yo'naltirilgan jarayonni belgilovchi hamda ma'lum faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan va ularni ijro etishning umumiy shartlarini belgilab beruvchi tadbirlar to'g'risidagi kelishuvidir.

Tashkiliy-huquqiy shartnoma keyingi shartnomalarni tuzuvchi taraflar uchun reglament vazifasini bajaradi. Tashkiliy-huquqiy shartnomalar uzoq muddatga tuzilgan va muddatsiz xarakterga ega bo'ladi. Faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda, ular bir yillik yoki qisqa muddatli bo'lishi mumkin. Tashkiliy-huquqiy shartnoma taraflarning faoliyati doirasidagi barcha alohida majburiyatlarning bajarilishi va amalga oshirilishi talablarni belgilaydi. Tashkiliy-huquqiy shartnomalarning yuqorida aytib o'tilgan funksiyasi shartnoma ishtirokchilarining uzoq muddatli munosabatlarini tashkil qilish va bir me'yorda ushlab turishda ifodalanadi.

Tashkiliy shartnomalarning quyidagi turlarini alohida ko'rsatish mumkin:

- ta'sis shartnomalari;
- dastlabki shartnomalar;
- birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomalar;

- tashishni tashkil etish to'g'risidagi shartnomalar;
- turli transport tashkilotlari o'rtasida tuziladigan yuk tashish bilan bog'liq shartnomalar;
- majburiy tartibda tuziladigan shartnomalar va hokozolar.

Tashkiliy shartnomalarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunday shartnomalar tadbirkorlar faoliyati yoki boshqa faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlarini o'zida aks ettiradi. Subyektlar tashkiliy-huquqiy shartnoma asosida keyinchalik mulkiy shartnomalarni tuzishlari kerak bo'ladi. Masalan, tashkiliy xarakterda bo'lgan yuk tashish bo'yicha tuzilgan yillik shartnomada umumiy hajm va ishlarning bajarilishi shartlari belgilangan bo'ladi. Shu shartnoma asosida, avtotransport tashkilotlari har bir partiya yukni tashish bo'yicha mijozlar bilan mulkiy shartnoma tuzadilar.

Tashkiliy-huquqiy shartnomalar ichida eng keng tarqalgan shartnoma bu, fuqarolar va boshqa subyektlar o'rtasida tuziladigan yuridik shaxslarni, jumladan: xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarini tashkil etish to'g'risidagi ta'sis shartnomalaridir.

Ta'sis shartnomalariga xo'jalik shirkatlarini, xo'jalik jamiyatlarini, qo'shma korxonalarini hamda yuridik shaxslarning uyushmalari, assotsiatsiyalari va boshqa birlashmalarni tashkil etish haqidagi shartnomalar kiradi.

Ta'sis shartnomalari yozma shaklda tuzilishi shart. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tartibi to'g'risida»gi Nizomda<sup>1</sup> yuridik shaxslar bir necha muassis tomonidan tashkil etilganda, ta'sis shartnomasi notarial guvohlantirilishi shartligi va nihoyat ushbu Nizomda ta'sis shartnomalari davlat ro'yxatidan o'tishi ham belgilab qo'yilgan.

Demak, ta'sis shartnomalari:

- birinchidan, yozma tuziladi;
- ikkinchidan, notarial guvohlantirilgan bo'lishi lozim;
- uchinchidan, davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to'plami, 2004.

Ta'xis shartnomalari shakli guvohlantirilganda yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilganda, shartnoma shartlarining qonunga muvofiqligi, shartnoma taraflarining shaxsi va shartnoma mazmunini muassislar erki-irodasiga muvofiqligi tekshiriladi.

Ta'xis shartnomalari loyihalari muassislarning o'zlari tomonidan, shuningdek, shartnoma asosida savdo-sanoat palatasi huzuridagi axborot va maslahat markazlari, boshqa konsalting firmalari yoki boshqa shaxslar (advokatlar, huquqshunos-maslahatchilar) tomonidan ishlab chiqilishi mumkin.

Ta'xis shartnomalarini yozma ravishda tuzishda muayyan o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Shartnoma shartlarini kelishib olish bosqichida elektron aloqa vositalaridan foydalanib ish ko'rish mumkin. Biroq shartnomani imzolash bosqichida taraflar hozir bo'lish tartibida ish ko'rishlari shart. Albatta, elektron – raqamli imzolarning qo'llanishi mumkin, biroq baribir notarial guvohlantirilishi bosqichida taraflar shaxsan hozir bo'lishlari shart. Shu sababli ham, ta'xis shartnomalarini imzolash bosqichini taraflar shaxsan hozir bo'lish tartibida o'tkazishlari maqsadga muvofiqdir. Ta'xis shartnomalari ro'yxatdan o'tkazish uchun vakolatli davlat idorasiga taqdim etilganda, hujjatlar muassislar tomonidan shaxsan taqdim etilishi ham, pochta orqali yuborilishi ham mumkin. Biroq davlat ro'yxatidan o'tganlik yoxud o'tmaganlik to'g'risida qarorni qanday tartibda berish to'g'risida nizomda ko'rsatilmagan. Amaliyotda vakolatli davlat organi pochta, telefon orqali ta'xis shartnomasi ro'yxatdan o'tganligi yoki ro'yxatdan o'tkazish rad etilganligi to'g'risida muassislarga xabar qiladilar. Ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qaror pochta orqali yuborilishi mumkin. Ta'xis shartnomasi asosida tashkil etilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektni davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma muassislarga shaxsan tilxat orqali topshirilishi lozim.

Ta'xis shartnomasining tili to'g'risidagi masala ham muayyan ahamiyatga ega. Ta'xis shartnomasi ushbu shartnoma asosida tashkil etiladigan korxonaga qaysi davlat hududida faoliyat yuritishiga qarab, o'sha mamlakatning davlat tilida tuzilishi lozim. Binobarin, agarda ta'xis shartnomasi bo'yicha O'zbekiston



Respublikasi hududida faoliyat yuritadigan yuridik shaxs tashkil etiladigan bo'lsa, ta'sis shartnomasini davlat tili – o'zbek tilida bo'lishi shart.

Ayni vaqtda, ta'sis shartnomalarini bir vaqtning o'zida bir necha tilda ham tuzish mumkin. Qo'shma korxonalar tashkil etish bo'yicha ta'sis shartnomalari chet el investori ro'yxatdan o'tgan davlat tilida ham tuzilishi mumkin. Ushbu holatda quyidagilarga qat'iy rioya qilish lozim:

1) Shartnoma, albatta, o'zbek tilida tuzilgan bo'lishi;

2) Turli tillarda tuzilgan ta'sis shartnomalari mazmunan bir xil bo'lishi, autentik (bir xil yuridik) kuchga ega bo'lishi shart.

Ta'sis shartnomalarini tuzishda faqat yozma shaklga amal qilishni ta'kidlash bilan birga, bu o'rinda na og'zaki kelishuvni, sukut – indamaslikni va na konklyudent harakatni shartnoma tuzish usuli sifatida qo'llash mumkin emasligini, hech qachon unutmash lozim. Ta'sis shartnomalari shartlarini shakllantirish bilan bog'liq yana bir muammo, bu ta'sis shartnomasi va ustav o'rtasida muayyan farqlar mavjudligiga amaliyotda e'tibor berilmaganligi hisoblanadi. FKning 43-moddasida yuridik shaxs ustavi bilan ta'sis shartnomasini ta'sir doiralari va shartlari aniq belgilab qo'yilgan.

Har qanday shartnomalar kabi ta'sis shartnomalari ham Fuqarolik kodeksining shartnomalarni bekor qilish, o'zgartirish, haqiqiy emas deb topish bo'yicha umumiy qoidalariga bo'ysunadi. Ta'sis shartnomasi shartlarini o'zgartirish taraflarning o'zaro kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi.

Ta'sis shartnomasini bekor qilish asoslari doirasi kengroqdir. Ta'sis shartnomasi taraflarning o'zaro kelishuvi asosida, muassislardan birining talabi bilan sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Ta'sis shartnomasi tashkiliy huquqiy shartnoma sifatida muassislar tomonidan tijorat, notijorat yuridik shaxsni yoxud yuridik shaxslar uyushmasini tuzish, davlat ro'yxatidan o'tkazish, ustav fondini shakllantirish, faoliyatni tashkil etish va uni boshqarishda qatnashish bo'yicha o'zaro hamkorlik qilish to'g'risidagi kelishuvdir.

## 12-§. Shartnomalarni o'zgartirish va bekor qilish

Umumiy qoida bo'yicha, shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Shartnoma qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuv ham shunday shaklda tuziladi. Bir so'z bilan aytganda, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuv birlamchi shartnoma bilan uzviy bog'langan shartnoma hisoblanadi.

Shartnoma o'zgartirish deb, uning shartlariga o'zgartirishlar, qo'shimchalar va tuzatishlar kiritish hisoblanadi. Bekor qilish – muddatidan oldin, ya'ni shartnoma amal qilishining belgilangan muddatdan oldin tugashidir.

Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tomonlarning kelishuvi bo'yicha yoki tomonlardan birining talabiga ko'ra sud tartibida amalga oshiriladi.

Tomonlarning kelishuvi bilan shartnomani o'zgartirish va bekor qilish. Bunday kelishuv – xuddi shartnoma singari, chunki fuqarolik huquqlar va majburiyatlarni o'zgartirish yoki bekor qilishga yo'nalgan bo'lib, shunga muvofiq ravishda, unga nisbatan shartnoma to'g'risidagi barcha talablar joriy etiladi. Shuning uchun, shartnoma bunday tarzda o'zgartirilishi va bekor qilinishi yuqori darajada tomonlarning manfaatlariga javob beradi. Biroq qonun yoki shartnomaning o'zi bilan ushbu usulning qo'llanilishi cheklangan bo'lishi mumkin. Masalan, FK 362-moddasiga muvofiq, uchinchi shaxs tomonidan qarzdorga shartnoma bo'yicha o'zining uchinchi shaxs foydasiga bo'lgan huquqdan foydalanishi istagi haqida xabar bergan paytdan boshlab, uchinchi shaxsning roziligisiz tomonlar o'zlari tomondan tuzilgan shartnomani bekor qilishlari yoki o'zgartirishlari mumkin emas.

Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish jarayoni boshqa shaxslarning qonun bilan himoyalangan huquqlari va manfaatlarini buzishi mumkin emasligini hisobga olgan holda, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuv, uchinchi shaxsning da'vosi bo'yicha, agar u uning huquqlari

va qonuniy manfaatlarini buzsa, yoxud qonunga zid bo'lsa, sud tomonidan haqiqiy emas deb tan olinishi mumkin.

Tomonlardan birining talabiga ko'ra sud tartibida shartnomani o'zgartirish va bekor qilish. Shartnomaning bunday tarzda o'zgartirish va bekor qilish, faqat boshqa tomonning shartnomani jiddiy ravishda buzgan hollarda va qonun yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Taraflardan birining shartnomani buzishi ikkinchi tarafga u shartnoma tuzishga umid qilishga haqli bo'lgan narsadan ko'p darajada mahrum bo'ladigan qilib zarar yetkazishi shartnomani jiddiy buzish hisoblanadi. Bir taraf shartnoma bajarishda to'la yoki qisman bosh tortib, qonun yoxud taraflarning kelishuvida bunga yo'l qo'ysa, shartnoma tegishlicha bekor qilingan va o'zgartirilgan hisoblanadi.

Qonun vaziyat jiddiy o'zgarishi munosabati bilan shartnomani o'zgartirish va bekor qilishga ham yo'l qo'yadi. Shartnoma tuzishda taraflar uchun asos bo'lgan vaziyatning jiddiy o'zgarishi, agar boshqacha tartib shartnomada nazarda tutilmagan bo'lsa yoki uning mohiyatidan anglashilmasa, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo'ladi. Vaziyatni taraflar oldindan ko'ra olganlarida shartnoma umuman tuzmasliklari yoki ancha farq qiladigan shartlar bilan tuzishlari, mumkin bo'lgan darajada o'zgartirishi jiddiy o'zgarish hisoblanadi.

Agar taraflar shartnomani jiddiy o'zgargan vaziyatga muvofiqlashtirish yoki uni bekor qilish haqida o'zaro kelisha olmagan bo'lsalar, shartnoma manfaatdor tarafning talabi bilan FKning 383-moddasida ko'rsatilgan shartlar mavjud bo'lgan hollarda shartnoma sud tomonidan bekor qilinishi mumkin. Basharti, qonunchilikdan, shartnoma yoki ish muomalasi odatlaridan boshqacha tartib kelib chiqmasa, shartnoma qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuv ham shunday shaklda tuziladi. Bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdin rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda ko'rsatilgan yoxud qonunda yoinki shartnomada belgilangan

muddatda, bunday muddat bo'lmaganida esa o'ttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

Agar qonunda yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib belgilab qo'yilmagan bo'lsa, taraflar shartnoma o'zgartirilguncha yoki bekor qilinguncha majburiyat bo'yicha o'zlari bajargan narsalarni qaytarib berishni talab qilishga haqli emaslar.

### **13-§. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilishning oqibatlari**

Umumiy qoidaga ko'ra shartnoma o'zgartirilganida taraflarning majburiyatlari o'zgartirilgan holda saqlanib qoladi. Shartnoma bekor qilinganida taraflarning majburiyatlari bekor bo'ladi.

Shartnoma o'zgartirilgan yoki bekor qilingan taqdirda, agar kelishuvdan yoki shartnomani o'zgartirish xususiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, taraflar shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilishga kelishgan paytdan boshlab, shartnoma sud tartibida o'zgartirilgan yoki bekor qilinganida esa – sudning shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi qarori qonuniy kuchga kirgan paytdan boshlab majburiyatlar o'zgartirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

Shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish asoslariga qarab, shartnomaning o'zgartirish yoki bekor qilish oqibatlari boshlanishining turli muddatlari belgilangan. Masalan, umumiy qoidaga ko'ra, taraflarning kelishuvi mavjudligida (FK 382-moddaning birinchi qismi), bunday kelishuv tuzilgandan paytdan boshlab majburiyatlar o'zgartirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi. Shu bilan birga, tomonlar kelishuvida, kelishuv tuzilgan paytdan emas, balki aniq vaqt o'tgandan keyin (masalan, 30 kundan keyin) shartnoma o'zgartirilgani yoki bekor qilingani nazarda tutilishi mumkin. Bunda shartnoma majburiyatlari ham o'zgartirilgan deb hisoblanishi mumkin emas, agar o'zgartirishlar xususiyatidan bunday mazmun bevosita kelib chiqmasa. Masalan, bir yildan kam bo'lmagan muddatga tuzilgan bino va inshootlar ijara shartnomasiga kiritilgan o'zgarishlari, shartnomani o'zgartirish to'g'ridagi kelishuvni tuz-

ish paytidan qat'i nazar, shu o'zgartirishlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish paytidan boshlab kuchga kiradi.

Shartnoma sud qarori bilan o'zgartirilganda yoki bekor qilinganda (FK 382-moddasi ikkinchi qismi), sud qarori kuchga kirgan paytidan boshlab, shartnoma majburiyatlari o'zgartirilgan yoki bekor qilingan deb hisoblanadi.

Agar qonunda yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, taraflar shartnoma o'zgartirilgan yoki bekor qilingandan keyin tomonlar ular tomonidan majburiyat bo'yicha bajarilgan narsalarni qaytarib berishni talab qilishga haqli emaslar. Lekin qonun yoki tomonlar kelishuvi bilan bu qoidadan chetga chiqish mumkin. Xususan, «Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 18-moddasiga muvofiq, iste'molchi maqbul sifatli nooziq-ovqat tovarini xarid qilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida ushbu tovar sotib olingan joydagi sotuvchidan uni ayni shunday tovarga almashtirib olishga, bunday tovar sotuvda bo'lmasa, pulini qaytarib olishga haqli. Yoxud, FK 413-moddasiga ko'ra, agar sotuvchi oqilona muddatda sotib oluvchining tovarni butlash to'g'risidagi talabini bajarmasa, sotib oluvchi o'z ixtiyoriga ko'ra oldi-sotdi shartnomasini bajarishdan bosh tortishga va tovar uchun to'langan pul summasini qaytarib berishni talab qilishga haqli.

Agar shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilishga taraflardan birining shartnomani jiddiy ravishda buzishi natijasida ikkinchi taraf, odatda, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilinishini talab qilishga majbur, natijada u zarar ko'radi, shuningdek, foydani qo'ldan boy beradi. Bunday hollarda, zarar keltirilgan tomon shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilinishi bilan bir vaqtda zararlar qoplanishini talab qilishga haqlidir.

### **Tayanch iboralar:**

Shartnoma, shartnoma predmeti, shartnomani shartlari, shartnomani o'zgartirish, shartnomani bekor qilish, aksept, oferta, mulkiy shartnomalar, tashkiliy shartnomalar, ommaviy shartnomalar, dastlabki shartnomalar, qo'shilish shartnomasi,

uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar, majburiy shartnoma, majburiy tartibda shartnoma tuzish.

### **Mulohaza yuritish uchun savollar va masalalar:**

1. Dastlabki shartnomaga ta'rif bering.
2. Qo'shilish shartnomasiga misol keltiring.
3. Ko'p tomonlama shartnoma deb qanday shartnomaga aytiladi?
4. Shartnomalar qaysi hollarda bekor qilinadi?
5. Bir tomonlama shartnoma deb qanday shartnomaga aytiladi?
6. Notarial tasdiqlanishi zarur bo'lgan shartnomalarga qanday shartnomalar kiradi?
7. Shartnomalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish deganda nimani tushunasiz?
8. Shartnomaning matnini shakllantirish nimalarda namoyon bo'ladi?
9. Oferta tushunchasi nima?
10. Oferta shartlariga nimalar kiradi?

## VAZIYATLI MASALALAR

1. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida to'lov kontrakt asosida tahsil oluvchi talaba Mahmudov mazkur universitetda bo'lib o'tayotgan basketbol turnirida o'z fakulteti sharafini himoya qilayotgan paytda qattiq tan jarohati oldi.

**Ushbu o'rinda talaba bilan universitet ma'muriyati o'rtasida qanday munosabatlar vujudga keladi? Ushbu masalani hal qiling.**

2. Toshkent shahar Chilonzor hokimligiga qarashli oshxonalar tresti fermerlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi A. Saidovga trest bilan go'sht yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzishni taklif qildi. A. Saidov esa bunday shartnoma tuza olmasligini, ya'ni u xuddi shunday shartnomani «Ixlos» firmasi bilan tuzganligini aytadi. Lekin trest ma'muriyati hokimlikka aytib, A. Saidovga ijaraga berilgan yerni oldirib uni fermerlar ro'yxatidan chiqarish qudratiga ega ekanligi bilan qo'rqitadi.

**Ushbu muammoni hal qiling.**

3. Fuqaroligi bo'lmagan D. ismli shaxs fuqaro Saidovning ekinzoridan o'z mashinasini haydab o'tdi va Saidovga moddiy zarar yetkazdi. Sudda D. ismli shaxsni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan javobgarlikka tortishmoqchi bo'lganda u o'zini O'zbekiston Respublikasi fuqarosi emasligi sababli o'zini O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi bilan javobgarlikka tortish mumkin emasligini aytadi.

**Ushbu masalaning yechimini toping. D. ismli shaxsning talabi to'g'rimi?**

4. Otalaridan qolgan merosni bo'lishda uch aka-ukalar kelisha olmay sudga murojaat qilishdi. Sudda ularning katta akasi o'z so'zida otasidan qolgan barcha mol-mulk o'ziga tegishli ekanligini, ularning oilasidagi an'anaga ko'ra meros faqat to'ng'ich o'g'ilga berilishini aytdi.

**Akaning gaplarini sud inobatga oladimi? Masalani odat huquqi normalariga asosan hal qiling.**

5. Fuqaro Kamolov 2015-yil 25-dekabrda fuqaro Sobirovga «Talaba» kichik korxonasini 45 000 000 so'mga sotadi. Shartnoma notarial tasdiqlangach, Fuqaro Kamolov fuqaro Sobirovga shartnoma bo'yicha mulk huquqini Fuqarolik kodeksining 490-moddasi talablariga asosan davlat ro'yxatidan o'tkazish lozimligini aytsa-da, fuqaro Sobirov bunga e'tiborsiz qaraydi.

**Ushbu vaziyatda fuqarolik huquq va burchlari vujudga keladimi yoki yo'qmi? Sizing fikringiz qanday?**

6. Magazindan palto xarid qilgan iste'molchi Zokirov magazinchi tomonidan o'ziga belgilangan sifat va artikuldagi mol topshirilmaganligini bildi. Bo'lib o'tgan ushbu fuqarolik huquqiy munosabatda fuqaro Zokirovga tovar cheki berilgan edi.

**Ushbu holat bo'yicha fuqaro Zokirov o'zining buzilgan huquqini bevosita o'zi himoya qilishi mumkinmi? Fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullarini sharhlang.**

7. Mirobod tumani hokimligi tomonidan 16 yoshli Sobirov tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotganligi sababli to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilingan edi. Sobirov fuqaro Asomov bilan ko'chmas mulk oldi-sotdisi to'g'risida shartnoma tuzdi va notariusdan shartnomani rasmiylashtirishni so'raganda, notarius Sobirovni muomala layoqati yoshiga yetmagan deb hisoblab, shartnomani rasmiylashtirishdan bosh tortdi. Sobirov notariusning xatti-harakatlari ustidan sudga murojaat qildi.

**Shikoyat bo'yicha sud qanday qaror chiqarishi lozim? Emansipatsiya tushunchasining mohiyatini ochib bering.**

8. 15 yoshli fuqaro Nosirov «Universitet» nashriyotida mehnat shartnomasi bo'yicha xat tashuvchi bo'lib ishlaydi. Nosirov



o'zining oylik maoshini to'plab 400 000 so'mga magnitofon sotib oldi. Nosirovning ota-onasi magazinga magnitofonni qaytarib berib, 400 000 so'm pulni qaytarilishini talab qilishdi, bunga asos qilib farzandlarini voyaga yetmaganligini ko'rsatishdi.

### **Masalani hal qiling.**

9. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabalarining to'lov shartnomasi hisobiga tadbirkorlik faoliyatini olib bormoqchi va universitet mablag'larini shu tariqa oshirmoqchi bo'ladi. Mablag'larni tadbirkorlikka yo'naltirish to'g'risidagi bu masala universitetning ilmiy kengashida muhokama qilinib ijobiy hal qilinadi. Universitet 100 000 000 so'mlik mablag'iga avtomashina sotib olish va uni ijaraga berishni ma'qul ko'radilar. Avtomashina ijarasidan tushgan mablag' universitetni joriy ta'mirlash, kompyuter, kserokopiya, konditsionerlar olishga sarflanadi. Yilning oxirida universitet sarf-xarajatlari Davlat mulk qo'mitasi tomonidan taftish qilinganda, universitetning talabalar kontraktlari hisobidan tadbirkorlik olib borishga haqqi yo'qligini, shu sababli olingan barcha mol-mulklar davlat hisobiga o'tkazilishi lozimligi to'g'risida qaror chiqardi va universitetni sudga berdi.

### **Bu masala bo'yicha sud qanday qaror chiqaradi?**

10. «Navro'z» aksiyadorlik jamiyati aksiyadori Rasulov o'z qo'lida AJ aksiyalarining 30 foizini to'pladi va AJning boshqa aksiyadorlarining aksiyalarini sotib olishga harakat qilib, ularga yuqori narxlar taklif qildi. Bu holatga «Navro'z» AJ muassislari va rahbarlari ham befarq qarab turishmadi, ular bundan buyon har bir aksiyador o'z aksiyalarini AJ umumiy yig'ilishining roziligisiz sotishi mumkin emas deb qaror chiqarishdi.

### **Chiqarilgan qaror qonuniymi? AJning turlari va ulardagi aksiyalar to'g'risida fikr bildiring.**

11. Zamon talablariga javob beradigan Toshkent – Samarqand shaharlari yo'nalishi bo'yicha avtomagistral yo'li qurilishi munosabati bilan loyihalashtirilayotgan yo'l yoqalaridagi

fuqarolarning uylari va xo'jaliklar joylashgan yer uchastkalarini olishga to'g'ri keldi. Davlat buning evaziga ushbu mol-mulkning qiymatiga teng keladigan boshqa mol-mulklarni taklif qildi va ayrim fuqarolarga topshirdi. Lekin ayrim fuqarolar bunga ko'nishmadi.

**Mazkur masala bo'yicha davlat organining qarori ustidan manfaatdor shaxslar sudga murojaat qilishlari mumkinmi? Fuqarolik munosabatlarida davlat ishtirokining huquqiy maqomi qanday?**

12. Huquqiy bazaning mustahkamligi, iqtisodiy salohiyatning mavjudligi davlatga chet el investitsiyasi kirib kelishining asosiy omillaridir. O'zbekiston Respublikasining «Mulchilik to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi, «Xalqaro shartnomalar to'g'risida»gi, «Konvensiyalar to'g'risida»gi qonunlariga binoan, chet el sarmoyasining mamlakatimizda erkin aylanib yurishi va qaytib chiqib ketishi uchun davlat asosiy kafil hisoblanadi.

O'zaro shartnoma bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi tomoni majburiyatlarni bajarmasa yoki lozim darajada bajarmasa fuqarolik huquqiy javobgarlik masalasi qanday hal qilinadi?

**Davlat immuniteti nima? Nima uchun xalqaro huquq normalari milliy huquq tizimidan ustuvor sanaladi?**

13. Fuqaro Avazov eng oxirgi nusxadagi kompyuter markasini terib berishni, buning uchun 1 000 000 so'm bahoda haq to'lashini aytib, kompyuter teruvchi ustaga murojaat etadi. Usta u aytgan muddatda va kelishilgan bahoga mos kompyuterni terib Fuqaro Avazovga eltib beradi. Lekin fuqaro Avazov ushbu kompyuterda printer yo'qligi va u kompyuterning tarkibiy qismi ekanligi, shu tufayli u, albatta, kompyuterning bahosi ichiga kiritilganligini aytadi.

**Ushbu masala qanday hal qilinadi? Kompyuter ashyolarni tasniflashga ko'ra qaysi turga kiradi? Fuqaro Avazovning e'tirozi to'g'rimi?**

14. Opa-singil Mahmudovalarni mahalla xotin-qizlar yig'inida mahalla xotin-qizlar qo'mitasining raisi xalq ichida «beburd», «va'dasini bajarmaydigan», «o'z so'zi ustidan chiqmaydigan» deb haqoratlaydi. Bundan norozi bo'lgan opa-singil Mahmudovalar mahalla xotin-qizlar qo'mitasining raisini sudga beradilar va suddan 1 million so'm miqdordagi ma'naviy zararni undirib berishlarini so'raydilar. Mahmudovalardan opasi tadbirkor singlisi esa litsey o'quvchisi edi. Sud masalani har taraflama ko'rib chiqib A. Mahmudovaga 800 ming so'm, B. Mahmudovaga 200 ming so'm undirib berdi. Nima uchun sud bir xil haqoratlangan opa-singillarga turli summadagi zarar undirib berilgan?

**Sha'n, qadr-qimmatga yetkazilgan zararlar qanday ko'rinishda undiriladi? Sud ma'naviy zararni undirishda nimalarga e'tibor bergan?**

15. Aksiyalar oldi-sotdisiga qiziqib qolgan Mirolim aksiyalar oldi-sotdisi bilan shug'ullanish uchun ularni amalga oshirayotgan fond birjasiga boradi. Lekin unga fond birjasida faqat vositachilar yordamida oldi-sotdi amalga oshirilishini bildiradilar. Vositachilarga to'lanadigan haqdan qochgan Mirolim vositachilarsiz qimmatli qog'ozlar sotib olishga ruxsat berishlarini so'rab, fond birjasiga murojaat etadi. Fond birjasining rad etish to'g'risidagi javobini olgandan so'ng u sudga murojaat etadi.

**Sud bu masalani qanday hal etadi? Fond birjalarida qanday bitimlar tuziladi? Mirolim fond birjasida mustaqil bitim tuzishi mumkinmi?**

16. Ruhiiy kasal fuqaro Rustamov «Nargis» magazinidan har kuni bitta ruchka sotib olardi. Uning uyida 200 dan ortiq ruchka to'planganida Rustamovning xotini magazin direktoridan barcha ruchkalarni qaytarib olib haqini qaytarib berishni talab qildi. Magazin direktori Rustamov xotini talabini qondirishni rad etdi.

**Bu masala qanday hal qilinadi? Magazin direktori to'g'ri yo'l tutganmi?**

17. Uzoq muddatga safarga ketayotgan Komilovlar oilasi qo'shnisi A. Nomozovga uyiga va mollariga qarab turishni iltimos qilib va buning uchun haqqini to'lashlarini aytib safarga ketishadi. A. Nomozov qo'shnisining mollariga yem-xashak olish maqsadida uning uyidagi ayrim mol-mulklarni sotadi. Safardan qaytib kelgan Komilovlar oilasi sotilgan mol-mulklarni qaytarishni, agar qaytarmasa sudga murojaat etishlarini bildiradilar. A. Nomozov esa mollarga berishga yem-xashak qolmaganligi bois bu ishni amalga oshirganligini, aksincha bo'lganda bunday harakat qilmasligini, kelishuv bo'yicha uning uyiga va mollariga qarab turganligi uchun haq to'lashlarini so'raydi. Ushbu nizo bo'yicha taraflar sudga murojaat qiladilar.

**Bu muammo qanday hal qilinadi? Vakilning harakatlari to'g'rimi?**

18. Fuqaro Mustafoyev 2010-yil 1-mayda chet elga xizmat safariga ketishi munosabati bilan o'ziga qarashli «Matiz» avtomashinasini fuqaro Sunnatovga ijaraga qoldiradi. Undan oyiga 100 000 so'm ijara haqi olib turish uchun fuqaro Shotursunovga ishonchnoma beradi. Fuqaro Mustafoyev 2011-yil 1-noyabrda safardan qaytib keladi va Shotursunovdan o'tgan davr uchun to'langan ijara haqini berishni so'raydi. Shotursunov Mustafoyevga 2010-yil 1-maydan 2011-yil 1-maygacha bo'lgan ijara summasini to'laydi. Biroq Mustafoyev Shotursunovdan qolgan 6 oy uchun ham ijara haqi berishini talab qiladi.

**Ushbu masalani hal qiling.**

19. Fuqaro Mahmudov 2007-yil 7-mayda Asaka shahriga ishlash uchun keta turib uzoq qarindoshi Turopovning uyiga va uy jihozlariga qarab turish uchun joylashtirib ketadi. U 5 yildan so'ng ya'ni, 2012-yil 7-mayda qaytib kelib, o'z uyida mebel, kompyuter va boshqa jihozlar yo'q ekanligini ko'rib, ularni Turopovdan so'raganida, u da'vo muddati o'tib ketdi deb buyumlarni topib bermaydi. Fuqaro Mahmudov sudga murojaat qilib, uy-ro'zg'or buyumlarini Turopovdan olib berishni so'raydi.

**Ushbu masala qanday hal qilinadi?**

20. Fuqaro Fayziev 2005-yil 5-martda fuqaro Mahkamovdan 1 million so‘m qarz oldi. Fuqaro Mahkamov 2006-yil 5-martda qarzni qaytarib berishni Fayzievdan so‘raganida, Fayziev biroz kutib turishni iltimos qildi. 2006-yil fuqaro Mahkamov chet elga ishlash uchun ketdi va u yerdan 2011-yil 5-martda qaytib keldi. Fuqaro Mahkamov qaytib kelgach, Fayzievdan qarzni qaytarishni so‘raganida Fayziev da‘vo muddati o‘tganligini va fuqarolik qonunchiligiga muvofiq, uch yillik umumiy da‘vo muddati o‘tgach olgan qarz summasini qaytarmaslikka haqi borligini aytdi. Fuqaro Mahkamovdan maslahat so‘rab tanish huquqshunosga murojaat qildi. **Mahkamovga maslahat bering.**

21. Uy-joy qurilishi shirkati a‘zosi fuqaro Sobirov kvartira olish uchun pay badallarini shirkatga to‘liq to‘ladi. Sobirov chet elga doimiy yashash uchun ketayotganligi uchun ushbu kvartirani sotmoqchi bo‘ldi va xaridor izladi. Fuqaro Sobirov shirkat rahbariyatiga kvartira unga tegishli ekanligi haqida ma‘lumotnoma berishlarini so‘rab murojaat qilganida unga rad javobini berib, ustav bo‘yicha Sobirovning kvartirasi joylashgan uy-joy shirkatning mulki uni sotish huquqi faqat shirkatga tegishli ekanligi va fuqaro Sobirovga shirkat kvartirani sotgandan so‘ng pulini to‘lashini bildirdi.

**Qurilish shirkatining harakati qonuniymi? Masalani hal eting.**

22. Toshkent Davlat texnika universiteti balansida davolash, sog‘lomlashtirish, madaniyat saroyi, yoshlar oromgohlari, dam olish maskanlari va sport kompleksi bor edi. Toshkent Davlat texnika universitetining bo‘linishi natijasida yangi ikkita oliy ta‘lim muassasasi vujudga keldi. Ularning har biri universitetning mol-mulki o‘zlariniki ekanligi xususida da‘vo qilishdi. Natijada kelishuv komissiyasi tuzildi, lekin ikki tomonlama foydali kelishuvga erishilmadi.

**Ushbu nizoni hal eting.**

23. Davlat tayyorlov idorasi chorvachilik mahsulotlarini qabul qilish bilan shug'ullanar edi. Shu vaqtga qadar u asosan jamoa, davlat xo'jaliklari bilan munosabatda edi. Kunlardan bir kuni xususiy fermer xo'jaligi rahbari o'z mahsulotini davlat tayyorlov idorasiga taklif qilganida u idora tomonidan «Sen xususiy korxonasan», «Sen o'zingga o'xshagan xususiy turdosh korxonalar bilan munosabatda bo'l» degan dashnomni eshitdi.

**Taraflardan qaysi birining talabi haqli? Bu muammo qanday hal qilinadi? Fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining tengligi tamoyili nima? Shartnoma tuzish erkinligi nima?**

24. Fuqaro A. notariusga murojaat etib, fuqaro S.ga tegishli bo'lgan uy-joy (ko'chmas mol-mulk)ga mulk huquqini beruvchi orderni rasmiylashtirib berishni so'radi. Fuqaro A. bunga asos qilib u 25 yil davomida uy-joyga halol, oshkora va uzliksiz egalik qilib kelganligini, fuqaro S.ning vafot etganligi, uning merosxo'rlari yo'qligini ma'lum qildi. Ammo notarius fuqarolik qonunchiligi orqaga qaytish kuchiga ega emasligini bildirib, unga rad javobini berdi.

**Fuqaro A.ning talabi o'rinlimi? Masala qanday hal qilinishi lozim?**

25. Fuqaro N. o'z ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan pishiq g'ishtni o'zi istiqomat qiladigan ko'chaga to'kdi va hech kimga halaqit qilmaydigan holatda taxlab qo'ydi. Biroq qo'shnisi fuqaro M. eski adovati tufayli ushbu g'isht turgan joy ko'chani tor qilib qo'yganligi, agar katta hajmdagi avtomashinalar kirsam, ko'chada harakatlanish yanada xavfli bo'lishini asossiz ravishda bahona qilib, g'ishtni ko'chadan olishni talab qildi. Vaholanki, g'ishtlarni bu tarzda joylashtirganlik uchun mahalla ahli ijobiy fikrda.

**Fuqaro M. bunday harakati bilan N.ning mulk huquqini cheklayaptimi yoki to'sqinlik qilyaptimi? Ushbu holatga oid mulk huquqini izohlang.**

26. Uy-joy qurilish shirkati a'zosi Sobirov kvartira olish uchun pay badallarini to'liq to'ladi. Chet elga doimiy yashash uchun ketayotganligi uchun u kvartirani sotmoqchi bo'ldi va xaridor izladi. Sobirov shirkat rahbariyatiga kvartira unga tegishli ekanligi haqida ma'lumotnoma berishlarini so'rab, murojaat qilganida, unga rad javobini berib, ustav bo'yicha Sobirovning kvartirasi joylashgan uy-joy shirkatning mulki, uni sotish huquqi faqat shirkatga tegishli ekanligi, Sobirovga shirkat kvartirani sotgandan so'ng pulini to'lashligini bildirdi.

### **Shirkat Kengashi harakatlari qonuniymi?**

27. Davlat byudjeti tomonidan ta'minlanadigan muassasa tijorat faoliyati natijasida olingan foyda hisobidan kompyuterlar sotib oldi. Kompyuterlar o'zining darajasiga ko'ra, muassasaga to'g'ri kelmasligi sababli uni sotishga qaror qilishdi va bu haqda matbuotda e'lon berishdi.

Davlat mulk qo'mitasi mazkur e'lon to'g'risida xabar topib, kompyuterlar sotilmasligini, ularni muhtoj bo'lgan boshqa muassasaga qaytarilmaslik sharti bilan berilishini aytdi, qo'mita muassasasi «agar kompyuter sotilsa, davlat byudjetidan beriladigan mablag'larni qisqartirishi»ni bildirdi.

### **Muassasa ushbu holat bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qildi. Ish qanday hal qilinadi?**

28. Davlatboy kechki payt ishdan qaytayotib, yo'lda yotgan uzukni ko'rib qoldi. Uzukni olib, uyiga kelib qarasa, u tilladan yasalgan ekan. Ertasi kuni Davlatboy uzukni tanish zargarga ko'rsatib, narxini surishtirganda, zargar uzukni juda qimmat turishini aytdi. Xursand bo'lib ketgan Davlatboy bu haqda ishxonasidagi do'sti Nazirga aytganida, Nazir unga uzukni topilmalar idorasiga olib borish kerakligini, yo'qsa, qonunda belgilangan javobgarlikka toritilishini aytdi.

### **Davlatboy maslahat so'rab, advokatga murojaat qildi. Unga maslahat bering.**

29. Fuqaro R. o'z jiyani, yagona merosxo'ri fuqaro M.ga o'zining xususiy ishlab chiqarish korxonasini qoldirdi. Fuqaro R.ning o'limidan so'ng bundan xabar topgan M. bu mol-mulkdan voz kechishini aytdi. Bunga sabab qilib, korxonaning umumiy qarzlari korxonaning 2 yillik foydasi va korxonaning tannarxini qo'shib hisoblanganda ham qarzlardan qutulishga yetarli mablag' yo'q, deb ko'rsatdi. Shunda kreditorlar fuqoro M.ni sudga berib, undan meros bo'yicha o'tgan mulk yuzasidan vujudga kelgan huquq va burchlarni amalga oshirishni talab qilishdi.

**Bunday holatda qaysi tomonning harakatlari qonuniy?**

30. Davlat tayyorlov idoralari chorvachilik mahsulotlari qabul qilish bilan shug'ullanardi. Shu vaqtga qadar, asosan, jamoa, davlat xo'jaliklari bilan munosabatda edi. Fermer xo'jaligi rahbari o'z mahsulotini taklif qilganida u idora tomonidan: «Sen xususiy korxonasan», «Sen o'zingga o'xshagan xususiy turdosh korxonalar bilan munosabatda bo'l» degan dashnomni eshitdi.

**Taraflardan qaysi birining talabi haqli? Fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining tengligi tamoyili nima? Shartnoma tuzish erkinligi nima?**

31. Fuqaro A. notariusga murojaat qilib, fuqaro B.ga tegishli bo'lgan uy-joy (ko'chmas mulk)ga mulk huquqini beruvchi orderni rasmiylashtirib berishini so'radi. Bunga asos qilib, u 30 yil davomida uy-joyga halol, oshkora va uzluksiz egalik qilib kelganligi, B.ning vafot etganligi, uning merosxo'rlari yo'qligini ma'lum qildi. Ammo notarius fuqarolik qonunchiligi orqaga qaytish kuchiga ega emasligini bildirib, rad javobini berdi.

**Fuqaro A. ning talabi o'rinlimi? Masala qanday hal qilinishi kerak?**

32. Samarqand shahridagi uylardan birida kvartira bo'shadi. Samarqand shahar hokimiyatining uy-joy boshqarmasi va Davlatobod tumani hokimligi o'rtasida bo'sh kvartirani kim band qilishi va buning uchun order berish to'g'risida nizo kelib chiqdi.



Uy-joy boshqarmasining fikriga ko'ra, uy shahar mulki bo'lib faqat uni shu boshqarma tasarruf eta oladi. Davlatobod tumani hokimligi esa uyni mahalliy hokimiyat mulki deb hisobladi, uni berish tuman hokimligi tomonidan beriladigan order orqali amalga oshirilishi va uy tuman uy-joy tashkiloti balansida turganligini ta'kidladi.

**Bu masala qanday hal qilinadi? Masalani hal eting.**

33. «Karvon» jamoa xo'jaligi boshqaruvi o'z egaligidagi yerlardan bir qismini fuqarolarga, fermer xo'jaliklariga cheklangan tarzda sotib yubordi. Bundan xabar topgan mahalliy davlat hokimiyati organi xo'jalik boshqaruvi qarorini bekor qilish to'g'risida xo'jalik sudiga murojaat qildi.

**Bu masala qanday hal qilinadi? Bunday holatlar qaysi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi?**

34. M. Ahmedova turmush o'rtog'i Ahmedov bilan nikohdan ajratish to'g'risida va ularni umumiy birgalikdagi mol-mulklarini bo'lib berish haqida da'vo arizasi bilan sudga murojaat qiladi. Javobgar o'z arizasida keltirilgan mol-mulklar ro'yxati qatoriga ularga nikoh to'ylarida Ahmedovaning ota-onasi tomonidan qilingan yumshoq mebellar to'plami va xiva gilami borligini ko'rsatadi. Biroq M. Ahmedovaning sudga tushintirishicha, ota-onasi tomonidan sovg'a qilingan buyumlar uning xususiy mulki bo'lib hisoblanishini bildiradi. Yumshoq mebellar va xiva gilami er-xotinlarga nikoh to'yi kunida sovg'a qilinganligi aniqlangan, lekin Ahmedovaning ota-onasi hech qanday hadya shartnomasini rasmiylashtirmagan.

**Sudda ish qanday hal qilinadi?**

35. Nikohdan ajratish vaqtida er va xotin o'rtasida nizo kelib chiqdi. 15 yildan beri davom etgan birgalikdagi turmush davomida oliy ma'lumotli informatik bo'lgan xotin uchun 800 000 so'mga kompyuter sotib olingan. Ilmiy tadqiqot institutida ilmiy xodim bo'lib ishlovchi er o'zining mutaxassisligiga doir bo'lgan 500 000 so'mlik katta kutubxonaga ega bo'lgan.

Er va xotin tomonidan sotib olingan uy-ro'zg'or buyumlari 6 000 000 so'mni tashkil etadi. Bundan tashqari, erning nikoh tuzilgunga qadar meros asosida olgan turar joyi bor. Bu uy avval 5 000 000 so'm turgan bo'lsa, hozirgi kunda u 50 000 000 so'mga baholangan. Er va xotin o'rtasidagi mol-mulk qanday bo'linishi lozim.

### **Masalani hal qiling.**

36. Fuqaro Mansurovning yo'qolgan mol-mulklari ichida tilla soati ham bor edi. Surishtiruv organi tomonidan tilla soat fuqaro Sultonov ismli shaxsning pasporti bilan lombardga garovga qo'yilganligi, lekin u pasportda ko'rsatilgan manzilda yashamasligi aniqlangan. Fuqaro Mansurov soatni qaytarish uchun da'vo qo'zg'atdi. Lombard da'voga qarshilik bildirib, lombard ustaviga ko'ra o'ziga garovga topshirilgan narsalar aynan shu fuqaroga tegishli yoki tegishli emasligini tekshirilmasligini, fuqaro Sultonovdan olingan tilla soat ham tekshirilmaganligini va nihoyat, fuqaro Mansurovga soat qaytarilsa, lombardga iqtisodiy zarar bo'lishini, tilla soatni lombardga topshirgan fuqarodan to'lovni qaytarish mumkin emasligini bildirgan.

### **Bu muammo qanday hal qilinadi?**

37. Davronova va Komilovalar o'zlariga tegishli qimmatbaho tilla uzuklarini fuqaro Saidovaga lombarddan uning evaziga qarz olib turish uchun topshirishdi. Ikkala tilla uzuk ham fuqaro Saidova tomonidan lombardga berildi. Oradan ma'lum vaqt o'tgandan keyin uzuklar Davronova va Komilovalar tomonidan berilgan pul evaziga lombarddan qaytarib olindi. Fuqaro Saidova uzuklarni egalariga qaytarmadi. Shu munosabat bilan Davronova va Komilovalar uzuklarni qaytarish to'g'risida fuqaro Saidovaga nisbatan da'vo qilishdi. Sud vindikatsion da'vo normalari asosida uzuklarning o'zini yoki qiymatini qaytarish to'g'risida qaror qabul qildi.

### **Sudning qarori to'g'rimi?**

38. Ommaviy axborot vositalarida reklama qilingan «Huvaydo» mebellar salonidan fuqaro Shavkatov garnitur sotib oldi. Shartnomaga asosan, fuqaro Shavkatov uning haqini o'z vaqtida to'ladi. Mebellar saloni unga sotib olingan mebellarni bepul o'rnatib berish majburiyatini oldi. Ammo mebelni olib ketgani kelgan fuqaro Shavkatovga mebelni yig'uvchi usta ishdan bo'shab ketganligi sababli bunday xizmatni mebellar saloni ko'rsata olmasliklarini aytishdi. Bu holat shartnomada aks etmaganligi va to'langan pul mebelning o'zining narxi ekanligini ko'rsatib mebelni o'rnatish bilan bog'liq muammoni fuqaro o'zi hal etishini ta'kidlashdi.

**«Huvaydo» mebellar saloni tomonidan qilingan harakatlar to'g'rimi? Fuqaro Shavkatov qanday huquqlarga ega?**

39. Fuqaro Sobirov universitet 2-kursida o'qiydigan qizining tug'ilgan kuniga noutbuk rusumli kompyuterni 1 000 000 so'mga sotib oldi. Kompyuterga firma tomonidan 1 yilga muddat berildi. Sakkiz oydan so'ng kompyuterda nosozlik yuzaga kelib kompyuter ekrani portlashi sababli unda ishlayotgan Sobirovning qizi jiddiy shikastlandi va uning sog'lig'iga zarar yetdi.

**Bu yerda asosiy majburiyat egasi kim, distribyuterning majburiyatlari nimalardan iborat? Iste'molchiga qanday zarar yetkazildi va u qanday qoplanadi?**

40. Fuqaro Aliev «Zarbdor» qurilish firmasi bilan uy qurib berish to'g'risida shartnoma tuzdi. Uyning 50 foizini qurib bitirilgandan so'ng, uyning qolgan qismini o'zi qurib tugatishga qaror qildi.

**Fuqaro Aliev bunday qilishga haqlimi? Haqli bo'lsa qaysi asoslarga ko'ra? Bunday holda fuqaro Aliev qurilish firmasi bilan hisob-kitoblarni qanday amalga oshiradi? Bu yerda «Zarbdor» qurilish firmasining majburiyatlari shartnomada ko'rsatilgan hollarda aniq bajarilgan hisoblanadimi?**

41. O'zbekistonning qadimiy joylari bo'ylab avtobusda uyushtirilgan sayohat davrida avtobus Buxoro shahriga yetib kelganda buzilib qoldi. Natijada Xiva shahrini tomosha qilishga vaqt qolmadi. Sayohatdan so'ng sayyohlar tomonidan sayoxatni uyushtirgan sayyohlik firmasiga e'tiroz bildirildi, ammo hech qanday natijaga erishib bo'lmadi.

**Bu vaziyatda sayyohlik firmasi to'g'ri harakat qilganmi? Sayyohlarning talabi to'g'rimi? Bu sharoitda ularga qanday maslahat bersa bo'ladi?**

42. Fuqaro Saidov 3 oy oldin sotib olingan «Veko» rusumli kir yuvish mashinasini almashtirib berilishini talab qildi. Uning aytishicha, kir yuvish mashinasi kirni yomon yuvayotganligi sababli uni sozlab bo'lmadi. Ushbu holatni kafolat muddatida xizmat ko'rsatadigan ustaxonaning ma'lumotnomasi tasdiqladi. Sotuvchi sotib oluvchining talablariga qo'shilmay, kir yuvish mashinasini kafolatli remont qilib berishni taklif etdi va kir yuvish mashinasini to'liq ta'mirlash uchun ustaxona kafil bo'lishini ta'kidladi.

**Bunday vaziyatda ustaxona kafil bo'la oladimi? Ushbu masalani hal eting.**

43. Fuqaro Abdurahmonov «Osियो» do'konidan Dubayda ishlab chiqarilgan «LG» muzlatgichini sotib oldi. Muzlatgichga do'kon tomonidan bir yil kafolat berildi. Oradan 10 oy o'tgach, muzlatgich buzilib qoldi. Fuqaro Abdurahmonov muzlatgichini kafolat ustaxonasiga kafolat taloniga asosan bepul tuzatish uchun topshirdi. Ustaxonada kerakli ehtiyot qismlari yo'qligi sababli muzlatgichni uch oy muddatda tuzatishdi. Fuqaro Abdurahmonov o'z muzlatgichini olib ketishga kelganda ustaxonada muzlatgichga berilgan kafolat muddati o'tganligini aytib, undan remont uchun haq to'lashni so'rashdi.

**Ushbu vaziyatda ustaxona xodimlarining harakatlari to'g'rimi? Masalani hal qiling.**

44. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish to'g'risida «Fozilov» dehqon xo'jaligi bilan «Ta'minot» qayta ishlab chiqaruvchi xususiy korxonasi o'rtasida shartnoma imzolandi. Shartnomaga muvofiq, «Fozilov» dehqon xo'jaligi kelishilgan miqdordagi pomidorlarni tayyorlashi bilan «Ta'minot» xususiy korxonasi tayyorlab qo'yilgan mahsulotni o'zining transport vositasida olib ketishi kerak bo'lgan. Biroq mahsulot o'z vaqtida olib ketilmaganligi sababli qayta ishlashga yaroqsiz holga keldi.

**Shartnoma majburiyatlari tegishli ravishda bajarilmaganligi uchun qarzdor javobgarlikka tortiladimi? Masala qanday hal etiladi?**

45. Ijaraga oluvchining aybi bilan tovar ombori binosi yong'indan zarar ko'rdi. Ijaraga beruvchi quyidagi zararlarni:

– yong'in natijasida tovar ombori binosining bahosi pasayganligi tufayli olinadigan summa;

– tiklash-ta'mirlash ishlariga ketadigan vaqt uchun ijara haqi;

qurilish tashkiloti smetasiga muvofiq, tiklash-ta'mirlash uchun ketadigan xarajatlar;

– agar ijaraga oluvchi shartnomaga ko'ra, o'z zimmasiga olgan tovar ombori binosini ijaraga beruvchi foydasiga sug'urtalaganda, ijaraga beruvchi olishi mumkin bo'lgan sug'urta summasi undirish bo'yicha da'vo qo'zg'atdi.

**Ushbu holda ko'rsatilgan qaysi summani undirish lozim?**

46. «Zamin» nomli xususiy korxonasi qurilish ishlari bo'yicha boshqa bir tashkilot bilan pudrat shartnomasini imzoladilar. Ish jarayonida «Zamin» korxonasining ish faoliyati shahar hokimiyatining qaroriga muvofiq to'xtatildi. Buning natijasida «Zamin» korxonasi o'z zimmasiga olgan qurilish pudrati shartnomasini bajara olmay qoldi.

**Shahar hokimiyatining qarori majburiyatning bekor bo'lishiga sabab bo'la oladimi? «Zamin» korxonasi**

## **ko'rgan zararini qoplay oladimi? Qaysi vaziyatlarda qarzdorning majburiyatlari qayta tiklanadi?**

47. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berish shart-nomasini imzolagan Alisher Navoiy nomli dehqon xo'jaligi ob-havoning keskin o'zgarishi tufayli kartoshka yetkazib bera olmadi. Dehqon xo'jaligi ob-havoning keskin o'zgarishini oldindan bilmaganligi, biroq hosilni saqlab qolish uchun barcha harakatlarni amalga oshirganligini kreditorga ma'lum qildi. Shartnoma shartlarini bajara olmasligini bildirgan holda, majburiyatlarning bekor qilinishini so'ragan.

**Uning talabi to'g'rimi? Fors-major holatlariga nimalar kiradi? Fors-major holati majburiyatlarning bekor bo'lishiga asos bo'la oladimi?**

48. Fuqaro A. Abdullaev Toshkent – Samarqand tez yurar poezdiga chipta sotib olganida sug'rta polisiga haq to'lashdan bosh tortdi va buni u shartnoma tuzishga majburlash deb e'tirof etdi.

**Fuqaro A.Abdullaevning talabi o'rinlimi? Majburiy shartnoma tuzishga qaysi hollarda yo'l qo'yiladi?**

49. Veko do'koni yonidan o'tib ketayotgan fuqaro Ergashevga do'kon vitrinasida turgan chiroyli chang yutgich ma'qul ko'rindi. Ergashev do'konga kirib, ashyoni yaqindan ko'rgandan so'ng uni sotib olish istagi tug'ildi. U o'z fikrini sotuvchiga aytganida sotuvchi bu tovar bir dona qolganligi u ham bo'lsa vitrinani to'ldirib turganligini aytib, bu tovar sotilmaydi, degan javobni berdi.

**Ushbu holatda taraflarning qaysi birining talabi to'g'ri? Muammoni hal qiling.**

50. Fuqaro Qodirovdan Maqsudov 1 000 000 so'm miqdorida 15 kunlik muddat ichida qaytarish sharti bilan qarz oldi. Umumiy qoida bo'yicha Qodirov Maqsudovga shartnomani yozma ravishda ifodalab qo'yishlarini taklif qildi. Shu ondayoq Maqsudov: «Ey,

do'stim, sen nima deb o'ylayapsan, men aytilgan kundayoq pulni qo'lingga tutqazaman», – deb og'zaki roziligini oldi va taraflar bunga o'zaro kelishgandek bo'ldilar. Belgilangan kun o'tdi, ammo puldan darak bo'lmadi. Qodirov Maqsudovdan pulni talab qilganida, u bunga e'tiborsizlik bilan qaradi. Qodirov ushbu masala yuzasidan sudga murojaat qildi. Sud tergovida Maqsudov shartnoma tuzilayotganida og'zaki kelishishga Qodirovning o'zi rozi bo'lganligini xaspo'shlashga urindi.

**Ish bo'yicha fikringiz qanday? Sukut saqlash aksept bo'la oladimi? Shartnomaning yozma shakli uning og'zaki shaklidan qanday afzalliklarga ega? Agar kelishuv yozma shaklda ifodalanganda jarayon qanday kechardi?**

51. Parkent tumanida boshlang'ich narxi 6 000 000 so'm bo'lgan ko'chmas mulk ochiq auksionga qo'yilib, unda 10 dan ortiq ishtirokchilar qatnashdilar. Sotilish narxi 24 000 000 so'mda to'xtadi. G'olib bilan auksion tashkilotchisi o'rtasida shartnoma kuchiga ega bo'lgan bayonnoma imzolandi. Biroz muddat o'tgandan so'ng, yangi mulkdor sudga murojaat etib, oxirgi summa sotilgan obyektning haqiqiy holatidan ancha «yiroq» ekanligi, sohadan bexabar ishtirokchilarning qatnashuvi tufayli narx «fantastik» sur'atda ko'tarilganligi, yana ayrim subyektiv holatlarni asos qilib, auksion natijalarini bekor qilib, uni haqiqiy emas deb topishni so'radi.

**Masala qanday hal qilinadi? Ko'rsatilgan asoslar shartnomani haqiqiy emas deb topishga yetarlimi?**

52. Yonma-yon joylashgan «Gelios» va «Adolat» firmalari 10 000 000 so'mlik mahsulot yetkazib berish to'g'risida og'zaki shartnoma tuzishdi. Biroq belgilangan muddatda mahsulot yetkazib beruvchi o'z majburiyatlarini bajarmadi. Xaridor sudga shartnoma shartlarini buzganlik uchun mahsulot yetkazib beruvchini mulkiy javobgarlikka tortish va shartnomani natura shaklida bajarishga majburlash haqidagi talab bilan murojaat qildi.

**Xaridor talabi to'g'rimi? Bu shartnoma shartnomalarning qanday turiga mansub va ular qanday shaklda rasmiylashtiriladi?**

53. Fuqaro Ilhomov Toshkent – Samarqand yo'nalishidagi poezdga chipta olganida sug'urta polisiga haq to'lashdan bosh tortdi va buni shartnoma tuzishga majburlash deb baholadi.

**Uning talabi o'rinlimi? Majburiy shartnoma tuzishga qanday hollarda yo'l qo'yiladi?**

54. Xususiy tadbirkor «Zilola» «Navro'z» supermaketiga kelgusida 15 000 000 so'mlik qaymoq yetkazib berish haqida dastlabki shartnomani imzoladilar. Dastlabki shartnomada mahsulot yetkazib berish muddati ko'rsatilmaganligi sababli, xususiy tadbirkor «Zilola» 4 oy muddat o'tgandan so'ng, asosiy shartnomani tuzishdan bosh tortdi.

**Bunday vaziyatda «Navro'z» supermaketi asosiy shartnomani imzolashga «Zilola» firmasini majburlashi mumkinmi? Dastlabki shartnoma tuzilgandan so'ng, qancha muddat ichida asosiy shartnoma tuzilishi kerak?**



## GLOSSARIY

**Fuqarolik huquqi** – O‘zbekiston Respublikasida amal qiluvchi huquq tizimi sohalaridan biri bo‘lib, yuridik jihatdan teng bo‘lgan subyektlar o‘rtasidagi mulkiy va shaxsiy-nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig‘indisi.

**Fuqarolik huquqining predmeti** – fuqarolik huquq normalari bilan tartibga solinadigan yuridik jihatdan teng bo‘lgan subyektlar o‘rtasida yuzaga keladigan mulkiy, shaxsiy-nomulkiy va tashkiliy-huquqiy mazmundagi ijtimoiy munosabatlar.

**Rasmiy sharh** – vakolatli bo‘lgan hokimiyat organlari tomonidan beriladigan va ma‘lum darajada majburiy kuchga ega bo‘lgan sharh.

**Norasmiy sharh** – majburiy kuchga ega bo‘lmagan sharh, masalan, ilmiy asarlarda, darsliklarda, ma‘ruzalarda beriladigan sharhlar.

**Imloviy sharhlash** – imlo qoidalaridan foydalanib, qonunda ishlatilgan ayrim so‘zlar, jumlar, ifodalarning ma‘nosini aniqlash yo‘li bilan huquqiy normalarning mazmuni belgilanadigan sharh.

**Mantiqiy sharhlash** – qonunda ishlatilgan ifodalar, tushunchalar bir-biri bilan ichki, uzviy, mantiqiy bog‘langanligini aniqlaydigan va huquqiy normaning mazmuni belgilanadigan sharh.

**Tizimli sharhlash** – huquq normasining mazmuni, uning huquq tizimida egallagan o‘rnini belgilash va uni boshqa huquqiy normalar bilan taqqoslash yo‘li bilan aniqlanadigan sharh.

**Tarixiy sharhlash** – huquq normasi qanday tarixiy vaziyatlarda qabul qilinganligini belgilash yo‘li bilan aniqlanadigan sharh.

**Imperativ normalar** – ma‘lum bir huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning eklari bilan o‘zgartirilishi mumkin bo‘lmagan, qat‘iy xarakterda bo‘lgan, qat‘iy buyruq beradigan normalar.

**Dispozitiv normalar** – taraflarning o‘z ixtiyorlari bilan to‘ldirilishi mumkin bo‘lgan va shartnomalarda huquqiy

munosabatlar ishtirokchilarining o'zaro kelishuvi bo'yicha tartibga solinishi mumkinligini ko'rsatadigan normalar.

**Fuqarolik-huquqiy munosabat** – shaxslar o'rtasida bo'ladigan va fuqarolik-huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar.

**Fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari** – ushbu huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslar – fuqarolar va tashkilotlar, ya'ni yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan korxonalar.

**Subyektiv huquq** – muayyan huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxsga tegishli huquq.

**Fuqarolik-huquqiy munosabatning obykti** – fuqarolik huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslarning subyektiv huquqlari va majburiyatlari qaratilgan narsalar.

**Muomala layoqati** – yuridik harakatlar qilish, ya'ni qonun bo'yicha ma'lum huquqiy oqibatlar qilish layoqati.

**Yuridik fakt** – huquq normasining kuchi bilan fuqarolik huquqiy munosabat sohasida yuridik oqibatni vujudga keltiradigan real hayotiy holatlar.

**Yuridik fakt tarkibi** – hayotiy holatlar to'g'risidagi talablar huquq normasidan kelib chiqadigan va bu talablar mavjud bo'lganda hayotiy holat yuridik fakt hisoblanadigan va belgilangan yuridik oqibatlarni tug'diradigan hayotiy holat shartlarining yuz berishi.

**Yuridik faktning nuqsoni** (defekti) – huquq normasi talablariga mos kelmaydigan, biroq taqiqlanmagan yuridik faktning biror-bir belgisi, xususiyati, tavsifi.

**Murakkab yuridik tarkib** – jamlashni boshlash yuridik oqibat yuz berishining uchinchi umumiy vositasi – fuqarolik huquqiy munosabat mavjud bo'lishini talab etadigan tarkib.

**Jamoat fondi** – fuqarolar yoki yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zolari bo'lmagan nodavlat notijorat tashkiloti.

**Muassasa** – boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga

oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladigan tashkilot.

**Nodavlat notijorat tashkiloti** – jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti.

**Ishlab chiqarish kooperativi** – fuqarolarning shaxsiy ishtiroki, a'zolar (ishtirokchilar)ning mulki bilan qo'shiladigan pay badallarini birlashtirish asosida birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo'jalik faoliyatini olib borish uchun a'zolik negizidagi ixtiyoriy birlashma.

**Unitar korxon**a – o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot.

**Aksiyadorlik jamiyati** – ustav fondi muayyan miqdordagi aksiyalarga bo'lingan jamiyat.

**Xo'jalik shirkati** – bu shirkat nomidan harakat qiluvchi ikki yoki undan ortiq shaxsning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tuzgan shartnomaviy yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan birlashmasi.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyat** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati.

**Yuridik shaxs** – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan ham o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot.

**Tashkiliy birlik** – yuridik shaxsning huquq subyekti sifatida tashkil bo'lganligini, muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi.

**Mulkiy mustaqillik** – fuqarolik huquqining subyektini bo‘lishi uchun yuridik shaxs hisoblangan har qanday tashkilotning o‘ziga xos mulki bo‘lishi.

**Mustaqil mulkiy javobgarlik** – yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o‘z majburiyatlari yuzasidan o‘ziga tegishli bo‘lgan mulki bilan javob berishi.

**Fuqarolik muomalasida o‘z nomidan harakat qilish** – yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o‘z nomidan huquqiy munosabatlarda qatnashib, turli bitimlar tuza olishi, mulkiy va mulkiy xarakterda bo‘lmagan huquqlarga ega bo‘la olishi va majburiyatlarni vujudga keltira olishi.

**Vakolatxona** – yuridik shaxsning u turgan yerdan tashqarida joylashgan, yuridik shaxs manfaatlarini ifodalaydigan va ularni himoya qiladigan alohida bo‘linmasi.

**Yuridik shaxslarning birlashmasi** – a‘zolik tamoyiliga asoslangan, o‘zlarining tadbirkorlik faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, mushtarak mulkiy manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan notijorat uyushma.

**Tugatish** – yuridik shaxsning huquq va burchlarining huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga o‘tmasdan bekor qilinishi.

**Ixtiyoriy tugatish** – yuridik shaxs ta‘sischilari yoki yuridik shaxs organining qaroriga hamda ta‘sis hujjatlarida belgilangan tartibda o‘z maqsadiga erishganida yuridik shaxs faoliyatini tugatish.

**Majburiy tartibda tugatish** – yuridik shaxsning faoliyatini sudning qaroriga ko‘ra tugatish.

**Tugatuvchi** – ushbu Qonun bilan o‘rnatilgan tartibda tugatilayotgan yuridik shaxsni boshqarish ishlari va vakolatlari o‘tadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Kreditor** – tugatilayotgan yuridik shaxsga mulkiy talab qo‘yish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Debitor qarzdorlik** – tugatilayotgan yuridik shaxsning jismoniy va yuridik shaxslardan qarz summasi.

**Tugatish komissiyasi** – ushbu Qonun bilan o‘rnatilgan tartibda tugatilayotgan yuridik shaxsni boshqarish vakolatlari o‘tkaziladigan organ.

**Tugatish balansi** – tugatilayotgan yuridik shaxs mulkining tarkibi, kreditorlar qo‘ygan talablar ro‘yxati, ularni ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar.

**Tugatilayotgan yuridik shaxs** – ushbu Qonun bilan o‘rnatilgan tartibda ixtiyoriy yoki majburiy tartibda tugatishga qaror qabul qilingan yuridik shaxs.

**Tijorat siri** – uchinchi shaxslarga noma‘lumligi sababli fan-texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, moliya-iqtisodiyot sohalarida hamda boshqa sohalarda tijorat qimmatiga ega bo‘lgan, qonuniy asosda erkin foydalanilmaydigan axborot.

**Tijorat sirining mahfiyligi** – tijorat sirining tarqalib ketishi, oshkor etilishi va undan ruxsatsiz foydalanilishi xavfsizligi ta‘minlanganligi holati.

**Tijorat sirining mulkdori** – tijorat siriga egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etishni amalga oshiruvchi va unga nisbatan tijorat siri rejimini o‘rnatgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

**Konfident** – tijorat sirini uning mulkdori bilan tuzilgan shartnoma asosida egalik qilishga va foydalanishga olgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

**Tijorat sirini oshkor etish** – tijorat sirini tashkil etuvchi axborotning uchinchi shaxslarga bunday axborot mulkdorining yoki konfidentning roziligisiz yoxud mehnat shartnomasi (kontrakt) yoki fuqarolik-huquqiy shartnomaga xilof ravishda, mumkin bo‘lgan har qanday shaklda (og‘zaki, yozma, boshqa shaklda, shu jumladan, texnika vositalaridan foydalangan holda) ma‘lum bo‘lib qolishiga olib keladigan harakat yoki harakatsizlik.

**Tijorat siri rejimi** – tijorat siridan foydalanishni cheklaydigan huquqiy, tashkiliy, texnik va boshqa chora-tadbirlar tizimi.

**Tovar belgisi va xizmat ko‘rsatish belgisi** – bir yuridik va jismoniy shaxslar tovarlari va xizmatlarini boshqa yuridik va

jismoniy shaxslarning shu turdagi tovarlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan belgilar.

**Tovar kelib chiqqan joy nomi** – mamlakat, aholi punkti, joy yoki boshqa jo'g'rofiy obyektning tovarni belgilash uchun ishlatiladigan, uning alohida xususiyatlari tamomila yoki asosan mazkur jo'g'rofiy obyektga xos tabiiy sharoitlar bilan yoki boshqa omillar yoxud tabiiy sharoitlar va ushbu omillarning birikmasi bilan belgilanadigan nomi.

**Tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish** – tovar kelib chiqqan joy nomini tovarda, uning idishi hamda o'rovida, peshlavhalarda, rasmiy blankalarda, reklamada, bosma nashrlarda va tovarni fuqarolik muomalasiga kiritish bilan bog'liq boshqa hujjatlarda ishlatish.

**Bitimlar** – fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlar.

**Konsensual bitim** – huquq va majburiyatlarni o'zaro kelishish va bunday kelishuvni lozim tartibda rasmiylashtirish paytida vujudga keltiradigan bitim.

**Real bitim** – o'zaro kelishuvga muvofiq ashyolar yoki pulni topshirish paytida huquq va majburiyatni vujudga keltiradigan bitim.

**Muddatli bitim** – huquq va majburiyatlarning vujudga kelishi yoki bekor bo'lishi vaqti ko'rsatilgan bitim.

**Shartli bitim** – taraflar o'rtasida tuziladigan bitimning amalga oshirilishi yoki bekor bo'lishi biron-bir shartga bog'lab qo'yilgan bitim.

**Notarial guvohlantirilgan bitim** – belgilangan shaklda notariat xati bo'lgan, notarius tomonidan imzolangan va gerbli muhr bosilgan yozma hujjat.

**Birja** – oldindan belgilangan joy va muayyan vaqtda, belgilangan qoidalar asosida birja savdolarini tashkil etuvchi yuridik shaxs.

**Forward bitimlar** – real tovarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirgan holda xarid qilish va sotishga doir bitimlar.

**Fyuchers bitimlar** – tovarlarga doir standart kontrakt-larning oldi-sotdi bitimlari.

**Opsion bitimlar** – tovarlarni yoki tovarlar yetkazib berish kontraktlarini belgilangan narxlar bo'yicha kelgusida xarid qilib olish yoki sotish huquqlariga doir oldi-sotdi bitimlari.

**Birja bitimi** – birja tomonidan ro'yxatga olingan birja tovari xususida birja savdosining birjada qayd etilgan natijasi bo'yicha tuzilgan oldi-sotdi shartnomasi.

**Vakillik** – bir shaxsning ikkinchi shaxs nomidan yuridik harakatlarni amalga oshirishi.

**Vakolat** – vakilning boshqa shaxs nomidan muayyan yuridik harakatlar qilishga va shu bilan u uchun huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishga qaratilgan huquq.

**Ishonchnoma** – bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun beriladigan yozma vakolat.

**Mulkdan foydalanish huquqi** -mulkdan foydalanish-mulkning foydali xususiyatlarini olish, mulkdan iqtisodiy ma'noda foydalanish.

**Mulknı tasarruf etish huquqi** – mulkni tasarruf etish huquqi-mulkning yuridik taqdirini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan huquq (harakat)dir.

**Mulk huquqining obyektlari** – mulk sifatida o'zlashtirilgan, o'zgalarga tegishli bo'lmagan barcha narsalar.

**Davlat tasarrufidan chiqarish** – davlat korxonalarini va tashkilotlarini jamoa, ijara korxonalariga, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlariga, davlatga qarashli mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirish.

**Xususiy lashtirish** – jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki obyektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olish.

**Xususiy mulk huquqi** – shaxsning qonunchilikka muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi.

**Xususiy mulk huquqining subyektlari** – fuqarolar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va davlatga qarashli bo‘lmagan boshqa yuridik shaxslar.

**Majburiyat huquqi** – mulk topshirish, ishlarni bajarish, xizmat ko‘rsatish yoki pul to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan fuqarolik huquqiy normalar yig‘indisi.

**Majburiyat subyektlari** – muayyan huquqlarga ega bo‘lgan va zimmasiga majburiyat olgan shaxslar.

**Qaytarma (regress) majburiyat** – bir tarafni ikkinchi taraf uchun uchinchi shaxs oldida bajargan majburiyatini qaytarish to‘g‘risida talab qila olish huquqi.

**Majburiyatning bajarilishini ta‘minlash** – qarzdor tomonidan olingan va uning zimmasida bo‘lgan vazifani bajarishga majbur qiladigan chora.

**Neustoyka** – qonunchilik yoki shartnoma bilan belgilangan qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to‘lashi shart bo‘lgan pul summasi.

**Garov** – bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo‘lgan huquqiy majburiyatlarni ta‘minlash uchun berishi.

**Zakat** – shartnoma tuzayotgan taraflardan biri shartnomaning tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini ta‘minlash yuzasidan beradigan pul summasi.

**Shartnoma** – ikki yoki undan ortiq shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan o‘zaro kelishuv.

**Ta‘sis shartnomasi** – muassislar tomonidan tijorat, notijorat yuridik shaxsni yoxud yuridik shaxslar uyushmasini tuzish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ustav fondini shakllantirish, faoliyatni tashkil etish va uni boshqarishda qatnashish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik qilish to‘g‘risidagi kelishuv.

**Aksiya** – o‘z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi,



amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz.

**Axborotni oshkor qilish** – qimmatli qog'ozlar bozorida manfaatdor shaxslarning axborotni qaysi maqsadda olishidan qat'i nazar, mazkur axborotdan uning topilishi va olinishini kafolatlaydigan shakllarda foydalanishini ta'minlash.

**Veksel** – veksel beruvchining yoxud vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz.

**Davlat qimmatli qog'ozlari** – O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari.

**Vasiylik** – o'n to'rt yoshga to'lmagan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli.

**Homiylik** – o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek, sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli.

**Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs** – o'ziga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxs.

**Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar** – alohida g'amxo'rlikka, shuningdek, o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj bo'lgan yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, ota-onalik huquqidan mahrum etilmagan ota-onasi bo'lgan hamda bolalarning hayoti yoki sog'lig'iga bevosita

tahdid tug'dirayotgan yoki ularning ta'minoti, tarbiya va ta'lim olishiga doir talablarga javob bermaydigan sharoitda yashayotgan bolalar, sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylikka muhtoj bo'lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolar, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan fuqarolar.

## I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak / Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: «O'zbekiston», 2017. – 104 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz / O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: «O'zbekiston», 2016. – 56 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 48 b.

## II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: – T.: O'zbekiston, 2021.

2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T: Yuridik adabiyotlar publish, 2022.

3. O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 19-noyabrdagi «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi 425–XII-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1992-yil. 1-son. 43-modda.

4. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-

huquqiy bazasi to'g'risida»gi 670–I-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1998-yil. 9-son. 170-modda.

5. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda  
«Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi 717–I-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-yil, 1-son, 8-modda.

6. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda  
«Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi 308–II-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. 2002-yil. 1-son, 8-modda.

7. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda  
«Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat to'g'risida»gi 310–II-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. 2002-yil. 1-son, 10-modda.

8. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda  
«Xususiy korxonalar to'g'risida»gi 558–II-sonli Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, 1–2-son, 8-modda.

9. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 18-sentyabrda  
«Firma nomlari to'g'risida»gi O'RBQ–51-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-yil, 37–38-son, 370-modda.

10. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 22-dekabrda  
«Rieltorlik faoliyati to'g'risida»gi O'RBQ–269-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-yil, 51-son, 480-modda.

11. O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 4-oktyabrda  
«Kredit axborot almashinuvi to'g'risida»gi O'RBQ–301-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-yil, 40-son, 412-modda.

12. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 6-yanvarda  
«Raqobat to'g'risida»gi O'RBQ–319-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-yil, 1-son, 5-modda.

## I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak / Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: «O'zbekiston», 2017. – 104 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz / O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: «O'zbekiston», 2016. – 56 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 48 b.

## II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: – T.: O'zbekiston, 2021.

2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T: Yuridik adabiyotlar publish, 2022.

3. O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 19-noyabrdagi «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi 425–XII-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1992-yil. 1-son. 43-modda.

4. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-

huquqiy bazasi to'g'risida»gi 670–I-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1998-yil. 9-son. 170-modda.

5. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda  
«Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi 717–I-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-yil, 1-son, 8-modda.

6. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda  
«Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi 308–II-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. 2002-yil. 1-son, 8-modda.

7. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda  
«Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat to'g'risida»gi 310–II-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. 2002-yil. 1-son, 10-modda.

8. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda  
«Xususiy korxonalar to'g'risida»gi 558–II-sonli Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, 1–2-son, 8-modda.

9. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 18-sentyabrda  
«Firma nomlari to'g'risida»gi O'RBQ–51-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-yil, 37–38-son, 370-modda.

10. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 22-dekabrda  
«Rieltorlik faoliyati to'g'risida»gi O'RBQ–269-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-yil, 51-son, 480-modda.

11. O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 4-oktyabrda  
«Kredit axborot almashinuvi to'g'risida»gi O'RBQ–301-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-yil, 40-son, 412-modda.

12. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 6-yanvarda  
«Raqobat to'g'risida»gi O'RBQ–319-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-yil, 1-son, 5-modda.

13. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi O'RQ-327-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-yil, 17-son, 188-modda.

14. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-yil, 18-son, 201-modda.

15. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 24-sentyabrdagi «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi O'RQ-336-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-yil, 39-son, 446-modda.

16. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 2-yanvardagi «Vasiylik va homiylik to'g'risida»gi O'RQ-364-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil, 1-son, 1-modda.

17. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'RQ-370-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil. 19-son, 210-modda.

18. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 12-sentyabrdagi «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-375-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil, 38-son, 481-modda.

19. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risida»gi O'RQ-483-sonli Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.07.2018-y., 03/18/483/1482-son.

20. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi «Bank va bank faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-580-sonli Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2019-y., 03/19/580/3994-son.

21. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi O'RQ-682-sonli

Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son.

22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-iyundagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ–380-sonli Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.06.2021-y., 09/21/380/0574-son; 10.08.2022-y., 09/22/438/0726-son.

23. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi O'RQ–701-sonli Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2021-y., 03/21/701/0674-son.

24. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi «Sudlar to'g'risida»gi O'RQ–703-sonli Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 03/21/703/0723-son.

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF–4725-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-yil, 20-son, 251-modda.

26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoyishi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.04.2019-y., 08/19/5464/2891-son.

27. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentyabrdagi 269-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida»gi Nizom // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil, 39-son, 490-modda.

### **III. Maxsus adabiyotlar:**

1. Baratov M.X. Davlat – fuqarolik huquqining subyektivi sifatida. – T.: TDYuI, 2007.

2. Baratov M.X. Mulk huquqi. – T.: TDYI, 2009.



3. Белов В.А. Гражданское право: Общая часть: Учебник. – М.: АО «Центр ЮрИнфоР», 2002.
4. Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право: Общие положения. – М.: «Статут», 1998.
5. Вагацума С., Ариидзуми Т. Гражданское право Японии. – М., 1983.
6. Гражданское право. Часть первая / Под.ред. А.Г. Калпина, А.И. Масляева. – М.: 2002.
7. Гражданское право: Учебник / Под.ред. С.П. Гришаева. – М.: Юрист, 2004.
8. Гражданское право: Учебник. В 2 т. / Под ред. Е.А. Суханова. – М.: БЕК, 2000. – Том 1.
9. Гражданское право: Учебник: Т.2./Отв. ред. А.П. Сергеев, Ю.К. Толстой. – М.: Проспект, 2004.
10. Де ла Морандьер Л.Жюлио. Гражданское право Франции. – М., 1993.
11. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. – Т: TDYuI, 2006.
12. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. – Т: TDYuI, 2009.
13. Zokirov I.B., Oquulov O., va boshqalar Shartnoma huquqi. – Т., TDYuI, 2006.
- 14.Иванова Е.В. Гражданское право. Учебник. М., Книжный мир. 2011.
- 15.Кашанина Т.В. Корпоративное право. Учебник для вузов. – М.: Издательская группа НОРМА-ИНФРА – М, 1999.
- 16.Крассов О.И. Право частной собственности в США. //Государство и право.1993. – №2. – С. 97–105.
- 17.Новицкий И.Б. Римское право. Учебник. – М., Кнорус, 2011.
- 18.Пиляева В.В. Гражданское и торговое право Японии. – М., 2001.
19. Rahmonqulov H.R. Majburiyat huquqi (umumiy qism). Darslik. – Т., TDYuI, 2005.

20. Rahmonqulov H.R. Fuqarolik huquqining subyektlari. O'quv qo'llanma. – T: O'zbekiston, 2008.
21. Рахманкулов Х.Р. и другие. Гражданское право. – Т., ТГЮИ, 2010.
22. Rahmonqulov H.R. Fuqarolik huquqi muammolari. Darslik. – T., TDYuI, 2010.
23. Rahmonqulov H., Ro'zinazarov Sh., Oqyulov O., Azizov X., Imomov N. Xususiy mulk obyektlarining huquqiy maqomi. –T., O'zbekiston. 2007.
24. Rahmonqulov X.R. Fuqarolik huquqining predmeti, metodi va tamoyillari. – T., TDYuI, 2003.
25. Rahmonqulov H.R., Gulyamov S.S. Korporativ huquq. – T., TDYuI. 2007.
26. Ro'ziev R.J., Topildiev V.R. Fuqarolik huquqi. – T., Cho'lpon. 2011.
27. Rahmonqulov H.R. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. I jild. – T.: «Vektor-Press» 2010.
28. Тихомиров Ю.А. Публичное право. – М.: 1995.
29. Шап Ян. Основы гражданского права Германии. – М., 1996.

V.R. TOPILDIEV

# FUQAROLIK HUQUQI

UMUMIY QISM

DARSLIK

«Yuridik adabiyotlar publish» MCHJ.

Nashr. lis. AA № 0042, 27.01.2020.

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,  
Muqimiy ko'chasi, 100/25.

Telefonlar: +99899 554-70-70,  
+99893 554-63-70.

Rasmiy veb-sayt: [www.kodeks24.uz](http://www.kodeks24.uz)

Elektron manzil: [info@kodeks24.uz](mailto:info@kodeks24.uz)

Bosishga ruxsat etildi 21.11.2022-y.

Qog'oz bichimi 60x90 1/16.

«Antiqua» garniturasi.

Ofset usulida chop etildi.

Bosma tabog'i 37,0.

Nashriyot hisob tabog'i 33,25.

Adadi 1000 nusxa. 032-buyurtma.

«MasterBooks» MCHJ bosmaxonasida  
chop etildi. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Xushtepa ko'chasi, 22-a.



<https://t.me/yuridikadabiyotlar>



**Yuridik  
Adabiyotlar  
Publish**

